

Alisher Navoiy

HAYRAT UL-ABROR



Toshkent—2006

Boqiy satrlar

Alisher Navoiy

HAYRAT UL-ABROR



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2006

Boqiy satrlar

Alisher Navoiy



HAYRAT UL-ABROR

Nasriy bayoni bilan

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2006

84(50)1
N 14

Узб: 2426, 2 сарнари

Tahrir hay'ati: Aziz Qayumov, **Abduqodir Hayitmetov**,
Abdurashid Abdug'afurov, Najmiddin Komilov, Vahob Rahmonov

To'plab nashrga tayyorlovchi: Aziz Qayumov

Porso Shamsiyev tuzgan ilmiy-tanqidiy matn asosida dostonni nashrga
tayyorlovchi: Vahob Rahmonov

Dostonning nasriy bayoni matnini tayyorlovchi:


Abduqodir Hayitmetov

Navoiy, Alisher.

N 14 Hayrat ul-abror/Alisher Navoiy: To'plab nashrga tayyorlovchi:
Aziz Qayumov. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi. 2006. — 392 b. — (Boqiy satrlar.)

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy «Xamsa»sining birinchi dostoni «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati») beshlik yaratish an'analari asosida yaratilgan falsafiy ruhdagi asar bo'lib, unda muallifning hayot va insoniyat, davr va zamonlar, mashhur tarixiy shaxslar, saltanatlar va vorislik, avliyolar va komil insonlar to'g'risidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Dostonning asl matni va uning mukammal nasriy bayoni (turli qisqarishlari tiklangan holda) nashr etilayotganidan zukko kitobxonlar albatta mamnun bo'ladilar, degan umiddamiz.

BBK 84(5Y)1



N 4702620101-92 2006
M352(04)-2006

ISBN 5-635-02401-7

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006-y.

EZGULIK VA KAMOLOT SABOQLARI

U irot 1483-yil. Xuroson mamlakatining poytaxti bo'lgan bu shahar butun Sharq va G'arb mamlakatlarida katta madaniy va ilmiy markaz sifatida dong taratgan. Bu madaniy ko'tarilishning ilhomchilari, tashkilotchilari o'z ijodiy faoliyati bilan shu madaniyat taraqqiyotiga ulkan ulush kiritgan ijodkorlar ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy va forsiyazabon adabiyotning buyuk arbobi Abdurahmon Jomiylar edi. Bu ikki mumtoz shoir va mutafakkir o'rtasidagi do'stlik, maslakdoshlik, ijodiy hamkorlik jahon adabiyotining faxru iftixori hisoblangan yirik badiiy asarlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgani ilm ahliga yaxshi ayon. O'sha yili ulug' zot Jomiy va Navoiy Jomiyning Madrasai Qudsdagi hujrasida suhbat qurdilar. Odatdagidek suhbat mavzui she'riyat, ulkan she'riy asarlar to'g'risida edi. Nizomiy va Xusrav besh dostonidan iborat «Xamsa» asarini yaratishgan. Uch yuz yildan beri bu asarlar «Xamsatayn» («Ikki Xamsa») nomi bilan shuhrat topgan. Avlodan avlodga o'tib sevib o'qilib kelmoqda.

Gavhare yo'q «Maxzan ul-asror»dek,
Axtare yo'q «Matla' ul-anvor»dek.

Bu baytda Nizomiy va Xusravning shu ikki kitobi to'g'risida so'z bormoqda. Navoiy va Jomiyning bundan keyingi uchrashuvida ustoz Jomiy ochiq chehra va mamnuniyat bilan javondan bir kitobni olib Navoiyga uzatdi. Navoiy endigina muqova qilingan qo'lyozmani ustoz qo'lidan oldi, boshiga ko'tarib ko'ziga surtdi. Shundan so'ng bu kitobni ochdi va uning nomini o'qidi.

Boshdin-oyoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar: «Tuhfat ul-ahror» edi.

Demak, o'tmishning mumtoz adiblari Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarga o'xshatma (tatabbu') qilib Jomiy bu asarini yaratgan. Navoiy ustoz Jomiyning yangi asarini o'qib chiqqach, yuragiga g'ulg'ula tushdi. Ustozlar o'z asarlarini forsiy tilda yozganlar. Navoiyda o'z ona turkiy (eski o'zbek) tilida shunday bir asar yaratib, bu tafakkur durdonalaridan o'z xalqini bahramand etmoq ishtiyog'i tug'ildi. U ustoz Jomiyning bu xayrli ishga duosini oldi. Navoiy o'sha yiliyoq shu o'ylagan rejasini amalga oshirdi. Navoiy o'z asarini «Hayrat ul-abror» deb atadi.

Hayrati abror ko'rib zotini
«Hayrat ul-abror» dedim otini.
Nuktai tarixiki, ahsan edi
Sekkizu sekiz yuzu seksan edi.

Ma'nosi:

Yaxshilarni hayron qoldiruvchi ekanidan
«Hayrat ul-abror» deb ot qo'ydim.
Yozilish ta'rixi «Sakkiz yuzu sakson sakkiz» deyildi.
(888 hijriy yili melodiy hisobda 1483-yil bo'ladi).

Shunday qilib, Navoiy «Xamsa»sining birinchi kitobi «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati») vujudga keldi.

Ibrohim Adham molu davlatdan voz kechdi. U har qadamda namoz o'qib, o'n to'rt yil dashtu sahro kezib Makka tavofiga yetib keldi. Lekin Baytul haram o'z o'rnida yo'q edi. Ka'ba bir mo'tabar ayol ziyoratiga ketgan ekan. Bu ayol Robia edi. Robia Ibrohimga dedi:

Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva menga arzi niyoz (duo, salom) aylamak.

Demak, sidqi dil bilan duo va salomlar qilish, har qadamda namoz o'qish Makka ziyoratiga yetmoqdan samaraliroqdir. Shoir xulosa qilib yozadi:

Boqma Navoiy yana noz ahlig'a,
Arzi niyoz ayla niyoz ahlig'a.

Yigirma maqolatdan iborat «Hayrat ul-abror»ni o'zbek tilidagi ezgulik va insoniy barkamollik saboqlari to'plami deb atalsa bo'ladi.

Kirish qismidagi munojot va na'tlarda Navoiy o'z insonsevarlik g'oyalarni to'la-to'kis ifoda etgan. Ularda Yaratuvchining buyukligi va go'zalligi kuylanadi. Bu go'zallik va buyuklikni o'zida aks ettiruvchi ko'zgulalar – tabiat, koinot va insonning tavsifi qilinadi.

«Hayrat ul-abror»ning avvalgi maqolatida Navoiy imon tushunchasiga sharh beradi. Inson deb ataluvchi zotga sabr, shukr va hayo xosdir. Yana u imonning olti shartiga rioya qilmog'i ham kerak. Ular quyidagilar: «Bilmak erur haqniki mavjud erur». Ya'ni xudoning borligiga ishonmoq; Nafsning tiqilinchidan pok bo'lmish malaklarni bilmoq; osmoniy kitob «Tengri so'zi bil barisi begumon»; payg'ambarlarga ishonch, ularning eng ulug'i va go'zali «nabiyi Abtahiyy (ya'ni Muhammad payg'ambar)dir.

Xatm — anga oyini risolat tamom,
Din aning islomi-yu bas, vassalom.

Yavmul hisob (qiyomat) kunini bilmoq; Hadisi qadarga rioya qilmoq. Shundan so'ng shoir Boyazid va uning muridi suhbatlari orqali bunday xulosani bayon etadi:

Bo'lmasa imon bila ketmak ishi,
Anglaki, oni desa bo'lmas kishi.

Shoir ikkinchi maqolatni islom tavsifiga bag'ishlagan. Unda besh muborak ishonch va amal to'g'risida so'z boradi. «Avvali «Illalloh» ila «lo iloh»; «Yona Muhammadni anga bil rasul». So'ngra «adoyi salat; ya'ni namoz o'qish; uchinchi farz «adoyi zakot» – «Berguchi gar bor esa sohib nisob qirq diramdin birin aylab hisob». So'ng – savm-ro'za tutmoq; «ziyorati baytil haram» (haj qilish).

Maqolatlar imon va islomning ta'rifi bilan boshlangan. Shundan so'ng uchinchi maqolatda shohlik va uning qoidalari to'g'risida so'z boradi. Navoiy shohga xitoban deydiki, u barcha bandalar qatori oddiy bir insondir. U hatto unga tobe' bo'lgan ayrim kishilardan ma'naviy jihatdan quyi ham turadi.

Bil munikim, sen dag'i bir bandasen
Ko'pragidin ojizu afkandasen...
Lek hunar ichra, kamol ichra ham,
Xulqi xushu lutfi maqol ichra ham.
Ham ravishu adlu ham insof aro,
Hilmu hayou bori avsof aro.
Sen tushubon yo'l nahajidin yiroq,
Ko'pragi sendin yurubon yaxshiroq.

Shuning uchun podshoh boshqalarni tuprog'u o'zini nuri pok deb hisoblamasin. U zulmni to'xtatib, o'z xatolariga tavba qilib uzr so'rasin, birovga zulm qilgan bo'lsa uning qo'lidan tutib, ko'nglini ko'tarsin.

Zulmni tark aylavu dod aylagil,
Marg kunidin dog'i yod aylagil.
Sahvunga de uzr tavahhum bila,
Zulmdin et tavba tazallum bila.
Kimniki, bedoding etibdur asir,
Bo'l anga adl ilgi bila dastgir.

To'rtinchi maqolatda shoir din nomini sotib, diniy tushunchalardan suiiste'mol etib, molu davlat yig'moqqa hirs qo'ygan «riyoyi xirqapo'sh» (aldov va yolg'onchilik choponini kiygan) tovlamachi, qalbaki shayxlarni qattiq tanqid qiladi. Navoiyning yozishicha, «Bu el erur barcha yomondin yomon, kimki yo'q andin yomon, ondin yomon».

Navoiy bunday riyokor yolg'onchilarga sof e'tiqod egasi bo'lgan haqiqiy dindor va murshid Xoja Abdulloh Ansoriy kabi zotlarni qarama-qarshi qo'yadi. Ularning xolis, beg'araz, chin yurakdan tangri yo'lida sobitqadam ekanliklarini ibrat qilib ko'rsatadi.

Beshinchi maqolat karam vafida. Oltinchi maqolat adab, yettinchi maqolat qanoat kabi fazilatlarining ta'rif va tashviqiga bag'ishlangan. Navoiy karam, saxovat to'g'risida so'zlar ekan, har narsada bo'lganidek, bunda ham me'yori bo'lmog'i kerakligini ta'kidlaydi.

Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun,
Naqd etak birla mubohot uchun.

Aql hisobidin erur bas yiroq,
Buxl bu judungdin erur yaxshiroq.
Bo'ldi bu ish mast ila majnun ishi,
Mast ila majnun nega bo'lg'ay kishi.

Saxovat va karamda ibrat bo'luvchi odam hech qachon molu davlat
tama' qilmaydigan odamdir.

Oni saxiy anglagil, ey hushmand,
Kim ani davlat qilibon sarbaland.
Holi agar yaxshidurur, gar taboh
Kimsadan etmas tama'i molu joh...
Bahrg'a yetsa tilamas shabname,
Zaxmi ko'rsa ayamas marhami.
Mustahiqe chun talab izhor etar,
Ulchaki, maqduridur isor etar...

«Hayrat ul-abror»da Navoiy vafo, ishq, rostlik mavzularidagi fikrlarini sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi maqolatlarda izhor etgan. O'n birinchi maqolatni esa «Ilm osmonining yuksaklikda porlovchi yulduzlarini jahl tunini yorutmoq uchun quyosh, oy va kunduz kabi» xizmat qilishlarini yozadi.

Ayni zamonda shoir ilm ahlining mansab va molu davlatga befarq bo'lmog'ini talab qiladi. Agar olim kishi joh (amal, martaba, molu davlat)ga erishmoq uchun o'zini tubanlashtirsa, uning ilmi johilligining nishonasidir, deb yozadi.

Ilmni kim vositai joh etar,
O'zini-yu xalqni gumroh etar.
Olim agar joh uchun o'lsa zalil,
Ilmi aning jahlig'a bo'lg'ay dalil.

Navoiy hamisha elu yurtga, odamlarga g'amxo'r va mehribon bo'lmog'ini tashviq etar edi. Dunyoda «yomon ko'prak emish, yaxshi oz. Lekin dunyo chamani inson guli uchun yaratilgan». Shuning uchun hamisha insonlarga ham amal, ham so'zda yaxshilik qilib yashamoq kerak.

Ko'ngli kishi xushlug'idin xush kerak,
Noxush agar bo'lsa, mushavvash kerak.
Odamiy ersang demagil odami,
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Ana shunday hikmatlar o'n uchinchi maqolatning mazmunini tashkil etadi.

Falak, taqdir kishiga shunday kunlar keltiradiki, odam bolasi bu mushkulot oldida goho gangib qoladi. Ammo shuni unutmazlik kerakki, umr doimiy emas. U olam buyukligi qarshisida oz bir fursat, bir lahza xolos. Bugun taxt ustida davlat surgan kimsa ertaga taxta ustida cho'zilib yotadi («Kimniki, taxt uzra qilur arjumand, taxta uza oqibat aylar najand».) Shuning uchun umrni ezgulikka bag'ishlab, odam-

larga yaxshiliq qilishga sarf etib ulgurib qolmoq kerak. Jahonni egallagan Iskandar u vafot etganida qabrga eltayotib qo'lini tobutdan tashqariga chiqarib qo'yishni vasiyat qilgan ekan. Tokim butun dunyoni o'z tasarrufiga kiritgan bu qo'lning dunyodan quruq ketayotganini hamma ko'rsin va ibrat olsin.

O'n to'rtinchi maqolatda ana shu fikrlar o'z izhorini topgan.

Xuroson mamlakatida Sulton Husayn Boyqaro hukmronligida barqaror bo'lgan davlat goho turli-tuman feodallar, mahalliy hukmronlarning markazga bo'ysunmay qilgan sarkashliklaridan larzaga kelar edi. Navoiy o'n oltinchi maqolatda ana shunday yirik feodallardan biri to'g'risida qattiq tanqidiy fikrlar aytadi. Uning markazga bo'ysunmaslikka intilayotgani, Sultondan o'ziga yana qo'shimcha yer va davlat talab qilayotganini qoralaydi. Ayni zamonda shoir Sultonni bunday buzg'unchilarga yon bermaslikka undaydi.

Xossaki, bir johili dunu taboh,
Jahdu jid etgay tilab o'ziga joh.
Minnatiga aylasa shoh iltifot,
Haq karamidin anga yuz ming uyot!

Navoiy inson hayotining go'zal va mazmundor bo'lmog'ini tilar edi. U har doim kishilarga hayotni qanday kechirmoq to'g'risida pandu o'gitlar berar, ularning ko'nglini ko'tarmoqqa, ularda hayotni ulug'lash va qadrlash tuyg'ularini tarbiyalashga intilar edi. Turli illatlardan qutulmoqqa chaqirardi. Shunday illatlardan biri ichkilikhozlikdir. «Hayrat ul-abror»ning o'n beshinchi maqolati shahrobxo'rlikka berilgan kimsaning ayanchli ahvolini ko'rsatadi, bu nuqsonning insonga zararini ochib beradi. Tabiat va inson hayotini uning gullab-yashnab kamol topgan paytidan boshlab to qurib xazon bo'lganigacha tasvirlar ekan, Navoiy har bir kishiga umr muhlatlarini qanday kechirmoq to'g'risida butun boshlik bir nizom tuzib bergan:

Umr kunin qismat etibdur qazo,
Har chog'i bir ishga qilur iqtizo.
O'ng'acha g'aflat bila pobastliq,
Jahl yigirmigachau mastliq.
O'ttuzu qirq ichra erur ayshu kom,
Vahki, manga ul dog'i erdi harom.
Qilmadi ellikda taraqqiy kishi,
Oltmishu borcha tanazzul ishi.
Yetmish aro vojib erur turmog'ing,
Sekson aro farzdur o'lturmog'ing.
To'qson agar bo'ldi yiqilmoq kerak,
Yuz aro jon tarkini qilmoq kerak.

Inson hayoti turli-tuman kulfat va mashaqqatlarga to'la. Odam bolasi ularga tob-toqat, chidam va matonat bilan yondoshmog'i shart. Chunki u yashamoq singari buyuk qismatni qadr qilmog'i, unga ilashgan turli noxushliklarni sabr va mardlik bilan kechirmog'i kerak. O'n sakkizinchi maqolatda shunday deydi:

Bo'lsa g'aming joninga solma alam,
Bir g'am erur, bas, yemagil ikki g'am...
Necha jafu yetsa falakdin unut,
Har nechakim kulliy erur, sahl tut...
Shod ani bil dahrda kim g'am yemas,
Dahr ishi chun g'am yegali arzimas.
Chunki jahon bog'i vafosizdurur,
Umr guli anda baqosizdurur.

Navoiy o'zi tug'ilgan Hirot shahrini juda sevar edi. Yana u davlat arbobi sifatida Xuroson mamlakatining taraqqiy topishi, unda tinchlik va farovonlikning o'rnatilishiga ko'p harakat qilgan. Bularning qanchalar amalga oshgan-oshmaganidan qat'i nazar, Navoiyning o'z vataniga muhabbati, uning obodligi uchun qilgan xizmatlari ayon tarixiy haqiqat. «Hayrat ul-abror»ning o'n to'qqizinchi maqolati ana shu Hirot va Xuroson tavsifiga bag'ishlangan.

Xuroson go'zallikda jannat bog'laridan ham ko'rkamroq. Uning go'zal shaharlari ko'p, tog'lari falakka yuksaladi, ularning bag'ri konlarga to'la. Ekinzorlari sabzavor, dashtlari oyinasimon. Ana shu o'lkaning yuragi Hirotidir. Hirotning arki to'qqiz falakdan ustun. Bozorlari to'rt tarafga joylashgan, ular tovar bilan liq to'lgan.

Shaharning mahallalari ko'p. Ularning har biri bir shahar singari.

Bog'lari har biri jannat misol,
Ravzaga har go'shasidin go'shmol...
Haddi shimoliysi sori ikki nahr,
Ul ikidin xurramu serob shahr...

Yigirmanchi maqolatda Navoiy shahzoda Badiuzzamonga nasihatlar qiladi. Unda shohning adolatparvarligi mamlakat obodligiga olib kelishi aytilgan.

Navoiy uqdiradiki:

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar.
Kofiri odil ani obod etib,
Mo'mini zolim ani barbod etib.
Zulm o'tidin qilsa fig'on dodxoh,
Soyai adling aro bergil panoh.
Bok yo'q ar kechroq o'lur qatil ishi,
O'lsa so'zung birla tirilmas kishj.

Bu maqolatdagi shunday oqilona o'gitlar farzandning o'z otasiga izzat-hurmatda bo'lmog'i zarurligi haqidagi pandlar bilan yakunlangan. Bundan maqsad mamlakatning tinch va osuda hayotini ta'minlashdir.

Zoda murid u otani pir bil,
Har ishida hukmiga ta'sir bil.
Bo'lma bu pir ollida taqsirliq,
Istar esang davlat ila pirlig.

Navoiy o'z «Xamsa»sining birinchi kitobi «Hayrat ul-abror»da ezgulik, xayr, odamiylik qoidalarini birma-bir bayon etib chiqqan. Ular izhorida biror mayda-chuydani ham diqqatdan chetda qoldirmagan. Kim bu pandu o'gitlarga amal qilsa, u komil inson bo'ladi. Ana shunday yuksak xulqli a'zoldan tashkil topgan jamiyat esa barkamol jamiyat bo'ladi.

Navoiyning orzu-umidi shu edi. Ana shu yuksak maqsad va oliy ideallarga u o'z ijodini bag'ishladi va abadiy barhayotlikka erishdi.

Aziz Qayumov



HAYRAT UL-ABROR

I

Bismillohir-rahmonir rahim,
Rishtag'a chekti necha durri yatim.

Har dur anga javhari jondin fuzun,
Qiyamat aro ikki jahondin fuzun.

Rishtasi xud iqdi jahon rishtasi,
Dema jahon rishtasi, jon rishtasi.

Ganji baqo zikriga ulkim yetib,
Bu dur ila rishtani tasbih etib.

Rishta emas, turfa kamandedur ul,
Davlatu din saydig'a bandedur ul.

Qaysi kamand, o'lmadi hargiz kamand,
Ravzai firdavs g'azolig'a band.

Bal arig'edurki oqar jon suyi,
Yo'q, demakim jon suyi, hayvon suyi.

Ul suv yaqosida alifdin shajar,
Shamrasidin ul shajar uzra samar.

Yo'qki, o'shul rishtai gavhar baho,
Ganji ilohiyg'a erur ajdaho.

Yoki bular barchasi ta'vil erur,
Arshi muallo aro qandil erur.

Balki bu qandil aro aylab ayon,
Bog'i ahad foxtasi oshyon.

Yo'qki, erur maxzani vahdatqa yo'l,
Yo'lu ne yo'l, asru yaqin yo'ldur ul.

Iekin erur ham qatig'u ham maxuf,
O'ylaki ojizdurur ondín vuquf.

Qilg'uchi bu bodiya qat'ig'a mayl,
Ahli qabulu rad erur ikki xayl.

Azmig'a chun qo'ydi qadam ahli rad,
Rahbari tavfiqdin o'lmay madad.

«Bo»si ibodin urar avval salo,
«Yo»ki degay lo ne bo'lur juz balo.

«Sin»i nahang arqosining arrasi,
Yuz kemanding ofati har parrasi.

«Sin» bila «mim»i yo'lida ko'p humum,
Yo'li humum aningu yeli samum.

«Mim»i yiloni damidin o't sochib,
Yo'l boshida yotibon og'zin ochib,

Uch «alif», uch «lom»i solib rustaxez,
Olti jihatdin chekibon tig'i tez.

«He»lar uchi qatl ishida tez o'lub.
Rumh uchidek har biri xunrez o'lub.

«Re»larikim zohir etib iqtiron,
Fosh o'lub ondin zarari begaron.

«He»si halok etgali qullobvash,
Mahlaka qalbi aro qullobkash.

«Nun» chekib el sahmi uchun yosini,
Balki baqo zar'i uchun dosini

«Yo»si muxolif sori harfi nido,
Ya'ni, et ollimda hayoting fido.

Nuqtalari ul yo'l aro toshlar,
Toshlar o'lmayki, kesuk boshlar.

«Mim»lar anda girih uzra girih,
Jazmlar anda zirih uzra zirih.

Har sori «tashdid» taaddud bila,
Zohir o'lub elga tashaddud bila.

Har negakim noziri maqsud o'lub,
Ahli nazar ko'ziga mardud o'lub.

Lek qachon qat'ig'a ahli qabul,
Azim qilib aylasa ul yon nuzul,

«Bo»si burun «bo»i bashorat durur
Shamrasi kirmakka ishorat durur.

«Sin»i salomat yo'lining zinasi,
Balki saodat yuzi oinasi.

«Mim»i ochib manzili maqsadg'a yo'l,
Balki bu manzil aro sarchashma ul.

Har «alif»ikim yeridur jon aro,
Sham' o'lub ul toza shabiston aro.

«Lom»lari borcha livoyi zafar,
Berib anga jilva havoyi zafar.

«Ho»si huviyatni qilib jilvagah,
«Lom»i bila qoyili «Al-mulku lah».

Ravzai jannatg'a eshik «ro»lari,
G'unchai vahdatg'a beshik «ho» lari.

«Mim»ki «nun»din qilibon intiho,
Jong'a qo'yub minnati bemuntaho.

«Yo» bila «mim»i qilib izhori yam
Aylagali g'arqai bahri karam.

Nuqtau tashdid anga chaqmoqu tosh,
Qilmoq uchun partav «alif» sham'i fosh.

Jazmi solib tavq ko'ngul bo'ynig'a,
Nuqta haqo durrini jon qo'ynig'a.

Ham harakotidin ionat yetib,
Yetgali maqsudqa tahrir etib.

Ham sakanoti qilib ifsho sukun,
Anda tavaqqufqa bo'lub rahnamun.

Soyiri chun po'yag'a gomin ochib,
Gardidin atrofig'a jonlar sochib.

Bosh-ayog'i boshtin-ayoq jon bo'lub,
Boshdin-ayog' jon neki, jonon bo'lub.

Azmida ul qavmg'a dog' uzra dog',
Qat'ida bu xaylg'a bog' uzra bog'.

Hikmati ul qahr aro, bu lutf aro,
Ushbuki to'lg'ay ikki mehmonsaro.

To agar o't solsa jaloliyati,
Lutf ila urg'ay suv jamoliyati.

Istabon, ey xasta Navoiy, navo,
Bo'yla safarg'a qilur ersang havo.

Yo'l yomonu yaxshisidin yema g'am,
Bismilloh, degilu qo'yg'il qadam.

«Xayru sanoin limufizil-karam»,
Kim karamidin erur el muhtaram.

II

*Ul xoliq hamdikim, maxluqot tasvirig'a aning qalami sun'i cheh-
rakushodurur va masnuot tahririg'a aning xomai hikmati jamolafzo
va har ko'ngul g'unchasig'a bir husn guli sori aning silsilai shavqi-
din vobastaliq va har ko'z axtarig'a bir qosh hiloli sori aning rishtai
muhabbatidin payvastaliq*

Hamd angakim vojibi bizzot erur,
Homid aning zotig'a zarrot erur.

Vahdati zotig'a quyoshdek tonuq,
Zarradin afzunu quyoshdin yoruq.

Jism sipehrini masir etguchi,
Ruh quyoshini munir etguchi.

Gulshani firuzani chekkan baland,
Gullaridin mehrni guldastaband.

Har sori anjum gulikim ochilib,
Ko'kka bu guldastasidin sochilib.

Mintaqa birla falaki lojuvard,
Sun'i bisotida iki taxta nard.

Solmoq uchun toqi sipehr ichra shayn,
Oyu quyoshdin qilibon ka'batayn.

Taxta kelib charxi munaqqash anga,
Burj hisobidin iki shash anga.

Tun kun ila muhra namudorliq,
Anjum ila taxta sadafkorliq.

Dahrda har naqshi savobu qusur,
Borchasi bu narddin aylab zuhur.

Ko'rguzubon naqshi xasisu sharif,
Misli qazovu qadar ikki harif.

Chun ochibon subh uzori gulin,
Zulf etib ul yuz uza tun sunbulin.

Ul yuz o'lub dahrg'a kofurbez,
Ustida ul zulf bo'lub mushkrez.

Oqu qaro uzra berib ishtihor,
Mushk ila kofurini laylu nahor.

Chun yasabon hujrai tori dimog',
Aqldin ul hujrada yoqib charog'.

Rishta anga tori inoyat bo'lub,
Shu'la anga nuri hidoyat bo'lub.

Andin olib nur ko'ngul maskani,
Lek o'churub ishq yelidin ani.

Ishq yelin yetkurubon tundu tez,
Aql alochug'in etib rez-rez.

Ham uchurib zuhdu vara' xirmanin,
Ham sovurub sabru sukun maskanin.

Bog'i xirad naxlini xoshok etib,
Bahri balo mavjini ko'lok etib.

Dardu halo o'tini tez aylabon,
Tez nekim, charxsitez aylabon.

Vasl sahobin chu qilib qatrabor,
Aylabon ul o'tg'a sukun oshkor.

Husn quyoshin qilib ofoqso'z,
Partavini ayladi olamfuro'z.

Dema quyosh, ravzai rizvon degil,
Ravza ichinda guli xandon degil.

Jilvasi jon gulshani oroyishi,
Ko'rmagi mahzun ko'ngul osoyishi.

Zotig'a juz lufu safo bermayin,
Lekin anga bo'yi vafu bermayin.

Ul chu vafu rangidin ozod o'lub,
Ahli vafu jonig'a bedod o'lub.

Kimga vafodin beribon choshni,
Bir nafas olmay ko'zidin yoshni.

Kimki ishi g'ayri vafu qilmayin,
Bahra anga g'ayri jafu qilmayin.

Ishqni jon rishtasig'a band etib,
Vasl ko'ngul torig'a payvand etib.

Vodiyi hajr ichra solib ko'p xatar,
Xoru giyohini qilib nishtar,

Lolasini shu'lai oh aylabon,
Sabzasini zahrgiyoh aylabon.

Lola bila sabzasi bu nav' bum,
Yeli emas mumkin aning juz samum.

Ul yel emasdur bu biyobon o'ti,
Bil bu biyobon o'ti – hijron o'ti.

Kimniki bu shu'la bila kuydurub,
Ko'kka hamul el kulini sovurub.

Kimni kul aylab bu samumi balo,
Dardu balo ko'zgusi topib jilo.

Chun solib ul ko'zgu aro tobu nur,
Ishq yuziga berib andin zuhur.

Doirani juz bu sifat tuzmayin,
Silsilani bir-biridin uzmayin.

Bir-biriga bo'yla tuzub marhala.
Silsilag'a bog'lanibon silsila.

Ayladi sokin kurai xokni,
Soyir etib davrai aflokni.

Toki muhit o'rnig'a aflok erur,
Markazi oning kurai xok erur.

Lutfi bila borchag'a mavjudluq,
Qahridin-o'q bo'lg'usi nobudluq.

III

AVVALG'I MUNOJOT

*Haqning avvaliyatidakim, xirad anga soniy bilmas, balki avval
va oxir eli sano desalar anga loyiqi soniy topilmas va mumkinot
gulshanidag'i gullarning adam shabistonidin vujud gulistonig'a
kelmagining sifati va koinot bozoridag'i durlarning xafo sahobidin
zuhur daryosiga tushganining ma'rifati*


Ey sanga mabda'da abaddek azal,
Zoti qadimig abadiy lam'yazal.

Ne bo'lub avvalda bidoyat sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o'zung, oxiru mobayn o'zung,
Borchag'a Xoliq, borig'a ayn o'zung.

Andaki bor erdi nihon bu jahon,
Balki nihon dog'i jahondek nihon.

Ne sochibon kun yuzi bargi suman,
Ne kechanning turrasi mushki Xo'tan.



Ne ochibon ko'kda shafaq lolalar,
Ne yog'ib anjumdin anga jolalar.

Ne yeru ne yer yuzida bir kishi,
Ne ko'ku ne g'ayri sitam yer ishi.

Husn o'ti hangomafuro'z o'lmayin,
Ishq eliga moyai so'z o'lmayin.

Yorumayin sham' ila koshonaye,
Kuymay aning ishqida parvonaye.

Jilvai noz aylamayin gul hanuz,
Zamzama chekmay anga bulbul hanuz.

Demaki nargis ko'zi masti xarob,
Balki adam gulshanida masti xob.

Xum boshi mug' dayrida ochilmayin,
Ahli vara' xirqa garav qilmayin.

Ishva bila mug'bachai mayfurush,
Zuhd elini aylamayin durdno'sh.

Ko'rguzub oromu sukun bahri zot,
Mavj ayon aylamayin mumkinot.

Sen edingu bas, yana mavjud yo'q,
Jilva qilib o'zungga o'z husnung-o'q.

Mazhar o'lub husnungga mir'oti g'ayb,
Jilva qilib anda xayoloti g'ayb.

Nozir o'zung erdingu manzur o'zung,
Ishqinga xush, husnunga mag'rur o'zung.

Birlik ediyu adade yo'q edi,
Birdin o'zga ahade yo'q edi.

Yo'q edi xud ilminga ijmolli zot,
Monii tafsili shuyunu sifot.

Lek o'shul chehrai ushshoqso'z,
Kim anga har lam'adur ofoqso'z,

Qildi mazohirda xayoli zuhur,
Topqali ul husn kamoli zuhur.

Jilvai husnungg'a chu yo'q erdi had,
Ko'zgu kerak bo'ldi anga beaded.

Ochti bu gulshanniki rangin erur,
Har gul anga o'ynai Chin erur.

Jilvai husn o'lg'ali zohir anga,
Bo'ldi bu mir'ot mazohir anga.

Vosita bu erdiki qilding tamom,
Ko'kni to'quz lavhai oyinafom.

Bo'ldi safo vajhida har axtare
Ko'zgu kibi husnung uchun mazhare.

Mehr yuzin oyinarang aylading,
Yuzda kusufin anga zang aylading.

Ko'kni qilib safhai minu kibi,
Aylading ul safhani ko'zgu kibi.

Bog'chasin dahrning etting nazih,
Panjarasi bo'ldi musaddas girih.

Sun'ung etib konni mulamma'guhar,
Hukmung etib tog'ni murassa'kamar.

Topti yog'in rishtasi chun bahri sof,
Yel iligin qilding anga hullabof.

Yel bila chirmashturubon tiyra gard,
Charxdek etting ani getinavard.

Muncha g'aroyibki misol aylading,
Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi.

Turfa kalomingg'a dog'i komil ul,
Sirri nihoningg'a dog'i homil ul.

Ko'ngliga qilding chu yaqin ganji qism,
Jismini ul ganjga qilding tilism.

«Karramano» keldi manoqib anga,
«Ahsani taqvim» munosib anga.

Ma'rifating kim qila olmay sifat,
Qilding ani orifi ul ma'rifat.

Ilmig'a har zotni xayl aylading,
Zotig'a olamni tufayl aylading.

Yo Rab, o'shul ganjki mahram anga,
Kimsa emastur, magar odam anga.

Ayla Navoiyni burun odamiy,
Kim bo'la olg'ay bu haram mahrami.

Onchaki rozingg'a amin qil ani,
Harne qilursen yana sen bil ani.

IV

IKKINCHI MUNOJOT

*Maxluqot zebolarining jilvai zuhuridakim, xoliqi ashyo azamati
dargohig'a ondin sude yetmas va mavjudot ra'nolarining hodisai
futuridakim, vohidi dono jabaruti borgohig'a kimsa andin
ziyonbude tasavvur etmas*

Ey bori mavjudg'a sendin vujud,
Balki vujud ahlig'a fayyozi jud.

Katmi adamdin neki mavjud o'lub,
Sojid o'lub, sen anga masjid o'lub.

Kimki boshi sajdada – masjidisen,
Kimki yuzi qiblada – ma'budisen.

Munchaki aflok sabuksang erur,
Yo kurai xok kuhanlang erur.

Sendin alar junbishu oromi ham,
O'ylaki, ijodi ham, e'domi ham,

Gunbadi mino bila toqi sipehr,
Kim anga sham' anjum erur, shamsa – mehr.

Darkida qosir bo'lubon hislari,
Chun ko'rubon aql muhandislari.

Bo'lmadi yuz onchag'a me'morliq,
San'ating ustodig'a dushvorliq.

Yo desang ul vaz'g'a yetsun xalal,
Qahringa bordur bu xalal filmasal.

Tund el ollinda ovuch xokdek,
Hldirim o'trusida xoshokdek.

Sarsari qahring chu bo'lub ko'hkan,
Tog' bulut yanglig' bo'lub na'razan.

Sovrulubon ko'k bir etak kul kibi,
Qo'zg'alib anjum bir ovuch gul kibi,

Mayl adam dashtig'a aylab Zuhul,
Par butub egnida nechukkim jual.

Qat' hayotin ko'rubon Mushtari,
Taxtau tobuti bo'lub minbari.

Tez etibon qatlig'a Bahrom tig',
Tortibon o'z holig'a har dam darig'.

Bo'yla qaro kun aro mehri munir,
Tiya bo'lub o'ylaki bir qursi qir.

Zuhra ushotib daf ila changini,
Navha ko'kida tuzub ohangini.

Tiyr iligida ne qalam, ne raqam,
Balki raqam oyati «Jaffal-qalam».

Ahli adam shomig'a zulmatfizoy,
Tahti shioi abadiy ichra oy.

O't chekibon shu'lai bebokni,
Churkabon anjum bila aflokni.

Yel ko'k ila yerni taboh aylabon,
O'ylaki mazlumlar oh aylabon.

Bahrg'a bir valvalau iztirob,
Kim tegib axtar yuziga har hubob.

Yer qo'pub o'rnidin o'lub hamlagard,
Kim itib anda falaki lojuvard.

Odami ul damda aningdek adam,
Kim bu dam odamda vafou karam.

Yer tutubon avju falak tah tushub,
Gah bu chiqib yuqori, ul gah tushub.

O't qilibon bahrda g'avvosliq,
Tog' etibon charx uzra raqqosliq.

Charx misosida bulutdek g'irev,
Devzada o'ylaki ko'rganda dev.

Tog'u falaklarda taroqo-taroq,
Borcha taroqida ayon alfiroq.

Bir necha dam borchag'a bu rustaxez,
Toki fano sarsari esguncha tez.

Ul chu esib toza va gar xud kuhun,
Bir dam aro «kona kaan lam yakun»,

Tengri qolib boqiyu dayyor yo'q,
Yor muabbad bo'lub ag'yor yo'q,

Arzu falak yo'qidinu boridin,
Borchaning ixfosiyu izhoridin.

Ne azamat ichra anga sud o'lub,
Ne jabarutig'a ziyonbud o'lub.

Soʻz «Limanil-mulk» oʻlub ul dam anga,
Kim angadur mulk musallam anga.

Yo Rab, agar yetsam oʻshul kunga jazm,
Yoki burun aylasam ul yongʻa azm,

Ul nafas imon manga hamroh qil,
Koʻnglum aro mahvi sivalloh qil.

Rahmati omingni nisor et manga,
Lutfi amiy ming manga yor et manga.

V

UCHUNCHI MUNOJOT

*Ul maʼnidakim, olam va odamni vujud koshonasidin adam faro-
mushxonasigʻa solmoq vujudi mutlaqdin oʻzga vujud tutmas va bu
maʼnini vujud ahli andin oʻzga vujudqa mutlaqo yovutmas va isyon
zulmatida ayoqdin tushganlarga xulosai olam shifoati dastgir durur va
ul shafiʻ-shafoat qilgʻonlargʻa xoliqi olam va odam shafobatpazir*

Ey qilibon qahr ila lutfung shior,
Borni yoʻq aylamaku yoʻqni bor.

Yoʻq edilar har neki — bor aylading,
Fahmu xirad borigʻa yor aylading.

Ham toʻquz aflokni chekting rafeʼ,
Ham kurai xokni yoyding vaseʼ.

Gar falakiyotu anosir durur,
Borcha saminqadr javohir durur.

Koniyu hayvoni, agar xud nabot,
Har biri bir gavhari oliy sifat.

Borhasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading.

Qatragʻacha qulzumi zaxxordin,
Zarragʻacha shamsai zarkordin.

Oni munga, muni anga band etib,
Bir-biriga borchani payvand etib.

Vositalar boʻldi ayon toʻ-batoʻ,
Bir-biriga bogʻlanibon moʻ-bamoʻ.

To tikilib ushbu biyik borgoh,
Boʻldi muhayyo bu ulugʻ korgoh.

Oncha bo'lub vus'atu oroyishi,
Kim sari mo' yo'q yana gunjoyishi.

Borchasini buzmoq agar istasang,
Boshtin-oyoq zeru zabar istasang,

Garchi erur aql haroson base,
Ul dog'i ollingdadur oson base.

Chun qilibon qudrating izhorini,
Birisining qo'ymag'ung osorini.

Emdiki junbushqa kelib bahri jud,
Zohir etarsen chu adamdin vujud,

Kimki hisob aylasalar mavtidin,
Ming yilu o'n ming yil o'tub favtidin.

Qolabining daftari ajzo bo'lub,
Juzvlari loyatajazzo bo'lub.

Zohir o'lur «bu'sira mo fil-qubur»,
Jilva qilur «hussila mo fis-sudur».

«Yavmaizin mo xalaqallohu fih»,
«Yavma yafirrul-mar'u min axih».

Ne kun o'shul ohu nadomat kuni,
Ohu nadomat ne, qiyomat kuni.

Avvalu oxir eli zoru asir,
Har bir o'z ahvolig'a tortib nafir.

Bu chekib o'z dardi uchun voy-voy,
Yig'lab ul o'z mehnatig'a hoy-hoy.

Qaysi fig'onkim jazai mahshar ul,
Qaysi yig'ikim fazai akbar ul.

Nomalar el ollig'a parron bo'lub,
Ko'rmagidin el yuragi qon bo'lub,

Borchasi isyon bila badxo'yluq,
Badxo'yluq yo'qki, siyahro'yluq.

Qizg'a ano boqmay, o'g'ulg'a ato,
Borchasining og'zida «Vohasrato!»

Har sori jurm ahli guruho-guruh,
Yuklanibon jurmlari ko'h-ko'h.

Har biri bir hay'ati hoyil bila,
Bog'lanib ag'lolu salosil bila.

Ham tomug' o'ti solihon rustaxez,
Ko'rmagidin el so'ngagi rez-rez.

Ham guli firdavs bo'lub jilvagar,
Hasrati do'zax o'tidin ham batar.

Kun qizig'idin qilibon mag'z jo'sh,
Ko'kka chekib ahli qiyomat xuro'sh.

Ko'pruk o'lub o'ylaki tori xayol,
Lek xayoleki ul o'lg'ay mahol.

Kuchlanibon panjau bozuyi adl,
Asrabon oyini tarozuyi adl.

Hokimi odil bo'lubon hukmron,
«Doma lahul-mulk, va lahul-hukmu shon».

Avj tutub shu'lai jabborliq,
Mavj urub lujjai qahhorliq.

Ham mutafakkir bo'lubon avliyo,
Ham mutahayyir qolibon anbiyo.

G'ayri nabiyi arabiy ul nafas,
Kim bo'lubon xalq shaffiyu bas.

Goh Sirot ustigacha ro'y urub,
Lahzai mezung'a taku po'y urub.

Solibon og'ziga biyik himmati,
Zamzamai «ummati vo ummati!».

Yo'qki hamin ummati gumrohni,
Balki tilab mo xalaqallohni.

Harne tamannoki rasul aylabon,
Borchasini Tengri qabul aylabon.

Bo'lsa ne maqsudg'a mayli aning,
Haqdin o'lub barcha tufayli aning.

Yo Rab, aning haqqiki qilding nasib,
Martabayekim sanga bo'ldi habib,

Kim bu sifat anjumani g'am aro,
G'am demayin, majmai motam aro,

Kim ani olamg'a shafe' aylagung,
So'ziga lutfungni mute' aylagung.

Bo'lg'usi jurm ahlini istar zamon,
Istamagiyu karaming tav'amon.

Ummatidin kelsa bir ul nav' xayl,
Kim borig'a bo'lsa jazo chohu vayl.

Umrda kelmay biridin bir amal,
G'ayri xatoyeki, topib din xalal.

Jonlari anduh o'tidin g'am aro,
Yuzlari isyon tutunidin qaro.

Istasa ul qavm xalosini ham,
Ko'ziga uchrat meni osiyni ham.

VI

TO'RTUNCHI MUNOJOT

Karam daryosi vasfidakim, inoyat nasimidin mavjg'a kirsas, isyon xasus xoshokin qirog'larg'a iturur va ko'hi gunohdin langar solg'onlarning garonjonliq kemasin bir pari kohdek maqsud sohilig'a yetkurur

Ey karaming ollida ko'hi gunoh,
Yelga uchub o'ylaki bir parri koh.

Nechaki jam' o'lsa somon ko'h-ko'h,
Yel qoshida anga ne bo'lg'ay shukuh.

Jumla jahon ahli xato qilsalar,
Jurm bilan noma qaro qilsalar,

Nomani oq aylamak oson sanga,
Kim yo'q o'shul amrda nuqson sanga.

Tunki tuzub shu'bada hangomasin,
Qildi qaro ahli jahon nomasin.

Lutf quyoshig'a chu berding zuhur,
Mehr ila qilding bori zulmatni nur.

Chun saname ayladi el kinidan,
Gulni nihon sunbuli mushkinidin.

Yelni qilib chobuki burqa'raboy,
Kecha savodida ayon qilding oy.

Afv charog'i qachon o'lg'ay yoruq,
Qilmasa isyon tuni osiy yozuq?

Jurm o'tig'a bo'lmasa gar shu'la tez,
Abri karam qayda bo'lur qatrarez?

Qilmasa oluda etak xirqapo'sh,
Hojat emas bahri inoyatqa jo'sh.

Yiqmasa may aylabon elni asir,
Lutf iligi kimga bo'lur dastgir?

Zuhd ila qavmeki vara' qildilar,
Qilg'on uchun muzd tama' qildilar.

Har amalekim kishi xayr aylagay,
Komi bukim ravzada sayr aylagay.

Aylamagan may bila oluda lab,
Tongla qilur bodai kavsar talab,

Munda jamil istamagan hech kas,
Anda qilur hur jamolin havas.

Go'shai vayronani qilg'on panoh,
Qasri murassa' tilar oromgoh.

Har kishi bir qat'i tamattu' qilur,
Muzdini yuz oncha tavaqu' qilur.

Ahli vara' gar bori muzd olsalar,
Nomasiyah xayl boqib qolsalar,

Aylamaging afvi xato bas qani?
Bahri karam birla ato bas qani?

Lutfu karam bahri labolab turub,
Bir necha labtashnaning og'zi qurub.

Barchalarin tashnalab o'lturmaging,
Yo bu tengiz tegrasidin surmaging,

Mumkin erurmu ekin oyo bu ish?
Aylagasen sen har ish, illo bu ish!

Har kishi osiyu gunahkorroq,
Afv ila rahmatqa sazovorroq.

Ahli vara' ajri bo'lub gar bihisht,
Kuysa tomug' o'tig'a isyonsirisht.

Ul topibon ravzani etsa farog',
Do'zax aro bo'lsa munga dardu dog'.

Lutfu karam ganjini netkung durur?
Kimga atoyu karam etkung durur?

Bir necha muhtuju asiru gado,
Yuzlari silliyi gunahdin qaro,

Qoytsa xoni niamingdin sening,
Hosho, lutfu karamingdin sening!

Xon anga yoyg'ilki erur mushtahi,
To'q yemas, ar yesa bo'lur mumtali.

O'tsa qurub qolg'on ekindin bulut
Bahr uza yo asradi yo yog'di tut.

Ansab anga luqmaki, ul och erur,
Avli anga to'nki, yalangoch erur.

Bu bori afsonai behudadur,
Kimki sen ummidisen — osudadur.

Yo Rab, urarda karaming bahri jo'sh,
Cheksalar ul xayl fig'onu xuro'sh.

Garchi gunahning hadu poyoni yo'q,
Aylamasang rahm ham imkoni yo'q.

Chun chekibon lutf saropardasin,
Kechsang alar kardau nokardasin.

Bo'lsa navo birla bori muhtaram,
Aylama mahrum Navoiyni ham.

Ermas anga hur ila jannat havas,
Sen anga bo'lg'ilki, anga ushbu bas.

VII

AVVALG'I NA'T

*Ul hazratning nuri qidamiyatidakim zot bahrining avvalg'i
junbushida ul durri behaho lam'asi xafo rishtasin uzdi va ul
gavhari yakto ashi'asi lam'a ko'rguzdi va durjdin durjg'a intiqol
etti to Safiyullohdin Abdullohg'a yetti*

Ey qilibon lam'ai nurung zuhur,
Andaki ne soya bor erdi, ne nur.

Nurunga tob ikki jahondin burun,
Harne yo'q ondin burun, ondin burun.

Zoviyai jismg'a har zotdin,
Ruh yoqib sham' bu mishkotdin.

Topti azal subhi chu bazming charog',
Ne tong agar yorusa yuz ming charog'.

Bo'ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato.

Naslida har kim anga payvand o'lub,
Borchasi farzandinga farzand o'lub.

Kimki munga da'viyi hujjat etar,
«Kuntu nabiyyan» anga hujjat yetar.

O'zga dalil istasa tab'i saqim,
Basdurur Odamda «alif», «dol»u «mim».

Borchasi Ahmadda topib izzu shon,
O'g'lida uch harf atodin nishon.

«Ho»i muhabbat anga-o'qdur nasib,
Kim seni haq dedi o'ziga habib.

Har neki haq vajhi aro mubham ul,
Zohir etib yuzda habibi hamul.

Shohid etib chehra bu ko'zgu anga,
Ul ne qilib, ko'rguzubon bu anga.

Ayladi chun odami xoki zuhur,
Soldi anga partavin ul pok nur.

Nur dema, boriqai sarmadiy,
Boriqa yo'q, sha'shaai Ahmadiy.

Bo'ldi chu Odamda bu partav nihon,
Anda nihon, lek yuzida ayon.

Egniga yopildi davoji sharaf,
Qildi makon boshig'a toji sharaf.

Taxti risolat uza shoh o'ldi ul,
Xayli maloyikka panoh o'ldi ul.

Istadi Havvo bila chun ittisol,
Ayladi Havvog'a bu nur intiqol.

Poku jamil ayladi Havvo yuzin,
O'ylaki haq partavi havro yuzin.

Shisqa chun bo'ldi yana muntaqil,
Oyni qilur erdi yuzi munfail.

Rishtasidin chun bu guhar bo'ldi kam,
Bir sadaf o'ldi yana gavharshikam.

To atodin ato, anodin ano,
Bir ano kim yo'q edi andoq yano.

Bo'ldi risolat durining maxzani,
Balki nubuvvat gulining gulshani.

Bo'lg'ach-o'q ul durg'a sadaf pardapo'sh,
Tushti jahon bahrig'a jo'shu xuro'sh.

Emdiki raf etti yuzidin niqob,
Tug'madi andoq yana bir oftob.

G'am tunini nursirisht ayladi,
Yer yuzini bog'i bihisht ayladi.

VIII

IKKINCHI NA'T

*Aning navras niholi jahon gulshanin sarsabz qilib, qirq yilg'acha
andin hayo va adab gullari ochilib, andin so'ngra nubuvvat mevasi
bergani, dog'i shox va bargin sidra shoxidin o'tkarib, ikki olam ahli-
ning soyai rahmatig'a kirgani*

Ey ko'runub g'urra kibi tiflzod,
Tifli rahing charxi qadimiynihod.

Insu malak joniyu jononasi,
Ikki jahon gavhari yakdonasi.

Mahd sanga lavhai firuzarang,
Kim harakatdin anga bo'lmay darang.

Sen kibi bu gulshan aro toza vard,
Umrída ko'rmay falaki solxo'rd.

Surat aro tiftl, vale aqli kul,
Qavlung aro g'ayri yali lam-yaqul.

Axtaring ul tunki, tulu' aylabon,
Charx salomig'a ruku' aylabon.

Kufr biyik tog'ig'a solib shikast,
Yerga bo'lub past butu butparast.

Makkada din ahlig'a muknat bo'lub,
Uzzo ila Lotqa uzlat bo'lub.

Muxtalif ahvol o'lub ahli quraysh,
Ba'zi o'lub g'amzada, ba'zida aysh.

Gar otadin yo'q esa bahrang ne tong,
Odam o'g'ul bo'lsa, kim o'lg'ay otong?

Gavhari zotingg'a sadafsiz ne bim,
Itti sadaf, chiqti chu durri yatim.

Durg'a sharaf bor o'zining zotidin,
Tong yo'q anga or sadaf otidin.

Garchiki ming dur chiqorur bir sadaf,
Bir dur ila ming sadaf aylar sharaf.

Qaysi dur ul, durji vafo gavhari,
Qaysi guhar, burji hayo axtari.

Axtaridin mehrig'a farxandaliq,
Badru hilol aylab anga bandaliq.

Mehr mutii amru misoli bila,
Shaqq bo'lubon badr hiloli bila.

Garchi tijoratqa bo'lub moyasanj,
Kim qaro tufroqdin oldinda ganj,

Ko'z tutib el naf'u basorat anga,
Ummat etib sudu tijorat anga,

Noqag'a markablig'idin ko'p surur,
O'ylaki tushganda malak uzra nur.

Deb laqabin ahli tajammul Amin,
Andin o'lub hamdami Ruhul-amin.

Chunki shubonliq etib o'z peshasin,
Jady vatan aylab Asad beshasin.

Sut ko'runub shakkarida xushguvor,
Garchi xirad piri anga shirxor.

Zahri jafu ko'p ezilib jomig'a,
Shiru shakar ta'mi berib komig'a.

Necha achig' yig'lag'udek ish yetib,
Lutfi shakarxanda bila daf' etib.

Shomi nifoq ahli chu aylab sitez,
Boshig'a anjumdek etib sangrez.

Ul qilibon subh kibi no'shxand,
Xayr duosi bila deb elga pand.

«Azzama qadrah» – bu ne xulqi azim,
«Karrama vajhah» – bu ne nafsi karim.

«Hodiyuno kavkabu iqbolihi,
Sallu alayhi va alo olihi».

IX

UCHUNCHI NA'T

*Ul nubuvvat quyoshining soyasizligining poyasi, balki quyosh
bo'lmoq aning soyasi va besh barmog'iga qalam tutmay aqolimi
sab'ani yakqalama qilg'oni, balki jami' milal avroqig'a nasx
qalami chekkoni*

Ey sharaf avjida yuzung sham'i mehr,
Soyadek ul sham'g'a niliy sipehr.

Soyalig'ing bo'lmasa gar varzishi,
Tushmak ayog'ingg'a nedindur ishi.

Turfaki sham'ingg'a biyik poyadin,
Or o'lubon sham' kibi soyadin.

Mehrki chehrangdin anga nurdur,
Tegrasidin soyasi mahjurdur.

Senki, yuz oncha sanga haq berdi nur,
Tong yo'q agar soyadin o'lsang nufur.

Soya agar bo'lmadi shaxsingg'a yor,
Soyai qadringda durur har ne bor.

Sham'inga chun nuri qidam soyadur,
Nurdur ulkim anga hamsoyadur.

Soya sifat keldi sanga anbiyo,
Ya'ni erurlar quyoshingdin ziyo.

Jilvai husn aylasa mehri sharif,
Bois o'lur soyag'a jirmi kasif.

Zoting edi javhari ulviy najod,
Tutmadi er soyasi birla savod.

Qayda savod etgali chekkay raqam,
Qoldi chu mahrum iligingdin qalam.

Bo'lmadi gar xoma boshin yormog'ing,
Yordi qamar xomasini bormog'ing.

Qo'ymadi gar bu qalaming bir nuqat,
Lek milal nasxig'a ko'p chekti xat.

Yuz qarolig' xoma kibi qildi fosh,
Kimki xatingdin chiqorur bo'ldi bosh.

Tig'i siyosat boshin etti qalam,
Kimki chiqordi raqamingdin qadam.

Itsa qalam qayda g'am o'ldi sanga,
Chunki jahon yakqalam o'ldi sanga.

Xattinga bosh qo'ydi Ajam to Arab,
Tutmasang ilginga qalam ne ajab.

O'pmadi ilgingni chu nolon qalam,
Motamiy aylabtur oni bu alam.

Kim yuzin aylab qaro g'amnok erur,
Shaqqi emaskim, yoqosi chok erur.

Tutmog'oning andin edi xomani,
Kim ul etibdur qaro ko'p nomani.

Noma qaro qilg'ali bo'ldik sare',
Nomasiyahlarg'a chu sen-sen shafe'.

Ey yovumay nomag'a xomang sening,
Xoma yo'qu haq sori nomang sening.

Haq azaliy rahmati jovidi sen,
Noma qaro qilg'on el ummidi sen.

Kimki amal nomasin aylab qaro,
Sen kirib oning qaro joni aro.

Kimniki gumrah qilibon tolii,
Jodai shar'ing o'lub shorii.

Zulmati kufr ulki bo'lub jam' anga,
Har «alif» isloming aro sham' anga.

Barcha milalg'a chu yurub himmating,
«Lom» ila «te» din lat urub millating.

Lotki andin edi dinga balo,
Sen ushotib poyasini bo'ldi lo.

Kufr eliga ulki bor erdi Manot,
Bo'ynini sen sindurubon bo'ldi mot.

Kufr boshin ke sting etib qahr fosh,
Boshig'a far qolmadi, jismig'a bosh.

Xasta Navoiy sori nazzora qil,
Kufr anoniyatig'a chora qil.

Et bu inoyat bila hosil ani,
Zumrai islom aro doxil ani.

X

TO'RTUNCHI NA'T

*Ul risolat sipehrining rif'atida va barcha olamni sipehrdek ihota
qilg'on qudratida va ashobi bobidakim har hiriga ul sipehrda bir
kavkabi raxshandaliq sodiq dururki, «Ashobi kan-nujum» bu
mazmung'a notiq durur*

Ey nafasing moyai e'joz o'lub,
Ruhi qudus nutqunga hamroz o'lub.

Gohi takallum sanga mu'jiz kalom,
Nazmi kaloming bori mu'jiz nizom,

Nukta fasohatda munaqqah sanga,
Shohidi da'vo: «Ana afsah» sanga.

Sihhati hukm ichra hadising sahih,
Arzi fasohatda kaloming fasih.

Nutq aro chun zohir o'lub mu'jizing,
Ahli fasohat bo'lubon ojizing.

Zoting o'lub bahri javohirnishon,
So'z aro bahring kafi gavharfishon.

Kaf neki, bahre bo'lub ul panj shox,
Yetti hubob ul suvg'a bu yetti kox.

Xamsa salotingg'a chu navbat bo'lub,
Panjai islomg'a quvvat bo'lub.

Kufr qo'lu panjasini ranja bil.
Bois aning ranjig'a bu panja bil.

Faqr aro ul panja qabul etti ranj,
Lek haqiqatda erur panj ganj.

Panjai islom chu mahkam solib,
Kufr yeti qo'rg'onidin xums olib.

Dema ilik, tig'eki bir bormog'i,
Oyni iki bo'ldi ishorat chog'i.

Tong emas ar ul kafi mu'jiznamoy,
Qilg'ach ishorat iki ayrilsa oy.

Noqasi er uzra chu raftor etib,
Har izi «Shaqqal-qamar» izhor etib.

Amri etib naxl qadin xush xirom,
O'ylaki qilg'ay buti sarkash xirom.

Xasmidin o'lg'onda anga parda g'or,
Og'zida o'rgamchi bo'lub pardador.

Aylamasun deb el ila parda sayr,
Bayzasidin tugma toqib anda tayr,

Pardasi jon rishtasidin tor o'lub,
Tugmalari gavhari shahvor o'lub.

Qo'ydi chu ul dom ila ul dona g'or,
Ko'rki ne davlat qushin etti shikor.

G'orda yori bila ul tezhush,
Tog' ichida o'ylaki oltun-kumush.

Kufr chu e'loyi livo aylabon,
Nusrat uchun ding'a duo aylabon.

Kim iki tandin birin et tojvar,
Biri Abu Jahlu birisi Umar.

Qismati avvalg'ining o'ldi azob,
Bo'ldi ikinchida duo mustajob.

Buki kalomulloh angadur nasib,
Kim yo'q anga mu'jiza andin g'arib.

Sura dema, «qof» ila «nun» yoki «sod»,
Ya'nikim har harfig'a oning savod.

Sunbulidek borcha parishon edi,
Jomi' anga jomii Qur'on edi.

Makkani chun qildi judo dayrdin,
Tig' suyi birla yudi g'ayrdin.

Bo'ldi vale manzaradin butfikan,
So'ngra nabi Haq evida butshikan.

Na'lini gar toji sharaf qildi Arsh,
Qildi Ali na'lig'a egnini farsh.

Ruh edi ul bahri nubuvvat duri,
To'rt rafiqi tanining unsuri.

Naqdi kiromiy ulu tojir anga,
Vodiyi hijratda muhojir anga.

Ding'a yetib raxna chu kuffordin,
Saddig'a nusrat ko'rub ansordin.

Ahliyu avlodiya atboig'a,
Oliyu ahfodiya ash'yoig'a

Tengri taolo karamidin qarin,
Yuz tuhafi "Rahmat ila yavmid-din".

XI

BESHINCHI NA'T

*Me'roj kechasi ta'rifidakim, karimai: «Subhonallaziy asro» anga
musaddaq durur va «biabqihl laylan minal-masjidil haromi ilal-
masjidil-aqso» aning subutig'a ikki guvohi sodiq*

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,
Mehr nihon o'ylaki aynul-hayot.

Garchiki ul chashma nazardin qochib,
Xizr ko'k uzra qatarotin sochib.

Tun qilibon gardini anbarsirisht,
Butratibon yerga nasimi bihisht.

Yer kuraviy shakl ila mijmar bo'lub,
Kecha savodi anga anbar bo'lub.

O't kibi yer mijmari ostida mehr,
Yopib etak mijmara uzra sipehr.

Yog'ibon oromu sukun yog'ini,
Past qilib hodisa tufrog'ini.

Bu kecha ul sarvi gulistoni uns,
Ravshan etib sham'i shabistoni uns.

Vasl xayolidin etib ko'ngli jo'sh,
Bahrdek ul jo'sh ila aylab xurush,

Kim yetib ul soyiri ulviy maqom,
Ilgida bir toyiri ulviy xirom.

Po'yada ko'k sayricha orom anga,
Yerdin o'lub ko'kkacha bir gom anga.

Qosidi qudsiy chu salom aylabon,
Haq soridin arzi payom aylabon.

Debkim, ayo maxzani asrori shavq,
Haqdin erur vaslingga izhori shavq.

Chunki nabiy mujdai jonon topib,
Mujdai jonon chu topib jon topib.

Payki ani qo'ldabon otlandurub,
Raxshini kelgan sori-o'q yondurub.

Soyir o'lub rokibi farruxjamol,
Toyir o'lub markabi farxundafol.

Gardi bila borai sur'atnamo,
Yetkurubon aql ko'ziga amo.

Ul mahi shabgard bo'lub jilvasoz,
Jilvagahi borcha shabistoni roz.

Chun yetibon ko'k sori tavsan anga,
Oy bo'lubon o'tgali ravzan anga.

Tiyri qalamzan chu topib ul sharaf,
Buqalamunlug'ni qilib bartaraf.

Zuhra tarab barbatini soz etib,
Zamzamai tahniyat og'oz etib.

Soyasidin mehr chiqarmay jamol,
Tahti shuo' ichra nechukkim hilol.

Mehrida Bahromki yakro' bo'lub,
Tig'i sharaf yuziga ko'zgu bo'lub.

Mavkibidin poya topib Mushtari,
Yo'lida bir poya bo'lub minbari.

Sham'i Zuhul zulmatini nur etib,
Zangiyi shabrangni kofur etib.

Ham Hamalu Savr berib jon anga,
Jon etibon ikkisi qurbon anga.

Ham tongibon ollida Javzo kamar,
Ham Saraton tuz bo'lubon jilvagar.

Sher yo'lidin tutubon go'shaye,
Sunbula raxshig'a bo'lub to'shaye.

Palla yo'li gardidin iksirsanj,
Aqrab aro no'shu davo, nishu ranj.

Qavs tutub chilla duosi uchun,
Jady berib fulla g'izosi uchun.

Dalvg'a Yusuf kibi solmay nazar,
Hutda Yunus kibi qilmay maqar.

Yel kibi chun qat'i buruj aylabon,
Arsh fasilig'a uruj aylabon.

Farshi bo'lub Arsh ila Lavhu Qalam,
Qo'ymoq uchun raxshi alarg'a qadam.
Rafraf uza po'ya qilib chun kushod,
Hamrahu rahrag'a etib xayrbod.
Qolmadi yo'lida chun aslo makon,
Qildi makon bodiyai lomakon.
Olti jihat qaydidin ixroj o'lub,
To'rt guhar tarki anga toj o'lub.
Yo'qlug' ayog'i bila solib qadam,
Andaki yo'lu qadam o'lub adam.
O'zlugidin naqshu namudor yo'q,
Naqshu namudoridin osor yo'q.
Chun o'zini aylab o'zidin xalos,
Pardai izzatda qilib o'zni xos.
Anda yetib gum bo'lubon o'trusi,
Har necha ko'z solsa, baqo ko'zgusi.
Chun bo'lub ul ko'zguda suratnamo,
Ko'zgidin tashqari qolg'on fano.
Axtarig'a chun yetibon muncha avj,
Zohir o'lub bahri inoyatqa mavj.
Haq tilidin ummatin istab tamom,
Haqdin o'lub borcha murodig'a kom.
Hamrah anga qolabi xokinasab,
Gar desalar bor edi yo'qtur ajab.
Kim tan anga boshtin-oyoq jon edi,
Joni dog'i vosili jonon edi.
Ikki jahon rahmatini qozg'onib,
Har nimakim qozg'onib, olib yonib.
Ravshan o'lub yuzidin ul borgoh,
Surma qilib gardini bu korgoh.
G'uncha borib, toza guliston kelib,
Zarra borib, mehri daraxshon kelib.
Borg'oniyu kelgani bir on o'lub,
Aql bu mansubada hayron o'lub.
Qayda xavoriq bila mu'jiz durur,
Aql aning idrokida ojiz durur.

Borg'onu kelgan anga juzvi sag'ir,
Kim emas ul juzv tajazzipazir.

Qat' bo'lub chun bu humoyun safar,
Ruxsat olib hodiyyi farxundafar.

Taxt uza olam shahi aylab maqom,
Olam ishiga beribon intizom.

Shar'i tili noma bayozin o'qub,
Tig'i suyi kufr savodini yub.

XII

*Hazrati Shayx Nizomiy madhidakim, nazm mulkida zo'rbozu
sarpanjasi bila panj ganj nuqudu javohirin oldi va Amir Xusrav
ta'rifidakim, bu javohir va nuqud tamaidin panja aning
panjasig'a soldi*

Xayli fasohat boshining afsari,
Ganji yaqin afsarining gavhari.

Koni fazilat guharig'a amin,
Bahri balog'at aro durri samin.

Xilvatining kahgili anbarsirisht,
To'rt hadi zimnida sekkiz bihisht.

Garchi ko'ngul kulbasidek muxtasar,
Ikki jahon anda bo'lub jilvagar.

Masjidi qandili sipehri asir,
Shu'la bu qandil aro mehri munir.

Ka'ba uyidin bir ochuq hob anga,
Sajda chog'i hay'ati mehrob anga.

Ganja vatan, ko'ngli aning ganjhez,
Xotiri ganjuru tili ganjrez.

Fikrati mizoni bo'lub xamsasanj,
«Xamsa» dema, balki degil panj ganj,

Kaffai mizon anga aflok o'lub,
Botmoni toshi kurai xok o'lub.

Tortsa yuz qarn xirad xozini,
Chekmagay oning ko'pidin ozini.

Xoni latoyifqa so'zi munqasim,
Durri maoniyg'a tili muntazim.

Nozim o'lub so'z duri serobig'a,
Charx «Nizomiy» yozib alqobig'a.

«Quddusa sirruh» – ne maonidur ul,
Ruhi qudus fayzi nishonidur ul.

Otiki besh harf qilurlar xitob,
Ming bir erur aylasang oni hisob.

Ushbu adad birla oti gavhari,
Haqning o‘lub ming bir oti mazhari.

Mazhar etib chun alifin ismi zot,
O‘zga adad harfini ismi sifot.

Durlaridin yer yuzi mamlu bo‘lub,
Balki falak durjlari ham to‘lub.

Chun qilibon so‘z yuzi oroyishin,
Qo‘ymay el oroyishi gunjoyishin.

G‘ayri hamul hinduyi chobuksuvor,
Kim chiqarib xanjari hindiy iyor.

Xanjarining barqidin o‘t chaqilib,
Raxshi dag‘i tezlik o‘tcha qilib.

Qay sari o‘tdek yuz urub tundu tez,
Solibon ul kishvar aro rustaxez.

Ushbu mamolikdaki ma‘mur edi,
Qildi tasarruf neki maqdur edi.

Hundui chobuk demakim, royi hind,
Kilki uchi mamlakatoroyi hind.

Nazmi savodi aro har doston,
O‘ylaki, bir kishvari Hinduston.

Ganja shahi ganjfishon, payrav — ul,
Shah bu so‘z iqlimi aro, Xusrav — ul.

Xusrav o‘lub mulk etib obod ham,
Yolg‘uzi Xusrav dema, Farhod ham.

Ranj tog‘in qozmoq aning peshasi,
Tog‘i aning nazmu tili — teshasi.

Ishq o‘ti otashgahi joni aning,
G‘am tengizi ashki ravoni aning.

Sham‘ kibi bazm furuzanda ul,
Bazm furuzandau so‘zanda ul.

Ganja quyoshiki, ko‘targach alam,
Ayladi so‘z mamlakatin yakqalam.

Bo'lmadi bir mulk sari kinaxoh,
Kim bu dog'i chekmadi ul yon sipoh.

Bir may ila bodaparast o'lmadi,
Kim bu ham ul may bila mast o'lmadi.

Qaysi shabistong'aki, ul qildi azm,
Bazmi yerida bu dog'i tuzdi bazm.

Ul bezabon «Maxzani asror»idin,
Bu yorutub «Matlai anvor»idin.

Masnavi uslubi musallam anga,
Payravu monand bu bir ham anga.

Ko'p kishi ham qildi tatabbu' havas,
Sarvu gul o'trusig'a kelturdi xas.

Bir kishidin o'zgaki, andoq kishi,
Bermadi yod eski falak gardishi.

XIII

Safo jomining soft oshomi mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madda zillahul-oliy vasfikim, vasfg'a sig'mas va ta'rifikim, ta'rifg'a rost kelmas va ul hazrat iltifotining quyoshi bu xoksori tiyra ro'zgor holig'a partav solg'onining izhori va ul quyosh tarbiyatidin bu tufroqqa zohir qilg'an guli nasrin, balki gunogun rayohin osori va «Tuhfat ul-ahror» tuhafi mutolaasidin mahzun ko'ngul tarabi va «Hayrat-ul-abror» laoli va javohirin nazm rishtasig'a tortmoqning sababi

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul.

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi,
Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi.

Oliy anga yetti falakdin mahal,
Yetti falak mushkili ollida hal.

Madrasai Quds aning ma'mani,
Xonaqahi uns aning maskani.

Jilvagahi gulshani charxi barin,
Obxo'ri chashmai aynul-yaqin.

Qasri kalomi chiqib andoq baland,
Kim anga gardun sola olmay kamand.

Anda shayotin xasig'a yo'q sabot,
Baski urub xayli maloyik qanot.

Gunbadiyi hujrada zoti nihon,
O'ylaki ko'k gunbazi ichra jahon.

Qaysi jahon, olami kubro degil,
Qudrati Allohu taolo degil.

Xirqa aning, jismida qapton bo'lub,
Qaptoni tan, jismi aning jon bo'lub.

Xirqa bila topmag'ani ixtisos,
Tanni riyo to'nidin etmak xalos.

Chunki tavajjuhda quyi solsa farq,
Soyiri ravshan ravish andoqqi barq.

Sayrdakim charxni aylab xijil,
Tay qilibon arz «Katayyis-sijl».

Vaqtı quyoshin chu qilib pardapo'sh,
Kilki qaro abrdek aylab xurush.

Parda yasab holati pinhon uchun,
Safha yozib satr ila kitmon uchun.

Zulmat etib jam' davoti aning,
Ma'ni o'lub obi hayoti aning.

Qatrasidin kimki bo'lub komyob,
Umri muabbad qilibon iktisob.

Nazmi aqolimi jahonni tutub,
Nasri dog'i kishvari jonni tutub.

Fayzi gadovu shah aro muntashir,
Xizmatiga shohu gado muftaxir.

Lek manga ollida ajzu niyoz,
Borcha ulusdin beribon imtiyoz.

Mehridin ofoq aro gar nurdur,
Zarra aning mehrida mashhurdur.

Qush ko'p o'lur bog' harimig'a xos,
Bulbul ila gulga bo'lur ixtisos.

Nomag'akim roqim etib xomasin,
Ko'rmadi men ko'rmayin el nomasin.

Mehr tulu' ayladi chun tog' uza,
Tushti burun partavi tufrog' uza.

Gulbun uza harne gul ochti chaman,
Avval aning hamdami bo'ldi tikan.

Bazmda bir kun yuzidin nur edi,
Har soridin nodira mazkur edi.

Tushti chu rahrav bila payravg'a so'z,
Yetti Nizomiy bila Xusravg'a so'z.

Kim ne sifat olam aro soldi shayn,
Ikkisining xomasidin xamsatayn.

Lek bu o'n turfaki, topmish jamol,
Ikki burung'isida bor o'zga hol:

Gavhare yo'q «Maxzan ul-asror» dek,
Axtare yo'q «Matla' ul-anvor»dek.

O'zga sanamlar ham erur jilvasoz,
Borchasining husnida zebi majoz.

Ul ikisidin biri gavharfishon,
Gavharida nuri yaqindin nishon.

Ul birisi dog'i bo'lub nurposh,
Nuri aro partavi tahqiq fosh.

Nukta suv yanglig' eritur toshni,
Topsa haqiqat o'tidin choshni.

Bo'lsa haqiqat guharidin yiroq,
Rishta so'zin so'zlamagan yaxshiroq.

Rishtag'a chun zohir erur toru pud,
Dursiz anga rangi-yu naqshi ne sud?

O'tti chu alqissa bir oy, ikki oy,
Bir kun o'lub, baxtu xirad rahnamoy.

Xidmatin ettimki, tamanno edi,
Ilgida ko'rdum necha ajzo edi.

Kulgu bila qildi ishorat manga,
«To'hfa» bila berdi bashorat manga.

Kim olibon boshtin ayog'ig'a boq,
Qil nazar avroqig'a boshtin-ayoq.

Ollig'a jon naqdini sochtim ravon,
Oldimu o'ptum, dog'i ochtim ravon.

Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, «Tuhfat ul-ahror» edi.

Naf' topib kimki bo'lub mustafid,
Muxtasar ul ikkidin, ammo mufid.

Ul ikini topsa bo'lur munda-o'q,
Munda tuhaf ko'pki, ul ikkida yo'q.

Shavqida ko'ksumni shikof ayladim,
Jildig'a ko'nglumni g'ilof ayladim.

Chun o'qumoq zamzamasini bo'ldi bas,
Ko'nglum aro dag'dag'a soldi havas,

Kim bu yo'l ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom o'lsa manga ham xirom.

Forsi o'ldi chu alarg'a ado,
Turki ila qilsam ani ibtido.

Forsi el topti chu xursandliq,
Turk dog'i topsa barumandliq.

Ul ikiga fотиha o'qub so'rub,
Fотиha bu biri manga yetkurub.

Botin ila qilmasa ul ikki rad,
Zohir ila bu biri qilsa madad.

Menki talab yo'lida qo'ydim qadam,
Bordur umidimki, chu tutsam qalam,

Yo'ldasa, bu yo'lda Nizomiy yo'lum,
Qo'ldasa, Xusrav bila Jomiy qo'lum.

Nukta surudida ravo bo'lmag'ay,
Buki Navoiyg'a navo bo'lmag'ay.

Eltsa joh ahlig'a muflis panoh,
Topsa qabul ul ham o'lur ahli joh.

Mushkka hargiz teridin or emas,
La'lg'a ham xoradin ozor emas.

Bog'i anosirki, erur dilkushoy,
Jadvali devori aning chordoy.

Bo'lsa o'tu suvu havo dilpazir,
Ul aro tufroq ham erur noguzir.

Sarvu gulu lola xaridori bor,
Lek o'tunning dog'i bozori bor.

Bo'lsa xazu atlasu iksun libos,
It juli qilmoqqa yarar ham palos.

La'l ila yoqutu dur istar baho,
Lek somonni chekar kahrabo.

Uch qadahi sof ila shah bo'lsa xush,
Loyi dog'i qolsa chekar durdkash.

It kibi chun pastlig'im chog'ladim,
O'zni biyiklar ipiga bog'ladim.

Bo'lsa alar ozimi dashti adam,
Men ham o'lay soya kibi hamqadam.

Kahfi baqo ichra alar bo'lsa gum,
Men ham o'lay "Robiuhum kalbuhum".

XIV

So'z ta'rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti ma'danining javohiri serobi durur va sa'd kavkablarning bir-hiri birla qironi yaxshi asar ko'rguzuridin va samin javharlarning bir-biriga iqtironi dilpazir ko'runuridin, nazm tarkibin nasr tartibig'a tarjih qilmoq

So'z guharig'a erur oncha sharaf,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.

To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul.

Bog'chai dahrki yuz toza gul —
Topti qayonkim nazar etti ko'ngul.

Katmi adam gulshani ichra nuhuft,
G'unchalar erdi borisi noshukuft.

Chun bu nasim esti azal tog'idin,
Muncha gul ochildi jahon bog'idin.

Qaysi nasim ulki erur gulfishon,
Bargi gulu nastaran andin nishon.

Bu ikki yafrog'ni qachon zufunun,
Bir-biriga qo'ysa bo'lur «kofu nun».

Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur «kof» ila «nun» zodasi.

Zodasidin zoda bo'lub beadad,
Zodaga ham valid o'lub, ham valad.

Vasf ne nav' o'lg'ay anga el so'zi,
Harne so'z aytilsa erur chun o'zi.

Jon o'lub ul, ruh aning qolibi,
Kim tanida ruh, aning tolibi.

Borcha ko'ngul durji aro javhar ul,
Borcha og'iz huqqasida gavhar ul.

Gar xud erur xanjari po'lod til,
Suftidog'i injulari so'zni bil.

Til bu chamanning varaqi lolasi,
So'z duraridin bo'lubon jolasi.

So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.

Tirguzub o'lganni kalomi fasih,
O'ziga jonbaxsh laqab deb Masih.

Bois o'lub shah so'zi bedodga,
Tuhmat o'lub o'rtada jallodga.

So'zdin etib o'tg'a azimat Xalil,
So'z yukiga homil o'lub Jabrail.

Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.

G'uncha og'izlik sanami no'shlab,
So'zdin agar aylasa xomo'sh lab.

La'li mayi aqlni mast aylasa,
Mast nekim, bodaparast aylasa.

Surat ila bo'lsa mahi osmon,
Surati devor hamon, ul hamon.

Gar chiroyi rashki qamar bo'lmasa,
La'li labi tungi shakar bo'lmasa.

Aylamasa g'amzani novakfikan,
Qilmasa kirpik safini safshikan.

Bo'lmasa g'oratgaru tannoz ham,
Chin bila husn o'lsa anga noz ham.

Lek takallum chog'i aylab itob,
Talx hadis o'lsavu shirin javob.

Fitna qilib, va'dau payg'om ila,
Aqlni mast aylasa dashnom ila.

Ko'rguzubon loba malohat uza,
Lobasi tuz sepsa jarohat uza,

Kim ekin ul shu'lag'a yoqilg'uchi,
Yo bu jarohatqa davo qilg'uchi.

Gar bo'lubon husn ila obidfireb,
Bo'lsa malohat bila husniga zeb.

Oytasa bu husnu malohat bila,
Nuktani oyini fasohat bila.

Solg'usi jinsi bani odamg'a o't,
Ne bani odam, bari olamg'a o't.

Har dam etib elni halok o'rtagay,
Balki bashar xaylini pok o'rtagay.

Bazmda har mutribi dastonsaro,
Cheksa tarannum bila dilkash navo.

Naqshda har necha talolo desa,
Yo amal ichra tanadirno desa.

Borchasidin haz etar ahli uqul,
Gar xud uzoq cheksa bo'lurlar malul.

Yo bu navo zimnida asrab mahal,
Cheksa Navoiy so'zidin bir g'azal.

Kim anga alfoz o'lub otashfishon,
Bersa ulus ko'ngliga mungdin nishon.

Bazmda ul lahza aloloni ko'r,
Ko'yi xarobot aro g'avg'oni ko'r.

Ko'rki nechukdur yoqo chok aylamak,
O'zni fig'on birla halok aylamak.

Donau dur so'zini afsona bil,
So'zni jahon bahrida durdona bil.

Munchaki sharh etti qalam so'zga hol —
Nasridadur, nazmida bor o'zga hol.

So'z aro yolg'on kibi yo'q nopisand,
Aylar aning nazmini dono pisand.

O'rnida tishlar duri manzum erur,
Chun sochilur qiymati ma'lum erur.

Vardu shajar shohid erur bog' aro,
Lek o'tun silkidadur tog' aro.

Munda parishonlig'i noxush qilib,
Anda murattablig'i dilkash qilib.

Nav'i bashar boshig'a Rabbi G'afur,
Qo'ydi tavofut bila toji zuhur.

Shohki, gulshanni bisot aylagay,
Bazm tuzub, azmi nishot aylagay,
Har kishi o'z poyasi birla maqom —
Tutsa erur anjuman ichra nizom.
Emdiki may zoyil etib hushni,
Shah yonig'a tortti chovushni.
Qul beg ila tuzdi uzun mojaro,
Qayda halovat yana ul bazm aro?
Arsada shatranjni ulkim to'kar,
Necha yig'och porasidurkim o'kar.
Chunki birov o'lturubon har taraf,
Tersa bisot ichra ani ikki saf.
Har yon iki saf iki misra' kibi,
To'rt saf o'lsa, iki matla' kibi.
Har biri bir turfa muammo bo'lub,
Otlar aning zimnida paydo bo'lub.
Fikri sahih elga bisotida ot,
Qilsa parishonlig' o'lub anda mot.
Daftari nazmida chu sherozadur,
Gul varaqi gulshan aro tozadur,
Uzdi chu sherozasini daftari,
Yel uchurur har varaqin bir sari.
Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,
Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i.
Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm.
Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati harne durur.
Nazmki, ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga.
Yo Rab, ani xalq dilafro'zi et,
Xasta Navoiyg'a dog'i ro'zi et.

Bir necha so'z ul ma'nidakim, so'zdagi ma'ni jone dururkim, so'z qolibi onsiz qolibe durur jonsiz va ani topmoq ishini kishi hilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli gazof noinsoflig'ig'a munsif bo'lmoq, balki o'z gazofig'a insof berib, alarning uzrini qo'lmoq

Ul kishi so'z bahrída g'avvos erur,
Kim guhari ma'ni anga xos erur.

Fayz harimida tajalli anga,
Kim yorubon mash'ali ma'ni anga.

So'z mayini ul kishi oshom etib,
Kim duri ma'ni sadafin jom etib.

Ruh safolik ne ajab rohdur,
Tiyra ko'ngul kunjiga misbohdur.

Lab-balab ul may bila xumi sipehr,
Og'zidagi kirpich anga xishti mehr.

G'arqa aning bahrig'a ahli jahon,
Ko'zdin etib oni latofat nihon.

Qatrasini har kishi no'sh aylabon,
Nash'asidin xum kibi jo'sh aylabon.

Nechaki fayzi bila olam to'lub,
Qatraye bahridin aning kam bo'lub.

Menki, bu may nash'asidin mast men,
Dayri fano ahlig'a hamdast men.

Andoq erur garm dimog'im mening,
Kim yoqib ul shu'la charog'im mening.

Garchi yetib jomi hidoyat manga,
So'zda sukut o'ldi bag'oyat manga.

Lek biror vaqt borib ixtiyor,
May iligimdan chiqorib ixtiyor.

Arsai olamg'a sabodek borib,
Mehrdek obodu huzuq axtorib.

Ilgima tushmay bori ofoq aro,
Balki to'quz charxi ko'han toq aro.

O'yla harifeki, chu bazm aylasam,
Ichgali bu bodani azm aylasam.

Nazm biyik masnadida o'lturub,
Ollima nazm ahli tuman ming turub.

Bazmda shohona yasab sozu barg,
Boshim uza egri qo'yub nimgarg.

So'z mayidin ollima daryoyi jarf,
Ilgima zavraq kibi jomi shigarf.

Har nafas aylab to'la ul jomni,
Sipqorib ul bodai gulfomni.

Turk surudi bila solib qo'lum,
Qilsam ado hay tulugum, hay tulum.

Ul qila olmasa hamovozliq,
Qilsa ayolg'u bila damsozliq.

Bo'lmasa bir jomim ichar jur'ati,
Bo'lsa biror jur'a chekar quvvati.

Bazmi murodimni sipehri baland,
Qilmadi bu tuhfa bila arjumand.

Yo'q edi erkinmu burun ham kishi,
Kim bu may ichmak edi erkin ishi?

Yo bo'lubon borchasi azm ettilar,
Bazmg'a men yetmas ekach kettilar.

Manga bu bekaslik emas erdi bas,
Kim chiqibon har sari bir hechkas.

Tab'kaju borcha takallumnamoy,
Nag'ma chabu borcha tarannumsaroy.

Anglamayin so'zda tuyuq bahrini,
Qaysi tuyuq, balki qo'shuq bahrini.

Lafzlari bemaza, tarkibi sust,
Nosara ma'niyu ado nodurust.

Borchasig'a da'viyi ma'niyi xos,
Xoslarim topmay alardin xalos.

Ravzai nazm o'lg'ali rangin manga,
Harne yo'luqti sanami Chin manga.

Bor edi mashshotai tab'im ishi,
Bermak alar husnining oroyishi.

Shona urub sunbuli gususig'a,
Surma chekib nargisi jodusig'a.

Qon yosh ila orazini ol etib,
Yuzida ko'z mardumini xol etib.

Lafz libosin tikibon rang-rang,
Kiymak uchun ul sanami sho'xu shang.

Kiydurubon hullai mavzun anga,
Zevlar etib yuz duri maknun anga.

Qilsam etib boshtin-ayoq jon ani,
Hajlai noz ichra xiromon ani.

Chun anga bu xayli jafogar yetib,
Hullalarin g'oratu toroj etib.

Jismida ne hulla qo'yub, ne harir,
O'zini bedod ila aylab asir.

Zohir etib yig'lagudek hol anga,
Kiydurubon eski qaro shol anga.

Turfa bukim, she'r qo'yub otini,
Yetkurubon ko'kka mubohotini.

Turfaroq ulkim, tonirimni bilib,
Haqdin uyalmay, manga zohir qilib.

Vahki, manga jilvagar aylar chog'i,
Istabon ehson dog'i, tahsin dog'i.

Ko'ngluma ko'p tig'i jafu urdilar,
Dema ko'ngul, jonima yetkurdilar.

Qolmadi chun o'zga manga choraye,
Qal'a yasardek topibon xoraye.

Qulla chu ham oliy edi, ham vase',
Ustiga qo'ydim bu binoyi rafe'.

Suv g'acha xoro bila bunyod etib,
Ko'kka degin porai po'lod etib,

Xandaqini vahm aningdek qozib,
Kimki boqib qa'riga aqli ozib.

Ne tubiga naqb bo'lub sudmand,
Ne yetibon kungurasig'a kamand.

Ma'mani ul xayli parizod etib,
Jonlarin ul xavfdin ozod etib.

Tegmak uchun jismu uchurmoqqa bosh,
Anda qilib ta'biya ko'p o'qu tosh.

Toshi aning taqviyi jonkohdin,
O'qlari ham ohi sahargohdin.

Nogah anga yovusa bir beadab,
Tosh ila o'qdin anga yetgay taab.

Alloh-Alloh, bu ne afsonadur,
Kim bu fasona desa devonadur.

Arbada ko'p bo'ldi, magar mast men,
Yoki junun qaydig'a pobast men.

Ermas esam mast, nedur muncha lof,
Mahz junun bo'lmasa, muncha gazof.

Bu necha tandinki, shikoyat dedim,
Anglamayin harza hikoyat dedim.

Borchasining nuktasi rangin erur,
Nazmlari dilkashu shirin erur.

O'zda yo'q erdim bu so'z aytur zamon,
Borcha alar yaxshi erur, men yamon.

Tebra Navoiy-yu navo demagil,
Harne emas bo'lsa, ravo, demagil.

Savtung erur boshtin-ayoq harza, qo'p!
Boshlarig'a evrul, ayog'larin o'p.

Borcha gado ollida bo'lg'il gado,
To sanga shah qurbini bergay Xudo.

XVI

Salotin xaylining sarafrozi va xavoqin mulkining ganjpardozi muizzius-saltanatidd-dunyo vad-din Abulg'ozil Sulton Husayn Bahodirxon xalladallohu mulkahu va sultonahu va avzaha alal-olamina birrahu va ehsonahu madhikim, go'yo til bila madhin demak maholdurur, bataxsiskim qalam tili madhida lol durur

Qaysi shah ul xusravi olampanoh,
Olamu odam anga mulku sipoh.

Qasri yeti gunbadi gardon kelib,
Yetti atosig'a degin xon kelib.

Xon kelibon ham oto, ham ot anga,
Faqr oti birla mubohot anga.

Turku mo'g'ul qullari xonlar aning,
Mulkdehi mulksitonlar aning.

Qullug'i xonlarg'a kelib farzi ayn,
Xonlaru shahlar shahi Sulton Husayn.

Shoh Abulg'oziyi xurshedroy,
Royatining mahchasi xurshedsoy.

Charxi barin taxti uchun poyaye,
Shamsai xur tojig'a piroyaye.

Abri kafi bahri javohirnisor,
Tig'i bu daryo suyig'a jo'ybor.

Mehr kamarbandida yoqut o'lub,
Yonidag'i xanjar anga Hut o'lub.

Nedur, agar Hut emas xanjari,
Qabzada gavhardin anga Mushtari.

Qavs anga bir yoki chu tortib kuchun,
Osti falak toqig'a manshur uchun.

Turki falak chun anga gohi yetib,
Tebrata olmay nechakim zo'r etib.

Charxi mudavvar anga qolqon kelib,
Qubbasi xurshedi duraxshon kelib.

Bo'ldi bu qolqon yuzida Kahkashon,
Qini murassa' qilichidin nishon.

Nayzasidur charxda ermas shihob,
Qavs kibi yopqon anga siymi nob.

La'liyi tah nuqra qilurg'a shafaq,
Rangi-yu afshong'a quyosh zarvaraq.

Qahri o'ti chiqti muxolifgudoz,
Lutfi yeli esti raiyatnavoz.

Boriqai xanjari ofoqso'z,
Sha'shaai sog'ari getifuro'z.

Ilg'i saxovatdin o'lub zarfishon,
Lutfi talattuf bila gavharfishon.

Ko'ngli bilik gavharidin ganjxez,
Ilg'i saxovat kafidin ganjrez.

Ham karami bahr ila kon ofati,
Ham g'azabi mulki jahon ofati.

Lek qachon qahri o'ti cheksa bosh,
Afvi sahobi yetibon qatraposh.

Razm kuni bo'lsa temur ichra g'arq,
Javshani zarkor qadam to ba farq.

Rost xazon barglari suv aro,
Yoki aduv chehrasi ko'zgu aro.

Tig'i temur panja aro chun tutub,
Tig'i hamono bu temurdin butub.

Shu'lai tig'in demagil charkasi,
Chekti zabona hamul o't shu'lasi.

Chun tushubon nayza aduv farqig'a,
O'xshabon ul lahza balo barqig'a.

Tushgach aning abri kafidin bu barq,
To'da kulu tog' aro yo'q hech farq.

Ashhabi rang ichra bo'lub barqfom,
Rangi nekim, po'yada ham barqgom.

Muzmar ayog'i, iligida sabo,
Oti bu ma'nidin o'lub bodpo.

Har sorikim po'ya qilib tezu tund,
Tavsani aflok o'lub ollida kund.

Janbida gardun ko'rubon tavsanin,
Uyki yurub yanchar aning xirmanin.

Xirman uyi bo'lmasa nevchun mudom,
Doyir etar sayru tuz etmas xirom.

Istasang ul xirmanu uydin nishon,
Bas bu nishon Sunbulau Kahkashon.

Sekrimak ichraki aning yo'q hadi,
Gunbadi gardun kibi har gunbadi.

Yo'rg'alamoq vaqti chu solib ayog',
Kabki dari ollida andoqki zog'.

Lek yorish vaqti yugurgan zamon,
Tog' hamon ollida homun hamon.

Sayr chog'i tushsa ko'zi har sori,
Solib ayoq ming yig'och andin nori.

Ish kuni bu raxsh uza javlon urub,
Yuz tuman a'do cherigin sindurub.

Razm ishi chun qolmasa maydon sori,
Ishrat uchun qo'ysa yuz ayvon sori.

Tushsau Rustam kibi qilsa xirom,
Taxt uza Jamsheddek etsa maqom,

Ham boshidin qo'ysa olib toji zar,
Ham belidin yeshsa murassa' kamar,
Chiqsa urush bo'ktaru xaftonidin,
Kiysa tarab hullau kattonidin,
Bog'i Eram sahnida bazm aylasa,
Bodai nob ichgali azm aylasa.
Qilsa navozandalar ohangi rud,
Ahli g'ino tortsa dilkash surud.
Soqiya gulchehra tutar birla qo'sh,
Aylasa bazm ahlig'a toroji hush,
Shahlar adabdin tikibon yerga ko'z,
So'rmasa, beglarga ne imkoni so'z.
Anjumani gulshani gardun bo'lub,
Anda quyosh sog'ari maydin to'lub,
Zuhra surudini mato' aylabon,
Badr bu majlisda samo' aylabon,
Balki Atorid kibi har dam Suhayl,
Zohir etib madh adosig'a mayl.
Bazmi bo'lub gulshani axzar kibi,
Qursi gazak har sari axtar kibi,
Masnadi uzra o'zi Jamsheddek,
Yo'qki, sipehr avjida xursheddek,
El ko'zini partavi ravshan qilib,
Bal qaro tufrog'ni gulshan qilib,
Jud iligi ahli g'ino boshig'a,
Qaysi g'ino, shohu gado boshig'a,
Bodi xazondek dirami zar sochib,
Abri bahoriy kibi gavhar sochib.
Toki xazon yeli zarafshon erur,
Abri bahoriy guharafshon erur.
Ul biridek elga zarafshonlig' et,
Bu biri yanglig' guharafshonlig' et.
Bahri falakdin sanga gavhar xiroj,
Gavhari zoting bori olamg'a toj.
Tojinga tarsi' abad zevari,
Avji uza bahri baqo gavhari.

XVII

*Ko'ngul ta'rifidakim, ko'ngul tilagandek qililmaydurur va aning
vasfin sohibdilliqg'a mavsum bo'lg'on kishidin o'zga kishi bilmay
durur. Ko'ngulsiz roqim xomasin raqamkash qilmoq va bu raqam
savodi bila ko'nglin xush qilmoq*

Subhi azal qildi chu dehqoni sun',
Odami xokiyni gulistoni sun'.

Esti nasimi bu guliston sari,
Sunbulu sarvu gulu rayhon sari.

Kim bu rayohing'a yetushti futuh,
O'ylaki tan gulshanig'a kirdi ruh.

Ermas edi anda g'araz hech gul,
G'ayri ko'ngulkim, g'araz erdi ko'ngul.

Eyki, ko'ngul vasfi bayon aylading,
Sen bu ko'ngulni ne gumon aylading.

Gulshani jisming aro gul g'unchasi —
Bitsa, gumon etma ko'ngul g'unchasi.

G'uncha emaskim, bu ko'ngul qon erur,
Yo bo'yalib, qon aro paykon erur.

Yo'qki, bu bir shakl durur rangu bo',
Harne kerak bo'lsun, agar bo'lsa bu.

Gar bu durur har nimakim joni bor,
Jismida bu g'uncha sifat qoni bor.

Ham oni dajjol topib, ham nabi,
Iso bila tengmu bo'lur markabi?

Gar bu esa Xoja, o'zin muttasil —
Qaysi ko'ngul birla degay ahli dil?

Bu xud emas jazm sen istar ko'ngul,
Gar bu ko'ngul bo'lsa sen andin to'ngul.

Buki ko'ngul dersen erur bu yurak,
Ism ko'ngul birla anga mushtarak.

Ko'ngul erur bulbuli bo'stoni roz,
Quds harimida bo'lub jilvasoz.

Royihai jannati a'lo ham ul,
Partavi misbohi tajallo ham ul.

Solik ani Arshi muallo dedi,
So'fi ani olami kubro dedi.

Ayni nazohatda bu a'zam jahon,
Borcha jahon ahli ko'zidan nihon.

Ka'baki olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q andoqki ko'ngul ka'basi.

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri Xoliqqa erur jilvagoh.

Topqucha ganjinai asrorliq,
Ko'p qilibon soliki atvorliq.

Ka'bag'a ham qat'i manozil qilib,
Dayrg'a ham tayyi marohil qilib,

Ham yetibon ahli munojot aro,
Ham tushubon ko'yi xarobot aro.

Goh bo'lubon mu'takifi xonaqah,
Shayx oni toatg'a qilib ro'barah.

Goh kirib dayri fano sori mast,
Mug'bacha ollida bo'lub butparast.

Goh qilib sham'g'a parvonaliq,
Goh pari ishqida devonaliq.

Goh visol ichra bo'lub ayshsoz,
Goh firoq o'tig'a aylab gudoz.

Gar ko'rubon chobuki simintane,
Xandai shirin bila sho'rafkane.

Dardu balo tog'ida Farhod o'lub,
Tirnog' anga teshai po'lod o'lub.

Yo yo'luqub mohruxi dilkashe,
Dashti malohat aro Laylivashe.

Ishqida sargashta chu gardun o'lub,
Dard biyobonida Majnun o'lub.

Sokin o'lub o'tda samandar kibi,
G'o'ta urub suv aro gavhar kibi.

G'arqi havo abri guharsanjdek,
Tufroq ichinda yotibon ganjdek.

Vodiye qolmay ul anga yetmagan,
Qat'ida takmili suluk etmagan,

Oriz o'lub jumlai holot anga,
To bo'lubon kasbi kamolot anga,

Olam aro har ne ko'rub, kasb etib,
To laqabi olami kubro yetib.

Kimga bu olam sari ochilsa yo'l,
Olam aro ahli dil ul bo'ldi, ul.

Ulki yetib maxzani ra'fat anga,
Bo'ldi bu olamda xilofat anga.

Taxti safo bo'ldi aning maskani,
So'fiyi sohibdil ani bil, ani.

Yo'lida jonu ko'ngul aylab fido,
Jonu ko'nguldan anga qil iqtido.

Gar etagin tutmoq emas dastras,
Tushsa Navoiy sari bir rishta bas.

XVIII

AVVALG'I HAYRAT

*Ko'ngulning adam tunidin qutulub, vujud subhig'a hamnafas bo'lub,
malak olami bahoristonining rango-rang azhori va gunogun ashjorin
tamosho qilg'oni va alarni «Sabbihisma Rabbikal-a'lo» amri bila
qayyumi haqiqiy tasbihig'a mashg'ul erkonin bilib dimog'i bog'ida
hayrat gullari ochilg'oni va ul gullar atri dimog'idin hush olib
behush yiqilg'oni*

Subhdur, ey soqiy, etib mehr fosh,
Tut manga bir jom nechukkim quyosh.

Tong qushi chun berdi payomi sabuh,
No'sh etayin bir-ikki jomi sabuh.

Subh safoliq mayidin mast o'lay,
Tong qushig'a nolada hamdast o'lay.

Berdi sahar hullasi zar rishtatob,
Qolmadi tun pardasidin rishta tob.

Yozdi falak toqig'a kilki qazo,
Oyati «Vash-shams» bila «Vaz-zuho».

So'fiyi subh aylabon ul dam zuhur,
Yoydi sipehr uzra musalloyi nur.

Shom savodi asarin tiyra xok,
Subh supurgusi bila qildi pok.

Charxki, dahr uzra edi mushkrez,
Bo'ldi hamul mushk uza kofurbez.

Nilufari charx to'kub jolasin,
Ochti sahar bog'i sarig' lolasin.

Oj o'lubon panjarai obnus,
O't sohibon mijmarai sandarus.

Kuydi quyosh o'tig'a zulmat tuni,
Uchti havo uzra nujum uchquni.

Jilva bo'lub gum kecha tovusidin,
Nur ketib gullari ko'zqusidin.

Ko'z ochibon Xoja adam shomidin,
Jon topibon tong yeli payg'omidin.

Shomi adamni surub andoqki dud,
Esti dimog'ig'a nasimi vujud.

Zohir o'lub o'ziga begonavor,
Yuz urubon har sori devonavor.

Har nafasi subh kibi sorg'orib,
Tong yelidek har dam o'zidin borib.

Yuz tuman a'juba tamosho qilib,
Sirrini bilmakni tamanno qilib.

Fikrati qilg'on soyi ko'prak xayol,
Anglabon o'z komini ko'prak mahol.

Bo'lmadi ul pardada chun kashfi roz,
Ko'p qilib izhori sujudu niyoz.

Kasr harimida maqom ayladi,
Ajzu tahayyurg'a qiyom ayladi.

Ya's ila o'z ajzini qilg'och ado,
Qildi anga hotifi g'aybiy nido —

Kim, qo'pu sayr ayla bu gulshan sori,
Ayla nazar sabzai ravshan sori.

Qo'ptiyu qo'ydi chu bir-ikki qadam,
Bo'ldi ayon ravzai bog'i Eram.

Qaysi Eram, gulshani minusirisht,
Gulshani minu dema, bog'i bihisht.

Har shajari sidrag'a bosh yetkurub,
Shoxin aning shoxiga chirmashturub.

Barglari ko'kka qilib sarzanish,
Soyasida mehr topib parvarish.

Sarvlari sarkashu zangorgun,
Har biri ko'k borgahig'a sutun.
Mehr chinor ofatining ranjasi,
Panjasini ojiz etib panjasi.
Sorg'orib ul mehnati jonkoh ila,
Kuydurubon oni qiziq oh ila,
Sandalining atri Masiho dami,
Andin o'luk misli Masih odami,
Suv bo'lubon royihasinidin gulob,
Soyasi tufrog'ni qilib mushki nob.
Soqi sapidorning andoqki siym,
Gard aning siymig'a qo'ymay nasim.
Siym anga chun soqi sumanso bo'lub,
Yafrog'i tah nuqrai mino bo'lub.
Charxqakim shoxi sanubar yetib,
Tugmalarin anjum uchun xo'd etib.
Sarvu sapidor safi muttasil,
Sarvu sapidorni aylab xijil.
Turfa bukim boshida gul ochilib,
Ul gul ayog'ig'a dog'i sochilib.
Sabzasining rangi zumurrad kibi,
Rishtasida tugma zabarjad kibi.
Har sori bir havzai oyinarang,
Kim namidin tutmayin oyina zang.
Jilvagar ul ko'zguda jon surati,
Dasta bo'lub anga arig' hay'ati.
Ruhqa orig' suyidin qut o'lub,
Reza toshi la'l ila yoqut o'lub.
Gul oyog'ig'a suv qo'yub boshini,
Boshini qo'ykim, bu ushoq toshini.
Ziynat uchun qilg'ali xalxol anga,
Yo'qki bu naqd o'lg'ali pomol anga.
Bikr sifat g'uncha bo'lub parda cheh,
Rishtai baxtidin ochilmay gireh.
Shohidi gul husnu namoyish uchun,
Xon olib ilgiga kushoyish uchun.

Dur solibon shabnamu esgach nasim,
Bargi shukufa to'kubon anda siym.

Sabzau gul aksi tushub suv aro,
Orazu xat o'ylaki ko'zgu aro.

Gul uza shabnam chu tushub har varaq,
Ko'rguzub afruxta yuzda araq.

Sunbuli pechon bo'lub af'i misol,
G'uncha aning nishidin ozurda hol.

Zahr ila yoshil bo'lubon paykari,
Bulbul aning boshida afsungari

Tugmaki ostida gumon etti xayl,
Zahr durur qilg'on oyog'ig'a mayl.

Nishtar urarg'a chidamay xordin,
Bulbul etib doiya minqordin.

Sarv ayog'ida xironon tazarv,
Shu'la tazarv o'ldi, aning dudi — sarv.

Jilva qilib har sori tovusi mast,
Gullaru gulhun topib andin shikast.

Tolni yangi shox ila bargi g'ulu,
Ayladi devonai jo'lidamo'.

Bog' hakimi hiyalu makr ila,
Solib ayog'ig'a sudin silsila.

Nargis arilmay marazidin arig',
Ko'zlari ayni yaraqondin sarig'.

Ko'z tikibon suvg'au rangi sinib,
Sabzani suv ichra bolig' sog'inib.

Har sori zang zar etib oshkor,
Nomiya paykig'a hamishabahor.

Rindi muqamirdek etib lola shayn,
Tosi aro jola bo'lub ka'batayn.

Gul ul o'yung'a chu havas ko'rguzub,
Jaybidag'i xurdalarin utquzub.

Jola binafshag'a urub toshini,
Bog'lab ko'k yog'lig' ila boshini.

Ko'rguzubon barq bulutdin daraxsh,
Qatra Xizr chashmasidek ruhbaxsh.

Qilg'ali amvotni ihyo nasim,
Fosh etib anfosi Masiho nasim.

Qatrasi gavhar suyidin ham firih,
Tufrog'i jannat gulidin ham nazih.

Ul bu Eram tavfida behol o'lub,
Zoyil o'lub hushu tili lol o'lub,

Har tarafikim boqib ul ravzaning,
Ko'zga g'aroyib ko'runub birga ming.

Necha nazar bo'lsa tamoshotalab,
Bul'ajab uzra ko'runub bul'ajab.

Topmadi sarrishtani chun fikrati,
Hayrat uza qildi g'ulu hayrati.

Aql ishin ya's junun ayladi,
Vasvasa hushini zabun ayladi.

Kim bu gulistonkim erur bir jahon,
Balki jahone gul ichida nihon.

Butmak o'zi xud emas imkon anga,
Gar bu emas kim esa dehqon anga.

Soldi nihodig'a bu hayrat xurush,
Kim dedi ul hayrat ichinda surush —

Kim, nedurur hayrati befoyida,
Sanga bu hayrat ila ne foyida.

Sirri haqiqatdin o'lub bahravar,
Ayla basirat ko'zi birla nazar.

Dur kibi yetgach qulog'ig'a bu so'z,
Nuri hidoyat bila ochti chu ko'z.

Foxtadin qumriyu bulbulgacha,
Balki shajar yafrog'idin gulgacha,

Barchasi qayyumig'a zokir edi,
Har bir aning shukrig'a shokir edi.

Gar yel, agar suv bo'lubon nag'masoz,
Soni' ila har biriga o'zga roz.

Chekti bu hayrat bila o'tluq xurush,
Kim bori go'yo edilar, ul — xamush

Soldi dimog'ig'a bu xomushluq
Oh buxori bila behushluq.

Soqiy, yetubdur yana jismimg'a tob,
Yuzuma ur, boda suyidin gulob.

To topibon hush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.

XIX

IKKINCHI HAYRAT

*Ul humoyunbol qushning malak olami gulistonidin malakut olami
shabistonig'a havo qilib, ul rafi' manozilning sham' va mashoilin
zabona tilidin «Vazkurisma rabbika va tabattal ilayhi tabtilo» huk-
mi bila xoliqi asliy zikriga zokir erkanin ma'lum qilib, hayratdin bir
olamdin yana bir olamg'a borg'oni va bu hayrat yana ani bexud-
luqqa solg'oni*

Turki Xo'tan topti chu zebo jamol,
Mushkfishon bo'ldi nasimi shamol.

Urdu nafas nafhai anbar nasim,
Yo'пти varaq safhai abharshamim.

To'kdi jahon gulbuni bargi suman,
Ochti falak bog'chasi nastaran.

Lu'batl Chin chehra nihon ayladi,
Zulfin ochib mushkfishon ayladi.

Royihadin ayladi bu suda mushk,
Anjumi shabgard dimog'ini xushk.

O'ylaki ul yubs chu ta'sir etib,
Chekratibon ko'zlari uyqu ketib.

Pardagi o'ldi egin ichra karak,
Uchti ochib pardalarin shabparak.

Bumki azmi falak o'ldi anga,
Doiradin oy dafak o'ldi anga.

Ko'k o'lang atrofida har guna vard,
Anjum ila doirai lojuvard.

Bu kechakim yuz taab o'ldi anga,
Bir-biridin bul'ajab o'ldi anga.

Aylar edi charxi musha'bidshior,
Har nafase o'zga tilism oshkor.

Ko'k bu musha'bidning o'lub chodari,
Axtar o'lub lu'batl siminbari.

Hay'ati tuloniy ila Kahkashon,
Charxqa sayr etgali yo'ldin nishon.

Dema kitoba falak ayvonig'a,
Rahrav o'lub charx shabistonig'a.

Qildi chu ziynat bila bog'i sipehr,
Axtarining har gulini rashki mehr.

Toyiri qudsiy yana istab navo
Uchti dog'i ul sori qildi havo.

Qolibi xokiy qolibon xok uza,
Chiqti falak axtari aflok uza.

Ruh qanoti bila toyir bo'lub,
Charx shabistonig'a soyir bo'lub.

Ushbu jinon ravzasining toyiri,
Bo'ldi chu avvalg'i chaman soyiri.

Zoti aning javhare erdi basit,
Olam anga markaz o'lub, ul Muhit.

Halqa bo'lub javhari ulviy xirom,
Xotam anga nuqtai sifliiy maqom.

Halqa dema, balki mudavvar lagan,
Sham'i aning mash'alai anjuman.

Mash'al o'lub hajr shabistonig'a,
Sham'i gado kulbai vayronig'a.

Nuri berib kulbag'a sham'i farog',
Sham'ni qo'ykim, guhari shabcharog'.

Hay'ati gah doiramonand o'lub,
Savt anga tasbihi Xudovand o'lub.

Goh bo'lub paykari andoqki til,
Aytur uchun Haqqa sano muttasil.

Chun yana bir ravzani qildi vatan,
Sokin edi bir buti siminbadan.

Qoshi fusungar, ko'zi tannozi ham,
Ul bir etib ishvayu bir nozi ham.

Turrasi marg'ulasida yuz girih,
Mushkdin aylab qamar uzra zirih.

Shohid o'zi erdi, navosoz o'zi,
Soqiy o'zi, zamzamapardoz o'zi.

Rangi yigitlik mayidin ol o'lub,
Hamdami bir piri kuhansol o'lub.

Zohir etib za'f so'ngaklar anga,
Kim ko'runub jismida raglar anga.

Ragzan o'lub mutribi hajjomvash,
Raglar aro qon yo'qidin nolakash.

O'zi ham ul raglar ila hamsado,
Raglaru ragzan qilibon shukr ado.

Chun yana bir hujra sori chekti ranj,
Anda edi nodirai nuktasanj.

Ism o'lub ul hujrada munsho anga,
Rishtai dur xat bila insho anga.

Mum kibi tab'i aning dilpazir,
Borcha nigindin bo'lubon naqshgir.

Suv kibi har zarfg'a ohang etib,
O'zini ul zarf ila hamrang etib.

Xomasidin noma siyoh o'lmayin,
Yozg'oni juz hamdi Iloh o'lmayin.

Chun yana gulshanni maqom ayladi,
Har chamane ichra xirom ayladi.

Anda nihon erdi pari paykare,
Durji sipehr ichra samin gavhare.

Gavhari sarchashmai jondin yoruq,
Harne yo'q ondin yoruq, ondin yoruq.

Hay'ati oyinai getinamo,
Ko'zgusi oyning topib andin jilo.

Charx uza parvozi maloyik sifat,
Xatti shuoi anga har yon qanot.

Chashmasini chunki Masiho topib,
Pok damidin o'luk ihyo topib.

Chashma aro obi hayoti aning,
Kecha savodi zulumoti aning.

Paykaridin zohir o'lub chashmalig',
Xatti shuoi anga har yon arig'.

Yo'qki bu xat boshtin-ayoq til bo'lub,
Har tili Haq zikriga qoyil bo'lub.

Chun yana maydon sori ko'rguzdi xez,
Tahmtane tortib edi tig'i tez.

Qahri o'ti cheksa chu dudi g'azab,
Har sharari yuz yil o'lub zuzanab,

Jumlai olamg'a ishi qahr o'lub,
Achchig'idin boshtin-ayoq zahr o'lub.

Tig' solib har sori achchig'idin,
Qon demakim, zahr tomib tig'idin,

El boshining kosasidin jom anga,
May yerida qon bo'lub oshom anga.

Ham o'qi tiyra kecha anjumraboy,
Ham qilichi zaxmi o'lub yangi oy,

Rumhi bila o'qlari, bal tig'i ham,
Tillar o'lub degali shukri niam.

Chun yana bir marhalag'a chekti raxt,
Sokin edi sahnida bir nekbaxt.

O'zi malakvash, kiyimi hullason,
Xoh rido bil ani, gar taylason.

Minbari shashpoya uza o'lturub,
Zuhd shukuhi yuzidin bilgurub.

Chehrani ochmoq kecha odat anga,
Mash'al o'lub nuri saodat anga.

Davlati sarmad kibi farrux jamol,
Aqli mujarrad kibi farxundafol.

Kishvar anga nuru safo xittasi,
Anshi etib hamdu sano xutbasi.

Chun yana bir dayr sori qildi sayr,
Ko'rdiki bir hindu erur piri dayr.

Har ishida sabr tamanno anga,
Sabr kibi ishda taanno anga.

Tiyrajabin o'ylaki mehnat kuni,
Langxirom o'ylaki furqat tuni.

Dayri sabukravg'a nigahbon bo'lub,
Lek batiysayru garonjon bo'lub.

Tomini bu dayrning aylab matof,
Qarn o'tubon aylab ani bir tavof.

Ilgidakim subhani aylab mudir,
Tilni qilib zokiri Hayyi Qadir.

Chun yana bir qullag'a aylab qaror,
Topib aning davrini mahkam hisor.

Burjig'a bu yetti falakdin uruj,
Balki aning bobida «Zotil-buruj».

Xandaqining umqig'a andoza yo'q,
Burji o'n ikki, anga darvoza yo'q.

Razvana har burji aro g'urfaye,
Jilvagar ul g'urfa aro turfaye.

Turfa bukim sayr qilib bardavom,
Sayrlari lek o'n ikki maqom,

Hol tili birla maqol aylabon,
Hamdi Karimi Mutaol aylabon.

Chun boridin yuqqori urdi alam,
Yuqqorig'i poyag'a qo'ydi qadam.

Ko'rdi o'shul xittani butxonaye,
Har butining hay'ati durdonaye.

Anda ne rahbon edi, ne barhaman,
Lek bori butlar edi siymtan.

Har buti butgarg'a parastishda mast,
O'ylaki but sajdasida butparast.

Muncha g'aroyibg'aki qildi guzar,
Ayladi ibrat ko'zi birla nazar.

Borchasida zikru sujud angladi,
Ma'rifatullohg'a shuhud angladi.

Yuzlanib o'z holida g'ayrat anga,
Birga ming o'ldi yana hayrat anga,

Kim bori zokir edi, ul gungu lol,
Borchasi majmuu ul oshufta hol.

Qildi yana hayrati behad ani,
Hush zavoli bila bexud ani.

Soqiy, erur jismim aningdek zaif,
Kim nafasim chiqqali ermas harif.

Jomg'a xud men qo'ya olmon og'iz,
Paxta bila og'zima oni tomiz.

UCHUNCHI HAYRAT

*Ul oshuftahol musofirning malakut olami shahistonidin badan mulki
shahr istonig'a nuzul qilg'oni va ul kishvar ahlining ham «Fazkuruniy
azkurukum» buyrug'i bila Qodiri mutlaq yodi birla erkonin bilib, hay-
rat o'ti ishtiol etib, vujudi ul o'tdin kul bo'lub, fano yeliga bilkul
sovorulmoq bila ikkinchi fano maqomin hosil etib, andin so'ng Haqdin
haqoyi komiliy yetib, Xojaning ul mulkda xilofat
taxtig'a qaror tutqoni*

Mehr chu mashriq sori urdi alam,
Oldi jahon mamlakatin yakqalam.

Tavsani gardung'a minar mayl etib,
Chiqti ufuq jonibidin sekretib.

Chunki biyik bo'lg'ucha qildi shitob,
Soldi harorat bila olamg'a tob.

Xojaki hayrat mayidan mast edi,
Mastliq uyqusig'a hamdast edi.

Soldi quyosh tobi chu mag'zig'a jo'sh,
Seskanibon kirdi dimog'ig'a hush.

Asru achig' may bila maxmur o'lub,
Balki qiziq o't bila mahrur o'lub.

G'urbat o'ti har dam o'lub shu'lazan,
Tushti xayolig'a havoi vatan.

Yona safar ranji qabul ayladi,
Manzili azmig'a nuzul ayladi.

Chunki jahon arsasidin topti bahr,
Keldi aning ollig'a bir turfa shahr.

Har yoni a'jubag'a had nopadid,
Turfai behadg'a adad nopadid.

Sun' iligi bolchig'in aylab xamir,
Lutf ila aylab ani hay'atpazir.

Ikki sutun uzra qilib ta'biya,
Anda ko'p a'juba qilib ta'miya

Vaz'ini ul damki murattab qilib,
To'rt javohirni murakkab qilib.

Ikki anga gavhari ulviy najod,
Ikki yana javhari sifliy nihod.

O'yla taodulki bo'lub to'rt zid,
Borcha tarakkub yuzidin muttahid.

Masjidu bozoru mahallot anga,
Ko'chavu bo'stonu xarobot anga,

O'tig'a Muso o'ti yanglig' ziyo,
Yeli Masiho damidek jonfizo.

Suyi latofatda zuloli bihisht,
Tufrog'i gul, nafhasi anbarsirisht.

Kishvarining qalbida bir taxtgoh,
Bo'lmoq uchun xusravi kishvarpanoh.

Taxtig'a har holki tori bo'lub,
Jumla aqolimida sori bo'lub,

Anda saloh o'lsa, borida saloh,
Bo'lmasa solih, borisi befaloh.

Avjida bir qasrki me'mori sun',
Aylab ani muqassam pargori sun'.

Vaz'ida hayron xiradi xurdabin,
Lol qolib tarhida naqqoshi Chin.

Qasr uza bir gunbadi oliy asos,
Gunbadi gardun bila ra'san bi ra's.

Harne raqam gunbadi gardun aro,
Borchasi bu gunbadi mavzun aro.

Qasrig'a bir turfa eshik ochilib,
Kim duru gavhar unidin sochilib.

Bo'lub ikki la'ldin abvoh anga,
Har sori dandona duri nob anga.

Farshiki yoqut ila marbut o'lub,
Durlari yoqut aro mazbut o'lub.

Har neki ma'kul ila mashrub erur,
Kim yegali, ichgali marg'ub erur.

Shahrg'a bu yo'l bila aylab xirom,
Shahr elining quti bo'lub subhu shom.

Fazlari daf'i uchun ikki yo'l,
Jonibi asfaldin o'lub zohir ul.

La'l eshigi uzra iki bodgir,
Hay'ati matbuu o'zi dilpazir.

Ham kiribon, ham chiqib andin nasim,
Toshida gachkorlig'i soda siym.

Gunbadi ruknig'a maxorij bo'lub,
Shahr yo'lidin yo'li xorij bo'lub,

Ushbu mamar birla nasimi shamol
Shahr elini aylabon osudahol.

Shoh riyozig'a ham aylab murur,
Yetkurubon bazmig'a yuz ming surur.

Shohg'a bir noyibi hikmatmaob,
Kishvari atrofida ul komyob.

Diqqat aro fikri qayonkim ketib,
Nuqtai mavhumni yuz qism etib.

Fikrati har amrda farxundaroy,
Roi bori uqdada mushkilkushoy.

Shoh ani o'z mulkida dastur etib,
Mulkini ul adl ila ma'mur etib,

Yuqqorig'i qasr uza farrux vazir,
Sokinu el amrig'a farmonpazir.

Qasrda besh rahba muhayyo anga,
Bo'lg'ali har sori tamosho anga.

Lek bu besh rahbada besh korvon,
Bir-biridek har biri bisyordon.

Har biri bir ravzada topib mahal,
O'z fanida har biriga yo'q badal.

Biri nazar ilmini idrok etib,
Ayni safodin nazarin pok etib.

Biriga ish buki eshitgach samo',
Qilg'ay ani diqqat ila istimo'.

Biriga qilmoq bo'lubon ta'm dark,
No'shi hayot o'lsun, agar nishi marg.

Biriga har royiha aylab asar,
Xoh quruq nofau, gar mushki tar.

Birga gulu xor muassir bo'lub,
Sovug', isig'din mutaassir bo'lub.

Bosirau somiau lomisa,
Zoyiqau shomma bila xomisa.

Har neki olamda bo'lar mudraki,
Kimdaki idrok munga yo'q shaki.

Qasrki dahlezi topib naqshi Chin,
Sohatida sokin o'lub besh amin,

Har neki zohir bo'lubon besh havos,
O'z ishi kunhida bo'lub rahshunos.

Borcha javohirni yig'ib kelturub,
Burnog'i xozin qo'lig'a topshurub.

Andin ikkinchiga topib intiqol,
Kim bo'lubon xozini oning xayol.

Andin uchunchi bo'lubon naqdsanj,
Hofiz o'lub harne anga yetsa ganj.

Chun yana birga bo'lubon muntaqil,
Ul mutasarrif bo'lubon muttasil.

Harne tasarruf qo'li oning yetib,
Borchani dasturg'a taslim etib.

Zabt etibon noyibi ravshanzamir,
Naqdi mamolikni nechukkim vazir.

Azm etibon dargahi iqbolg'a,
Yuz qo'yubon Ka'hai omolg'a.

Arz qilib borchani shoh ollida,
Dodgari mulkpanoh ollida.

Shah bu xazoying'a chu hozir bo'lub,
Diqqat ila borchag'a nozir bo'lub.

Rad qilibon harneki mardud erur,
Oyirib ul tuhfaki maqsud erur,

Hazrati izzatqa niyoz aylabon,
Tuhfalarin vositasoz aylabon.

To yetib ul lahza nidoyi qabul,
Topibon ul tuhfa tariqi vusul.

Badraqai rohi najoti bo'lub,
Mujibi raf'i darajoti bo'lub.

Xojaki ko'rdi yana mundoq jahon,
Zarrada kavn, qatrada daryo nihon.

Fikr nahangig'a yana qut o'lub,
Lujjai hayrat aro mabhtut o'lub,

Fikrat o'ti ko'kka chekib dudini,
Hayrati nobud etibon budini,

Chunki bu hayrat aro ranju ano
Foni etib Xojani balkim fano.

Haqdin o'lub toza vujude anga,
Toza vujud ichra shuhude anga.

Sham'i baqo chun yorug' aylab ko'zin,
Anglabon ul saltanat ichra o'zin.

Fath o'lub mulk ila kishvar anga,
Balki jahon mulki musaxxar anga,

Mulk o'ziyu taxt o'ziyu shoh o'zi,
Borcha o'zi, borchadin ogoh o'zi.

Nafsg'a chun orif o'lub mo'-bamo',
Foyiz o'lub «Qad arafa rabbahu».

Soqiy, olib kel qadahi xushguvor,
Birga olib tortay ani xojavor.

To chekibon bir-iki jomi shigarf,
Xoja madihida suray necha harf.

XXI

*Xoja Bahouddin Naqshband quddusa sirruhu madhidakim, sun'
naqqoshi hikmat xomasi bila ro'zgor sahifasida aning vujudi naqshin
islomiy tarh etti va surati irshodi bila kufr ahli ko'ngli varaqidin
xitoyi va farangi naqshi ketti va Xoja Ubaydulloh sallamahumul-
lohg'a niyoz arzikim, ul hazratqa xalafi mutlaq, halki xalifai
barhaq durur*

Xojaki, naqqoshi sipehri baland,
Bo'lg'ali har safhasig'a naqshband,

Ayladi avroq munaqqash base,
Naqsh raqam ayladi dilkash base.

Lek aning naqshi kibi dilnavoz,
Chekmadi to xomasidur naqshsoz.

Sobit aning ko'ngli aro naqshi jud,
Mahv o'lub ul safhada naqshi vujud.

Naqshig'a teng tutmay o'zin naqshi Chin,
Olam o'lub ilgida naqshi nigin.

Bo'yla nigin naqshiga farmonbari,
Munana ajab naqsh ila devu pari.

Sa'y ila bu gunbadi bisyornaqsh,
Har nechakim aylabon izhor naqsh.

Naqshining ollida namudor uza,
Naqsh bo'lub safhai devor uza,

Muncha ajab naqsh bila arjmand,
Kimsa emas g'ayri shahi naqshband.

Jong'a chekib ranju ano naqshini,
Sizmoq uchun anda fano naqshini,

Joni chu ul naqsh makoni bo'lub,
Naqshdin o'zga bori foni bo'lub.

Turfa bukim naqshga ko'z solmayin,
Jonida juz naqshi baqo qolmayin.

Ko'ngli chekib maskan aro naqshi sayr,
Sayrda yo'q ko'ngli aro naqshi g'ayr.

Sayr anga bu toqi munaqqash uza,
Naqshi kafi lavhai zarkash uza.

Chun izining naqshig'a surtub jabin,
Ravshan etib ko'z falaki naqshbin.

Ravzai jannatqa chu aylab xirom,
Holi aning o'rnida qoyim maqom.

Ulki bu ofoq ichida toq erur,
Toq nekim, murshidi ofoq erur.

Charxi nigun dargahida xokro'b,
Balki jabini bila xoshokro'b.

Yuz qo'yubon qullug'ig'a shohlar,
Bazmida bexud o'lub ogohlar,

Xizmatidin har kishi ogoh o'lub,
Garchi gado ma'ni ila shoh o'lub.

Necha tushub egniga qilsang qiyos,
Xozini irfon kafidin yuz libos.

Zarq ila tag'yiri libos etmayin,
Tafriqai xazzu palos etmayin,

Suhbatida har necha beshakku rayb,
Jilva qilib shohidi ra'noyi g'ayb,

Go'shai xilvat aro tutmay qaror,
O'zini qilmay yashurun oshkor.

Atlasi gardun bila ming zebu far,
To'rqa to'ni ostida ko'k ostar.

Lek o'shul to'rqasi har tor ila,
Faqrda yuz murshid uchun silsila.

Mulki jahon mazrai dehqoni ul,
Balki jahon mulki nigahboni ul.

Yo'qki mamolikka nigahbon o'lub,
Borcha salotin uza sulton o'lub.

Ruq'alari yetsa ne shah qoshig'a,
Ish ani qo'ymog'lig' o'pub boshig'a.

Anglab ani bosh uza toji yaqin,
Har so'zi ul toj uza durri samin.

Shahg'a dema, lutf chog'i tojbaxsh,
Balki gadolarg'a dog'i tojbaxsh.

Haq so'zini elga qilurda ado,
Teng ko'runub ollida shohu gado.

Chun cholinib navbati qadrig'a ko's,
Shahlar o'lub navbat ila xokbo's.

Xotir o'lub mehri jahontob anga,
Avji sharaf anjumi ashob anga.

Har biri olam eliga rahnamo,
Dema jahon ahliki, ahli samo.

Borcha suluk ahlig'a rahbar bo'lub,
Yo'l elig'a tiyra tun axtar bo'lub.

Tiyra nazarlarg'a berib nuru tob,
Har birisi o'ylaki najmu shihob.

Garchi tijorat bo'lub oyinlari,
Bo'lmadi bir mulkda taskinlari,

Yuklarida tuhfa naqdi fano,
Har biri ul naqddin istab g'ino.

Simlari borcha fano konidin,
Durlari yo'qluq suvi Ummonidin.

Chun kivurub har sori raxti najot,
Band bo'lub chorsuyi koinot.

Olg'uchi gar vahmi ziyonbud etib,
Lek bu savdo chu qilib sud etib.

Toki jahon qasrining imkoni bor,
Ustida oning falak ayvoni bor.

Qo'ymasun ayvoni jahonni tih,
Dabdabai ko'si Ubaydullahi.

Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,
Faqr yo'lida g'ani, imong'a boy.

XXII

AVVALG'I MAQOLAT

Imon sharhidakim, «Al-imonu an tu'minu billahi va maloikatih va kutubih va rusulih va bil-yavmil-oxiri va bil-qadari xayrihi va sharrihi» demakdin maqsud bu kalimot emas va agar ahli zohir muni imon desa, ahli ma'ni demas va uluhiyat daryosig'a shinolig' ajzin zohir qilmoq va maloyika havosida bir necha qanot urmoq va kutub avroqida bir necha harf surmak va rusul jodasida necha qadam yugurmak va qiyomat qoyim bo'lurida qiyom ko'rguzmak va qadar bobida aloqadri hol tarannum tuzmak

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur.

Ulki hadu rasm qo'yar mantiqiy,
Toki bu hayvoni bila notiqiy.

Ikkisi insong'a bo'lub haddi tom,
Zumrai inson aro aylar xirom.

Nav'ini notiq bila hayvon qilur,
Notiqu hayvonini inson qilur.

Sen dog'i inson muni qilsang gumon,
Bilki hamon sen-senu hayvon hamon.

Muniki inson mutafovit erur,
Tengri kalomi xabar andin berur.

Bas kishi jazm aylasa inson oni,
Yaxshi-yomon ichra tafovut qoni?

Bo'lmadi bas noqisu komilda farq,
Topmag'ay el olimu johilda farq.

Bu sifat insonda topilmas faloh,
Mantiqiy aylabdur ani istiloh.

Bas ani inson atag'il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukru hayo.

Bo'yla buyurdi nabiyi Hoshimi,
Kim bu uch imonning erur lozimi.

Bas ani inson demak o'lg'ay ravo,
Kim ishi imon bila topqay navo.

Eyki, sanga ayladim insonni sharh,
Emdi eshitkim qilay imonni sharh.

Olti durur shar'da go'yo adad,
Harneki mo'ming'a kerak mu'taqad.

Aylasa bu olti bila ixtisor,
Olti jihatdin anga bo'lg'ay hisor,

Kim bu hisor o'lsa aning ma'mani,
O'g'ridin emin bo'lubon maxzani,

Naqdini bu hodisa berohidin,
Balki o'kush bim guzargohidin

O'tkaribon xayru salomat bila,
Qolmayin ul yo'lda malomat bila.

Maqsadi asliyg'a xirom aylagay,
Qurb harimini maqom aylagay.

Anglading ijmol ila ta'vilini,
Emdi eshit har biri tafsilini.

Oltidin avvalg'iki maqsud erur,
Bilmak erur Haqniki, mavjud erur.

Aytma mavjudki, ayni vujud,
Harneki mavjud anga fayyozi jud.

Zoti vujudig'a bo'lub muqtaziy,
Nuqs, kamolidin o'lub munqaziy.

Andin o'lub munhat ila murtafi',
Munhat agar murtafi' ul muxtari'.

Zotig'a daryoyi qidam chun toshib,
Bir yon azal, bir yon abaddin oshib.

Harneki qoyim, o'zi Qayyum o'lub,
Bo'lg'usi ul, borchasi ma'dum o'lub.

Borcha jahon ahlig'a zoti nihon,
Mazhari asmou sifoti jahon.

Borchani ham qilg'uchi nobud o'zi.
Borcha borib, bo'lg'uchi mavjud o'zi.

Ikki jahon mulki musallam anga,
O'zga jahon bor esa ul ham anga.

Oltidin ikkinchi — maloyikni bil,
Borchag'a tasdiqi vujud aylagil.

Bilkim erur zoyiri aflok alar,
Nafsning oloyishidin pok alar,

Har bir uli-ajniha tovus o'lub,
Donai tasbih anga ma'nus o'lub,

Tobi muhabbat chog'i ul ajniha,
O'tlari tug'yoni uchun mirvaha.

Bir bila topmay bu janoh inqito',
Bir neki, masno va sulosa rubo'.

Ne qadame amrsiz olib, ne dam
Borcha vujud avvalidin to adam.

Poku mujarrad borining javhari,
Tufroqu suvu yelu o'tdin bari.

Xuldi barin qushlaridek shavqnok,
Amr adosidin o'lub zavqnok.

Bir qush alar ichraki topmay bu zavq,
Foxta yanglig' topibon bo'yni tavq.

La'nda uch harfki bor oshkor,
Har birining domanasi halqavor.

Har birining halqasi topib vusul,
Tavqda mal'un bo'lub ul bulfuzul.

Angla uchunchi kutubi osmon,
Tengri so'zi bil borisi begumon.

Qaysi kutub, har biri daryoyi jarf,
Har so'zi bu bahrda durri shigarf.

Bahr dema, har biri bir turfa kon,
La'l ila gavharg'a sarosar makon.

Gar uchi uch sham'i munavvar bo'lub,
Lek biri mash'ali xovar bo'lub.

Bo'lsa mavolidi salos ul uchi,
Bu yeti oboning ishin qilg'uchi.

Bal yeti obo munga ummul-kitob,
Sab'i masoniy topib andin xitob.

“Sab'i masoniy” neki, har surasi,
Davlatu din xittai ma'murasi.

Boshida har surasi tazhib ila,
Dargahi koshiy anga tartib ila.

Bog' anga har safhai gulshan misol,
Jadvali atrofida ravshan zulol.

Bog' dema, balki falak, ne falak,
Satrlari har sori saf-saf malak,

Bal anga har doirai ashrgard,
Rutba aro bir falaki lojuvard.

Haq so'zi har juzvi varaq to varaq,
Borcha haqoyiq, balkim borcha haq.

Misl anga ma'dumu mushobih adim,
Qoyili andoqki qadim ul qadim.

Bil yana to'rtunchi rusul ma'shari,
Har biri bir bahri safo gavhari.

Borchasi haq amrila nahyin tuzub,
Elga bori haq yo'lini ko'rguzub.

Hujjat agar istasa har tiyra zot,
Har birisi ko'rguzubon mu'jizot.

Zohir o'lub borchag'a sidqi maqol,
Shoyibai kizbg'a yo'q ehtimol.

Garchi payambar borig'a ism o'lub,
Lek alar jismi ham uch qism o'lub.

Zumrai avval kelibon anbiyo,
Vahy ila ru'yodin o'lub peshvo.

So'ngra rusulkim, neki Haqdin yetib,
Borchasini xalqqa irsol etib.

So'ngra ulul-azmki aylab jidol,
Da'vati din qilga-yu hukmi qitol.

Borchasining a'zamiyu afsahi,
Anglaki, kelmish nabiyi Abtahi.

Ko'ngli Haq irsolig'a rosix bo'lub,
Dini – rusul dinig'a nosix bo'lub.

Kufr qarong'usida har mursale
Dini bila yorutubon mash'ale.

Qilg'ach aning shar'i quyoshi zuhur,
Qolmayin ul mash'alalar ichra nur,

Xatm anga oyini risolat tamom,
Din aning islomi-yu bas vassalom.

Keldi beshinchi anga yavmul-hisob,
Dema hisob, aytki yavmul-azob.

Mu'taqid o'lmoqki qiyomat bo'lur,
Qilg'onidin elga nadomat bo'lur.

Shodliq ashobi yaming'a raqam,
Safhalari lavhig'a yetmay qalam.

Ahli shimol ichra tushar mojaro,
Nomalari yuzlari yanglig' qaro.

To'g'ri tarozug'a bo'lur ikki bosh,
Bir sori gavhar yana bir sori tosh.

Ko'pruk uza xalq haroson bo'lur,
Birga qatig, biriga oson bo'lur.

Do'zax o'ti dardig'a yo'q intiho,
Xalq halokig'a bo'lur ajdaho.

Yetti boshi gunbadi davvordek,
Yetti og'iz har birisi g'ordek.

Dema tomug' yetti eshigin ochib,
Kim yeti og'zi aning o'tlar sochib.

Gulshani firdavs aro nozu naim,
Onchaki yo'l topmay aroda nasim.

Huri aning ruhi musavvar kibi.
Qaddu labi tubi-yu kavsar kibi.

Sokinig'a jomi baqodin umid,
Qaysi baqo, balki liqodin umid.

Sodis anga keldi hadisi qadar,
Bil azaliy sibt nekim xayru shar.

Sofu to'lo bo'lg'ali jomi alast,
Bo'lg'ucha ul maydin abad ahli mast,

Harne bu majlis aro topti vuqu',
Xoh usul anglavu xohi furu'.

Mast agar tortti noxush sado,
Mutrib agar ayladi dilkash navo,

Ba'zi agar Ka'ba sori qildi azm,
Ba'zi agar dayr aro tuzdi bazm.

Bodiyada ul chekibon yuz ano,
Bo'ldi munung maskani dayri fano.

Mast chiqib mug'bachai mayparast,
Qildi saloh ahlini rasvovu mast.

Zohid agar bo'ldi borib durdno'sh,
Fosiq agar bo'ldi kelib xirqapo'sh,

Borchasi Haq ilmida ma'lum edi,
Lavhai mahfuzda marqum edi.

Ne yetibon yaxshi amaldin bihisht,
Ne solibon do'zax aro fe'li zisht.

Ulki qilib Tengriga ming yil sujud,
Bo'lsa shaqiyi azaliy qayda sud?

Mug'bachalar dayrda qilg'on halok
Bo'lsa saidi abadiy qayda bok.

Kimgaki bu oltig'a bor e'tiqod,
Ham bu sifat birlaki qildim savod,

Har nechakim nomasiyah bo'lsa ul,
G'arqai daryoyi gunah bo'lsa ul,

Tong yo'q agar afv o'lub ummid anga,
Tutsa ilik rahmati jovid anga.

Lek bu dard o'ti erur jongudoz,
Ushbu gudoz ichra kuyub ahli roz.

Bu biri o'z holig'a motam tutub,
Ul biri tarki bori olam tutub.

Kim bu biyik poyaki qildim bayon,
Kimga yetar-yetmasi ermas ayon.

Yetmagi ham kimsaga mutlaq emas,
Yetmasi ham jazmu muhaqqaq emas.

Kofiru mo''min sori qilsang sog'inch,
Ne anga ya'su ne muning ko'ngli tinch.

Kuydurubon xalqni biymu umid,
To xud erur kim shaqi-yu kim said.

Maxlas ishi barchag'a niyatdadur.
Topmoq ani lek mashiyatdadur.

XXIII

*Sulton ul-orifinni g'amgin ko'rub, muridig'a savol tili ochilg'oni va
ul shofiy javoblar bila anduhluq ko'nglin xoli qilg'oni*

Qayg'uluq o'lturmish edi Boyazid,
So'rdi g'ami kayfiyatini bir murid:

«K-ey falak avjida xiroming sening,
Arsh fazosi uza goming sening.

Ko'nglunga ne ishdin ekin bu taab,
Bu taabingga ne ish erkin sabab?»

Pir to'kub ashku chekib o'tluq oh,
Dediki: «Bu g'am ishim etmish taboh,

Kim bu jahon ichraki, eldur g'ulu,
El to'la, ammo kishidindur xulu.

Har kishiga xush ko'runur o'z ishi,
Bir kishi yo'qkim, desa bo'lg'ay kishi,

Munda kishi borini bilmon yaqin,
Bor esa, o'tganlar aro bor ekin».

So'rg'uchig'a zohir o'lub iztirob,
Dediki: «Ey xurshedi oliyjanoh,

Elda kishi yo'q demak o'ldi so'zung,
Doxil emassenmu bu elga o'zung?»

Shayx dedi: «Ey ishi gumrohliq,
Topmog'on ish sirridin ogohliq.

Men dog'i yuz ming meni sargashtadek,
Ashki bog'ir qonig'a og'ushtadek,

Bo'lmasa imon bila ketmak ishi,
Anglaki, oni desa bo'lmas kishi.

Olam aro muncha sig'oru kibor,
Men bo'la-yu, sen bo'lu harkimki bor,

Borcha bu g'am tig'idin afgorbiz,
Borcha bu motamg'a giriftorbiz.

Kim ichi bu g'ussada qon bo'lmadi,
Kimsaga bu nukta ayon bo'lmadi,

Kim chu vido' aylagusi jon anga,
Hamrah o'lur yo'qsa yo'q imon anga,

Chunki jahon ahlig'a bu bo'lsa hol.
So'zdaki debmen ne mahalli savol».

Soyil etib bo'yla duri nukta go'sh,
Og'zi sadaf og'zidek o'ldi xamo'sh.

Yo Rab, o'shul tuhfani oxir nafas,
Ayla Navoiy ila hamrohu bas.

Qullug'unga mahkam et imonini,
Aylagil imonidek aymonini.

Soqiy, o'lubmen, mayi imon ketur,
Jismima imon mayidin jon ketur.

Quyma bu kun jomima davron mayi,
Jonim ol, og'zing'a quy imon mayi.

XXIV

IKKINCHI MAQOLAT

Islom hobidakim, «alif»lari amniyat bog'ining sarvlari durur va «sin»i saodat qasrining kungurasi va «lom»i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi va «mim»i muhabbat mash'alining nuri va ul sarvlar soyasida yer tutmoq va ul qasr kungurasida talab kamandin solmoq va ul sunbuli zulfni habli matin qilmoq va ul mash'al nuri bila ko'z yorutmoqning targ'ibi

Olam aro xalqni Yazdoni pok
Ahli najot etti-yu ahli halok.

Bu birisin obidi asnom bil,
Ul birisin zumrai islom bil,

Kufr eli yo'l topti malomat sori,
Zumrai islom salomat sori.

Ul biriga vayl evi bo'ldi maqom,
Zumrai islomg'a dorus-salom.

Kishvari islomki ma'dud erur,
Xalqi aning har neki mavjud erur,

Boshtin-oyoq borcha musulmon emas,
Kimki musulmon muni yolg'on demas.

Shartlari bor durur islomning,
Kim ani bilmas birisi omning.

Muslim erur «Man salimal-muslimun»,
Yuz, iligu til bu ish ichra zabun.

Ko'rki, bu ish kim iligidin kelur,
Yoki bu so'z kim tilidin ochilur.

Tilni xirad lol topar bu mahal,
Yo'qki til-o'q lol, ilik dog'i shal.

O'ylaki bu shartlar imkoni bor,
Shartdin ayru dog'i arkoni bor.

Besh yasamish Tengri taborak ani,
Desa bo'lur xamsi muborak ani.

Anglag'il arkonini beishtiboh,
Avvali «Illalloh» ila «lo iloh».

Yona Muhammadni anga bil rasul,
Ber munga tonug'lug'u qilg'il qabul.

Alloh-Alloh, bu ne ikki kalom,
Kim ikki olamg'adur andin nizom.

Lavh uza avval muni yozib qalam,
Jannat eshigida dog'i bu raqam.

Halqai xotam kibi charxi barin,
Ul bo'lubon yuzida naqshi nigin,

Yoki bu xat zevari xotam bo'lub,
Xotami gardun yukidin xam bo'lub.

Nofiya «lo»sidin aytib «Lo iloh»,
Nafy nekim, mumkin erur mosivoh.

«Illalloh» – aylabon isbotini,
Ayni vujud anglatibon zotini

Buki rasul o'ldi Muhammad anga,
Yuzlanib iqboli muabbad anga.

Amr ila nahyini bayon qilg'ali,
Lutf ila qahrini ayon qilg'ali,

Xayri rusul bo'lmog'i Tengriga xost,
Harne risolatki qilib borcha rost.

Soni erur anda adoyi salot,
Lek adosida erur mushkilot.

Avvali oningki tahorat durur,
Bilki tahorat ne iborat durur.

Ul demakim, mayl qilib suvg'a sen,
Bir necha uzv ul suv bila yuvg'asen.

Bo'yla tahoratni bilur har xasis,
O'zga tahorat dog'i bordur nafis.

Buki safo chashmasidin zavqnok,
Aylagasen lavhai xotirni pok.

Tanni yumog'liqqa mahorat berib,
Jong'a dog'i bo'yla tahorat berib.

Jonni solib bo'yla tahorat aro,
Kim yuzida nuqtacha qolmay qaro.

Ko'zni arig' ashki zuloli qilib,
Balki ko'ngulni dog'i xoli qilib.

O'zluk uyin o'zga harom aylabon,
Tengri evi sori xirom aylabon,

Qo'yg'asen anda o'ng ayoq ilgari,
G'ayri xudo qo'ymag'asen ichkari.

Ev iyasi bo'lsavu sen – yaxshiroq,
Balki tutub ev bila senlik qiroq.

Bo'lsa qiyomingg'a sutun shevasi,
Rak'atinga saqfi nigun shevasi.

Sajdada titrab qo'yubon yerga bosh,
Sorg'oribon chehra nechukkim quyosh.

Vojibu farzini rioyat qilib,
Sunnat adosini bag'oyat qilib,

Gar bu sifat sajda bila pok chehr,
Yerga dog'i kirgasen andoqki mehr.

Subhi qiyomat netong etsang zuhur
Boshtin-oyoq mehr kibi g'arqi nur.

Solis erur farz adoyi zakot,
Haq neki bermish sanga molu jihot.

Munda dog'i ikki sifatdur tariq,
Birisi aslu biri far', ey rafiq.

Far'i bukim, zohiri shar'i rasul
Harne bayon aylasa qilsang qabul,

Berguchi gar bor esa sohibnisob,
Qirq diramdin birin aylab hisob,

Zar' ila do'konu havoshi dog'i,
Balki xadam birla mavoshi dog'i.

Harne matoiki, zakotin berur,
Shar' tariqi bila bilkim erur.

Kayli-yu miqdori muayyan aning,
Kammi bila kayfi mubarhan aning.

Masrifi sekkiz kishidur bardavom.
Kim angadur shar' ila notiq kalom.

Far' budur ulki, deduk oni asl,
Qilmoq erur borhasidin o'zni fasl.

Maqsadi aslig'a shuru' aylamak,
Harne aning g'ayri, ruju' aylamak.

Bo'lg'onini bermaku shukrona ham,
Bermak agar xud topilur yona ham.

Ko'ngli qachon qilsa zaxira havas,
Bo'lmoq anga faqru fano ganji bas.

Bo'lmasa ko'nglida diram naqshi dog',
Qilmasa dur partavini shabcharog'.

La'l g'ami bag'rini qon qilmasa,
Dur g'ami ashkini ravon qilmasa.

Ming yetibon asramasa birini,
Yuklasa o'z bo'ynig'a taqsirini.

Ganj topib chekmasa vayronig'a,
Bersa qo'yub minnatini jonig'a.

Harne yetar bersa, tugub yopmasa,
Bergali shukrona yana topmasa.

Kimki anga bazl bu chog'lig' durur,
Ganj dog'i topsa yarog'lig' durur.

Robi' anga savm durur qochmag'il,
Tutqilu nafyiga og'iz ochmag'il.

Me'dani xoliliq ila qil to'lo,
Necha xalo anda safodin malo.

Savm hadisida budur mujmali,
Kim ani Haq debdurur «Assavmu liy».

Ayladi isnod o'ziga ajrini,
Yo'qsa ul-o'q qilg'usidur zajrini.

Amr qilib bersa jazo chun Xudoy,
Demaki si ro'za, yil o'n ikki oy.

Tutsang ani ulcha sazovoridur,
Sirfani bilgilki sening soridur.

Savmi emas dog'i mashaqqatnihi,
Mujdada bo'lsa «Ana ajzi bihi».

Bu dog'i uch qism iladur munqasim,
Avvali bu rasm iladur murtasim,

Kim chu sahar ko'rguzur anvorini,
Chekkucha kun g'arbg'a ruxsorini,

Akl ila shurb aylamagay ro'zador,
Lek ikinchiga budur e'tibor,

Kim bu sifat savmki topti raqam,
Bo'lg'ay izofat necha ish anda ham,

Soyiri a'zog'a xalal yetmamak,
Shar' xilofig'a shuru' etmamak.

Har biri o'z shug'lig'a zohid bo'lub,
Man'i xilof ichra mujohid bo'lub,

Bormag'a-yu ko'rmaga-yu tutmag'ay,
Aytmagay, eshitmaga-yu yutmag'ay.

Lekin uchunchisi budurkim, ko'ngul,
Chunki erur mahbiti anvori Kul.

Poku ravonbaxsh havosi aning,
Jilvagahi fayz fazosi aning.

Maxzani asrori ilohiy ham ul,
Oyinai chehrai shohiy ham ul.

Daf' qilib zangi xayolotni,
Asramoq ul nav' bu mir'otni,

Kim anga juz do'st zuhur etmagay,
Balki aning g'ayri xutur etmagay.

Hech suvar naqshig'a bermay mador,
G'ayr bu ne'matdin o'lub ro'zador.

Ushbu sifat yo'qki, sahar to ba shom,
Qo'y saharu shomnikim, bardavom.

Xomis anga qiblag'a solib qadam,
Bo'lmoq erur zoyiri Baytil-Haram.

Bo'yla saodatqa alarkim yetib,
Bodiyani ikki sifat qat' etib.

Biri bukim, ulki bo'lub mustafid,
Ya'ni o'lub johu tamavvul mumid.

Bo'lsa yo'l amniyati voqi' anga,
Orizaye bo'lmasa moni' anga.

Barcha yo'l asbobi muhayyo qilib,
Hamrahi mushfiq dag'i paydo qilib,

Farzlig'in o'ziga jazm aylagay,
Farz adosin qila azm aylagay.

Lek ikkinchi buki, ahli fano,
Kim o'ziga faqrni bilgay g'ino.

Do'st tushub xotiri vayronig'a,
Shavqu talab o't solibon jonig'a,

Ho'y chekib, yo'lg'a tushub pil kibi,
Ishq o'tidin telbaragon el kibi.

Ming yig'och ar urg'usidur gomini,
Bog'labon avval qadam ehromini.

Ne anga zodu ne anga rohila,
Ne anga markab, ne anga qofila.

Dasht anga gulshanu nasrin – tikan,
Yo'liki yonida mug'ilon chaman.

Harne samum anda esib rangi ol,
Borcha gulu lola uchurg'on shamol.

Bo'yla samum ichra yetib ul salim,
O'ylaki gulzor arosinda nasim.

Ul chaman ashjori mug'ilon bo'lub,
Anda quyun sarvi xiromon bo'lub.

Haq anga rahmatni dalil aylabon,
Shu'lani gulzori Xalil aylabon.

Toki ani yetkurubon ul dalil,
Uygachakim, qo'ydi binosin Xalil.

Tavfida ul sidqu safo kelturub,
Borcha sharoitni bajo kelturub.

Do'st uyida chu bo'lub mehmon,
Harne kerak hozir etib mizbon.

Balki bu mehmonni o'zi kelturub,
Evigacha hamrah o'lub yetkurub.

Muncha saodatqa etib sarfarozi,
Kimsani bu yo'lda fanovu niyoz.

Foni o'lub kimki niyoz ayladi,
Tengri ani koshifi roz ayladi.

Forig' etar bodiya qat' ahli mol.
Ahli fano qat'ida bor o'zga hol.

Ne topib ul ne'matu nozi bila,
Oncha topib yuz bu niyoz bila.

XXV

*Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va Robiai
Adviyag'a Ka'baning niyoz bila kelgani*

Qildi chu Adham xalafi tarki joh,
Toji fano boshig'a qo'ydi Iloh.

Berdi fano yeliga mulku hasham,
Bodiyaning qat'ig'a qo'ydi qadam.

Bo'ldi musalloni solib sajdasozi,
Har qadam aylab iki rak'at namoz,

Qoldi bu yo'l qat'ida o'n to'rt yil,
Madhig'a har xoru giyah chekti til.

Makka tavofig'a chu qildi xirom,
Yo'q edi o'z o'rnida Baytul-Harom.

Chekti fig'onkim, bu nedur, yo Iloh?
Hotife un berdikim: «Ey piri roh.

Bodiya qat'ida durur bir ajuz,
Shavqu muhabbat yukidin qaddi kuz.

Za'fdin ul bo'lmish edi notavon,
Ka'ba aning tavfig'a bo'ldi ravon».

Ayladi hayron ani bu voqia,
Boqsa keyin ko'rdi kelur Robia.

Dedikim: «Ey Arsh matofing sening,
Ka'ba qilib azmi tavofing sening.

Ko'rki jahon ichra solibsen ne sho'r»,
Robia dedi angakim: «Qilma zo'r,

Sho'r seningdur bori olamda bil,
Bodiya qat'i uchun o'n to'rt yil».

Dedi Birohimki: «Ey pokrav,
Balki malak xaylidek aflokra»,
Nedin ekin buki manga yetti ranj,
Men chekibon ranju sanga bo'ldi ganj».

Robia dedi anga: «Ogoh bo'l,
Kim necha yil bodiyada borcha yo'l,
Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.

Sanga samar berdi namozu riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano.

Boqma, Navoiy, yana noz ahlig'a,
Arzi niyoz ayla niyoz ahlig'a.

Soqiy, olib kel qadahu qilma noz,
Ko'rki, ne mushtoqdur ahli niyoz.

Ber to'lakim, ichsun ani bir harif.
Xossa mangakim, boridin men zaif.

XXVI

UCHUNCHI MAQOLAT

*Salotin bobidakim, «Innalloha ya'muru bil-adli val-ihson» amri ila
Haq subhonahu va taolo xusravliq xudin alarning xilofati boshig'a
qo'ydikim, adolatlari «ayni»ning chashmai zuloli mulk bo'stonin
serob qilg'ay, to bu bo'stondin amniyat va farog'at gullari ochilg'ay
va alar zulm bog'ida may ichib gul socharlar, balki maydin har
dam o'zgacha gul ocharlar*

Ey falak avjiddin o'tub rif'ating.
Oyu quyoshdin cholinib navbating.

Taxting o'lub davlati jovidi mulk,
Soyai chatring aro xurshedi mulk.

Toj boshingdin bo'lubon sarbaland,
Taxt ayog'ingdin o'lub arjmand.

Siymani alqobing etib muhtaram,
Sikkai qadringg'a kavokib diram.

Xutbai johingni o'qub Mushtari,
Kursiyi nuhpoya aning minbari.

Mehr bo'lub soyanishining sening,
Oy yuzida muhri nigining sening.

Mulki Sulaymon uza ishratnamoy,
Boshinga solmay ko'laka juz humoy.

Masnadi Jamshed uza aylab maqom,
Topmay iliging o'parin g'ayri jom.

Xotami adlingg'a sipehri baland,
«Rosti-yu rusti» bilan naqshband.

Xutbai johing qadar insho qilib,
«Ya'muru bil-adl» ila tug'ro qilib.

Haqki solib soyai ra'fat sanga,
Ro'zi etib taxti xilofat sanga.

Ayladi ollingda biyiklarni past,
Dahr zabardastlarin zerdast.

Xalqni ollingda qilib notavon,
Barchasig'a ayladi hukmung ravon.

Xizmatiga elni zabun ayladi,
Qadlarin ollingda nigun ayladi.

Bil munikim, sen dog'i bir bandasen,
Ko'pragidin ojizu afgandasen.

Ermas alar tufrog'u sen nuri pok,
Xilqat alarg'au senga tiyra xok.

Barcha javorih bila a'zoda teng,
Surati nav'i-yu hayuloda teng.

Lek hunar ichra, kamol ichra ham,
Xulqi xushu lutfi maqol ichra ham,

Ham ravishi adlu ham insof aro,
Hilmu hayou bori avsof aro,

Shar' tariqida ibodatda ham,
Haq yo'lida taqviyu toatda ham.

Sen tushubon yo'l nahajidin yiroq,
Ko'pragi sendin yurubon yaxshiroq.

Buki sanga Tengri berib imtiyoz,
Saltanat avjida qilib sarfaroq,

Taxtni shaxsingg'a makon ayladi,
Mulk uza hukmungni ravon ayladi,

Munda dog'i qudratin ifsho qilib,
Hikmat ila qatrani daryo qilib.

Bildurub elga haqu barhaqlig'in,
Anglatibon qodiri mutlaqlig'in.

Lek bu iqbolning o'trusida,
Bo'yla biyik martaba qarshusida,

Amr qilibdur necha xizmat sanga,
Ro'zi etibdur necha san'at sanga:

Biri — aning ne'matig'a shukr erur,
Kimsaki, shukr aylasa ko'prak berur.

Shukr qilib aylamasang ushtulum,
Deb o'zikim: «Laazidannakum».

So'ngra raiyatni vadoyi' dedi,
Xurram ani bilki, bu g'amni yedi.

Garchiki, Haq amri farovon erur,
Borchasi bir yonu bu bir yon erur.

Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,
Ul shajari musmiru sen bog'bon.

Qo'yni shubon asramasa oyu yil,
Och bo'rilar tu'masidur hori bil.

Boqmasa dehqon chamanin tunu kun,
Naxli tarin angla qurug'on o'tun.

Bo'rini dog'i galadin dur qil,
Suv beribon bog'ni ma'mur qil,

G'am yesang ul gala manofi' berur,
Bog' gulu mevai nofi' berur.

Gala tugansau qurusa shajar,
Xud sanga qolmas yana naf'u samar.

Istasa topshurg'onini kirdigor,
Fikr qil ul damki, javobing ne bor?

Ko'z och, agar xud bor esang rahshunos,
Ish ravishin ayla aningdek qiyos,

Kim ne kishikim, sanga mahkum erur,
Zulmunga bechorau mazlum erur.

Garchiki, yo'q shavkatu sarmoyasi,
Sendin erur ortuq aning poyasi.

Negaki, chun hashr kuni zuljalol,
Zolimu mazlumni aylar savol.

Anga evazdur, sanga sharmandaliq,
Anga biyiklik, sanga afgandaliq.

Til chekib ul xanjari po'loddek,
Ochilibon savsani ozoddek.

Sanga binafsha kibi qaddi nigun,
Bosh ko'tara olmay uyotdin zabun.

Anga nishotu sanga — anduhu g'am,
Ul sanga andoqki, anga sen bu dam.

Har ne xato qilg'oning o'lg'och hisob,
Bo'lg'usidur har biriga yuz azob.

Tengri bu dardingg'a davo aylamas,
Ushbu jihatdinki, haqulloh emas.

Garchi sinuq igna haqqun-nosdur,
Bag'ring aro xanjari olmosdur.

Qilmasa mazlum gunohing bihil,
Do'zax arodur vataning muttasil.

Afvin aning tutmasang ummid sen,
Bilki tomug' o'tida jovid sen.

Kimga tikan birla qilibsen sitez.
Urg'usidur ko'ksunga yuz tig'i tez.

Kimki bo'lur bir shararing fosh anga,
Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga.

Kingaki bir rishta yeturdung ziyon,
Qatlinga ul rishtani bilgil yilon.

Eyki, qaviy ayladi davlat qo'lung,
Zulm sori tushti va lekin yo'lung.

Zulmung emas erdi xaloyiqqa kam,
Kim qiladursen ani o'zungga ham.

Zulm o'zunga fisqdur, ey hushyor,
Gum qil ani, bo'lsa sanga hush yor.

Chunki farah bazmig'a jazm aylading,
Ayshu tarab azmig'a bazm aylading.

Qasrki, bazm anda muhayyo bo'lub,
Ziynati firdavsi muallo bo'lub,

Pardalari rishtasi el jonidin,
La'liyu shingarfi ulus qonidin,

Shamsasi el moli bila zarnigor,
El duru la'li bila gavharnigor.

Xishtini masjid buzubon kelturub,
Toshini el marqadidin yetkurub.

Anda tuzub masnadi shohanshahi,
Ayshu tarab jomi uchun mushtahi.

Bazmda soqiylar o'lub jilvasoz,
Ahli g'ino har sori dastonnavez.

Harneki marg'ubi erur nafsning.
Topilib ul hazmda bir yo'qki, ming.

Til bori ul debki, demak xo'b emas,
Ko'z ko'rubon oniki, matlub emas.

Arbadadin o'zga eshitmay quloq,
Komi uchun tutmay ilik juz ayoq.

Hoyu g'uludin bu nishoting kuni,
Anglamayin kimsa muazzin uni.

Baski samou g'azalu qavlu savt,
Bo'lubon ul kungi namoz elga favt.

Ahli vara'kim, topib anda vujud,
Chang ruku' ichra, surohi sujud.

Ulki bu toat bila tafzih anga,
Nuql bo'lub donai tasbih anga.

Toki quyosh jirmi bo'lub nurposh,
Mahfili ayshingda bu yanglig' maosh.

Shom jahon safhasin aylab qaro,
Pardai zulmat chu yopib el aro.

Rost yarim tunga degin hol bu,
Ham sanga, ham xaylinga ahvol bu.

Jom bu ahvolinga qon yig'labon,
Sham' kuyub, ashkfishon yig'labon.

Qoqib ovuch sanju qilib na'ra ko's,
Ko'kka chekib nolau afg'on xurus.

Sen chu bo'lub sarxushu xilvatgaroy,
Anda qilib harne tilab nafsu roy.

Bazmdag'i qoriyu gar xud yigit,
Maydin o'lub har biri bir telba it.

Shaynda qoplondin agarchi fuzun,
Nafs itining ilgida lekin zabun.

Har birisi yuz tamai xom aro,
Yoyilibon kishvari islom aro.

Har sori bir mast o'lub oromjo'y,
Bir buti gulruxdin o'lub komjo'y.

Mastliq uyqusi chu aylab hujum,
Borcha o'lukdek yotib ul xayli shum.

Subh chu zohir qilib anvorini,
Har yon ochib lam'ai ruxsorini.

Onchaki sultoni o'lub choshtgoh,
Uyquda sulton bila xaylu sipoh.

Ko'zlaridin uyqu chu ma'zul o'lub,
Har biri bir zulmg'a mashg'ul o'lub.

Ochibon elga sitam avbobini,
Qilg'ali paydo tarab asbobini.

Bo'ldi chu asbob muhayyo yana,
Kirdi tarab bazmig'a g'avg'o yana.

Yo'qki zamona shahi bu shevalik,
O'z xo'ri holig'a ulug' to kichik.

Har kuni bu shan'at ila tungacha,
Har kecha bu g'aflat ila kungacha.

Ey xulafo o'rnida masnadrishin,
Ko'r o'z ishingniyu alarning ishin.

Qoida mundog'mu bo'lur, de axi,
Bir o'z ishingning g'ami ham ye axi.

Haq seni adl etgali sulton etib,
Zulm ila sen xalqni vayron etib,

Ul seni ma'muri ibodat qilib,
Sen la'bu lahvni odat qilib,

Necha bu bexudluq ila yilu oy,
Voy, agar kelmasang o'zungga, voy!

Umr bu ishlar so'ngicha ketti tut,
Marg nihibi boshinga yetti tut.

Chun hashamu xayldin ayrilg'asen,
Deki, bu a'mol ila ne qilg'asen?

Ne amali xayr sanga dastgir,
Ne sitaming ko'rguchi po'zishpazir.

Zulmni tark aylavu dod aylagil,
Marg kunidin dog'i yod aylagil.

Zulmung erur kunduzu fisqing kecha,
Zulm ila fisqing necha bo'lg'ay, necha?

Gah-gahi yod ayla nadomatni ham,
Qaysi nadomatki, qiyomatni ham.

Jurmu gunahdin kishi ma'sum emas,
Tarkini tutmoq dog'i mazmum emas.

Haqning erur sahvsiz ish lozimi,
Sahv erur lozimai odami.

Sahvunga de uzr, tavahhum bila,
Zulmdin et tavba tazallum bila.

Kimniki bedoding etibdur asir,
Bo'l anga adl ilgi bila dastgir.

Roy ila zulmatni munir aylamak,
Lutf ila olamni asir aylamak,

Tig' agar cheksa nechukkim quyosh,
Aylamak oning so'ngida mehr fosh.

Shahlar aro bo'yla sifat kam durur,
Kim Shahi G'oziyg'a musallam durur.

XXVII

*Shohi G'oziy qahrining sarsari bir sarkash xo'shani barbod etib,
adlining suyi ul xo'sha butgan buzug' mazraani obod qilg'oni*

Andaki G'oziy shahi farxunda baxt
Toj olayin deb taloshur erdi taxt.

Yuz, iki yuzcha kishi birla qazoq,
Gah yeri Xorazm edi, gah Adoq.

Novaki dushman yuragin qon etib,
Tig'i aduv boshini parron etib.

Bor edi zotida sazovorliq,
Kim Haq anga berdi jahondorliq.

Adl eshigin elga kushod ayladi,
Taxt uza o'lturdiyu dod ayladi.

Tuzdi buzuqlarni imorat bila,
Zulmni daʼ etti adolat bila,
Bid'atu fisq ahli bo'lub munzaviy,
Adli shariat qo'lin etti qaviy.
Bir kun edi sayrg'a azmi durust,
Shefta zole etagin tutti rust.
Nolavu afg'on chekibon tortib oh,
Dediki: «Ey shohi shariatpanoh,
Qilg'um agar adl esa, mar'iy bukun,
Sening ila da'viyi shar'iy bukun.
Shart bukim aylama mahkam itob,
Mahkamai shar'da bergil javob».
Shah dedi: «Gar da'vi esa qonima,
Shar'iy esa minnatidur jonima».
Ayladilar bo'ldi chu bu nukta jazm,
Qoziyi islom huzurig'a azm.
Ikkisi chun yondashib o'lturdilar,
Har sori hayrat bila el turdilar.
Ma'arakada Zol bila Rustame,
Boshlari uzra o'kulub olame,
Zol dedikim: «Qazoq erkanda shoh,
Tig' chekibkim, chekar erdi si poh.
Bor edi men tulg'a jigargo'shaye,
Bal jigarim mazraidin xo'shaye.
Bog'im aro sarvi sihisheva ul,
Balki quruq naxlim aro meva ul.
Shoh qilichi jigarim qildi chok,
Ul jigarim porasin etti halok.
Tig' ila yorib jigarim yonini,
Yerga oqizdi jigarim qonini».
Aytti qozi: «Ketur, ikki guvoh,
To qilayin hukmini beishtiboh».
Dedi: «Gar ikki tonug' etsam havas,
Ham aning-o'q adliyu insofi bas».
Bo'yla chu ikki tonug' o'tkardi zol,
Bo'ldi muqir xusravi farxundafol.

Qozi o'lub adl harimig'a xos,
Qildi ravon hukm: diyat yo qisos.

Shah dedi: «Shar' etsa bu yanglig' ado,
Shar'i nabi hukmig'a jonim fido».

Yog'lig' ila bog'ladi bo'ynini rust,
Yuz hamyonning dog'i bo'ynini sust.

Tig' berib zolg'a bevahmu biym,
Bir sori dog'i to'kubon ganju siym.

Dedi: «Qasos aylasang olingda bosh.
Siymni ol, gar g'arazingdur maosh.

Men edim ul amrda beixtiyor,
Har ne sen etsang manga ne ixtiyor».

Tig'ni ul adl ila insofi tund.
Zoli hazin tishlaridek qildi kund.

Tushti ayog'iga bo'lub uzrxoh,
Dediki: «Ey xusravi anjumsipoh,

Gar yigitim qildi fido jon sanga,
Men qari joni dog'i qurbon sanga.

Mendin agar bo'ldi ayon iztirob,
Lutf ila afv etki, men o'ldum xarob».

Vah, bu ne izhori xijolat bo'lur,
Bu ne degan lufu adolat bo'lur.

Zol kechib da'viyu dostonidin,
Yo'qki, o'g'ul qonidan, o'z jonidin.

Turfa bukim, xusravi odil ani,
Adl ila ul davrda aylab g'ani.

Zolni anjum kibi siymi ravon,
Zoli falakdek qilibon navjuvon.

Sim kuchidin bo'lubon simbar,
Xalq laqab aylab anga «Zoli zar».

Zoli falakdin necha ko'rsang alam,
Shah chu qilur adl, Navoiy, ne g'am.

Soqiyi gulchehra, ketur jomi adl,
Ko'rki, ne gullar ochar anjomi adl.

Adl ayog'in tutki, bo'lub shod ichay,
Odili davronni qilib yod ichay.



Xoja Abdulloh Ansoriy darvishlar bilan suhbatda.

XXVIII

TO'RTUNCHI MAQOLAT

*Riyoyi xirqapo'shlar sulukidakim, o'z qoshlarida xirqai talbislarig'a
haqiqiy libos ot durur va haqoyiqu maoriflari avomg'a libosot. Va
haqiqiy bodano'shlar ravishidakim, xirqai vujudlari fano ilgi zo'ri-
din chok durur va Masihodek jonbaxsh nafaslari ruhi muqaddas
kibi pok va mahalli tavflari sohati aflok*

Ey bo'lubon san'at ila xirqapo'sh,
Shomu sahar zikr ila solib xurush.

Xirqa uza baxyaki har yon chekib,
Zuhdu riyo vuslalaridin tikib.

Ruq'ai davri bu muraqqa'da ko'p.
Barcha diram ostig'a tikmakka jo'b.

Iplar anga rishtai talbis o'lub,
Igna anga siblati iblis o'lub.

Azraq uzakim bo'lubon baxyasoz,
Anjumi nahsi falaki naqshboz.

Ushbu falak uzra rido subhidam,
Subhki, kozib anga bo'lmish alam.

Eski amomaki ho'lub pech-pech,
Pechdin o'zga nima yo'q anda hech.

Qaysi aso hiyla uyiga sutun,
Kosh sinib ul, bu uy o'lg'ay nigun.

Subha dema, butki yo'nub buttarosh,
Dona yasab, harne qolib reza tosh.

Mu'zini qarrobai kuffor anga,
Rishta bo'lub rishtai zunnor anga.

Ul yig'ochikim, ani misvok etib,
Og'zi luobi bila nopok etib.

Nomai idbor degil og'zi rust,
O'pmak uchun eltib o'z og'zig'a chust.

Har yon ayog'idaki na'layn o'lub,
Ahli safo hazli uchun shayn o'lub.

Turfa soqolin osibon kulgudek,
Egri yig'och uzra chiqib o'chkudek.

O'chkucha ham yo'q ishida to'g'riliq,
Ul tutub o'g'ri, bu qilib o'g'riliq.

O'chku tilab xaylig'a bargu navo,
Gar gala ming bo'lsa, bo'lub peshvo.

O'zini borig'a shafiq aylabon,
Hodi o'lub qat'i tariq aylabon.

Tog' ila tuzni tunu kun boshqarib,
Xaylini yo'l aqbasidin o'tkarib.

Ko'rguzubon bu dog'i xaylig'a yo'l,
Yo'lki, boribon tomug' o'tig'a ul.

Vodiyi zulmat aro ul turfa xayl,
Yo'l iturub aylabon o't sori mayl.

Mafsaqaye topibon eltib panoh,
Otini ma'bad atabu xonaqoh.

Xonaqoh ichraki solib bo'riyo,
Rang anga zarq o'lubon, bo' — riyo.

Masjidi arkoni bo'lub muxtalif,
Qibla janubi tarafi munharif.

Mast mug' ashjoridin avvob anga,
Qahbai tarso qoshi mehrob anga.

Shayx bu mehrob aro toat qilib,
Har neki shayton deb itoat qilib,

Bo'lub anga jam'i xaloyiq murid,
Lek bori shayxqa loyiq murid.

Shayx qadin xam qilibon «nun» kibi,
O'lturubon go'shada Zunnun kibi.

Ahli suluk ichra maorif debon,
Oni — muhaqqiq, muni — orif debon.

Harza muzaxrafniki bunyod etib,
Ahli irodatqa ham irshod etib.

Birin etib zo'r ila xilvatnishin,
Birin etib kuch bila uzlatguzin.

Ahli riyozatdin atab birini,
Biriga deb voqea ta'birini.

Voqea gar xud anga yolg'on debon,
Ul dog'i ta'birini hazyon debon.

Xilvat aro qilg'uchi mahram o'zin,
Xizr bila tutquchi hamdam o'zin.

Lattaki mahkam tugubon bang anga,
Yetkurubon bang yoshil rang anga.

«Xizr payambar» qo'yubon otini,
Voqea deb — harza xayolotini.

Yo'qki hamin xilvati ahlig'a bas,
Shayxqa ham ushbu «Xizr» hamnafas.

Rutbada andoq anga a'lo maqom,
Kim bo'lubon charx anga adno maqom,

Qolmayin ul poyakim, ul yetmayin,
Arzi karomatni pisand etmayin.

Nogah agar nag'ma chekib bir nayi,
Mast qilibon oni holat mayi.

Nag'mai xorijki qilib istimo',
Sekribu ohang etib ul dam samo'.

Debsabu sayha chekib andoqki pil,
Changaki nafs ollida xoru zalil.

Ahli irodat dog'i bu tavr ila,
Tegrasiga evrulubon davr ila,

Harza xayolot ila hol aylabon,
Davrnı fonusxayol aylabon.

Holda ashob dog'i pirdek,
Bemazaliqda borisi birdek.

Yova ko'p ayturda biri chirchirak,
Charx ko'p urmoqda biri firfirak.

Bu biri vajt ichra tilin lol etib,
Ul bir o'zin volavu behol etib,

Bu tutubon ko'z uchidin oni pos,
Ul qilibon vajdini mundin qiyos.

Zarq o'tidin har biri do'zax kibi,
Lek burudatdin o'lub yax kibi.

Har biri oncha urunub bermalol,
Kim yiqilib, qo'pqali topmay majol.

Borchag'a maqsud bukim ahli joh,
Ko'rsalar ul shayx ila bu xonaqoh,

Shayxni sajjodai irshod uza,
Xaylni ham zikr ila avrod uza.

Faqr qanoatdin o'lub sarbaland,
Vajd ila holatdin o'lub bahramand.

Borchalarin ahli yaqin sog'inib,
Hol ila ul vajdni chin sog'inib,

Zohir etib shayx qoshida niyoz,
Foqalarig'a bo'lubon chorasoz.

To bilib oxir ani sultoni mulk,
Xayli duo birla nigahboni mulk.

Arzi niyoz aylabon o'lg'ay murid,
Poyalarin har nafas etgay mazid.

Hadya, tuhaf tortqayu mol ham,
Mustag'alu kentu suyurg'ol ham.

Bo'lsa bular birla barumandliq,
Yetgay alar nafsig'a xursandliq.

Subhonalloh, bu ne nafsi laim,
Nafsni qo'yg'il, ne azobi alim.

Ro'zi uchun muncha fusunsozliq,
Mansab uchun muncha dag'obozliq.

Bu el erur borcha yomondin-yomon,
Kimki yo'q ondin yomon, ondin yomon.

Botin o'lub fosidu zohir — saloh,
Toshi musalloyu ichi mustaroh.

Ruhni nafs ollida qul aylabon.
Hullani dajjolg'a jul aylabon.

Dev ila shayton urub ichinda jo'sh,
Tang'a maloik paridan pardapo'sh.

Ko'nglak aro mushku abiri tarab.
Ko'nglida yuz it o'lubu gandarab.

Garchi bo'lur qalb diram ro'ykash,
Andin ayirmoq bo'lur o't birla g'ash.

Lek tomug' ham bu necha g'ashg'a hayf,
O't dog'i bu xayli dag'alvashg'a hayf.

Gar ko'rub o'tdin bani odam azob,
O'tqa bulardin bo'lubon ham azob.

Odam aro ko'r ne tafovut turur,
Qibla anga tengri, munga but turur.

Ravza so'zi dog'i demasdur biri,
Kuygali ham loyiq emasdur biri.

Ey ko'ngul, ul elga jahonlar fido,
Dema jahonlar, deki jonlar fido,

Kim qilibon ikki jahon tarkini,
Ikki jahon demaki, jon tarkini,

G'ussa jahon ichra chekib jon uchun,
Jonni fido qilg'ali jonon uchun.

Yelga berib daftari solusni,
O'tg'a solib xirqai nomusni.

Masjidu mayxona anga yoqmayin,
Dayr bila Ka'ba sori boqmayin.

Silkibon el yaxshi-yomonig'a yeng,
Anglab ulus yo'qiyu borini teng.

Jonu jahonni ko'rubon xokcha,
Kavnu makon naqdini xoshokcha.

Borliq ashobini foniyl bilib,
Yo'qluq o'ti ichra o'zin kul qilib.

Kuydurubon chun bu xayolotni.
Yorutub ul kul bila mir'otni.

Ko'zguda chun g'ayrdin o'lmay asar,
Chehrai maqsud o'lubon jilvagar.

Balki bu nobud xayolot anga,
Qaysi xayolotki, zarrot anga.

Boshdin-ayoq har biri ko'zgu bo'lub,
Shohidi maqsudg'a o'tru bo'lub.

Ko'zguvu shohid ko'runub har taraf.
Ko'zga yomon ko'rmak o'lub bartaraf.

Har sorikim nozir o'lub Haq ko'rub,
Qilg'uchini foili mutlaq ko'rub.

Tuz yo'l ila qotii vodi alar.
Kim iturub yo'lini hodi alar.

Ulki qolib zulmati hijron aro,
Yo oziqib vodiyl hirmon aro,

Xizrdek ul qavm tutub elga qo'l,
Ko'rguzubon manzili maqsadg'a yo'l,

Moni' o'lub g'ayrati ogohliq,
Xizrg'a ham qilg'ali hamrohliq.

Zulmat alar o'tig'a bir dudi oh,
Yo'llarida Xizr bir axzar giyoh.

Ko'zlarida qatraki g'alton bo'lub,
Xizrg'a yuz chashmai hayvon bo'lub,

Gardlari ko'zga bo'lub to'tiyo,
Amlari misni qilib kimyo.

Charx bila anjumi bedodgar,
Qahrlari o'tig'a dudu sharar.

Mehr bila badri manozilnavard
Lutflari gulshanida ikki vard.

Aylasalar har sori azmi shigarf
Yuzlarining qatrasi daryoyi jarf.

Qayda tavaqqufg'a topib ittisof,
Zimnida har harf viqor ichra Qof.

Shaxslari zoviyai xok uza,
Sayrlari gulshani aflok uza.

Shar' aqolimida ravshan tariq,
Kim xati mavhumdin o'lmish daqiq.

Bu yo'l o'lub sayrda maydonlari,
Balki bu maydon aro javlonlari.

Toat etib har biri to joni bor,
Jon chekibon onchaki imkoni bor.

Harne qilib fahm nabiy sunnatin,
Qilg'och ado jong'a qo'yub minnatin.

Nechaki a'mol etibon pech-pech,
Hech kelib har biri ollinda hech.

Jid bila aylab ko'rubon sarsari,
Ajz ila yuz uzr qo'lub bir sari.

Neki qilib qasd aning amri-o'q,
Uchmoq umidiyu tomug' biymi yo'q.

Kimki xayolig'a kelur mosivo,
Lofi muhabbat anga ermas ravo.

Eyki, bu gavharg'a tilarsen makon,
Bilki aning koni erur tobakon.

XXIX

*Muqarrabi Boriy Xoja Abdulloh Ansoriy so'z kim, nihoyati sulukdin
sohibxabar erdi va o'z suluki nihoyatidin xabar berdi*

Ulki ani qibla der ahli Hirot,
Dema Hirot ahli, bari koinot.

Ahli ayon soliki atvori ul,
Ismda Abdullohi Ansori ul.

Dedi bukim, ish manga toat turur,
Tengrining amrig'a itoat turur.

Do'zax o'ti biymi ham ermas g'araz,
Ne buki jannat anga bo'lg'ay evaz.

Bim ila kim Haqni parastish qilur,
Nafs najotini tilab ish qilur.

Kim chekar ummid ila farsudaliq,
Qasdi erur ravzada osudaliq.

Haqdin aniyu muni mahjur bil,
Muzd uchun ikkisini muzdur bil.

Menki ishim bo'ldi parastish mudom,
Biymu umid ikkisi bo'lmish harom.

Bandaliq amrig'a chu ma'murmen,
Tun-kun ishim bu esa ma'zurmen.

Garchi anga loyiq emas toatim,
Bo'lmasun onsiz esa bir soatim,

Qil dedikim, qilmoq erur varzishim,
Raddu qabuli ila yo'q hech ishim.

Uchmog'u zohid, tomug'u bulhavas.
Bo'lsa havas yor Navoiyg'a bas.

Soqiy, ul uchmoq suvini bedarang,
Tutki, erur do'zax o'ti anda rang.

Yor yuzi yodi bila shod o'lay,
Do'zax ila ravzadin ozod o'lay.

BESHINCHI MAQOLAT

Karam vasfidakim, qalbi diram margi durur, balki rahmat shajarasining bargi va buxkim, saxo qalbidin xoli bo'lsa, nihoyatsiz halo bo'lur va hazl surati ko'rguzmasa, muruvvatdin hadsiz xalo va isrof nafyikim, har yonidin boqsa ofati behad erur va itlof mazammatikim, ko'proq harfi lofdin xabar berur

Ey tushub egninga karam kisvati,
Qolmayin ilgingda diram qiymati.

Panjang o'lub siymfishonliqqa fosh,
Mashriqu mag'ribda nechukkim quyosh.

Siyim ila ilginga adovat bo'lub,
Anda fano, munda saxovat bo'lub.

Chun kafing oltun sochib, andoqki barq,
Barqi hayodin bo'lubon terga g'arq.

Boshing uza judu saxo afsari,
Afsaring ustida karam gavhari.

Gavhari zoting topib oncha sharaf,
Kim yeti ko'k huqqasin aylab sadaf.

Qadring o'lub torami axzar kibi,
Durru guhar sochmog'ing axtar kibi,

Boshing uza axtari davlattiroz,
Farq uza «fo» nuqtasidek jilvasoz.

Farqi sharifingg'a livoyi karam,
Bosh uza andoqki «alif»din alam.

Ikki qo'lung Qulzumu Ummoni jud,
Har biriga ulchaki imkoni jud.

Kaflaring oyini chu bermak bo'lub,
Qul munga Hotam, anga Barmak bo'lub.

Buki sanga Tengri ato ayladi,
Qism karam birla saxo ayladi.

Har sari mo' jisminga bir til bo'lub,
Bo'lmas aning shukr ila uzrin qo'lub.

Judu saxovat chog'i buxl etmagil,
Shukr zamoni dog'i buxl etmagil.

Buxl erur borcha sifatdin xasis,
Lek saxo javhari asru nafis.

Garchi saxovat sanga oyin erur,
Boshinga bu dur bila tazyin erur.

Bu duri serobni xor aylama,
Buxl hisobida shumor aylama.

Necha saxo ashrafi avsofdur,
Mufrit agar aylasang isrofdur.

Aqlki ta'rif etar avsofni,
Buxl bila teng tutar isrofni.

Ko'nglung aningdek nega keng qilg'asen,
Kim duru xarmuhrani teng qilg'asen.

Bazlu karam shevasining holi bor,
Lek nechukkim kerak ashkoli bor.

Eyki sanga Tengri nasib etti joh,
Berdi karam qilmoq uchun dastgoh.

Bilki saxo qilg'ali kimdur muhiq,
Siym berurga kim erur mustahiq.

Sochmoq ovuch birla guhar ot uchun,
Naqd etak birla mubohot uchun,

Aql hisobidin erur bas yiroq,
Buxl bu judungdin erur yaxshiroq.

Bo'ldi bu ish mast ila majnun ishi,
Mast ila majnun nega bo'lg'ay kishi.

Kimki kerak jomi payopay anga,
Mast o'lubon chun tunganur may anga.

Dev agar yutsa mayi xushguvor,
Mulki Sulaymon tilar etgay nisor.

Band majoning'a gar oltun erur,
Zeb anga la'lu duri maknun erur,

Sa'y ila bandin chu ayoqdin ochar,
Istasa Qorun ani tashlab qochar.

Sim unidin vahshu sibo' etsa ram,
Munga saxo ot qo'yoli, yo karam?

Lolau gulkim, sovurur devbod,
Qo'ysa bo'lurmu aning otin javod?

Chun dedi Tengriki: «Kulu vashrabu»,
Yonida dediki, «Valo tusrifu».

Bo'ldi yaqinkim bu saxovat emas,
Ahli saxo muni saxovat demas.

Oni dog'i dema saxokim, kishi,
Nechaki isrof emasdur ishi.

Bermagida mar'i erur e'tidol,
Lek emas mavqiida bazli mol.

Yoyar anga supraki, ul och emas,
Berur anga to'nki, yalang'och emas.

Ot anga tortarki, yuz ilqisi bor,
Sim anga berurki, yuz ilg'isi bor.

Ham yiborur la'l Badaxshon sari,
Ham keturur zirani Kirmon sari.

Xizrg'a yetgach tutar obi hayot,
Misr shakarrezig'a habbi nabot.

Sham'ni kunduz yorutur beadam
Mehr ziyosig'a beray deb madad.

Mushkni har kecha sochar bedarang,
Tun sochig'a bermak uchun bo'yu rang.

Mushtahi el yuz esa non bergali,
Luqma toturmas tilabon mumtali.

O'yla bulutdekki quruq bog' uza,
Yog'may o'tub, suvni to'kar tog' uza,

Jur'a uchun jon beribon durdno'sh,
Jom tubin kupga quyar mayfurush.

Ahli vabo tortib ajal sog'ari,
Kon aro yoqut qo'yub javhari.

Bu ikki bir nav' saxovat erur,
O'rtasida sahl tafovut erur.

Oni dog'i qilma saxo doxili,
Kim kishini tomiai komili –

Xalq jihatig'a talabgor etar,
Harneki, ko'rdi tama' izhor etar.

Zulmu taaddiyu vasoyil bila,
Va'dau payg'omu daloyil bila,

Komi ulus molini olmoq erur,
Gar olur, ammo yana birga berur.

Ham sochari muhmalu ham termagi,
Ham oluri harzavu ham bermagi.

Choh qozar g'ussa chekib solu moh,
Tufrog'i daf'ig'a qozar o'zga choh.

Olmoq erur qasd anga bermak g'araz,
Bu ham ul ikkidek erur bir maraz.

Olmog'idin g'ayri ziyonbud yo'q,
Turfa bukim bermagidin sud yo'q.

Oni dog'i dema saxiykim, kishi
To tilamas bermak emasdur ishi.

Har nechakim, mustahiq o'lsun aziz.
Istamaguncha anga bermas pashiz.

Oni axi har kishi aytur saxiy,
Bilki saxiy ul xud emasdur axi.

Ko'rki fusungar chu uzatdi fusun,
Oldi yilon muhrasin aylab zabun.

Tilni chu metin uzatib o't solur,
Xoradin olmos ila yoqut olur.

Sham' chekib til chu uzatdi navo,
Shom diyori uza chekti livo.

O'tki zabona anga ma'lum erur,
Temuru xora damidin mum erur.

Subh dam urmoqda magar dedi so'z,
Kim quyosh oltunig'a yorutdi ko'z.

Oni saxiy anglag'il, ey hushmand,
Kim ani davlat qilibon sarbaland.

Holi agar yaxshi durur, gar taboh,
Kimsadin etmas tamai molu joh.

Har neki Haq bersa qanoat qilur,
Ham neki amr etmish itoat qilur.

Ilgidagidin neki malhuz etar,
Bir iligi qisqani mahzuz etar.

Bahrg'a yetsa tilamas shabname,
Zaxmni ko'rsa ayamas marhame.

Mustahiqe chun talab izhor etar,
Ulchaki maqduridur isor etar.

Ulki savol etmasa ham chun bilur,
Foqau faqrini rioyat qilur.

Ahli talab hoshig'a yetkursa tig',
Harneki bor ilgida qilmas darig'.

O'ylaki metin urar o'z xanjarin,
Kon anga isor etar o'z gavharin.

Boshi yalang bo'lsun, agar ahli toj,
Makrumat aylar chu ko'rar ehtiyoj.

O'z yerida yuz tuman, ar bir diram,
Bazl ishida teng ko'rar ahli karam.

Ulcha ko'rar ilgida haq molini,
Anglag'ach oshufta birovi holini,

Sarf qilur sud ila sarmoyasin,
Toki qilur hosil aning voyasin.

Boqmayin o'z lutf ila ehsonig'a,
Minnatini ham qo'yar o'z jonig'a.

Fahm etar ul nuktanikim bexato,
Elga musabbibdin erur ul ato.

Bu karamu bazl anga kesh emas,
Ul aro yerda sababi besh emas.

Eyki, saxo ko'yida avbosh sen,
Telbau usruk kibi zarposh sen.

Naqdni guldek dog'i sovurmag'il,
G'uncha kibi dog'i girih urmag'il.

Harneki bu safhada oyin erur,
Borcha saxo ahlig'a talqin erur.

G'uncha kibi xurdani qilma tugun,
Tongla chu sochqung neki tugdung bukun.

Buxl ila chun yutti sadaf durri sof,
Qildilar olmog'ida ko'ksin shikof.

Charxki, mehr oltunin aylar nihon,
Yuzini oning qaro aylar jahon.

Yoshurur anjum diramin turki mehr,
Yerga ko'mar bosh tuban oni sipehr.

Chunki xazon ilgi sochar zarvaraq,
Ko'rki quyosh rangi bo'lur har varaq.

Eyki, dafin ganj uza sen ajdaho,
Anglaki, bu ganjing erur xunbaho.

Qatlinga Bahromi falak nogihon,
Tig' chekib olg'usi ganji nihon.

Zulm ila qoning oqizib ranj aro,
La'li ravon qo'yg'usi ul ganj aro.

Qotili gardun chu bo'lub qonlig'ing,
Bo'lg'usi ul ganj uza vayronlig'ing.

Yuysen ilik qoninga, ya'niki ne?
Qasd etasen joninga, ya'niki ne?

Orzu aylab necha kon naqdini,
Tark etasen javhari jon naqdini.

Joning uchun maxzan eshigini och,
Naqdin olib sochu o'z o'rnig'a soch.

Donaki omborg'a taslim erur,
Zoyi' o'lurdin anga yuz bim erur.

Mazraai bazlda sochmog'ni tuz,
Kim biriga Tengri berur etti yuz.

Ekmak emas, borcha bukim to'rg'asen,
Arpau bug'doy sochibon o'rg'asen.

Ne bukun ekilsa, bu maqbul erur,
Kim anga tongla kuni mahsul erur.

Dunyo erur mazraai foxira,
«Ad-dunyo mazraatul-oxira».

Munda ekib anda o'rarsen yaqin,
Jahd etkim bo'lmag'asen xo'shachin.

Munda ekinlarga tafovut durur,
Yaxshirog'i judu saxovat durur,

Tarki tama' qilki, saxo ul emish,
Bazlda sarf etki, ato ul emish.

Bergali olmoq ishidin bo'l yiroq,
Bermak uchun olmag'aning yaxshiroq.

Ulki karam durrig'a daryo edi,
Bahr aning durrida paydo edi,

G'azvda neruyi yadulloh anga,
Xalq laqab aylab Asadulloh anga.

Xatm o'lub otig'a saxovu karam,
Dedi karam bermak emastur diram.

Anda karamdurki talab bilmagay,
Kimda diram bilsa tama' qilmagay.

XXXI

*Hotami Toyi hikoyatikim, himmat va saxo ahlig'a peshvo erdi va
aning mehmonlig'i ta'zimig'a bosh indurmagan gado himmatini
ko'rub insof berdi*

Hotami Toyig'a bir ozodavash
Dediki: «Ey himmating ozodakash,

Toki saxo bo'ldi kafing varzishi,
Ko'rdung ekinmu bir o'zungdek kishi?»

Dediki: «Bir kun qilibon jashni om,
Indab edim bodiya ahlin tamom.

Matbax aro yuz teva qurbon edi,
Qo'yu qo'zi behadu poyon edi.

Bazm ichidin dasht sori bir nafas,
Kasbi havo aylamak ettim havas.

Sayrda ko'rdum bir asiri mihan,
Bir quchoq orqasig'a yuklab tikan.

Jismi uyin aylabon ul yuk nigun.
Tirkabon ul uyga asodin sutun,

Har qadam urg'uncha tinib muddate,
Har nafas olg'uncha o'tub fursate.

Soldi ul emgak o'ti ko'nglumga tob,
Lutfu tarahhum bila qildim xitob:

«K-ey qadin emgak yuki past aylagan,
Jismida g'am xori nishast aylagan,

Dasht aro go'yoki xabar bilmading,
Hotam uyi sori guzar qilmading?

Da'vat etib asru farovon bukun,
Qildi yomon-yaxshini mehmon bukun.

Tashla tikan, gulshani izzatqa yet,
Chekma mashaqqat, qo'pu da'vatqa yet».

Menda chu fahm etti bu nav' iztirob,
Bosh ko'tarib kuldiyu berdi javob:

«K-ey solibon hirs ayog'ingg'a band,
Ozu tama' bo'ynunga bog'lab kamand.

Vodiyi g'ayratg'a qadam urmag'on,
Kunguri himmatg'a alam urmag'on.

Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag'il Hotami Toy minnatin.

Bir diram olmoq chekibon dastranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj».

Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi».

Himmat agar bo'lsa Navoiy sanga,
Banda durur Hotami Toiy sanga.

Soqiy, ayoq tut, karam izhor qil,
Bazlni Hotamga namudor qil.

Bizda chu may bazmig'a kamdur diram,
Kamliq erur bizdinu sendin karam.

XXXII

OLTUNCHI MAQOLAT

*Adab da'bidakim, kichiklarga mujibi saodatmandliq va ulug'larg'a
boisi sarhalandliq durur va tavozu' vasfidakim, «dol»dek qaddini
xam qilg'on qadamin davlat farqig'a qo'yar va hayo riyozidakim,
har kishi kirsra rahmat yog'inlari birla serob bo'lur*

Ey talab uyida nishast aylagan,
Qaddini xizmat yuki past aylagan.

El yo'lida gard o'lubon dard ila,
Kibr ko'zin ko'r etib ul gard ila.

Ashki riyozatki sochib har sari,
Andin o'chub nafsu havo o'tlari.

Ohu nadomatki chekib sidq aro,
Kizb yuzin dudidin aylab qaro.

Sidq ila har garm nafasikim urub,
Revu riyo xirmonini kuydurub.

Qilmay o'zin ruxsat ishiga samar,
«Mim»i azimat bila bog'lab kamar,

Sarsari g'ayratni chu bunyod etib,
Hirsu tama' raxtini barbod etib,



Bo'yla tariqiki qabul aylading,
Ko'yi tarab sori nuzul aylading.

Lek bu yo'l qat'ida sharti talab,
Bilki tavozu' bila kelmish adab.

Chunki tavozu'g'a xam o'ldi hilol,
Bo'ldi fuzunroq anga har kun kamol.

Yog'a tavozu' sifati berdi dast,
Qadr ila mushaf uza topti nishast.

Charx tavozu' uza to xam durur,
Tobii amri bori olam durur.

Yo kibi qoshkim bu durur shon anga,
Jonin ulus ayladi qurbon anga.

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab.

Chunki yog'in manbai o'ldi hayo,
Qatrasini tuprog'ni qilur kimyo.

Bo'lmas adabsiz kishilar arjumand,
Past etar ul xaylni charxi baland.

Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgu durur.

Qahqahadin kabk navo kelturub,
Boshig'a ul kulgu balo kelturub.

G'uncha kulub bo'ldi ochilmoq anga,
Yetti ochilmoqda sochilmoq anga.

Barqni kulgu yiqibon tog' aro,
Balki qilib yer quyi tuprog' aro.

Subhki, bu sheva pisand aylabon,
Mehr o'ti durrini sipand aylabon.

Kulguki o'z haddidin o'ldi yiroq,
Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq.

Ravshan etib sham'ni har tun yig'i,
Yelga berib g'unchani xandonlig'i,

Qildi bulut ashki bila dur nisor,
Bo'ldi choqin kulgusidin xoksor.

Mastki yig'lay yuruy o'z din ketib,
Ashki niyozi gunahin pok etib.

Kimda adab, kulguga ochmas og'iz,
Lek hayo abri emas qatrasiz.

Qahqahakim, hazl aning yoridur,
Qurbaqa savti bila raftoridur.

Har kishikim hindu o'lur hazl aro,
Yuzini qilmoq kerak avval qaro.

Harza erur chunki musha'bid so'zi,
O'z tilini ko'rki kesar ham o'zi.

Ulki soqol bog'labon el kuldurur,
Kulgu soqolig'a o'zi kelturur.

Qilmoq uchun ko'zga fuzun ko'rkini,
Boshig'a maymun chu qo'yar bo'rkini.

Kulgu uchun kelsa ulus qoshig'a,
Kulmas ulus yolg'uz aning boshig'a.

Masxarakim kulgu uchun boj yer,
Bir diram olg'uncha iki koj yer.

Shaklda chun masxaravash keldi bum,
Urmog'ig'a qushlar etarlar hujum.

Hazlg'a lo'li ilik etsa sutun,
O'zini kuch birla qilur sarnigun.

Muncha mazallat borisi bul'ajab,
Daf' bo'lur kelsa hayovu adab.

Jilvagar o'ldi chu quyosh ra'yati,
Yer tubiga kirdi kecha zulmati.

Muzhik erur mast chu aylar xurush,
So'zni taammul bila der ahli hush.

Tulkuvu it kulgu eshigin ochar,
Sher ko'ringach ulus evdin qochar.

Buki tavoze'durur oti aning,
Yoki adab keldi sifoti aning.

Garchi xirad vasfidin o'zga demas,
Borcha ulus sha'nida birdek emas.

Har kishining tavig'a loyiq kerak,
Surati holig'a muvofiq kerak.

Qulg'aki, bek qilsa tavoze' fuzun,
Rishtai ranj o'ziga aylar uzun.

Sajda gado ollida ermas karam,
Bilki karamdur anga bermak diram.

Tifl uchun qo'pmoq emastur adab.
Pirlar ul ishni demastur adab.

Ul mutakabbir bo'luru sen yengil,
Bu ikki ish el nega qilg'ay degil.

Garchi adab sharti bag'oyat kerak,
Har kishi tavrida rioyat kerak.

Ruthada sendin kishikim bo'lsa past,
Ko'rsang o'z ilgingda ani zerdast,

Gar sanga xud tobiu xuddom erur,
Qayg'ulari ko'nglunga nokom erur.

Farzu sunan ulcha erur dilpazir,
Borchag'a o'rgatmak erur noguzir.

Har ne alar qilsa xilofi hisob,
Farzdurur aylamaging ehtisob.

Hashrdadur chunki xitobi sanga,
Har ne savol o'lsa javobi sanga.

Lek rioyatlari bo'ynungdadur,
Ruq'ai ro'zilari qo'ynungdadur.

Vojib erur borchasig'a yorliq,
Yaxshi-yomon ishda xabardorliq.

Bu sifat ummid ilakim bim erur,
Ushbu jamoatg'a bu ta'zim erur,

Gar erur atfolu iyoling sening,
Budur alarg'a dog'i holing sening.

Ulcha erur tiflg'a shoista ish,
Bilki kichiklikta erur parvarish.

Qatrag'a chun tarbiyat etti sadaf,
El boshig'a chiqqucha topti sharaf.

Birisi qo'ymoqliq erur yaxshi ot,
Kim desalar yetmagay andin uyot.

Ismda ko'p keldi tafovut padid,
Biri Husayn o'ldi, birisi Yazid.

Qilmoq erur biri muallim talab,
Qilg'ali ta'lim anga ilmu adab.

Itga taallumda chu bo'ldi kamol,
Sayd aning og'zidin o'ldi halol.

Olim ul itkim najasul-ayn erur,
O'g'linga jahl o'lsa ajab shayn erur.

Garchi anga shafqat erur sudmand,
Yetkurur ifroti va lekin gazand.

Mehr ila zajriki tavaqqu' durur,
Tiflg'a sendin bu tavozu' durur.

Zavjakim ul bo'lsa anisi haram,
Shar' tariqi bila tut muhtaram.

Nafqa bila nafsni tutma darig',
Joningg'a ifrot ila ham urma tig'.

Aylamagil hullasini rang-rang,
Kiysa dog'i hujrada tutsun darang.

Anglasang otlang'ucha holotini,
Gar er esang tutma aning otini.

Qilsa ravon yor ila ag'yor aro,
Ta'biyai ko'y ila bozor aro.

Ulki chiqib kirdi yana qo'ynunga,
Bilki olibsen ajab ish bo'ynunga.

G'ozila qildi chu yuzni qizil,
Yuz qaroliq fikridadur jazm bil.

Sochbog'ini tob ila chun soldi band,
Nafsu havu bo'ynig'a soldi kamand.

Vusma sori topti chu vobastaliq,
Bo'ldi iki fitnag'a payvastaliq.

Muncha qabohat bila boqib turub,
Bersang ijozat ani otlanturub,

Ushbu bo'lur g'ayratu mardonaliq,
Rashku hamiyat bila afsonaliq.

Ul kun agar chiqsa qo'yu qilma zo'r,
Kim chiqib evdin vatani bo'lsa go'r.

Harnekim ul shar'din etti udul,
Ermas adab aylasang oni qabul.

Biri erur makrumati volidayn,
Bilki munung qilmog'idur farzi ayn.

Bu ikining xizmatini bir bil,
Har necha ifrot esa, taqsir bil.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahonig'a tilarsen fazo —
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Tun-kunung'a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

So'zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo'yma qadam tashqari.

Bo'lsun adab birla bori xizmating,
Xam qil adab «dol»i kibi qomating.

So'ngra rahmning silasin qarz bil,
Rahm o'shul toifag'a farz bil,

Soyiri nos ichra ulug' to kichik,
Yoxud aro yerda vasat chargalik.

Kimki ulug'roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shafqat kerak.

Kimniki qilsang mutavassit xayol,
Asra aning hurmatida e'tidol.

Xizmat ila aylama tavqir ham,
Shan`at ila aylama tahqir ham.

Tutqil aning hurmati ichra zarur
Qoidai nuktai «Xayrul-umur».

Izzati haddin kam esa xo'b emas,
Haddidin ortuq dog'i marg'ub emas.

Yoki seni gardishi charxi baland
Aylasa shah xizmatig'a arjumand.

Garchiki, shah bazmi erur dilrabo,
Vojib erur aylamak andin ibo.

Marhami zimnida erur reshlar,
No'shi ichinda tikilur neshlar,

Gul ko'runur yonida yuz xori bor,
Bor esa bir aysh, ming ozori bor,

Telbaga o't shakli guliston erur,
Tushsa xalosi qachon imkon erur.

Tifl yilon naqshig'a moyil durur,
Zahrini bilmaski, halohil durur.

Bahrda tushsa duri xurshedrang,
Zimnidadur g'arqau komi nahang.

Angla bu qonun ila shah xizmatin,
Ayshidin ortuq g'am ila mehnatin.

Sud erur nechaki bo'lsang yiroq,
Turfa bukim, bo'lmag'aning yaxshiroq.

Kimga fano ganjidadin ogohliq,
Mulki qanoatda anga shohliq.

Xizmat agar bo'ynunga beixtiyor
Tushsa qilurda sanga ne ixtiyor.

Muxtasar aylay, eshit ijmolini,
Fahminga zohir qilay ahvolini,

Topsang shah xizmatig'a intisob,
To'rt ish etgil o'zunga irtikob:

Niyat aning birla burun rost qil,
G'ayrin aning ko'nglunga bexost qil.

Yana budurkim, toni xizmat chog'in,
Ayla, vale aylamagandek sog'in.

Yana bukim, yaxshi-yomon dema so'z,
El yomonu yaxshisig'a solma ko'z.

Yana bukim ranj yetar, gar taab,
Asra yomon-yaxshig'a sharti adab.

Toshqilig'ingning bu sifat holi bor,
Bo'lsa taqarrub aning ashkoli bor.

Bu necha ish bo'lsa muyassar sanga,
Davlat ila yorug'ay axtar sanga.

Bu bori juzve durur, ey notavon,
Kulli erur ulki, agar nogahon.

Bo'lsa g'ino shevasi oring sening,
Faqr uyiga tushsa guzoring sening,

Anda durur shart tavozu' sanga,
O'trusida qat'i tavaqqu' sanga.

Charx kibi yetsa zabardastliq,
Yer quyisida tilamak pastliq.

Yetsa g'amu g'ussa yuki tog'dek,
Bo'lmoq aning ostida tufrog'dek.

Aylamamak jola kibi yog'sa tosh,
Rost binafsha kibi yuqqori bosh.

Vaz'i tavoze'da vafo aylamak,
Da'bi adab birla hayo aylamak,

To bu vasila bila topib qabul
Maqsadi asliy sori bo'lg'ay nuzul.

XXXIII

*Nushirvonning hayo bog'ida nargis ko'zidin ko'zining nargisi uyolib,
nargis ko'zluk gulruxidin kanor istamay, kanora istagoni*

Shoh emas erkanda Anushirvon
Bo'ldi birov ishqi bila notavon.

G'uncha kibi ko'ngli to'la qon edi,
Lek g'ami xurdasi pinhon edi.

Yetti g'amu mehnati bemar anga,
Toki visol o'ldi muyassar anga.

Bir chaman ichra tuzubon xilvate,
Gulrux ila qildi ayon suhbate.

Komg'a mayl ayladi chun komgor,
Ayladi taslim o'zin guluzor.

Sung'och ilik dilbari munis sori,
Tushti ko'zi bir buta nargis sori.

Ilgini chekti mutag'ayyir bo'lub,
Dedi sumanbar mutahayyir bo'lub:

«Kim bu ne qo'l sunmog'u chekmak edi».
Posuxini shohi muaddab dedi:

«Kim bu visol ichraki voqe' durur, —
Nargisi shahlo ko'zi mone' durur».

Ayni hayo birla futuvvat anga,
Bermadi ul amrda quvvat anga.

Nargisini to'ldurubon yoshidin,
Qo'pti, dog'i kechti ul ish boshidin,

To ani oxir bu arig' niyati,
Bo'yla hayo shevasi xosiyati

Jumlai olam aro shoh ayladi,
Adlini olamg'a panoh ayladi.

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur,
Lek adab birla hayo xush durur.

Soqiy, adab shartini omoda tut,
Ollima to'qquz yukunub boda tut,

To ani ich, deb senga men yuz tutay,
Tomsa to'quz, oqsa xud o'ttuz tutay.

XXXIV

YETTINCHI MAQOLAT

*Qanoat bobidakim, ayni ju'din ayrilsa, zamzami najoti, balki
salsabili hayot sori uchmoqning qanoti durur va parishon tama'kim,
mazallat zahri ta'mi mazoqqa yetkurur va qoni'kim, ko'zi uzra qon
mavj ura, izzati bor va tomi'kim, oltun masnad uzra orom tutsa,
mazallati bor*

Kingaki ish bo'ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g'ani.

Ganju tajammulni g'ino bilmagil,
Balki g'ino ganji qanoatni bil.

Naqdi qanoatg'a chu yo'qdur fano,
Jahd etu bu naqd ila topg'il g'ino.

Kulbada darveshki, qoni' durur,
Foyiq erur shahg'aki, tomi' durur.

Chunki tama' bo'ldi gadolar ishi,
Bilki gadodur tama' etgan kishi.

Shah chu tama' qildi erur luqmaxoh,
Qoni'i darvesh erur podshoh.

Shoh ul emaskim, boshig'a qo'ydi toj,
Shoh ani bilkim, yo'q anga ehtiyoj.

Qushlar aro shohki, anqo durur,
Nuktaye bu amrda paydo durur.

Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoni'u anqog'a muvofiq huruf.

Tu'mag'a hudhud neki muhtoj erur,
Payk bil, archi boshida toj erur.

Hindui loib boshida toj koʻr,
Oni qaro pul sori muhtoj koʻr.

Yetsa arozil kafidin boj anga.
Koʻk sori tashlar nimadur toj anga.

Shoh boshining sharafi toj emas,
Angla ani shohki, muhtoj emas.

Shoh agar ul boʻlsaki, muhtojdur,
Harf ila muhtojda ham tojdur.

Shoh desang kimda koʻrub tojni,
Shah deli bu vajah ila muhtojni.

Shoh ani bilkim, boshi qalpoqda,
Bazl etar ofoq berur choqda.

Boʻlmasa ham shukr ila qoniʻ boʻlur,
Bazl ishidin nafsgʻa moniʻ boʻlur.

Kimki qanoatdin erur hujjati,
Yaxshi-yomongʻa yoʻq aning hojati.

Topsa qanoat sori har kimsa yoʻl,
Shoh bu taqdir ila ul boʻlgʻay, ul.

Mulk ila oʻzni demagil, arjumand,
Mulki qanoat bila boʻl sarbaland,

Charxki, bir qurs ila tuzdi maosh,
Bogʻladi oy jirmini koʻksiga tosh.

Ayladi Haq vazʻida nodir ani,
Neki qilayin desa qodir ani.

Shamʻki oʻz yogʻi bila qovrulur,
Charx anga fonus kibi evrulur.

Ravshan erur koʻzki, tutar kom ila,
Goʻshai mehrob iki bodom ila.

Chunki ogʻizning yemak oʻldi ishi,
Harbi uchun chekti iki saf tishi.

Kimsa necha zebu tamaʻdin yiroq,
Zimnida osoyish erur yaxshiroq.

Gavharu durni quloq ozori bil,
Soʻzni quloqning duri shahvori bil.

Oltun isirgʻaki quloq ogʻritur,
Zarhal oʻtukdurki, ayoq ogʻritur.

Nukta durin bil quloq oroyishi,
Keng o'tuk o'ldi ayoq osoyishi.

Topsa kishi bodiya ichra zulol,
Oltun ayoq qaydau sing'on safol.

Suvga safol ichra halovat durur,
Ko'zguga kul birla tarovat durur.

Ko'zgu jamolig'a nafas bo'lmasun,
Dastasi oltun gar emas bo'lmasun.

Tashnaki ul suv bila istar farah,
Qayda kirar ko'ngliga oltun qadah.

Kim quruq etmak suvga to'g'rab yesun,
Qursi xuru chashmai hayvon desun.

Oshig'a kim solsa qilib ziynat ish,
Zardagu shalg'am kibi oltun-kumish.

Borcha naxud o'rniga durri xushob,
Reza chag'andar yeriga la'li nob.

Yuzida zarrishta bo'lub za'faron,
Qursi qamardin tabaq ustida non.

Sabzasi non uzra zumurrad bo'lub,
Tarrasi xon ichra zabarjad bo'lub.

Tengri uchun, kel o'zung insof ber,
Kim kishi och o'lsa ne nav'oni yer.

Garchiki bor anda zarofat base,
Durlari tishlargadur ofat base.

Chaynaridin tishga ham ozor o'lub,
Yutmog'idin xud bo'g'uz afgor o'lub.

Chunki yeyildi bu takallufluq osh,
Osh dema, balki necha pora tosh.

Meъda aro chunki bu da'vat yetar,
Deki, ani meъda netib hazm etar.

Meъda o'zi xo'rdidog'i oshni —
Hazm qilur, yo'qki, ushoq toshni.

Aytmakim, to'mai qobildur ul,
Boshdin-ayoq zahri halohildur ul.

Kimsa bu ajzog'a sanar chun baho,
O'lturubon o'zni berur xunbaho.

Hazm ham o'lsa agar insofdur,
Ko'rki, ne ifrot ila isrofdur.

Kimki erur maxzani Qorun aning
Mulki Jamu toji Faridun aning.

Bazl debon ganj eshigin ochmasa,
Foydasiz durru guhar sochmasa,

Foydasiz qilmasa zohir karam,
Bermasa bir bazlag'a yuz ming diram,

Ochg'a yemak bersa, yalang'ochg'a to'n,
Yuz tilaganlarga ming birga o'n.

Qoni' esa ulchaki maqdur erur,
Tengriyu xalq ollida ma'zur erur.

Ulki tajammul anga voqi' emas,
Onchaki bor sarfig'a qoni' emas.

Ko'rdi esa mun'imi itlofxo',
Aylar aning shevasini orzu.

Topmay aning maxzanig'a dastras,
Bazl ila isrofini aylar havas.

Sarv yonida chiqorur xoshasin,
Raxsh xiromida surar lohasin.

Kiyimak uchun egniga topmay palos,
Elga tilar, bersa munaqqash libos.

Kingaki andesha bu surat bo'lur,
Avval anga burch zarurat bo'lur.

Burch ishidin o'zga chu fan topmadi,
Oldi, vale bergali tan topmadi.

Ayladi chun vajhni xoki siyoh,
Va'da yetib qildi g'ulu qarzxoh.

Burch etibu sarf etib itlof ila,
Borchani aylab talaf isrof ila.

Yo ulus ichra yuzi suyin sochib,
Yo olibon boshinu bir yon qochib.

Munchavu yuz muncha yetibon alam,
Lek anga bo'lub yana yuz muncha ham.

Tarki qanoat ani aylab jalo,
Kelturubon boshig'a yuz ming balo.

Ulki qanoatni qilib dastpech,
Holig'a bu pech yetushgaymu hech.

Ikki qaro pul chekibon dastranj,
Yaxshiroq andinki, shah in'omi ganj.

Tinch ko'ngul birla qatiqsiz umoch
Behki, birov minnati birla kuloch.

Kunduz o'kush ranj ila muzdurluq,
Kulbag'a bermak kecha ma'murluq

Behki tama' toqini tortib baland,
Aylasa muzdurlig'in yuz najand.

Ey xush, ul oyini fano ko'zlagan,
Mulki qanoatda saro ko'zlagan.

Ko'ngli agar bog' tamanno qilib,
Gulshani axzarni tamosho qilib.

Gunbad anga gunbadi nilufariy,
Ravzasi sahni falaki axzariy.

Toqi muallo anga gardon sipehr,
Shamsasi ul toq uza raxshanda mehr.

Kun bo'lubon vardi guliston anga,
Oy bo'lubon sham'i shabiston anga.

Anjumi shabgardg'a bo'lmay qaror.
Sham' aning atrofida parvonavor.

Charxu shafaq hazmida fonusi ol,
O'ylaki minqosh anga jirmi hilol.

Bo'yla xayolot ila qoni' bo'lub,
Istaridin nafsig'a moni' bo'lub.

Qilsa tasavvur bila xursandliq,
Yodi bila etsa barumandliq.

Gar xud o'lub himmatining raxshi tez,
Qilsa biyik po'ya qilurg'a sitez.

Bo'lsa biyik charx ila axtar anga,
To'da kul ichra necha axgar anga.

Ko'rsa jahonni bir ovuch xokcha,
To'bi ila sidrani xoshokcha.

Bermasa ko'k qasrig'a vayronini,
Toqi falakka yiquq ayvonini.

Pora yurak qoni bo'lub qut anga,
Balki farah kasbig'a yoqut anga.

Xoru qamishning tubidin luqmaxo'r,
Lek berib ta'm anga gulshakar.

Bo'lsa toboni dag'i har sori chok,
Yer yuziga ibrat uchun xandanok.

Xirqasining choklarin bilsa ul,
Gulshani tavfiq nasimig'a yo'l.

Pastini a'lo bila teng qilmasa,
Sholini debo bila teng qilmasa,

Kulbasi oy sham'idin o'lsa yoruq,
Eshigi yel ilgidin o'lsa ochuq.

Oq yamog'u egnida ko'k xirqasi
Xushroq anga subhu falakdin base.

Har sori vayronida bo'lsa shikof,
Satr uchun o'rgamchi anga pardabof.

Rohat uchun boshki qo'yub tosh uza,
Fari humoy istamay ul bosh uza.

Qish kuni yetkursa sovuq tob anga,
Daf'ig'a gulxan kuli sinjob anga.

Yoz topa olmay chu isig'din panoh,
Soya uchun ko'pruk anga xobgoh.

Faqr berib maxzani Qorun anga,
Foqa bo'lub mulki Faridun anga.

Aylabon oyini qanoat ani,
Dahrda mustag'ni ulusdin g'ani.

Chun bu jahon ichra tama'korliq,
El ko'zida bermay anga xorliq.

Hashrda dog'i qo'pub andin azob,
Ko'nglida yo'q dahshati yavmul-hisob.

Balki bo'lub faqrda sarmoyasi,
Kim quyosh avjig'a tushub soyasi.

Dunyovu uqboda barumand o'lub,
Kimki Haq ehsonig'a xursand o'lub.

Ulki etib tarki qanoat shior,
Aylab ani ul tama' el ichra xor.

Iz tilasang ayla qanoat tama',
Masnadi izzat uzadur «Man qana».

XXXV

*Qoni'i juvonmard ila tomi'i jahongard hamrohlig'i va biri farog'at
ganji hirsidin mazallat ranjig'a qolib, birining qanoat ranji
chekardin farog'at ganjiga yetgona*

Fors navohisidin ikki rafiq,
Ayladilar Chin sori azmi tariq.

Biri azal qismig'a qoni' edi,
Qismidin ortuq biri tomi' edi.

Borur edilar qilibon po'ya fosh,
Bo'ldi ayon yo'l uza bir soda tosh.

Yorimi yerda, yorimi yuqqori,
Ul yorimidaki, bo'lub toshqori

Nuktai bas turfa qozilg'on edi,
Chun o'qudilar – bu yozilg'on edi —

Kim: «Kishi gar emgak o'tin yondurur,
Toshni yana yuzig'a aylondurur.

Anda bitiklik durur afsonaye,
Kim bu navohi aro vayronaye

Borki, ostida erur turfa ganj,
Olg'ay ani har kishi ko'rsa bu ranj.

Har kishi bu ranjdin o'lsa yiroq,
Sabru qanoat boridin yaxshiroq».

Tomi' o'qug'och mutahattik bo'lub,
Tomia irqi mutaharrik bo'lub.

Ganj tamannosi'g'a berkitti tish,
Bo'ldi anga tog' tubin qozmoq ish.

Qoni' ul ishga chu nazar ayladi,
Qilmadi parvou guzar ayladi.

Dedi: «Bu ne mehnati jonkoh erur,
Ganji qanoat manga hamroh erur.

Kim sorikim, Tengrining ehsoni bor,
Tosh yorilib chiqmog'i imkoni bor».

Yo'ldin olib kecha tong otquncha bahr,
Subhidam ollinda ayon bo'ldi shahr.

Shahrg'a el kirgali ko'p yo'l edi,
Ulki burun kirdi, vale ul edi.

Bor edi darvozag'a surmak hamon,
Har soridin xalq yugurmak hamon.

Bu el aro rasm bu ermishki, shoh,
Qilsa baqo mulki sori azmi roh.

Asrab ani shahr elidin yoshurun,
Kimki sahar shahrg'a kirsu burun.

Aylar emishlar ani masnadrishin,
Boshig'a toj, ilgiga solib nigin.

Oni ham ul rasm ila xaylu sipoh,
Qildilar ul mulku sipoh uzra shoh.

Yoriki ranj o'ziga olib edi,
Ganj tamannosi'g'a qolib edi.

Ranj bila yetti chu o'z jonig'a,
Toshni evurdi yana bir yonig'a,

Xatqa boqib ko'rdi bu mastur erur:
«Xomtama' dahrda ranjur erur».

Oni qanoat qilibon shahriyor,
Muni tama' ranji qilib xoksor.

Qilma, Navoiy, tama' eldin diram,
Bor esa bersang xud erur ul karam.

Soqiy, etibmen tama' ul bodadin,
Kim olur ozu tama' ozodadin,

Jur'asidin soliki roh et meni,
Mulki qanoat uza shoh et meni.

XXXVI

SAKKIZINCHI MAQOLAT

Vafo bobidakim, «vov»i semurg' «sin»ining zimnida dahyakidek nihon durur va «fo»si Qof tog'i ostidag'i «fo»dek ayon va «alif»i kimyo tubidagi «alif» nishonasi, va nuqtasi mehriyoti butasining donasi. Bas hularni tama' qilg'on kishining ishi suv sathida yugurmak bo'lg'ay va qaro yerda kema surmak

Charx to'quz durjiki zarkor erur,
Javfida yuz ming duri shahvor erur.

Har durining lam'asi sham'i farog',
Ne duru, ne sham', duri shabcharog'.

Har birining qiymati kondin fuzun,
Kon demakim, kavnu makondin fuzun.

Ulki laqab qo'ydilar «aflok» anga,
Anjumi yuz ming guhari pok anga,

Qay birikim o'ksuk erur pokidin,
Ojiz erur aql aning idrokidin.

Harne javohirki, xayol aylagay,
Javhariyi aqlu savol aylagay.

Yuz topilur, bir desa bu kon ero,
Yuz desa ming oncha bu Ummon aro.

G'ayri hamul durki, jahontob erur,
Kim bu tengiz qa'rida noyob erur.

Bir dur agar aylasa zohir jamol,
Ikkisi jam' o'lmoq emas ehtimol.

So'rsa otin ahli safo javhari,
Oh chekib deki, vafo gavhari!

Bu duri noyob vafomu ekin,
Gar ul emas, mehrijiyomu ekin?

Mehrijiyo demaki, anqodur ul,
Javhari fardu duri yaktodur ul.

Mehr uzori uza xatti g'ubor,
Tun sochining tobida mushki tator.

Tushsa birov ilgiga durri yatim,
Bordur aning javhari jonig'a biym.

Har kishi hamkim bu guhar bor anga,
Ranju ano doim erur yor anga.

Har kishini ko'rsa, o'zin yor etar,
Mehru vafo gavharin izhor etar.


Ul kishi razl o'lsun, agar baxtiyor,
Kim munga yo'q shafqatidin ixtiyor.

O'ylaki xurshed erur ayni nur,
Ko'zni yorutmoqda anga ne shuur.

Abrki, har qatra guhardur anga,
Gul ochilurdin ne xabardur anga.

Gul ne bilurkim, negadur zebi bog',
Nevchun etar atri muattar dimog'.

O't erur o'z hirqatidin bexabar,
Bodag'a mast erkanidin ne xabar,
Har kishikim juz bu guhar yo'q anga
Fosh o'lur andoqki, xabar yo'q anga.
Har nechakim, bu guharedur sharif,
Xosiyatidur anga behad kasif.
Kim bu guhar har kishidin bo'ldi fosh,
Boshig'a yog'di guhar o'nig'a tosh.
Har kishiga qildi birov bir vafo,
Maxlasi yo'qdur ko'rubon ming jafu.
Necha samar sochmoq esa shox ishi,
Ko'prak otar tosh anga tergan kishi.
Kon necha hazli guhari pok etar,
Olg'uchi ko'prak yuragin chok etar.
Sham' yorutub uy ichu toshini,
Ev iyasi ko'prak uzub boshini.
Xossa bu davronki, muhabbat qo'li,
Sindi aning panjasidin bir yo'li.
Chunki quyosh boshdin-ayoq bo'ldi mehr.
Yerga kiyurdi ani har tun sipehr.
Xoma vafodin bitidi mojaru,
Muftiyi gardun yuzin etti qaru.
Chah boshig'a evrulubon charxi tez,
Bog'labon uy bo'yninu aylab sitez.
Vahki, falak toki sabuksang erur,
Dahr aning ollida kuhanlang erur.
Mehr eliga javrmu erdi ekin?
Qoida bu tavrnu erdi ekin?
Lutfu vafo yo'lida bo'lg'onga gard,
Yo'q edi erkinmu evaz, g'ayri dard?
Kimki vafo uzra borib bosh anga,
Sarzanish-o'qmu edi podosh anga?
Yo bu zamon ahliga bu bo'ldi bahr,
No'sh olibon quymoq el og'ziga zahr.
Kimga birov tutsa guli tozaro'y,
Gulshani rizvoncha anga rangu bo'y.



Shohning imom bilan hammomdagi suhbat.

Buki evaz, bermagay ul juz tikan,
Bir demagil, balki degil yuz tikan.

Xalq ishiga gar bu namudor erur,
Bir kishi topmoq ishi dushvor erur.

Bir kishi andoq kishikim bir kishi,
Tuzgay aning birla mavaddat ishi.

Yetsa falakdin sitamu xori dard,
Bir nafas etgay anga izhori dard.

Bo'lsa zamon xanjaridin yoraye.
Munglashib andin tilagay choraye.

Harne yetar dahr maloli anga,
Aylagay o'z ko'nglini xoli anga.

Har kishiga yetsa falakdin g'ame,
Bo'lmasa hamdardi aning hamdame,

Roz labin tikkon ipin so'kmasa,
Harneki ko'nglida erur to'kmasa,

Dard yoqib shu'lai nobudini,
Charxdin o'tkargay aning dudini.

Tig'i balo ko'ksini chok aylagay.
Dard oni bir damda halok aylagay.

Sarsari g'am joniga urg'ay sipehr,
Xirmanani umrini sovurg'ay sipehr.

Bas kishiga umr xushi yor emish,
Umr degan yori vafodor emish.

Yorki, oyini vafo yo'q anga.
Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga.

Sham'ki yo'q anda ziyo to'shasi,
O'tsiz erur o'ylaki, muz shushasi.

Yorki, bor anda vafo — yor bil.
Umr degan yori vafodor bil.

Har kishi olamda erur yorsiz,
Bir sadafedur duri shahvorsiz.

Yo'q hunari yolg'uz esa, uz kishi,
Qayda kishi sonida yolg'uz kishi.

Fard kishi davrda topmas navo,
Yolg'uz ovuchdin kim eshitmish sado?

Yorsiz el ohi g'amandud erur,
Yonsa yig'och yolg'uz, ishi dud erur.

Toq kishi ayshi uyin bil nigun.
Uyga qachon homil o'lur bir sutun?

Sinsa uqob egni uza bir qanot,
Tez uchar, lek anga birdam hayot.

Solmas o'yun nard bisotida shayn,
Bo'lsa aning tosida bir ka'hatayn.

Toshki chaqmoqdin o'lg'ay yiroq,
Tiya tutor ikkalasin ul firoq,

Bir-biriga chun yetishurlar dame,
Ravshan o'lur o'tlaridin olame.

Sinsa qalamning shaqidin bir uchi,
Ojiz o'lur noma raqam qilg'uchi.

Yoki singor go'shaga muhtoj erur,
Bilki kamonkash anga hiloj erur.

Dur nechakim, aybdin o'ldi yiroq,
La'l ham o'lsa yonida yaxshiroq.

Jumla jahon shahlig'idin ori bor,
Kimki gadodur dog'i bir yori bor.

Shohki yo'q hamdamu yori aning,
Ko'nglida ko'p bo'lg'usi hori aning.

Qilsa birov hamnafasu yorliq,
Bo'lg'usi ko'p g'amg'a sabukborliq.

Yor erur andoq guhari bebaho,
Kim anga muhtoj ne shah, ne gado.

Ushbu sifat yorki, marqum erur,
Voyki, bu davrda ma'dum erur.

Bo'lsa dog'i topmog'i oson emas,
Jinsi bashar ichra xud imkon emas.

Xayli malak ichra agar bordur,
Charx uruji dog'i dushvordur.

Bo'ldi pari ham bu sifatdin bari,
Odami o'lmoqni ne bilgay pari.

Gar sanga bor ersa, bu so'zda xafo,
Qaysi pari chehrada ko'rdung vafo?

Topmoq ani garchiki, dushvor ekin,
Bo'lsa dog'i odam aro bor ekin.

Vasli aning kimgaki bo'lg'ay nasib.
Sha'nidadur oyati «Fathun qarib».

Har kishi bir yor iladur ko'ngli shod,
Xayli maloikdin anga «In yakod».

Vasli ila kimki erur bahramand,
Jonim aning boshig'a bo'lsun sipand.

Kimki vafo ko'rdi jafu qilmadi,
O'trusida g'ayri vafo qilmadi.

Jonni sanga topshurayin, ey sabo,
Elt aning ollida qilmay ibo.

Bo'l quyunu boshig'a evrul base,
Jon dog'i qo'ynungda nechukkim xase.

Mendin anga arzi duo aylagil.
Yo'lida jonimni fido aylagil.

Demon, olib kel chamani vardini,
Ko'zuma yetkur yo'lining gardini.

Xidmatida gar topa olsang majol,
Onchaki mendin degasen arzi hol.

Avval ayog'ig'a tushub past bo'l,
Yo'lida tufrog' ila hamdast bo'l.

Subh nasimi kibi bo'lma xamush,
Shom shamoli kibi tortib xurush.

Aytkim, ey boshtin-ayoq ruhi pok,
Jism sanga ruhki, ruhi fidok.

Necha visolingni tilab zor o'lay,
Necha firoqingg'a giriftor o'lay.

Bag'rim o'lub ko'hi balo lolasi,
Ko'zdin oqib har sari pargolasi.

Jonim o'lib hajring ila dardmand,
Raglar ajaldin anga pechon kamand.

Oncha seni istabon urdum qadam,
Kim talabingda qadam o'ldi adam.

Seni tilab har necha ko'rdum shikanj,
Ganj tilab yetmadi juz dardu ranj.

Sabza dedim sonchti nishtar meni,
La'l dedim, o'rtadi axgar meni.

Lola debon ko'ksuma ko'rdum tugan.
Gul tilabon ko'ngluma toptim tikan.

Kimki anga aylamadim jon darig',
Qilmadi javr ulchaki imkon darig'.

Har kishikim, qo'y dum ayog'ig'a bosh,
Jola kibi boshima yog'durdi tosh.

Voyki, yuz tosh aro yolg'uz boshim,
Charx sog'inmishki, erur yuz boshim.

Ham bu nafas boshima yet, rahm etib,
So'ngra ne osig' kelurung men ketib.

Gar bu tamannoni qabul aylasa,
Mehr buzug' sori nuzul aylasa,

Turmavu zinhor yetishg'il manga,
Xizr hayoti bu xabar bil manga.

To chiqibon o'tru yuz afg'on qilay,
Qaysi fig'on, balki fido jon qilay.

Tushsa ko'zum yig'layu jononag'a,
Jon berayin ollida shukronag'a.

Jondin olib dard bu darmon bila,
Bormayin oxir dami armon bila.

Gar manga bu kom qarib o'lmasa,
Davlati diydor nasib o'lmasa,

Dashti fano sori xirom aylasam,
Mulki adam ichra maqom aylasam.

Har kishi ham qilsa vafo jomi no'sh,
Ko'ngli muhabbat mayidin ura jo'sh.

Aylasa bu ishda tatabbu' manga,
Andin erur muncha tavaqqu' manga.

Kim anga kim qilsa jahonin fido.
Etsa aning mehrida jonin fido.

Cheksa yukin onchaki to'qquz sipehr.
Ul dog'i bir zarracha ko'rguzsa mehr.

Desun ani gavhari koni vafo,
Koni vafo yo'qki, jahoni vafo.

Shukrin aning virdi zabon aylasun,
Ko'nglini mehriга makon aylasun.

Bordur umidimki, bu davlat chog'i,
Bo'lg'ay aning sadqasi mendin dog'i.

Jonni fido etsa bu jononig'a,
Qo'yg'ay aning minnatini jonig'a.

Aylasalar ikki tarafdin vafo,
Yetgay alar jonig'a oncha safo.

Kim sifati sig'mag'ay avroq aro,
Demayin avroqki, ofoq aro.

XXXVII

*Ikki vafoliq yor bir-birisi vafosiga boshlaridin kechgani va alar
harakatidin yuz ming bosh qilichdin va qilich qindin qutulgani,
halki qinga tushgani*

Andoq eshittimki shahi komron,
To'rt ulus xoni Temur Ko'ragon

Fathi aqolimga qilg'onda azm,
Hind savodida qatiq bo'ldi razm.

Fath ila nusrat chu anga berdi dast,
Charx aduv qalbiga soldi shikast.

Chunki aduv kufr eli erdi tamom,
Bek dedikim, qilsun ulus qatliom.

Kasratidin dashtni tutg'on qatil,
Qon ila shingarfdin oqizdi Nil.

Bosh tushub ul rudda soy toshicha,
Bosh kesibon har kishi o'z boshicha.

Har sari qon to'kmak ila tig'i tez,
Jumlai olamda solib rustaxez.

Ushbu mahalda iki bechora yor,
Bo'ldi qitol ahlig'a nogah duchor.

Tushti sipohi birisin chopqali,
Shoh yosoqidin amon topqali.

Qatl ishiga chun yonidin chekti tig',
Boshin aning chopmoq uchun bedarig'.

Ko'rdi chu tig' ostida qo'ldoshini,
Yori shafi' o'ldi ochib boshini.

Kim sanga maqsud agar bosh erur,
Qo'y ani, bu bosh anga podosh erur.

Chun anga yuzlandi qo'yub yorini,
Yori ham etti bu so'z izhorini.

Qaysig'a aylay desa ul zulm fosh.
Yori qo'yar erdi ayog'ig'a bosh.

Tund bo'lub qotili po'lodchang,
Dedi: Ikkingizni chopay bedarang.

Qay birining qatlig'a qilg'ach shitob,
Yona biri aylar edi iztirob,

Kim, meni qatl ayla burun, tez bo'l,
Toki men o'lguncha tirik bo'lsun ul.

Bazl qilurlar edi bir-birga bosh,
Boshlarig'a tig' uchun erdi talosh.

Maks edi bu nav' aroda bir zamon,
Kim el aro tushti nido: «Al-amon!»

Bir-biriga kechti alar jonidin,
Shoh dog'i kechti ulus qonidin.

Fosh etib ul sidqu mavaddat xavos,
Ham elu ham o'zlari bo'ldi xalos.

Bersa, Navoiy sanga yore xudo,
Sen dog'i qil boshingu joning fido.

Soqiy, olib kel qadahe yor esang,
Mehru vafo sharti bila bor esang.

Og'zima jon yetti, davo qil manga,
Va'da necha?! Emdi vafo qil manga.

XXXVIII

TO'QQUZUNCHI MAQOLAT

*Ishq o'ti ta'rifdakim, shu'lası halo sahrasining lolalari va axgari
halokash ko'ngul pargolalari durur va mehnat qaro shomi aning
tutuni va bu shomning muhtariq kavkablari aning uchquni durur.
Va husn anvorikim, muncha o'tg'a bois, aning barqidin bir lam'a
va muncha haroratga mujib, aning quyoshidin bir ashi'a durur*

Odami xokiyni chu subhi alast
Ayladilar ruh mayi birla mast.

Hikmat iligi bila tufrog'ini,
Tuzdilar andoqki Eram bog'ini.

Qaysi Eram, ravzai xuldi barin,
Ravza nekim, jilvagahi huri in,

Qushlari har lahza yuz afsona deb,
Har kishikim, yona so'rub, yona deb.

Sahni falak bog'idek orosta,
Har guli oning mahi nokosta.

Orazi gulrangi guli tozasi,
Gul uza gulgunluq aning g'ozasi.

Qomat o'lub savsani ozod anga,
Balki sihi sarv ila shamshod anga.

Zulf anga sunbuli mushkin bo'lub,
Yuz bila eng lolavu nasrin bo'lub.

Yuzda quyosh chashmasidek obu tob,
G'abg'ab o'shul chashma suyidin hubob.

Ko'zdin o'lub nargisi fattonlari,
Labdin o'lub g'unchai xandonlari,

Xat bo'lubon sabzai xurram anga,
Ter o'lub ul sabzada shabnam anga.

Husnu jamol anda gumondin fuzun,
Harne gumon aylasang ondin fuzun.

Lek bu ne husn o'lubon dilfireb,
Ne bu jamol olibon andin shikeb.

Bulbuli ishq o'ldi chu dostonsaro,
Kirdi tamoshoga bu bo'ston aro.

Chun nazari gulga tushub zor o'lub,
Shavq o'tidin joni xabardor o'lub.

Maskan uchun bo'ldi chu gulbunnishin,
Joniga o't yoqti guli otashin,

Joni aro ishq o'tidin tushti tob,
Ko'nglida g'am shu'lasidin iztirob.

Ishq chu toroji shikeb ayladi,
Gul dog'i izhori fireb ayladi.

Jilva qila boshladi chun gul anga,
Qolmadi imkoni tahammul anga.

Kuymak ila chekti aningdek xurush,
Kim o'tidin tushti chaman ichra jo'sh.

Keldi chu bu hirqatu mahruqluq,
Bo'ldi ayon oshiqu ma'shuqluq.

Ishq chu tug'yoni kamol ayladi,
Oshiq o'zin sheftahol ayladi.

Husn dog'i jilva qilib dilpisand,
Zulfg'a topshurdi balodin kamand.

Tushti jahon mulkig'a g'avg'oyi ishq,
Bo'ldi zamon ahliga yag'moyi ishq.

Ishq ne o't erdiki, qilg'och hujum,
Dudu sharar bo'ldi sipehru nujum.

Pashshadek ul duddin itti malak,
Charxda fonusdek o'ldi falak.

Aql jabinida savod etti fosh,
Ruh ko'zidin dog'i oqizdi yosh.

Dayrda ham andin uzun mojaro,
Ka'ba libosi dog'i andin qaro.

May o'ti but yuzidin urg'och alam,
Kuydurub ul shu'lada Mushafni ham.

Andaki Mushaf varaqin kuydurub,
Rahlni o't yoqmoq uchun sindurub.

Dayrg'a masjidni haqir aylabon,
Kufrg'a imonni asir aylabon.

Xirqai taqvoni qilib itga jul,
Ruq'alari har sori jul uzra gul.

Kufr savodig'a chu ochib kitob,
Borcha samadni sanam aylab xitob.

Masjid aro bodai isyon sotib,
Go'shai mehrob aro kup o'rnotib.

O't solibon gulshan aro gul bila,
Maykada kunjin yorutub mul bila.

Bog' ne voqifki, ne guldur bu gul,
Kup qachon ogahki, ne muldur bu mul.

Ruh bu gul xorig'a pobast o'lub,
Jon dog'i bu mul isidin mast o'lub.

Aqli sarosima ishi muxtalif,
Qaysi sarosimaki, masxu xarif.

Dema xarif, ablahu nodon degil,
Nodon yo'q, g'uli biyobon degil.

Qaydaki ishq o'ti bo'lub shu'lakash,
Aql o'lub ul o't uza xoshokvash,

G'ayri ko'ngul xittai ma'murasi,
Kim kuyubon bo'ldi bu o't ko'rasi.

Qoysi ko'ngulniki, makon etti ishq,
O'tdin ani la'lg'a kon etti ishq.

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun,

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q,
Husnni netsun kishikim, oni yo'q.

Rojih etar ishq o'tidin choshni.
El shahig'a oshiqi qalloshni.

Ishq erur durru, ko'ngul durj anga.
Balki quyosh ishqu ko'ngul burj anga.

Qaysi quyosh, bazmfuruzanda o't,
Dema furuzandaki, so'zanda o't.

Tanki so'ngak hay'atidin uy durur,
Gar emas uy, nevchun oni kuydurur.

Ishq ayon qilmoq erur husn ishi,
O'ylaki o't sham' ila yoqqay kishi.

Har nechakim husn dilovezroq,
Ishq o'ti el ko'ngli aro tezroq.

Lutfu tarovat nechakim gulda ko'p,
Hasratidin g'ulg'ula bulbulda ko'p.

Oh chekar bo'lsa ko'ngul zaxmnok,
Shu'la biyikroq urar o't bo'lsa chok.

Mushkil emas ishqqa jon o'rtamak,
O'tg'a ne dushvor jahon o'rtamak.

Ishq eritur aqli sitamkorani.
Shu'la nechukkim, suv qilur xorani.

Bir sharari zuhd jahoniga bas,
Barq ila netgay ko'p o'lub xoru xas.

Pil bo'lar ishq anga keltursa zo'r,
Pil ayog'i ostida andoqki mo'r.

Oshiq o'zin kim desa, oshiq emas,
Borcha kishi ishqda sodiq emas.

Ulki kezib husn pisand aylagay,
So'ngra ko'ngulni anga band aylagay,

Oni ko'ngul demaki, bir pora tosh,
Ne qizig'ay sham' o'tidin xora tosh.

O'zni takalluf bila g'amnok etib,
Motami yo'q, lek yoqo chok etib.

Toshi malak shevai talbis ila,
Lek ichi muttafiq iblis ila.

Zohirida sidqdin oroyishe,
Botinida fisqdin oloyishe.

Yoridin ul komlar aylab talab,
Kim ko'runub zikrida tarki adab.

Gah labi la'lidin etib jon tama',
Jon demayin ulchaki, imkon tama'.

Vasf qilib gah tani gulfomini,
Tan dema, har uzvining andomini.

Hazl kitobi kibi xattida zeb,
Ma'ni anga fahshu, fusunu fireb.

Shu'badagar shishasidek toshi sof,
Zimnida yuz makr ila zarqu gazof.

Bu esa oshiq, erur o'lturguluk,
Boshdin-ayoq jismini kuydurguluk.

Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko'ziyu ham ko'ngli pok.

O'zlugidin ishq ani pok etib,
Balki fano o'tig'a xoshok etib.

Dard yoshurmoq yuzin aylab sarig',
Ashk oqizmoq ko'zin aylab arig'.

Tor kibi za'f tani zorida,
Har bo'g'uni bir girih ul torida.

Orqasidin ishqki, yuz g'am o'kub,
Har girihi bir g'am ayog'in tugub.

Dard yukidin bo‘lubon xam qadi,
Darddag‘i «dol» aning hamqadi.

Charx kibi jismi sarosar tugan,
Mehnati shomig‘a tonuq har tugan.

Ko‘ksi shikofi bo‘lub otashfishon,
Shom balosig‘a sahardin nishon.

Ko‘nglakiga toza tugandin o‘run,
Xirqai idborig‘a tevrak yo‘run.

G‘ayr xayolin chiqorib jonidin,
Mamlu etib jonini jononidin.

Nuktada moyil tili har so‘zga yo‘q.
Jonida jonon g‘amidin o‘zga yo‘q.

Ko‘zda ko‘rub yor yuzi hayrati,
Kuydurubon ko‘nglini ko‘z g‘ayrati.

Ko‘nglidagi yor g‘ami rashkidin,
Qon to‘kubon har sari ko‘z ashkidin.

Qoysi tarafkim, anga borib nazar,
Do‘st jamoli bo‘lubon jilvagar.

Balki bo‘lub o‘zlugi ham bartaraf,
Ko‘zki solib, yor ko‘rub har taraf.

Kim bu sifat ishqda mag‘lub erur,
Harneki andin kelur, ul xo‘b erur.

Ishq angakim, bo‘yla nishast aylagay,
O‘zlugidin forig‘u mast aylagay.

Zuhd harimi sori xos o‘lmasun,
Ishq o‘tidin joni xalos o‘lmasun.

Gar yig‘ilib ahli salomat anga,
Aylasalar zajru malomat anga,

Va‘dai jannat bila ovutsalar,
Ishq o‘tidin ko‘nglini sovutsalar.

Murtad o‘lub aylasa toat yana,
Taqvo ila qilsa qanoat yana.

Qilsa balo zaxmlari chorasi,
Butsa ano o‘qlarining yorasi.

Tan qushig‘a xirqani dom aylasa,
Donai tasbih ila rom aylasa.

Xilvat aro topsa yubusat dimogʻ,
Kasbi havo qilgʻali istab farogʻ,

Qilsa guzar koʻyu Xiyobon sori,
Oʻtsa Musallo bila Maydon sori.

Dashtda otligʻ koʻrunub xayl-xayl,
Zohir etib borchasi javlongʻa mayl.

Nogah oʻshul xayl aro qotilvashe,
Husnu malohat mayidin sarxushe,

Yuz gul ochib may oʻti ruxsoridin,
Zohir alardin biri dastoridin.

Husni oʻti shuʻlasi gulzor oʻlub,
Har sori gulzorida gulnor oʻlub.

Xol nekim, dafʻ qilurgʻa gazand,
Oʻtida koʻz mardumi har yon sipand.

Qoshlari oy uzra muanbar hilol,
Aqlni devona qilib har hilol.

Yoʻqki, ulus qatligʻa ul qoshlar,
Mashvarat etmakka qoʻshub boshlar.

Husn zuhurida girih qoshida,
Zeb uchun ul shamraki, «nun» boshida.

Sunbuli zulfi girih uzra girih,
Qaysi girihkim, zirih uzra zirih.

Safshikan ul turki banogoʻsh oʻlub,
Qatl xayoligʻa zirihpoʻsh oʻlub,

Noz ila oʻtlugʻ koʻzi har yon boqib,
Zuhdu varaʻ xirmanigʻa oʻt yoqib.

Dudi ul oʻtning safi mijgon aro,
Chun yetibon borchasin aylab qaro.

Surmasiz ul koʻz qarovu purfusun,
Ondin oʻlub koʻzga jahon surmagun.

Laʼlida xay qatراسi gʻalton tomib,
Yoʻqki baqo chashmasidin jon tomib.

Xattini har sori hayot ahli bil,
Xizrlar oʻlgʻon zulumot ahli bil.

Qatralar ul gʻabgʻabi dilxoh aro,
Chashma suyidin sizib ul choh aro.

Har sari mo'yi chekibon jon ragin,
Kofiri zulfi uzub imon ragin.

Hullai gulrang bila qomati,
Sarvki gul o'lg'ay aning xil'ati.

Tund samandi ko'runub barqfom,
Sur'ati sayr ichra bo'lub barqgom.

Kuymaku ashk o'lsa ne tong elga fosh,
Markabi barq o'lsavu rokib — quyosh.

Guldek etak sanchibu perohani,
To'n etagidin ko'runub savsani.

Yog'lig'i naqshiki, bo'lub gul nishon,
Savsanu gul uzra bo'lub gulfishon.

Gulniki dastori uza band etib,
Sarvu sapidor uza payvand etib.

Bu ne namudori jamil, ey ko'ngul,
Balki gulistoni Xalil, ey ko'ngul.

Kuydurubon aqlni chobuklugi,
Titratibon ruhni nozuklugi.

Bo'yla balolar bila javlon aro,
Yetsa kishi boshig'a maydon aro,

Tufroq o'lurdin topa olmay amon,
Raxshi ayog'ida zaminu zamon.

Devnajodiki, qayon gom olib,
Yo'qki bashar, xayli malak qo'zg'olib.

Ustidagi qotili chobuksuvor,
O'lturubon xalqni devonavor.

Ul dam agar Shibliyu Zunnun erur,
Bir necha oshuftai majnun erur.

Din chekibon motamiga hoy-hoy,
Piri xirad tifldek angushtxoy.

Ruhul-amin ul sori chun boqibon,
Og'zidin oning sho'lakay oqibon,

Onda ne aql, elga ne taqvo bo'lur,
Taqvo ila aql degan ne bo'lur.

Ko'rmagan el topqay ul o'tdin amon,
Ko'rmagu, kul bo'lmoq emas ham, yamon.

O'tqa tushub pok bo'lur kimki g'ash,
Pokroq o'lg'ay o't aro pokvash.

Kimki bu kuymak anga odat durur,
Dunyoyu uqboda saodat durur.

XXXIX

*Shayxi Iroqiy Shomda husn sham'i gulin ko'rgach, parvonadek
tutashqoni va shu'lasi inkor tikonlarin kuydurub, munkirlar
boshig'a oshqoni*

Ulki fano ko'yida boqiy edi,
Faxri zamon Shayxi Iroqiy edi.

Ko'ngli aning maxzani asrori ishq,
Nutqi aning abri guharbori ishq.

Ishq o'tidin anga muxammar sirisht,
Ishq hurufidin anga sarnavisht.

Lek bu ishq o'tini da'vo bila,
Yopib edi pardai taqvo bila.

Misr necha vaqt anga erdi maqom,
Subhidame qildi qo'pub azmi Shom.

Voli edi Shomda bir taxtgir,
O'ylaki tun mulkida badri munir.

Angladikim, Shayx kelur ul taraf,
Bildi o'z ahvolig'a oni sharaf.

Ayladi hukm o'ylaki, yaxshi-yamon,
Chiqsun anga o'tru eshitgan zamon.

O'zi dog'i voliyi kishvarpanoh,
Chiqti yopib charxni gardi sipoh.

Shayxga ul xayl chu yovushtilar,
Borchasi markablaridin tushtilar.

Yo'li uza borcha qo'yub boshini,
Gardga moni' qilibon yoshini.

Bor edi volig'a bir andoq o'g'ul,
Kim anga yuz Misr shahi erdi qul.

Lutfu malohatda jahon ofati,
Dema jahon ofati, jon ofati.

Shom savodida mahi anvar ul,
Misr eliga Yusufi payg'ambar ul.

Mulki arab ichra ajabdin-ajab,
Volih anga ham ajamu ham arab.

Misr diyori aro habbi nabot,
Shom savodida xud obi hayot.

Shayx ko'ziga chu ko'rundi ul oy,
Qo'ydi ayog'ig'a yuzu, chekti voy.

Chok etibon xirqai irshodni,
Uzdi chekib subhai avrodni.

Shayxga tufroq o'lubon xaylu shoh,
Lek bo'lub Shayx anga xoki roh.

Ishq arokim Shayxga ul hol o'lub,
Hayratidin kelgan ulus lol o'lub.

Ishqki har shoyibadin pok erur,
Har neki qilsa kishi ne bok erur?

Shayxnkim ishq o'ti qildi halok,
Shu'lasi ul xaylni kuydurdi pok.

O'ti ko'ngullarga xabar ayladi,
Ohi bag'irlarga asar ayladi.

Titrabon o'rtanmagidin bo'ldi fosh,
Pokligi elga nechukkim quyosh.

Voli ichidin urubon o't alam,
Shayx muridi bo'lubon o'g'li ham.

Ishqda pok o'lsa kishi bu sifat,
Xosiyat o'lur bu sifat oqibat.

Husni haqiqiyni gar o'truda ko'r,
Xoh ani ko'zgudau, gar suda ko'r.

Chun g'araz ul husng'a bo'ldi shuhud,
Ko'zguvu suvg'a aroda ne vujud.

Munda kishi qaydavu beboklik,
Mumkin emas ishqda juz poklik.

Ishq seni qilsa, Navoiy, halok,
Pok esa ul ishq o'lumdin ne bok.

Soqiy, o'lubmen, menga tut jon suyi,
Sofiyu pok, o'ylaki hayvon suyi.

To yoqavu ko'ksun etib chok ichay,
Har nechakim bo'lsa to'la, pok ichay.

O'NUNCHI MAQOLAT

*Rostliq ta'rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy. Va ul
uy shabistoni harimida bu sham'i anvar majlisoroy bo'lur. Va
egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek simbarlar yuzida
yer tutarkim, boshi kesguluk. Va agar ajdahodek ganj ustida
halqa urarkim, o'lturguluk*

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,
Kajrav esa charx, ne andeshasi?!

O'qki, tuz o'ldi tayaroni aning,
Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning?

Yo'l necha tuz, yo'lchig'a maqsad qarib,
Xamlig'idin tushsa yiroq yo'q ajib.

Nay tuz uchun istar ani ahli hol,
Chun tuz emas, egri ko'rar go'shmol.

Nayza bo'lub tuzlugidin sarbaland,
Chirmosh uchun bandg'a qolib kamand.

Sham' bo'yi tuz kelib ayvon aro.
Shohidi bazm o'ldi shabiston aro.

Egri uchush birla chu ko'p aylanib,
Qaydagi parvona borib o'rtanib.

Sarvkim, ul to'g'ri chekib qomatin,
Ko'rmayin osibi xazon ofatin.

Chirmashibon sunbuli tar bog' aro,
Egrilik oning yuzin aylab qaro.

Tuz durur egri qili to soz erur,
Egri bo'lur emdiki, nosoz erur.

Bo'ldi chu mistar xatig'a tuz raqam,
Boshini olmas raqamidin qalam.

Bir xati gar egri tushar bir nuqat,
Nusxada har safhadadur egri xat.

Qaysi pari paykari huri najod,
Balki anga huru pari xonazod.

Kim o't erur chehrai gulrang anga,
Dahrni kuydurgali ohang anga.

Gul uza har xay guhari nob o'lub,
Balki bu xaydin guli serob o'lub.

Har sari mushk uzra xati mushksud,
Xay nami zohir qilib ul o'tg'a dud.

Olg'ali el ko'nglini lutfi mizoj,
O't bila suvg'a beribon imtizoj.

Bo'lsa latofat nechakim, oni bor,
Husnu jamol onchaki, imkoni bor.

Lek emas bo'lsa qadi sarfarozi,
Bo'lmasa gulzori aro sarvi nozi.

Chekmasa tuz sarvi xiromonini,
Otmasa tuz novaki mijgonini.

O'ynamag'ay jonini har zor anga,
Bo'lmag'ay el ko'ngli giriftor anga.

Tuzmasa mehrobini ahli niyoz,
Egri boqib rost emasdur namoz.

Rostqalam xalq erurlar salim,
Egri durur xatki, emas mustaqim.

Rostdur ul kim, nazari to'g'ridur,
Kim iligi egridur, ul o'g'ridur.

Bo'lsa ilik egrilik ichra samar,
El ani kesmakda tuz etgay magar.

Ko'zki erur egri aning xilqati,
Birni iki ko'rmak erur san'ati.

Birdin o'gun chun nima mavjud emas,
Ko'rgan ani ikki erur shirku bas.

Ulki Sulaymon edi oti aning,
Bahri nubuvvat duri zoti aning.

Saltanati dahr uza masnadrishin,
Saltanati birla nubuvvat qarzin.

Qabzai hukmida jahon kishvari,
Amrig'a inson kibi devu pari.

Farshi saropardasi yozi yobon,
Qush paridin boshi uza soyabon.

Sahni havoda to'shalib mafrashi,
Azmda el xayli janibatkashi.

Devu pari zumrai odam bila,
Tobii amri edi xotam bila.

Kimki erur qaysaru xoqoni ahd,
Qaysaru xoqon ne, Sulaymoni ahd.

Taxti urub poya sipehr avjig'a,
Toji solib soyani mehr avjig'a.

Borgahi torami axzar kibi,
Xayli bu toram aro axtar kibi.

Jam bila Zahhokcha johi aning,
Ikki Skandarcha sipohi aning.

Xaylu taba' Hurmuzu Xusrav anga,
Mulki Sulaymoncha qalamrav anga.

Lek Sulaymong'a nechukkim zamon,
Xotam ila hukm etib erdi ravon.

Anga dog'i gardishi charxi barin,
Saltanat ichra berib andoq nigin.

Ul nimakim, har kishi xonliq topib,
Hukmi aning birla ravonliq topib.

Xatdin o'lub anda dog'i bu sharaf,
Xatti bo'lub gavharu, xotam — sadaf.

Turfa bukim, xattin aning ro'zgor
«Rostiu rusti» etib oshkor.

Qilmasa bu muhr xati yorliq,
Shohg'a yo'q g'ayri giriftorliq.

Tuzluk o'lub oxir anga dastgir,
Tuzluk ila xalq anga farmonpazir.

Har kishikim, istasa tuzlukka g'avr,
Angladik onikim, erur ikki tavr:

Bir buki, tuz bo'lsa kishining so'zi,
Yo'q so'zikim, ham so'ziyu ham o'zi;

Bir buki, yolg'ong'a taassuf bila,
To'g'ri degay so'zni takalluf bila.

Yaxshidir avvalg'isi xud begumon,
Lek ikkinchisi ham ermas yomon.

Har kishi yolg'onni desa, lek kam,
Bo'lg'ay edi kosh bu davronda ham.

Turfa zamon ahlig'a biz muhtalo,
Kim yo'q alar ollida chindek balo.

Kimki qilur chinlik alardin havas,
Qoshlari ustida topar chinu bas.

Buki erur kufr elining mulki Chin,
Ko'rkim, erur g'ayrati xuldi barin.

Lek bu chinlikki, Haq etmish ato,
Ko'rki ulus ollida uldur xato.

Ulki xato so'ziga oyin erur,
Za'mida ulkim, bu xato chin erur.

Kimki bu davronda qilur rostliq,
Yo'qtur ishi g'ayri kamu kostliq.

Davr chu kajlikka qilur iqtizo,
Sen tilasang rost, emastur rizo.

Tuz ishi yo'q gunbadi davvorning,
Kim xati tuz kelmadi pargorning.

Ul kishikim, tuzluk erur shon anga,
Dushman erur gardishi davron anga.

Xomaki, tuzlukka erur rahnamun,
Kesilibon boshi bo'lur sarnigun.

Tuzluk ila chun «alif» urdi salo,
Ko'rki oni ostig'a olmish balo.

Tuz chekilur borgah uzra tanob,
Ko'rki erur boshdin-ayoq pechu tob.

Tuzluk ila chunki shihob urdi gom,
O'rtadi o't boshdin-ayog'in tamom.

Keldi yilon jismida pechu shikanj,
Muhradur og'zidavu ostida ganj.

Egriligidin ko'runur yangi oy,
Andaki bo'lmish qadami charxsoy.

Munchaki chirmosh bila dastordur,
Bosh uza chiqmoqqa sazovordur.

Yo'q-yo'q, emas bo'ylaki qildim raqam,
Balki erur barchasi sahvul-qalam.

Egriyu tuz vasfi muhaqqaq durur,
Botil erur egriyu tuz haq durur.

Sham'ki, tuzluk bila masrur erur,
Garchi kuyar boshtin-ayoq nur erur.

Barqki, egrilik o'lubtur xo'yi,
Garchi yorur, lek borur yer quyi.

To raja chekmas yeriga bog'hon,
Bog' hamon zebda jangal hamon.

Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,
Suvni teng ichmas necha yakson sochar.

Necha musattah esa ko'zgu yuzi,
Tuz ko'runur shohidi mahro' yuzi.

Xud yuzi garchi musayqal durur,
Girdi uzor anda mutavval durur.

Tuz ko'runur mehr chu turg'on suda,
Egri bo'lur ushturak urg'on suda.

Boshtin-ayog kimsaki, tuzdur so'zi,
Yoki bo'yolg'onu yovuzdur so'zi.

Ul dog'i bu ikkisi beixtiyor,
Kimsaga taqdir aro ne ixtiyor.

Ulki habibim dedi Xoliq ani,
Derlar ulus muxbiri sodiq ani.

Chunki aning borcha so'zi haq durur,
O'trusida el so'zi «saddaq» durur.

Qaysi habib ulki, falak-xokidur,
Sidrau to'bi — xasu xoshokidur.

Istab aning dinini bilgach yaqin,
Ummat o'lurni rusuli mursalin.

Sidq ila urg'onda salo ummati,
Oyiti «Kazzobuna lo ummati».

Qolsa azob ichra bori koinot,
Bordur aning ummati ahli najot.

Balki chu tortib alami ehtido,
Istabon ummatlig'ini anbiyo.

Kizb keturgan tili yo kilkidin,
Xorij etib o'zni rusul silkidin.

Sahv ila yolg'on demak ermas hisob,
Bilgach ani chunki qilur ijtinob.

Ulki shior ayladi yolg'on demak,
Bo'lmas ani eru musulmon demak.

Nechaki jahd aylasa kozib kishi,
Bir-ikki dast ilgari borg'ay ishi.

G'ofil esa xalq bu ahvoldin,
Voqif erur Tengri xud ul holdin.

Elga necha maxfi esa bu sifat,
Zohir etar yolg'on o'zin oqibat.

Kizh qilur burnog'i subh oshkor,
Nurini ko'rkim, nechadur poydor.

Kimsaga har shevada qallobliq,
Andin erur yaxshiki, kazzobliq.

Har kishi ont ichti sharorat bila,
Kizh esa daf' o'ldi kaforat bila.

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,
Kizh, der el, chin desa, qolg'on so'zin.

Ranjg'a solg'on bu xasorat oni,
Aylamas ozod kaforat oni.

Kimsaga yolg'onchi debon qolsa ot,
Bu ot ila chorlasalar o'zu yot,

Sidq xitobi yana yonmas anga,
Chin desa ham, xalq inonmas anga.

Kimki chini el aro yolg'on durur,
Yolg'oni chinlikka ne imkon durur?

Necha zarurat aro qolg'on chog'i,
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

XLI

*Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a
tushgonida, chin so'zin sher yolg'on sog'inib, faryodig'a yetmagoni
va ani balo domidin xalos etmagoni*

Bor edi bir beshada bir tund sher,
Vahshat aro ko'k asadidek daler.

Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,
Mo'r bolasin qilur erdi halok.

Tishlabon ul moyai payvandini,
Og'zida asrar edi farzandini.

Bor edi durroje o'shul beshada,
Sheri jayon vahmidin andeshada.

Sherki tishlab bolasin dam-badam,
Beshada har yon qo'yar erdi qadam.

Yetgach aning boshi uza nogahon.
Far eta uchsa edi ul notavon,

Vahm ila seskanmak edi sher ishi,
O'tturur erdi holasiq'a tishi.

Tish bila aylab holasi yorasin,
Yora etib o'z jigari porasin.

Doim anga bu g'am aro g'am edi,
G'am neki, motam uza motam edi.

Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,
Boshladi durroj bila yorliq.

Dediki, mendin sanga yo'q qasdu kin,
Emin o'lu bil meni dog'i amin.

Vahmni qo'y, hamdamu hamrozim o'l,
Ayshu tarab vaqti navosozim o'l.

Men dog'i lahning eshitib shod o'lay,
Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay.

Shart bukim yetsa gazande sanga,
Solsa falak hilasi bande sanga.

Lutf qo'lin holinga hamdast etay,
Xasmni sarpanja bila past etay.

Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,
Seni aduv domidin aylay xalos.

Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,
Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.

Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr,
Kim hasad eltur edi andin sipehr.

Qaydaki orom tutub sharza sher,
Girdida durroj uchubon daler,

Boshig'a parvoz ila gardishnamoy,
O'ylaki sulton boshi uzra humoy.

Sher eshitib aning ilhonini,
Fahm qilib savtida yolg'onini,

Der edi, yolg'on demakim shum erur,
Kizb tuz el ollida mazmum erur.

Pand eshitmas edi durroji mast,
Kizbdin etmas edi afg'onni past.

Bir kun aning qasdig'a bir saydgar,
Hodisa domin yoyib erdi magar.

Dona bila suv sari qilg'och xirom,
Tortti sayyod aning ustiga dom.

Qichqiribon dom aro ul muftalo,
Necha dedi, «Tot! Meni tuttilo!»

Sher qulog'ig'a yetib ul maqol,
Savtini doimg'idek etti xayol,

Ko'p eshitib erdi hu yolg'onini,
O'yla gumon etti chin afg'onini.

Har nechakim rost fig'on ayladi,
Sidqini ham kizb gumon ayladi.

Maxlasig'a aylamadi iltifot,
Toki anga munqati' o'ldi hayot.

Har kishikim rostni bexost der,
Aytsa yolg'on dog'i el rost der.

So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag'mag'a tahsin degil.

Soqiy, olib kel qadahi dilpazir,
Ayla meni jur'asidin shergir.

Bazmning asbobini qilg'il nasaq,
Hozir etib sixu kabobu tabaq.

XLII

O'N BIRINCHI MAQOLAT

Ilm sipehrining baland axtarlig'idakim jahl tunini yorutmoq uchun «ayn»i quyoshdin va «lom»i oydin va «mim»i kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig'idakim, g'aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shaqovatdin fasona aytur. Va olimning hovujudi falokat quyoshdek sarbalandlig'i va johilning hovujudi ganju mol tufrog' aro najandlig'i

Dahr ishi to xalq ila ho'lmish sitez,
Xor durur olimu, johil — aziz.

Toki jahon zulmni qilmish pisand,
Yerga tushar meva, yig'och sarbaland.

Razlg'a — rif'at, bilik ahlig'a — ranj,
Tog' uza xorovu, yer ostida — ganj.

Fe'li yomon topsa rafe' aylabon,
Hukmig'a olamni mute' aylabon.

O'ylaki Kayvoni nuhusatshior,
Kim yeridur gunbadi niliy hisor,

Nevchun erur Mushtari ondin quyi,
Qilmasa yaxshini yomondin quyi.

Yaxshig'a andin g'amu ozor erur,
Bog'da gul hamnafasi xor erur.

Ulki sadafdek necha tirajabin,
To'ldurubon qo'ynig'a durri samin.

Kimki bo'lur dur kibi sofiyu pok,
Aylabon olmos ila bag'rini chok,

Qulla qotig'liqqa chu bog'lab kamar,
Tig'i bo'lub chehraxaroshi qamar,

La'ldek ulkim, guhari pok o'lub,
Ko'hi balo ostida g'amnok o'lub.

Bo'ldi kemur hindui otashparast,
Masnadi yoqut uza topti nishast.

O'tki ayon qildi guli otashin,
Kul uzadur xoki mazallatnishin,

Kim anga ham asl yomon, ham qadam,
Toj ila tovus kibi muhtaram.

Ulki so'ziga bo'lub ozoda qul,
To'tiyi go'yo kibi bo'ynida g'ul.

Qushki bog'ir yormoq o'lub kom anga,
Shoh iligi ustida orom anga.

Ulki chekib nag'mayi dilkash hazor,
Kul ichida gulxaniyu xoru zor.

Har kishi Zamzam suyidin kelturub,
Gandarabon shishada baskim turub.

Mayki to'lub fisq bila jom anga,
Har labi maygun labidin kom anga.

Ko'ktaki, ko'zgudek o'lub nuru tob,
Yopib oni oh tafidek sahob.

Tun kulidin aylabon oyinarang,
Oy yuzi chun shabnam ila topti zang.

Harzarav o'ldi ko'palak qahbavor,
Hulla durur jismida naqshu nigor.

Dard ila parvona tutub tunni pos.
Jonida o't, jismida eski palos.

Zulm durur ushbuki, bir notavon
Ilm tilab shahridin o'lg'ay ravon.

Ayni falokatdin ayog'i yalang.
To'ni yo'qidin tani dog'i yalang.

Tevrab ayog'ini aning har tikan,
Har tikan ustida mukarrar tikan.

O'q aro dunbolai paykon kibi,
Xor ichinda alif o'lg'on kibi.

Eski sepechi boshida kulguluk,
Dom kibi boshdin-ayog'i tiluk.

Toyiri maqsud tilab kom ila,
Donai ashki dog'i bu dom ila.

Egnida avroqu kitobi aning,
Qilg'ali tahsil shitobi aning.

Qushdek o'lub sayr muyassar anga,
Egnida avroqi ho'lub par anga.

Och etibon qornini muhtojliq,
Tu'mag'a muhtoj etibon ochliq.

Jismini chun za'f etib andoqki nol.
Xoma kibi til chekib, aylab savol.

Harne yetib, qoni' o'lub yo'l yurub,
To o'zin o'z maqsadig'a yetkurub.

Maqsadi bir xittaki ko'rmay o'zi,
Tushta dog'i ko'rmayin oni ko'zi.

Xalq ko'pu yo'q biri yori aning,
Ko'zdin uchub shahru diyori aning.

Ko'cha ko'pu ev ko'pu bozor ham,
Bilmayin ulkim, qayon urg'ay qadam.

G'urbat o'ti ko'ngliga kor aylabon,
Jonini yolg'uzlug'i zor aylabon.

Sayr etib aqshomg'acha beto'shaye,
Chun bo'lub aqshom tutubon go'shaye.

Za'f ila hushi o'ziga kelmayin,
Tongg'acha uyqu ko'ziga kelmayin.

Tongla qilib sayr madoris aro,
Madrasalar ichra majolis aro.

Qaydagi o'z holini ta'vil etib,
Kim eshitib hazl ila tajhil etib.

Sarf etibon umr havo'i varaq,
To olibon sarf havo'i sabaq.

Ne topilib kunduz aning maskani,
Ne bilinib kecha aning ma'mani,

G'urbat aro holi yomondin yomon,
Harne yo'q ondin yomon, ondin yomon.

Ajz bo'lub til ishi taqriridin,
O'ylaki xoma tili tahriridin.

Bo'yla g'amu mehnati davron chekib,
O'nu o'n besh yil yugurub, jon chekib,

Madrasa kunjini g'amobod etib,
Tongdin oqshomg'acha faryod etib,

Bo'yla ming emgaktagi bechoradin,
O'z vatanu mulkidin ovoradin.

Ba'zi o'lub, ba'zi itib har taraf,
Ba'zi etib doiyasin hartaraf.

Oz ish ila ba'zi etib iktifo,
Ba'zi o'ziga tutubon ko'p jafu.

Evrulubon doirai mohu sol,
Zohir o'lub bir-iki sohibkamol.

Qarn ila davron topibon iqtiron,
To bo'lubon bir kishi sohibqiron.

Ko'ngli bo'lub maskanu ma'voyi ilm,
Qatra kibi paykari daryoyi ilm.

Ibriyu yunoniyu suryonni ham,
Hindi agar so'rsa, bilib oni ham.

Ko'ngli uyin ilm etibon bir jahon,
Qatradan ul nav'ki daryo nihon.

Nutqiki izhori maoni qilib,
Zevari asrori nihoni qilib.

Chun to'kubon xoma shaqidin qaro,
Obi hayot ul zulumoti aro.

Nusxa savodi zulumoti aning,
Ma'ni o'lub obi hayoti aning.

Mushkili aflok bo'lub bejadal,
Bu Aliyi fikrati ollinda hal.

Jumla raqam kilkiga marqum o'lub,
Borcha ulum ollida ma'lum o'lub,

Din ishida jahlu havo dofii,
O'ylaki G'azzoliy ila Shofii.

Yo'qki bu isnayn ani solis debon,
Balki nabi o'ziga voris debon.

Garchi falakdin topibon har kamol,
Lek falokat ham anga barkamol,

Shom yetib choshtg'a, yo'q kom anga,
Chosht muyassar esa, yo'q shom anga.

Turfa bukim, johili qotilvashe,
Ko'rmagi noxush, demagi noxushe,

Dinu diyonatda yo'q oyin anga,
Bal na diyonat anga, ne din anga.

Yel kibi sovurmog'u noxushlig'i,
O't kibi kuydurmagu sarkashlig'i.

Bosira sham'in o'chururdek karih,
Aql hayosin ketarurdek safih.

Olam aro qahri ilohiy bo'lub,
Xulq ila xalq – ikki guvohi bo'lub.

Qatl bo'lub odatu xo'yi aning,
Marg ragi har sari mo'yi aning.

Botinida dud kibi tiraliq,
Zohirida shu'la kibi xiraliq.

Dunlig'idin it bila yakson bo'lub,
Bal it aning qoshida inson bo'lub.

Turfaroq ulkim, bu jaholat bila,
Jahlni qo'y, muncha razolat bila,

Charx ani sohibi joh aylabon,
Tobi' anga xaylu sipoh aylabon.

O't kibi har nechaki sarkash bo'lub,
Xil'at anga hullai zarkash bo'lub.

Garchi yilondek zarari om anga,
Ganji Faridun uza orom anga.

Necha tikon yanglig' etib tezlik,
Tong yelidin boshiga gulrezlik.

Qatl ishiga garchi qilichdek samar,
Aylab ani shoh murassa'kamar,

Necha sanam xoli kibi tira dil,
Jilvasi gul bargi uza muttasil.

Shan'ati har necha degandin uzun,
Lek bo'lub hashmati andin fuzun.

Ul biri ul fazlu fasohat bila,
Bu biri bu fe'li qabohat bila.

Turfaroq ulkim, munga bir e'tibor,
Kim yuz aningdekni qilib xoru zor.

Munung otin xalq amir aylabon.
Elni bu ot birla asir aylabon.

Anga munung xizmati lozim bo'lub,
Balki eshigida mulozim bo'lub.

Ko'r ne malakvashni qilib nafsi dun,
Devi lain ollida xoru zabun.

Garchiki o'n qatla taraddud qilib,
Hojibu darboni tashaddud qilib.

Ollida bir qatla bo'lub bor anga,
Ro'zi o'lub davlati didor anga.

So'rg'ali chun bekka tanazzul bo'lub,
Xoja duosig'a tasalsul bo'lub.

Chunki duo xatmini aylab qo'pub,
Uyga azimat qilibon yer o'pub.

Bast qilib hexud o'zu yot ila
Majlis etib sharhi mubohot ila.

Tengri uchun, ko'rki, bu ne hol erur,
Shammai ta'rifida til lol erur.

Ul ne tafar'un, bu ne nakbat bo'lur,
O'rtalarida bu ne suhbat bo'lur.

Johil agar ulduru olim budur,
Olim emas, o'ziga zolim budur.

Ilmi kim vositai joh etar,
O'ziniyu xalqni gumroh etar.

Olim agar jon uchun o'lsa zalil,
Ilmni aning jahlig'a bo'lg'ay dalil.

Ilm ila kim johg'a mayl aylabon,
Bahr suyin xayg'a tufayl aylabon.

Itki erur jifada maqsud anga,
Bo'lsa murassa' juli ne sud anga?

Dunki topib ilm rayosat uchun,
Xil'at etib hulla najosat uchun.

Olim agar qat'i amal aylasa,
Ilmig'a shoyista amal aylasa;

Solmasa ko'z jifai dunyi sari,
Boqmasa tuz dunyii foni sari.

Oni sharaf gavharining koni bil,
Gavharu kon, harne desang oni bil.

Kon o'ziyu yuz sari gavhar anga,
Charx o'ziyu har taraf axtar anga.

Konida gavharlari ham barcha pok,
Charxida axtarlari ham tobnok.

Kimki, bu iqbol anga bo'lg'ay nasib,
Solmasa dunyi sari ko'z, ne ajib.

Egnida gar xirqasi yuz chok erur,
Gulga to'ni yirtug'i ne bok erur.

Kungaki uryonliq erur ziynati,
Tira bo'lur, bo'lsa bulut xil'ati,

Xushroq erur shahd kadudin yiroq,
Mushk agar nofasi yo'q yaxshiroq.

Er kishiga xil'at ila ne sharaf,
Durg'a ne nuqson yiroq o'lsa sadaf.

Qaysi chibin kisvati zarkordur,
Yeri durur qaydaki murdordur.

XLIII

*Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh aro
hammomda oshnoliq sham'i yorug'oni va imom so'zidin sultonning
istig'nodin ilik yug'oni*

Zumrai roz ahlig'a masnadrishin,
Dahr imom ul-umami faxri din.

Qildi chu Xorazmni oromgoh,
Ko'rmagiga kelmadi Xorazmshoh.

So'rg'ali ul chunki qadam qo'ymadi,
Ilm shukuhi muni ham qo'ymadi.

Shahni pushaymon qilib erdi uyot,
Lek imom aylamadi iltifot.

Bo'ldi base pardada guftu shunud,
Parda chu qo'pmadi arodin ne sud.

Bor edi hammomda bir kun imom,
Shah dog'i hammomg'a qildi xirom.

Bir-biri birla bo'lubon muxtalit,
Shoh savol etdi bo'lub munbasit:

«K-ey, bo'lub el ilming ila bahravar,
Ayt qiyomat ishidin bir xabar,

Kim necha ul kunda malol o'lg'usi,
Har kishiga anda ne hol o'lg'usi?»

Shoh chu bu nuktani qildi savol
Bo'yla javob aytdi sohibkamol:

«Kim sangakim hashr so'zi kom erur,
Bil anga monand bu hammom erur.

Anda gado shah bila yakson bo'lub,
Shohu gado borchasi uryon bo'lub.

Johu jalol ahli saningdek bori,
Ichkariyu boru yo'qi tashqori.

Ilmu amal ahli meningdek tamom,
Harne yig'ib, hamrah etib vassalom.

Yo'q sanga sultonlik ila sud ko'p,
Lek manga ilm ila behbud ko'p».

Ilm, Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.

Soqiy, o'shul bodani tutqil mudom,
Kim ko'rubon sajdag'a tushgay imom.

Ichsa kishi bo'lg'ay anga xoki roh,
Aytma Xorazmki, Xorazmshoh.

XLIV

O'N IKKINCHI MAQOLAT

*Qalam shaqqining gunogunlug'i va ahli qalam shiqqining
buqalamunlug'i va qaysi xutut kitobatig'a shuru' qilmoq a'mol
nomasig'a mujibi qaroliqdur va kotibga xatti muhtalolik va qaysi
hurufqa ruju' qilmoq sahifai ruxsorg'a mujibi oqliq durur va
roqimig'a safid avroqliq*

Ul ne ajab paykari matbu' erur,
Kim uni xush, diqqati masnu' erur.

No'gi nukat naqshi nigorandasi,
Tirnog'i mistar ragi xorandasi.

Qushdek o'lub vaz'u namudor anga,
Nukta sochib har sori minqor anga.

Tu'masi zulmat, vatani nur uza,
Mushk sochib safhai kofur uza.

Chobuku mavzun harakoti aning,
Uchqali yo'q lek qanoti aning.

Qush demagil, ayt muanbar yilon,
Dema muanbarki, fusungar yilon.

Shohid anga jilvada parronlig'i,
Ilig-ayog'ning dog'i pinhonlig'i.

Til uzotib, fosh o'lub ondin fusun,
Dahrda kim ko'rdi yilondin fusun?

Dema yilon, ajdar erur ganjsanj,
Muzmar aning javfida yuz turfa ganj.

Dud chiqib og'zidin ajdar kibi,
Dudi aro har shaba gavhar kibi.

Ajdar emaskim, emas ajdar salim,
Balki degil oni, asoyi Kalim.

Yo`qsa, nedin yutti jahon sehrini,
Balki maoniyu bayon sehrini.

Ne tan aro bo`ldi zaxomat anga,
Ne bu zaxomatda vaxomat anga.

Dema aso, balki ani xoma de,
No`gin aning naqshgari noma de.

Xilqati har xalqdin avval bo`lub,
Vasfi kalom ichra musalsal bo`lub,

Arsh uza Kursi bo`lubon joygir,
Kursi uza Lavh iqomatpazir.

Lavhda har naqshki, bo`lmish raqam,
Yozg`uchi bir-bir qalam o`lmish, qalam.

Muncha sharafkim, anga mavjud erur,
Kotibi maqbul ila mardud erur.

Maqbulu mardudi erur necha xayl,
Kim borisi qildi kitobatg`a mayl.

Avval erur kotibi dorulqazo,
Ish anga noshar`g`a bermak rizo.

Shohidi odil anga yolg`on tonug`,
Tuhmat etarga diram olg`on tonug`.

Zohir aning xoini mutlaqlig`i,
Haq kibi ravshan bari nohaqlig`i.

Kilk uchin itiklik ila nesh etib,
Sidqu diyonat yuzini resh etib.

Nohaq uchun yozib uzun mojaro,
O`z yuzidek safhani aylab qaro.

Borcha xiyonatni diyonat hilib,
Borcha diyonatda xiyonat qilib.

Banda qilib chun tuzub ifsodni,
Sarv bila savsani ozodni.

Bermasa Isoyi mujarrad diram,
Yozib aning aqdida to`qquz haram.

Xo`sha uzumkim, kishi rishvat desa,
Kuydurubon bog`ini jannat esa,

Aqd xalifa qizi hindu bila,
Anga suv ichmak bir ayoq su bila.

Muzd tilab hujjati kobin uchun,
Qaydlar ul safhada tahsin uchun.

Kimki bu suratqa surar xomasin,
Bilki qorortur yuzidek nomasin.

So'ngg'isi muftiyi hiyalpesha bil,
Hiyla bila makr anga andesha bil.

Ko'nglida egri ne g'arazkim tuzub,
Surati fatvosida tuz ko'rguzub.

Kiydurubon jurg'a xur kisvatin,
Harna xashan bo'lsa, hasan xil'atin.

Harza navo ichra qilib zahra fosh,
Maxfi etib sham' tubida quyosh.

Rishtai tazvir o'lub o'ziga qayd,
Lek aroda mujrim o'lub Amru Zayd.

“Lo”u “naam” birla xato yo savob,
Yozib anga “vallohu a'lam” javob.

Ko'runubon ko'ziga ul ikki kam,
Tortib alar shirkatig'a Haqni ham.

Safha shabiston kibi orosta,
Muhrlar anda mahi nokosta.

Lek boqib, qilsa taammul kishi,
Asli xayolig'a taxayyul kishi.

Har tarab ichra ko'runub yuz mihan,
Har gul ichidin chiqibon yuz tikan.

Sarvu giyah o'q ila nishtar chiqib,
Sunbulu gul dud ila axgar chiqib.

«Ayn»i shariat bori g'abni balo,
Tuzluk ila har xati oning xato.

Kimki bezar safhani bu nomadek,
Bo'ynin aning uzsa bo'lur xomadek.

Biri yana omili devon bo'lub,
Dev aning a'molida hayron bo'lub.

Charx etibon ism amaldor anga,
Bahra qilib ushbu amal dor anga.

Ul bu amal birla ichib jomi may,
Kilki sariridin anga lahni nay.

Chun amali birla navosoz o'lub,
Ul nay uni xonabarandoz o'lub.

Xoma uchin duda aro aylabon,
Dudasi olamni qaro aylabon.

Kilki ulus o'rtamagiga o'tun,
O'tkarib ul o'ti falakdin tutun.

G'ofil ul ishdan shahi davlatpanoh,
Davlati arkoni bo'lub rishvaxoh.

Hokim etib mulkka g'oratgare,
Buzg'oli islom evini kofare.

Zulm etib ul kosibu dehqong'a ham,
Kosibu dehqon neki, sultong'a ham.

Qaysi viloyatg'aki, azm aylabon,
El haramu bog'ida bazm aylabon.

Gar xud ul uy sohibi hofiy erur,
Istari avval mayi sofiy erur.

May bila buzg'och qarining holini,
Shohid uchun ham yiborib zolini.

Chahdag'i tuxm arpasini oti yeb,
Uyda tovug'larni suruk toti yeb.

Hosil o'shul uyga balo doribon,
Qaysi halo, balki vabo doribon.

Yig'lamog'u oh ila afg'on solib,
Ul yog'inu yel bila to'fon solib.

Kentning arbobi bir-ikki avon,
Zulmda bu — xoja, alar — pahlavon.

Bir-biri birla bo'lushub o'yla do'st,
Kim kishikim ko'rsa degay mag'zu po'st.

Do'stqa shah molini sotib nuhuft,
Borcha o'n oltunni bir oltunga muft.

Sarxat alar ollida parron solib,
Reza raiyat uza tovon solib.

Sarxat etib birga heshu o'n raqam,
Kim Haq aning ilgini qilg'ay qalam.

Necha sitam qilg'uchi obod o'lub,
Borcha sitam chekkuchi barbod o'lub.

Bo'lsun aning xomasidek farqi shaq,
Osilibon jismi nechukkim varaq.

Sortqa garchi bu borur yaxshilar,
Turk ila ham yaxshi borur baxshilar.

Garchiki bu necha adad bo'ldi rad,
Ahli qabul o'ldi bu necha adad:

Avvalidur munshiyi gavharfishon,
Kim gahi ul ruq'a yozar, gah nishon.

Ruq'asidin shod asiri firoq,
Nomasi xud ruq'asidin yaxshiroq.

Nomasidin til topibon so'z nasib,
O'ylaki gul safhasidin andalib.

Safhasidin notiqa kulgu aro,
To'ti o'shul nav'iki ko'zgu aro.

Hajr qaro shomida subhi najot,
Zulmati furqat aro obi hayot.

Lek nishon mujdai joni bo'lub,
Aysh xati zavq nishoni bo'lub.

Zulm aro mazlumg'a xatti amon,
Zolim etib vahm ani ko'rgan zamon.

Naf'da ul nav'ki mehri munir,
Qudrat aro o'ylaki charxi asir.

Shakli hilol avjida tug'ro anga,
Lavni shafaq boshida volo anga.

Harneki bu shevada maktub erur,
Qilsa taammul ko'pi marg'ub erur.

Ulki tariqi bitimakdur kitob,
Nazm ila nasr o'ylaki durri xushob,

Nuktavu ta'rixu hikoyot ham,
She'rda ham nav'i maqolot ham,

Turfa g'azal ravzai jannat misol,
Turfa g'azal demaki, mushkin g'izol.

Kilki qaro rishtag'a gavhar chekib,
Balki kecha torig'a axtar chekib,

Oy kabi yuz safhavu xat anda xat,
Xol anga har sori mushkin nuqat.

Safhalari har biri gulzordek,
Jadvali atrofida devordek.

Ko'r nechuk o'lg'ay bu chaman ichra vard,
Doyi chu bor oltun ila lojuvard.

Satrlar anda gulu sarvu suman,
Har ikki satr o'rtasi dilkash chaman.

Lafzlar anda guli nasrin bo'lub,
Ma'ni anga mevai shirin bo'lub.

Baytlari o'ylaki Baytul-haram,
Hay'ati mavzuni savodi Eram.

Gar bu savod o'lmasa netgay kishi,
Nazmin olib, qay sari ketgay kishi?

Ulki bu tahriru varaq asrag'ay,
Sahvu xatodin oni Haq asrag'ay.

Bu borisi far' edi, asl ani bil —
Kim kishining kilki uzun cheksa til.

Yozg'ali oyoti Kalomi fasih,
Qilg'ali tahrir Hadisi sahih

Anda dog'i yozsa tafosir ham,
Munda shuruh aylasa tahrir ham.

Gah bitibon «Tazkirat ul-avliyo»,
Gah raqam etsa «Qisas ul-anbiyo».

Bir nafas «Ihyo» bila topib futuh,
Jahldin o'lgan tan aro bersa ruh.

Qilsa «Futuhot»ni gohi savod,
Topsa futuhotidin el yuz kushod.

Yozg'ali chun olsa, hisin «Kimyo»,
Topsa ulus qalb misin kimyo.

Chun «Nafahot» aylasa, yozmoq qabul,
«Nafhai uns» etsa ko'ngulga shumul.

Kilki «Shavohid» sari bo'lsa kafil,
Shohidi maqsudg'a bo'lsa dalil.

Bo'lsa haqoyiq neki cheksa qalam,
Yozsa maorif neki yozsa raqam.

Noziri ko'nglin chu munir etsa fayz,
Roqimining ruhig'a ham yetsa fayz.

Kimga bu ishg'oli raqam bor esa,
Sihhatu husnixat anga yor esa,

Tengri nasib aylab anga shodliq,
Bersun ulusdin xati ozodliq.

Xomasini safhatiroz aylasun,
Safhasidin sahvni oz aylasun.

Har kashishikim, xat aro cheksa ul,
Bo'lsun anga manzili maqsadg'a yo'l.

XLV

*Yoqutning husnixat jihatidin darveshu podshoh qoshida ta'zimi
ortg'oni va qalamrav savodining ahli hurmat raqami aning sahifai
holig'a tortg'oni*

Bog'i fano gulbunida shuhra vard,
Ulki anga gulshan edi Suhravard.

Nafsu havo devig'a bermakka tob,
Avji haqiqat falakida shihob.

Bir kun o'tub dori xilofat sori,
O'ylaki Haq rahmati ofat sori,

Mustaa'sim-billah etib ko'p niyoz,
Ka'bag'a ul nav'ki ahli Hijoz.

Taxti uza oni chiqorib turub,
Chun oni o'lturtub, o'zi o'lturub.

Durj bir erdi dog'i gavhar iki,
Burj biru ustida axtar iki.

Shayx deb odobi tariqatda so'z,
Lek xalifa tikibon yerga ko'z.

Har yon ayoq ustida ozodalar,
Demagil ozodaki, shahzodalar.

Shayxg'a chun el sori tushti nazar,
Ko'ziga Yoqut ko'rundi magar,

Qo'pti ravon zohir etib iztirob,
Hayrat etib, qildi xalifa xitob,

K-ey ayog'ing tufrog'i ogohlar,
Qullug'unga faxr etibon shohlar.

Qaydin anga bo'ldi bu oliy maqom,
Kim bu sifat aylagasen ehtirom.

Shayx dedi: Qaysi biyik izzu joh,
Mundin o'tarkim, anga bermish Iloh.

Kim bori Mushaf bitimakdur ishi,
O'ylaki andoq bita olmas kishi.

Chun qilur ul Haq so'zining ziynati,
Vojib erur bizga aning hurmati.

Bilgach ani murshidi ogohdin,
Hukmi julus o'ldi anga shohdin.

Surati xat lutfidin ul pokdast,
Bo'ldi qalamrav shahig'a hamnishast.

Bilki, Navoiy, ne so'z etsang raqam,
Haq so'zidin o'zgaga urgil qalam.

Soqiy, olib kel mayi yoqutrang,
Quy xati Bag'dodgacha bedarang.

Tut manga ul hodanikim, qut etay,
Kohrabo rangini yoqut etay.

XLVI

O'N UCHUNCHI MAQOLAT

*Sahobdek naf'rasonlar bobidakim, araqi peshoni bila rayohin
zebolari boshig'a gavharafshon bo'lurlar. Va hulut aro harqdek xan-
donliq yuzlarida paydo. Va shabnam to'kulgan chinordek obilai
kafi dast bila yerga past bo'lg'on xasu xoshokni seroh qilurlar.
Va chinordek dilso'zliqlari ahvollorida huvaydo*

Ey bo'lubon subh kibi siymposh,
Mehring o'lub om nechukkim quyosh.

Subh kibi xalq yuziga kulub,
Charx kibi el boshig'a evrulub.

Jola kibi xora agar yog'dik,
Boshni nihon aylamayin tog'dek.

Uzsa boshing tig' ila majlisda jam',
Jam' ko'zin yorutub, andoqki sham',

Xoma kibi boshinga gar yetsa shaq,
Sen qilib ul shaq bila zebi varaq.

Tig' ila yetgan soyi ko'ksungga chok,
Sen berib, andoqki sadaf durri pok.

Davr ichingni necha qonliq qilib,
Nofa kibi atrfishonliq qilib.

Naf'din el virdi duo joninga,
«Yamkusu fil-arzi» sening shoninga.

Qayda ado aylagasen bu sipos,
Kim seni deb xayri bashar, xayri nos.

Naf' yeturmakka shior aylading,
O'zunga ul naf'ni yor aylading.

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf' o'zunga ko'prak durur.

Qatraye gar bahrg'a sochti sahob,
Bahr qilur qatrasini durri nob.

Naxlg'a dehqon chu berur parvarish,
Bo'lur anga mevau gul bermak ish.

Bukim erur saqfg'a homil sutun,
Bo'lmasa saqf, ul ham o'lur sarnigun.

Bersa chu shohid qoshig'a vusma zeb,
Vusmani ul qosh-o'q etar dilfireb.

Xolki ruxsor uza marg'ub erur,
Ul dog'i ruxsora bila xo'b erur.

Ulki zarar shevasini tavr etar,
Elga demakim, o'ziga javr etar.

Ulki ushatur bosibon shishani,
Qilmas ayoq zaxmidin andeshani.

Shu'la tushub xasg'aki tortar alam,
Chun oni kuydurdi, o'char o'zi ham.

Pashshaki el bo'ynida bo'ldi muxil,
Bo'ldi taponcha bila-o'q muzmahil.

Chun ko'palak qasdig'a azm etti yosh,
Yerga urar bo'rkin, ochib o'zi bosh.

Bumr[†] tepmakka ne qush kirsu chust,
Tepgan oyog'durki, qilur dom rust.

Eksa g'ani tuxm qilib elga zo'r,
Tuxmini toroj qilur xayli mo'r.

Kimki falak sori otar toshini,
Tosh ila ozurda qilur boshini.

Sifla nishonisi sharorat durur,
Shu'lag'a bittab' harorat durur.

Bo'lsa kishi mudbir agar baxtiyor,
O'ziga bu amrda ne ixtiyor?

Mushkni nofa necha mastur etar,
Atri ani xalq aro mashhur etar.

Kingaki bizzot saxovat durur,
Faqru g'inodin ne tafovat durur.

Haqqi, birov xilqatini qildi pok,
Sevmasa nopok el oni ne bok.

Mevag'a mag'z o'lsa bo'lur po'st ham,
Kimsaga ham dushman o'lur, do'st ham.

Yaxshi-yomondin hari ermas jahon,
Lek yomon zohiru yaxshi nihon.

Chunki yomon ko'prak emish, yaxshi oz,
Jazmki, oz o'lg'usidur yaxshi roz.

Haq so'zi dun xalqdin imkon emas,
Dev tili loyiqi «Qur'on» emas.

Chunki erur asli yomon nopisand,
Aylamas ul yaxshini aslo pisand.

Dunki, yomon fe'li anga xush durur,
Jazmki, el yaxshisi noxush durur.

Bo'ldi chu el qilg'onig'a aybjo'y,
Mumkin emas bo'lmomog'i aybgo'y.

Ayb ko'zi chunki bo'lur tezbin,
Zahr ko'rar garchi erur angubin.

Ulki xayoli bori fosid durur,
Borcha saloh ahlig'a hosid durur.

La'i hisobida tutar xorani,
Inju sonar borcha sadafporani.

Ham ko'rinur igna sinoncha anga,
Ham bilinur rishta yiloncha anga.

Ko'rsa birov xonida qursi fatir,
Der ani ko'k sahnida badri munir.

El kafida obiladin tob yer,
Oni hasaddin duri serob der.

Tun qorasin subhi safo sog'inur,
Bum parin parri humo sog'inur.

El mayini la'li ravoncha tutar,
Turfa bukim, hasratidin qon yutar.

Ko'rsa birov ko'z yoshini durri nob,
Rishta kibi g'amdin urar pechu tob.

Topsa muzahhab birov ayvonini,
Kuydurur ul o't bila vayronini.

Har kishi gul islasa, xor ul chekar,
Boda birov cheksa, xumor ul chekar.

Elga nishot o'lsa, anga dard erur,
Dard aning jonig'a darxurd erur.

Yaxshig'adur ahli hasad zahmati,
Naqdning o'g'ridin erur ofati.

Gulgaki yuz husnu latofat durur,
Atri jual jonig'a ofat durur.

Xizrdin iblis erur a'mo kibi,
Rost zumurrad bila af'o kibi.

Mehrki ravshanliq etar fosh ani,
Kimga gunah ko'rmasa xuffosh ani.

Suvki, berur elga o'lumdin amon,
Tira qilur o'tg'a yetishgan zamon.

G'ulki, ma'vosi biyobon erur,
Gulshan aning ko'ziga zindon erur.

Lek quyosh javhari chun keldi pok,
Bo'lsa bulut nurig'a moni' ne bok.

Tushsa xazaf ostig'a raxshon guhar,
Qayda guhar qadrig'a andin zarar.

Kavnni yorutti rasuli arab,
Netgay o'zin tira qilib Bu Lahab.

Eyki nabi qavli bila shod sen,
Elga zarar xavfidin ozod sen.

Haqki, falak toqi bino ayladi,
Javfida bu dayri fano ayladi.

Gulshani davrong'a berib zebu far.
Har gulini ayladi tobanda xur.

Bu chaman o'lmog'ida mavjud anga,
Bor edi inson guli maqsud anga.

Zumrai inson aro ham komili,
Keldi mashaqqat yukining homili.

Ulki kamol ahlidin akmal durur,
Shohi rusul Ahmadi mursal durur.

Mehri nubuvvat bu kamoli bila,
Avji kamol uzra jaloli bila.

Etti sening shominga misbohliq,
Qildi sening shoninga maddohliq.

Naf' tegurmakni chu qildi qiyos,
Ko'rki, qiyos etti seni xayri nos.

Ulki sanoxon anga subhon o'lub,
Ul sanga maddohu sanoxon o'lub.

Ushbu biyik martaba qadrini bil,
Bo'yla ulug' manzala shukrini qil.

Shukr nedur? Naf' fuzun aylamak,
Bazl kamandini uzun aylamak.

Bo'lmoq agar ko'p esa ham bazlsoz,
Bergali or aylamamak bo'lsa oz.

Xayr muyassar gar emas il bila,
Naf' tegurmak ham erur til bila.

Ganj berib bo'lmas ekin tutsa ko'z,
Ulcha qilur vaqtida bir yaxshi so'z.

So'z bila kufr ahli musulmon bo'lub,
So'z bila hayvon degan inson bo'lub,

Ham so'z ila elga o'lumdin najot,
Ham so'z ila topib o'luk tan hayot.

Bir so'z etib oncha baliyatni daf',
Kim sochibon ganj yetishmay bu naf'.

Ma'dani inson guhari so'z durur,
Gulshani odam samari so'z durur.

So'z bila naf' o'lmasa el peshasi,
Yaxshi kerak ko'nglida andeshasi.

Ko'ngli kishi xushlug'idin xush kerak,
Noxush agar bo'lsa, mushavvash kerak.

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

Ulki kishi o'lmagidin shod erur,
Go'rkanu g'osilu jallod erur.

Qaysi birin kimki tasavvur etar,
Tab'g'a ko'rkim, ne tanaffur yetar.

Lek birov qilsa ravonbaxshliq,
Ruh kibi so'z bila jonbaxshliq.

Nutqi bila yetmasa baxshoyishi,
Zikri erur tab'g'a osoyishi.

Chun seni Haq nodirason ayladi,
Dahr eliga naf'rason ayladi.

Har kishi bu amrg'a mansub erur,
Borcha ulus ko'ngliga mahbub erur.

Ikki jahon taxti bila afsari,
Bilki erur bir sari, ul bir sari.

Yo'q bu sifatdin nima marg'ubroq,
Lek bir ish mundin erur xo'broq.

Kim beribon qilmamoq olmoqqa xo'y,
Naf'rason bo'lmoqu yo'q naf'jo'y.

Bermak ishi xotiridin ketmamak,
Bermagu, olmoqni xayol etmamak.

Topqonini sochdi el uzra sahob,
Kim oni Haq ayladi gardunjanob.

Mo'r terar harneki, sochqay kishi,
Bo'ldi tirik go'rga kirmak ishi.

Chun sochar el uzra shukufa diram,
Haq anga ne barglar aylar karam.

Yelki yig'ar harne ul aylar nisor,
Andin erur darbadaru xoksor.

Shishaki ruxsor uza sepgay gulob,
Toq uza asrarlar ani orzulob.

Chunki supurgu yig'ar inak dalil:
Yotmoq eshik keynida xoru zalil.

Zulfi sanamlarning erur mushkposh,
Kim oni ruxsor uza asrar quyosh.

Bo'ldi bu sunbul isidin xo'shachin,
Kim qaro tuproq kibidur mushki Chin.

Bil yana bir martaba mundin baland,
Kim anga yo'l topmoq erur arjumand.

Qaysidur ul: bazl ochuq yuz bila,
Tutmoq achiq boda chuchuk so'z bila.

Bazlda kim lutfni qilmas xato,
Zohir etar bir yo'li ikki ato.

Tos aro gar meva erur dilfireb,
Ustida gullar erur ortuqsi zeb.

Bo'lsa necha husnu sabohat bila,
Zor qilur elni malohat bila.

Oltun agar tojg'a ziynat durur,
Ustida dur bo'lsa ne nisbat durur.

Xoni muza'far gar erur dilpisand,
Xushroq erur sepsalar ustiga qand.

Ulki bu axloq ila aylab xirom,
Yetsa jafu aylamagay intiqom.

Balki kuduratni safo aylagay,
Necha jafu yetsa, vafo aylagay.

Oni bashar xaylining insoni bil,
Odamilar odamisi oni bil.

Angla kishilikni musallam anga,
Yuz kishilikcha ish esa ham anga.

XLVII

*Ayyubi xalaf noxalaf o'g'rining egriligini tuzgoni va gumrohliq
zulmatida anga yo'l ko'rguzgoni va ul shayx silsilasig'a kirib,
ayyorliq kamandin uzgoni*

Bir kecha Ayyubi xalaf masti roz,
To'kar edi sham'dek ashki niyoz.

Ashk duri bahrig'a pobast edi,
Kuymak aro sham'g'a hamdast edi.

Xilvatida maskani bir burj aro,
Durri samin o'ylaki bir durj aro.

Bu kecha bir kisaburi naqbzani,
Bo'lmish edi maskaniga naqbkani.

Barcha kecha yer tubin aylab xarosh,
Hufrasig'a chiqti saroy ichra bosh.

Anglabon Ayyub oni, dam urmadi,
Toat etib, o'ziga kelturmadi.

O'g'ri o'shul hufra ichidin chiqib,
Harne topib, evda tamomin yig'ib.

Oncha nekim elta olur chog'labon,
Berk tongib orqasig'a hog'labon.

Naqbg'a kirgach kichik erdi teshuk,
Sig'madikim behad ulug' erdi yuk.

Tor ini sichqong'a solib erdi g'am,
Quyruqig'a bog'ladi g'arbol ham.

Ko'rdi chu Ayyubki ojizdur ul,
Qo'pti, eshik ochtiyu ko'rguzdi yo'l,

Kim, yuk ulug'dir dog'i naqbing kichik,
Yo'l sori kelgilki, ochuqdur eshik.

Onchaki berohliq ul ko'rguzub,
Shayx bu yanglig' anga yo'l ko'rguzub.

Kingaki ko'rguzsalar, ul nav' yo'l,
O'zga yo'lidin chiqa olg'aymu ul?

O'g'rini ul hol zabun aylabon,
Qaddin og'ir haml nigun aylabon.

Jonig'a bir o't solibon so'zu dard,
Kim kuyub andin falaki lojuvard.

Egnidagi yukni bu o'tg'a urub,
O'zlugining ham yukini kuydurub,

Muztar etib ranju malolat ani,
Xas kibi o'rtab bu xijolat ani,

Na'ra chekib sel kibi to'kti yosh,
Shayx ayog'ig'a fido qildi bosh.

Ul karamu avf tilin lol etib,
 Lutf yuki jismini behol etib.
 Shayx karam birla oritti yoshin.
 Lutf ila tufrog'din oldi boshin.
 Anglabon ul dard ila holat anga,
 Xirqai faqr etti havolat anga.
 Kuydi suluk o'tig'a joni aning,
 O'ylaki, mahv o'ldi nishoni aning.
 O'zluki chun kuydi nechukkim xase,
 Topti ul o't birla yorug'luq base.
 Komil anga berdi chu bu parvarish,
 Ayladi bir avf bila muncha ish.
 Netti Navoiy qo'yubon telhalik,
 Sen dog'i ursang bir etakka ilik.
 Soqiy, ilik tut, gunahim avf etib,
 Kim chiqadur jonim og'izg'a yetib,
 Bot bo'lu bir jom ila yetkur futuh,
 Sabr esa Ayyubcha, yo'q umri Nuh.

XLVIII

O'N TO'RTUNCHI MAQOLAT

*Aflok hay'ati shikoyatidakim, har birisi durje ko'runur va har kav-
 kabi bir gavhari pok, ammo huqqaye durur zahrnok, balki zahri
 zahri halok. Va jahon lu'bati kinoyatidakim, chobuke ko'runur
 matbu' va mavzun. Ammo zoledurur ishi makru fusun. Va fusuni
 haddin fuzun. Va ul huqqa laolisi mazarratidin qalam tili lol va bu
 zolning jam'i zavol*

Charx erur shu'badasanj, ey ko'ngul,
 Topma firebi bila ranj, ey ko'ngul.

Shu'badasi vahmu gumondin fuzun,
 Shu'badadin dog'i fuzunroq fusun.

Charx urubon rev ila nayrang soz,
 O'ylaki ko'k xirqa bila tosboz.

Xirqasida baxyadin anjum nishon,
 Bo'yida bir parcha yamog' — Kahkashon.

Mash'ali xur birlaki, davron qilib,
Tos aro o't xirqada pinhon qilib.

O'tkarib ul xirqa arosidin o't,
Ko'rguzubon subh yaqosidin o't.

Yo'qki, chu subh og'zini kulgu ochib,
Hiyla bila og'zidin o'tlar sochib.

O'ylaki ul o'tining uchqunlari,
Xirqasi uzra sochilib har sari.

Balki qovurchoqchi kibi hiylagar,
Ko'rguzubon chodaridin ming suvar.

Mixu sutunsiz tikibon chodarin,
Davri etib chodarining paykarin,

Anda bo'lub jilvagari anjuman,
Har sori yuz lu'batlari siminbadan.

Munchaki lu'bat chiqorib simgun,
Qasdi bori elga firibu fusun.

Yo'qki, parixondek etib jism shaq,
Tig'i bila qoni hilolu shafaq.

Bo'yla parixonlig'ila axtari,
Jam' o'lubon girdida yuz ming pari.

Dema parixonki, erur pirazol,
Qaddi bo'lub dalla sifatliqqa dol.

Anjumi tazvirda yoshi aning,
Subh bayozi dema boshi aning,

Ham to'kub el qonini tadbir ila,
Ham olib el jonini tazvir ila.

Xusravlar qatli uchun tezhush,
Xusravi ham demaki, Farhodkush.

Dahr arusinki, tamosho qilib,
Makr ila mashshotaliq ifsho qilib.

Qo'ynida mashshotalig'i belgusi,
Subhi safid — obi, quyosh — ko'zgusi.

Aylabon ul sho'xni orosta,
Subh dami chun guli navxosta.

G'oz urub orazig'a gul bila,
Zulf o'rub egniga sunbul bila.

Lola bila chehrasin ol aylabon,
Dog'ini ul chehrag'a xol aylabon.

Vusma chekib, sabza bila qoshig'a,
Me'jar etib, shabnam ila boshig'a.

Sarvdin ilgiga nigor aylabon,
Suvni anga oyinador aylabon.

G'uncha aro og'zini pinhon qilib,
So'z chog'i ul g'unchani xandon qilib.

Nargisi shahlodin etib ko'z anga,
Savsanu ra'no tilidin so'z anga.

Nargisiga g'amzau noz o'rgatib,
G'amzasini shu'badaboz o'rgatib,

Chunki bezab xuldi barindek ani,
Xuld nekim, lu'batl Chindek ani.

Jilva berib el aro zebolig'in,
Zohir etib har sori ra'nolig'in.

Muncha fusunkim, qilib izhor anga,
Bo'lmoq uchun xalq giriftor anga.

To ani har kimki ko'rub zor o'lub,
Ishq kamandig'a giriftor o'lub.

Chun ko'rub ul zolni bir Rustame,
Bo'ldi havosida asiri g'ame.

Zohir etib o'rtada dallolaliq,
Aytma dallolaki, muhtolaliq.

Ul qadar afsun nuhuft aylabon,
Kim ul ikki toqni juft aylabon.

Mahkam etar chog'da alar aqdini,
Mahr etibon javhari jon naqdini,

Mahri maajjal bu dam ar jon bo'lub,
Tongla muajjal anga imon bo'lub.

Shohidi ra'noki topib bo'yla dast,
Oshiqini ayladi shohidparast.

Ajzu zabunluq ko'rub oyin anga,
Da'vi eta boshladi kobin anga.

Mahri maajjal tilabon jon olib,
So'ngra muajjal tilab imon olib.

Jon bila imonni chu toroj etib,
Dahr evidin oni ixroj etib,
Oni chiqorg'och, kivurub yonani,
O'z qilibon, bir yana begonani.
Anga dog'i tarki vafu aylabon,
O'zgaga dog'i bu jafu aylabon.
Turfa bukim, yuz kelibon ming ketar,
Ming chu ketar, keynicha yuz ming yetar.
Bo'yla bo'lub, kelmagu ketmak ishi,
Ketgusi bu bazmg'a kelgan kishi.
Davri ishi bu nav' taxayyul topib,
Ohki, bu davr tasalsul topib.
Silsila bu nav' azal to abad,
Kelguchiyu ketguchi behaddu ad.
Gar yuzu gar ming falak aylab taboh,
Oh, jafosidin aning yuz ming oh.
Mintaqasi birla muaddil xatin,
Ya'ni o'shul ikki hamoyil xatin
Ko'rmak ila fahm qilur borcha el,
Kim nega bog'labdur iki yerda bel.
Davrasidin xoh kunu xoh tun,
Topib o'zin zeru zabar tunu kun.
Mehnatidin mehr yuzi sorg'orib,
Balki yangi oy ham o'zidin borib.
Subh to'nin chok etib oning g'ami,
Shom libosini qilib motami.
O'tni isitmadin etib beqaror,
Yelni yugurmakdin etib xoksor.
Dag'dag'asi suvni jahongard etib,
Sarsari tufrog'ni xud gard etib.
Bahr aning qasdi bila zahrfom,
Zahr asari aylab ani talxkom.
Konni aning zulmi qilib tirabaxt,
O'ylaki qon bog'lab ichi laxt-laxt.
Durg'a jafosi bo'lubon oncha fosh,
Kim bo'lub o'z holig'a bir qatra yosh.

La'lg'a nishi tegib oncha ayon,
Kim bo'lub o'z zaxmig'a bir qatra qon.

O'yla bulut holi g'amidin taboh,
Kim bo'lub o'z dardig'a bir tiyra oh.

Chashma ko'rub baski ham andin sitez,
Bir ko'z o'lub, o'z g'amidin ashkrez.

Bulbul aning anduhidin dardnok,
Andin o'lub gul to'ni yuz yerda chok.

Toza tugan zohir etib loladin,
Ul tuganin qong'a bo'yab joladin.

Shisha ko'zidin oqizib qonini,
May o'tidin kuydurub el jonini.

Garchi ulus joni aro o't solur,
Berganini barcha kishidin olur.

Lek bu hamkim tutubon yor o'zin,
Ko'rguzur el holig'a g'amxor o'zin.

Zohir etib nash'u namo necha kun,
Elni qilur komravo necha kun.

Birni qilib johda Qorun kibi,
Birini rif'atda Faridun kibi.

Ushbu ishi dog'i muvofiq emas,
Balki mingidin biri loyiq emas.

O'yla gumon aylaki charxi dani,
Kim ko'runur davrda parvizani.

Olam eli yaxshi agar dun erur,
Borchag'a ul chambar aro yer berur.

Chunki bu nav' ayladi el holini,
Doyir etar har sori g'arbolini.

Yaxshini bebokdin aylar judo,
Pokni nopokdin aylar judo.

Emdiki ayrildi sharifu xasis,
Qolmadi bir poyada dunu nafis.

Qay birikim, bor edi ko'prak dani,
Qildi ani lutf ila ko'prak g'ani.

Kim shabadin aylamayin durni farq,
Farqin aning durlar aro qildi g'arq.

Gulshani dahr ichraki, har bebasar,
Bor edi nargis kibi ko'tahnazar.

Qo'ydi aning bazmida gohi farah,
Sim tabaqlar uza oltun qadah.

Gulniki pokizasirisht angladi,
Zevari gulzori bihisht angladi.

Xori balo birla etib muftalo,
Uzdiyu sovurdiyu qildi jalo.

Ul terikim, rind qilur jur'adon,
Mushki Xo'tan ayladi anda nihon.

Qayda adimi Yaman idrok etib,
Ayladi qurbon ani yuz chok etib.

Ulki kirib tig'dek el qonig'a,
Rutbada solib oni shah yonig'a.

O'q kibi tuzlar bori andin zalil,
Kishdin ixroj bo'lub mil-mil.

Turfa hukim, yaxshi degil gar yamon,
Muhlat agar bersa bir ozroq zamon,

Xanjari bedodni qilg'onda tez,
Yaxshi-yomon birla teng aylar sitez.

Kimniki taxt uzra qilur arjmand.
Taxta uza oqibat aylar najand.

Kingaki bir taxta kiz aylar panoh,
Anga dog'i taxta qilur xobgoh.

Kingaki bir jom tutar no'shi bahr,
Oqibatul-amr ezar anda zahr.

Yo'q kishi ul jomni no'sh etmagan,
So'ngra bu zahr ila xurush etmagan.

Har kishi sha'ninki, rafeъ ayladi,
Amrig'a olamni muteъ ayladi.

Qildi yana javr bila zerdast,
Dast-badast ayladi tufroqqa past.

Dahrda ul xaylki, shoh erdilar,
Dodgaru mulkpanoh erdilar,

Birni qatil aylamayin qo'ydimu?
Zoru zalil aylamayin qo'ydimu?

Ko'рки qayon bordi Faridunu Jam,
Eraju Hushang ila Zahhok ham.

Salmu Manuchehr ila Navzar qani?
Bahmanu Dorovu Skandar qani?

Qani jahon dovari Chingizxon?
Qani jahon xoni Temur Ko'ragon?

Birga vafo aylamadi charxi dun,
Kimniki chekti, yana qildi nigun.

Davlatu iqholi bila bo'lma shod,
Mehriga ham aylamagil e'timod.

Hech durur hosilu boqisi hech.
Kech boridin bot, vale qo'yma kech.

Seni ul etguncha zabun, sen burun,
Ayla, ani faqr ila xoru zabun.

Toki ne ilgingda durur olmay ul,
Borchasidin silk etak, tort qo'l.

Harne bor ilgingda parokanda qil,
O'z ilgingdin ani sharmanda qil.

Panjai xursheddek, ilgingni och,
Anda nekim siym esa, olamg'a soch!

Ul seni aylar chu tihidast bil,
Bilgach o'z-o'zingni tihidast qil.

XLIX

*Iskandarning yetti iqlim mamolikin panjai tasarrufig'a kiyurg'oni va
xoli ilik bila olamdin rihlat markabin surg'oni*

Chunki Sikandar shahi iqlimgir
Bo'ldi jahon mulkida sohib sarir,

Qolmadi bir yerki yurub olmadi.
Yerki yurub olmadi bir qolmadi.

Hitai hukmig'a kirib bahru bar,
Qabzai amrig'a tushub xushku tar.

Xutba o'qub gunbadi axzar uza,
Sikkai adlin urub axtar uza.

Qullug'ini shahlar etib ixtiyor.
Qullug'i shahlarg'a bo'lub ifixor.

Ham shah o'lub, ham valiyu ham nabi,
Hikmat ila ham tuz o'lub mashrabi.

Zotig'a Jamshedlig' oyin bo'lub,
Ko'zgu anga jomi jahonbin bo'lub.

Ham yeti ko'k hukmi muyassar anga,
Ham yeti iqlim musaxxar anga.

Bo'yla humoyunfari firuzbaxt,
Dayri fanodin chekar o'lg'onda raxt.

Ko'rdi ajab ajz ila bechoraliq,
Ollig'a tushti ajab ovoralig,

Ne hukamosi bo'lubon dastgir,
Ne xadamu bandasi farmonpazir.

Borchasi qolib bu yashil bog' aro,
Ozim o'lub ul qaro tufrog' aro.

O'rtadi chun bo'yla zavoli ichin,
Bu so'z ila ayladi xoli ichin,

Kim: «Bu nafaskim boradurmen zalil,
Navbati shohiy manga ko'si rahil.

Qaysig'akim sharti hamiyat durur,
Mendin anga ushbu vasiyat durur:

Kim manga chun toyiri bo'stoni quds,
Qilsa havo yod etib ayvoni quds.

Oh ila olamni qaro aylabon,
Xobgahim na'sh aro aylabon,

Qabrg'a chun boshlag'unguzdur yo'lum,
Na'sh yonidin chiqaring bir qo'lum,

To kishikim qilsa nazar ul sori,
Ibrat ila boqqay o'shul qo'l sori,

Bilgay anikim yeti kishvar shahi,
Yetti falak mushkilining ogahi,

Jismida jon yo'q bu makondin borur,
Xoli ilik birla jahondin borur.

Kimki jahon mulki havasdur anga,
Ushbu ilik tajriba basdur anga».

Tort, Navoiy, bu jahondin ilik,
Qaysi jahon, javhari jondin ilik.

Soqiy, erur komi dilim mastliq,
Moni' erur lek tihidastliq,

Lutf ila ber ilgima may javhari,
May neki, oyinai Iskandariy.

L

O'N BESHINCHI MAQOLAT

*Jahl mayining durdkashlari sha'nidakim, saloh xirqalari ma'siyat
ilgidin chok durur. Va may jahlining sarxushlari bobidakim, har biri
mayxona eshigida mastu bebok yurur va yiquq mayxona alarg'a taxti
Jamshedoso va sinuq paymona alarg'a jomi jahonnamo va nadomat
ashki yog'inikim, gunoh shu'lasin o'churur va tavba barqi o'tikim,
ma'siyat xirmanin kuydurur*

Ey tarabing jomg'a hamdastliq.
Jahl xumoridin ishing mastliq.

O'ksumayin ayshi mudoming sening,
Jomi jaholat bila koming sening.

Kupdek ichinga solibon boda jo'sh,
Ko'nglunga ul jo'sh ila hardam xurush.

Boda solib joningga jo'shi g'urur,
Yo'q sanga kup yanglig' o'zungdin shuur.

Fisqu fujur ilgi chu og'zing ochib.
Kup kibi g'aflat mayidin kaf sochib.

Ne sanga o'lmak g'amidin motame,
Ne sanga paymona to'lardin g'ame.

Yetsa ajal muhtasibi netgasen,
Daf'ig'a tadbir ne nav' etgasen?

Ursa jafo toshi bu kupga turub,
Tashlasa har porasini sindurub.

Jisinga dog' o'rtasa har dog' uza,
To'ksa mayingni qaro tufrog' uza.

Zarfi safolingni ushotg'onidek,
La'li maying aylasa yer qonidek,

Buki mayi jahl ichasen behisob,
Bo'lg'usi bir kun sanga bu ehtisob.

Necha sening mastlig'ing oyu yil,
Oy ila yil mastlig'ingdin oyil.

Mastki fe'li bori muhmal durur.
Ko'yning atfolig'a muhzal durur.

Ko'y boshidin chu bo'lur telba fosh
Yog'durur atfol anga har sori tosh.

Ulki ichib bodani paymonadin,
Mast chiqar ko'yga xumxonadin,

Manglayikim tomg'a tegib, qon bo'lub,
Boshida dastori parishon bo'lub.

Elga qilib hamla yomon it kibi,
Qaysi yomon it, qopog'on it kibi.

Jisini usrukluk etib dam-badam,
Har sori qo'ysa qadam ul sori xam,

Sel suvin topsa ichib, mul kibi.
Soy toshini topsa otib gul kibi.

Uchrasa olam gulu toshi anga,
Yo'q olib otmoqqa tahoshi anga.

Toshidin atfol gahi butrabon,
Gah yiqilib mastu malang o'ynabon.

Gah yiqilib, gah qo'pub ul har nafas,
Mast solib har sori qo'l har nafas.

Bo'ylaki qo'pub yiqilib pay-bapay,
Birto yiqilg'onda bosib oni may.

May qilibon behuda holin aning,
Qay qilib oluda saqolin aning.

Jo'laha g'urvoshida ohordek,
Yo'qki zag'an parrida murdordek,

Qay soqolin har necha nopok etib,
It yalamoq birla yana pok etib.

Mastlik uyqusi chu zoyil bo'lub,
Ko'z ochibon hodag'a moyil bo'lub.

Ne topibon boshida dastorini,
Ne ko'rubon belida dinorini.

To'nini eltib yana bir rohzan,
O'ylaki so'yg'aylar o'luktin kafan.

Qin qolibon qo'lda pichog'in solib,
Kafshi dog'i bir tushubu bir qolib.

To'n etagi balchig' o'lub, olli o'l.
Olli o'l, ammo aning ollida ko'l.

Nechaki matlub o'lubon uy anga,
Bo'lmayin uy g'ayri uzun ko'y anga.

Ra'sha solib titramak andomig'a,
Og'zi ajab ta'm berib komig'a.

Kislarig'a mahkam etib qo'lini,
Necha tilab topmayin ev yo'lini.

O'g'ri to'nin so'yg'on emas erdi bas,
Qolg'onin ehdod ham olib asas.

Ul kishidek anglaki darmon uchun,
Chok etar o'q zaxmini paykon uchun.

Evrulubon boshi, ozib hushi ham,
Yoshunub egniga banogo'shi ham.

Har sori bu nav' tushub gom anga,
Ko'rki ne shakl o'lg'ayu andom anga.

Muncha mashaqqat bila ranjurluq,
Bir soriyu, bir sori — maxmurluq.

Dema xumor, oni degil yuz halo,
Jam' o'lubu oni qilib muhtalo.

Ko'rki, ne kirmak bo'lur o'z qonig'a,
Boqki, ne bedod erur o'z jonig'a.

Bu xud erur ushbu sifat turfa hol,
Turfarog'i buki ul aylab xayol.

Kim erur ushbu ishi qalloshliq,
Rindu qalandarvashu avboshliq.

Ko'ngliga kirmay bu malomat aning,
Jonini olmay bu xijolat aning.

Qilmay asar muncha qabohat anga,
Muncha qabohatlar ibohat anga.

Zol qizi har nechakim bo'lsa zisht,
Bordur aning ko'ziga huri bihisht.

Shoiri kajtab'ni dekim ne yer,
Sehrdur ollinda ne muhmalki der.

Itki qozon oshig'a tegurdi til,
Yuz qaroliq birla durur yuz qizil.

Ulki ulus qatlig'a jallod erur,
O'g'lini o'ltursa dog'i shod erur.

Bo'lmas edi gulxani anorkash,
Bo'lmasa murdor isidin tab'i xush.

Ulki kemur sotmog'in aylar shior,
Yuz qaro bo'lmoqdin anga qayda or.

Chug'zki obod aro manhus erur,
Lek huzuq kunjida tovus erur.

May ne ajab tanni yabob aylasa,
Sel ne tong uyni xarob aylasa.

Uyni yiqib sel etar elni jalo,
Xossaki, vayron uyu seli balo.

Bodaki yiqmoq sori-o'q maylidur,
Jism uyiga bilki balo selidur.

Qaysi bo'lur jism uyikim, jon uyi,
Jon uyi ham demaki, imon uyi.

Selg'a har soriki tug'yon erur,
Shoh ila darvesh uyi yakson erur.

Bodag'a ko'rguzsa kishi xiraliq,
Aql charog'ig'a berur tiraliq.

Tomsa charog' o'tig'a bir qatra suv,
Uyda yorug'luqdin ilik o'zga yuv.

Xossa charog'eki, kishi subhu shom,
May suyidin quyg'ay anga jom-jom,

Mash'al o'tig'a suv agar bir ayog'
Quysa o'char, ko'rki, ne bo'lg'ay charog'.

Tira bo'lur suv bila mash'al o'ti,
Demaki mash'al o'ti, manqal o'ti.

Manqal yo'q, ko'ra erur gar tanur,
Suvki yetar qolmas anga tobu nur.

Quysa suv otashgahi ichra majus,
Sandali bir damda bo'lur obnus.

Har kishikim qilsa bu suvdin tarab,
Xonasiyoh o'lmog'i ermas ajab.

Suv demagil oniki, bir o't erur,
Kim yeti ko'k xirmanini kuydurur.

Shu'lakim, ul o'rtagay aflokni,
Tushsa ne qo'yg'ay xasu xoshokni.

Eyki vujudung uyi xoshok erur,
Zor taning xud bir ovuch xok erur.

Necha bu xoshokka o't urmog'ing,
Necha bu tufrog'ni sovurmog'ing.

Dard o'tidur bodavu hirmon suyi,
Yo'qki tomug' o'tiyu to'fon suyi.

Urma ul o'tni xasu xoshokinga,
Quyma bu suvni bir ovuch xokinga.

Garchi suvdek sofiyu mavzun erur,
Suvlug'idin o'tlug'i afzun erur.

Har suvki qaynar suv erur ko'rmagi,
Nisbat emas o't bila kuydurmagi.

Har necha o'tg'a ilik ursa kishi,
Yetmagu kuydirmak emashtur ishi.

Kimki qizig' suvg'a iligin urar,
Har nechakim ilgi yetar o'tlurar.

Hosil aning o'ti o'tu suyi o't,
Rangi o'tu lam'ai diljo'yi o't.

Kimki bu to'rt o't aro bo'lg'ay asir,
Barq guzargohida yong'oy harir.

Qaysi badan ichra bu to'rt o't yonib,
To'rt anosir tafidin o'rtanib.

Yo'qki, bo'lub to'rt anosir adam
Aqlu hisu din ila islom ham.

O'tki, bu nav' o'lsa harorat anga,
Ne suv etar daf'i sharorat anga.

Barqni past etmadi to'fon suyi.
Gul o'tin o'churmadi nayson suyi.

Suvki bu o't jonig'a ofat durur,
Tavba chog'i ashki nadomat durur.

Bu o't o'lur, ashk yog'ar chog'i daf',
Yo'qki bu o't, do'zax o'ti dog'i daf'.

Qayda topor qatra bu yanglig' kishi,
Naf' chog'i qilg'uchi daryo ishi.

Kimni pushaymonliq etib ashkposh,
Gavhari maqsud anga har qatra yosh.

Ko'zki hayo ashki to'kar chun sahob,
Qatrasining har biridur durri nob.

Tavba ani anglama ta'rif ila,
Kim berilur kimsaga taklif ila.

Yoxud angakim, madad etmas bilik,
Ahdida mushaf sori eltur ilik.

Yoki qachon arbada bunyod etar,
Daf'ini aylarga qasam yod etar.

Borcha qazo o'tig'a xasdur bular,
Tavba hisobida emasdur bular.

Kimki qazo ilgida beixtiyor,
Tavba qilurda anga ne ixtiyor.

Tavba erur jurmg'a topmoq vuquf,
Ollidag'i yo'lini ko'rmak maxuf.

Yoki qilur vaqtda berohliq,
Bo'lmoq ul ish aybig'a ogohliq.

Bilsaki Haq hozir erur borcha vaqt,
Qilg'onig'a nozir erur borcha vaqt.

Ko'ngli aro tushsa malolat o'ti,
Jonini kuydursa xijolat o'ti.

Yetsa bu holatda tafakkur anga,
Qilg'onidin bo'lsa tanaffur anga.

Soiqai lutfi Ilohi yetib,
Jozibai nomutanohi yetib,

O'zlukidin qilsa judo Haq ani,
Qo'ymasa o'z holig'a mutlaq ani.

«Tubu ilalloh» ila topsa futuh,
Bo'lsa bu tavbaki, topibdur Nasuh.

Haq bu karam qilmasa netsun kishi.
O'zluki birla nechuk etsun kishi.

Tavba emas yetmayin ilhomi g'ayb,
Kimki o'zi qilsa ushatmoqni ayb.

Odami o'z jurmig'a muxtor emas,
Tavbasidin dog'i xabardor emas.

Amr bo'lub tavba desa chin durur,
Gar oni hizf etmasalar sindurur.

Tavbag'a har kimgaki tavfiq erur,
Sinmas aning tavbasi tahqiq erur,

O'zluk ila tavba tabohi degil,
Qilmog'idin tavba ilohi degil.

LI

*Bani isroiliyi Rindning o'zluqidin tavbasi uyi irtifoi qasam qofi
toshlari bila falakka chiqqoni va may selohi ul hinoni yiqqoni*

Bor edi Rindi Bani isroiliy,
Boda uchun maykadalar soili.

May bo'lubon quti hayoti aning,
Xalq ichida Maymana oti aning.

Jismi sabu chekkali komil bo'lub,
Mayg'a o'z oti kibi homil bo'lub.

Tortibon el zarfini mayxonadin,
Jur'a tahin chekkali paymonadin,

Yetmasa gar jur'ai loyi anga,
Bo'lubon ul lahza baloyi anga.

Ko'p qilibon tavba, vale sindurub,
Ko'nglini tavba ishidin tindurub.

Baski qilib tavbada nuqs oshkor,
Tavba qilurdin bo'lubon tavbakor.

Bir sahari qildi havoyi sabuh,
Yetti inoyat eshigidin futuh.

Hotife un chektiki, ey bulfuzul,
Tavba qil emdiki, yetishti qabul.

Sen tilading bizga rizo bo'lmadi,
G'ayri rizo hukmi qazo bo'lmadi.

Chunki bizing soridin o'ldi talab,
Kel berikim, bo'ldi mahalli tarab.

Rind ichiga tushubon tobi shavq,
Ashk bo'lub jismiga girdobi shavq.

Har dam o'lub qismi huzuru safo,
Tavba solib ko'ngliga nuru safo.

Harneki yillar tilab aylab niyoz,
Borchag'a bir damda bo'lub sarfarozi.

Tavba sori chun o'zi aylab nishast,
Shisha kibi tavbasi topib shikast.

Haq chu oni tavbag'a mahram qilib,
Saddi Skandar kibi mahkam qilib.

O'z din esa tavba bo'lur o'yla sust,
Haq din esa tavba bo'lur bo'yla rust.

Jurm Navoiyni ko'p etmish malul,
Yo Rab, o'zung tavba berib qil qabul.

Soqiy, ayoq kelturu tut bizga bot,
Ahd boshin, tavba ayog'in ushot.

Uzr desam, bo'g'zuma quyg'il yiqib,
Quyg'ali ko'ksun uza lekin chiqib.

LII

O'N OLTUNCHI MAQOLAT

Xudnamo muxannasyashlarning dunyo ziynati iktisobida hiylasozliklari va jonfido mehnatkashlarning din quvvati hisobida sarandozliklari. Va g'azo maydoni sohati vasfidakim, er bila nomard bir-biridin ayrilur. Va shahodat qoni ta'rifidakim, gunoh dudidin yuzi qarorg'onlarni surxro' qilur

Fy surubon ayni jalodat aro —
Raxshini maydoni shujoat aro,

Barqdin ul raxshni kam bilmayin,
Ko'ziga Rustamni dog'i ilmayin.

Ko'rmayin azbas tutub o'zin biyik,
O'z boshidin ko'kka degin to'rt ilik.

Po'ya chog'i raxshi bo'lub ko'htan,
Ustida qoplon kibi ul po'yazan.

Kibr e'tibon el bila fe'lin durang,
Qullai zulm uzra nechukkim palang.

It eti qoplon kibi quti aning,
Kibr yeli bodi buruti aning.

Chinki topib qoshi uchida nishast,
Charxi daniy toqig'a solib shikast.

Kibr ila har sori girih qoshig'a,
O'zga tafar'un solibon boshig'a.

Ujb ila har qoshi uchida girih,
O'ylaki har yon qulog'ida zirih.

Garchi anga ul sababi ehtiom,
Turfaki ham bid'at o'lub ham harom.

Halqa urub ko'y iti tavqig'a ta'n.
Halqa demakim, bo'lubon tavqi la'n.

Zulmda Zahhoklig'i bilgurub,
Ikki yilon egnida halqa urub.

Shar' xilofini chu fosh aylabon,
Yuzda saqolini tarosh aylabon.

Balki chu bid'atni qilib ishtig'ol,
Loyiq o'lub, qirqar uchun ul saqol.

Zulm xadangini chu parron qilib,
Yuzini paykonig'a suhon qilib.

Ikki buruti qili har yon g'ulu,
Nafsu havo qushlarig'a halqamo'.

Og'ziki bir nukta demay juz xilof,
Borcha binoyi zanaxu o'zga lof.

Bo'ldi saqol pardasi chun bartaraf,
Anda zanax zohir o'lub har taraf.

Boshta o'tag'a bo'lubon jilvagar,
Dinin aning boshtin uchurmoqqa par.

Ul deb ani shahpari Ruhul-amin,
Tashlab ani garchi bilisi lain.

Parlarini bum boshidin so'yub,
Afsari tovus aning otin qo'yub.

Orqag'a dastori uchi tekkani,
Tebranuri birla urub gardani.

Bo'rki uchin ichkari bukkani ayon,
Hirsu havo qushlarig'a oshyon.

To'ni ipak bo'lmasa, ko'ngli hazin,
Jinsi xitoy bo'lmasa qoshida chin.

Yuzida zarbaftdin istab nishon,
Hajv bitarga varaqi zarfishon.

Balki libosini parand etmayin,
Bistar etib to'ng'a pisand etmayin.

Ko'nglok etib nozu havasdin katon,
Qaysi havas, parri magasdin katon.

Parri magas ham dema, shabnam degil,
Terlik aning ustiga bayram degil.

Beliga zarrishta qurin band etib,
Balki zarofat bila takband etib.

Yog'lig'i ul hullai zarrishtakash,
Kim anga jonlar chekibon rishtakash.

To'n yuzi oltun bila jadval anga,
Balki o'tuk taqasi zarhal anga.

Raxsh uza urg'on egari zarnigor,
Balki jibilgir anga gavharnigor.

Turfa aboye anga istab ko'ngul,
Rangi saqarlot bila dolu gul.

Munchavu yuz muncha zarofat bila,
Qaysi zarofatki, qabohat bila.

Dev jamolini paridek yasab,
Xorni gulbargi taridek yasab.

Jilva qilib shohidi ra'no kibi,
Boda ichib gulruxi zebo kibi.

Chun tegurub boda dimog'ig'a nashv,
So'z mutaoqib demayin g'ayri hashv.

Necha lavand ollida borcha najis,
Birida ne aqlu ne idroku his.

Gulxanu yuz zog'i najasxordek,
Yo zag'an atrofida murdordek.

Nukta yoqardek anga behad debon,
Behadu andoza xushomad debon.

Ul qilibon ushtulumu xayli rev,
Xayli shayotin, o'zi o'rtada — dev.

Borcha ani begimu mirzo debon,
Xulqini xush, husnini zebo debon.

Muncha fazihatliq emas erdi bas,
Kim ura olmay chog'ir o'lmay nafas.

Chunki chog'irni qilibon zahri mor,
Tu'ma yilon etin etib ixtiyor.

Yer-ichari borcha haromu harish.
Bu yemak-ichmakdin anga parvarish.

Chun chekibon ikki to'la jomi sof,
Lof ila har dam ushotib yuz masof.

Tog' kibi tig' chekib bedarig',
Yetkurub oy xudig'a har lahza tig'.

Gurz ila Bahrom boshin yonchibon,
Nayza bila suratig'a sonchibon.

Pilga yo'q pashshacha qadru baho,
Pesa ipakcha ko'ziga ajdaho.

Safhai rammol qoshida palang,
Reza suv qurtiyu yiloni nahang.

Ra'dni deb hazmida tunbak uni,
Barq — kabobi o'tining uchquni.

Zulm ila g'adr oncha bu g'addorda,
Kim oni ko'rmay kishi kufforda.

Ul nimakim, bosh anga sunmay namoz,
Ul nimakim, ko'ngliga kechmay niyoz.

Minnatining ostida mulku sipoh,
Mulku sipah qaysi bo'lur, balki shoh.

Demaki har shohg'a minnat qo'yub,
"Mo xalaqalloh" g'a minnat qo'yub.

Shahg'a gazof oncha deb ul tirabaxt,
Kim degin ul bermish anga toju taxt.

Ta'n qilibkim, «manga yuz ming berur,
Yuz, ikki yuz ming manga loyiqmudur?!

Yuz kishi rashk etgucha charkam qani,
Ming yigit otlang'ucha o'lkam qani?

Holim agar kechsa bu yanglig' taboh,
Bo'lmasa bu shah, yana mulk, o'zga shoh!»

Yova deb ul har kecha faryod etib,
Tush-tushidin xayli ham imdod etib.

Muncha anoniyatu pindor anga,
Kim beribon nafs sitamkor anga.

Oning uchunkim, qachon o'lsa nabard,
Aylasa aflok yuzin tira gard.

Ikki tarafdin yalang'och tig'i tez,
Solsa jahon xalqi aro rustaxez.

El yuragin tig'i shikof aylasa.
Xasm boshin gurzi g'ilof aylasa.

Arzi hunar bo'lsa yigitlar ishi,
Qilsa ayon o'z hunarin har kishi.

Ul dog'i shoyad sunubon ishga qo'l,
Ul necha ming el aro bo'lg'ay bir ul.

Berguchi oz-ko'pga chu Tengri erur,
Kimga berur fathni Tengri berur.

Tengriga shahning tuz esa niyati,
Nega chekar xaylu sipah minnati?!

Xossaki bir johili dunu taboh,
Jahdu jid etgay tilab o'ziga joh,

Minnatig'a aylasa shah iltifot,
Haq karamidin anga yuz ming uyot.

Bir kishi ul safdaki, yuz ming durur,
Rustam esa, boru yo'g'i teng durur.

Aylasa ul dam ikki Rustam ishi,
Bir kishi ham oxir erur bir kishi.

Eyki xarob etti takabbur seni,
Soldi takabburg'a tasavvur seni.

Ojiz esa Gev ila Rustam sanga,
Erlik erur anda musallam sanga.

Kim bu tasavvur bila pindorni,
Nafs havosida yo'qu borni,

Ko'nglung uyidin barisin surgasen,
Balki fano o'tig'a kuydurgasen.

Har nimakim, shar' xilofidur ul,
To'kkasen ar bodai sofidur ul.

Hirsu havas xil'atini chok etib,
Tanni rizo chashmasida pok etib.

Solibon egninga rizo kisvatin,
Chekkasen ustunga g'azo kisvatin.

O'zni g'azo ishida chust etgasen,
Belni jihod amrida rust etgasen,

Ko'nglung aro himmat agar bor esa,
Zoting aro jur'at agar yor esa,

Haq yo'lida bosh qo'yubu jon chekib,
Mehnatini to erur imkon chekib.

Tengri uchun kirsang agar qoninga,
Minnatini qo'yg'asen o'z joninga.

Eyki, yetishti bu saodat sanga,
Kim erur imkoni shahodat sanga.

Qo'pu bu yo'l azmini mardona qil,
Joning agar yuz esa, shukrona qil.

Yetsa-o'q ul po'yada jisming tushi.
Bilgil ani gulshani davlat qushi.

Joninga paykoni ajal yog'mog'in,
Bil bori rahmat bulutidin yog'in.

Tig'kim, ul qatling uchun cheksa til,
Javharini bahri karam mavji bil.

Qilg'il agar ko'zunga kirsang g'ubor,
Surmai g'ufroncha ani e'tibor.

Marg samumidin agar yetsa bim,
Bil ani Iso nafasidin nasim.

Jisminga tig' ochsa o'lum ravzani,
Ruhunga jannat yo'li bilgil ani.

Qonki sabililloh arodur sabil,
Qatrasi uchmoq gulidindur dalil.

Din yo'lida qong'a bo'yolg'on badan,
Qondur anga hullai gulgun kafan.

Kimki, shahodatg'a mujohid durur,
Qoni qizil yuziga shohid durur.

Tira esa har necha dudi gunoh,
Bilki surar ani shahid urg'on oh.

Mig'ni bo'ston yeli surg'on kibi,
Abrni to'fon yeli surg'on kibi.

Jurm tuni garchiki, jovid erur
Tig'i shahodat anga xurshid erur.

Lek mujohidg'a kerakkim g'araz,
Bo'lmasa jahd ichra g'animat evaz.

Kimki g'animat uchun aylar g'azo.
Man'i shahodat anga basdur jazo.

Ulki jihod aylasa tolon uchun,
Soyim erur ne'mati alvon uchun.

Qolsa tirik g'azv eli maydon aro,
O'lmak erur chashmai hayvon aro.

G'azvda kim o'lmasa tortib taab,
Obi hayot ichra erur tashnalab.

Ismg'a safdin kishi o'tkarsa gom,
Bil oni masjidida riyoyi imom.

Safdin agar qolsa keyin ne deyin,
Keldi niso qibla safidin keyin.

O'lja uchun ulki jalodat qilur,
Muzdg'a «Qur'on»ni tilovat qilur.

O'lmoq uchun bo'lmasa g'ozig'a kin,
Hayfdur o'turmoq ani bil yaqin.

Kingaki jonondin erur jon aziz,
Hayfki, qilg'ay ani jonon aziz.

Ulki erur g'azv ishi odat anga,
Bo'lmasa iqboli shahodat anga.

Lek shahodat sori tutsa umid,
Bil oni har ma'rakada bir shahid.

Ulki mubohot uchun istar masof,
To chiqibon ma'rakadin ursa lof.

Angla eranlikdin ani benasib,
Ne desa nomard emastur g'arib.

Sunqur agar turnani ovlar kuni,
Yuzni olur bir dog'i chiqmas uni.

Tu'maki narmoda zag'an yod etar,
Topg'ucha jifa necha faryod etar.

Yaxshi emas gar qilib aytur kishi,
Ko'r ne bo'lur qilmayin aytur ishi.

Kingaki erlik asari yordur,
Bir demas, ar qilg'oni ming bordur.

Ko'rmagan erlikdin o'zin bahramand
Birni dog'i qilmasa yuz der baland.

Vaqtı bila qildi xurus un ayon,
Tinmadi bir lahza kuruk mokiyon.

G'ayri g'azo kimgaki dilxoh emas,
Ko'rsa o'zin o'rtada lilloh emas.

Gar ishi ta'rifida tortar navo,
Bil ani ra'nolig'u nafsu havo.

Lillah esa yaxshiroq eldin qiroq,
Haq chu bilur, bilmasa el yaxshiroq.

LIII

*Abdulloh Muborakning burqa' bila jihod maydonig'a kirib,
fath jamolidin burqa' olg'oni va Hasan Rabi' ul jamolni
ko'rub hayron qolg'oni*

Qildi rivoyat Hasan bin Rabi'
G'azv masofida bu amri badi' —

Kim bor edi ma'raka paykor ila,
Zumrai islomg'a kuffor ila,

Kufr sipohi safidin purdile,
Balki ajal xanjaridek qotile.

Kirmish edi kin ila maydon aro,
Solmish edi raxshini javlon aro.

Din cherigi qatlig'a tig'in bilab,
Na'ra urar erdi muboriz tilab.

Kofiri qotil chu zabardast edi,
Har kishi bir zarbasidin past edi.

Kimki xiom ayladi maydonig'a,
Kirdi o'zi kuch bila o'z qonig'a.

Necha musulmonni chu qildi shahid,
Bo'lmish edi din cherigi noumid —

Kim saf uchidin surubon bir daler,
Kirdi kiyik qasdig'a andoqki sher.

Mehr kibi ko'k temur ichinda g'arq,
Lam'a solib tig'i aningdekki barq.
Chehrasini burqa' aro yoshurub,
Ishq o'ti yanglig' yoshurun kuydurub.
Qahr ila kofirg'a yetishgan zamon,
Hamla hamon erdiyu yiqmoq hamon.
Chunki uzotti ani do'zax sori,
O'ylaki mazbuhni matbax sori.
Qoytti kelgan yo'li birla yurub,
Kabkxiromin bir-bir mongdurub,
Din sipahi saflarig'a tushti jo'sh,
Har sori takbir ila chiqti xurush.
Yetti aduv izzatig'a xorliq,
Kufr livosig'a nigunsorliq,
G'ozu o'zin chunki ayon qilmadi,
Kimsa aning kim ekanin bilmadi.
Menda solib shavqi aning iztirob,
Toptim ani har sori aylab shitob.
Tig'i ham egnida hamoyil edi,
Burqai ham yuziga hoyil edi.
Dedim: «Ayo g'oziyi nusratqarin,
Tig' ila zarbingg'a tuman ofarin.
O'lgum o'shul chehra havosi uchun,
Burqaing och, tengri rizosi uchun».
Tengri otin chunki samo' ayladi,
Chehrasidin parda vido' ayladi.
Izzu sharaf tojig'a torak edi,
Toraki dahr Ibni Muborak edi.
Qo'y dum otining ayog'ig'a jabin,
Dedim: Ayo nosiri shar'i mubin,
Ko'rmaginga jon berib ahli jahon,
Nedin erur chehrani qilmoq nihon?
Parda hijobini yuzungdin arit,
Saf aro sur, elga o'zungni tanit.
Dedi: «Hasan, aylamagil ijti hod,
Ulki aning ishqida qildim jihod.

Jumlai holimdin erur ogah ul,
Qaysi qadam ursam erur hamrah ul,

Tonisa ulkim, manga maqsud erur,
Tonimasa olam eli sud erur.

Har kishi kome tilasa yordin,
Yor ishi maxfiy kerak ag'yordin».

Lek jihod ichra bu asg'ar durur,
Nafs bila aylagan akbar durur.

Tengri Navoiyg'a yeturgay jazo,
Kofiri nafs bila qilsa g'azo.

Soqiy, olib kel qadah el jonidek,
To sumuray dushmani din qonidek,

Xusravi g'oziy kafidin ber nabid,
Ichmakidin aylay o'zumni shahid.

LIV

O'N YETTINCHI MAQOLAT

*Bahor yigitligi nazohatidakim, rayohini nozparvardlarin mulavvan
hullalar bila orosta qilur. Va yigitlik bahori latofatidakim, rayhoni
yat bila oraz gulin gulu rayhong'a o't solg'udek perosta etar. Va
xazon qarilig'i burudatidakim, guliston ashjori bila qushlari ondin
bebargu navo durur. Va qariliq xazoni shiddatidakim, badan gulis-
tonining toza gullari andin barbodu havo*

Chun Hamal ayvonini yorutti mehr,
Dahrg'a mehr ayladi zohir sipehr.

Esti nasimi sahari mushkposh,
Bog'da farroshlig'in qildi fosh.

Shoxni yer yuziga gisu qilib,
Balki bu gisuni supurgu qilib.

Bo'ldi chu farrosh nasimi shamol,
Septi bulut ham suvni saqqo misol.

Suv yukidin qad quyi moyil anga,
Barqi birinjina hamoyil anga.

Chun supuruldiyu suv sepildi bog'
Bo'ldi rayohing'a mahalli farog'.

Bosh chiqara boshladilar bog'din,
Bog' demakim, qaro tufrog'din.

Ayladilar yer yuzi uzra hujum,
Gulshani charx uzra nechukkim nujum.

Har biri bir tifli sumanbo'ydek,
Tifl dema, shohidi gulro'ydek.

Husnlari ishvau noz aylabon,
Atrlarin g'oliyasoz aylabon.

Farsh bo'lub, sabzai minusirisht,
Xayli rayohin anga huri bihisht,

Shohidi gul husnida yuz obu tob,
Shabnam urub, orazi uzra gulob,

G'unchai tifl ishi ovunmoq bo'lub,
O'ynamog'i borcha yoshunmoq bo'lub.

Ko'rguzubon lola o'yun ichra jo'sh.
Yel uchurub kallasidin kallapo'sh.

Bog'da gul tifllari har taraf,
Ikki chamandinki chekib ikki saf.

Kelturub atfol o'yung'a ko'ngul,
Lek o'yun har sori gulhocha gul.

Toza giyah tiflg'a monand o'lub,
Belga bo'g'undin anga takband o'lub.

Anjumdek gunbadi davvor uza,
Xayli shukufa dema, ashjor uza,

Har sori nazzorag'a tifli bahor,
Ochti yig'och panjarasidin uzor.

Yo'qki suruk gulruxi dushizadur,
Boshlarida me'jari pokizadur.

Mayl qilib husng'a ifsho uchun,
Borcha biyik yerga tamosho uchun.

Jilvai avval budur ashjorg'a,
Xayli rayohin bila gulzorg'a.

Bir necha kun gardishi laylu nahor,
O'tkaribon navbati husni bahor.

Lolavu gul bistari tufrog' o'lub,
Shoxda gul o'rnig'a yafrog' o'lub.

Shuqqai shingarfi bo'lub sarnigun,
Shox livosi bori zangorgun.

Bog'ki, to'n oqu qizil aylabon,
Ul qizil oqini yashil aylabon.

Dur yeriga barcha zumurrad kelib,
La'ning o'rnig'a zabarjad kelib.

Oq gul ila gulshani oyinarang,
Nam asaridin bo'lubon borcha zang.

Shoxi shajar xirqasi axzar bo'lub.
Xirqa bila Xizr payambar bo'lub.

Soya savodi zulumoti aning.
Shabnam o'lub obi hayoti aning.

Bog'ki bu husnu latofat bila,
Shohidi ra'no kibi ofat bila.

Tutti yashil hulla kiyar shevasi,
Tugmalari bo'ldi aning mevasi.

Ham bo'lubon tugmai zarkor anga,
Ham duru gavharg'a namudor anga.

Obi o'lub tugmai zar paykari,
Oqu qizil olma duru gavhari.

Shirada zardolu etib qand hal,
Yo'q kadu amrud kaduyi asal.

Raz chamani tarfida har go'shaye,
La'l ila durdin osilib xo'shaye,

Bog' o'lub ashjoru samardin to'la,
Komiledek fazlu hunardin to'la.

Balki bo'lub ravza gulistonidek,
Yo'qki xiradmand kishi jonidek.

Chun uzubon mevalarin bog'bon,
Bog' bo'lub anjumi yo'q osmon.

Sahni gulistonki, samar yo'q anga,
Bir sadafedekki guhar yo'q anga.

Dur topa olmay shajar o'z tojig'a,
Borcha borib hodisa torojig'a.

Gulshan uzub naqdi nihondin ko'ngul,
Naqd nekim, mevai jondin ko'ngul.

Za'f bo'lub mevasi yo'q shox ishi,
Sustayib andoqki, ko'ngulsiz kishi.

Bo'yla ko'ngulsizlik ila zorliq,
Yetkurubon naxlg'a bemorliq.

Barg uzori yaraqoniy bo'lub,
Obkashi rishtai joniy bo'lub.

Shox bo'lub oshiqi mahzun kibi,
Ranju sarig' yuz bila majnun kibi.

Dol bu da'vog'a parishonlig'i,
Ishqdin oshuftavu hayronlig'i.

Tolg'a xazon novaki parron bo'lub,
Jismida har yafrog'i paykon bo'lub.

Ko'rma sarig' rang ila yafrog'ni,
Kim g'am o'ti kuyduradur bog'ni.

Tushmasa yafrog'din o't bog' aro,
Shox o'tundek nega bo'ldi qaro.

Bas yo'q edi bog' aro bu rustaxez,
Kim yetibon sarsari day bargrez.

Shoxni bebarg qila boshladi.
Bargni har sori olib toshladi.

Rangu safo qolmadi yafrog' uza,
Yotti o'luklar kibi tufrog' uza.

Yel sipahi bog'ni toroj etib,
Bargcha kiymak sori muhtoj etib.

Har sori meva yig'ochi jadvali,
Saf bila hinduki chekarlar jali.

Borchasi uryonu sarosar qaro,
Rud suyidin bori zanjir aro.

Yel sitamidin bori tortib nafir,
O'ylaki bir xayli yalang'och asir.

Barg dema, himai matbax degil,
Shox dema, kundai do'zax degil,

Do'zax o'lub gulshani jannatsirisht,
Do'zax aning qoshida bog'i bihishi.

Gulshani umr ichra xazonu bahor,
Ham bu guliston bila bir hukmi bor.

Umr quyoshiga chu bo'ldi mahal.
Chiqqusi baytush-sharafidin Hamal.

G'uncha kular bo'ldi adaddin fuzun,
Gul ochila boshladi haddin fuzun.

Jilva qilib har guli navbovasi,
G'unchada dilkash ko'runub yovasi.

O'ynamog'u yemak o'lub kom anga.
Yo'q bu iki shug'ldin orom anga.

Mag'zig'a solg'uncha xirad sham'i nur,
Ko'ngliga tushguncha xiraddin shuur

Toza niholi bo'lubon sarbaland,
Soda dimog'i bo'lubon hushmand,

Anglab anikim, yuzi gulrang erur,
G'amzasi xunrezu ko'zi shang erur.

Nargisiga shevai noz o'rgatib,
Shevasini shu'badaboz o'rgatib.

Jonlar etib sayd jafosi bila,
Qosh ila kirpik o'qu yosi bila.

Ko'zni tilab uyqug'a rom etgali,
Uyquni ko'zlarga harom etgali,

Chehra uza o't solibon jomdin,
Dud chiqormog' uchun islomdin.

Bazmdakim, labni mayolud etib,
Jonu xirad hushini nobud etib.

La'li o'tin tez etibon may bila,
O'ylaki ruxsori o'tin xay bila.

Bu iki o'tdek qani o't shu'laxez,
Kim anga tekkan soyi suv bo'lsa tez.

Xat arokim, la'lin etib xandanok,
Xizr suyidin qilib, elni halok.

Chekti chu xat sabzasi gul uzra saf,
Sabzaliqu gulluk o'lub bartaraf.

Bog' shukufa bila gul tark etib,
Barg bila mevag'a navbat yetib.

Xiffatidin tab' nufur aylabon,
Hilm ila idrok zuhur aylabon.

Yuz ming esa jahlu xato xirmani,
Mash'alai ilm kul aylab ani.

Gulshani xil'atda bo'lub har shajar,
Ilmu adab mevasidin borvar.

Tavri bori daf'i junun aylamak,
Da'bi bori kasbi funun aylamak.

Birni tafosir qilib bahramand,
Birni ahodis etib arjumand.

Birga bo'lub madrasa oromgoh,
Birga xilvatgah o'lub xonaqoh.

Chun to'kulub mevai ahdi shabob,
Bordi baqo gulshanidin obu tob.

Qad shajari g'am yelidin topti xam,
Chehra guli bargi xazon bo'ldi ham.

Qolmadi tan naxlida bargi havas,
Balki uchurdi ani sovug' nafas.

Yuzki yasab gunai bargi xazon,
Kulgali atfol bo'lub za'faron,

Ko'zlar etib evlari kunjin talosh,
Parda osib ul ev eshigida qosh.

Ko'z kirib ev kunjiga ranjur uchun,
Qoshlar anga hojib o'lub nur uchun.

A'mo uchun qilg'ali kasbi ziyo,
Birdur agar tufrog', agar to'tiyo.

Ko'zga chun o'chti basardin charog',
Shishai aynakdur anga eski dog'.

Ikki bukulgan qaddu maddi aso,
Charxi nigun birla xati istivo.

Qolmay og'iz durjida durri samin,
Tishlari «sin», lek kashish birla sin.

Og'iz o'lub durj, vale donasiz,
Tishlar o'lub «sin», vale dandonasiz,

Ham tishi tasbihida bir dona yo'q,
Ham og'iz eshigida dandona yo'q.

Orqa xati uzra bo'g'unlar anga,
Rishta zanax uzra tugunlar anga.

Oq tuki a'zo aro yuz soridin,
Yod berib borcha kafan toridin.

Boshi quyi margni qilmoqqa yod,
Qaddi nigun qilmoq uchun xayrbod.

Bir necha kun ham bu sifat jon chekib,
Qon yutubu nolai hirmon chekib.

Toki ajal qosidi farmon chog'i,
Tindurubon ko'nglini andin dog'i,

Ohki, bu bazmg'a har kim yetib,
Navbat ila bu qadah oshom etib.

Ulki ichib bu qadahi talxfom,
Mast adam ko'yiga aylab xirom.

Mast xirom aylab o'zin bilmayin,
Borg'onidin so'ng xabari kelmayin.

Elni bu may ayladi bir-bir adam.
Navbat erur bizga dog'i dam-badam.

Ohki, umr o'tti jaholat bila,
Qoldim o'lum vaqti xijolat bila,

Umr kuni uyquda qoldim tamom,
Emdiki uyg'ondim, o'lub erdi shom.

Andaki qilmoq kerak ish, qilmadim,
Ish qila olmas kunini bilmadim.

Bordi tiriklik chog'i budu nabud,
O'zni ham o'ltursam emas emdi sud.

Ish qilur ayyomida gumrah bo'lub,
Ish chu ilikdin borib ogah bo'lub.

Vaqt kamu yo'l uzunu may achig',
Asru qatig' hol yetibdur qotig'.

Bo'lmasa gar baxshishi rahmatfizoy,
Voy, mening holima, ming qatla voy!

Umr kunin qismat etibtur qazo,
Har chog'i bir ishga qilur iqtizo.

O'ng'acha g'aflat bila pobastliq,
Jahl yigirmigachau mastliq.

O'ttuzu qirq ichra erur ayshu kom,
Vahki, manga ul dog'i erdi harom.

Qilmadi ellikda taraqqiy kishi,
Oltmishu borcha tanazzul ishi.

Yetmish aro vojib erur turmog'ing,
Sakson aro farzdur o'lturmog'ing.

To'qson agar bo'ldi yiqilmoq kerak,
Yuz aro jon tarkini qilmoq kerak.

Umri tabiiy kishiga bo'lsa kom,
Istar o'lub, har sori qilg'ay xirom.

Umri tabiiy dema, gar umri Nuh,
Bor esa, tavfiqdin o'lmay futuh.

Yaxshiroq ul umrdin o'lmoq yiroq,
Umr nekim, andin o'lum yaxshiroq.

Umr erur taqvoyu toat uchun,
Tengri buyurg'ong'a itoat uchun,

Toatu taqvo nechakim xushdurur,
Lek yigitlik chog'i dilkash durur.

Xush ko'runur qilsa yigit ayshu noz,
Ko'r ne ko'rungay agar etsa namoz.

Xoki palak aylasa qad xam anga,
Oni ruku' etsa musallam anga,

Kimki yigitlikda sarafrozdur,
Buki boshin yerga qo'yar ozdur.

Qoriki za'f ayladi boshin nigun,
Tuz qila olmas ilik aylab sutun.

Boshki tushar yer uza beixtiyor,
Sajda qilurda anga ne ixtiyor.

Qoriki qaddig'a xam o'ldi vuqu',
Ish qila olg'aymu ekin juz ruku'.

Toat ani bilki qilur navjuvon.
Qilmasa netgay qoriyi notavon.

Lek hu vohastai tavfiq erur,
Kimgaki sarrishtai tahqiq erur.

LV

*Imomi ma'sum Zaynul-obidinning sag'irai ma'sumasining kabirush-
shon kalomi, agarchi ul sag'iradin ma'sum erdi*

Ulki falakka surub erdi kumayt,
Mash'alai anjumani ahli bayt,

Xatmi nubuvvatqa bo'lub nuri ayn,
Sham'i valoyat Ali bin Husayn.

Baski ibodotidin arbobi din,
Otini aytib Zaynul-obidin,

Bir kuni bir tiflin olib qoshig'a,
Mehr iligin surtar edi boshig'a.

O'ylaki qonuni ubuvvat bo'lur,
Tifl sori elga muhabbat bo'lur.

Zohir o'lub tavrída osori mehr,
Aylar edi har nafas izhori mehr.

Bor edi bir nodira farzand anga,
Jonu ko'ngul rishtasi payvand anga,

Pardai ismat aro raxshon quyosh,
Umri zamonidin o'tub olti yosh,

Ko'rdi otasinki, sevar yoshini,
Yosh to'kubon qildi girih qoshini.

Chehra uza yoshini ko'rgach imom,
Istadi qoshig'a qilib ehtirom,

Qildi tasavvur yuzida ashkdin,
Kim magar ul yig'lar edi rashkdin.

Shafqat ila mehr qilib oshkor,
Dedikim, ul tifl durur shirxor,

Jandarai mahd aro ojiz tani,
Rahm etibon mehr ila sevdum ani.

Mehri aning gar bu sifat fosh edi,
Ushbu jihatdin edikim, yosh edi.

Senki ichim o'rtadi mehring tafi,
Chunki ulug'roqsen erur muxtafi.

Bo'ldi chu zohir sanga ma'zur tut,
G'ayrat ila rashk tariqin unut.

Bu so'z ila ko'proq o'lub dardnok.
Aytti daryo qoshida durri pok.

Kim: «Bu jihatdin emas erdi g'amim,
Bal, yana bir g'amdin edi motamim.

Bir kun eshittimki takallum aro,
Borur edi og'zinga bu mojaró,

Kim manga mahbub Haq o'ldiyu bas,
G'ayr sori maylg'a qilmon havas.

G'ayrini ko'rdumki sevarsen bu dam,
Qildi ichimni mutag'ayyir bu g'am.

G'ayr ila chun bo'ldi aning shirkati,
Jonima o't soldi aning g'ayrati.

Sajda nechuk bo'lg'ay aning boshig'a,
Kim topinur Haq bila but qoshig'a!

Bo'lsa Samad birla sanam jilvasoz,
Qiblada bo'lg'aymu ravo ul namoz».

Chun bu takallumni eshitti tamom,
Zabt qila olmadi ashkin imom.

Yig'ladi Haq shukrini vojib bilib,
O'pti boshin xayr duosi qilib,

Tiflg'a Haqdin chu hidoyat durur,
Harne qilur taqvoyu toat durur.

Qo'ydi yigitlikta Navoiy sujud,
Chun qaridi emdi nadomat ne sud.

Soqiy, o'shul mayki xarob aylagay,
Shayxni kayfiyati shob aylagay,

Tutki, bo'lubmen xarafu notavon,
Ayla meni toat uchun navjavon.

LVI

O'N SAKKIZINCHI MAQOLAT

Falak g'amxonasidakim, maoli parokanda alam durur takalluf bila masrur bo'lmoq va jahon vayronasidakim, omoli ham ul raqam durur ko'ngul uyin ma'mur tutmoq va har nafaskim hayot gulshanidin nasim durur, qadrin bilmak. Va har damkim umr gulidin shamimdurur shukrin qilmoq va to badanda haq amri itoatig'a quvvat bor, toatini mug'tanam ko'rmoq va to ashob visoli mumkindur, iliktin bermay, o'zni xurram tutmoq

Dahrki hush ahlig'a zindon erur,
Bo'lg'on anga shefta nodon erur.

Tab'ni bandig'a xamul aylama,
Aqlni chohida malul aylama.

Kim sani chun doirai dahrband,
Oxir etar tufrog' aro shahrband,

Bas nedur ul g'amdin o'lub dardnok,
O'zni o'lumdin burun etmak halok?

O'lmak uchun muncha nedur motaming,
Tutqusi motam sanga xolu a'ming.

Bo'lsa g'aming joninga solma alam.
Bir g'am erur bas, yemagil ikki g'am.

Ranjing uchun jisinga solma shikanj,
Aylama bir ranjingni ikki ranj.

Dog' ko'rub ko'ksunga ista farog',
Qo'yma malolat bila dog' uzra dog'.

Necha jaf o'yetsa falakdin unut.
Har nechakim, kulli erur sahl tut.

Ishga necha sa'bliq imkon erur,
Kim ani oson tutar, oson erur.

Gar vataning Shom durur, gar Hari.
Shomu Hiri fikrga qilmas gari.

Shod ani bil dahrda kim g'am yemas,
Dahr ishi chun g'am yegali arzimas.

Chunki jahon bog'i vafosiz durur,
Umr guli anda baqosiz durur.

Bog'ki, vardig'a baqo bo'lmag'ay,
Vardki bog'ig'a vafo bo'lmag'ay.

Tutqali orom ne loyiq bu bog',
Ul gul ila qayda muattar dimog'.

Umrki xorij durur o'tgan ishi,
Har neki o'tti anga yetmas kishi.

Kelmaganidin dog'i oqil demas,
Ne desun ul ishniki, ma'lum emas.

Tongla bila chun tuna kundur adam,
Bilki sanga qoldi bu kun, bal bu dam.

Moziyu mustaqbalinga bo'yla hol,
Holinga ham necha xayoli mahol.

Holki bo'ldi sanga bir onu bas.
Anda ne g'amginlik etarsen havas.

Kelmaganu ketgani ermas hisob,
Holinga rahm aylavu chekma azob.

Qaysi nafas ayshg'a topsang mahal,
Angla g'animatki, erur bebadal.

Har nafasing javhari erur nafis,
Kim sanga ul bir nafas erur anis.

Javharini o'yla garonmoya bil,
Kim anga kun la'lini hamsoya bil.

Lek quyosh javharidin bu sharif,
Lutf ichida ul munga bo'lmay harif.

Jirmini oning ko'rub ahli jahon.
Ko'zga latofat muni aylab nihon.

Oning o'lub kelmagu ketmak ishi,
Buki o'tub gardiga yetmay kishi.

Kuydurub ul elni aningdekki xas,
El o'lubon bo'lmasa bu bir nafas.

Dema nafas, javhari zot ushbudur,
Javhari yo'q, obi hayot ushbudur.

Bo'ldi aning birla tirik borcha zot.
Ko'rma ajab gar desam obi hayot.

Balki ulus bo'lsa aning ogahi,
Ushbu nafasdur dami Ruhullahi.

Andin agar ruh topar erdi tan,
Ushbu nafas birla tirikdur badan.

Garchi ul anfosi Masiho durur,
Martaba andin munga a'lo durur.

Onsiz erur ruh bila borcha zot,
Munsiz emas kimsaga mumkin hayot.

Bas muni anfosi muqaddas degil,
Balki muqaddas dema, aqdas degil.

Bo'yla g'animat sangadur hamnafas,
Onsiz emasdur sanga bir dam nafas.

Ondin o'lub sayru saboting sening,
Sayru saboting ne, hayoting sening.

Sen ani ranju g'am ila o'tkarib,
Yuz alamu motam ila o'tkarib;

Berib anga g'afolat ila xorliq,
Hashv takallum bila murdorliq.

Fosid etib harza maqolot ila.
Zoyi' etib fikri maholot ila.

Bo'lma yana bo'yla muaddi anga,
Aylama bu zulmu taaddi anga.

Haq sanga lutf ayladi ul turfa hol,
Andin uyol, yo'q esa Haqdin uyol.

Kel, qo'yubon jah! xiradmand bo'l.
Bir nafasi mustamii pand bo'l.

Ko'r sanga Haqdin ne karamlar durur,
Ne qadar ehsonu niamlar durur.

Buki seni Xoliqi kavnu fasod,
Qilmadi hayvonu nabotu jamod.

Lutf bila ayladi inson seni,
Din yo'lida qildi musulmon seni.

Berdi ko'rar ko'zu eshitur qulog',
Aytur til, atrni anglar dimog'.

Andoq ilik dog'iki, tutg'ay taom.
Andoq ayoq dog'iki, qilg'ay xirom.

Yuz ne'mat qilmoq uchun shurbu akl,
Har birisiga yana bir ta'mu shakl.

Mujmal ila o'tdi qalam yodidin,
Ojiz uchun sharh ila ti'dodidin.

Qildi karam oncha mulavvan libos,
Kim adadin aql eta olmas qiyos,

Markablar qullavu homunnavard,
Vahm samandi kibi gardunnavard.

Bog'lari ul nav'ki xuldi barin,
Suvlari ul tavrki moi main.

Jilva bila har buti siminbari,
Ko'rguzub ul ravzada huru pari.

Qasr bo'lub charxdin a'lo anga,
Suvu yig'och kavsaru tubo anga.

Simu diram naqdi adaddin fuzun.
Dur bila gavhar dog'i haddin fuzun.

Bu hari in'omu ato bir taraf,
Javhari aql o'ldi yano bir taraf,
Kim bu sifat gavhari raxshandani,
Qaysi guhar, durri duraxshandani
Durji vujudingga nihon aylabon,
Durjni ul naqd ila kon aylabon.
Borcha jahondin qilib ashraf seni,
Ayladi rozig'a musharraf seni.
Topshurubon durri amonat sanga,
Qildi karam toji karomat sanga.
Muncha niam berdiyu qildi raqam,
Muniki: «Bishshukri tadumun-niam».
Har neki xoni niam ochib durur,
Shukri barining sanga vojib durur.
Shukriki oning hadu poyoni yo'q,
Kimsa ado aylamak imkoni yo'q.
Borchani qo'yduq muni-o'q aytu bas,
Kim bu nafaskim, sangadur hamnafas,
Kirmagi bir ne'mat erur mug'tanam,
O'ylaki kirmakligi chiqmog'i ham.
Biri erur quti hayoting sening.
Yana biri quvvati zoting sening.
Bu ikki ne'matki namudordur,
Har biriga shukr yeri bordur.
Mumkin emas jon agar etsang fido,
Ikki nafas shukrini qilmoq ado.
Anglay olursen hakam etsang tamiz,
Kim Haq etibdur nafasingni aziz.
Haq chu aziz ayladi, xor aylama,
G'ayri aning shukrig'a yor aylama.
Jon bila sen to nafas imkoni bor,
Qadrini bilgilki, nafascha ne bor.
Har nafasing holidin ogoh bo'l,
Balki anga hush ila hamroh bo'l.
Boshtin- ayog'ig'acha qil sarfi Haq,
Tengri sanga yor, o'qusang bu sabaq.

G'aflat agar bo'lsa bu ishdin dame,
Kim yo'q aningdek kishiga motame.

O'zni qilib g'ofilu oshuftahol,
Har negakim, aylagasen ishtig'ol.

Garchi anga manfaati bo'lmasun.
Jahd etkim, ma'siyati bo'lmasun.

Yaxshilik ar aylamasang ish chog'i,
Aylamagil bori yomonliq dog'i.

Bo'lmasa taryok ila joningg'a bahr.
Solmag'il achchig' bila jomingg'a zahr.

Anda qayu amrki dilkash durur.
Borchadin ahbob yuzi xush durur.

Asra o'zungni birovi ozoridin,
Kimsaga ozurdaliq izhoridin!

Elni o'zung jonibidin emin et,
O'zni tarab maskanida sokin et.

Qilma ulus irzu iyolig'a qasd,
Aylama el joniyu molig'a qasd.

Bir nafase qayg'udin ozod bo'l,
Yoru musohiblar ila shod bo'l.

Bog' aro ko'rsang guli navxosta,
Borcha uchun suhbat et orosta.

Charla muroot ila ashobni,
Inda takalluf bila ahbobni.

Jonni alar maqdamidin gulshan et,
Ko'zni alar chehrasidin ravshan et.

Bazl tariqini shior aylagil,
Har neki boringni nisor aylagil.

Joning agar kom esa ixvoninga,
Sarf etu qo'y minnatini joninga.

Jonni bu jam'iyat ila shod qil,
So'nggi parishonlig'idin yod qil.

Bu ish uchun chekti sipehri barin,
Har yangi oy hay'atidin tig'i kin.

Kim iki hamdamni qarini anglasa,
Vasl evida ayshguzin anglasa.

Qat' etib ul naxli barumandni,
Kesgay o'shul rishtai payvandni.

Birini hijron tarafi boshlag'ay,
Birini furqat tarafi toshlag'ay.

Charx ishi chun bu emish oqibat,
Aylar emish so'ngra bu ish oqibat.

Bas gul ila savsani ozod ham,
Norvanu sarv ila shamshod ham.

Kim bu chaman ichra xiromon erur,
Borchasi bir-biriga mehmon erur.

Har kishikim, bor esa yore anga,
Har kishikim, yor esa bore anga.

Kom bila vaslini aylab havas,
Topsa bu komig'a dame dastras.

Bo'yniga qonim meni yod etmasa,
Ruhum o'shul yod ila shod etmasa,

Bo'ldi esa vasl aro kome anga,
Istasa filjumla davome anga,

Haqqa tilin shukrguzor aylasun,
Shukr tariqini shior aylasun.

Shoyad o'shul shukr ila bir necha dam,
Urg'ay o'shul vasl aro bir necha dam.

Komini qilsun Haq aning bardavom,
Jonig'a bersun bu davom ichra kom.

LVII

*Chin marg'zorining mushkin g'izolining shershikortlig'i va majruh
saydlarining aning domig'a giriftortlig'i va sher panjasidin alarning
ajal tufrog'ig'a hamvorlig'i*

Bor edi Chin mulkida bir nozanin,
Ojiz aning naqshida naqqoshi Chin.

Orazi gulzori Xo'tandin misol.
Ko'zi bu gulzor aro mushkin g'izol.

Surati Chin chehrai anvar anga,
Mushki Xo'tan zulfi muanbar anga.

G'amzai bebokig'a jonlar asir,
Balki Xito mulkida xonlar asir.

Ching'a xatar g'amzasi tarroridin.
Ding'a xalal turrasi zunnoridin.

Ahli jahon husnining oluftasi,
Shohi zamon zulfining oshuftasi.

Bir nafase urmayin onsiz nafas,
Mumkin emas kimsaga jonsiz nafas

Gulrux etar erdi chu maydonga azm,
Qilmoq uchun go'y ila chavgong'a azm.

Hamrah o'la olmas uchun xon anga,
Qo'shmish edi necha nigahbon anga,

Kim kishi oning tarafi solsa ko'z,
Yoxud aning jonibidin desa so'z.

Arz qilib jurmini navvobi xos,
Hukm tariqi bila topqay qisos.

Kun emas erdiki, necha dardnok,
Bo'lmas edi ushbu balodin halok.

Bir kun aning ishvasidin oshiqe
Ishqu muhabbat yo'lida sodiqe.

Yillar aning hasratidin qon yutub,
Qon ne bo'lur, sog'ari hijron yutub.

Xas kibi bir go'sha aro erdi past.
Kim boshig'a sekretibon yetti mast.

Boda chu kuchluk edi, oshiq — zaif.
Chust yiqildi bo'la olmay harif.

Chektilar ul xayli muakkal ani.
Xon qoshig'a nechani, avval ani.

Ko'rdi chu xon necha asiri taab.
Hukmi siyosat bila qildi g'azab.

Kim: «Borisin yer bila hamvor eting,
Doy aro o'lturtungu devor eting.

Yuzlari bolchig'din o'lub toshqori,
Xalq ko'rub ibrat ila har sori.

El dog'i ul qahrdin olg'ay hisob,
O'lg'ay alar dog'i chekib ko'p azob».

Ahli jafu amrni chun bildilar,
Harneki hukm etti, ravon qildilar.

Tog' aro yoshundi chu zarrin g'izol,
Mushki Xo'tan sochti nasimi shamol.

Xonga magar dasht sori erdi bazm.
Otlanibon shahr to'shi qildi azm.

May boshida, ishq o'ti xud jonida,
Shahrning oshubi dog'i yonida.

Keldi yo'l ul yergakim ul doy edi,
Har sori yuz nola bila voy edi.

Anglag'ach ul ishni shahi kinavar,
Elni qo'yub, ayladi ul yon guzar,

Tokim alardinki, qazo qildi rust,
Bo'lg'usidur ishq tariqida chust.

Doy aro bir xaylni ko'rdi asir,
Har biri o'z holig'a tortib nafir;

Borcha nadomat bila afg'on chekih,
Emdiki afg'on tujanib, jon chekih.

G'ayri hamul oshiqi ozodavash,
Kim bo'lubon ishq balosig'a xush,

Za'fu sarig' yuz bila holi yomon,
O'ylaki devor orasida somon.

Tengriga har lahza sano aylabon,
Shukr tariqini ado aylabon.

Kim, bu nafaskim chiqadur jon manga,
Yor g'ami aylamish oson manga.

Umrig'a qolganda ikki-uch nafas,
Zikr etibon yor hadisiyu bas.

Tilida yor erdiyu so'zida yor,
Og'zida yor erdiyu, ko'zida yor.

Ko'rgach ani hokimi bedodgar,
Ko'ngliga ul ishq o'ti qildi asar.

Mahlakadin oni xalos ayladi,
Yor harimi aro xos ayladi.

Ishq balosi aro shukr etti ul,
Ko'r ne biyik martabag'a yetti ul.

Asra, Navoiy, bu nafas mug'tanam,
Lek degil har nafase shukr ham.

Soqiy, o'lubmen mayi rangin uchun,
May demakim, bir sanami Chin uchun;

Chini ayog'lar bila mast et meni,
Chin elidek bodaparast et meni.

LVIII

O'N TO'QQUZUNCHI MAQOLAT

Xurosonning adimul-misl kishvari bayonidakim, «Irama zotil-imodilati lam yuxlaq misluho fil-bilod» karimasi oyatidur aning sha'nida. Bataxisis Hirot dorus-saltanasining amnobodi tavsifidakim, «Va man daxalahu kona ominan» mazmuni hadisi durur, aning ta'rifida Va garchi hadiqaye erdi, ammo qurub erdi va lekin shoh jo'ybori adli ani rashki xuldi harin qildi va agarchi ma'mura erdi, ammo buzulub erdi va lekin shahanshoh ehsoni me'moridin g'ayrati nigorxonai Chin bo'ldi

Xoliqi ashyoki, jahon ayladi,
Charxni paydovu nihon ayladi.

Yetti falakniki, qilib mustadir,
Har biri bir sham' ila bo'ldi munir.

Oltisi gar sham'i duraxshandadur,
Lek biri mash'ali raxshandadur.

Uch quyi, uch yuqori qildi shitob,
Mash'ala to'rtunch uy aro soldi tob

Sham' qayu sham'ki, fikrat tuni,
Har biri bir mash'alaning uchquni.

Mash'ala yo'qkim, duri tobon degil,
Dur demagil, mehri duraxshon degil.

Ko'k yeti iqlimida sulton ham ul,
Balki alar borcha tanu jon ham ul.

Chun solib o'rtanchi falak uzra nur,
Ravshan etib nuktai "Xayrul-umur".

O'ylaki kavkab yeti taqsim erur,
Bilki jahon ham yeti iqlim erur.

Har birisiga biridin taqviyat,
Har biri birdan topibon tarbiyat.

Mehr chu ul oltig'a foyiq durur,
Andag'i iqlim anga loyiq durur.

Ko'zga kavokib bo'la olg'aymu fosh,
Andaki fosh aylasa nurin quyosh.

To'rtunchi charxki ma'vosidur,
Ham o'shul iqlim murabbosidur.

Yerda bu iqlim erur dilpazir,
Ko'kta quyosh toramidek benazir.

Bo'ldi chu mavzu' masohat fani,
Dedilar iqlimi chahorum ani.

Ziynat aro ravzai rizvondur ul,
Ravzani qo'y, mulki Xurosondur ul.

Sohati to'rtunchi falakdin vasi',
Rutbasi yettinchi samodin rafi'.

Xittasida shahr adaddin fuzun,
Har birining ziynati haddin fuzun.

Shahrlari lutf ila xuldi barin,
Xo'blar ul xuld ichida huri iyn.

Tog'lari ollinda falak soda dasht,
Borchag'a ko'k qullasidin sarguzasht.

Har birining javfida yuz turfa kon,
Konin etib turfa javohir makon.

Chashmasidin bo'lmadi zohir suyi,
Kondin oqib, balki javohir suyi.

Dashtlari sath ila oyina rang,
Sabza ul oyinag'a har sori zang.

Sabzasidin gulshani minog'a rashk,
Tufrog'idin anbari sorog'a rashk.

Yetti falak naqdig'a ganjina ul,
Yetti aqolim tanu siyna — ul.

Anga jahon ko'ksi kelibdur sifot,
Anda ko'ngul xittai poki Hirot.

Kimki ko'ngul vasfida burhon dedi,
Oni badan mulkiga sulton dedi.

Muni ham ulkim o'zin ogoh der,
Borcha jahon kishvarig'a shoh der.

Ne ajab o'lsa ko'ngul o'rnig'a shoh,
Chunki erur shoh yeri qalbgoh.

Bo'ldi ko'ngul o'rnida bo'lmoq ishi,
Kim ko'ngul andin uza olmas kishi.

Xo'b esa ne ayb ko'ngullarga ul,
Bir-biridin keldi ko'ngullarga yo'l.

Ziynati andoqki, badan paykari,
Vus'ati andoqki, ko'ngul kishvari.

Aytma kishvar, deki bog'i Eram,
Dema Eram, aytki Baytul-haram.

Davrasi ul nav'ki payki xayol,
Yuz yil aning davrini kezmak mahol.

Charxi nigun sathini hanjor etib,
Muhrai xurshed ila hamvor etib.

Tufrog'ini mushksirisht aylabon,
Hay'atini rashki bihisht aylabon.

Qo'rg'onining paykari andoq hasin,
Kim uyotib qal'ai charxi barin.

Davrida har burjig'a andoq uruj,
Kim qolibon ostida «Zotil-buruj».

Arki biyikrak to'quz aflokdin,
O'ylaki gardun kurai xokdin.

Kungurida mehr kibi toblar,
Borcha malak xaylig'a mehroblar.

Lavhasi ziynat bila koshinavard,
Koshi anga yuz falaki lojuvard.

Pili falak kirgucha darvozasi,
Toqi samo toqining andozasi.

Yer tubiga xandaqi andoq kirib,
Kim ani yer muhrasidin oyirib.

Qal'asida hisn falakdek ulu,
Shahrida anjum sipahidek g'ulu.

To'rt taraf jadvali bozor anga,
Kirgan ulus borcha xaridor anga.

Harne xaridor gumon aylabon,
Sotg'uchi yuz oncha ayon aylabon.

Qiymati ajnos bila har do'kon.
Xoli etib havsalai bahru kon.

Raxtki bazzoz terib rang-rang,
Atlasi aflok kibi tang-tang.

Huqqai gavhar bila har javhari,
Charx ila zohir qilibon axtare.

Kirsa chiqar yo'l topa olmay ko'ngul,
Sayrida savdoyi bo'lub aqli kul.

Masjidi Jomi' yana bir olame,
Toqi yana bir falaki a'zame.

Shahr jahon, anda bu ham bir jahon,
Ikki jahon bir-biri ichra nihon.

Charx uza zina aning minbari,
Poyasi ul yergachakim Mushtari.

Oy kecha qandili jahontob anga,
Qavsi quzah hay'ati mehrob anga.

Shahri aro bo'yla bino behisob,
Qal'asining toshida xud ne hisob.

Har necha ko'z tushgucha devorbast,
Barchada ma'muraye elga nishast.

Topg'ali ta'yini mahallot bahr,
Ahli mahallot oyirib shahr-shahr.

Shahrlar otini mahallot etib,
Bo'ldi chu yuz shahr Hiri ot etib.

Alloh-Alloh, ne Hiri, bu Hiri.
Bir-biridin turfa aning har biri.

Ikki savobit falakidin nishon,
Ikki xiyoboni iki Kahkashon.

Oncha xavoniq bori ma'mur anga,
Kim topa olmay kishi maqdur anga.

Har ulashur noni aning qursi mehr,
Olg'on ani soyili qadxam sipehr.

G'ulg'ulai zikr falakdin o'tub,
Qaysi falak, xayli malakdin o'tub.

Madrasalar har birisi arjumand,
Poyada ko'k madrasasidek baland.

Tarhda sun' ilgi muhandislari,
Ruhi qudus fayzi mudarrislari.

Foidag'a ahli chu ochib varaq,
Garchi Utorid esa aytib sabaq.

Toqlari rif'atig'a yo'q hadi,
O'ylaki ko'k gunbadidek gunbadi.

Gunbadi koshisida kun aksi fosh,
O'ylaki ko'k gunbadi ichra quyosh.

Har sori guldastasi andoq baland,
Kim etibon fikrida guldastaband.

Xayli malak qubbasining zoyiri,
O'ylaki sarv uzra chaman toyiri.

Qubba bo'lub Arshi muqaddas anga,
Bir qafasa charxi muqarnas anga.

Hay'ati maxruti ila mustatil,
Arsh sutuni bo'luridin dalil.

Mili bila mahchasi tortib alam,
Zohir etib nuktai Lavhu Qalam.

Mu'zini har tun quyi sham'in tutub,
Sham'i kavokibni falak yorutub.

Charx mururi bila ta'jilidin,
Mintaqa xatti sizilib milidin.

Har sori bir masjidi oliy asos,
Zinatini aql eta olmay qiyos.

Rif'at anga charxi muallo kibi,
Charx dema, Masjidi Aqso kibi.

Foxta qandilida xilvatnishin,
Arshda ul nav'ki Ruhul-amin.

Jam' ichida taqviyu toat eli,
Balki malak xayli jamoat eli.

Besh navbat g'ulg'ulakim, yo'q hadi,
G'ulg'ula yo'q, dabdabai Ahmadi.

Bog'lari har biri jannat misol,
Ravzag'a har go'shasidin go'shmol.

G'ayri mukarrar bori sarmanzili,
Ayshu tarab manzili har manzili:

Borcha chamanlar gulu gulzorliq,
Har chamani yo'li girihkorliq.

Har girihida gulu gulshan dog'i,
Yo'qki musaddaski, musamman dog'i.

Gullari nav'ini ne dey oncha gul,
Oncha ne gulkim, sanay olg'oncha gul.

Naxlini dehqonki barumand etib,
Shoxiga yuz mevani payvand etib.

Bir shajaru yuz gul ila shevasi,
Turfaki yuz nav bo'lub mevasi.

Sahnida yuz gul chiqorib bir yig'och,
Har gulining atri borib bir yig'och.

Qushlari yuz nav' xush ilhon bori,
Sabzau gul uzra xiromon bori.

Suv tarabangez chekib g'ulg'ula,
O'ylaki ishrat nafasi bulbula.

Ayshg'a targ'ib kelib ul nido,
Bog' dimog'in taratib ul sado.

Qasrlari borcha rafi u matin,
Kilk ushotib naqshida naqqoshi Chin.

Ziynat aro o'ylaki chini parand,
Naqshida naqqoshi qazo naqshband.

Toqig'a ko'k poyasidin nardbon,
Kunguri davrida Zuhul posbon.

Haddi janubisida bir turfa rud,
Rud nekim, lujjai charxi kabud.

Charx demaykim, yuzida har hubob,
Gunbadi firuzadin olmay hisob.

Haddi shimoliysi sori ikki nahr,
Ul ikidin xurramu serob shahr.

Ikkisida ta'mi zuloli hayot,
Ravzadag'i to'rtga andin uyot.

Xizr suyidek anga ravshan zulol,
Nutqi Masih onda nasimi shamol.

Xittasig'a o'yla muazzam savod,
Kim anga har go'sha bir a'zam savod.

Misru Samarqand ne monand anga,
Zimnida yuz Misru Samarqand anga.

Kim ani Haq asrasun ofotdin,
Emin etib borcha baliyotdin.

Mundoq emas erdiyu ermas shake,
Muncha nekim ermas edi dahyaki.

Muncha sharaf topti shah insofidin,
Ulki xirad lol erur avsofidin.

Xusravi g'ozu shahi ravshan ravon,
Adlig'a shogird Anushirvon.

Ayladi shogirdligin chun havas,
Yuz ishidin bildi bir ishniyu bas.

Adl tariqig'a qo'yub gomni,
Adl ila o'rganmadi islomni.

Yo'q buki yuz qoidai dilpazir,
Saltanat amrida bari noguzir.

Qoldiyu ul adl ila topti hayot,
Qo'ydi qiyomatg'a degin yaxshi ot.

Buki erur adlg'a andin baland,
Dindog'i yuz qoidai dilpisand.

Qolsa tong ermas bani Odam aro,
Oti yuz oncha bori olam aro.

To bani Odam ila olam erur,
Olam ichinda bani Odam erur,

Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.

Hukmung aro olamu odam dog'i,
Yo'qki bu ikki yana olam dog'i.

LIX

*Bahromning may mastlig'idin baxti ko'zi uyqu mayli qilib,
mamlakati binosi ul seldin yiqilg'oni va mazlumlarni faryodidini
uyg'onib tadorukin qilg'oni*

Qo'ydi jahon mulkini chun Yazdi Jird,
Ayladi Bahrom tana'umni vird.

Bodai g'aflat ani mast ayladi,
Mast nekim, hodaparast ayladi.

Shah chu bo'lur boda ichib masti xob,
Mastlar-o'q mulkin etarlar xarob,

Xasta ko'ngul ovlomog' etmay havas,
Sheva anga dashtda ov erdi bas.

Boda ichib, qilg'uchilar sho'ru shar,
Ayladilar mulkini zeru zabar.

Ov aro bir kun oziqib begumon.
Bo'ldi birov chotmasig'a mehmon.

Chotma dema, hajr qaro shomi de,
Zulmu taab qushlarining domi de,

Oshiqlar ko'ngli uyidek yiqug'.
Tirlari har tarafidin chiqug'.

Zulm o'qi teshganlari ma'lum anga,
Bosh sig'urub bir necha mazlum anga.

Borcha yalang — hodisa torojidin,
Borcha nigun zulm iligi kojidin.

Bir quruq etmak bila suv kelturub,
Ev eyasi boshladi xizmat turub.

Shoh chu ahvolini qildi savol,
Dedi: «Budurkim ko'rasen borcha hol».

Shah dedi: «Bu foqau ajzu niyoz
Nedin erur, rost degil borcha roz?»

Dedi: «Burun yaxshi edi holimiz,
Zulm xarob ayladi ahvolimiz.

Shoh ulus holidin ogoh emas,
Juz mayu mutrib anga dilxoh emas.

Xayli ochibon tama' og'zini keng,
Ayladilar mulkni yer bila teng».

Shah ko'ziga o'truda koshonaye,
Uchradiyu har evi vayronaye.

Dedi: «Bu vayron ne edi burna chog'?»
Dedi: «Saroy erdiyu davrinda bog'».

Eski daraxtu guli navxez anga,
Ikki tegirmon suyi korez anga.

Daxlu ziroat bila ul turfa nahr,
Mazraani kent qilib, balki shahr.

Qolmadi korez ishi qilmoqqa zo'r,
Charx anga ko'z tegurub, bo'ldi ko'r.

Chun qurudi suv, qurudi bog' ham,
Qolmadi gul, gul neki, yafrog' ham.

Ev suvamog'ning kuchi ham qolmadi,
Balki bu ish qilg'uchi ham qolmadi.

Bog'u saro borcha bo'lub yerga tuz,
Zulmu tama' bo'ldi, vale birga yuz.

Hodisa toroji yetib molg'a,
Qolduq o'kush ajz ila bu holg'a».

Shah bilib ul pardada bu toru pud,
Jonig'a o't tushdiyu boshig'a dud.

G'am qilichi bag'rin etib chok-chok,
Yøqin edi g'ussadin o'lg'ay halok.

G'aflati usrukligidin uyg'onib,
Joni xumor o'ti bila o'rtonib.

Sovudi ko'ngliga bori ayshu lahv,
Bildi erur harne qilur borcha sahv.

Zulm eliga fikri zavol ayladi,
Ko'nglida ko'p adl xayol ayladi.

Haq bila chun qildi bu niyat durust,
Kim tilabon mujda birov yetti chust.

Dediki, korezni aylab shikof,
Chiqdi suv hayvon suvidek poku sof.

Ev egasi tengrig'a aylab niyoz,
Dedi: «Hamonoki shahi ayshsoz,

Zulm qo'yub, adl durur niyati,
Kim bu asar ayladi xosiyati».

Shahg'a bu so'zdin dog'i tanbih o'lub,
Qildi g'ani ul kishi uzrin qo'lub.

Otlanibon mulkida dod ayladi,
Borcha g'amin xalqni shod ayladi.

Adl aning ko'ngliga qilg'ach guzar,
Kishvariga qildi hamul dam asar.

Xusravi G'oziki, emastur dame,
Kim yemagay, mulku raiyat g'ami.



Sulton Sanjar va kampir.

Mulki ne tong, gar erur obod aning,
Xalqi ne hayrat, gar erur shod aning.

To abad o'lsun bori komi ravo,
Xasta Navoiyg'a ham andin navo.

Soqiy, olib kel qadahi dilpisand,
Tut manga, deb shoh duosin baland.

Jonki chekar zulm, dame shod etay,
Tan uyin ul suv bila obod etay.

LX

YIGIRMANCHI MAQOLAT

*Ul maqsud adosidakim, agarchi bu latoyif majmuasi safinaye durur,
zaroyif tuhafidin mashhun va bu zaroyif safinasi junge durur favoidi
laolisi anda gunogun. Va lekin chun tab' daryosidin avval sohilg'a
kelgan nafaos durur va zihn shabistonidin avval jilvai zuhur qilg'on
aroyis, bu jihatdin Sulton Badiuzzamon bahodir doma hayotuhu
ayoqig'akim, saltanat bog'chasining avvalg'i vardi va xilofat chamani-
ning burun qad chekkan sarvi nozparvardi durur, nisor qilildi va aqd
izdivojig'a tortildikim, bu nasoyih ko'nglida qolg'ay va bu javohirni
qulog'ig'a olg'ay*

Olam aro harne huvaydo durur,
Siri aning zimnida paydo durur.

Qayda zuhur aylasa mohiyati,
Muzmar erur zotida xosiyati.

Keldi quyosh xosiyati nuru tob,
Bo'ldi bulut nutfasi durri'xushob.

Kong'a erur gavhari yakto xalaf,
Bahrg'a ham anbari soro xalaf.

Bu xalaf insong'a ham inson erur,
Shahg'a shahu, xong'a dog'i xon erur.

Kon kibi ko'rgan shahi ozodani,
Ko'rdik aning gavhari shahzodani.

Garchi bu kon ichra duri shohvor,
Xayli erurkim, borisin kirdigor

Poya aro sohibi toj aylasun,
Mehrvashu charxduvoj aylasun.

Ulki vale gavhari yakto durur,
Borchasidin poyada a'lo durur.

Bilki erur moyai amnu amon,
Xusravi Jamqadr Badiuzzamon.

Zoti nazohatda maloik sifot,
Pok sifoti bila yo'q hech zot.

Zoti bashar, lek sifoti malak,
Balki sifoti bila zoti malak.

Mahzi latofatdin o'lub xilqati,
Xalqi jahon ahlig'a Haq rahmati.

Ey kelibon nutq ila vafing mahol,
Notiqqa vafingda bo'lub gungu lol.

Ulcha sening hilmu viqoring durur,
Men kibi el midhati oring durur.

Mehrki el vasfidin o'tmish ishi,
Nurin aning ne o'ka olg'ay kishi.

Obi hayot elga demak jon berur,
Bu so'z anga bori ne ta'rif erur.

Oyni yorug', charxni demak baland
Tab'i baland elga emas dilpisand.

Madh ila chun mumkin emas midhating,
O'zga jihatdin qilayin xizimating.

Voqif erursenki, shahi komgor,
Kim anga ko'p maxfi erur oshkor.

Dahr nekim tongla huvaydo qilur.
Roi bu kun fikr ila paydo qilur.

Tongla yo'q, indin bo'lur ish daftarin,
Bir-bir o'qubtur uzog'u kun barin.

G'ayb xayolotida yuz ming suvar,
Xotira ko'zgusidadur jilvagar.

Muncha kamolot ila hukm aylamish,
Kim neki ko'nglungga kelur yaxshi ish

Kelgilu ollimda sarosar degil,
Bo'lmasa masmu', mukarrar degil.

Shahg'a so'zumdin bor esa e'tibor,
Gar sanga ham pand desam yeri bor.

Bil munikim, umr vafosiz durur,
Davlat ila joh baqosiz durur

Tushdek erur dahrda nokomu kom,
Ko'z yumub ochquncha o'tubdur tamom.

Dahr binosini xarob anglag'il,
Ne ko'runur anda sarob anglag'il.

Jumla jahon foniyi mutlaq durur,
Boqiyi mutlaq tilasang Haq durur.

Jism uyining tarhini solg'uchi ul,
Ruh anga berguchiyu olg'uchi ul.

Olam aro toki tirikdur kishi,
Haq bila bo'lmoq erur ansab ishi.

Bo'lmasa Haq yodidin ogohliq,
Bilki gadolikcha emas shohliq.

Bo'lsa gado Tengridin ogahlig'i,
Bordur anga ikki jahon shahlig'i.

Harneki bu safhada tahrir erur,
Roqim anga xomai taqdir erur.

Ollinga kelsa tilamas ish base,
Haqdin erur, aylama nolish base.

Yetsa zafar bilma ilik kuchidin,
Bil zafaru fathni berguchidin.

Shahlig'inga aylamagil e'tibor,
Haq g'azabu lutfig'a qil e'tibor.

Ko'rki ne bir lahzada bo'ldi qatil.
Tayri abobil ila "Ashobi fil".

Qildi adam manzili koshonasi,
Har birisin birgina qush donasi.

Yo ne sifat tortti Zahhok ranj:
Tengri nasib etti Faridung'a ganj.

Qahridin ar sheri jayon ko'rdi bim,
Uzdi boshin uy suti ichgan yatim.

Xaylingakim, sendin emas jismu ruh,
Aql ila imon eshigidin futuh.

Haqdin erur bu niami bul'ajab,
Rizqlarig'a seni qildi sabab.

Etti sababliqqa seni baxtiyor,
Qismat etarga sanga ne ixtiyor?

Mundoq ila bu necha nodon sanga,
Bo'lmasalar bandai farmon sanga.

O'ylaki qonuni rayosat durur,
Borchasiga bimi siyosat durur.

Sangaki Haq lutf etibon toju taxt,
Qildi karomat o'kush iqbolu baxt.

Hukmunga olamni zabun ayladi,
El qadin amringg'a nigun ayladi.

Muncha karam shukrini gar bilmasang,
Harneki amr etti ado qilmasang,

Zohir etib g'aflatu mag'rurluq,
Aylamasang amrig'a ma'murluq.

Qahr yeri bormu, yo yo'q degil.
Men ani deguncha, o'zung-o'q degil.

Yetsa g'azab tund yeli netgasen,
Mulk aning mulki, qayon ketgasen?

Aylar esang fisq ila isyon anga.
Ayla agar bor esa pinhon anga.

Xalqdin ul ishda xijolat durur.
Xoliq agar ko'rsa ne holat durur?

Ishdagi eldin sanga bor infiol,
Tengriga zohir esa, bo'lg'ay ne hol?

Istar esang maqsadi aslig'a yuz,
Jodai shar'i Muhammadni tuz.

Shahki, najot uyiga istar panoh,
Ushbu yo'l ul uyga erur shohroh.

Egri kelur xatti chiqarg'och qalam,
Satr yo'li jodasidin qadam.

Shar' tariqini shior aylagil,
Adl ila mulkunga mador aylagil.

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuv mulkni obod etar.

Kofiri odil ani obod etib,
Mo'mini zolim ani barbod etib.

Shahki, erur adl ila davron anga,
Bo'ldi sirot o'tmagi oson anga.

Kim yurumak ip uza kom ayladi,
Adli chu tuz bo'ldi xirom ayladi.

Koming uchun tuz bo'lu adl ayla ish,
O'qda agar adl yo'q, etmas ravish.

Adlki uch harf ila maqrun erur,
Har biriga o'zgacha mazmun erur:

«Ayn»i aning mehre erur tobnok,
Zulm qaro shomini qilmoqqa pok.

«Dol»i dag'i davlatu din tojidur,
Din bila davlat eli muhtojdur.

Hurg'a gisu quyig'i «lom»i bil,
Izzu sharaf qushlarining domi bil.

Tojni kiy, mehr ila ko'zni yorut,
So'ngg'i matin hablni ilgingga tut.

Har necha mazlum so'zi topsa tul,
Tuli hayot istasang, o'lma malul.

Zulm o'tidin qilsa fig'on dodxoh,
Soyai adling aro bergil panoh.

Qo'ymag'il ul soyada qayg'u anga,
Sham' tubin qilma qarong'u anga.

Emdiki, mazlum so'zi chiqti tuz,
Zolim agar nafsing erur, ko'rma yuz,

Nafskim, ul ayshi mudom istagay,
Sanga gunah, o'ziga kom istagay.

Ganj uza istarki, yilon topsa bahr,
Andin emas bahra, vale g'ayri zahr.

Chekma aning komini istab azob,
Tavba bila qilg'il anga ehtisob.

Necha ulug' ersa gunah xirmani,
Yelga berur ohi nadomat ani.

Jurm o'tikim, shu'lasi payvast erur,
Uzr sirishki suyidin past erur.

Lutfu karam garchi erur dilpazir,
Qahru siyosat ham erur noguzir.

Har kishi olam elida xo'b emas,
Har kishining har ishi marg'ub emas.

Yaxshi-yomonga chu teng o'ldi karam,
Bo'ldi yomong'a ko'pu yaxshig'a kam.

Lutf nasimin tarabangez qil,
Tig'i siyosatni dog'i tez qil.

Necha marazg'a gar erur sud qand,
Nechaga ham zahr erur sudmand.

Maddakim, bermasa marham kushod,
Nishtar-o'q aylar anga daf'i fasod.

Bormoq uchi birla chu chiqmas tikan,
Igna bila qutulur andin badan.

Bo'lsa kerak fikr ila shohi zamon,
Yaxshig'a yaxshiyu yomong'a yomon.

Ikkisidin bir kibi olsa hisob,
Mamlakati ichra tushar inqilob.

Kimsani bot aylamagil arjumand,
Ham yana oz ish ila qilma najand.

Mil uza chiqmoq angakim voyadur,
Chiqmaqu tushmaklik uchun poyadur.

Poyadin ortuq kishi ura qadam,
Bimi yiqilmoqduru ranju alam.

Tifl hijo bilmay o'qur chun savod,
Qil o'qurin zeru-zabar e'tiqod.

Kimniki, inson desang, inson emas,
Shaklda bir, fe'lda yakson emas.

Naxlsifat sham' ila muz shushasi,
Munung o't, oning suv erur xo'shasi.

Kimniki, aylay der esang mahraming,
Ko'p sinamay aylamagil hamdaming,

G'aflat aro xush ko'rubon xush dema,
Voqif o'lub so'ngra pushaymon yema.

Tushta ne hureki parison erur,
Uyg'og' etar fahmki, shayton erur.

Oz ish uchun tund itob aylama,
Qatlu siyosatda shitob aylama.

Bok yo'q, ar kechrak o'lur qatl ishi,
O'lsa, so'zung birla tirilmas kishi.

Suvda hubob o'lsa damingdin xarob,
Mumkin erurmu yasamog'liq hubob?

Yaxshi emas afv siyosat chog'i,
Lek kerak ishda farosat dog'i.

Garchi guvoh ayladi sobit gunoh,
Ozmu o'tar shar'da yolg'on guvoh?

Har kishiningkim, so'zi yolg'on esa,
Aylama bovar, nechakim chin desa,

Qasd ila yolg'on demadi rostgo'y,
Chin demadi sa'y ila kazzobxo'y.

Tun bila to subh muvofiq durur,
Avvali kozib, so'ngg'i sodiq durur.

Tutma tuzub kinu adovat fani,
O'zga kishi jurmi bila o'zgani.

Roi esang tut bu nafas yaxshi pos,
Har qo'yni o'z ayog'i birla os.

Royinga har amriki, keldi savob
Mashvarasiz etma qilurg'a shitob.

Zavq esa tab'ingg'a salohi bila,
El so'zi zimnida fasodin tila.

Aylama o'z rayingga ko'p e'tiqod,
Mu'tamad el rayidin ista kushod.

Shahki, ra'yini ko'p etti pisand,
Ra'y ko'rar el tiliga soldi band.

Garchi tavakkulsiz erur azm sust,
Mashvarasiz qilma tavakkul durust.

Bo'lma malul o'lsa kengashda talosh,
Asru uzun dog'i kerakmas kengosh.

Aylar ishingga chu bo'lur dastras,
Vaqtidin o'tkarma oni bir nafas.

Gulga sahar vaqti berur jilva bog',
Kechga yetushsa terar o'g'lon-ushog'.

O'z ishingga har necha ko'p bo'lsa mayl,
Tengri ishiga ani qilg'il tufayl.

Nosihni sodiqki, erur beg'araz,
Bil anga olamda topilmas evaz,

Qilsa g'alat rifq ila qilg'il davo,
Tengrigadurkim, g'alat ermas ravo.

Ish kuni qo'yg'onda aduv sori yuz,
To'ra bila burna yasolingni tuz.

Hamla ketur razmda taqsirsiz,
Bilki kishi o'lmadi taqdirsiz.

Shomi ajal uyida yotmas kishi,
Umr kuni go'rga botmas kishi.

Ikki qadam yong'ucha yetgach alam,
Sa'y qilu ilgari qo'y bir qadam.

Nechaki Haq lutfidin o'ldi zafar,
Say'ni ham bil sababi mu'tabar.

O'yla maosh aylaki, cheksang sipoh,
Xalq duosi sanga bo'lg'ay panoh.

Jahd etkim, urmasun o'lg'och nabard,
Oh yeli ko'zungga nogoh gard.

Qilmadi ming dushmani kinxoh o'qi
Ul yarakim, ayladi bir oh o'qi.

G'olib esang razmda begonag'a.
Qatlg'a sa'y etma bu shukronag'a.

Harneki bu nomada mastur erur,
Borchag'a shoh ishlari dastur erur.

Ishda agar shahg'a shabih o'lg'asen,
«Al-valadu sirru abih» o'lg'asen.

Ko'rmagasen yo'l aro ranju nadam.
Har qadame o'rniga qo'ysang qadam.

Zoda murid u otani pir bil,
Har ishida hukmig'a ta'sir bil.

Bo'lma bu pir ollida taqsirliq,
Istar esang davlat ila pirlig.

LXI

*Xoja Muhammad Porsodin haj ahli duo istid'o qilmoq va o'g'li
Xoja Abu Nasr aning istid'osi bila duo qilmoq*

Haq yo'lida xojai qudsiy janob,
Roqimi «Qudsiya»u «Fasl ul-xitob».

Na'li izi gunbadi davvorso,
Ulki laqab keldi anga Porso.

Garchi o'zi nodirai asr edi,
O'g'li aning Xoja Abu Nasr edi.

Faqrdan ul bir shahi ozodaxo',
Ul shahi ozodau shahzoda — bu.

Xojag'a chun Makka sori bo'ldi azm,
Xoja Abu Nasr dog'i bo'ldi jazm.

Aylab ato soliki atvorliq,
O'g'li qilib mahrami asrorliq.

Ulki qo'yub bodiyada har qadam,
Bu ham etib po'ya qadam bar qadam.

Chun necha kun bodiya qat' ettilar,
Manzili maqsadlarig'a yettilar.

Xalq haj arkonini aylab tamom,
Topibon ul tavrif ila oliy maqom.

Yaxshi-yomon murshidu solik dog'i,
Yo'q kishi o'rnig'a maloik dog'i.

Istadilar foniyu boqiy janob,
Har tilagi Haq qoshida mustajob.

Xalq niyozini ado qilg'oli,
Borcha xaloyiqni duo qilg'oli,

Muncha ulus ichraki ko'z tiktilar,
Xoja sori borcha raqam chektilar.

Chunki bu ish Xojag'a topti vuqu',
Xoja Abu Nasrg'a qildi ruju'.

Ayttikim, ul manga foyiq durur,
Bo'yla baland ish anga loyiq durur.

Kimsaki yo'q rahbari bu yo'l aro,
Mumkin erur ozmog'i har qo'l aro.

Yo'q edi bu yo'lda manga rahnamoy,
Tengri meni qildi anga rahnamoy.

Bo'ldi mening ishim anga parvarish,
Parvarishimdin anga ish qilmoq ish.

Yo'l itari meni haroson qilib,
Yo'lni harosim anga oson qilib.

Menda xavotirdin o'lub yuz futur,
Anda suluk ichra shuhudu huzur.

O'zum uchun, oning uchun menda g'am,
Ul gum etib Haqda o'zin, meni ham.

Bo'yla debon qildi ishorat anga,
Uzrg'a ne haddi iborat anga.

Ochti ilik ashk to'kub sham'vor,
Yo ichi kuyganda nechukkim chanor.

Rahmatu afv istamak oyin etib,
Xoja turub yig'labon omin etib,

So'ngg'i duo bu edikim, yo Iloh,
Dermen uyotdin sanga aylab panoh.

Bilmas esam men tilak oyinini
Aylama zoyi aning ominini.

Sa'y etibon o'yla atodek kishi,
Yetti bu g'ayratg'a o'g'ulning ishi.

Yo Rab, ul ominu duo hurmati,
Yo ul o'g'ul birla ato hurmati,

Kim bu ato birla o'g'ulni mudom,
Davlatu din taxtida tut mustadom.

O'zga o'g'ullarni ham et muhtaram.
Anga o'g'ul, munga inilarni ham.

Jumlai olamg'a alar ixtiyor,
Olam eli ichra shahu shahriyor.

Shoh duosida tugondi kalom,
Emdi Navoiyg'a erur boda kom.

Soqiy, olib kel qadahi bodaye
Shah tutsun, yo ani shahzodaye.

To bo'layin mast sabohu maso,
Necha riyo birla bo'lay porso.

LXII

*Bu faqr kulbasini ajzu inkisor tufroqlarin chehra churuk somoni
uza peshoni araqin oqizmoq bila kahgil etib, yuz ohu so'z bila
suvamoqning itmomi va bu fano xirqasini za'fu iftiqor yamoqlarin
kirpik sinuq ignasiga ashk uzuk torin toqib, yuz darzdo'zliq bila
yamamoqning ixtitomi va ul me'morliq xijolatidin uzr hujrasig'a*

*yuz urmoq va bu xayyotliq uzridin xijolat yoqasig'a bosh yashur-
moq va Haq ma'murai ehsonidin maskani afv tilamak va xazonai
lutfidin xil'ati baxshish istamak*

Chun meni shaydovashi oshufta hol,
Bo'yla tamannog'a singurdum xayol,

Kim necha kun ranji nihoni chekay,
Obi hayot istayu jone chekay.

Noma uchun xoma tarosh ayladim,
Xoma uchun noma xarosh ayladim.

Safha uza kilkim o'lub naqshband,
Nay unidek chekti saririn baland.

O'ylaki nay nag'mada chekkay safir,
Andin oshurdi nayi kilkim sarir.

Nay unin andoqki, qilib istimo',
Zumrai so'fi aro tushgay samo'.

Bu nay uni savmaai xok aro,
Balki to'quz gunbadi aflok aro,

Soldi bashar xaylida g'avg'o base,
Xayli malak ichra alolo base.

Ham bashar eshitgach o'lub dardnok,
Dard ila aylab yoqasin chok-chok.

Ham uchubon xayli malakdin hayot,
Zaxm yegan qush kibi solib qanot.

Savtidin ar noxush, agar xo'b edi,
Mulku malak ahlig'a oshub edi.

Emdiki bu gulruxi zebo uzor,
Topti xatu xol ila naqshu nigor.

Qildi chu mashshotai charx ehtimom,
Bo'ldi iki haftaliq oydek tamom.

Partavidin chun yorudi mashriqayn,
Tushti yana yer-ko'k aro sho'ru shayn.

Charx dabirig'a usholib qalam,
Mehbaraning keyniga solib qalam.

Xozini gardun yetibon qoshima,
Mehr bila evrulubon boshima.

Sochig' uchun kelturubon jon bila,
Anjumi naqdini to'quz xon bila.

Xayli malak uzra diram sochibon,
Durru guhar naqdini ham sochibon.

Hurmatima gard kibi yer qo'pub,
Boshima aylanib ayog'im o'pub.

Ollima yuz ganj qator aylabon,
Borin ayog'img'a nisor aylabon,

Boshim uza la'l sochib konidin,
Dur to'kubon olima ummonidin.

Men mutafakkir bu tahayyur aro,
Bal mutahayyir bu tafakkur aro,

Kim bu varaqlarniki, xomam mening
Qildi qaro o'ylaki nomam mening,

Bu qadar e'zozga qilmas gari,
Balki emas, xo'rdida mingdin biri.

Ham yomon ermas, vale muncha emas,
Yaxshi durur, vasf deguncha emas.

Ma'ni agar xo'b esa, tarkibi yo'q,
Surati dilkash esa, tartibi yo'q.

Ayturig'a chunki qo'yuldi ko'ngul,
Aytmay o'n bayt tutuldi ko'ngul,

Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,
Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim.

Ul chog'dinkim, varaqi osmon,
Dudag'a zirnix qilur shustmon.

Subh etar har sori yog'du bila,
Tun qorasin pok supurgu bila.

Tun yoshurur shuqqai anbarvashin,
Subh chiqorur alami zarkashin,

Rost o'shul choqqachakim, bu alam
O'zin etar sanjaqi mulki adam.

Qilmoq uchun tira shafaq harfini
Shom qo'shar dudag'a shingarfini.

Charx qilur zohir etib kavkabin,
Durg'a mukallal qora chodarshabin.

Menda bu mobayn erur zorliq,
Xalq jafosig'a giriftorliq.

Bir dam ulus mehnatidin kom yo'q,
Bir nafas el javridin orom yo'q.

Kelguchi bu xasta g'amobodig'a,
Ketmagi xud kelmay aning yodig'a,

Bir suruk albatta ko'rub ketmayin.
Toki burun ikki suruk yetmayin,

O't solibon xotiri vayronima,
Tongdin aqshomg'a yetib jonima.

Ish buyurub o'ylaki oson emas,
Butmagi aql ollida imkon emas.

Uzr demak borchag'a qattig' kelib,
Necha chuchuk so'z desa, achchig' kelib.

Bazl agar bor esa aflokcha,
Har falaki ollida xoshokcha.

Har kishi ko'zinki tama' ochti keng.
Qatrau daryo erur ollida teng.

Olibu izhori shikoyat qilib,
Ko'pni oz o'rnida hikoyat qilib.

Har biriga o'zgacha so'z muddao,
O'zgacha so'z demaki, yuz muddao.

Bor esa Rustamcha birov quvvati.
Hotami Toyicha aning himmati.

Ilgida Qoruncha bo'lub ganju mol,
Topmoq erur xalq rizosin mahol.

Menki bularning baridin fardmen,
Zaf' uyida hamnafasi dardmen.

Muncha g'amu mehnat ila bovujud,
Muncha taraddud bila guftu shunud.

Za'fi tabiiy xud o'lub bir sori,
Borchalari bir sori, bu bir sori:

Kanduz olib oncha yubusat dimog',
Kim kecha uyqu bila topmay farog'.

Kunduzikim, bo'ldi yana hol bu,
Kechaki bo'ldi yana ahvol bu.

Kingaki fursat bu sifat bo'lsa tor
Nazmi xush andin qachon imkoni bor.

Men chu dedim uzr, erurmen maof,
Bo'lmasa bu nazm duri asru sof.

Rishtai avqot chu ko'toh edi,
Kelmadi ul nav'ki dilxoh edi.

Chun bu sifatdur bari oyin anga,
Qaydin erur martaba chandin anga,

Kim el aro bo'yla tushub hoyu huy,
Har sori solg'ay bir uzun guftu go'y.

Bo'lsa edi oncha manga dastras,
Kim kecha-kunduzda bir-ikki nafas,

Raf o'lubon mehnatu farsudaliq,
Yetsa edi kom ila osudaliq,

Go'shai xilvat aro aylab nishast.
Tab'ni qilsam edi fikratparast,

Nazm duri istariga xos o'lub,
Bahri taxayyul aro g'avvos o'lub.

Qilsam edi ulcha xiromim durur,
Olsam edi onchaki komim durur.

Bilgay edi kimgaki ma'ni bo'lur,
Kim ravishi nazm degan ne bo'lur.

Ul biridin chunki tihi qoldi jayb,
Kirmasa jayb ichra bu bir ham ne ayb.

Men bu navo birla tarannumsaroy,
Kim dedi nogah xiradi pokroy:

K-ey qalaming ajz midodi aro,
Bosh qo'yub insof savodi aro.

Haqdin o'lub za'finga quvvat qarin,
Surati insofingga yuz ofarin.

Buki bayon aylading ermas yiroq,
Kim ne olursen mundin yaxshiroq.

Desang edi ham tilagandek baland,
Bo'lsang edi istagudek dilpiland.

Munchamu bo'lg'ay edi bozor anga,
Jumlai ofoq xaridor anga.

Bo'ylaki savdosi jahon ichradur,
Sho'ru shari kavnu makon ichradur.

Andin erurkim, bu jahon zevari,
Gavhar aro bahr ila kon zevari.

Qildi sharaf kasbini shoh otidin,
Mehru karam zilli Iloh otidin.

Ulki sharaf bahri aning zotidur,
Gavhar o'shul bahr aro otidur.

Ey so'qulub sikkai adl otinga,
Xutbai davlat o'qulub zotinga.

Halqa etib ko'kni uyoting sening,
Xotami xurshed uza oting sening.

Men kimu madhingni bayon aylamak,
Zarrag'a charx uzra makon aylamak.

Qatra kerak anglasa o'z poyasin,
Bahr ila teng tutmasa sarmoyasin.

Lek ne ish kimgaki, taqdir erur,
Anga shuruida ne tadbir erur.

O't aro parvonag'a devonavor.
Kirmagiga qayda erur ixtiyor.

Telbaning atfol toshi yorasi —
Yemagidin bormu durur chorasini?

She'rki ham tushti mening shonima,
Ul o'tu bu toshdurur jonima.

Ne de olurmen tuzubon barkini,
Mumkin emas xud tutorim tarkini.

Garchi xayolimg'a kelur goh-goh,
Kim necha bu dag'dag'ai umrko.

She'rdur ulkim demagi sud emas,
Ko'p desa, xud g'ayri ziyonbud emas.

Ulki g'azal chehrasiga bersa zeb,
Anglab ani tab'kashu dilfireb.

Chin demagi harzavu hazyon bori,
Turfa bukim, yaxshisi yolg'on bori.

Kimgaki umrida bu voqe' durur,
Umr anga ming yil esa zoye' durur.

Avlo erur ulki, urub gomi faqr,
Ko'yi fano ichra chekib jomi faqr.

Dunyo ishi maylini oz aylasam,
Uqbo uzun yo'lini soz aylasam,
Sharbat esa, ul yo'l aro rag'batim,
Bo'lsa yurak qoni mening sharbatim.
Sim kerak bo'lsa qilurg'a farog',
Ul ham o'lub tandog'i har sori dog'.
Xil'ati davlat yalang egnimda gard,
Ikki ayog' sayrim uchun rahnavard.
Soya uchun chatrni qilmay pisand,
Po'ya aro raxshg'a yo'q poyband,
Sayrda har bir qadamim yuz yig'och,
Toji sharaf boshima jo'lida soch.
Yalang ayog'im tahida xorlar,
Silsilai faqrime mismorlar.
Raxna sinuq boshima har toshdin,
Chiqqoli o'zluk tarabi boshdin.
Ko'zda sirishkim duri shohonasi,
Borcha fano qushlarining donasi;
Chun bu qush ul dona bila rom o'lub,
Rishtai jismimdin anga dom o'lub.
Ko'ksuna g'am xanjari solg'on shikof,
Dard eliga jism uyin aylab matof.
Po'ya qabarchuq bila aylab nisor,
Maqdamima yuz guhari obdor.
Yo duri ashkimki, yo'l uzra tushub,
Qonliq ayog'im tahig'a yopushub.
Zaxmlarim qoni bo'lub qatrabor,
Dardu balo dashtin etib lolazor.
Oh o'ti uchqunlarikim charx urub,
Lola yopurg'og'ini yel sovurub.
Har sharari lolag'a yafrog' aning,
Tira o'chuk juzvi o'lub dog' aning.
Ranj solib jismg'a farsudaliq,
Yo'lda dame istasam osudaliq.
Yo'l aro bir tog' etagin topibon,
Jismima aflok etagin yopibon.

Uyqug'a qo'ymoq tilasam yerga bosh.
Takyai xoro manga bir xora tosh.

Yer uza tufrog' bo'lub bistarim,
Soyadek ustiga yotib paykarim.

Ikki ayog'imkim, yururdin tolib,
Qo'ynig'a Farhod ila Majnun olib.

Buki alar ishqicha yuz jonima,
Dardicha ming xotiri vayronima.

Keldiyu men kimsag'a fosh etmadim.
Nola chekib vasl talosh etmadim.

Ikkisi hayratda bu holat bila,
O'zlari ishqida xijolat bila,

Anglab erur ishq musallam manga,
Ul birisi, bu birisi ham manga.

Ishq chekib poyam aningdek rafi'.
Dard qilib ko'nglum aningdek vasi',

Kim manga ko'k yer bila yakson bo'lub,
Charx ochuq gulshani zindon bo'lub.

Himmatim ul avjda silkib etak,
Kim yorutub gardi bila ko'z malak.

Qilsa shabistoni shuhudum zuhur,
Xayli maloik anga jam'i tuyur.

Tayr dema, har sori xuffosh de,
Anjumu ko'k huqqau xashxosh de.

Deb chu ochib didai ibratni keng,
Bor ila yo'q, yo'q ila borini teng.

Istabon o'tmak boru yo'qdin daler,
O'ylaki Sayyid Hasani Ardasher.

Ko'nglum etib bo'yla maqom orzu,
Lek bo'lub, nafsg'a kom orzu.

Himmat uchub ravzai xurram sori,
Nafs chekib chohi jahannam sori.

Yuzda malakvash bo'lub, ammo nuhuft,
Dev ila shayton bo'lub ikkisi juft,

Yo'qki bu ikki bo'lubon juftu bas,
O'zlaridek yuz tug'urub har nafas.

Har kishikim, bo'lsa ichida nihon,
Dev ila shaytoni jahon dar jahon.

Botin aro boshlasa yuz makru rev,
Fitna qilib muncha shayotinu dev.

Harne alar solsa tamanno manga.
Turfa bukim, borcha muhayyo manga.

Tengri uchun, ey ko'ngul, insof ber,
Dindin agar nafs chiqarmas ne der.

Menki bu nafs ilgida afgor men,
Muncha balolarg'a giriformen.

Zohirim avqoti yomondin-yomon,
Botinim ahvoli xud ondin yomon.

Yig'lasam o'z xotiri noshodima,
Yetmagusi ul dog'i faryodima.

Ashkni farzanki qilay bahri sof,
Ko'ksuna solib kema yanglig' shikof.

Ne yuruy olg'ay kemadek paykarim,
Ko'hi gunahdin bo'lubon langarim.

Zohiri holimda bashar surati,
Surati jismimda kishi hay'ati.

Ma'ni ichinda kishilikdin yiroq,
Balki aromizda ming illik firoq.

O'zni safo ahli qachon bo'lsa jam',
Ravshanu tuz ko'rguzub andoqki sham'.

Ko'ngul aro chirmashibon yuz yilon,
Balki xavotir yelidini qo'zg'alon,

Ulchaki men-men demasam yaxshiroq,
Yaxshilar o'lsun, bu yomondin yiroq.

Zulmat aro botinimu zohirim,
Turfa bukim, o'yla tilab xotirim,

Kim meni el ahli yaqin anglag'ay,
Taqvoyu toatg'a qarini anglag'ay.

Oshiqi g'amnok degaylar bari,
Ko'ngli, ko'zi pok degaylar bari.

Ko'zni o'kush sa'y ila zabt etgamen,
Yetsa ko'ngul zabtig'a ish, netgamen.

Oh, mening holima yuz qatla oh,
Tutmasa ilgim karam aylab Iloh.
Kelmayu yoding'a zamoni hayot,
Qilg'onim ish kelmagan andin uyot.
Borcha ishim xoma qaro aylamak,
No'gi bila noma qaro aylamak.
Xoma tilimdin ham o'lub xiraroq,
Noma yuzumdin ham o'lub tiraroq.
Tushmasalar lujjai rahmat aro,
Qayda yuyulg'ay bu ikidin qaro.
Yo Rab, agar bo'ldi kalomim uzun,
Mundin ham jurm qilibmen fuzun.
Yaxshi esa, ber so'rug'umdin amon,
Bo'lsa yomon boshtin-ayog'im yamon.
Ham yomonim lutf bila yaxshi qil,
Bo'ldi chu ul yaxshi qabul aylagil.
Jilva ber el ko'ziga ham xo'b ani,
Qilg'il ulus ko'ngliga marg'ub ani.
Har nechakim, jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating ollinda hech.
Kamlilik ila necha manga bo'lsa bim,
Sen karam aylakim, erursen karim.

LXIII

*Ul qul hikoyatikim, ayog'i toyilib, ayog'luq oshini shohning boshi
kosasig'a urdi va karamlig' shoh ollida o'z oshin pishurdi*

Bor edi bir xusravi sohib karam,
Kim karamidin el edi muhtaram.
Xizmat aro bor edi bir qul anga,
Poyai xizmatda bakovul anga.
Bir kun aning bazmida shilon chog'i,
Shohga ham ishtaho o'lg'on chog'i,
Nakbat ayog'ig'a urub toshni,
Shah boshig'a to'kti isig' oshni.
El dedilar, holi ani o'lturur,
Kim bu gunohig'a jazo ul durur.

Shoh boqib ko'rdi chu noshod ani,
Lutf etibon ayladi ozod ani.

Dedi vazir: «Ey karaming bedarig',
Yo'q edi sha'nida aning g'ayri tig'».

Shoh dedi lutf bila zavqnok:
«Kim ani xud xijlat etibdur halok.

Kimsa o'lukni yana o'lturmadi,
Tig'i siyosat boshig'a surmadi.

Har kishi xalq ichra gunahkorroq,
Afvu inoyatga sazovorroq».

Yo Rab, aningdek karam etguvchi shoh,
Yuz ming eshigingda erur xoki roh.

Har necha ko'p bo'lsa gunohim mening,
Shukrki, bor sendek Ilohim mening.

Xijlat ila qolmadi xud jon manga,
Yeri durur aylasang ehson manga.

Garchi emon qobili lutfu karam,
Lek emon bir yo'li navmid ham.

Men kimu bahri karam etmak havas,
Bahr agar uldur manga bir qatra bas.

Shukrki, ehsoning o'lub yovarim,
Topti nihoyat varaqin daftarim.

Hayrati abror ko'rub zotini,
«Hayrat ul-abror» dedim otini.

Nuktai ta'rixiki, ahsan edi,
Sekizu sekiz yuzu seksan edi.

Kim o'qusa, yo qilur ersa savod,
Ruhum agar qilsa duo birla shod.

Tengri ishin komu murod aylasun,
Ruhini jannat aro shod aylasun.

Emdi, Navoiy, mayi shukrona ich,
Har necha bo'lsa to'la paymona ich.

Soqiy, olib kel to'la paymonaye,
Yo'q, g'alat ettim, to'la xumxonaye.

To ani ko'p-ko'p olibon sipqoray,
Kup-kup ichib, bir dam o'zumdin boray.



HAYRAT UL-ABROR

I

«Bismillohir-rahmonir rahim»¹. Ushbu jumlada eng qimmatbaho durlar bir ipga tizilgandir. Bunday har bir dur jon javharidan, qimmatiga ko'ra esa, ikki jahon narxidan ham ortiq. Bunda ip ikki jahonni bir-biriga bog'lab, ikki jahonnigina emas, jon hayot iplarini ham tutashtirib turgandek.

Kimki boqiylik xazinasiga erishishni o'ylar ekan, shu dur, shu ipni o'ziga tasbih qilib olmog'i kerak. Chunki bu oddiy ip emas. U shunday ajoyib sirtmoqdirkim, din va davlatni ovlash — qo'lga kiritishda u bo'g'ov vazifasini o'tay oladi. U bo'g'ov ham emas, hech qachon bo'g'ovlik qilmagan. Bu — jannat bog'idagi kiyiklarni qo'lga kiritish uchun arqon.

Uni jon suvi oqadigan ariq, yo'q, jon suvi oqadigan ariq emas, balki tiriklik suvi desa bo'ladi. Bu suv yoqasida alifdek bo'lib daraxtlar o'sishi bilan birga, shivitga o'xshash xushbo'y o'tlar, daraxtlar ustida mevalari.

Shu bilan birga o'sha gavhardek qimmatbaho iplar ilohiy xazinaga ajdahodek talabgor yoki boshqacha qilib aytganda, bular hammasi osmonning eng yuqori qismida o'rnatilgan qandildir. Balki aniqlik kiritish uchun bu qandil orasiga u yerda yagonalik bog'ining qumrisi o'ziga uya qurgandir.

Yo'q, balki bu, yagonalik xazinasiga olib boradigan yo'ldir. Yo'llikka yo'l-u, lekin qanday yo'l — eng yaqin yo'ldir!

Biroq bu ham mashaqqatli, ham xavfli yo'l bo'lib, bundan, deyish mumkinki, har qanday voqiflar ham uni bilishdan ojiz. Bu dashtu sahrani bosib o'tishga mayl ko'rsatgan kishilar ikki toifa — qabul qiluvchilar va rad etuvchilarga bo'linadilar. Rad etuvchilar uni bosib o'tishga qadam qo'yar ekanlar, muvofiqlik rahbaridan madad ololmagach, «Bo»si iboga chorlab nido qiladi². «Yo» deyilar ekan, bu balodan boshqa narsa emas. Bunday «Sin» nahang balig'ining orqa umurtqa suyagi ustidagi parrasi arradek ekanini, har bir qirradi yuz kemaga ofat ekanini anglatadi. «Sin» bilan «Mim» harflari oralig'ida mashaqqatlar ko'p bo'lib, yo'li mashaqqatdan iborat bo'lsa, yeli issiq shamoldan iboratdir.

«Mim» ilon nafasidek o't sohib, yo'l boshida og'zini ochgan holda yotadi. Bu jumladagi uch «alif» va uch «lom» g'avg'o ko'tarib,

¹ «Qur'on»dagi birinchi — «Fotiha» surasining boshlang'ich jumlasini. Mazmuni: «Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan».

² Bu va bundan keyingi misralarda «Qur'on»ning boshlanishidagi birinchi oyat — «Bismilloh» so'zining yozilishiga tegishli harflar izohi berilmoqda.

olti tomondan qilich tortib kelmoqda. «He»lari esa qatl ishida mohir bo'lib, har biri nayzaning uchidek qonxo'r. «Re»lari to'qnashishga rag'bat bildirar ekanlar, bundan cheksiz zarar kelishi aniq. «He»si halok etish uchun qarmoq vazifasini o'tayotgandek, xavf-xatar markazida turib changak solmoqda.

Xalqni qo'rqitish uchun «Nun» kamondek tortilgan, yanada to'g'rirog'i, abadiy dehqonchilik uchun o'rog'i shay. «Yo»si dushmanlarga qarshi nido belgisi. Ya'ni bu, mening uchun oldimda hayotingni fido qil! — demakdir.

Yo'l-yo'lakay bir qancha nuqtalar bo'lib, ular bamisoli toshlar bo'lib, ularni toshlar emas, kesilgan boshlar, desa ham bo'ladi. «Mim»lar u yerda tugun-tugun bo'lib, niyatlar esa jingila-jingila.

Har yerida undosh harflar takror-takror keladi va buning sanog'i ko'p. Shiddat bilan o'qilganda, kishilar buni darhol sezadilar. Kimning maqsadi nimaligini kuzatib turgan nazarlar qancha ko'p bo'lmasin, yaxshiroq ko'ruvchilar ularni rad etar edi.

Lekin u yo'lni bosib o'tishni xulq-atvori yaxshi kishilar niyat qilar ekanlar va u yerga qo'nar ekanlar, «Bo»si avvalo bashoratdan darak bersa, belgilar ichkariga kirishga ishoradir. «Sin»i salomatlik yo'lining zinasi, yo'q, zinasi emas, balki saodat oynasidir. «Mim»i maqsad manziliga yo'l, yanada to'g'rirog'i, bu manzildagi buloq boshidir. Bundagi har bir «alif», odatda (arabiy alifboda) «jon» so'zining o'rtasida kelsa, bu yerda beg'ubor kechanning sham'i vazifasini bajaradi.

«Lom»lari zafar hayrog'i o'rnida bo'lib, unga zafar quchish orzusi jilva berib turibdi. «Ho»sida mohiyat jilvagoh bo'lib, «Lom»i bilan «Podshohlik uningdir», deyilgan.

«Ro»lari jannat bog'ining eshiklaridir. «Ho»lari esa vahdat g'unchalariga beshikdir.

«Mim»i «nun»dan nihoya topib, o'z jonini cheksiz qiynaydi.

Karam dengiziga g'arq bo'lish uchun «yo» bilan «mim» o'zaro qo'shilib, daryolikni namoyon etdilar. Bunda nuqta va undoshlarning ortishi yuz berib, chaqmoq va toshga aylandi.

Bu esa «alif»ning sham'idan yorug'lik chiqishiga olib keldi.

Bunday qaror ko'ngil bo'yniga halqa solib, nuqta esa boqiylik durcini jon qo'yniga joylashtirdi. Mazkur harakatlardan yordam yuz berib, maqsadga yetishmoq uchun intilish yanada kuchaydi.

Ham to'xtash osoyishtalik oshkor qilib, bunda tek turishga yo'l ko'rsatildi. Qachonki sayr etuvchi yurishga qadam qo'yar ekan, uning oyog'idan ko'tarilgan chang atrofga jonlar sochayotgandek edi. Bosh-oyog'i boshidan-oxirigacha jon bo'lib, boshdan-oyog'i jon bo'ldigina emas, jonon bo'ldi.

Bu yurishda ul qavmga issiqdan dog' ustiga dog' yuz berib, bu yo'lni bosib o'tishda bu guruhga bog' ustiga bog' uchradi. Buning hikmatli tomoni ham qahrda, ham lutfda bo'lib, bu bilan ushbu ikki mehmonxona (jahon) to'ldi. U (Alloh) ulug'vorligi bilan o't yoqsa, jamoli lutf bilan jamoliga suv sepishi mumkin edi.

Ey xasta Navoiy, sen navo istab, shunday bir yo'lga otlanadigan bo'lsang, yo'l yomon, yaxshi deb tashvish chekma. «Bismilloh!» — degin-u, qadam bos. «Yaxshi sanolar bo'lsin karamga!» Uning karamidan odamlar hurmatdalar-ku!

II

Barcha yaratilgan jonli va jonsiz narsalarni tasavvur etish uchun qalamining san'atkorligi chehrasini ochgan va hikmatli qalami jamolini orttirish hamda har bir ko'ngul g'unchasiga bir husn guli tomon uning shavqi zanjiriga bog'liqlikni va har ko'zining yulduziga bir qoshi hilol bilan muhabbat ipi orqali payvatalikni yuzaga keltirgan ul Xoliq hamdi

Hamd bo'lsin Allohgakim, aslida bu Unga farzdir. Olamdagi har bir zarra Unga hamd aytadi. Uning zotining yagonaligi quyoshdek ma'lum. U zarradan ko'p-u quyoshdan ham yorug'. Jism osmonini sayrgohga aylantirgan Udir. Ruh quyoshini yorug' qilgan ham Udir. Osmonning firuza gulshanini baland qilib yaratgan ham U. Gullari (yulduzlar)dan quyoshga guldasta tutamini yaratgan ham Uning o'zi.

Osmonning har tomonida yulduzlar timsolida gullar ochilib, uning bu guldastasidan ko'k bo'ylab sochilganlari ham mavjud.

Mintaqa jihatidan lojuvard osmon san'atkorlik bisotida ikki taxtadan iborat nardning o'zi. Osmon tosigga solish uchun Alloh oy bilan quyoshdan ikkita soqqa yasagan. Munaqqash osmon unga taxta o'rnida bo'lib, ikki oltilik o'n ikki burj uning hisobida. Tunu kun yulduzlar bilan sadaf taxtada soqqabozlik o'yini namoyishi. Dunyoda yuz bergan savob va qusurning barcha rang-barang ko'rinishi shu nardda zuhur etgandek. Bunda azizlar ham, xasislar ham o'z hunarini namoyon etish payida, ikki dushman — tasodif va taqdirdek.

Erta tong o'zining gul yuzini ochishi bilan tun sunbulini yuziga zulf qilib olgandek. Ul yuz butun olamga oppoq yorug'lik taratar ekan, u zulf esa, tepadan mushk sochayotgan bo'ladi. Shu tarzda oqu qaro shuhrat tutib kecha va kunduzdan mushk va kofur tarqala boshlagan.

Inson aqlining hujrasi yasalar ekan, Alloh aqldan u hujraga shamchiroq yoqdi. Bu shamchiroqqa inoyat piligi qo'yilib, undan haqiqat nuri shu'la bera boshladi. Undan ko'ngul maskani nur olsa, ishq shabadasi bilan u o'chirilar edi. Alloh ishq yelini kuchaytirganda va tezlashtirganda, bundan aql chaylasi parcha-parcha bo'lardi. Bu yel har qanday toat-ibodat va parhezkorlik xirmanini uchirib, har qanday sabr va osoyishtalikni sovurib yubora oladi. Aql bog'ining yosh novdasini xashakka aylantirib, balo dengizining mavjlaridan to'lqinlar yuzaga keltirdi. Dard va balo o'tini yanada tezlashtirib, tezlashtiribgina emas, charx (taqdir) uni o'z dushmani qildi. Visol bulutlarini yomg'ir yog'adigan qilib, buni esa o'sha o'tlarni o'chiradigan etdi.

Husn quyoshini hammayoqni kuydiradigan qilib, uning yorug'lik ta'sirini esa olamni yondiradigan etdi.

Buni quyosh dema — mamnuniyat bog'i degil. Uni bog' ichidagi ochilgan gul deyish ham mumkin. Har bir jilvasi jon gulshanining oroyishi bo'lib, uning nazariga tushish ko'ngilga osoyish bag'ishlaydi.

Uning zoti asosida lutf va safodan o'zga narsa bo'lmagan esa-da, lekin vafoning isi unga begona. U vafo rangidan xoli bo'lgani sababli, vafo ahllari joniga zulm qiladi. Kimgaki vafo ta'mini bilish nasib etilgan ekan, oradan bir nafas o'tmay, uning ko'zidan yosh oqqani oqqan. Kimki hayotida vafodan boshqa ish qilmagan holda, buning evaziga nasibasi jafo chekishdan boshqa narsa emas. Ishqni jon ipiga bog'lab, vaslni ko'ngil ipiga payvand etib, hajr vodiysiga ko'p xatarlar solib, tikan va giyohlarini nishtarga aylantirib, lolalaridan oh shu'lalari, ko'katlaridan zaharli o'tlar yasadilar. Lola bilan sabzasi bu nav manzil bo'lsa, shabadasi halokatli shamoldan boshqa nima bo'lishi mumkin! Bu yel — shabada emasdir, bu — biyobon o'tidir! Bil, bu biyobon o'ti — hijron o'ti!

Kimniki bu shu'la bilan kuydirishsa, uning kulini ushbu yel ko'kka sovuradi. Bu halokatli shamol uni kulga aylantirsa, dardu balo ko'zgusi bu kuldan jilo topadi.

Qachonki ul ko'zguda iliqlik va nur paydo bo'lsa, unda ishq uning yuziga ham shu xususiyatlarni baxsh etadi.

Doira bundan boshqacha qilib tuzilmasdan hamda tartib-qoidalar bir-biridan uzilmasdan, bekatlar bir-biri bilan yaqinlashmasdan silsila silsilalar bilan yaxshi bog'lanmaydi. Shunday bo'lgandagina Yer kurrasi tinib-tinchib, aylana falaklarni sayr etaveradi. Dengizlar falaklar bilan birlashib ketsa ham, buning hammasining markazi Yer kurrasidir. Alloh lutfi tufayli barchaga mavjudlik bo'lsin! Uning qahridan esa hamma narsa yo'q bo'lib ketishi mumkin.

III

BIRINCHI MUNOJOT

Alloh birinchi bo'lib, aql uning ikkinchisini bilmaydi, hatto birinchi va oxirgi insonlar kimnidir yoki nimanidir maqtamoqchi bo'lsalar, bunga loyiq boshqasi topilmaydi va dunyodagi bo'lishi mumkin bo'lgan gulshandagi gullarning yo'qlik kechasidan borliq gulistoniga kelmog'ining sifati va koinot hozoridagi durlarning maxfiylik bulutidan zohirlik dengiziga tushganining ma'rifati

Ey Tangrim, dunyo boshlanishidanoq qadim abadiy bo'lib, qadimliging, ulug'vorligingning so'ngi ham bo'lmagan. Senda ibtido ham bo'lmagan; oxirda tugallanish ham yo'q. Avval ham o'zing, oxir ham, o'rtalik ham. Barcha-barchaga yaratuvchi bo'lganingdek, barining ko'zi, ko'z qorachig'i ham o'zingsan.

Qachonki bu dunyo nihoniy bir holatda edi, «Nihon»ning o'zi ham jahondek yashirin edi. Hali kunning yuzi yosmin yaproqlarini sochmagan, kechani soch o'rimlaridan Xo'tan mushkining bo'yi kelmas edi. Ko'kda ham lolalar shafaq ochmagan, na yulduzlardan ularga shudring to'kilmagan edi. Na yer bor edi, na yer yuzida biron kishi. Ko'kning ham, yerning ham jabr-zulmdan boshqa ishi yo'q edi.

Husn o'ti ham biron yig'inni qizitmas, ishq egalariga ham kuyib-yonish uchun asos yo'q edi. Koshonalar ham sham' o'ti bilan yorimas, binobarin, parvona ham uning ishqida kuymas edi. Haligacha gul ochilib nozik jilvalar ko'rsatmagan, bulbul ham unga xonish qilmas edi.

Nargisning ko'zi yumilib turganidan uni o'lgudek mast, deb o'ylamaslik lozim. U yo'qlik gulshanida chuqur uyquda. Mayxonada hali xumning og'zi ochilmagan. Taqvodorlar esa may uchun jandasini garovga qo'ymagan. Mayni quyib ishva bilan uzatuvchi bola zohidlarni mayning quyqasini ham ichib qo'yishga o'rgatmagan bir davri.

Hali u dengizmisol Zot tinch va orom olar, o'zining mumkin bo'lgan mavjlarini ayon qilishga kirishmagan edi.

— Ey Xudo, sen bor eding-u boshqa bir narsa mavjud emas edi. O'z husning o'zingga jilva qilar edi, xolos. Sening husning g'oyib narsalarni aks ettiruvchi oynada zohir bo'lar edi. Unda shu bilan birga sirli xayolot jilva qilardi. Bunda ko'ruvchi ham o'zing eding, ko'rinuvchi ham. Ishqing o'zingga yoqib, o'z husningdan o'zing mag'rur eding. Birlik (1) bor edi-yu boshqa sonlar yo'q edi. «Bir»dan o'zga yagonalik mavjud emas edi. Hali o'zing bilan bog'liq ilmning asl mohiyatining qisqacha ifodasi, shuningdek, martabalar va holatlarning tafsilotlariga mone'liklar ham yo'q edi.

Biroq o'sha oshiq'larni yondiradigan, har bir shu'lasini ufqlarni kuydiradigan chehra o'zi zohir bo'ladigan yerda zuhur bo'lishni, uning ushbu husni kamolining bundan ham mukammal bo'lishini xayol qilardi. Allohning husni jilvasiga chek yo'q edi. Uni ko'rish uchun son-sanoqsiz ko'zgu kerak bo'ldi. Bu rang-barang gulshanni ochganda esa unda har bir gul o'zi xitoyi ko'zgu ekani bilindi. Bu husn jilvasi ravshan ko'rinishi uchun ushbu ko'zgu paydo bo'lgan edi.

Ushbu vositani sen to'la amalga oshirganing tufayli to'qqiz osmon taxta (lavh)si tiniq oynaga aylandi. Osmonning sof yuzida har bir yulduz seni o'zida aks ettiruvchi bir ko'zguga aylandi. Quyosh yuzini ham oynarang qilding. Quyosh tutilishi esa uning zanglagani belgisidir. Ko'kni zangori varaqqa o'xshatib, o'sha sahifani esa ko'zguga aylantirding. Dunyoning bog'chasini toza bir varaqqa aylantirib, unga yasalgan panjara olti tugunli bo'ldi. Sening kuch-qudrating tufayli konlardagi gavharlar rang-baranglik kasb etdi. Sening buyrug'ing bilan qimmatbaho toshlarni tog' beliga kamar qilib bog'lab olgandir.

Yomg'ir iplari sof dengiz suvlari bilan tutashgandan so'ng yelning nozik barmoqlari ikkisidan ipakli shoyi to'quvchiga aylandilar. Qora

chaglarni sen shamol bilan omuxta qilganingdan keyin, u charxdek dunyo bo'yicha kezib yuripti. Sen bu kabi qancha g'aroyib narsalarni yaratgan bo'lsang, ularning barchasi jamoling oynasida aks etgan narsalardir.

Sening xazinangda bunday boyliklar juda ko'p edi. Lekin ularning barchasini yaratishdan kuzatilgan asosiy maqsad inson edi. Sen qanday ajoyib gap gapirsang — u to'la tushunar, yashirin sirlaringni esa ichida saqlar edi. Uning ko'nglini o'zingga yaqin xazina bilib, uning jismini xazinangga tilsim etding.

(«Qur'on»da) uni maqtab, boshqa hamma maxluqlardan ortiq ko'rib, «Mukarram qildik!» deyilgan. «Eng go'zal qad-qomat unga munosib», deyilgan. Kim sening sifatlaring bilan bog'liq bilimlarni bila olmayotgan bo'lsa, uni ushbu ma'rifatni biladigan qilding. Allohni bilish uchun shaxslardan guruhlar tuzding. Uning mohiyatini bilishga olam ahlini yo'naltirding.

Ey Xudo, o'sha xazina, qandaydir mavhum xazina emas, faqat insongagina aniq bo'lgan, boshqaga nasib bo'lmagan xazinadir.

Ey Xudo, meni avvalo shunday odam qilib yaratki, men shu (Alloh) haramining mahrami bo'la olay! Qancha siring bo'lsa, meni ishonchli qil! Boshqa yana nima qilsang, O'zing bilasan!

IV

IKKINCHI MUNOJOT

Alloh yaratgan go'zal narsalarning jilvalari zuhuri haqida — lekin bundan o'sha ashyolarni yaratganning o'zining ulug' dargohiga biron foyda yetmaydi va u mavjud go'zallar bilan bog'liq buzug'liq hodisalari to'g'risida bo'lib, bundan donolarning Yagonasi saroyiga biron kimsa zarar yetkazishni xayoliga ham keltirmaydi

Ey, dunyoda bor mavjudotga vujud bo'lgan, vujud ahliga saxovat fayzini bergan Alloh! Sirli yo'qlikdan nima paydo bo'lgan bo'lsa, bari senga sajdada qiladi, sen esa ularga sig'inish asosisan. Kimki boshi sajdada bo'lsa, uning masjudisen. Kimning yuzi qiblada bo'lsa, sen uning topinadigan Tangrisisen. Falaklarning muncha tez aylanishining sababchisi ham yoki Yerning qadimdan sekin aylanishining sababchisi ham Sen bo'lib, ularning junbushga kelishi ham, tinchligi ham, shuningdek, yaralishi ham, yo'q bo'lib ketishi ham Sendan. Havorang gumbaz bilan Osmon toqidagi yulduzlar — sha'm, Quyosh esa — naqshinkor qubba. Bularning hammasini aql muhandislari ko'zdan kechirar ekan, buni idrok etishga hislari ojizdir.

Bunday me'morlikni yuzlarcha kishilar havas qilgan. Biroq ularning ustozlariga ham bu qiyin bo'lgan. Masalan, bu qurilmaning buzilishini xohlar ekansan, buning uchun Sen qahringni namoyon etsang, shuning o'zi kifoya. Sen hosil etgan bir bo'ron oldida bular hammasi bir siqim tuproq, yoki shamol qarshisida bir tutam xashak

misolidir. Sening qahring go'yoki bir pahlavon toshyo'narga aylanib, tog'lar bulutlar kabi kuchli na'ra tortgandek bo'ladi. Osmon bir etak kul kabi sovurilib ketishi, yulduzlar bir hovuch guldek qo'zg'alishi mumkin. Zuhral esa yelkasidan qo'ng'iz singari pat chiqarib, adam dashtiga mayl ko'rsatishi mumkin. Mushtariy o'z hayotini tugagan hisoblab, o'ltirgan minbari taxta va tobutga aylanishi turgan gap. Bahrom¹ ham o'zini o'ldirish uchun tig' tortib, o'z ahvoliga dod solib yig'lagani yig'lagan. Bunday qora kunda yorug' quyosh qorayib, kuygan kulchaga aylanadi. Zuhra esa chirmanda va changini sindirib, taqdirga mos kuy tuzib, Atorud qo'lida na qalam, na raqam — ularning o'rnida «jaffal-qalam» oyati² raqam etiladi. Oy abadiy yer osti shu'lalari bilan yo'qlik ahllari shomiga zulmatini oshirgani oshirgan. Rahmsiz shu'lalar olov purkab, yulduzlar bilan osmonni o'rab oladi.

Yel Osmon bilan Yerni xarob qilib, binobarin, mazlumlar oh tortishda. Dengizlarni to'lqinlar egallab olgan, undan sachragan suv qatralari yulduzlarning yuziga uriladi. Yer joyidan qo'zg'alib, atrofga hamla qilar ekan, lejuvard osmon unga yiqilib tushganday. Bu paytda odamiylik shunday yo'qlikka yuz o'giradiki, odamda ham vafo va karamdan nishon qolmagan bo'ladi.

Yer balandga ko'tarilgan, falak esa quyiga tushib ketgan, goh u yuqori ko'tarilsa, bunisi pastga tushib ketadi.

O't dengizda g'avvoslik qilayotgan bo'lsa, tog' osmonda raqqoslik etadi. Bulutlar osmon bilan urilib to'qnashganda jin urganlar devni ko'rgandek yig'lashadi. Shu sababli tog'larda ham, falaklarda ham taraqa-taraq, bu taraqa-turuqlardan — «Alvido!» degan ovozlar eshitaladi.

Bir necha vaqt hamma shunday to's-to'polonda — to qattiq shamol esa boshlagunga qadar. U yangidan esa boshlab, eskirgunga qadar — ma'lum bir fursat orasida «Qur'on»da «bo'lgani bo'ldi», «bo'lmagani yo'q!» deyilganidek, Tangrining o'zi doimiy qolib, boshqa istiqomat qiluvchilar yo'q, yor abadiy qolib, ag'yor qolmagani ma'lum bo'ladi.

Yeru osmonning borligi yoki yo'qligidan, barcha odamlarning o'zini maxfiy tutishi yoki dili ochiqligidan Uning buyukligiga hech qanday foyda, na Uning kuch-qudratiga hech qanday ziyon yo'qdir.

«Mulk kimniki?»³ degan ibora o'sha damda Uning og'zidan chiqqan bo'lib, mamlakat kimniki bo'lsa, o'shanga bo'ysunadi.

Ey Xudo, o'sha kunga aniq yetsam yoki o'sha tomonga borishga oldinroq azm qilsam, o'sha damda imonimni menga hamroh qil! Ko'nglimda boshqa xudoga sevgimni mahv et! Barchaga bo'lgan rahmatingni menga nisoriy etib, hammaga yo'naltirilgan lufingni ham yor qil!

¹ Bahrom — bu o'rinda Mirrix (Mars) sayyorasi ko'zda tutiladi.

² «Jaffal-qalam» — «qalam (yozishdan) to'xtagan».

³ «Limani-l-mulk» — «Qur'on»dan.

UCHINCHI MUNOJOT

Olam va odamni vujud koshonasidan yo'qlik faromushxonasiga solmoq vujudi mutlaqdin o'zga vujud turmasligi haqida bo'lib, bu ma'nodagi fikrni vujud ahli (moddiyunlar) boshqa vujudga mutlaqo yaqin keltirmas va isyon zulmatida nazardan qolganlarga Olam yakunining shifoati yordam ko'rsatur va o'sha — shafaat ko'rsatganlarga olam va odamni yaratgan shafaat tilagay

Ey, qahr etishni ham, lutf qilishni ham o'ziga odat qilib olgan! Borni yoq hamda yo'qni bor etding. Hech narsa avvalda yoq edi — bor qilding. Ularning hammalariga aql-zakovatni do'st etding. To'qqiz osmonni ham keng qilib yaratding. Yer yuzini ham yoyiq qilding. Sen yaratgan falakiyot bo'ladimi, unsur (suv, havo, tuproq, olov) bo'ladimi, ularning barchalari eng qimmatbaho javohirlardir. Kon bo'ladimi, hayvonot yoki o'simliklar dunyosi bo'ladimi — ularning har biri eng oliy sifatli gavharlardir. Ularning har birini garchi latif qilib yaratgan esang-da, ammo hammasidan ham Insonni eng sharofatli qilib yuzaga keltirding. Bir qatra suvdan tortib to'la dengizgacha, zar sochuvchi quyoshdan zarragacha — unisini bunisiga, bunisini unisi bilan bog'lab, ularning hammasini bir-biriga payvand qilib, bunga vositalar qatma-qat, tuklar-tuklar bilan tutashgandir. To bu oliy borgoh (Olam) tikiiguncha, undagi ulug' korgoh — dunyo qurilishi ham muhayyo bo'ldi. Bu dunyo keng va go'zal yaratilgan bo'lib, hatto unda ortiqcha soch tolasiga ham o'rin qolmagandir.

Biroq agar Sen bularning barchasini buzmoqchi, boshidan-oxiriga qadar ostin-ustun qilmoqchi bo'lsang — aql uchun ham bu qo'rqinchlidir! Lekin bu Sening uchun osondir. Sen o'z qudratingni ko'rsatmoqchi bo'lsang, undan biron nishon qoldirmasliging mumkin.

Endi-chi, saxovat dengizi junbushga kelgan ekan, yo'qlikdan jismlarni paydo qila boshlaysan. Kimningdir qachon o'lganini hisob qilib, bunga o'n bir ming yil bo'lgan bo'lsa ham, tanasining daftari bo'lak-bo'lak bo'lib, bo'laklarga bo'linmaydigan bo'ladi. Bunday holatda («Qur'on»dagi) «Qabrda nima bo'lsa, sochiladi», «Ko'krakda nima bo'lsa ochiladi» iboralari jilva qiladi. Alloh yaratgan o'sha kuni — «O'sha bir kuni kishi o'z birodaridan qochur»¹.

O'sha ohu nadomat kuni qanday kun bo'ldi?! Uni ohu nadomat kuni emas, qiyomat kuni desa ham bo'ladi! Oldin o'tganlar ham, keyin o'tganlar ham chorasiz, bandi holidi, har biri o'z ahvolidan afsus va pushaymonda. Bunisi o'z dardi uchun voy-voylasa, unisi o'zi chekayotgan qiyinchilikdan hoy-hoylab yig'lagani yig'lagan.

¹ «Qur'on»ning «Abasa» surasidan.

Ularning ohlari mahshar kunidagi betoqatlikdan bo'lib, bu yig'i emas, balki buyuk dahshat sodir bo'lgan soatdir.

Nomai A'mollar yozilgan qog'ozlar odamlar orasida uchib yurar, ularni ko'rib, hammaning yuragi qon edi. Ularning barchasida o'zboshimchalik bilan badxo'yliklar, badxo'ylikkina emas, yuzqaroliklar yozilgan edi. Onasi qiziga qaramasdi, otasi o'g'liga. Hammalarining og'zida hasrat nidolari!

Qayoqqa qaramang, guruh-guruh gunohkorlar. Ularning gunohlari esa tog'-tog' edi.

Ularning har biri qo'rqinchli bir ko'rinishda bo'lib, halqa va zanjirlar bilan bog'langan. Ularga yana do'zax o'ti g'avgo solib, buni ko'rganlarning so'ngaklari mayda-mayda bo'lib ketardi. Boshqa bir tomonda esa jannat gullari jilva qilib, ularga bu do'zax o'tidan ham hattar ta'sir etar edi.

Kun qizig'idan bosh qaynar, qiyomat ahlining dod-faryodlari osmon-falakkacha chiqar edi. U yerda xayol toridek ko'prik ham bo'lib, lekin bu xayol amalga oshishi qiyin bir xayol edi.

Bu yerda panja va bilak kuchga to'lgan bo'lib, uni adolat tarozusining tartib-qoidasi ushlab turardi.

U yerda odil hukmdor (Alloh) hukmronlik qilar, binobarin, «uning podsholigi doimiy bo'lsin, hukm chiqarish va sha'n-shavkat uning qo'lida»dir.

Zulm shu'lasini avjiga minib, qahr dengizi mavj ura boshlaydi. Bunday lahzalarda avliyolar ham o'ylanib, payg'ambarlar ham hayratga botishlari turgan gap. Bundan arablardan chiqqanigina (Muhammad s.a.v.) mustasno bo'lib, faqat u xalqni himoya eta oladi. Goh u sirot ko'prigi ustigacha chiqib, bir necha lahza (savob va gunohlarni tortuvchi) tarozu oldida yelib-yuguradi. Goh uning buyuk himmati og'ziga kuch berib, o'zining mayin tovushi bilan: «Ey mening ummatlarim, hoy mening ummatlarim!» — deydi.

U faqat gumroh ummatlarini emas, balki Alloh nimani yaratgan bo'lsa, hammasini chaqirib so'zlashardi. Payg'ambar nima desa, Tangri hamma deganini qabul qilar, uning mayli qaysi maqsadga qaratilgan bo'lsa ham, uning istaklari Alloh hisobidan bajarilardi.

Ey Xudo, uning qanday haqqi bo'lgan bo'lsa, sen nasib etib, u Senga do'st bo'lishdek martabaga ham erishdi. Shu bilan birga bu sifat g'amli anjumanda, g'am emas, motam yig'inida uni butun Olamga shafe' etib, so'zlariga esa lutfingni tobe' etgaysen.

Kelgusida gunohkor bandalarni so'roq qilish vaqtida uning istagiyu O'zingning karamingni egizak qilgaysen! Uning ummatlaridan biron guruh oldingga kelsa, hammasiga jazo — choh va do'zax bo'lsa, umrida qo'lidan bir ish kelmagan, bundan tashqari yo'l qo'yan xatosi dinga xalal yetkazish bo'lgan, g'am-anduh o'tidan jonlari tashvishda qolgan, itoatsizlik tufayli yuzlari qaro bir qavmini u jazodan xalos etishni istasa, uning ko'ziga men — osiyni ham uchratgaysen!

TO'RTINCHI MUNOJOT

Vasf karam daryosi haqida bo'lib, inoyat nasimi esgach, mavjga kirsa, itoatsizlik xas va xashaklarini qirg'oqlarga chiqarib tashlaydi va gunoh tog'idan langar tashlaganlarning sust yuradigan kemasini bir dona pat yoki somon parchasidek maqsad sohiliga yetkazadi

Ey Alloh, karaming oldida gunoh tog'i bir dona pat yoki somon parchasidek yelga uchgaydir. Somon tog'-tog' qilib uyulgan bo'lsa ham, yel oldida qanday qilib maqtanishi mumkin! Butun dunyo xalqi agar bir xatoga yo'l qo'ysa, yoki bir aybli ish qilib, taqdirini qora qilsa, taqdirini oq qilish Senga oson bo'lib, amringda biron nuqson bo'lishi mumkin emas.

Tun tun bo'yi o'zicha o'yin hangomasini ko'rsatib, dunyo kishilarining a'mollarini ham qora qiladi. Lutf quyoshi chiqishiga izn berganingdan keyin mehning bilan bor zulmatni nurga aylantirding. El adovatidan sanam yasadi. Gulni mushkin sunbulidan yashirdi. Yelni yuzdagi pardani tez uchirib ketuvchi qilib, kecha qorong'ilig'ida Oyni ravshan qilding, itoatsizlik tunida biron gunoh qilmasa, afv chirog'i qachon yorug' yonishi mumkin?! Agar jinoyat o'ti kuchli yonmasa, ehson bulutlari qachon o'z tomchilarini to'kadi?! Xirqa kiygan darvesh kiyimining etagi kir bo'lmasa, dengizdagi iliq suvga unda hojat bo'lmaydi. Agar may kimlarningdir boshini aylantirmasa, kishidagi caxovat qo'li kimga yordam berishi mumkin? Zohidlik yo'lga kirib, ba'zilar taqvodorlikka beriladilar. Shu bilan birga buning uchun haq talab qilishlari ham bor.

Kishi xayr yo'lida bir ish qilar ekan, maqsadi buning evaziga u dunyoda jannatni sayr qilishdir. May bilan labini hech ho'l qilmagan odam u dunyoda o'sha kuni kavsar hovuzi suvlarini talab qilar ekan, bu dunyoda biron go'zal bilan birga bo'lishni istamagan kishi esa u yerda hurlar jamolini havas qiladi. Chet bir vayronalarda kun kechirgan kishi bezatilgan qasrda orom olishni xohlaydi. O'z holicha yeb-ichib yurgan odam haqqini yuz hissa ortiq olmoqchi bo'ladi. Xudojo'ymon deganlar hamma haqni olib qo'ysa, peshonasi sho'r kishilar nima qiladi? Ularning xatolari bo'lsa, xatolarini afv etganing qani? Bundaylarga saxovat ko'rsatib, ularga ataganlaring qani? Lutf va ehson dengizi to'lib-toshib turganda, ba'zilarning tashnalikdan og'izlari qurib, ularni shu holatda o'ldirsang yoki bu dengiz yoqasidan nariga surib tashlar ekansan, shunday ishga yo'l qo'yish mumkinmi? Hamma ishni qilishing mumkin, lekin buni emas. Har bir odam qancha osiy va gunohkor bo'lmasin, u shuncha afv hamda muruvvatga loyiqdir. Agar taqvodorlarga mukofot behisht bo'lsa, isyonchi esa do'zax o'tlarida tanasi kuysa! Unisi jannat bog'ini topib, farog'atda bo'lsa! Bunga esa do'zaxda dard chekib, kuyib-yonish bo'lsa! Ixtiyoringdagi lutf va karam

xazinasini nima qilasan? Uni marhamat qilib kimlarga berasan? Yuzlari gunohlari tufayli yegan shapaloqlardan qoraygan muhtojlar, asirlar hamda tilanchilar dasturxonidagi ne'matlardan totinmasa! Nahot sening lutfu karaming shunday bo'lsa!

Sen, axir, dasturxon yoz ochlarga! To'qlar ortig'ini yeya olmaydilar, aks holda qorinlari shishib ketishi mumkin. Axir bulutlar chanqab, qurib yotgan ekinga yog'may, dengiz ustidan o'tayotganda yog'adimi — bundan nima foyda! Kimki och bo'lsa, luqma uning nasibasidir. To'nni kim yalang'och bo'lsa, o'sha kiygani durust-ku!

Bu gaplarimning hammasi afsonasifat gaplardir. Kimki Senga umid bog'lagan bo'lsa — u xotirjamdir.

Ey Tangrim, Sening karaming dengizi jo'sh urib turarkan, o'sha muhtojlar to'dasi oh-fig'on chekib turgan chog'larida garchi ularning gunohlarining haddu poyoni bo'lmasa-da, Sening ularga rahm qilmasligingning ham imkoni yo'qdir. Lutfingning shohona pardasini tortib, ularning qilgan-qilmagan gunohlaridan kechganingda barchalari navozishing bilan hurmatga sazovor bo'lganlarida, bundan Navoiyni ham mahrum etmagaysen! Unga, ya'ni Navoiyga hur ham kerak emas, jannat ham. Uning uchun Sen o'zing bo'lsang, unga shuning o'zi yetadi.

VII

BIRINCHI NA'T

(Mazkur madh) ul hazrat (Muhammad s.a.v.) paydo bo'lgan nurning qadimiyligi haqida bo'lib, eng avvalgi harakatlaridayoq bu bebaho durning yolqini maxfiylik ipini uzdi va u yagona gavharning porloq nuri shu'la ko'rguzdi va durjdan durjga ko'chib, safiyulloh (Odam a.s.)dan Abdulloh'gacha yetdi

Sening nuring shu'lasini zuhur qilganda, ungacha na soya bor edi, na nurning o'zi. Ikki dunyo paydo bo'lguniga qadar Sening nuringga tob bera oladigan hech narsa yo'q edi. Jism (tana) qismlari (burchak)iga yig'ilgan, har narsaning asl Zoti(dan namunalar) joylashtirilgan tokchaga ruh sham' yoqdi. Azal subhi bazming chirog'ini qo'lga kiritganda, boshqa yuz minglarcha chirog'lar ham charaqlab ketgan bo'lsa ajab emas. Odam Ato Senga nisbatan avvalgiday, aslida u senga o'g'il bo'ldi, so'ng insonlarga ota.

O'z nasliga ko'ra har bir odam u bilan payvand, farzandiga barcha farzanddirlar. Kimki bunga hujjat da'vo qilsa, «Qur'on»dagi «Men payg'ambarman» iborasi yetarli hujjatlardir. Tabiati nosog' biron kishi yana boshqa bir dalil talab qilsa, bunga «Odam» so'zidagi «alif», «dol» va «mim» harflari borligi yetarlidir. Chunki bu harflarning hammasi «Ahmad» so'zida ham qadr-qiymat topgan bo'lib, o'g'lida (otasida bor) uch harf otadan belgidir.

¹ Abdulloh — Muhammad a.s.ning otalarining ismi.

«Ho»si senga muhabbat nasib bo'lganini anglatib, Alloh seni o'ziga «Habib»¹ dedi. Alloh yuzida nima yashiringan bo'lsa, ular hammasi habibi yuzida ham namoyondir. Bu ko'zguni unga guvoh qilib, u ne qilsa, uni ko'zgu aks ettirib turar edi.

Tuproqdan bo'lgan odam zuhur etgandan keyin unga ul pok nur o'z yolqinini joylashtirdi. Uni nur emas, abadiy yashin, yashin ham emas, Ahmad²ning oldindan ma'lum bo'lgan zo'r shu'lası deyish ham mumkin.

Odam Atoga shunday shu'la yashiringandan keyin, ichida nihon, biroq yuzida aniq ko'zga tashlanib turadigan bo'ldi. Shunday qilib, uning yelkasiga shon-sharaf to'ni yopilib, boshidan sharaf toji o'rin oldi. Shu yo'l bilan (Allohga) elchilik taxtida u shoh, farishtalar guruhiga esa panoh bo'ldi.

Shundan keyin u Havvo bilan birlashish payiga tushdi. Shu yo'sında bu nur Havvoga ham ko'chdi. Havvoning yuzini u poklab, Xudoning nuri hurlarning yuzini chiroyli qilgandek bo'ldi.

Bu xususiyatlar Shisga³ ko'chgandan so'ng, uning yuzi hatto Oyni uyaltiradigan darajaga yetdi. Avlodlari ipidan bir dona gavhar kamaysa, qornidan yana boshqa bir gavhar o'rin oladigan bo'ldi. Otadan ota, onadan onalar yuzaga kelib, shundan keyin bunaqa Ona boshqa paydo bo'lmadi. Shu ravishda Muhammad (s.a.v.) elchilik durrining xazinasi, yanada to'g'rirog'i, payg'ambarlik gulining gulshani bo'ldi.

Dur paydo bo'luvchi sadaf yangi bir durga pardapo'sh (ikki-qat) bo'lganda, jahon dengizlarida g'ulg'ula va shovqin-suron ko'tarildi. Uning yuzidan niqobni olinganda, boshqa bir bunday Oftob tug'ilmagani ma'lum bo'ldi. Tun qorong'iligini nur egallay boshladi. Bu Yer yuzini esa behishtga aylantirdi.

VIII

IKKINCHI NA'T

Uning⁴ hayotining yosh niholi jahon gulshanini yashnatib, undan qirg yilgacha hayo va adab gullari ochilib, so'ngra u payg'ambarlik mevasini bergani, shuningdek, shoxi va barglari jannat daraxti shoxidan ham yaxshi o'sib, bundan ikki olam ahli uning marhamati soyasiga kirgani

Ey tug'ilishdanoq yangi chiqqan Oydek ko'ringan Zot! Yo'lingning bolalik chog'i qadimiy osmon odaticha edi. Insonlarning ham, farishtalarning ham joni, jononasi! Ikki dunyoning yakkayu yagona

¹ «Muhabbat», «Habib» so'zlarida «h» harfining borligiga ishora qilinmoqda.

² Ahmad — Muhammad payg'ambarimizning nomlaridan biri.

³ Shis — Bu o'rında Odam a.s.ning o'g'li ko'zda tutiladi.

⁴ Muhammad s.a.v. ko'zda tutiladi.



No'shiravon malika bilan saroyda.

gavhari! Sening beshiging firuza rang taxtadan ishlangan bo'lib, to'xtamay tebratib turilardi.

Sen kabi toza bir yaprog'ni bu Olam gulshanida ko'pni ko'rgan bu falak umrida ko'rmagan edi.

Tashqi ko'rinishdan bola, lekin aqlli daho, so'zlaganingda bahodirlikdan boshqa narsa gapirilmasdi.

Tole' yulduzing tuqqan kechasi esa Osmon o'zi unga sajda qilgan edi. Bu kufnning buyuk tog'iga shikast yetkazgan bo'lib, shunda butlar ham, butparastlar ham yerga tiz cho'kkan edilar.

Shunda Makkada dinimiz ahlining kuch-quvvati ortib, Uzzo va Lot butlari uzlatga chekingan. Quraysh ahli ziddiyatli bir ahvolga tushib, ba'zilari qayg'uga botgan bo'lsalar, ba'zilari aysh-ishrat qildilar. Agar sen otadan bahramand bo'la olmay qolgan bo'lsang, buning taajjublanadigan yeri yoq. Sen o'gil bola bo'lsang, senga kim ota bo'lishi mumkin? Asl gavharing sadafsiz qolsa, buning qo'rqinchli yeri yo'q. Sadaf tark etilgan bo'lsa ham undan eng qimmatbaho dur chiqdi-ku! O'zining aslida bu dur sharafga ega bo'lgan. U sadafdan or qilsa ham, buning ajablanadigan yeri yo'q. Garchi bir sadafdan mingta dur chiqsa ham, mingta dur bitta dur bilan faxrlanadi. U qanday dur? Bu vafo qutisining gavharidir. Gavhar — qaysi gavhar? Bu hayo burjining yulduzidir.

Bunday yulduzdan Quyosh ham o'zini baxtiyor his etadi. Unga to'lin Oy ham, yangi Oy ham xizmat qilishga tayyor. Quyosh uning amriga mute' bo'lib, undan namuna olsa, to'lin Oy hilolga aylanishga tayyor.

U garchi tijorat ishlari uchun dastmoyaga ega bo'lsa-da, ganj oldidagi qora tuproq misoli edi. U topgan foydaga el ko'z tutib, ko'zlari kundun-kunga ochilar, foyda va tijoratda unga ergashar edilar. U minib ketayotgan tuya bundan ham xursand, go'yoki farishta ustiga nur yog'ilayotganday. Shundan kelib chiqib savdo ahli unga «Amin»¹ laqabini herib, shu sababdan u Jabrailga hamdam bo'lib qoldi.

U cho'ponlikni o'z kasbi qilib olib, echkilar arslon yashaydigan to'qaylarni o'zlariga vatan etdilar. Unga aql piri emukdosh bo'lish bilan birga sutining mazasi shirinlikda o'ta ta'mli bo'lardi.

Lekin zulm zahri uning piyolasiga ko'p ezilgan bo'lsa ham, bu uning og'ziga sut va shakar ta'mini berar edi. Bir necha achchiq-achchiq yig'latadigan qiyinchiliklar yuz bergan. Ammo bularning hammasini u shirin muomala bilan daf' etgan. Necha bor o'zaro ixtilof tarafdorlari tunda urush-janjal qilib, uning boshiga yulduzlar miqdori qadar toshlarni yog'dirdilar. Lekin u erta tongdek tabassum qilib, yaxshi duolar bilan odamlarga pand-nasihat qilar edi.

«Alloh uning qadrini ko'tardi» — bu qanday ulug' axloq ifodasi.

«Uning yuzi munavvar» — bu naqadar o'zlikning olijanoblighi!

«Uning iqbol baxti bizga yo'l boshlovchi!»

«Unga va uning uy a'zolariga salavot ayting!»

¹ Amin — saqlovchi, omonatga xiyonat qilmovchi.

UCHINCHI NA'T

*Ul payg'ambarlik Quyoshining soyasi yo'qligining darajasi,
to'g'rirog'i, Quyosh bo'lmoq uning soyasi ekanini va besh
barmog'ida qalam ushlagan holda yetti iqlimni qo'lga olgani,
hatto barcha dinlarning daftarlari varaqlariga ma'n etish qalamini
chekkani haqida*

Ey sharaf ko'kida yuzi quyosh sham'i bo'lgan, u sham'ga ko'k osmon soya singaridir! Agar senda soya solish odati bo'lmaganda, oyog'ing ostiga tushib yotarmidi! Sham'ing darajasining buyukligidan bu soyadan sen or qilding.

Chehrangdan Quyoshga ham nur taralib, uning atrofida soyasi yaqin kelolmay, ajralib yuradi. Alloh senga bundan yuz hissa ortiq nur bergan bo'lib, agar sen soyadan nafratlansang ham ajablanarli yeri yo'q.

Soya sening shaxsingga yor bo'lmasa ham, ammo butun borliq sening qadring soyasidadir. Sham'ing oldida qadimiyat nuri — qorong'ilikdan iborat bo'lib, nimaiki unga hamsoya bo'lsa, o'sha nurdir.

Barcha o'tgan payg'ambarlar senga soya sifat bo'lib, bu deganim — ular Sening Quyoshingdan chiqqan ziyolardir. Olijanob Quyosh o'z husnini turlicha namoyon etganda uning dag'al jussasi o'sha soyaga sababchi bo'ladi.

Sening zoting eng oliy nasabning javharidan bo'lgani sababli Yer soyasi bilan birlashmadi. Sening qo'ling umrida qalam tutmagan, buning uchun u qanday qilib qog'ozni qora qilishi mumkin! Sen qalamning uchini o'zing ochmagan bo'lsang ham, lekin barmoqlaring Oyning qalamini yorgan-ku!

Ushbu qalaming qog'ozga bir nuqta qo'ymagan bo'lsa ham, boshqa dinlarni bekor etish masalalari bo'yicha ko'p narsalarni bitdi. Kimki sen xatingda ko'rsatgan yo'ldan chiqqan bo'lsa, qalam kabi ular o'zlari o'z yuzlarining qoraligini fosh etdilar. Kimki sen ko'rsatgan yo'ldan bir qadam chiqqan bo'lsa, qalam o'rnida jazo tig'i boshini kesdi-ku.

Agar qalam yo'qolib ketsa, bundan tashvishlanishga hojat yo'q. Chunki jahon senga bo'ysunib bo'lgan. Sening xatingga Ajamdan boshlab Arabgacha bosh egdi. Shunday bo'lgach, Sen qo'lingga qalam tutmasang, bunga ajablanishning o'rni yo'q. Qalam yig'lab turib qo'lingni o'pmagan ekan, bu alamli voqea uni bir umr azador qildi. Kim yuzini qora qilib, g'amda ekan, bu — uning yuzi yorilganini emas, yoqasi chok ekanini bildiradi. Qalamni qo'lga olmaganing sababi shundaki, bu qalam ko'p taqdirnlarni qora qilgan edi.

Qog'ozlarni qora qilishga berilib ketdik. Lekin baxti qoralarning himoyachisi o'zingdiren.

Sening qalaming xat yozishga hech yaqinlashmadi. Qalaming bo'lmasa ham, sening nomalaring Allohga qaratilgan. Sen Allohning qadimiy va abadiy marhamati, baxti qaro bo'lgan odamlarning umidisen.

Kimning umid-istagi baxtsizlikka yuz o'g'irgan bo'lsa, Sen ularning baxtsiz joniga ora kiruvchisan.

Kimki tole'i past kelib adashgan bo'lsa, uni faqat shariat qoidalarini tuzuvchilar qutqara oladi. Kimda kofirlik zulmati to'plangan bo'lsa, (bu qonun-qoidalar yozilishidagi) har bir «alif»¹ Islomni sham'dek yoritib turadi.

Sening olijanobliging barcha dinlarga nisbatan bo'lib, «Lom» va «t»² dan har bir dinga zarar bordir.

«Lot»dan dinga doim turli halolar yuz berar edi. Sen uning oyog'ini sindirib, «Lo»³si qoldi, xolos.

Kofir xalqining «Manot» degan buti bo'lib, sen uni bo'ynidan sindirganingdan so'ng u «mot» bo'ldi — yengildi. Sen kufr boshini kesish bilan o'z qahringni ko'rsatding. Boshi shukuhdan ajralganidan keyin, gavdasi boshsiz qoldi.

Xasta Navoiyni nazaringdan chetda tutmagaysen. Unda kufr va xudbinlik bo'lsa, buning chorasini o'zing qilgaysen. Bunday inoyating bilan uni Islom jamoasiga kiritgaysen.

X

TO'RTINCHI NA'T

Muhammad s.a.v.ning payg'ambarlik osmonining yuksakligi va butun Olamni Osmondek o'z ichiga qamrab olishdagi kuch-qudrati va uning sahobalari haqidakim, ularning har biriga Osmonda bir yorug' yulduz sadoqatda bo'lgan hamda «mening sahobalarim bamisoli yulduzlardir» deyilgani shu mazmunda aytilgan

Ey nafasing mo'jizalaringga dastmoya bo'lgan, muqaddas ruhlar har gapingga sirdosh bo'lgan! Gaplashgan chog'ingda fasohat bilan so'zlaysan. She'riy nutqing esa hayron qolarli darajada tartibli. Ma'noli va qoidali gapirishingda senga fasihlik xos bo'lib, bunga «Menda fasohat!» — degan da'vo senga yarashadi. Sog'lom hukm chiqarishda so'zlaring to'g'ri, fasohat yerida so'zlaring chiroyli. Gapirganingda sendagi mo'jiza ayniqsa yaxshi ko'zga tashlanadi. Bunday paytda har qanday fasohat egalari o'zlarini ojiz sezadilar. Sening asling javohirlarga boy dengiz bo'lib, so'zlashganda bu dengizning kafi gavharlar sochadi. Bu kaf ham emas, besh shoxdan iborat bahr bo'lib, yetti osmonni yetti pufakchani yutgandek yutib yubora oladi.

Beshvaqt namozga navbat kelganda, Islom panjasi yanada kuchayib ketdi. Kufurning qo'lu panjalari esa dardga uchrab, bu dardning

¹ «Alif» — to'g'rilik, halollik belgisi.

² «Lom» bilan «t» qo'shilgani «lat».

³ «Lo» — yo'q demakdir.

sababchisi o'sha — Islom panjasi edi, — deyish mumkin. Muhtojlikda qolib, u barmoqlar dard chekar ekan, lekin haqiqatda esa bu Islom uchun qo'lga kiritilgan besh xazina bo'ldi.

Islom panjasi tobora mustahkam tortib borar ekan, kufurning yetti qo'rg'onidan beshdan bir soliq olar edi.

Buni oddiy qo'l dema, u bamisoli bir tig' bo'lib, bitta barmog'i bunga ishora bo'lganda Oyni ikkiga bo'lgan qo'l edi¹.

Ajab emas, uning mo'jiza ko'rsatuvchi qo'llari bir ishora bilan oyni ikkiga bo'lgani. Payg'ambar minib yurgan tuya yer bo'ylab qadam tashlab borar ekan, uning har bir izi o'sha «Oyning ikkiga bo'lingani»ni eslatar edi.

Payg'ambarning buyrug'i bilan yosh ko'chat chiroyli harakatga kelar. go'yo o'jar sanam yurib ketayotganday bo'lardi.

Dushmanlar tufayli u g'orga berkinganda g'orning og'zidagi o'rgimehak uni parda to'qib to'sgan. O'sha parda shamolda uchib ketmasligi uchun qushlar o'sha pardaga o'z tuxumlaridan tugma qilgan edilar. Pardaning iplari jon rishtasidan to'qilgan bo'lib, tugmalari go'yo shohona gavhardan edi.

U shu taqlidda tuzoq qo'yib, g'or oldiga esa don sochib, qarang, qanday baxt qushlarini ovlay oldi. G'orda hushyor do'sti (*Abu Bakr Siddiq*) bilan berkinib turar ekan, go'yo ular tog' qatida yotgan oltin bilan kumush edilar.

Kofirlar bayrog'ining balandligi vaqtincha ortgan paytda u dini g'alaba qozonishini duo qilar ekan, ikki tandan biriga toj muyassar bo'lishini tiladi. Bularning biri Abu Jahl bo'lsa, ikkinchisi Umar edi. Abu Jahlning taqdiri oxiri azob-uqubat, ikkinchisi haqidagi duolar esa mustajob bo'ldi. Xudoning kitobi — «Kalomulloh» esa Muhammad s.a.v.ga nasib bo'ldiki, dunyoda bundan ortiq mo'jiza yuz bermagay.

Suralar hali (to'la ma'noda) sura emas, «Qof», «Nun» yoki «Sod» harflariga oid qismlar bo'lib, bular turli harflarga oid qoralamalar edi. Ular Payg'ambarning sochlaridek tarqoq edi. (Hazrati Umar)«Qur'on» bo'laklarini yig'ib jamlagan to'plovchi bo'ldi. U Muqaddas Makkani butxonadan ajratib, qilichining suvi bilan uni butparastlardan tozaladi. Ko'rinishdan butlar tamom olib chiqib tashlangach, Payg'ambar Haq uyida butlarni sindiruvchi sifatida o'rin tutdi. Uning etigining na'li sharaf toji sifatida eng yuqoriga qo'yilgan bo'lsa, Ali bu na'lga yelkasini tutdi.

Payg'ambarlik dengizining duri — payg'ambar ruh bo'lsa, to'rt rafiqi uning tanasining to'rt unsuri bo'ldi. U o'zi (do'kondagi) qimmatbaho boylik bo'lsa, Ali uning sotuvchisi, go'yo ayriliq vodiysida yurgan bir muhojir edi. Kofirlar tomonidan dinga darz yetkazilganda, bu to'rt kishi g'alaba yo'lidagi devor bo'ldilar. Ularning odamlarini, avlodlarini, uning qo'l ostida bo'lganlarni, ulug'lari, nevaralari va do'stlarini Alloh qo'llasin! Ular Tangri taolo karamiga yaqin bo'lib, qiyomat kunigacha ularga yuzlarcha minnatdorlik tuhfalari bo'lsin!

¹ Bunda Payg'ambarimiz bilan Abu Jahl o'rtalarida bo'lib o'tgan mashhur mojaroga ishora qilinmoqda.

BESHINCHI NA'T

*Me'roj kechasi ta'rifida; olijanoblikdirkim, «Ul zoti pok»
sadoqatli bo'lib, o'z bandasi (Muhammad s.a.v.)ni bir kechada
Haram¹ masjididan Aqso² masjidiga olib bordi va buning isbotiga
ikki sodiq guvoh bordir*

Kechalarning birida koinotni qorong'ilik bosib, quyosh obi hayot bulog'idek yashiringan edi. Garchi u buloq ko'zga ko'rinmasa ham, Xizr ko'k uzra undan qatralar sochardi. Tun changlarini anbarga aylantirgan, ularni jannat shabadalari Yer uzra tarqatar edi. Yer yumaloq shakldagi xushbo'y idishga aylanib, tun qorong'iligidan unda anbar tayyorlanayotgandek edi. Yer idishi ostida Quyosh o't yoqayotgan, idishni esa Osmon o'z etagi bilan yopib turgandek ko'zga tashlanardi. Orom va tinchlik yomg'iri yog'ib, yuz berayotgan hodisalar to'zonini pasaytirishga intilardi.

Shu kecha do'stlik gulistonining sarvi do'stlik xonasining sham'ini yanada ravshanroq qildi. Uchrashuv xayoli bilan ko'ngli xursand bo'lib, dengizdek jo'sh urib hayqirdi. Shu payt oliy maqomli sayyoh yetishib, qo'lida esa qushdek uchadigan otning jilovini ushlab turardi. Bu ot ko'kda sayr etishdan orom olib, unga Yerdan osmongacha chiqish bir qadam bo'ldi. Allohning pok xabarchisi unga salom qilib, Alloh nomidan unga ma'lumot berib dedi: «Ey shavqli sirlarning xazinas! Alloh seni ko'rishga o'z shavqu istagini bildirmoqda. Chunki payg'ambar jonon xabarini topgan ekan, uning jonon xabarini topgani yangidan jon topganidir».

Xabarchi unga yordam berib, otga mindirib, otni o'zi kelgan tomonga qaytarib olib ketdi. Shu ravishda bu olijanob, ochiq yuzli otliq sayr qilar, tole'i baland oti qushdek uchar edi. Bu tez chopishga o'rgangan ot chang ko'tarib, aql ko'zini ko'rmaydigan holatga solardi. Ul tun qorovuli — Oy esa jilva qilib, barcha sirli kechalar unga kulib turardi. Bu ot ko'tarilib ko'k osmonga yetganda, Oy o'tish uchun unga tuynuk vazifasini o'tadi. Qalam egasi Atorud bunda hurmat qozongan, buqalamunlig' — ikkiyuzlamachilikka yo'l qo'ymayotgan edi. Zuhra³ xursandchilik barbatini⁴ sozlab, y (Payg'ambar)ni zamzama bilan qo'llay boshladi.

Quyosh o'z soyasi bilan uning jamolini to'sib turar, hilol esa shu'la ostida berkingandek edi. Mehrida Bahrom (Mirrix) birso'z bo'lib, sharaf tig'i yuziga ko'zgu kabi edi. Unga yaqin yurishdan Mushtariy yanada martabasi ortib, yo'lidagi bir zina unga minbar bo'ldi. Zuhra sham'i qorong'ilikni yoritib, (Payg'ambar)ning zangi (negr)dek qora otini oq

¹ Ka'ba.

² Quddusi Sharifdagi qadimgi mashhur masjid nomi.

³ Zuhra — Venera sayyorasi, san'at ishlarining homiysi.

⁴ Barbat — tanbarga o'xshash cholg'u asbobi nomi.

qilib ko'rsatdi. Unga Hamal ham, Savr ham jonlarini berayotgandek, tog'rirog'i, ikkisi ham jonini qurbon etishga tayyor edilar.

Ham oldida Javzo kamarini tortib bog'lagan, ham Saraton o'zini tik tutib, jilva qilar edi. Sher (Asad) yo'lidan bir go'shani egallab, Sunbula uning otiga yo'l ozig'i bo'ldi. Palla yo'li gardini qimmatbaho iksirday o'lchar, Aqrab orasida ichkizish, davolash, (nina) sanchish, og'ritish ishlari olib borilmoqda. Qavs esa chillaga o'tirib, duo qilish payida. Jady (tog' echkisi) unga yetishi uchun (ozig' bo'ladigan) birinchi sutini keltiradi. Dalvga Yusuf kabi nazar solmay, Hutda Yunus kabi to'xtab o'ltirmadi. U yeldek hamma burjlarni kesib o'tdi va Osmonning Arsh qismiga ko'tarila boshladi. Unga poyandoz Arsh hamda Lavhu Qalam bo'lib, uning oti naq o'shalarga qadam bosishi kerak edi.

U endi Rafraga minib, hamrohi va yo'lovchi bilan xayrlashdi. Endi borayotgan yo'lida hech qanday makon qolmadi. U yo'qlik (lomakon) dashtini o'ziga makon etdi. Bunda u olti jihat¹ bandidan tashqariga chiqib, to'rt gavhar² ni tark etish unga toj kiyishdek bo'ldi. Yo'qlik oyog'i bilan qadam bosar ekan, aslida yo'l ham yo'q edi, qadamning o'zi ham.

O'zligidan na naqsh qolgan edi, na bir ko'rinish, hatto bu aytilgan narsalardan biron asar ham. Shu yo'l bilan u o'zini o'zidan xalos qilib, shu ravishda o'zini izzat pardasiga xos, loyiq deb topdi.

U yerga yetib qarasa, ro'parasida hech narsa yo'q edi. Qancha qaramasin, boqiylik ko'zgusini ko'rar edi. Ko'zguna boqqanda unda suratga o'xshash bir narsalar ko'rinar edi, xolos. Nima o'tkinchi (fano) bo'lsa, tashqarida qolgan edi.

Uning yulduzi shuncha baland ko'tarilganda, marhamat dengizida mavj paydo bo'ldi. U Alloh tilidan ummatlarining hammasini istay boshladi va, Allohdan barcha murod-maqsadiga erishdi.

Allohga tuproqdan bo'lgan tana hamrohlik qildi. Agar: «Shunday bo'ldi!» — deyilsa, shunday, bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Chindan ham uning tani boshidan-oxiriga qadar jon edi. Lekin uning joni Jononga yetishgan edi. U ikki dunyo rahmatini qo'lga kiritgan bo'lib, nimaga erishgan bo'lsa, hammasini o'zi bilan birga qaytarib olib kelgan edi. Uning yuzidan u — ilohiy dargoh qanday yorug' bo'lgan bo'lsa, oyog'idagi changlarni bu dunyo ham o'ziga surma qildi.

U (Payg'ambar) Arshga g'uncha bo'lib borgan bo'lsa, Yerga toza guliston bo'lib qaytdi; zarra bo'lib borgan bo'lsa, porlagan Quyosh bo'lib qaytdi.

Uning Me'rojga chiqqani va qaytib kelgani bir onda yuz bergan bo'lib, aql bunday tadbirdan hayronlikda! Qayda ajoyibotlar va mo'jizalar ko'p bo'lsa, ularni idrok etishda aql ojiz bo'ladi. U (Payg'ambar)ning chiqishi va qaytishiga ketgan vaqt kichikning kichigi bo'lib, bu fursat tahlilga arzimaydi.

Bu baxtli safar shunday tugab, qutlug' yo'l boshchi ruxsat oldi.

¹ Olti jihat — olti tomon (Sharq, G'arb, Shimol, Janub hamda quyi va yuqori).

² To'rt gavhar — to'rt unsur.

Olam podshohi taxtida o'ltirib, Olam ishini intizomga solishda davom etdi. Shariat tili ko'chirilgan daftarni o'qib, tiriklik suvi esa kufr qoraligini yuvar edi.

XII

*She'riyat mulkida o'zining zabardast hilagi panjalari bilan
naqd tilla va gavharlardan iborat besh xazinani qo'lga kiritgan
hazrati Shayx Nizomiy madhida va o'sha gavharu tillalar umidida
uning panjasiga panja urgan Amir Xysrav ta'rifida*

U so'z san'atkorlarining boshidagi toj, hatto bahosi xazinaga teng o'sha tojning gavharidir. U fazilat konidagi gavharlarning qo'riqchisi, kamolot daryosining qimmatbaho injusidir.

Uning ijodxonasi suvoqlaridan anbar hidi keladi. Xonaning to'rt tomoniga esa sakkiz jannat yashiringan. Garchi uning uyi ko'ngil kulbasidek ixcham bo'lsa ham, unda ikki jahon jilvalanadi. Baland osmon uning masjidiga qandil, nur sochuvchi quyosh esa o'sha qandildagi sham. Ka'ba uyidan doim unga bir eshik ochiq; namoz vaqtida unga bu eshik mehrob vazifasini o'taydi.

Ganja – uning vatani, ko'ngli boyliklar koni bo'lib, fikri xazinasi, tili esa o'sha boyliklarni ulashuvchidir. Uning fikr tarozusi «Xamsa»ni, «Xamsa» emas, balki «Besh xazina»ni o'lcharkan, unga Osmon tarozusi pallası, Yer kurrasi esa botmon tosh bo'ldi. Aql xazinachisi yuz avlod umri davomida tarozuda tortsa ham bari bir, uning kichik bir qismini tortib ulguradi, xolos.

Uning so'zlari latofat dasturxonida yoyig'liq; tili esa ma'no durlarini ipga tizgani tizgan. U bebaho so'z durlarini tartibga solgani uchun taqdir unga «Nizomiy» degan taxallusni munosib ko'rdi. Unga nisbatan «Uning sirlari pok bo'lsin!» deyishning hojati yo'q, chunki poklik ruhining o'zi uning fayzidan nishonadir. Besh harf bilan yoziladigan va chiqariladigan son hisobi bilan hisoblasang «ming bir» uning ismini bildiradi¹. Shu hisob bilan uning gavharga teng nomi Xudoning ming bir ismiga hamohang bo'ldi. Bunda alif harfi uning o'z ismini bildirsa, qolgan harflar uning bir ming sifatini anglatadi.

U sochgan durlar yer yuzini qoplab, hatto osmon qutilari ham limmo-lim to'ldi. U so'zga shunday parдоз berdiki, boshqalarga bu sohada qiladigan ish qolmadi.

Undan keyin hind chavandozi ham hindiy xanjari bilan so'zni saralab, xanjarining chaqmog'idan uchqunlar sachratib, mingan oti ham o'tday tez harakat qilib, qayoqqa o'zini o'tdek tez va qattiq urmasin, hamma yerda to'polon ko'tardi. Bu mamlakatda qanday so'z obodonligi bo'lsa, imkoni boricha ularni o'z qo'liga kiritdi. Uni shunchaki hind chavandozi deb bo'lmaydi, uni hind

¹ Arabcha yozuvda Nizomiy besh harfdan iborat bo'lib, (nun) – 50, (izg'i) – 900, (alif) – 1, (mim) – 40, (yo) – 10 ni bildiradi, jami – 1001.

sultoni deb atash kerak. Uning qalami uchi hind mamlakatining ko'rkidir. She'riyatidagi har bir doston Hindistonning bir o'lkasiga tengdir.

Ganja podshosi (Nizomiy) boyliklarni sochuvchi, u esa unga ergashuvchidir, so'z iqlimida u shoh bo'lsa, o'z nomi bilan bu ham xusrav (podshoh)dir. Xusrav bo'lib, mamlakatni obod qildi. Uni Xusravgina emas, Farhod deb atasa ham bo'ladi. Uning hunari mehnat-mashaqqat tog'ini qazish; bunda tog' uning she'riyati, tasha esa uning tilidir. Uning joni ishq o'tining o'txonasidir, g'am dengizi esa uning ko'zidan oqqan yoshlardir. Sham' kabi u bazmlarga nur sochadi, bazmlarni yoritadi-yu, o'zi esa kuygani kuygan.

Ganja quyoshi bayroq ko'tarib, so'z mamlakatini bir hukmronlik ostiga birlashtirganida, bu ham ko'z tikmagan, qo'shin tortmagan mamlakat qolmadi. Qaysi bir mayni ichib, u kayf qilgan bo'lsa, bu ham o'sha mayni ichib mast bo'ldi. U qaysi maskanga yo'l olgan bo'lsa, bu ham o'sha yerda bazm qurdi. Borgan yerini u «Maxzan ul-asror»¹ bilan bezagan bo'lsa, u yerni bu «Matla' ul-anvor»² bilan yoritdi. U masnaviy yo'lini o'ziga bo'ysundirgan bo'lsa, bu ham unga ergashdi, unga monand ish tutdi.

Ko'p kishilar ularga o'xshatmalar yozishni havas qilishdi, biroq ular sarv bilan gul qarshisiga xas keltirishdi. Ulardan faqat bir kishi³ bundan mustasnoki, bunday odamni ko'hna falak shuncha aylangani bilan boshqa yarata olmadi.

XIII

*Yuksaklikning uzun soyasi, shodlik jomining sof sipqoruvchisi
mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy vasfikim, vasfga sig'mas,
ta'rifikim, ta'rifga to'g'ri kelmas va ul hazrat iltifoti quyoshi qora
kunga qolgan men ojizning ahvoliga nur sochganining bayoni, ul
quyosh tarbiyasidan bu tuproqda oq gullar, oq gullargina emas,
rang-barang rayhonlar nishon bergani va «Tuhfat ul-ahror»⁴ tuhfasini
mutolaasidan g'amgin ko'ngulning xursandchilik topgani
va «Hayrat ul-abror»ning la'l va javharlarini nazm ipiga
tizmoqning sababi*

U bugungi kunda so'fiylik maslagining dahosi, haqiqat sirlarining kashf etuvchisidir. Uning ko'ksi — haqiqat durlarining xazinasini, ko'ngli esa ma'no yuzlariga oina.

Uning o'rni yetti qavat osmondan ham yuqorida: yetti osmonning

¹ «Sirlar xazinasini» — Nizomiy «Xamsa»siga kirgan birinchi falsafiy-didaktik dostonning nomi.

² «Nurlarning tarqalish manbasini» — Xusrav Dehlaviy «Xamsa»siga kirgan birinchi falsafiy-didaktik dostonning nomi.

³ Abdurahmon Jomiy ko'zda tutiladi.

⁴ «Asllar tuhfasini» — Abdurahmon Jomiyning «Maxzan ul-asror» va «Matla' ul-anvor»ga javoban yozgan falsafiy-didaktik dostonining nomi.

mushkul ishlari esa – uning oldida hal. Uning maskani – soflik madrasasi; uning uchun eng tinch joy – do‘stlar xonaqohidir. Uning jilva qilib qarab turadigan joyi yuksak osmon gulshani; suv ichadigan chashmasi esa aniqlik manbaidir.

U qurgan so‘z qasri shu qadar balandga ko‘tarilganki, unga hatto osmon ham sirtmoq sola olmaydi. Bu qasrda shaytonlarning xas-xashagi ilinib qolishi imkoni yo‘q, chunki unda farishtalar to‘dasi qanot qoqib yuradi.

Go‘yo jahon osmon gumbazi ostiga yashiringanday, u o‘z hujrasining gumbazi ostida yashirilib o‘ltiradi; uni sen jahon ham dema, katta olam deb ata, Allohi taoloning qudratidan nishona deb bil. Uning ustidagi darveshlik xirqasi oddiy kalta to‘n bo‘lib, bu to‘n uning tani, jismi esa uning jonidir. Xirqa o‘rniga bunday to‘n kiyishining sababi, o‘z tanini riyokorlik libosidan xalos etishdir.

U boshini o‘ychan quyi solib, dildan Xudoga yuzlanganida, ravshan ko‘ngil bilan chaqmoqday sayr etadi. Bu sayrda u falakni xijolatga soladi, yer yuzini esa xat varaqlari aylanganday aylanib chiqadi.

U xat yozar ekan, uning siyohi vaqt quyoshini qora parda bilan bulutdek to‘sib qo‘yayotganday bo‘ladi. Bu pardani u yashirin holatlarni berkitish uchun yasagan; sahifalar ham shu holatlarni sir tutish uchun to‘ldirilgan. Uning davoti bor zulmatni o‘ziga jamlab olgan; ma‘nodorlik esa unga hayot suvidir. Uning bir qatrasidan bahramand bo‘lgan odam, shubhasiz, abadiy umrga erishgan bo‘ladi.

Uning nazmi jahondagi barcha mintaqalarni tutgan, nasri esa jon o‘lkasini egallagan. Uning asarlari shohu gadoga ham birday yoyilgan; shohu gado unga xizmat qilish bilan faxrlanadi.

Lekin mening unga nisbatan ojiz va muhtojligim hamma odamlarnikidan ham ortiqdir. Chunki olam quyosh nuri bilan to‘la bo‘lsa ham, lekin ularning orasida bir zarra shu quyosh mehri bilan mashhurroq bo‘lishi mumkin. Bog‘da turli-tuman qushlar ko‘p bo‘lsa ham, bulbul bilan gulga e‘tibor boshqacha. U biron asar ustida qalam tebratsa, uning yozganini mendan oldin boshqa birov ko‘rmagan. Axir tog‘dan quyosh ko‘tarila boshlaganida ham uning nurlari avval tuproqqa tushadi. Gulning shoxlarida anvoi gullar ochilar ekan, ularga ham avval tikan hamdam bo‘ladi.

Kunlarning birida bir yig‘ilishda u yuzida nur balqib o‘ltirar edi, har tomondan har xil ajoyib voqealarni gaplashar edik. Gap ustoz va izdoshlar haqida borar ekan, Nizomiy bilan Xusravga ham navbat yetdi. Ularning qalami tufayli paydo bo‘lgan ikki «Xamsa» olamga qanday hayajonlar solmadi! Lekin bu ikki «Xamsa»ga kirgan o‘n go‘zal doston ichida oldingi ikkitasi yaqqol ajralib turar edi.

Ha, «Maxzan ul-asror»ga teng keladigan gavhar bormi?! Ha, «Matla’ ul-anvor»dek yulduz (sayyora)ni qidirib topib bo‘ladimi?!

Dostonlarning boshqalari ham yomon emas, barchasining husnida majoziy bezaklar jilva qiladi. Ammo biz aytgan bu ikki dostonning biri gavhar sochib turganday; gavharning nurida azizlik, poklik nishoni

bor. Uning ikkinchisi ham porlab turadi, yorug'ida esa haqiqat shu'lalari ko'zga tashlanadi.

Fikr haqiqat o'tidan bahramand bo'lgan bo'lsa, u toshni ham suv qilib eritib yubora oladi. Biroq fikr haqiqat gavharidan uzoq bo'lsa, unga ip topish to'g'risida so'zlamagan ham yaxshi. Ipni topsangu o'rish-arqog'i bilan keltirsang-u, yaxshi dur bo'lmasa, uning chiroyli rang va naqshidan ne foyda?!

Shunday qilib, oradan bir oy o'tdi, ikki oy o'tdi. Kunlarning birida baxt va aql menga yo'l ko'rsatib, uni ko'rgim kelib, huzuriga bordim. Uning qo'lida bir necha bo'lak qog'oz ko'rdim. U kishi kulib, menga imo qilib, «Tuhfa»¹ni yozib bitirganini aytdi.

— Ol-da, boshidan-oxirigacha ko'rib chiq, boshidan-oxirigacha har bir varag'ini ko'zdan kechir! — dedi.

Darhol oldiga kelib, unga jonimni sadaqa qildim, qo'lidan dostonni oldimu o'pib, darhol ichini ochdim. U boshidan-oxirigacha shohona dur edi. Yana qanaqa dur deng? «Tuhfat ul-ahror» dostonining o'zginasi edi. Bahramand bo'lishni istaganlar undan naf topar, u oldingi ikki dostonidan hajm jihatidan kichikroq bo'lsa ham, foydasi ko'proq edi. U ikkala dostonida bor gapni bundan topsa bo'lar, ammo bundagi hadyalarning ko'pi ularda yo'q edi.

Shavqiga naq ko'ksimni yordim, ko'nglimni esa jildi uchun g'ilof qildim. Uni obdon o'qib bo'lganimdan keyin ko'nglimda bir havas paydo bo'lib, bezovta qila boshladi:

Ular² hammasi bu yo'ldan yurgan ekanlar, men ham bir necha qadam yurib ko'rsam qanday bo'larkan?! Ular axir o'z asarlarini forscha yozdilar; men esa turkiy til bilan boshlasam; ularning asarlaridan forsiy xalqlar xursand bo'ldi; turkiy xalqlar ham mening yozganimdan bahra olsa; oldingi ikki muallif ruhiga fotiha o'qib turib, bu (Jomiy) menga ham bu ishga bir fotiha bersa. U ikkalasi ichdan menga qarshilik ko'rsatmasa, tashidan bu menga yordam berib tursa, men bir narsani talab qilib chiqar ekanman, qalamni qo'lga olib, umid qilamanki, bu yo'lda Nizomiy yo'lga yo'llar ekan, Xusrav bilan Jomiy qo'llasa hech kim Navoiyga bu xil asarni yaratish nasib bo'lmaydi! — deb ayta olmaydi. Kattalarga bir kambag'al panoh so'rab murojaat qilsa, ular buni qabul qilsalar, bu ham ularga qo'shilib, kattalashib ketishi mumkin. O'zi terining ichida paydo bo'lgani uchun mushk hech teridan or qilmaydi. La'l ham tosh bo'lgani uchun xarsang toshning ozorini sezmaydi. To'rt unsur³ bog'i juda ko'ngilochar bo'lsa ham, uni o'rab, saqlab turgan devor oddiy loydan. O't, suv, havo qancha yoqimli bo'lmasin, ularning orasida tuproqning ham o'z o'rni bor. Sarv, gul va lolaga, odatda, xaridor ko'p. Lekin o'tinning ham bozori bor. Ipak va atlasdan hashamli kiyimlar bo'lganidek, namat to'qimalari ham itning ustini yopish uchun kerak-ku? La'l,

¹ «Tuhfat ul-ahror» dostoni.

² Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy ko'zda tutiladi.

³ T o' r t u n s u r — suv, havo, yer, o't.

yoqut va durlar odatda yuksak baholanadi. Lekin kahrabo somonni o'ziga tortadi. Shoh musaffo maydan uch qadah ichdimi, mayxo'rlar uning quyqasini ham qoldirmaydi.

Men o'zimni it kabi past baholab, o'zimni ulug'lar ushlagan arqonga bog'ladim. Ular yo'qlik dashtiga yo'l olgan ekanlar, men ham soya kabi ularga hamqadam bo'lay. Ular mangulik g'origa kirib g'oyib bo'lsalar, men ham ularga to'rtinchi yo'ldosh — iti sifatida qo'shilay¹.

XIV

Odamzod vujudi osmonining jahonni yoritar yulduzlari va inson zotiga xos bo'lgan konning behisob javharlari bo'lgan so'z ta'rifida va baxt yulduzlarining bir-biri bilan yaqinlashishi yaxshi belgi ko'rgazgani hamda qimmatbaho javharlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi yoqimli tuyulganidan nazm tarkibini nasr tartibidan ortiq ko'rish haqida

So'z gavharining sharafi shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi. To'rt sadaf² ichidagi gavharga quti ham shu so'z, yetti qavat osmon yulduzlarining burjlari ham shu so'zdir.

Inson ko'ngli qaysi tomonga boqmasin, jahon bog'chasida yuz xil yangi gullarni ko'rarkan, ular barchasi bir vaqtlar sirli yo'qlikning gulshanida yashiringan, g'unchalar ham hammasi ochilmagan holda edi. Azaliyat tog'idan mayin shabada esa boshlashi bilan jahon bog'idagi shuncha gullar ochilib ketdi. Bu oddiy shabada emas, gullar sochuvchi shabada bo'lib, u na'matak va undan to'kilgan gul yaprog'iga o'xshab ketadi. Shu ikki narsani donishmand odam bir-biriga yopishtirsa, «kofu nun» hosil bo'ladi³. Dunyodagi hamma bir-biriga bog'liq va bog'liq bo'lmagan narsalar — barchasi shu «kof» va «nun»ning bolalari, o'shandan paydo bo'lganlar. Bu bolalar yana hisobsiz bolalar ko'rib, bola o'zi ham ota, ham o'g'ilga aylandi. Uni so'z bilan qanday maqtash mumkin? Axir, nima deyilsa ham uning o'zini o'zi bilan maqtalgan bo'ladi-da!

So'z jon bo'lib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. So'z dunyoda bor barcha ko'ngillarning qutisidagi javhar, hammaning og'iz qutisidagi qimmatbaho gavhardir. Agar til hamisoli bir po'lat xanjar bo'lsa, so'z unga qadalgan injulardir. Til shu chamanning ochilgan lolasi bo'lsa, so'z durlari unga qo'ngan shabnamlardir. So'z o'lgan odamning tanasiga pok

¹ Navoiy bu o'rinda uch azizning podshoh zulmidan qochib, bir g'orga yashiringani, ularga bir it ham ergashib, yaxshilarga ergashgani uchun azizlar hisobiga qo'shilib qolgani haqidagi mashhur afsonaga ishora qilmoqda.

² T o' r t s a d a f — suv, havo, o't, tuproq.

³ Arabcha «k» va «n» harfi bir-biriga qo'shilsa, «kun!» bo'lib, «yaral!» «bunyod bo'!» degan ma'nolarni bildiradi.

ruh bag'ishlaydi. So'zdan tandagi tirik ruh halok bo'lishi mumkin.

Yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltira olgani uchun Iso payg'ambar o'zini «Jonbaxsh» degan laqab bilan atagan. So'z tufayli Xalil o'zini o'tga tashlagan; Jabrail ham so'z yukiga hammol bo'lgan. Tangri insonni sirlar xazinasiga darajasiga ko'targan ekan, uni so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgani uchun hayvonlardan ortiq qilib yaratdi.

G'uncha og'izlik, shirin lab jonon gapirmasdan labini yopib turib olsa, uning mayday totli la'li lablari aqlni mast qilsa, mastlik u yoqda tursin, mayparast qilib qo'ysa ham, tashqi ko'rinishi bilan osmondagi oy bo'lsa ham devordagi surat bilan uning ko'rinishi o'rtasida farq yo'q.

Chiroyda yuzi o'yning rashkini keltirmasa ham, la'lga o'xshash lablari shakardon bo'lmasa ham, g'amzasi bilan birovlarga o'q otmasa ham, shunday qilib kipriklari safini kamaytirmasa ham, o'z go'zalligi bilan talonchi va tannoz emas esa-da, unda faqat to'g'ri husn bilan noz bo'lsa, lekin po'pisa bilan so'zlayotgan chog'ida, tili achchiq bo'lsa ham, javobi shirin bo'lsa, o'zicha fitnalar qilsa, turli va'da va xabarlar keltirsa, dashnomlar berib, aqlni mast qilsa, shunday malohat ustiga yana yolg'onchilik qilsa, yolg'onchiligi yarangga tuz sepib tursa – bunday alangalarda kim yonishni istamaydi?! Va bunday yaraga kim ham davo qila oladi?!

U o'z husni bilan ibodat qiluvchini ham yo'ldan ozdirsa, husniga shirin so'zligi zeb berib tursa, shu husnu malohat bilan gapirib, o'tkir so'zligini qoida bilan bayon etsa – bunday go'zal butun odamzod jinsiga o't yoqadi, butun odamzodni emas, butun olamni yondiradi. Har lahzada odamlarni o'ldirib, kuydiradi, inson zoti borki, hammasini o'rtaydi.

Bazmda har qanday sozanda dilkash kuylarni ijro etib, kuyda qancha yaxshi takrorlar, mashqda qancha yaxshi naqarotlar bo'lmasin, tushungan odamlar undan to'la qanoatlanadilar. Kuy ijrosi cho'zilib ketsa, ularga malol ham keladi. Bu kuy orasida joyini topib, Navoiy so'zi bilan bir g'azal ashula qilib aytilsa, so'zlar olov purkab, tinglovchilar qalbini mung bilan ezsa, u vaqtda sen bazmdagi to'polonni ko'r! Mayxonadagi g'avg'olarni tomosha qil! Yoqa yirtish qanday bo'lishini ko'r, fig'on tortib, o'zini o'ldirganlarga boq!

Durning bir donasi bilan bog'liq gapga ishonma, so'zni jahon dengizidagi haqiqiy durdona deb bil.

Qalam so'zni sharhlab yozgan shuncha gaplar nasrga oiddir. Nazmdagi so'zning xossasi bundan ham boshqacha. Oddiy so'zlashuvda yolg'on dan e'tiborsiz narsa yo'q. Lekin nazmdagi yolg'on (mubolag'a)ni donolar ham ma'qul ko'radi. O'z joyida tizilib turgan tishlar durday yaxshi ko'rinadi. Ular sochilib ketguday bo'lsa, qanday qimmatga ega bo'lishi mumkin?!

Gul va daraxtlar bog'da so'lim ko'rinadi. Tog'da esa ular hammasi o'tin hisobidadir. Nasrda sochilib yotganligi kishini noxush qilsa, she'rda mavjud tartib-qoida ko'ngulni xursand etadi. Bandalarini

kechiruvchi Xudo ularni xilma-xil qilib yaratar ekan, ularning har qaysisini boshiga bir-biridan farq qiladigan toj bilan paydo qilgan. Shoh gulshanda bazm qurib, shodlik yo'lini tutadi. Har kishi o'z darajasini bilib o'tirsa, yig'inda tartib-intizom bo'ladi. Bordi-yu ichkilik aqlini yeb, shoh o'z yoniga eshik og'asini tortsa yoki qul o'z begi bilan adi-badi aytishadigan bo'lsa, unday bazmda tag'in qanday halovat bo'lishi mumkin?!

Shohmot taxtasiga donalarni to'kkan odam bir necha yog'och parchalarini uyadi. Birov ikki tomonga u donalarni ikki qatordan qilib tersa, u chiroyli ko'rinadi. Shohmotning ikki tomonidagi ikki qator xuddi ikki misra she'rga, to'rt qator esa she'rning ikki matlaiga o'xshab ketadi. Bunday har dona ajoyib muammo bo'lib, ularning zimnida otlar ham paydo bo'ladi. Odam qancha to'g'ri fikr qilmasin, bunda ozgina parishonlikka yo'l qo'ysa, otning yurishi tufayli mot bo'lib qolishi mumkin.

She'r daftari ham bir-biriga bog'langani uchun uning varaqlari gulzordagi gulday toza. Daftarning ipi so'kilsa, uning varaqlarini shamol har tomonga uchirib yuboradi. Gulshanda gullarning saf tortib ochilib turishi, bu – nazm; ularning yerda sochilib-to'kilib yotishi esa nasrdir. Nazm bu qadar yuksak e'zozlanmasa, Tangri So'zi'da she'r bo'lmas edi.

Nazmda ham asosiy narsa ma'nodir, uning shakli esa har xil bo'lishi mumkin. Yaxshi mazmunga ega bo'lmagan she'r tushungan odamlar tomonidan yaxshi baholanmaydi. Ham yaxshi shaklga ega bo'lgan, ham go'zal ma'no asosiga qurilgan she'r – haqiqiy she'r.

Ey Xudo, xuddi shunday she'rlar xalqning muhabbatini qozonsin. Xasta Navoiyga ham shuni nasib et!

XV

Bir necha so'z shu mazmundakim, so'zning ma'nosi uning jonidir, usiz so'z qolipi jonsiz qolipdir va buni qanday qo'lga kiritishni hech kim bilmaydi, hatto uni qo'lga kiritgan odamning o'zi ham yo'q, vaysaqilarning noinsofligiga tan bermoq, balki o'z behudago'yligiga iqror bo'lib ulardan uzr so'ramoq

Kimda ma'no gavhari bo'lsa, o'sha odam so'z daryosining g'avvosidir. Ma'no mash'ali kimning yuzini yoritgan bo'lsa, fayz haramida jilva etish o'shanga nasib bo'ladi. Kim ma'no durining sadafidan o'ziga jom qilgan bo'lsa, so'z mayini o'sha odam to'la simiradi.

Bu shu qadar ajoyib va mazali sharobki, ko'ngulning eng qorong'i joylarini chiroq bo'lib yoritadi. Osmon xumi ham shu sharob bilan labigacha to'latilgan; u xumning og'zi esa quyosh g'ishti bilan berkitilgan. Dunyodagi barcha odamlar bu dengizga g'arq bo'lgan; so'z latofati ularni ko'zdan yashirgan. Kimki undan bir qatra ichgan

¹ «Qur'on» nazarda tutiladi.

bo'lsa, kayfidan xum singari qaynagan. Uning fayzi bilan olam qancha to'lmasin, uning dengizidan kamaygan bo'lsa bir qatra kamaygan, xolos.

Men shu mayning kayfidan mast bo'lsam ham, lekin o'tkinchi dunyoning odamlariga qo'ldoshman. Mening dimog'im nihoyatda qizib, chirog'im ham o'sha so'z shu'lasidan yongan. Haqiqat jomi qo'limga tekkan bo'lsa-da, ko'p vaqt sukut saqlashni afzal ko'rdim.

Ammo bir vaqt qo'limdan ixtiyor ketib, may ixtiyorimni olib, olam sahniga sabodek borsam, obod va buzuv yerlarni quyoshdek axtarsam; yer yuzidagi hamma narsani qo'lga kiritishning hisobini – faqat bu dunyoda emas, eski to'qqa ega bo'lgan to'qqiz qavat osmonda ham qilolmay, ulfat sifatida bir bazm qurib, bu mayni ichishga azm qilsam; she'riyatning buyuk taxtiga chiqib o'tirsam, ming-minglab nazm ahlari oldimda turishsa; bazmda musiqiy asboblarni shohona qilib tayyorlasam, nimitarkni¹ chakkamga qo'ysam; so'z mayidan oldimda chuqur daryo paydo bo'lsa-yu, qo'limda qayiqsimon ajoyib jom bilan har lahzada shu jomni to'ldirib olib, gulrang bodadan sipqarib tursam, turkiy ohangga qo'limni o'ynatib, «hay tulugim, hay tulum!» deb kuylasam; birov menga hamovozlik qilolmas ekan, loaqal qo'shiq aytib, quvvatlab tursa; men ichgancha ichishga jur'at qila olmasa, loaqal bir-ikki qultum ichib tursa.

Lekin yuksak falak maqsadim bazmiga bunday tuhfalarni munosib ko'rmadi. Bu xil mayni ichishni o'ziga kasb qilgan kishi burun bo'lmagan shekilli. Yoki bo'lgan bo'lsa ham, hammasi hayotdan ketgan, men kelishim bilan bazmni tark qilgan ko'rinadi.

Bu kimsasizlik menga yetmaganday, endi har tomondan odam nomiga isnod keltiradiganlar paydo bo'lyapti. Ularda so'z aytish qobiliyati bo'lmasa ham, ular so'z aytish payida; nag'malari sozlanmagan bo'lsa ham, kuy chalish ishtiyoqida. Ular she'rda tuyuq vaznini tushunmasalar ham, tuyuq u yoqda tursin, oddiy qo'shiq vaznini bilmasalar ham, yozganlarining so'zlari bemaza, tarkibi sust, mazmuni ham oddiy, sayoz, yozilish uslubi noto'g'ri bo'lsa-da, ularning hammasida bama'nilik da'vosi. Durust odamlar ulardan qutulolmay garang.

Menga rang-barang nazm bog'i nasib etgach, Chin sanami menga qancha duch kelmasin, ta'bim pardoqchisining doimiy ishi she'rlarimning husniga oro berish bo'ldi. Sunbul sochlariga taroq urardim, nargis ko'zlariga surma tortardim. Ko'zlarimning qonli yoshlari bilan yuzini qizil qilardim, ko'zim qorachig'idan betiga xol qo'yardim. U sho'x sanam kiysin deb so'zdan xilma-xil liboslar tikardim. Kelishgan ipak ko'ylak kiydirib, unga yuzlab qimmatbaho durlar qadardim. Jonimni boshdan-oyoq unga bag'ishlab, noz pardasida xiromon yurishini istardim.

Lekin bir to'da jafogarlar kelib, uning¹ ipak kiyimlarini talon-

¹ N i m t a r k – hosh kiyimining nomi.

toroʻj etishdi, zoʻravonlik qilib, qiynab, yigʻlagudek ahvolga solib, ustiga eski qora shol yopishdi. Qizigʻi shuki, tagʻin buni sheʻr deb atab, taʻrifini koʻklardan oshirishdi. Undan ham qizigʻi shuki, tanib qolishimni bilib turib, Xudodan uyalmay, yozganlarimni mening oʻzimga koʻrsatishdi. U (sheʻr)lar menga sal-pal yoqayotganini koʻrgach, mendan ehsonlar, tahsinlar istashdi.

Shunday qilib, ular koʻnglimga koʻp jafo tigʻini urdilar, faqat koʻngilgagina emas, hatto jonimga ham tegdilar. Endi menda xarsang toshlar topib, qalʼa yaratishdan boshqa bir chora qolmadi; men topgan togʻ juda baland, tepasi keng, shu togʻning ustiga shunday bir yuksak bino² qursam; uning suvgacha boʻlgan qismi toshdan, koʻkkacha koʻtarilgan qismi poʻlat boʻlaklaridan boʻlsa³, devorlarining tagiga shunday chuqur xandaqlar qazisamki, uning qaʼriga qarayman degan kishi qoʻrqib, aqldan oza! Uning ostidan lahm kovlash imkoni boʻlmasin; uning devoridagi kunguralarga ham hech qanday arqon yetmasin. Unda faqat parizodlar yashasin, ular har qanday xavfdan xoli boʻlishsin. Yovning badanini teshish, boshini urib uchirish uchun men u yerga koʻp oʻq va tosh toʻplab qoʻyaman. Bu toshlar jonni qiynovchi taqvodorlikdan, oʻqlar esa shoirmning sahardagi ohidandir. Nogoh bu binoga biror beadab yaqinlashsa, tosh va oʻqdan oʻz jazosini topadi.

Yo Alloh, bu deganlarim qanaqa afsona? Bu xil afsona deganning oʻzi devonadir! Men koʻp dagʻdagʻa soldim, mastga oʻxshayman yoki telbalik oyogʻimni kishanladi. Mast boʻlmasam, bunchalik lof urishimning sababi nimada? Bu telbalik boʻlmasa, muncha koʻpirdim! Men baʼzi odamlardan shikoyat qilgan boʻlsam, buni men oʻzim tushunmasdan gapirdim. Hammasining gaplari rang-barang, nazmlari ham dilkash va shirin. Haligi gaplarni aytgan vaqtimda men oʻzimdagi yoʻq edim; yoʻq-yoʻq, ular hammasi yaxshi, mening oʻzim yomon.

Navoiy, tebran, navoni bas qil, aytish kerak boʻlmagan gapni gapirma. Kuying boshdan-oyoq havoyi; tur, ularning boshlaridan oʻrgil, oyoqlarini oʻp. Hamma gadolarning oldida gado boʻl, shundagina Xudo seni shohga yaqinlashtiradi.

XVI

Sultonlar guruhining sarafrozi va xonlar mamlakatiga boylik bilan oro beruvchi, saltanatni, dunyoni va dinni eʼzozlovchi Abulgʻozi Sulton Husayn Bahodirxonning davlatini va podshohligini yaxshiligi va ehsonini olamga yoyilishi madhi va uni burro til bilan aytmoq qiyinligi, xususan, qalam tilining bunda lol ekanligi

U olampanoh shohni qanday shoh desang, butun olam va odamlar unga mamlakat va sipoh boʻlgan shohdir. Uning qasri yetti aylanma gumbazdan iborat boʻlib, yetti otasigacha xon boʻlib oʻtgan.

¹ «Mening sheʼrlarimning», demoqchi shoir.

² «Mayda sheʼrlarni qoʻyib, endi katta asar yozsam», demoqchi shoir.

³ Shoir oʻz «Xamsa»sini koʻzda tutadi.

Otasi xon bo'lishi bilan birga uning dovrug'i ham bo'lib, ko'proq shuhrati bilan faxrlangan.

Amalda esa turk, mo'g'ul xonlari uning qullari bo'lib, ular mamlakat berib, mamlakat oladiganlar bo'lishgan. Buning (qul darajasida) kamtarligi boshqa xonlarga ibrat bo'lib, Sulton Husayn xonlar va shohlar ustidan shoh bo'lgan.

Shoh Abulg'ozzi Quyoshdek ravshan fikrli bo'lib, bayrog'ining yarim oy shaklidagi belgisi esa Quyoshdan balandda tasvirlangan bo'lgan. Baland osmon uning taxti uchun munosib joy. Quyoshsimon to'garak naqsh kiygan tojiga bezak. Kaftlari dengiz bulutlari kabi dur, javohir sochsa, tig'i bu daryo suvini to'latuvchidir.

Uning belidagi kamarida yoqut bo'lib, uning yonidagi xanjar esa baliq¹ shaklidir. Uning xanjari baliq bo'lmasa, nima bo'lishi mumkin? Dastasini gavhardan yasalgan Mushtariy² desa ham bo'ladi.

Naykamalak go'yo uning yoyi bo'lib, o'z shohlik yorlig'ini uning yordamida falak toqiga osib qo'ygan.

Falak turki, ya'ni Mirrix sayyorasi goho uni quvib yetsa ham, lekin qancha kuchanmasin, uni qimirlata olmaydi.

Aylana osmon o'zi unga qalqon vazifasini o'tar ekan, qubbase yargiroq Quyoshdir.

Bu qalqon yuzida Somon yo'ldek bir narsa ko'zga tashlanar ekan, bu qin bo'lib, uning bezakdor qilichidan belgidir.

Nayzasi osmonda uchib yurgan uchar yulduz emas, balki yoyining ustidan toza kumush suvi yurgizilgani alomatidir. Ostidagi la'l nuqralar shafaqni eslatsa, rangi, bo'yog'i quyosh zarvaraqlaridan darak beradi.

Bu shohning jahli chiqqanda dushmanga aylanib, rahmdilligi shabadasi esganda esa xalq siylanishda bo'ladi.

Hammayoqni kuydiradigan xanjaridan o't chaqnaganda, qadahining shu'lasi olamni yoritib yuborishi mumkin.

Saxovat vaqtida qo'li zar sochsa, lutf qilgan chog'ida mehribonligi tutib, gavharlar sochishi mumkin.

Uning ko'ngli bilim gavharlaridan xazina ko'targan, qo'li saxovat kafidan ganj ulashadi. Lekin qahri olovi alanga olgan vaqtda afv bulutlaridan qatralar toma boshlashi ham hech gap emas.

Urush kunlari bo'lsa temirga burkanib olib, oyog'idan boshiga qadar zirhda. Xuddi xazon barglari suv ichida suzayotgandek, yoki ko'zguda dushmanning chehrasi ko'rinib turgandek.

U temir panjasida tig'ni tutib turgandek va tig'i go'yo temirdan yasalgandek.

Tig'idan taralgan shu'lani paykon uchi deb ham o'ylama. Uni o'sha o't tilini cho'zdi! — deb qo'ya qol.

U (Husayn Boyqaro) yo'llagan nayza dushmanning boshiga tegar ekan, o'sha lahzada urilgan balo chaqmog'iga o'xshab ketardi.

Bu uning qo'li kaftidagi bulutdan chaqilgan chaqmoq bo'lib,

¹ Hut — baliq.

² Mushtariy — Yupiter sayyorasi.

bunda uning uchun bir to'lda kul bilan tog'ning o'rtasida hech qanday farq yo'qligini bildiradi.

U mingan otning rangi ham chaqmoq rangida bo'lib, rangini qo'y, choppanda ham xuddi yashindek qadam tashlar edi.

Uning oyog'i mato bilan o'ralgan, oldingi qo'l-oyog'ida shamolni ushlab turganday bo'lib, shuning uchun ham bu otni «Bodpo»¹ deb atashar edi. Bu tez va asovni har qayoqqa minishar ekan, falak oti — Quyosh esa uning oldida kesmas pichoqdek bir narsa edi. Uning yonida osmon o'z otini ko'rib, u ho'kiz bo'lib xirmonni yanchayapti! — deyish mumkin edi. Agar u xirmondagi ho'kiz bo'lmasa, nima uchun doim bir joyda aylanib, to'g'ri keta olmaydi?

Agar sen o'sha xirmon va ho'kizning belgisini ko'rmoqchi bo'lsang, o'sha Sunbula² va Somon yo'li bunga belgi bo'la oladi. Ularning bu doiradan sakrab tashqariga chiqib ketishga haddi yo'q. Undagi har gumbaz olam gumbaziga tengdir. U yo'rg'alab yurish vaqti oyoq qo'yganda, xushovoz tog' kakligiga o'xshab ketadi. Lekin yugura boshlar ekan, ming yog'och undan oldinga oyoq tashlay olar edi.

Jang kunida shoh bu raxshga minib, javlon urib, dushmanning yuz ming askarlarini pachoqlab tashlay olardi. Jang ishlari maydonda tamom bo'lar ekan, ishrat uchun ayvonga yuz tutar edi.

Otdan tushsa-da Rustam³ kabi sayr qilib yursa. Taxtdan o'ziga Jamshid singari o'rinni egallasa. Shu bilan birga boshidagi oltin tojini olib qo'ysa. Belidagi bezakdor kamarini ham yechib qo'ysa. Jangda kiyiladigan harbiycha kiyimi va sovut ostidagi to'nidan ham qutulsa-da, xursandchilikda kiyiladigan ipak va kanopdan to'qilgan kiyimlarini kiysa, Bog'i Eram sahnida bazm qilsa, toza va kuchli sharoblardan ichishga kirishsa.

Sozandalar rud ohanglarini chalib, hofizlar dilkash qo'shiqlardan aytishsa. Gulchehra soqiylar juft qilib qadahlarni tutsalar-da, bazm ahlini hushlaridan ayirsalar. Bundan odob bilan shohlar yerga qarar ekanlar, hech narsa so'rashmasa, beg'larga bir narsa deyish imkoni qoladimi!

Uning o'ltirishlar qiladigan gulshani osmon bo'lib, unda Quyosh misoli qadahlar mayga to'ldirilar, Zuhra qo'shiqlaridan davlatli bo'lar, to'lin Oy bu majlisda zikr tushardi. Suhayl yulduzi esa musiqachilar homiysi Atorud kabi maqtovg'a mayl ko'rsatib maqtagani madh adosi bilan band edi.

U tuzgan bazm yashil rangdagi gulshan kabi, gazak uchun foydalanadigani har yerdagi yulduzlar bo'lardi.

U o'zi (podshoh) esa taxtida xuddi Jamshiddek, yo'q unday emas, Osmon tepasida Quyoshdek o'ltirar edi.

Bu bilan u xalq ko'zini yorug' nuri bilan ravshan, hatto qora tuprog'ni gulshan etardi.

¹ O'zbekchasi «Yeloyoq».

² Osmonning sakkizinchi burji nomi.

³ Rustam — Firdavsiyning «Shohnoma» asarining qahramoni nomi.

Saxovati bilan davlatmand odamlarning boshlarini silar, davlatmandlarninggina emas, barcha shohu gadoni ardoqlardi. Xazon yelidek tilla pullarni sochib, bahor bulutlari singari gavharlarni ham sochgani sochgan edi. Bu xazon yeli qizarib zarhal rangga aylanmaguncha, bahor bulutlari o'z gavhar (yomg'ir)larini sochmaguncha davom etardi.

Falak dengizidan hular senga xiroj o'rnidagi gavharlar bo'lib, asl zoting gavhari esa butun Olamga toj bo'lsin! Tojingdagi bezaklar abadiyat bezaklari bo'lib, eng tepasida esa boqiylik daryosining gavhari porlab tursin!

XVII

Ko'ngul ta'rifidakim, ko'nguldagidek ta'rif qilish qiyin va uning sifatlarini sof ko'ngulli kishidan boshqa odam bilmaydi; g'amgin qalamkash qalamini ishga solmoq va shu qalamning qora yozuvlari bilan ko'ngulni xushlamoq

Qudratli dehqon (Xudo) ilk tongda loydan bino bo'lgan odamni o'z qudratining gulistoni qilib yaratdi. Bu guliston tomon tayin bir shabada esib, sunbul, sarv, gul va rayhonlarni yelpiy boshladi. Bu rayhonlar u shabadaning hukmiga kirganda, tan gulshaniga xuddi ruh kirganday bo'ldi. U shabadaning maqsadi gul emas, faqat ko'ngulni qo'lga kiritish edi, xolos.

Ko'ngulning maqtovini bayon qilayotgan, ey shoir, ko'ngulni nima deb o'ylaysan? Agar vujuding gulshanida gul g'unchasi ochilsa, sen ko'ngul g'unchasi shu, deb o'ylama. Bu g'uncha emas, bu qonli ko'nguldir yoki qonga bo'yalgan yoy o'qidir. Bu rang va hiddan iborat bir shakl ham emas, bu o'zi bor bo'lsa, boshqa hammasi topiladi. Bu narsa kimning, nimaning joni bo'lsa, tanida g'unchaga o'xshash qoni bo'lsa, o'shanda bo'laveradi. Bu dajjolda ham bor, payg'ambarda ham bor, desak, unda Isoni uning eshagi bilan tenglashtirib qo'ygan bo'lamiz. Agar bir odam katta savdogar bo'lsa, aqlu hushi doim savdoda bo'lsa, u qaysi ko'ngli bilan o'zini ahli dil¹ deb hisoblay oladi? Sen jazm qilgan ko'ngul bu emas. Agar ko'ngul shunday bo'ladigan bo'lsa, sen undan voz kech.

Bu «ko'ngul» deb atayotgan narsang aslida yurakdir; yurakni «ko'ngul» deb ham ataganlari uchun bu ikki so'z nomdagina o'xshash, xolos. Aslida ko'ngul sirlar bo'stonining bulbuli bo'lib, poklik haramida jilva qiladi. A'lo darajadagi jannatning isi ham shu ko'ngul; Ilohiy jilva chirog'ining nuri ham shu ko'ngul!

Boshqalarni (Ilohiy) yo'lga boshlovchilar uni «eng baland osmon», so'fiylar esa «ulug' olam», deb atashdi. Lekin tiniq oinada bu katta jahon (ko'ngul) dunyodagi barcha odamlar ko'zidan yashirindir.

¹ Ko'nglida doim Xudoni saqlagan xudojo'y, mutasavvuf.

Butun dunyo qiblasini bo'lgan Ka'baning ham qadri ko'ngilchalik emas. Chunki u Ka'ba odamlarning oddiy sajda qiladigan joyi; bunda esa Yaratganning jilvasi zohir bo'lib turadi.

Bu sirlar to'la xazina — ko'ngulni qo'lga kiritgunga qadar yo'l boshlovchi qilgan ko'p ishlarni qilmoq kerak bo'ladi; buning uchun Ka'ba yo'llarini ham, rindlarning mayxonasiga olib boradigan manzillarni ham bosib o'tish kerak. Xudoga munajat qilish bilan yashaydigan odamlar orasida ham bo'lish zarur; mayxonada ham bo'lish kerak. Goh xonaqohda shayxning gapi bilan toat-ibodatga yuz tutganlar yoniga chekinish kerak, goh yo'qlik mayxonasiga mast bo'lib kirib, mug'bacha oldida butparastlik qilish zarur, goh sham' atrofida parvonadek aylanish, goh biron pari ishqida devona bo'lish, goh visolga erishib, aysh qilish, goh firoq o'tida kuyish kerak. Agar kumush badan, injiq bir ma'shuqaga uchrasang, u goh shirin xanda qilsa, goh sho'ringni quritadigan qiliqlar qilsa, dardu balo tog'ida Farhod bo'lish kerak, tirnog'larni po'lat teshaga aylantirish zarur. Yoki oy yuzli shunday bir dildor uchrasaki, u malohat dashtidagi Layliga o'xshasa, uning ishqida falakday sarson-sargardon bo'lib, dard biyobonida Majnun bo'lish ham kerak. O'tda samandar kabi chidab turish, suvga esa gavhar kabi sho'ng'ish ham kerak. Gavhar sochadigan bulut havosiga g'arq bo'lib, xazinadek tuproq ichida ko'milib yotish lozim. Bunday odam bormagan, tariqat yo'lini rivojlantirmagan vodiy qolmasin.

Kamolot kasb etmagunga qadar bunday odam hamma holatlarni boshidan kechiradi. Dunyoda hamma narsani ko'rib, uni egallaydi, shundan so'nggina u «olami kubro» laqabiga sazovor bo'ladi. Shu olam sari kimga yo'l ochilgan bo'lsa, o'sha odam dunyoda haqiqiy «ahli dil» sanalishi kerak. Mehribonlik xazinasini kimgaki nasib bo'lgan bo'lsa, xalifalik ham o'sha odamga tegishlidir. Safo taxti uning o'ltiradigan joyi bo'lib, uni sofko'ngil so'fiy deb atash lozim. Uning yo'lida jonu ko'ngulni fido etish, jonu ko'nguldan unga topinish zarur. Agar uning etagini ushlash imkoni bo'lmasa, u vaqtda uning etagidan bittagina ip Navoiy tomon tushsa ham yetarlidir.

XVIII

BIRINCHI HAYRAT

Ko'ngulning nomavjudlik tunidan qutulib, mavjudlik tongiga hamnafas bo'lib, malaklar olami bahoristonining rang-barang ko'rinishi yuz berganda, xilma-xil daraxtlarini tomosha qilishi va ularning «Sabbaha ismi rabbikal — a'lo» amri bilan haqiqiy Qayyum tashbihiga mashg'ul ekanini bilib dimog'i bog'ida hayrat gullari ochilgani va u gullar atri dimog'iga urilib, behush yiqilgani

Ey soqiy, tong otdi-ku, quyosh chiqdi, bir mehribonlik ko'rsatib, menga quyoshdek keladigan qadah tut. Tong qushi tong otganini

xabar qildi, bir-ikki qadah sahargi may ichay. Tongda safolik mayidan mast bo'lib, nola qilayotgan tong qushiga jo'r bo'lay.

Saharning ipak pardasidan oltin iplar tarala boshlashi bilan oq tun pardasining iplari chidash bera olmay ko'zdan g'oyib bo'ldi. Falakning toqiga taqdir qalami «Vash-shams» va «Vaz-zuho» oyatlarini¹ yozdi. Shu payt tong so'fisi ham paydo bo'lib, osmon bo'ylab nurdan joynamoz yoydi. Qora tuproq tun qoraligi qoldiqlarini tong supurgisi bilan supurib tozaladi. Osmon shu lahzaga qadar yer yuziga qora mushk zarralarini sepib kelgan bo'lsa, endi o'sha mushk ustiga hidli oq zarralarni sepa boshladi. Nilufarrang osmon tepadan shabnamlar yog'dira boshlaganda, sahar bog'ida sarig' lola ochila boshladi (ya'ni quyosh chiqqa boshladi). Obnusdan² yasalgan panjara oq so'ngakka aylanib, sarig' manqaldan o't sochila boshladi (ya'ni tong yorib, quyosh nuri tarala boshladi). Quyosh o'tida zulmat to'ni kuyib, yulduzlar uchquni havo bo'ylab uchib ketdi. Tun tovasidan jilva yo'qolib, uning gullari oynasi ham yiltirashdan to'xtadi.

Shu payt yo'qlik shomidan Xoja ko'z ochib³, tong yeli yetkazgan xabardan jon topdi. Mavjudlik shabadasi dimog'iga urilib, yo'qlik shomini tutundek haydab yubordi. U o'ziga ham begonadek edi, devonalarcha yuzini har tomonga urardi. U har nafas tongdek sarg'ayib, tong yelidek o'zidan ketib turardi. Dunyodagi yuz ming xil ajoyib narsalarni tomosha qilar, ularning sirini bilishni orzu etardi. Fikr qilib, qancha ko'p o'ylasa, bu orzuga yetish shuncha mahol tuyulardi. Qancha ko'p toat-ibodat qilsa ham, bu pardadagi sirlar ochilmadi.

Shundan keyin Inson siniqlik haramiga kirib, joylashib oldi-da, o'zining ojizligini va hayratini namoyon qilishga turdi. U ma'yuslik bilan o'z ojizligiga tan bergandan, keyin g'oyibdan ovoz beruvchi unga shunday nido qildi:

— O'rningdan tur, bu gulshan bo'ylab sayr et, gurkiragan sabzalarga bir nazar sol!

U o'rnidan turib, bir-ikki qadam yurgan edi hamki oldida Eram bog'i⁴ paydo bo'ldi. Bu qanaqa Eram deng, havorang gulshan. Havorang gulshan ham dema, jannat bog'ining o'zginasi. Har bir daraxti sidraga⁵ boshini qo'ygan, shoxlari esa shoxlariga chirmashib ketgan. Barglarining rangi moviylikda osmonni uyaltirardi. Uning soyasida esa hatto quyosh salqinlasa bo'ladi. Undagi sarvlar bo'ydor

¹ Sh a m s — quyosh; z u h o — choshgoh vaqti. «Qur'on»da shu so'zlar bilan boshlangan oyatlarga ishora qilinmoqda.

² Ob n u s — qora rangli qattiq daraxt.

³ «Ko'ngul» so'zi o'rnida shoir «xoja» so'zini ishlatgan; «xoja» — «ega», «xo'jayin» degan ma'nolarni bildirib, shoir bunda hali inson bilan qo'shilib ulgurmagan ko'ngulni tushunadi.

⁴ Afsona bo'yicha, xudolik da'vo qilgan Shaddod ismli bir podsho tomonidan yer yuzida bino etilgan ajoyib-g'aroyib bog'ning nomi.

⁵ S i d r a — yettinchi osmondagi bir daraxt.

va zangor rang, har biri bamisoli osmon saroyining bitta ustuni. Chinorlarining zulmidan quyosh azobda, panjalari quyosh panjasidan zo'r. Shuning uchun bu qiyinchilikdan uning rangli sariq, issiq ohlari bilan uni kuydirgani kuydirgan. Sandalining¹ muattar hidi Iso nafasini eslatadi. Undan o'lik ham Iso tiriltirgan odamday tirilib ketadi. Uning isidan suv gulobga aylanadi, soyasi esa tuproqni toza mushkka aylantiradi. Teraklarning oppoq tanasi kumushga o'xshaydi; g'ir-g'ir esib turgan shabada unga gard ham qo'ndirmaydi. Oqterak tanasining kumushsimonligi yosmin tanasining oqligiday, yaproqlari esa havorang tangalarga o'xshaydi. Sanubarlarning shoxi osmonga yetgan, tugmalari bilan yulduzlarni qalpoqchalardek berkitgan, sarv va oqteraklarning safi uzilmay, cho'zilib keta beradi. Oqteraklar sarvlarning qomatini ko'rib (o'z qomatining norasolidan) xijolatda.

Qizig'i shuki, sarvning boshida gullar ochilib, hatto to'kilib, taglariga sochilib yotibdi. Bunda o'sgan ko'katlar rangi zumradga, tuk bilan qoplangan tugmalari esa zabarjadga o'xshaydi. Har tomonda bitta shisha rang hovuz, lekin bu hovuzlarning oinasini namlikdan chang bosmagan, tiniq. Ularning oynasida jon surati jimir-jimir etib jilva qiladi; unga oqib kelib quyiladigan ariqni esa shu oynaning dastasi desa bo'ladi. Bu ariq suvidan inson ruhi oziq oladi; ostidagi mayda toshlari xuddi la'l va yoqutga o'xshaydi. Suv go'yo gulning oyog'iga bosh qo'yganday, boshini emas, kichik toshlarni uning oyog'iga halqa qilib taqib, bularning hammasini uning uchun xuddi bezak sifatida qadab qo'yganday.

Gul g'unchalar parda orqasida qizlarday; ularning baxt ipi tugunlari hali yechilmagan. Gullarning eng go'zali hamma ko'rishi uchundir. Bunday gulni xon ham shodlikka erishish niyati bilan uzadi. Shabnamdan durlar paydo bo'lib, shabada esishi bilan gul barglaridan kumush tangalar to'kiladi. Go'yo ko'zguda ma'shuqaning yuzi va sabza tuklari ko'ringanday, suv yuzida ko'katlar va gullar aksi ko'rinadi.

Gulga shabnam qo'ngach, har gul yaprog'i mahbubaning terlagan nurli yuziga o'xshaydi. Undagi sunbullar zaharli ilonday chirmashgan; g'unchalar esa uning nish urishidan ozor chekadi. O'sha zahardan o'z rangi yashilga aylanib, g'uncha tepasida bulbul afsungarlik qilgani-qilgan. Odamlar tugma deb gumon qilgan narsa oyoqni zaharlovchi zahar bo'lib chiqdi. Tikonning nishiga chidayolmagan bulbul tumshug'i bilan istagini izhor qiladi. Sarv tagida tovus xiromon; bu holda tovus shu'la bo'lsa, sarv undan ko'tarilgan tutunni eslatadi.

Tovus mast holda har tomonga jilva qiladi; shu ravishda gul va gul tuplarini sindiradi. Yangi novda va yangi barglari tolni sochlari o'sib, paxmoq bo'lib ketgan devonaga o'xshatib qo'yibdi. Bu bog' tabibi hiyla va makr bilan suvdan tol oyog'iga zanjir solgan. Nargis

¹ S a n d a l — qora-sariq rangdagi xushbo'y daraxt.

kasaldan tuzalmagan, hamon oriq, ko'zlari sarig' kasaliga uchragan odam ko'ziday sap-sariq. Rangi siniqib, ko'zini doim suvga tikib, undagi ko'katlarni baliq deb o'ylaydi¹. O'zidan atrofga oltin rangini sochib, o'sish-unish xabarchisiga hamisha bahorni bildiradi.

Lola mayxo'r qimorbozdek hayajonda, tosidagi ikki dona shudring uning oshig'i. Gul ham uning o'yiniga havasi kelib, cho'ntagidagi hamma pullarini yutqazib qo'ydi. Shudring tosh bilan binafshaning boshiga urib, uning boshini ko'k ro'mol bilan bog'lagan.

Momaqaldiroq bulutlar orasida chaqmoq chaqadi; u yerdan tushgan bir qatra yomg'ir esa Xizr chashmasidek ruhbaxsh. Shabada o'lganlarni tiriltirish uchun hammaga Isoning nafasini yetkazmoqda. Bu yerning bir qatra suvi kavsar suvidan ham ziyoda, tuprog'i esa jannat gulidan ham toza.

Inson bularning hammasini aylanib ko'rib, behol bo'lib, hushidan ajrab, tili lol bo'lib qoldi. U bog'ning qaysi tomoniga qaramasin, ko'zga tashlangan g'aroyibotlar birga ming bo'lib ko'rinardi. Uning ko'zi qanchalik qiziq tomosha ko'rishni istamasin, ajoyibotlari ustiga bundan ham ajoyiblari namoyon bo'lardi. Fikri u yerdagi ko'rganlarining ipining uchini topishga qiynalardi. Hayratiga esa yangidan hayrat qo'shila borardi.

Ma'yuslik, umidsizlik uning aql ishlarini telbalikka olib bordi; vasvasalar hushini oldi. Axir shu gulistonning o'zi bir jahon-ku! Balki undagi har bir gul ichida ham bir dunyo yashiringan. Lekin bir dehqon² bo'lmasa, uning o'z-o'zidan ko'karib turishi mumkin emas.

Bu hayrat uning a'zoyi badaniga hayqiriq soldi va shu hayrat ichida turganda xushxabar yetkazuvchi farishta: «Bunday foydasi yo'q hayratning kimga keragi bor? O'zingga ham bu hayratdan foyda yo'q. Haqiqat sirridan bahramand bo'lib sen, yaxshisi, hammasiga ko'ngul ko'zi bilan boq!» — dedi.

Bu so'zlar uning qulog'iga dur bo'lib yetgach, haqiqat nuridan ko'zini ochdi. Tog' kaptaridan, qumridan tortib bulbulgacha, daraxtlarning yaprog'idan tortib har bir gulgacha — hammasi o'z Yaratganini eslar va har biri unga shukr aytar, undan minnatdor bo'lar edi. Shamol ham, suv ham o'zicha kuy kuylarkan, Yaratgan ularning har biriga o'ziga mos bir sirni xos etgan.

Shu hayrat ichida u shunday o'tli bir hayqiriq soldiki, shundan keyin bor narsalarning bari biyron-biyron gapirsa ham, u xomush bo'lib qoldi. Bu xomushlik uning dimog'iga — oh-voh bulutlari bilan ta'sir etib, uni behush etib qo'ydi.

Ey soqiy, yana badanimda issiq bor, may suvidan yuzimga gulob sep. Toki men yana hushimga kelib, gapimni o'nglab olay; so'ng so'z chamanida bir kuy kuylay.

¹ Bunda Navoiy sariq kasalini suvdagi baliqqa tikilish bilan tuzatish hodisasiga ishora qilmoqda.

² B i r d e h q o n — Xudo ko'zda tutiladi.

IKKINCHI HAYRAT

*Sharaf qanotli ul qush (ko'ngul)ning narsalar olami gulistonidan
farishtalar olami shabistoniga uchib, u keng manzilning sham va
mash'allarining so'zlovchi tili bilan asl Yaratuvchi yodiga mashg'ul
ekanini bilib, hayratdan bu olamdan boshqa bir olamga borgani va
bu hayrat yana uni behush qilgani*

Xo'tan go'zali o'z zebo jamolini yopgach, shamol shabadasi yer yuziga qora mushk seplashga kirishdi¹. Anbar hidli nafasni shabada dimoqqa olib kela boshladi. Nargis hidini beruvchi varaqlarni shamol yopdi. Jahon gullarining shoxlaridan sariq barglar to'kilishi bilan falak bog'chasidagi oq gullar² ochila boshladi.

Ha, quyosh Chin qo'g'irchog'iday yuzini o'girib olib, endi sochini yoyib, qora mushk socha boshladi. Ezilgan mushkning yoqimli hididan tun yulduzlarining dimog'i qaqradi. Bu qaqrash unga shunday ta'sir etdiki, ko'zlarini yumib, uyquga ketdi. Bulduruq qush egnini qisib, parda yopinganday o'ltirib oldi: ko'rshapalaklar parda qanotlarini ochib, ucha boshladilar. Osmonga qarab yo'l olgan boyqush doira shaklidagi oyni o'ziga childirma qilib oldi. Ko'k o'lanlar atrofida rang-barang atirgullar yulduzlardan tizilgan lojuvard doiraga o'xshardi.

Bu kecha ham Xo'ja³ yuz xil mashaqqatlar chekdi; bu qiyinchiliklarning biri ikkinchisidan qiziq edi. Nayrangbozlikni o'ziga kasb qilib olgan falak har nafasda bir yangi tilsim ko'rsatardi. Osmon go'yo bu masxaraboz uchun bir chodir edi. Yulduzlar esa uning kumushtan qo'g'irchoqlari edi. Somon yo'li o'zining cho'ziq ko'rinishi bilan osmon sayri uchun unga yo'l edi. Falak ayvonida ko'zga tashlangan chiziqlar xat emas, osmon qorong'iligining yo'l ko'rsatuvchisidir. Osmon bog'iga shu qadar ziynat berilganki, har bir yulduz bir gul bo'lib, quyosh ham rashk etardi.

U muqaddas qush (ko'ngul) yana o'ynagisi kelib, yana ham balandga havolab uchdi. Uning tuproqdan iborat vujudi yerda qolgan edi. O'zi falak yulduzi bo'lib, osmonga ko'tarildi. Ruh qanotli qushga aylanib, tun qorong'iligida sayr qilardi. Ushbu jannat bog'ining qushi birinchi chaman (osmon)ni aylana boshladi. Bu chamandagi oy yaxlit bir javhardan iborat bo'lib, olam uning markazi, o'zi esa uni o'rab turgan dengizday edi. Bu oliy javhar halqa bo'lib aylanar, uning uzuk ko'ziga o'xshash ko'zi eng quyi bir nuqtaga joylashgan edi. Yo'q, u halqa ham emas, balki aylana lagan edi; uning sham'i esa majlislarning mash'ali edi. Bu hajr maskanining mash'ali, gadolarning

¹ Bu haytda kechqurun quyosh botib, qorong'i tusha boshlashi haqida gap bormoqda. «X o' t a n g o' z a l i» — Quyosh. Xo'tan Sharqiy Turkistondagi bir shahar nomi. Bu o'rinda ushbu so'z quyosh chiqadigan sharq ramzi bo'lib kelmoqda.

² «O q g u l l a r» — yulduzlar ko'zda tutiladi.

³ Ko'ngulga, demoqchi shoir.

buzuq kulbasida sham' vazifasini o'tar edi¹. Uning nuri buzuq kulbaga farog'at sham'iddek, sham' ham emas, shamchirog' gavhar o'rnida edi¹. Uning ko'rinishi doira monand bo'lib, Xudoning nomini kuylab, tasbeh o'girayotganga o'xshaydi. Goh muttasil Xudoni madh etish uchun uning butun vujudi til ko'rinishiga kirardi.

U (ko'ngul) yana bir (osmon) bog'iga kirib, joy oldi. Unda kumush badanli bir mahbuba turardi². Uning qoshlari fusungar, ko'zlari tanoz bo'lib, biri ishva ko'rsatsa, ikkinchisi noz qilardi. Sochlarining jingalaklarida yuzlab tugunlar bor edi. Yuziga esa mushkdan sovut yasatib olgan edi. O'zi ham mahbuba, ham musiqachi, ham soqiy, ham ashula to'quvchi edi³. Uning yuzi yigitlik mayidan qip-qizil, sherigi esa bir qari chol⁴. Kasallik uning suyaklarini chiqarib qo'yan. hatto badanidagi tomirlar ko'rinib turardi. Bu mutrib-tabib uning tomirlarini chertib ko'rar, tomirlar esa qon yo'g'idan nola chekar edi. O'zi ham u tomirlarga jo'r bo'lar, bu kuydan tomirlar ham, tomir ko'radigan ham xursand bo'lardi.

U (ko'ngul) yana bir hujra (osmon) ga qadam qo'ydi. Unda eng nodir donishmand bir xattot o'ltirar edi⁵. Bu hujrada uni, munshiy (xattot) deb atashardi. U xat yozishga kirishganda durni ipga tuzganday qilardi. Uning ta'bi mumday yumshoq va yoqimli, naqshni esa eng chiroyli uzuklardan olardi. Suv olmoqchiday oldidagi har siyohdonga murojaat etar, o'zini ham o'sha idishga hamrang qilgan edi. Uning qalamidan qog'oz qoraymasdi. Chunki u Xudoning madhidan boshqa narsani yozmasdi.

U yana bir boshqa gulshan (osmon)ga ko'chdi: undagi har bir chamanni kezdi. U yerda shunday bir pari paykar o'ltirardiki, u – osmon qutisining eng qimmatbaho gavhari edi⁶. Uning javhari jon manbaidan ham yorug', dunyodagi hech bir narsa undan yorug' emas edi. Uning vujudi dunyoni o'zida aks ettiruvchi oinaga o'xshardi; oy ko'zgusi undan nur olardi. U osmon bo'ylab malaksifat parvoz etardi; porloq nurlar unga har tomondan qanot edi. Uning chashmasini Isoning o'zi topgan bo'lib, toza nafasidan o'luk tirilardi. Chashmadan u obi hayot suvini ichar edi. Kecha qorong'iligi esa uning uchun obi hayot yashirilgan zulumat edi. Uning vujudidan chashma suvi oqib chiqib, atrofga ariqlar porloq nurdek taralar edi. Yo'q, bu chiziqlarni boshidan-oxirigacha tillarga o'xshatsa ham bo'ladi; uning har bir tili Xudoning yodidan so'zlardi.

¹ Bu misralarda oy, oyning qo'tonlashi haqida gap bormoqda. Qadim Sharq astronomiyasi fikricha, oy birinchi osmonga joylashgan.

² Bunda ikkinchi osmon va unda joylashgan Atorud (Merkuriy) sayyorasi haqida gap boradi.

³ Atorud sharqda shoir va san'atkorlarning homiysi hisoblanadi. Bu baytda shunga ishora bor.

⁴ Atorud qo'lidagi arfaga o'xshash xayoliy musiqa asbobi haqida gap bormoqda.

⁵ Bunda Zuhra (Venera) planetasi (Cho'lpon yulduzi) ko'zda tutiladi. Bu planeta Sharqda kotiblarning homiysi hisoblanadi.

⁶ Bunda quyosh ko'zda tutiladi.

U (ko'ngul) yana o'rnidan turib boshqa maydon (osmon)ga hallosladi; unda qo'liga nayza ushlagan bir pahlavon jangchi turardi¹. Uning qahri kelib, g'azab tutuni ko'tarilsa, har bir uchquni yuz yilgacha dumli yulduzdek osmonda uchib yuradi. Uning ishi hamma olamlarga qahr sochish bo'lib, achchig'langanidan butun vujudi zaharga aylanib ketgan. Achchig'idan har tomonga tig' soladi, tig'idan esa qon emas, zahar tomadi. Uning may ichadigan kosasi odamlarning boshidan; ichadigani esa may o'rniga qon. Qorong'i kechada u otgan o'qlar yulduzday uchadi; qilichi kesgan yer yangi oyga o'xshaydi. Nayza va o'qlari, hatto tig'i ham Xudoga shukr aytishga kelganda tilga aylanadilar.

U (ko'ngul) yana bir manzil (osmon)ga o'tdi, uning sahnida bir xushbaxt kishi joylashgan edi². O'zi farishtasifat, kiyimi ipakdan, bu kiyimni darveshlarning ridosi desa ham bo'ladi, oddiy yopqich desa ham. O'zi olti zinali minbarda o'ltiribdi, yuzidan uning zuhd-toatda ulug'ligi bilinib turardi. Kechalari yuzini ochib ko'rsatish uning odati, saodat nurlari unga mash'al edi.

Uning zebo jamoli doimiy baxtga, baxt, omad bilan to'la taqdiri yetuk aqlga o'xshardi. Nur va safo chegaralarigacha uning mamlakatidir. Yozgan yozuvlari esa Xudoga hamdu sanodan iborat.

U (ko'ngul) yana bir cherkovga (osmonga) kirib, sayr qildi. Butxona piri bir hindi ekanini ko'rdi³. Har ishda uning istagi sabr edi; sabr qilib, biron ishni bajarishga hech shoshmasdi. Uning peshonasi mehnat-mashaqqat kuniday qora, oyog'i esa ayriliq kechasiday cho'loq, juda sekin yurardi. U yaxshi ishlashini kuzatib turar, o'zi esa o'rdakdan battar sust harakat qilardi. O'ttiz yilda Makkani bir ziyorat qilganday, atrofni zo'rg'a bir aylanib chiqadi. Qo'liga tasbeh tutib, uni o'girib, tilida doim tirik qodir Xudoni zikr etadi.

U (ko'ngul) yana bir baland tepaga ko'tarilganda, uning atrofi mustahkam devor bilan qo'rg'on shaklida o'ralganini ko'rdi⁴. Yetti osmon unga borib tutashgan. «Qur'on»dagi «Ko'p burjlar» haqidagi gap ham shu osmonga tegishli. Undagi xandaqning tagi shunday chuqurki, o'lchash qiyin. Atrofi o'n ikki burj bo'lib, birontasining darvozasi yo'q. Har burjning orasida tepalik bo'lib, bu tepalikning ustida bir ajoyib go'zal (yulduz) jilva qilib turadi. Qizig'i shuki, bu go'zallar doim sayrda, lekin ularning sayri shu o'n ikki joydan chetga chiqmaydi. Ular xudojo' odamlar tili bilan so'zlaydi, mehribon Xudo madhini ko'klarga ko'taradi.

Shundan keyin u (ko'ngul) eng yuqori osmonga bayroq tikdi, eng yuqori osmon zinasiga qadam qo'ydi⁵. Bu yerda naq bir butxonaga ko'zi

¹ Bunda Mirrix (Mars) sayyorasi ko'zda tutiladi. Odatda qo'liga nayza ushlagan jangchi sifatida tasavvur etilgan va jangchilar homiysi hisoblangan.

² Bu o'rinda gap Mushtariy (Yupiter) sayyorasi haqida.

³ Bunda Zuhul (Saturn) sayyorasi tasvirlanmoqda.

⁴ Sakkizinchi osmon tasvirlanmoqda.

⁵ So'nggi, to'qqizinchi osmon haqida gap bormoqda.

tushdi. Undagi har butning¹ ko'rinishi durdonaga o'xshardi. Unda boshliq ham yo'q edi, biron barahman ham, lekin undagi butlar barchasi kumush tanli edi. Har bir but shu butni yo'nganga berilib ravish qilar, butga sajda qila berib, butparast bo'lib qolgan odamga o'xshardi.

U (ko'ngul) shuncha qiziq narsalarni aylanib chiqar ekan, ularning hammasiga ibrat ko'zi bilan qarar edi. Ularning hammasining zikr va sajdada ekanini, Ilohiy ma'rifatni egallaganini o'z ko'zi bilan ko'rdi.

Shu payt unga yana g'ayrat kirib, uning hayrati birga ming bo'ldi. Ular hammasi zikr qilardi, faqat u o'zi gung va lol edi; ular hammasi o'zaro jipsu bu o'zi yolg'iz parishon ahvolda. Uni yana sonsiz-sanoqsiz hayratlar aqlini olib, bexud qildi.

Ey soqiy, mening vujudim ham o'sha (ko'ngul) singari bo'shshagan, hatto nafas olish ham menga qiyin. Og'zimni qadahga olib borishga ham madorim yo'q, yaxshisi, u mayni paxta bilan og'zimga tomiza qol.

XX

UCHINCHI HAYRAT

U parishonhol sayyoh (ko'ngul)ning farishtalar olami shabistonidan (inson) badani mamlakatining qo'rg'oniga tushgani va u mamlakat odamlari (a'zolari)ning ham «Meni eslanglar, men ham sizlarni yodga olaman» buyrug'i bilan mislsiz qudrat (Xudo) yodida ekanini bilib, hayrat o'tining alanga olgani, vujudi u o'tdan kul bo'lib, yo'qlik yeliga tamomila sovurilish bilan ikkinchi yo'qlik o'rniga erishib, shundan so'ng, Xudodan unga to'kis-tugal boqiylik yetib, ko'ngul egasining² o'sha mamlakatda xalifalik taxtiga o'tirgani

Quyosh Sharqqa o'z bayrog'ini tikib, jahon mamlakatlarini egalladi. Osmon otiga minishni ixtiyor etib, ufq tomonidan u otni sakratib chiqdi. To yuqoriga ko'tarilgunga qadar uni tezlatdi, o'z harorati bilan olamni isitib yubordi.

Inson hamon hayrat mayidan mast edi. Mastlik uyqusiga berilib ketgandi. Quyosh issig'i miyasini qizdirishi bilan seskanib ketib, o'z hushiga keldi. Shunday achchiq may bilan mast bo'lib, hatto uning qiziq o'tidan issig'i chiqdi. Har lahza yana sayohat etish havasining o'ti ko'ngulga shu'la sochib, o'ziga bir doimiy vatan topish xayoli esiga tushdi. Ko'ngul yana safar qiyinchiliklarini bo'yniga olib, maqsad manzili tomon yo'lga tushdi.

Ko'ngul bu dunyo sahnidan zavqlanib turganda, uning oldida ajoyib bir shahar³ paydo bo'ldi. U shaharning har tomonida mavjud

¹ «But» — «budda» so'zidan. Bunda budda haykallari ko'zda tutilmoqda.

² «Ko'ngul egasi» — inson.

³ «Ajoyib bir shahar» — bu o'rinda inson va uning gavda tuzilishi ko'zda tutiladi. Shu satrlardan boshlab inson organizmning tuzilishi, unga xos xususiyatlar, organizmdagi a'zolar haqida gap boradi.

ajoyibotlarning ham hisobi yo'q edi. Yaratuvchi (Xudo) ning qo'li uning loyini yasaganda, uning shaklini alohida bir lutf bilan yaratgan edi. Uning vujudini ikki ustunning ustiga o'rnatdi, uning ichiga juda ko'p qiziq narsalarni berkitdi. Uning gavda tuzilishiga tartib berayotganda, uni to'rt javharni (o't, havo, suv, yer) bir-biriga qo'shib yaratdi. Bunday ikki javhar (o't, havo) eng yuqori sifatlisi, qolgan ikki javhar (suv, yer) esa quyi sifatlisi edi. Bu to'rt bir-biriga zid narsalar o'zaro shunday tenglashdilarki, bularning qo'shilganidan bir butunlik yuzaga keldi.

Uning ichida masjid, bozor, mahallalar bor, ko'chalar, bog'lar, mayxonalar bor. Unda yongan o'tning Muso yoqqan o't yorug'icha yorug'i bor; yeli Iso nafasidek jonbaxsh. Suvlari jannat suvidek muloyim, tuprog'i gul bo'lib, anbar isini beradi.

Mamlakatning o'rtasida bir taxt ham bor. Shu yerdan podshoh mamlakatni hoshqaradi. Taxtda bir hol yuz bersa, bu hamma iqlimga ta'sir ko'rsatadi. Taxtda tinchlik bo'lsa, boshqa hamma joyda ham tinchlik; tinchlik bo'lmasa, hammasi — notinch.

Uning eng tepasida bir qasr bo'lib, uni qurgan me'mor o'zining yaratuvchilik pargori bilan uni alohida ajratgan. Bu qasrning tuzilishi har qanday nozik aqlni hayron qoldiradi; uning loyihasi Chin naqqoshlarini ham lol etadi¹. Bu qasrning usti oliy bir gumbaz bilan yopilgan; bu gumbaz osmon gumbazi bilan teng². Osmon gumbazida nima yozilgan bo'lsa, ularning barchasi bu xushbichim gumbazda ham yozig'liq.

Bu qasrga ajoyib bir eshik ochib qo'yilgan; ovozidan (har ochilib yopilganda) durru gavhar sochiladi³. Bu eshikning ikki tabaqasi ham la'ldan, uning dandanalari toza durdan⁴. Palosi yoqut bilan to'qilgan, durlar yoqutning orasida qolib ketgan.

Nimaiki yeyish va ichishga tegishli bo'lsa, nimaiki yeyish va ichish uchun yoqimli bo'lsa, hammasi bir yo'l bilan boradi; kechayu kunduz shahar aholisi shundan oziqlanadi⁵.

Ortiqcha, kerak emaslarini daf' etish uchun ham bunda ikki yo'l bor. Bu yo'llar past tomondan o'tadi⁶.

La'l eshikning tepasida ikki tuynuk⁷ bo'lib, bunday tuynuklarning bo'lishi ham yaxshi va yoqimli. Ular orqali nafas olib, chiqarib turiladi. Bu tuynuklarning ustidan kumush suvi yuritib qo'yilganday.

Ustunlar ustidagi gumbazga chiqish yo'li ham bo'lib, bu yo'l shaharning umumiy yo'lidan ajratilgan. Shamol shabadasi ushbu yo'l orqali esib, shahar aholisiga tinchlik, orom bag'ishlaydi. Bu shabada shoh⁸ saroyigacha o'tib boradi, uning bazmiga yuz ming shodlik yetkazadi.

¹ Gap insonning boshi ustida hormoqda.

² Gap inson boshining qopqog'i ustida.

³ Og'iz va undan chiqadigan tovush (so'z) ko'zda tutiladi.

⁴ Ikki lab va tishlar ko'zda tutiladi.

⁵ Bu ikki baytda qizilo'ngach ko'zda tutiladi.

⁶ Bunda esa siydik va axlat yo'llari ko'zda tutiladi.

⁷ Burunning ikki teshigi.

⁸ Aql, ong ko'zda tutiladi.

Shohning aqlli bir yordamchisi bor. Uning ishi mamlakat atrofini aylanib yurishdir. Atrofga diqqat qilib, nimani fikr etmasin, mavlum bir nuqtani yuz bo'lakka bo'lib tekshiradi. Shoh uchun uning fikri qo'llanmadir. Mamlakatini shunday adolatli yo'l tutish bilan obod etadi.

Yuqoridagi qasrda baxtli vazir o'ltirib, xalq ishi yuzasidan farmonlar beradi. Qasrda beshta sahn tayyorlangan bo'lib, u yerdan hammayoqni tomosha qilish mumkin. Lekin bu besh sahnda beshta ishbilarmon bor. Ularning biri ikkinchisidan tajribali. Ularning har biri bir sahnda joylashgan: har qaysi o'z sohasining tengi yo'g'i. Biri ko'rish ilmini egallagan, safo ko'zidan o'z nazarini pok qiladi. Boshqa biri biron tovush kelsa, uni diqqat bilan eshitadi. Yana birining ishi ta'm bilish – xoh u hayot mayi bo'lsin, xoh o'lim zahari. Tag'in bittasining ishi hid bo'yicha gulni tikandan ajratish, sovuqni, issiqni sezish. Ko'rish, eshitish, sezish, ta'm bilish, hid bilish – hammasi beshta. Dunyodagi hamma narsalarni shular orqali bilish mumkin. Tushungan odam bunga shubha bildirmaydi.

Dahlizi Chin naqshlari bilan bezatilgan qasrning maydonida beshta ishonchli odam o'ltiradi. Besh his bo'yicha nimaiki yuz bersa, ular har qaysisi o'z sohasi bo'yicha uning tagiga yetishga harakat qiladilar. Barcha yig'ilgan javhar (ma'lumot)larni ular haligi xazinador qo'lga topshiradilar. Undan ikkinchisining oldiga o'tadilar. Uning xazinadori esa xayoldir. So'ng uchinchi xazinachi ham bor. Uning ishi boylik qo'lga kirsam, saqlashdir. Yana birovining oldiga kirishsa, uning ishi doim boyliklarni egallashdir. Uning qo'li nimagaki yetsa, hammasini qonunga bo'ysundiradi.

Ravshan aqlli noyib bularning barini vazir mamlakat boyligini qo'lga olganday olarkan, u baxt saroyiga yo'l olib, yuzini maqsad ostonasiga qo'yadi. Hamma narsani u mamlakatga adolat bag'ishlovchi – podshohga arz qiladi. Shoh bu xazinalarning ustida hozir bo'lib, diqqat bilan barchasini ko'zdan kechiradi¹. Rad etadigan narsani u rad etadi. Maqsadga mos tuhfalarni alohida ajratadi. Qabul qilingani haqida ovoz kelgandan keyin, u tuhfa o'z o'rnini topadi. Bu bilan u shoh najot yo'lining rahbari, kattalik talashishni yo'qotgan bo'ladi.

Ko'ngul egasi Inson bunday jahonni, zarrada butun borliq, qatrada esa daryo yashiringanini ko'rgandan keyin fikr nahangiga yana yem bo'ldi, hayrat dengizida yo'qoldi. Fikr o'tining tutunlari ko'kka chiqdi. Butun vujudi hayratidan tugadi. Chunki bu hayratda ranj va uqubatlar bor edi. Yo'qlik insonni foniylikka olib ketdi. Xudo unga yangi vujud ato qildi. Bu toza vujudda mushohada etish qobiliyati bor edi. Boqiylik sham'i uning ko'zini yoritib, o'zini o'sha podshohlik ichida ekanini angladi. O'sha mamlakat, o'sha yurt unga bo'ysundi, faqat u yurt emas, butun jahon bo'ysundi. O'zi ham mamlakat, ham taxt, ham shoh edi, hammasi o'zi va o'zi hamma narsadan ogoh edi. U o'zligidan har bir mo'yigacha xabardor bo'lib, «O'zini bilgan Xudoni ham biladi» degan gap foyda berdi.

¹ Bu yerda besh sezgi uzvlari haqida gap boradi.

Soqiy, yoqimli may to'ldirilgan qadahni keltir, men uni haligi insonday birdan ko'taray. U qizil rangli maydan bir-ikki qadah ichib, inson madhida bir necha so'z aytay¹.

XXI

Xoja Bahouddin Naqshband — sirlari muqaddas bo'lg'ay, shunday zotki, san'atkorlik naqqoshi (Alloh) o'zining hikmat qalami bilan zamon sahnasida uning vujudi naqshini islomiy bichim bilan chizdi va to'g'ri yo'lni ko'rsatish kayfiyati bilan kofirlar ko'ngli varag'idan xitoy va farangiy² naqshlar (o'chib) ketti va Xoja Ubaydulloh (Alloh u kishini salomat qilg'ay)g'a ittijo arzimiz shundan iboratkim, u kishi hazrat (Xoja Bahouddin Naqshband)ning mutlaq o'rinbosari, balki haqiqiy xalifaning o'zidir

Baland osmonning naqqoshi — osmonning har sahifasiga naqshlar yasar ekan, Xoja ham ko'pdan-ko'p varaqlarga rasmlar chizdi. Uning chizgan naqshlari esa nihoyatda yoqimli edi. Uning naqsh chizadigan qalami naqshlar chizar ekan, uning naqshlari kabi dilbar naqshlarni hech kim chiza olmagan edi.

Uning ko'nglida esa saxovat naqshi mustahkam o'rin tutgan bo'lib, u sahifada vujud naqshi barham topgan edi. Uning naqshlariga Xitoy naqshlari teng kelolmay, o'zlarini mahv etgan, olamning o'zi bularning qo'lida naqshli uzukka aylangandi.

Bunday uzuk naqshiga esa o'zining ajoyib naqshlari bilan devu parilar ham bo'ysunar edi. Naqshlarga to'la osmon ham qancha harakat qilmasin, naqqoshlikdagi san'atini izhor etmasin, naqshlarini namoyon etmasin, oddiy devor sahifasiga chizilgan rasmday edi.

Naqshband esa joniga ranju mashaqqat naqshini chizar, maqsad bu orqali dunyoning, hayotning foniylik naqshini chizish edi. Uning joni o'sha naqsh makoni bo'lgani sababli unga naqshdan boshqa hamma narsalar foniy edi.

Ajablanadigan tomoni shunda ediki, U naqshga ko'z solmas, jonida esa baqolik naqshidan boshqa narsa qolmagan edi. U ko'nglida naqsh solingan maskanlarda sayr qilar, bu sayrda esa ko'nglida naqshdan boshqa narsa bo'lmasdi.

Munaqqash bu osmon bo'ylab u sayr etar ekan, kafining naqshlari zarli lavhalarga tegib turganday bo'lardi. U bosgan iz naqshiga peshonasini surtib, naqshni tushunadigan falakning ko'zi bundan ravshan tortardi.

U (Bahouddin Naqshband) jannat bog'iga yo'l olar ekan, bu (Xoja Ahror) uning o'rnini olgan edi.

¹ Bu baytlarda insonning ta'sirlanish, xayol qilish, bir narsani xotirda saqlash, fikrlash va fikrlashdan xulosa yasash qobiliyatlari haqida gap boradi. Shoir fikricha, shu yo'sinda insonda hayot va borliq haqida bilim, tushuncha paydo bo'ladi.

² Farangiy — Yevropacha.

Cheksiz olamda bu toq bo'lib, toq emas, butun dunyoga yo'l boshlovchidir. U bulim osmoni dargohining supuruvchisi, supuruvchisi ham emas, balki peshonasi bilan xas-xashaklarni tozalovchidir. Shohlar uning qullug'iga o'zi kelar, bazmlarida har qanday hushyor kishilar o'zlarini yo'qotib qo'yishardi. Unga xizmatda har qanday odam ogoh bo'lib turar, o'zi gado bo'lsa ham, ma'niligi jihatidan shohdek edi. Oldiga kelib egnini qancha taqqoslama, surishtirma, ma'rifat xazinachisi kafidan olgan yuzta libosi bor.

U kiyimini aldash maqsadida o'zgartirmaydi, ipakni oddiy palosdan farq etmaydi. Uning suhbatida hech shak-shubhasiz allaqancha ko'zga ko'rinmas go'zal ra'nolar ham bordir. U o'zi xilvat go'shalarda o'ltirmas, o'zini hech kimdan yashirmay, oshkora yurar edi.

Osmon atlasini mingta bezak-hasham to'rqa to'ni ostidagi ko'k astardek edi. Lekin o'sha to'rqa to'nining har bitta ipi faqr masalasida yuzta o'zaro bog'lanish uchun zanjir bo'lishi mumkindir.

Jahon mamlakatlarining dalalarining bu dehqoni dehqon emas, balki o'sha mamlakatlarning nigohboni edi.

Mamlakatlardagina nigohbon emas, balki u barcha sultonlar ustidan sulton edi.

U yozgan xatlar biron podshoh qoshiga yetib borsa, podshohning vazifasi uni o'pib, boshiga qo'yish edi.

Podshohlar buni boshidagi toj deb tushunib, uning har bir yozgan so'zi tojga qadalgan eng qimmatbaho durdek edi.

Ammo u xursandchilik vaqtida podshohlargagina toj bag'ishlovchi bo'lmasdan, balki gadolarga ham toj kiydiradigan zot edi.

Alloh so'zlarini odamlarga talqin qilib berar ekan, uning uchun shoh ham, gado ham teng edi. Uning sha'niga nog'oralarni chalish navbati kelganda esa, navbat bilan shohlar uni ziyorat qila boshlar edilar.

U jahonni o'z nurlari bilan yoritadigan Allohni eslaydigan paytlarda, eng yuqori sharofat yulduzlari bo'lgan (olim)lar unga hamsuhbat bo'lar edilar. Ularning har bittasi bir olam xalqiga rahnamo, bir olam ahli dema, balki ko'kdagi farishtalarga ham rahnamo edilar. U kishi barcha tariqat kishilariga rahbar bo'lib, (yo'lda ketayotgan) musofirlarga kechalari yulduzlik qila olar edilar.

Ko'zi yaxshi ko'rmaydiganlarga nur va issiqlik bag'ishlar, natijada bundan ularning har biri o'zi yulduz yoki uchar yulduz holatiga ega bo'lib qolar edilar.

(O'z vaqtida) U kishi tijorat ishlari bilan ham shug'ullangan bo'lib, bir mamlakatda (muqim) o'ltirib qolmasdilar. U kishining (oladigan yoki sotadigan) yuklari oddiy yuk emas, fano tillasiga teng tuhfalar bo'lib, uni sotib olgan odamlarning har biri bu oltin tufayli boy bo'lib ketishni istar edi.

U kishining kumushlarining barchasi ham fano konidan qazib olingan bo'lib, durlari esa yo'qlik Ummoni suvidan olingan edi.

¹ Faqr masalasi — tasavvuf masalasi.

Har qayerga keltirgan narsalari (odamlar uchun) najot mollari bo'lib, koinotning to'rt tomoni to'lib ketardi.

Alloh jahon ayvonini Ubaydulloh¹ nog'orasining dabdabasidan bo'sh qoldirmasin. Xudo u kishining himmatidan bizni ham faqr (tasavvuf) yo'lida badavlat hamda imonga boy qilsin!

XXII

BIRINCHI MAQOLAT

(Mazkur bob) imon sharhi(dan iborat) bo'lib, «Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg'ambarlariga imon keltirgan har bir kishi (dedi): (Har kimning) qilgan yaxshi amali o'zi uchundir va yomon amali ham o'zining bo'ynigadir»² deyilishidan maqsad (imon shundagina iborat) degan gap emas va agar (masalaga yuzaki qaraydiganlar) imon degani shudir, desa, tushungan odamlar (bunday) demaydilar va (shu munosabat bilan) mohiyat daryosida o'z oqizona suzishimni namoyon etmoq va farishtalar uchgan havoda biroz qanot qoqmoq va kitoblarning sahifalari yuzasidan bir necha so'z aytmoq va payg'ambarlar yurgan ko'chada bir necha qadam chopmoq va qiyomat ko'tarilganda tik turmoq va taqdir xususida o'ziga yarasha iqtidor bilan kuy kuylamoq

Kimki dunyodagi insonlar orasida (chin) inson bo'lsa, buning belgisi uning imonidir. Kimki chegara va qoidalarni bilib ish tutsa, bu hayvoniy bilan insoniylikni farq qilganidir. Bu ikkisi tom ma'noda insonlar guruhining (o'ziga xos) yurish-turishini anglatadi. So'zlash (xususiyatiga ega bo'lgan) inson bilan hayvoniylik ularning so'zlay bilishi va so'zlay bilmasligi bilan belgilanadi.

Sen biron insonni (haqiqiy) inson deb hisobladingmi, bilki, u doim inson bo'lib, hayvon esa hayvonligicha qoladi. Buni inson yaxshi farq qiladi. Tangri kalomi («Qur'on») ham bu haqda xabar bergandir. Hayvondan farq qilmagan odam ham odam deb atalsa, yaxshi bilan yomonning o'rtasidagi farq qayerda qoladi?

Qusurli odam bilan komil inson bir-biridan farq etilmas ekan, unda olim bilan johil o'rtasidagi tafovut nima bo'ladi? Bu sifat insondagi topilmas bir najot yo'li bo'lib, odati bo'yicha takallumli bo'ldi.

Sen shunday odamni to'g'ri, riyosiz deb bilgin, qachonki u sabr bilan, shukru hayo bilan ish ko'rsa. Hoshimiy Payg'ambarimiz (ummatlariga) shunday buyurdilarki, imonli bo'lish uchun uch narsa lozim bo'ladi:

Inson deb atalish shunday odamga ravodirkim, uning ishlari qachonki imon bilan maqsadga olib borsa.

¹ Ubaydulloh — Naqshbandiya tariqatining Bahouddin Naqshbanddan keyingi eng yirik vakili Xoja Ahror (1404—1490).

² «Qur'on», T., 1992, 35-sah. («Baqara» surasidan.).

Ey sen, imonning nimaligini sharh qilib bergan kishi, eshit, endi men senga imonni sharh qilib beray!

Shariatda har bir mo'minga kerak bo'lgan, u e'tiqod qilishi lozim bo'lgan narsaning soni oltitadir. Ularni shu oltitaga olib kelib, ish tutsa, bu bilan u olti tomondan o'zini qo'rg'on bilan o'ragan bo'ladi. Kim shunday hisordan o'ziga makon tutsa, uning butun boyligi o'g'ridan tinch bo'ladi. Bu bilan u o'z boyligini yo'lini bilmasdan, gumrohlikda qolishdan, bundan boshqa ko'p qo'rqinchli yo'llardan ham sog'-salomat olib o'tib, bu sohada malomatga qolishdan omon qoladi. Bu bilan asl maqsadga yo'l olib, (Allohga) yaqinlikning xos manzilidan ham o'rin tutgay. Bularning qisqacha sharhini tushunding. Endi huning har birining tafsilotini eshit.

Oltidan birinchisi (bosh) maqsad bilan bog'liq bo'lib, bu mavjud Haqni bilmoqdan iboratdir. (Shunchaki) bor, deb ham aytma, negaki bu vujud (dunyoda) nimaiki mavjud bo'lsa, ularga fayz in'omini beradi. U vujud zotiga sababchi bo'lib, (har qanday) nuqs uning kamoli tufayli o'z nihoyasini topadi.

Tanazzul ham, yuksalish ham U tufayli yuz berib, quyi ketishning ham, balandga ketishning ham ixtirochisi Uning o'zidir. Uning qadimiyligi daryosi ham toshgandan-toshgan, bir yonida azaliylik bo'lsa, bir yoni abadiylik (me'yorida ham) oshib ketgan. Nimaiki tik bo'lsa, U O'zi abadiy (tik turuvchi) bo'lib, boshqa hammasi yo'q bo'lib ketgan taqdirda ham, U (doim) bo'lg'usidir.

Butun dunyo xalqiga Uning Zoti yashirin bo'lib, Uning ismlari (hammaga) ayon, sifatleri esa bir olamdirdi. (Xohlarsa), barchani yo'q qilib yuboruvchi ham O'zi, hamma ketib, bor bo'lib (doim) qoluvchi ham O'zidir. Ikki dunyo Unga tobe' bo'lib, boshqa bir dunyo ham bo'lsa u ham Unga tegishlidir.

Oltitaning ikkinchisi deb farishtalarni bil. Hammasi ularning borligini tasdiqlaydi. Ular (doimiy ravishda) falaklarni ziyorat qilish bilan shug'ullanib, (insonlarga xos) nafs bulg'onchlaridan pokdirlar. Ularga har bir parranda tovu ko'rinadi, ko'ngillariga eng yaqin narsa esa tasbeh donalaridir. Muhabbat harorati chog'ida bu qanotlar o'tni yanada ko'tarish uchun yelpig'ich kabidir. Ularning qanotlari bitta bilan cheklanib qo'ya qolmay, birining ustiga ikkitadan, uchmadan, hatto to'rttadandir.

(Allohning) amrisiz ular na qadam qo'yadi, na nafas oladi. Borlig'ining avvalidan boshlab yo'q bo'lib ketgunlariga qadar ularning barchasi shundaydirlar.

Ularning hammalarining asli shunday pok va yalang'och bo'lib, tuproq, suv, yel va o'tdan xolidirlar. (Shuning uchun) ular behisht bog'laridagi qushlar kabi zavqli, bo'yinbog'lari bor. Biroq bularning orasidagi bir qush bu zavqni topolmay qumridek bo'yinbog'likdir.

«La'n» («la'nat») so'zida ko'rinib turganidek, uchta harf yaqqol ko'zga tashlanar ekan, uning har birining etagi halqasimon bo'lib, ularning har birining halqasi tutash. U tuban qush bo'yinbog'i mal'unlik belgisidir.

Uchinchi — bu osmondan tushgan kitoblar bo'lib, ulardagi hamma so'zlar hech shubhasiz Allohning so'zlaridir. Ularning har biri kitob emas, bepoyon dengiz bo'lib, uning har bir so'zi katta bir durdir.

Uni bahr dema, u ajoyib bir kon bo'lib, boshdan-oyoq la'l va gavharlar makonidir. Agar uning bir uchi uchta sham'dan yorug' bo'lib turgan bo'lsa, lekin ulardan biri Sharq mash'alidir. Uning uchtasi jonsiz tabiat, o'simlik va hayvonot bo'lsa, bu yettitasi otalarining ishlarini bajaruvchilardir.

Balki yetti otasi bunga kitoblar onasi bo'lib, undagi yetti oyat esa buyruq tusini oldi. Yo'q, yetti buyruq ham emas, har bir surasi o'lkani obod etuvchi davlat va dinini chegarasidir.

Boshlanishidan har bir sura oltin harflar bilan yozilgan bo'lib, ichida bezaklar bilan tartib berilgan. Har sahifasidagi gulshanga o'xshash sahifa uning bog'i, xat chiziq-lari atrofida tiniq, toza suvlar mavjud.

Bu oddiy bog' emas, balki osmon, osmon ham emas. Satrlari — saf-saf malaklar. Balki uning har o'n oyati bir lojuvard samodir.

Allohning so'zlarining har bo'lagi varaqdan varaqqa o'tgan bo'lib, ulardan barcha haqiqatlar mavjud va barchasi to'g'ridir. Ularga monandi yoki o'xshagani yo'q bo'lib, uning aytuvchisi qadimiylik qancha bo'lsa o'shancha qadimdir.

Bilginki, yana biri payg'ambarlar guruhi bo'lib, ularning har biri safo gavhari to'la dengizdir. Ularning barchalari Allohning amri bilan (odamlarni) yaxshi ishga buyurish va yomon ishdan qaytarish bilan shug'ullanib, xalqqa Xudoning to'g'ri yo'lini ko'rsatganlar. Tushunmagan kishilar buning uchun ulardan hujjat talab qilishsa, buning uchun ular mo'jizalar ko'rsatishgan. Ularning barchalariga so'zning haqiqati zohir bo'lib, yolg'on bilan bog'liq nuqsonlarning yuz berish ehtimoli bo'lmagan.

Ularning hammalari garchi payg'ambar deb atalsalar ham, ammo ko'rinishlari uch qismga bo'lingan. Anbiyolar birinchi guruhga oid bo'lib, ularga vahiy kelgan va (g'aroyib) tushlari tufayli yetakchi bo'lganlar. Shundan keyin Allohdan (qanday xabar) bo'lsa, ularning hammasini xalqqa yetkazib turganlar, keyinchalik sabot-matonat bilan janglar qilib, kishilarni dinga da'vat etib, (zarur bo'lsa) urushga ham buyurganlar. Ularning ichida eng kattasi va fasohatlisi bilki, Abtahalik¹ payg'ambar (Muhammad s.a.v.) bo'lganlar.

Uning ko'ngli Alloh yuborgan xabarlarini biladigan bo'lib, dini esa boshqa payg'ambarlarning dinini inkor etishga qaratilgan edi. Lekin kofirlikning qorong'iligida qolgan har bir payg'ambar o'z dini bilan (hammayoqni) mash'aldek yoritgan edi.

U (Muhammad s.a.v.)ning shariati Quyoshi zuhur qilgach, (oldingi payg'ambarlar yoqqan) mash'allarning nurlari so'nib (Allohga) elchilik udumlari barham topib, din deganda uning Islom dini tushuniladigan bo'ldi — vassalom!

¹ Abtaha — Payg'ambarimiz yashagan mahalla nomi.

Hisob-kitob kuni (ya'ni qiyomat) beshinchi bo'lib kelgan. Uni hisob-kitob kuni dema — azob tortish kuni de!

Qiyomat bo'lishiga, kishilar qilmishlaridan pushaymon bo'lishlariga sidqidildan ishonmoq. Shodlikka erishgan do'stlar(ning nomlari) o'ng tomonga yozilib, sahifalar yuzida yozishga joylar yetishmay qoladi.

Shimolda yashovchilar orasida esa mojaro ko'tarilib, (gunohlari yozilgan) xatlar esa yuzlari singari qora bo'ladi. To'g'ri tortadigan tarozining ikki boshi bo'lib, bir tomonida gavhar tursa, ikkinchi tomonida tosh turadi.

Pulsirot ko'prigi bo'ylab odamlar xavfda — undan o'tish biriga qiyin bo'lsa, boshqa biroviga oson bo'lishi mumkin.

Do'zax o'ti bergan azobning nihoyasi yoq: u kishilar halokati uchun ajdaho kabidir. Uning yettita boshi aylana gumbazni eslatsa, yettita og'zining har birisi g'orga o'xshaydi.

Uni yettita eshigini ochib turgan do'zax deb o'ylama, u yetti og'zidan o't (alangasi) sochib turadi.

Jannat gulshanida noz-ne'matlar shunchalik ko'pki, ularning orasidan yengil shabada o'tish uchun yo'l topolmaydi.

Undagi hurlar rasmda chizilgan arvohlarga o'xshasa, ularning qaddi va lablari (chiroyli) tubi daraxti va kavsar suvi kabidir. (Nimanidir kutib) tinch o'ltirganlar baqo jomiga umidda, baqo ham emas, balki (Alloh) jamolini ko'rish umidadirlar.

Oltinchisi qismat haqligi haqidagi so'zdir. Bilginkim, azaliy yoziq — qanday yaxshi va yomon narsa bo'lsa, o'shalarning hammasidir.

Azaliyat jomi sof va to'la bo'lishligi uchun, u maydan abadiyat ahli ichib mast bo'lishlari uchun bu majlisda paydo bo'lgan usullarni va undan kelib chiqadigan shoxobchalarni tushunish kerak. Biron mast yoqimsiz tovush chiqarsa, sozanda esa dilkash navo chalsa, birov Ka'ba sari yo'l olsa, ba'zisi mayxona ichida o'ltirib, bazm tuzsa; birov cho'lda yuz qiyinchilikni ko'rib azobda bo'lsa, boshqasiga fano mayxonasi maskan bo'ldi.

Mayparast mug'bacha mast bo'lib chiqib, yaxshi odamlarni ham mast qilib, rasvo etdi. May quyqasini ichib yuradigan ketib, nima bo'lgani bo'lgan bo'lsa, xirqapo'sh darvish kelib, fosiqqa aylandi.

Ularning barchalari Haq ilmidan ma'lum, lavhayi mahfuzda (faoliyatlari) yozib qo'yilgan edi. Lekin ular o'zlarining yaxshi amallari orqasida na behistga erishdilar, yomon fe'llari ularni do'zaxga ham solgani yoq.

Bir odam ming yil Tangriga sajda qilsa-da, doim baxtsiz bo'lib qolsa, bundan qanday foyda bor! Dayrda mug'bachalar halok etgan abadiy baxtiyor bo'lsa — buning xavfli tomoni qayda?

Kimdagi bu olti narsaga e'tiqod bo'lar ekan, ham shu ravishda bu haqda yozar ekanman, uning yozig'i qancha qora bo'lmasin, u gunoh daryosiga qancha g'arq bo'lmasin, ajab emas, agar unda afv umidi paydo bo'lib, abadiylik rahmati uning qo'lidan tutsa!

Lekin bu dardning o'tlari jonni qiynovchi bo'lib, ushbu azoblar ichida sir egalari kuyib-yonishlari mumkin. Unday paytda bu birisi o'z holiga motam tutsa, unisi butun olamni tark etish yo'lini tutgan bo'ladi. Men bunday buyuk martabani bayon qilar ekanman, bunday martaba kimga yetib-yetmasi ayon emas. Biror kimsaga yetishi ham aniq cheklanmagan, yetmasligi ham qat'iy va barhaq emas. Yo kofirmi, yo mo'minni umidvor etay desang, na unisi umidvoru, na bunisining ko'ngli tinch.

Toki kim o'zining baxtsiz yoki baxtli ekanini bilgunga qadar odamlarni bunday xavf ham, umidvorlik ham kuydirgani kuydirgan. Najot topish barchaning niyati bo'lib, lekin unga erishish irodaga bog'liqdir.

XXIII

Bilimdonlarning sultonini g'amgin holda ko'rib, muridda savol tili ochilgani va qoniqarli javoblarni eshitib, anduhlik ko'nglini bo'shatgani

(Kunlarning birida) Boyazid¹ xafa holda o'ltirtgan edi, buni ko'rib bir muridi uning xafachiligining sababini so'radi.

– «Ey (doim) osmoni falakning ustida yurgan, Arsh fazosiga ham qadami yetgan ustoz! Ko'ngling qanday bir ishdan bu qadar ezilmoqda? Bunday qiynalishingga nima sabab bo'ldi?»

Pir ko'zidan yosh to'kib, hatto o'tli bir oh tortib, dedi: «Bu shunday g'amki, meni ado qildi. Bu g'ala-g'ovur bilan to'la dunyoda odamlar ko'p-u, ammo hech kim yo'qdek. Har kishining ko'ziga o'zining ishi yaxshi ko'rinib, boshqa bir odamni yo'qlagan haqiqiy bir inson yo'q! Bu atrofda bunday kishi borligini aniq bilmayman. Bo'lsa ham, dunyodan o'tib ketgan kishilar orasida bo'lishi mumkin.

Bu javobdan savol bergan iztirob chekib, yana dedi: «Ey Quyoshdek olijanoh zot! El orasida bunday odam yo'q deyar ekansan, o'shanday (buyuk) kishilar doirasiga o'zing mansub emasmi?»

Shayx javob berdi: «Ey (doimiy) ishi gumrohlik bo'lgan, (bo'layotgan) ishlarning sirlaridan ham ogohligi bo'lmagan inson! Men o'zim ham o'zimga o'xshagan yuz ming sarson-sargashta yurgan, ko'zining yoshlari bag'rining qoni bilan qorishib ketganlardan men. (Agar bu dunyodan) kimki imon bilan ketmasa, bilgilki, bundaylarni odam deyish mumkin emas.

Olamda qanchadan-qancha katta va kichik menga o'xshagan, senga o'xshagan har xil odamlar bo'lib, hammamiz shunday tashvish tig'idan jarohatda, barchamiz shunday motamga giriftormiz.

Kimning ichi bunday g'ussadan qon bo'lmagan? Bu gapning ma'nosi kimga ayon emas?

¹ Boyazid Bistomiy — tasavvufning eng yirik namoyandalaridan biri (874-yilda vafot etgan).

Biron kishi joni bilan vidolashar ekan, uning imoni bo'lmasa, demak, uning (u dunyoga o'zi bilan ketadigan) hamrohi ham yo'q. Qachonki jahon ahlining barchasida ahvol shunday ekan — buyog'ida savolga o'rin yo'q».

Savol bergan murid hunday durga o'xshash ma'noli gaplarni qulog'i bilan eshitar ekan, og'zi sadaf og'zidek xomush bo'lganicha qoldi.

Yo Xudo, narigi dunyoga olib boriladigan tuhfa (imon)ni Navoiy bilan hamroh qilgaysen va shu kifoya. Uning imonini xizimatingga mahkam qilib, va'dasini imonidek qil!

Soqiy, o'lmoqdaman, imon mayini keltir! Vujudimga imon mayidan jon bag'ishla! Sen bugun jomimga davron mayini quyma! Uning o'rniga jonimni ol-u, og'zimga imon mayini quy!

XXIV

IKKINCHI MAQOLAT

Islom xususidakim, «Alif»lari tinchlik bog'ining sarvlari durur va «Sin»i saodat qasrining kungurasi va «Lom»i latofat gulchehrasining sunbuli zulfi va «Mim»i muhabbat mash'alining nuri va ul sarvlar soyasida yer tutmoq va ul qasr kungurasiga talab tuzog'ini qo'ymoq va zulf sunbulini qattiq ipga aylantirmoq va ul mash'al nuri bilan ko'zni yoritishning targ'ibi

Olamdagi xalqlarni Pok Parvardigor najot ahli va halok guruhiga bo'ldi. Ulardan bu birisini sanamlarga sig'inadiganlar deb, ikkinchisini Islom jamoasi deb bil. Shuning oqibatida kufr eli malomat yo'lini tutdi, Islom jamoasi salomatlik, sog'lomlik bo'yicha ketdi. (Shuning uchun) u biriga do'zax o'ti maqom bo'lgan bo'lsa, Islom eli salomatlik uyini tanladi.

Islom mamlakatlari sanoqli bo'lib, ularning xalqi qancha ekanligidan qat'i nazar, ularning hammasi boshidan-oyog'igacha musulmon emas. Kim haqiqiy musulmon bo'lsa, buni yolg'on deb ayta olmaydi.

Musulmonchilikning bir qancha shartlari bo'lib, buni omiy kishilarning biron-tasi ham bilmaydi. «Kimki sog'-salomat muslim bo'lsa», o'sha musulmondur. Yuz, qo'l va til bu masala talqinida ojizdir.

Boq — bu ish kimning qo'lidan kelishi mumkin? Yoki bu so'z kimning tilidan chiqadi?

Bunday paytda aql tilni lol qolgan holda topadi. Faqat til emas, qo'l ham shol holatda.

Bu shartlarning imkonlari bo'lganidek, bu shartlardan ayri-cha uning tayanchi, ustunlari ham mavjud. Ularni Tangri taborak beshta qilib yasagan. Buni muborak beshlik desa ham bo'ladi.

Bu besh ustunning birinchisi hech shubhasiz «lo iloh» bilan «Illalloh»dir. Yana biri Muhammad (s.a.v)ni uning elchisi deb bil. Unga guvohlik berib, uni qabul ham et.

Yo Alloh, yo Alloh, bu ikki so'z qanday so'zlar bo'ldiki, ular tufayli ikki olam tartibga keldi! Taqdir kitobiga qalam avval buni yozib, jannat eshigiga ham shu xat yozilgandir.

Baland osmon uzuk halqasi kabi bo'lib, u so'zlar uning yuziga naqshdek muhrlab qo'yilgan, yo bo'lmasa, bu xatlar uzukka bezak sifatida yozilgan hamda osmon uzugining og'irligidan bukilgandir.

Inkor ahli o'zlari biladigan narsalardan boshqalarini hammasini rad etishga harakat qiladilar.

«Illalloh» — buning isboti bo'lib, ayni shu vujud uning aslini ham anglatgusidir. Muhammadning Allohga elchi bo'lganligi natijasida unga abadiy iqbol yuzlandi. (Allohning) buyruqlari va (ma'lum narsalarni) man' etishini bayon qilish, Uning (ma'lum sabablar bilan) qahrga kelganligini ayon etish uchun payg'ambarlarning yaxshi bo'lishi — Tangrining istagi bo'lib, ular nima-nimani yetkazsalar hammasi rost gaplardir.

Ustunlarning ikkinchisi namozni qanday ado etish (masalasi) bo'lib, lekin buning bajarilishida ma'lum qiyinchilik bor. Buning uchun avval tahorat qilish kerak. Shu bilan birga tahorat qanday bo'lishi kerakligini bilish zarur. Tahorat degani suvni yaxshi ko'rib, bir necha a'zolarni suv bilan yuvishdan iborat, degani emas. Bunday tahoratni har qanday hafsalasiz qilishi mumkin. Bundan boshqa latif tahorat ham bor. Buning uchun poklik chashmasidan zavqlanib, avval ko'ngul lavhasini (yomon o'y-fikrlardan) tozalashing zarur. Tanani mahorat bilan yuvish bilan birga ruhni ham poklash kerak bo'ladi. Ruhni ham shunday tozalash kerakki, yuzda kichik bir nuqtacha ham kir qolmasin. Ko'zni ariqdan tiniq ko'z yoshlari oqib ketgandek qilib, ko'ngulni ham yaxshilab bo'shatish zarur.

Shundan keyin o'z yashab turgan uyingni (shar'an) foydalanishga noloyiq deb topib, Xudoning uyi (masjid) tomon yo'l olishing kerak. U yerga avval o'ng oyog'ingni bosib kirar ekansen, Xudodan boshqani ichkariga kiritmagaysen. Bu vaqtda uy egasi bo'lsayu sen bo'lsang — shu yaxshiroq ham. Uyning chetroq yeridan o'rin tutilsa. Ustunga o'xshab tik tursalaringiz, rukuga borar ekansiz, egilish qoidasiga rioya qilinsa.

Sajdada hayajon bilan yerga bosh qo'yar ekansiz, sizning chehrangiz Quyosh sarg'aygandek bo'lsa. (Namozning) vojib va farz (qoidalarga) rioya qilinsa, sunnat ham to'laligi bilan ado etilsa.

Shunday yaxshi sajda hamda pok yuz bilan namoz o'talsa, (o'lganingizda ham) yerga Quyosh kabi (pok yuz bilan) kirasiz. Qiyomat tongida qanday zuhur etsangiz, boshdan to oyog'ingizgacha Quyoshdek nurga g'arq bo'lursiz!

Uchinchisi zakotning bajarilishi majburiy ekanligidir — Alloh senga mol va yer-suv kabi nimaiki bergan bo'lsa, shular yuzasidan. Bunda ham ikki xil yo'l-yo'riq mavjud bo'lib, ey do'stim, uning birisi eng asosiysi bo'lsa, yana biri unga tutash qismi yoki shoxidir.

Bunisi shunday qismki, tashqi tomoni Payg'ambar shariatiga, qanday izohlansa ham qabul qilsang bo'laveradi. Zakotni beruvchi

o'z mablag'i (boyligi)ning haqiqiy egasi bo'lsa, har qirq diramdan bir qismini hisoblab ajratishi kerak. Unga dehqonchilik va do'kondan, shunga o'xshaganlardan ham, hatto xizmatchilari, yuk tashiydigan hayvonlari (ot, eshak va h.z) ham shu hisobga kiradi. (Uyida) qancha matolari bo'lsa, shariat yo'li bilan ish ko'rib, hammasiga zakot berarlar. Bunda g'allaning miqdori ham aniqlanib, qanchaligi, qanaqaligiga qarab ochiq belgilanadi. Doimiy ravishda sakkiz kishi sarf-xarajatni shariatdan kelib chiqib, so'zlab tushuntiradi. «Far» zakotning, aytib o'tganimizdek, bir qismi bo'lib, u asosiy qismidir va bu narsalarning har qaysi faslda o'ziga xosligi bor. Asl maqsadga muvofiq ishga kirishib, nima bo'lsa ham orqaga qaytmaslik. Borini berib, bunga shukr ham qilish kerak. Berish uchun so'ralgan narsa topilsa, bu yana ham yaxshi.

(Uy egasi, xo'jayin)ning zaxira qilish ko'nglida bo'lsa, unga faqirlik va fano ganji o'zi yetarlidir.

Uning ko'nglida pulning naqshi o'z dog'ini qoldirmagan bo'lsa, u o'ziga durning porloq nurini shamchiroq qilmoqchi bo'lmasa, bag'rini la'l g'ami bilan qon qilmasa, dur tashvishida ko'zidan yoshlar oqmasa, mingtani topib, bittasini ham olib qolmasa, nima kamchilik bo'lsa, o'z bo'yniga olsa, boyluk topib, biron vayronaga olib borib berkitmasa, birovga berganini minnat qilmasa, har narsani yetarli berib, uni birovdan berkitmasa, buning ustiga yana suyunchi ham bermoqchi bo'lib, boshqa narsa topolmasa — kimki ehson qilsa — shunchalik qilar, boylikka erishsa, tayyorgarlik ko'rish ham shuncha bo'lar!

Buning to'rtinchisi ro'za bo'lib, bundan qochmagil. Uni tutginu, inkor etishga og'iz ham ochmagil. Oshqozoningni bo'shliq bilan to'ldirgil. Unda qancha bo'shliq bo'lsa, xursandchilik bilan to'lat.

Ro'za bilan bog'liq hadisda bu haqda lo'nda qilib Alloh «As-savmu li» («Ro'zaga») degan, deyiladi. Nisbat berish yo'li bilan bu muloqotni o'zi bilan qildi, yo'qsa uning o'ziyoq buni man' etishi mumkin, buyruq bo'lib, Xudo sifatida jazolamoqchi bo'lib, ro'za o'ttiz kun emas, yil-o'n ikki oy! deyishi ham mumkin edi. Shuncha (ya'ni o'n ikki oy) tutsang, bu Unga loyiqdur. Bilsang jazo senga qarab yo'naltirilgan edi.

Bu ro'za emas, u (insonga) mashaqqat ham keltiruvchi, (Ilohiy) xabarda esa «Ana ajzo bihi» («Mukofotini o'zim beraman») — bo'lib keldi.

Bu ham uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchisi ijrosi quyidagicha rasm bo'lgandir. Sahar chog'ida Quyosh nurlarini namoyon etib, o'z ruxsorini ko'rsatmaguncha ro'za tutgan kishi ovqat va ichkilik (suv) iste'mol qilmaydi. Lekin ikkinchisini ichmaslikka alohida e'tibor berish zarur.

Bunday ro'za tartibi bitilar ekan, bunga ham bir qancha qo'shimchalar bo'lishi mumkin. Boshqa a'zolarga xalal yetmasligi, shariatga xilof ishlarga qo'l urmaslik lozim. Har kim o'z ishiga berilganda, man' etilgan narsalarga qarshi jiddi jahd bilan kurashmog'i

kerak. Bormas yerga bormaslik, ko'rish kerak bo'lmagan narsani ko'rmaslik, ushlar kerak bo'lmagan narsani ushlarlik, aytish kerak bo'lmagan narsani aytmaslik, eshitish kerak bo'lmasa eshitmaslik, yurish kerak bo'lmasa yurmaslik kerak.

Lekin uchinchi shundan iboratki, ko'ngul yuqoridan tushadigan barcha nurlarning makonidir. Uning havosi pok va rohatbaxsh bo'lib, osmoni ham fayz jilvagohidan iboratdir. Ilohiy sirlar xazinasi ham uning o'zi, shohona chehra oynasi ham uning o'zidir. Kir xayollarni daf' etib, bu oynani ehtiyot qilib asrash darkordir. Chunku unda do'stdan boshqasi zuhur etmaydi, uning xotirasidan boshqa bir narsa ham. Hech bir surat uning naqshiga kuch-quvvat bera olmaydi. Boshqalar esa bu ne'mat yordamida ro'zalarini tutaveradilar. Ushbu hol sahardan to shomgacha emas, sahar va shomni ham qo'y — davomlidir.

Beshinchi, har bir musulmon qiblaga qarab qadam qo'yib, baytul-haram (Ka'ba) ziyoratida bo'lmog'i kerak. Bunday saodatga yetishgan odamlar dashtu cho'lni ikki tarzda bosib o'tadilar.

Biri shundayki, u boy odam bo'lib, unda yuqori amal ham bor, uni suwab turgan boylik ham. Uning uchun yo'llar tinch bo'lib, biron baxtsizlik unga mone'lik qilmasa. Buning uchun yo'lda kerak bo'ladigan barcha asbob muhayyo qilinsa, unga mehribon bir hamroh topishsa. Farzni ado etishni o'ziga muqarrar qiladi-da, farzni ado etadiyu orqasiga jo'nab qoladi.

Ikkinchi xili — bu fano ahliga oid kishilar bo'lib, ular o'ziga faqirlikni boylik deb biladi. Vayrona ko'ngliga do'sti (Alloh) tushsa, shavq, talab uning joniga o't soladi. Faryod qilib, u darhol fil kabi yo'lga chiqar ekan, aqldan ozgan odamlar ahvoliga tushadi. Ming yog'och masofani yurib o'tar ekan, birinchi qadamdayoq haj kiyimini kiyib oladi. Na uning yonida farzandi bor, na oti, na ulovi, na birga borayotgan karvoni. Dasht unga gulshan bo'lsa, oq xushbo'y gultikan. Yonida mug'ilonzor¹ — bamisoli chaman. U yerda har xil garmsel esib, rangni qizartirsa, qancha gul va lola bo'lsa, ularni shamol uchirgani uchirgan. Shunday garmsel ichida qolsa ham u sog'lom, go'yo gulzor orasida shabada esayotgandek.

U yerdagi chamanning daraxtlari tikonli bo'lib, quyunlari esa — sollanayotgan sarvlar edi. Alloh bularning hammasiga muruvvatni dalil qilgan, shu'lani esa Xalilning² gulzoriga aylantirgan edi. Toki bunday ahvol unga dalil bo'lib, asosini Xalil qurgan o'sha uy (Ka'ba)gacha uni yetkazdi.

U sidq va safo bilan tavof qilar ekan, barcha shatrlarni bajo keltiradi. Do'st (Alloh) uyida mehmon bo'lib turar ekan, unga nima kerak bo'lsa, mezbon hozir qildi. (Aslda) bu mehmonni o'zi olib kelgan, boradigan uyigacha unga hamroh bo'lib, yetkazib kelgan edi. Bir odamni saodatga bunchalik sarafroz etgan narsa fano va niyoz edi.

¹ Mug'ilon — tikanli daraxt nomi.

² Xalil — Ibrohim (a.s.) payg'ambarning laqabi.

Kimki foniy bo'lib, yalborsa, Tangri uni sirlarni kashf etuvchiga aylantiradi. Cho'lni kezish boylik egalariga farog'at bag'ishlaydi. Fano ahllarining cho'lni bosib o'tishida boshqa bir (sirli) hol mavjud. Unisi nozu ne'matlarga ega bo'lgan bo'lsa, undan ortiqrog'iga bu muhtojlik bilan erishdi.

XXV

Ibrohim Adhamning Ka'baga namoz o'qish bilan borgani va Robiyai Adviyaga esa Ka'haning o'zi unga muhtoj bo'lib kelgani

Qachonki Ibrohim Adham¹ o'rinbosarlikdek yuqori mansabini tark etar ekan, Alloh fano tojini uning boshiga kiydirdi. Uning podshohligi va dabdabalarini fano yeli uchirib (Ka'baga olib boradigan) dashtni bosib o'tish uchun qadam qo'ydi. Masjidni qo'yib o'z holicha namoz o'qir, har qadamda ikki rak'at namozini o'qishni qo'ymasdi. Shu tarzda u o'n to'rt yil yo'l yurdi. Uni madh etish uchun har bir tikan va giyohlar tilga kirdi.

Makkani tavof etish uchun u kirib kelar ekan, Baytul-haram (Ka'ba ziyoratgohi) o'z o'rnida yo'q edi. «Bu ne hol, ey Xudo!» — deb fig'on solar ekan, g'oyibdan ovoz keldi: «Ey yo'lovchilarning piri! Bir qariya ayol cho'lni bosib o'tar ekan, (Allohga bo'lgan) shavqu muhabbat yuki og'irligidan qaddi bukilibdi. Zaiflikdan u shunday kuchsizlanibdiki, (endi) Ka'ba o'zi uni ziyorat qilishga ketdi!»

Bu voqea Adhamni hayron qoldirdi. U qarab turar ekan, Robia kelayotganini ko'rdi. U dedi:

«Ey sayrgohing Arsh bo'lgan zot! Ka'ba o'zi seni tavof etish uchun yo'lga chiqibdi! Qaraki (o'z ishlaring bilan) sen dunyoga qanday ovoza solibsan!»

Robia unga javob berib dedi:

— Oshirib yuborma! Butun olamga ovoza solgan sen bo'lasan! Dashtni bosib o'tish uchun o'n to'rt yil yuribsan!

Ibrohim dedi:

— Ey pok qadam, sen farishtalardek, Osmonni ham kezib chiqishga qodirsan! Ammo ayt-chi, nima uchun men shuncha yo'l yurib azob chekdim, azobni men chekdimu xazina senga tegdi?

Robia unga dedi:

— Tushun! Bir necha yil cho'lda barcha yo'llarni bosib o'tar ekansen, sening ishing namoz o'qimoq bo'ldi, xolos! Men esa Unga istagimni aytdim, ishva, noz qildim, yalinib-yolbordim! Namoz o'qib, riyo qilib, erishgan hosiling shudir. Menga esa yalinib-yolborishim va o'zligimdan kechganligim shu mevani berdi.

Ey Navoiy, noz ahliga boqma! (Alloh oldida) o'zini muhtoj tutganlarga arzi niyoz qil!

¹ Adham — Balx podshohi (777-y.da vafot etgan).

Ey soqiy, ko'p noz qilma, qadahni olib kel! Boq — senga muhtojlar naqadar tashna! To'latib ber, — uni har bir ulfat, xususan, ulardan eng zaifi — men ham ichaylik!

XXVI

UCHINCHI MAQOLAT

Sultonlar haqida; eng yuksak va maqtovlarga sazovor Tangri ularning hukmdorlik hoshiga podshohlik dubulg'asini shuning uchun kiydirdiki, ularning adollatlari ko'zining chashmasidagi zilol suv mamlakat hog'ini qondirsin, toki bu bog'da tinchlik va farog'at gullari ochilsin. Ular zulm bog'ida may ichib, gul sochganlarida esa u maydan har lahza o'zgacha gullarni gullatadilar

Ey, ulug'vorligi falakning avjidan ham yuqori ko'tarilgan odam, oy va quyosh sening sha'ningga nog'ora bo'lib chalinadi. Sening taxting mamlakat uchun abadiy baxt belgisi. Chodiring soyasida mamlakat quyoshi porlaydi. Boshing tufayli tojning martabasi yuqorilashdi; taxt esa sening oyog'ingdan azizu mukarram bo'ldi. Pulga noming chekilgani uchun u hurmat topdi. Sening obro'yingni bildiruvchi tangalar osmon yulduzlaricha ko'pdir. Sening amaldorlik xutbangni Mushtariy sayyorasi o'zi o'qigani uchun to'qqiz zinali osmon Kursisi unga minbar bo'ldi.

Quyosh o'zi senga soyabon bo'lishga intiladi. Oy yuzidagi muhr sening uzuging o'rni. Sulaymon davlatida sen ishrat qilasan; humo qushidan boshqa narsa senga soya solmaydi. Sen podshoh Jamshid o'ltirgan joyda o'ltiribsan, qo'lingni qadahdan boshqa narsa o'pa olmayapti. Adolat uzugingga baland osmon «Rostlik — xaloslik» degan so'zlarni naqshlagan. Baland martabang xutbasini esa u «Adolat bilan amringni yurgiz!» — deb yozgan.

Xudo senga mehribonlik soyasini solib, hukmronlik taxtini ravo ko'rdi. Ne-ne buyuk odamlarni oldingda past qilib, dunyodagi qancha zo'rlarni senga bo'ysundirdi. Sening oldingda xalqni ham notavon qilib, hammasiga hukmingni o'tkazdi. Xizmatingga elni majbur etib, oldingda qomatlarini egdi.

Lekin sen shuni bilki, sen ham bir bandasan, aslida ularning ko'plaridan ojizsan, quyisan. Ular tuprog'u, sen toza nurdan emassan: aslida sen va ular qora tuproqdan yaratilgansizlar. Hamma a'zo va tan bo'laklarida, tashqi ko'rinishda ham, tuzilish moddasi e'tibori bilan ham tengsan. Lekin hunar bobida, aqliy yetuklikda, yaxshi xulqda, chiroyli so'z so'zlashda, adolat bilan ish tutishda, insofda, yumshoqlikda, hayoda, boshqa sifatlarda — shariat yo'lida, ibodatda, Xudo yo'lida qattiq turishda — to'g'ri yo'ldan sen ancha chetdasan. Bu sohada ularning ko'pi sendan yaxshi yuradi.

Senga Tangri shunday imtiyoz berib, saltanat osmonida baland qilib qo'ygan ekan, taxtni sening shaxsingga joy qilib, hukmingni

mamlakat bo'ylab o'tkazib qo'ygan ekan, munda ham u o'z qudratini, o'z hikmati bilan qatrani daryoga aylantira olishini namoyish etmoqda. O'zining haqligini odamlarga bildirib, o'zining qudrati mutlaq ekanini tushuntirib qo'ymoqda.

Lekin bunday baxtning ro'parasida, bunday buyuk martabaning qarshisida u senga bir necha vazifani topshirgan, bir necha san'atlarni ham senga nasib etgan.

Birinchi vazifa uning bergan ne'matiga shukr qilishdir; kimki shukr qilsa, Xudo unga bundan ham ko'pini beradi. Agar sen shukr qilib, zulm qilmasang, o'zi: «Albatta, ne'matingizni orttiramani!» degan.

So'ngra u senga xalqni omonat sifatida topshirgan; shuning uchun ularni xurram tut, chunki bu haqda o'zi ham g'am yeydi. Garchi uning buyruqlari ko'p bo'lsa ham, ammo ularning hammasi ham biru, bunisi ham bir.

Xalq poda bo'lsa, sen cho'pon; u mevali bog' bo'lsa, sen — bog'bon. Qo'yni agar oy-yillar davomida cho'pon asramasa, ularning hammasi och bo'rilarga yem bo'ladi. Dehqon o'z gulzoriga tunu kun qaramasa, ko'klam daraxtini o'tin deb hisoblayver. Bo'rini podadan uzoqlashtir: bog'ni ham suv berib, obod qil. Poda to'g'risida qayg'ursang, u senga ko'p foyda keltiradi. Bog' ham gul va naflī mevalar beradi. Poda qirilib, daraxtlar qurisa-chi, sening o'zingga ham hech qanday naf' va foyda bo'lmaydi.

Xudo topshirgan topshiriqlarini so'rab qolsa, o'ylab ko'r, sen u vaqtda qanday javob berasan? Agar sen o'zing yo'l tanigan odam bo'lsang, ko'zingni och, ish tutishingni uning aytganlariga qiyos qil. Sening qaramog'ingdagi bir odam zulmingdan bechora holga kelib, ezilib, obro'si, mol-dunyosi bo'lmasa ham, lekin insoniy qadr-qimmatini senikidan ortiq. Nimaga desang, qiyomat kuni eng yuqori turgan Xudo zolimlarni ham, mazlumlarni ham savolga tutadi. Shunda unga bu dunyoda chekkan zulmi uchun mukofot, senga esa sharmandalik bo'ladi. U buyuklikka, sen tubanlikka sazovor bo'lasan. Uning tili po'lat xanjardek uzun bo'ladi, savsandek tik ochiladi. Sen esa gunafshadek qaddingni bukib turasan, uyatdan bosh ko'tara olmay, mag'lub holda qolasan. U xursandchilikda, sen esa g'am-anduhda; sen hozir qanday bo'lsang, u o'sha vaqt senday bo'ladi. Qilgan xatolaring hisoblab chiqilgandan keyin, har bittasiga yuz azob tortasan. U vaqt Tangri bu dardingga davo qilmaydi. Agar birovdan tortib olganing siniq igna bo'lsa ham u yerda olmos xanjar bo'lib bag'ringga qadaladi. Agar mazlumning o'zi gunohingdan o'tmasa, sening joying doim do'zaxning ichi bo'lib qoladi. Agar sen uning kechirishiga umid tutmasang, bilki, abadiy do'zax o'tidasan. Kingaki bu dunyoda bir tikan kirgizibsan, u sening ko'ksingga yuzta o'tkir tig' uradi. Kingaki bir uchqunni tekizgan bo'lsang, buning badaliga butun bir do'zax o'tini olasan. Kinga bir qilcha ziyon yetkazgan bo'lsang, u ipni o'z o'liming uchun ilon deb bil.

Evohki, baxt sening qo'lingni quvvatli qilgan edi, lekin sen esa undan zulm yo'lida foydalanding. Sening xaloyiqqa qilgan zulming

kamaymas ekan, bu bilan sen o'zingga ham zulm qilgan bo'lasan. Zulm qilish o'zing uchun ham buzuqlik-ku, ey hushyor odam, agar hushing joyida bo'lsa, uni yo'q qil.

Sen xursandchilik bazmiga yo'l olar ekansan, ayshu farog'at yo'lida bazm qilarkansan, bazming uchun tayyorlangan qasr jannat monand qilib jihozlangan. Lekin uning pardalarining iplari xalqning jonidan, qizil toshlari va qizil bo'yoqlari odamlarning qonidan, shipi xalq molini talash hisobiga oltinlangan, xalqning dur va la'llari bilan naqshlangan. G'ishtlari masjidlarni buzib keltirilgan, toshlari odamlarning qabrlaridan tashilgan.

Sen shunday joyda taxtda o'ltirib, shahanshohlik qilasan, xursandchilik qadahi uchun ishtahang joyida. Bazmda soqiylar kulib, jilvada; sozandalar turli-tuman soz chalib, qo'shiq aytmoqdalar. Unda ko'ngul nimani xohlasa, bir emas, minglab topiladi. Og'izlaridan chiqqan gaplar gapiradigan gaplar emas; shunday ishlarga ko'z tushadiki, qarash mumkin emas. Quloq shovqin-surondan boshqa narsani eshitmaydi. Maqsadlari qo'lga qadahdan boshqa narsani olmaslik.

Bunday xursandchilik kuning, hay-huning ko'pligidan hech kim so'fining azonini eshita olmay qoladi. G'azalxonlik, gap-so'z, kuy bilan bo'lib, hamma o'sha kungi namozdan qoladi. O'sha o'tirishdagi bor-yo'q taqvodorlar: beli bukik chang – ruku'da, shisha esa sajdaga bosh qo'ygan edi. Ular ham bu xil «toat-ibodat»lari bilan rasvo bo'lib, tasbeh donalarini meva o'rnida gazak qilishdi. Quyosh gardishidan nurlar sochila boshlagunga qadar ayshing xilvatida shu xil tirikchilik.

Shom jahon sahifasini qora qilib, zulmat pardasini xalq ustiga yopganidan, naq yarim kechagacha shu ahvolda bo'lasan. Sening ham, odamlaringning ham ahvoli shu. Bunday ahvolingga may qadahi qon yig'laydi, sham' kuyub, ko'zidan yoshlar to'kadi. Sanj¹ chapaklar chaladi, nog'ora na'ra tortadi, xo'roz osmonga qarab nola va afg'on chekadi. Kayfing oshib, xilvatga o'zingni olganingda esa ko'nglingga kelgan ishlarni qilasan.

Bazmda qolganlar, xoh qari bo'lsin, xoh yigit, ichkilikdan har bittasi bir telba itga aylanadi. Jahlda ular qoplondan ortiq bo'lsalar ham, lekin nafs itining qo'lida mag'lub bo'lganlar. Ularning har biri yuzlab xomtama' bo'lib, butun islom mamlakatiga yoyilishgan. Har tomonda ular mast ahvolda orom izlashadi, bir gulyuz go'zaldan maqsadlarini hosil qilmoqqa intiladilar. Mastlik uyqusi hujum qilganda esa bu shum to'dadagilarning barchasi o'lukdek yotadi.

Tong o'z nurlarini zohir qilib, har tomonga o'z porloq yuzini ochganda, kun yoyilib, choshgoh bo'lganda esa sulton va uning odamlari, askarlari hamon uyquda. Ko'zlaridan uyqu ketgandan so'ng ularning har biri bir zulm bilan mashg'ul bo'la boshlaydi. Ular xalqqa zulm qilish eshigini ochib, xursandchilik asboblarini tayyorlay boshlashadi. Asboblar tayyorlangandan keyin shodlik bazmida yana g'avg'o, shovqin boshlanadi.

¹ Sanj — chalinadigan ikki mis likopcha (litavr).

Bu faqat shu zamon podshosining odati bo'lmay, kattadan-kichik – hamma o'z holicha shu xilda ish tutadi. Har kuni kechgacha ularning ishi shu, har kechani shunday g'aflat bilan kunga ulashadi.

Ey xalifalar taxtida o'ltirgan podshoh, o'z ishingga, ularning ishiga bir qara, axir. Qoida degan shunaqa bo'ladimi, gapir! O'z ishing nima bo'lishi mumkinligining g'amini ham yesang-chi! Xudo seni adolat qil, deb sulton tayinlagan edi, sen bo'lsang zulm etib, xalqni xonavayron qilyapsan. U seni toat-ibodat ishlariga buyurgan edi, sen bo'lsang nuqul o'yin-kulgini odat qilding. Bu o'zini bilmaslik necha oy, necha yil davom etishi mumkin? Agar sen o'zingga kelmasang, oxir o'zingning ahvolingga voy! Umr shunday ishlar bilan o'tib ketadi, o'lim qichqirig'i boshingga yetib keladi, esda tut! Bu hashamat, bu odamlardan ham ayrilasan, so'ng bu qilmishlaring bilan nima qila olasan? Qo'lingdan tutadigan biron yaxshi ishing bo'lmasa, azob chekayotganingni ko'rib turib, hech kim yordam qilolmaydi. Sen zulmni tark ayla, adolat qil, o'lim kuningni ham eslab qo'y. Kunduzi butun zulm bilan shug'ullanib, kechasi bilan buzuqchilik qilasan: axir bu zulm, bu buzuqchilik qachongacha davom etadi? Goh-goh pushaymon kunini, pushaymon kuninigina emas, qiyomat kunini ham o'ylab qo'y! Inson ayb va gunohdan xoli emas; undan butunlay qutulish qiyin. Xatosiz ish tutish Xudoga xos, xolos. Xato qilish inson tabiatida bor narsa. Lekin xatong uchun qo'rquv bilan uzr so'rashing kerak; afsus qilib, zulmdan tavba etishing zarur. Kimga adolatsizlik ko'rsatgan bo'lsang, unga adolat qilib, qo'lidan tut. Fikring bilan zulmatni yoritishing, lutfing bilan olamni o'zingga qaratishing kerak. Birovga quyoshdek tig' solsang ham, orqasidan mehr-muhabbat izhor et.

Shohlarda bunday sifatlar kam bo'ladi. Shoh G'oziygina¹ ularni to'la egallagan.

XXVII

*Shoh G'oziy qahrining garmseli bir qaysar boshoqni harbod
etgani, adolatining suvi esa o'sha boshoq bitgan buzuq ekinzorni
obod qilgani*

Saodatli Shoh G'oziy podshohlik toji uchun kurashib, taxt talashib yurgan vaqtda – yonida yuz, ikki yuzcha odam bilan ko'chib yurar, goh Xorazm yerida bo'lardi, goh Adoqda. Otgan o'qlari dushman yuragini qon qilib, tig'i yov boshini uchirar edi. O'zi asli zotida loyiq bo'lgani uchun Xudo unga oxiri hukmdorlikni berdi. Xalqqa u adolat eshigini ochib qo'ydi. Taxtga chiqib o'ltirdi-yu, adolat ko'rsata boshladi. Imoratlar qurib, vayronalarni tuzatdi, zulmni adolat yo'li bilan bartaraf etdi. Bid'at va fisq-fujur ahllari yo'qolib, shariat adolatining qo'lini kuchaytirdi.

¹ Sulton Husayn Boyqaro.

Bir kuni u aylanish uchun chiqqan edi. Shunda bir devona kampir uning etagidan mahkam tutdi. Nolayu afg'on chekib, oh tortib, u dedi:

– Ey, shariatpanoh shoh! Agar adolat bilan ish ko'riladigan bo'lsa, men sen bilan shariat bo'yicha da'volashaman. Shart shuki, jahling chiqmaydi, savollarimga shariat mahkamasi – qozixonada javob ber.

Shoh javob berdi:

– Agar sen jonimni talab qilsang ham, agar talabing shar'iy bo'lsa, aybimga jonim bilan iqorman.

Shu aytilgan gap bo'yicha kelishdilar, islom qozisining huzuriga bordilar. Ular bir-biriga yonma-yon o'ltirishdi; atrofdagi odamlar hayajon bilan turardilar. Ikkisi go'yo katta ma'arakada Zol bilan Rustam¹ turganday edi, ularning boshida esa butun olam to'plangandek. Qariya dedi:

– Shoh qazoqlik qilib ko'chib yurarkan, tig' solib, har yoqqa askar tortardi. Men tulning birgina jigarim bor edi, u jigarim ekinzorining yagona boshog'i edi. U bog'imda bitgan qomati raso sarv, yana to'g'rirog'i, qurigan shoximning mevasi edi. Shoh qilichi bilan ko'ksimni yorib, jigarporamni halok etdi. U tig'i bilan jigarimni kesib, jigarim qonini yerga oqizdi.

Qozi aytdi:

– Hukmimga shubha bo'lmasligi uchun ikkita guvoh olib kel.

U javob berdi:

– Agar ikki guvoh kerak bo'lsa: bular – shohning o'z adolati va insofidir.

Shunday qilib, yaxshi niyatli podshoh aybiga iqror bo'ldi. Adolat dargohining odami bo'lgan qozi xun puli to'lash kerakligi yoki qasos olish haqida hukm chiqardi. Shoh dedi:

– Shariat shunday hukm qilgan ekan, payg'ambar shariatining hukmiga jonimni fido qilaman.

U qiyiq bilan bo'ynini mahkam bog'ladi; katta hamyonning esa og'zini bo'shatdi. Kampirning qo'lga qo'rqmasdan tig' berdi, bu tomonga esa oltin, kumushlarni to'kib qo'ydi. So'ng u dedi:

– Qasos olaman desang, mana, boshim; maqsading tirikchilikka pul olish bo'lsa, mana, pul. O'g'lingni o'ldirish haqida buyruq berganimda, boshqa ilojim qolmagan edi. Mana, nima qilsang qil, ixtiyor senda!

Shohning adolat va zo'r insof ko'rsatishi tig'ni g'amgin kampirning tishlaridek o'tmaslashtirdi. U uzr so'rab shohning oyog'iga yiqildi va dedi:

– Ey yulduzlarcha askarga ega bo'lgan podshoh! Agar bolam sening yo'lingda qurbon bo'lgan bo'lsa, men qariya ham senga jonimni berishga tayyorman. Agar seni iztirobga solgan bo'lsam, yaxshilikcha kechir, men yengildim.

¹ Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» dostonidagi qahramonlar nomi. Zol pahlavon Rustamning otasi bo'lib, bu so'zning «qariya» degan lug'aviy ma'no'i ham bor.

Vah, bu odamni qanday xijolatga solish bo'ldi? Bunisi qanday lutfu adolat o'zi?! Kampir o'zining da'voyu dostonidan kechib, hatto o'g'lining qonidan, o'zining jonidan ham o'tdi. Qizig'i shuki, odil podshoh uni o'sha vaqtda boy ham qildi. Yulduzlardek ko'plab oltin-kumushlar uni ko'hna falakdek yashartirib yubordi. Kumushning kuchidan u kumushdek bo'ldi. Xalq unga «Tilla kampir» deb laqab qo'ydi.

Falak shum kampiridan qancha alam ko'rsang ham, shoh adolat qilsa, ey Navoiy, nima g'am.

Ey gulyuz soqiy, adolat jomini keltir, qara, adolatning orqasidan qanday gullar ochilishi mumkin. Adolat qadahini tutki, shodlik bilan ichay, zamonning odil kishisini yod tutib ichay.

XXVIII

TO'RTINCHI MAQOLAT

Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususidakim, ularning oldida haqiqiy libos degani hiyla-nayrang kiyimidir, avom xalqqa o'rgatadigan haqiqat va bilimlari esa ahmoqlik; haqiqiy mayxo'rlar to'g'risidakim, ularning vujud kiyimlari yo'qlik qo'lining zarbasidan yirtilgan va Iso nafasidek jonbaxsh nafaslari esa muqaddas ruh kabi pok va ziyorat joylari falakning sahnidir

Ey, qalloblik bilan janda kiyib olgan shayx, shomu sahar zikr aytib, g'avg'o qilasan. Jandangning hamma tomonlariga yamoq qadalgan, bu yamoqlar hammasi soxta xudojo'ylik va riyo iplari bilan tikilgan. Aylanma quroqlar bu kiyimingda ko'p bo'lib, ularning ostiga pullarni berkitib qo'yish oson. Uning to'qimalari ham yolg'on ipidan to'qilgan. Iblisning mo'ylabi esa igna vazifasini bajargan. Yashil to'n ustidagi yamoqlar nayrangboz falakning nahs yulduzlaridir. Ushbu falak ham shuning uchun ertalabda rido kiyadi, yolg'on tong esa uning bayrog'idir. Uning eski sallasi chulg'angan bo'lib, ichida egrilikdan boshqa hech narsa yo'q. Uning hassasini hassa dema, hiyla uyining ustuni de: qani endi shu ustun sinib, bunaqa uy yer bilan yakson bo'lsa.

Tasbehini tasbeh dema, buttarosh but yo'nayotganida chiqindilardan uning donalarini yasagan. Bu toshlarning uchidagi so'fisi kofirning may idishiga o'xshaydi, tasbehning ipi esa zunnorning ipini eslatadi. Tish tozalagichi so'lagi tegishi bilan nopok bo'lgan. U misvok yomon xabar bitilgan o'rog'liq maktubga o'xshaydi, shunday narsani u go'yo o'pish uchun og'ziga olib borayotganday. Ikki oyog'idagi ikki kavushi hazilkashlar uchun o'yinchoq – ermak. Osilib turgan ajib soqoli kishining kulgisini qistatadi; o'ltirishi minbarga chiqqan echkining o'zi.

Lekin tutgan ishida echkining ishidagicha ham to'g'rilik yo'q, chunki u o'g'rini tutadi, bu esa o'zi o'g'rilik qiladi¹. Echki o'z toifasiga

¹ Bunda shoir o'g'rini echki vositasi bilan aniqlash odatiga ishora qilmoqda. Bu odat bo'yicha, o'g'rilikda shubha ostiga olingan odamlar davra bo'lib o'ltirgan, o'rtada yurgan echki kimni iskasa, o'sha o'g'ri hisoblangan.

yaxshilik istaydi; poda ming qo'ydan iborat bo'lsa ham peshvo. O'zini hammasiga mehribon tutib, yo'l boshlab, to'g'rilikka amal qiladi. Tunu kun tog'u toshda podani boshqarib yurib, ularni xavfli so'qmoqlardan o'tkazadi.

Shayx ham o'z odamlariga yo'l ko'rsatadi, lekin u ko'rsatgan yo'l to'g'ri do'zax o'tiga olib boradi. Zulmat vodiysida bu ajab toifa yo'lidan adashib, o'zini o'tga uradi. Ular fisq-fasod qaynagan joydan panoh topib, unga goh «ibodatxona», goh «xonaqoh» deb ot qo'yadi. Xonaqohga shayx bo'yralar solgan; bo'yraning rangi – hiyla, hidi – riyodir. Masjidining ustunlari har xil bo'lib, qibla tomoni qiyshaygan. Eshigi mayxo'r otashparastning daraxtidan, mehrobi buzuq tarso¹ qizining qoshiga o'xshaydi. Shayx shu mehrob orasida toat qilarkan, shayton nima desa o'shaning gapiga kiradi. Tag'in qancha odamlar unga murid. Lekin ular hammasi unga loyiq, mos muridlar.

Shayx qaddini «nun» harfi kabi egib, bir burchakda Zunnun² singari o'ltiradi. To'g'ri yo'lni tutmoqchi bo'lganlarga ilmdan so'zlab, bunisi rost, unisi bilag'on, deb gap sotadi. Behuda gaplarni ko'paytirib, xudojo'y odamlarni murid qilmoqchi bo'ladi. Ularning birini xilvatnashin bo'lishga zo'rlaydi; boshqa birovini esa kuch bilan uzlatga chekintiradi. Yana birini nafsini tiygan odam deb ataydi. Boshqa birovi bo'lgan-bo'lmagan tushlar ta'birini aytib laqillatadi. Birov unga yolg'on bir tushni so'zlab bersa, bu unga qancha yolg'on ta'birlarni qo'shadi. Xilvatda u o'zini odamlarga eng yaqin do'st deb, o'zini Xizrga hamdam bo'lgan deb ko'rsatadi. Mahkam qilib nasha tugib qo'ygan latta nashaning rangi urib, yashil bo'lib ketgan. Uning otini shayx «Xizr payg'ambar» («Yashil payg'ambar») deb ataydi, bema'ni xayollarini esa bashorat tushi qilib ko'rsatadi.

Bunday xilvat uning ahligagina xos bo'lmay, bunday «xizr»(nasha) shayxning ham ajralmas do'sti. Nashani chekib olib, u o'zini martabada eng yuqori o'rinda deb biladi; osmon ham, unga qolsa, uning uchun eng past joy. Xayolida u ko'tarilmagan daraja qolmaydi, uncha-muncha karomat ko'rsatganini pisand ham etmaydi. Nogoh uning qulog'iga nayning bir kuyi eshitilsa, o'zini Ilohiy may ichgan odamdek mast qilib ko'rsatadi. Tashqaridan kelgan nag'ma ohangi juda yoqimli bo'lsa, o'rnidan sakrab turib, o'zi ham qo'shilib, ashula ayta boshlaydi. Oyoqlari bilan yerni depsib, fildek bo'kirib, nafs changagi oldida xoru zor bo'ladi. Unga ergashgan «xudojo'ylar» ham shu xilda harakat qilib, uning atrofida doira bo'lib aylanib, bema'ni xayollar bilan o'zlarini so'fiylik kayfiyatiga soladilar; shayx atrofida fonus atrofida aylangandek aylanadilar. Jazavasi tutganda muridlarining har biri piridan qolishmaydi; bemazalikda hammasi birdek. Behuda so'zlarni so'zlashda biri chirildoqqa³ o'xshasa, ko'p aylanishda boshqa biri

¹ T a r s o – xristian diniga mansub odam.

² Z u n n u n – tasavvufning katta olimlaridan biri. To'la ismi – Zunnun Abulfazl Savhon binni Ibrohim.

³ Hasharot.

pirildoqqa o'xshaydi. Biri o'zini yo'qotib, tilsiz qolsa, boshqa birovi nola qila berib, holsiz yiqiladi. Bunisi unisini ko'z qiri bilan kuzatib tursa, unisi shunisi ham kamoli o'zini yo'qotishga qiyos etadi. Munofiqlik o'tidan har biri do'zaxga o'xshaydi, lekin asl tabiatlari sovug'lig'idan esa yaxga. Har biri o'zini shuncha ko'p urintiradiki, natijada yiqilsa, tura olmaydigan holga keladi.

Ularning hammasining maqsadi — katta amaldorlar shayxning va xonaqohning bu ahvolini ko'rsa, shayxning pirlarga xos namozxonligini, uning muridlarining ham zikrini, o'z vazifasiga amal qilishini bilib, ularning faqirlik va qanoat orqali bu martabaga erishib, Xudo ishq va mutasavviflik holatidan bahramand bo'lganlarini kuzatsa. Shundan keyin ularning hammasini avliyo deb hisoblab, ularning so'fiylik holiga kirib, o'zidan ketishlarini ham chin deb o'ylab, shayx oldida yalinib-yolborib, kamchiliklarining chorasini ko'rsalar. Ish oxir shunga borsaki, mamlakat podshosi va lashkarboshisi ham xabar topib, ko'p duolar qilib, iltimos bilan unga murid bo'lsa, martabasini doim ko'tarib tursa. Unga hadyalar, tuhfaralar tortsa, mol ham bersa, g'allakor yer, kent¹ va suyurg'ol² bag'ishlasa. Shunday narsalar bilan bahramand bo'lsa, shundagina ularning nafsi orom, shodlik topadi.

Yo Xudo, bu qanday pastkash nafs o'zi?! Bu nafs emas, o'zi uchun ham katta azob-ku! Kun o'tkazish uchun shuncha nayrang! Mansab uchun shuncha yolg'onbozlik!

Shunday ekan, bu toifa odamlari yomonlarning yomonidir; dunyoda ulardan o'tadigan yomonni topish qiyin. Ularning tashqarisi yaxshi, lekin ichlari fasod bilan to'la; ularning tashi joynamozi ichida odam yoziladigan joy. Ular nafs oldida ruhni qulga aylantirganlar, toza ipakni esa dajjolning ustiga yopganlar. Ularning ichida dev bilan shayton qaynaydi, tani esa maloyiklardan to'kilgan pat bilan pardalangan. Ko'ylagidan mushku anbar hidi keladi, ichida esa yuzta it o'lib badbo'ylik bilan to'lgan. Usti oltinlangan soxta pullar bo'lsa ham, o'tga solib, bulg'onchdan oltinni ayirib olish mumkin. Lekin bu bulg'onchlarga do'zax ham hayf, chunki bu yaramas to'da odamlariga o'tni ham ravo ko'rib bo'lmaydi. Hamma odam odatda o'tdan azob ko'rgan bo'lsa, bulardan o't azob tortadi.

Mana, qara, odam bilan odam orasida qancha tafovut bor: bunisi Tangri deb butni tanlagan, unisi qiblani. Birontasi «jannat» so'zini og'ziga ham olmaydi, shuning uchun ularning birontasi kuyishga ham noloyiq.

Ey, ko'ngul, shunday odamlarga jahonlar fido bo'lsinki, ularga jahonlar emas, jonlar ham fido bo'lsinki, bunday odamlar ikki dunyoni ham tark qilib, ikki jahonnigina emas, jonini ham tark etib, firib daftarini yelga uchirib, nomus xirqasini o'tga yoqib, masjidu mayxonani ham yoqtirmay, mayxonaga ham, Ka'baga ham boqmasdan, elning yaxshi-yomoniga yeng silkib, odamlarning boru

¹ Katta qishloq.

² Podshoh tomonidan bir umrga beriladigan yer-suv.

yo'g'ini birdek ko'rib, jonni ham, jahonni ham tuproqcha ko'rib, butun borliq va u joylashgan makonni xashakcha bilib, dunyodagi hamma narsalarni o'tkinchi hisoblab, o'zini esa shu yo'qlik o'ti ichidagi kul deb, bu xayollar bilan o'zini tamom kuydirib, shu kul bilan tozalangan oina uning yuzini yoritadi! Bunday ko'zguda begona hech narsa yo'q, unda maqsad yuzigina jilva qiladi. Yanada to'g'rirog'i, bu yuksak xayollar, xayollar emas, zarralar unga har bittasi boshidan-oyoq bir ko'zgu bo'lib, uni maqsad ma'shuqasi (Xudo) ga ro'para qiladi. Har tarafda ko'zgu va jononlar ko'rinadi; ko'z yomon degan narsaga tushmaydi. U qayoqqa boqmasin, Xudoni ko'radi; bularni yaratganni esa mutlaq yaratuvchi deb taniydi. To'g'ri yo'l bilan ular vodiylarni kesib o'tadilar. Yo'ldan toyganlarga ular haqiqiy yo'l boshchidir. Kimki hijron zulmatida qolgan bo'lsa yoki umidsizlik vodiysida adashib yurgan bo'lsa, unday odamlarga u Xizrdek qo'lini uzatadi, maqsad manziliga yetish uchun unga yo'l ko'rsatadi. Ogohlik rashki mone'lik qilmasa, ular Xizrga ham hamrohlik qilishlari mumkin. Zulmat ular yoqqan o'tning bir oh degandagi tutuni, Xizr esa ularning har qadamida uchraydigan yashil giyoh¹. Ularning ko'zidan tomgan bir qatra yosh Xizrga yuzta hayot suvi chashmasi bo'ladi. (Qadamlaridan ko'tarilgan) changlari ko'zga to'tiyo, ularning amri bilan oddiy mis kimiyoga aylanadi. Adolatsiz osmon bilan uning yulduzlari ularning qahrlari o'tidan chiqqan tutun va uchqunlardir. Bir kunda qanchadan-qancha manzillarni bosib o'tuvchi quyosh bilan oy ularning marhamat gulshanidagi ikki yaproqdir.

Ular qayoqqa ulug' safarga chiqmasin, yuzlaridagi har qatra ter chuqur bir dengizdir. Ular qayerniki maqtab to'xtar ekanlar, ularning maqtoqlaridagi har bir harf tog'cha ma'noga ega. Shaxsan ularning o'zlari bir parcha yer ustida yashab turgan holda, falak gulshanida sayr qiladilar. Shariat iqlimida yo'llari yorug' bo'lib, uning chizig'i har qanday mavhumlikdan toza. Sayrda ular shunday maydonda yuradilar, shunday maydonda javlon qiladilar. Ularning har biri joni boricha toat qiladi, imkoni boricha jonlarini qiynaydilar. Har ishda payg'ambar (Muhammad) odatiga amal qiladilar. Unga jon-dillaridan minnatdorlik izhor etadilar. Ketma-ket qancha ishlarni bajarishmasin, hech narsa ko'rmaganday, hech ish qilmagandaylar. Bir tomondan oldilariga kelishi mumkin qattiqchiliklarni jiddiy tushunishga harakat qilsalar, ikkinchi tomondan doim o'z ojizliklarini tan olib, tavba qilib (Xudodan) uzr so'raydilar. Negaki nima yuz bersa bu uning amridir, shunda jannat umidi qolib, do'zax xavfi ketadi. Qiyin vaqtda kim boshqa yerni eslasa, demak, bunday odamga sevgi haqida so'zlash noravodir.

Ey, bu sevgi gavhariga joy qidirgan odam, bilki, buning asl joyi kondir.

¹ «Xizr» bilan «axzar» arabcha bir o'zakdan olingan bo'lib, «yashil», «ko'k» ma'nolarini bildiradi. Shoir bu yerda so'z o'yiniga yo'l qo'ygan.

XXIX

*Allohning yaqini Xoja Abdullohi Ansoriy so'zi shundaykim,
egasi tariqatning oxiridan xabar berdimi, u o'z tariqati
tugaganidan xabar bergan bo'ladi*

U kishini Hirot ahli, Hirot ahligina emas, balki butun koinot uni qibla (Ka'ba) deb hisoblardi. U imoni komillarning yo'l boshlovchi xulq-atvorlisi bo'lib, uning ismi Abdullohi Ansoriy edi. U: «Mening ishim toat qilish va Tangrining buyruqlariga bo'ysunishdan iborat! — der edi. — Mening maqsadim (odamlarni) do'zax o'ti bilan qo'rqitish ham emas, (toatlar) evaziga jannat va'da qilish ham. Kimki qo'rqqani uchun Xudoga ibodat qilar ekan, u nafsni tilagan narsadan xalos bo'lish yo'lini qidirib ish tutgan bo'ladi. Kimki umid bilan bechorahol yashar ekan, uning tilagi jannatda osudalikka erishishdir.

(Unda) uni ham, muni ham haqiqatdan uzoq, deb bil. Ikkalasiga pul topish uchun mardikorlik qilish, deb qara. Mening ishim doim sig'inishdan iborat bo'ldi. Men qo'rqish va umidvorlik — ikkalasini o'zim uchun harom deb bilar edim. Bandalik amrlarini bajarish bilan (ahvolimni) yaxshi deb bilib, tunu kun ishlarim shunday ekan, buning uchun men uzrliman.

Toat-ibodatim buning uchun loyiq darajada bo'lmasligi mumkin, lekin bir soatim busiz ham bo'lmasin!

(Alloh) qil dedimi, mening odatim qilishdan iboratdir. Buni u qabul qiladimi yoki rad etadimi, bu bilan ishim yo'q. Jannat zohidga, do'zax yengiltaklarga bo'laqolsin! Yor orzusi bo'lsa, Navoiyga shuning o'zi yetarlidir.

Soqiy, u jannat suvini to'xtovsiz tutki, do'zax o'ti ham u yerda hozir! Yor yuzini eslab shod bo'lay! Do'zax bilan jannat tashvishidan esa ozod bo'la qolay!

XXX

BESHINCHI MAQOLAT

Karam¹ — xayru ehson vasfidakim, teskarisi diram marg²dir, balki rahmat daraxtining bargidir; baxillik saxiylik yuragidan uzoq bir narsa bo'lib, inson uchun cheksiz balodir; saxiylik ko'rsatmaslik muruvvatdan behad xoli bo'lishlikdir, har tomondan qaraganda cheksiz ofat bo'lgan isrofn³ni rad etish va ko'p harfli «lof»ni bildiruvchi itlofn³ni hajv qilish

Ey egniga xayru karam kiyimini yopingan kishi, sening qo'lingda pulning qiymati yo'q. Oltin-kumush sochish uchun ochilgan panjang Sharqdan qaraganda ham, G'arbdan qaraganda ham xuddi quyoshga o'xshaydi. Pul bilan qo'ling o'rtasida adovat bo'lib, pulning umri

^{1,2} «Karam» so'zi ters o'qilsa «marg» (o'lim) bo'ladi.

³ I t l o f — boylikni barbod etish, isrof qilish.

qisqa, qo'ling esa saxovat orqasida barhayot. Kafting oltinlarni chaqmoqday sochganda, chaqmoq ham hayodan terga g'arq bo'ladi.

Boshingga kiyganing ehson va saxovat tojidir, tojning ustidagi esa xayru karam gavharidir. Saxiylikdan zotning gavhari shuncha sharaf topdiki, yetti osmondagi eng qimmatbaho toshlar unga sadaf bo'ldi. Natijada sening jamiyatdagi qadring osmon ko'kining qadriday yuksaklashdi, sochgan durru gavharlaring yulduzlarga tenglashdi. Boshingda baxt yulduzi porlab, «farq» so'zi¹ boshida yozilgan «f» harfi ustidagi nuqtadek jilva qilib turibdi. Sharofatli boshing ustida karam bayrog'i «bosh so'zidagi² alif harfidek bayroqdir». Ikki qo'ling saxiy Qulzum va saxiy Ummon³ning o'zi; ikkisi ham imkoni boricha saxiylik qiladi. Kaftlarningning odati birovga bir narsa berish bo'lib, Hotam ham, Barmak⁴ ham unga quldir.

Senga Tangri ato qilgan bu narsa ikki qism – karam va saxiylikka bo'linadi. Tanangdagi har bir tuk bir til bo'lib, Xudoga shukr va minnatdorchilik bildirganda ham hammasini ayta olmaydi. Ehson va saxovat ko'rsatish vaqtida baxillik qilma, Xudoga shukr bildirish chog'ida ham tanti bo'l. Baxillik insonda bor sifatlarning eng pasti, lekin saxovat javhari esa eng nafisi. Saxiylik senga odat bo'lib, boshing shu saxiylik duri bilan porlab turadi. Shuning uchun bu mo'i-ko'l durni xor qilma, uni baxillik bilan almashtirma.

Lekin saxiylik qanday maqtovga loyiq sharafli xususiyat bo'lmasin, uni orttirib yuborsang, bu – isrofga aylanadi. Aql insonga xos sifatlarni ta'riflab kelib, isrofgarchilikni baxillik bilan teng deb qaraydi. Ko'ngulni juda ham keng tutib, nega endi durni eshakmunchoq bilan barobar qilib yuborish kerak? Ehson va karamning o'z qoidalari bor; har xil sharoitga mos shakllari ham bor.

Ey odam, Tangri senga yuksak amal nasib ettirib, karam qilishing uchun kerakli boylikka ega qilgan. Shuni bilki, kim saxiylik qilishga haqli ekan, kim pul ulashishga munosib ekan, nom chiqarish uchun gavharni hovuchlab sochish, maqtanish uchun etaklab pul berish aqlli ish, deb hisoblanishdan juda uzoq. Bunday saxovatdan baxillik yaxshiroqdir. Bunday ishni yo mast odam qiladi, yoki jinni. Mast va jinnini esa qanday qilib odam deyish mumkin?

Kimki ketma-ket qadah ko'tarsa, u mast bo'ladi, may ham tugaydi. Agar dev yoqimli maydan ichib olsa, Sulaymon davlatini sochqi qilib yuborishni istaydi. Agar jinnilarga oltindan band qilib, uni la'l va asl durlar bilan bezalsa ham, harakat qilib u bandni oyog'idan yechadida, uni Qorun⁵ chaqirsa ham, tashlab qochadi. Kumush tovushidan vahshiy va yirtqich hayvonlar ham hurkar ekan, shunga ham saxiylik yoki karam deb ot qo'yamizmi? Kuchli shamol lola va gullarni

¹ «Farq» so'zi arabcha shaklda yozilgan. F a r q – «bosh», «kalla» degan ma'noni ham bildiradi.

² «Bosh» so'zi arabcha shaklda yozilganki, o'rtasida «alif» harfi bor.

³ Q u l z u m va U m m o n – daryo va dengiz nomi.

⁴ H o t a m T o y i va B a r m a k – saxiylik bilan nom qozongan kishilar nomi.

⁵ Qadimda boyligi bilan tanilgan, bani isroil qabilasiga mansub kishining nomi.

sovrarkan, unga ham saxiy deb ot qo'ya olamizmi? Xudo «Qur'on»da dedi: «Yenglar, ichinglar!» Yonida yana dedi: «Lekin isrof qilmanglar!» Demak, ma'lum bo'ldiki, bu – saxovat emas, saxiylar ham buni saxovat deb atamaydi.

Shunday kishilar ham borki, hech isrofga yo'l qo'ymasalar ham, bunday odamlarni saxiy deb bo'lmaydi, birovga ehson berishda ular me'yorga e'tibor qiladilar-u, lekin ehson berilayotgan odamning ehsonga qanchalik muhtoj ekanligiga qaramaydilar. To'q odamning oldiga dasturxon yozadilar, egni but odamga esa to'n kiygizadilar. Yuzta yilqisi bor odamga ot tortiq qiladilar, yuz yillik boyligi bor odamga kumush beradilar. La'l chiqadigan Badaxshonga la'l yuboradilar, ziraning koni bo'lgan Kirmonga zira keltiradilar, Xizrni¹ uchratib qolsalar, obi hayot tutadilar. Misr shakarchilariga novvot bo'laklarini yuboradilar. Shamni kuni bilan yoqib qo'yadilar; bu bilan quyosh yorug'iga qo'shimcha yorug' bermoqchi bo'ladilar. Har kun kechasi o'rinsiz mushk sepadilar; bu bilan tun sochini yana ham qoraytirmoqchi va xushbo'y qilmoqchi bo'ladilar. Och, muhtoj yuzlarcha odamlar non so'rab turadilar, lekin ularga bir burda ham bermaydilar, to'qni qidiradilar. Ular qaqrab yotgan bog'ning ustidan yog'may o'tib, yomg'irni toqqa to'kkan bulutga o'xshaydilar. Mayning tagidagi loyqasini ichadigan odam uning bir qultumiga jonini bermoqchi, may sotuvchi esa idishning tagini yana kupga² ag'daradi. Vaboga uchraganlar ajal qadahini ichib, qirilib ketmoqda, ular esa yoqut, javharning koniga yoqut, javhar bekitish bilan ovora. Bu ikkalasi ham saxovatning bir turidir; ularning o'rtasida kichkinagina tafovut bor.

G'oyat tama'gir kishilarni ham saxiylikka muhtoj deb hisoblama. Ular xalqning narsa va ashyolariga ko'z olaytirib, nimani ko'rsa, o'shani tama' qila beradi. Ular xoh zulm, xoh zo'rlik, xoh bir bahona yo'li bilan, xoh va'da, xoh tilxat, xoh yolg'on dalil bilan, nima qilib bo'lsa ham, asosiy maqsadi odamlardan narsa olish, shu olgan narsalari hisobiga narsa ulashib, o'zini saxiy ko'rsatish. Ularning sochgani ham tashlandiq narsalar, olgani ham; olishi ham yolg'ondakam, berishi ham. U yillar davomida qiynalib chuqur qaziydi; shu tuprog'ni solish uchun yana bir chuqur qaziydi. Birovga bir narsa berish uchun boshqadan bir narsani tortib oladi. Bu ham oldingi aytib o'tilgan ikki narsaga o'xshash bir kasallik. Chunki tortib olishi ziyondan boshqa narsa emas; qizig'i shuki, berishi ham foydasizdir.

Birov o'zi so'ramaguncha unga hech narsa bermaydigan odamlar ham bor. Bunday odamlarni ham saxiy deb bo'lmaydi. U odam o'sha narsaga qancha muhtoj bo'lmasin, o'zi so'ramaguncha unga bir chaqa ham bermaydi.

¹ X i z r – obi hayot suvini topgan payg'ambar.

² K u p – kub, may saqlanadigan katta sopol idish, xum.

Ey birodar, kimni saxiy deb chaqirishsa, bilki, bunday odam saxiy bo'lib axiy¹ qatoriga qo'shilib qolmaydi. Qara, ko'zbo'yamachi avrash bilan ilonning kuchini ketkazib, og'zidan zaharini ola biladi. Kimki tilini metin qilib cho'zib, o't yoqsa, xarsang toshdan olmos va yoqut olishi mumkin. Sham tilini chiqarib, yona boshlashi bilan tun mamlakati ustiga o'z bayrog'ini tikkan bo'ladi. O'tning tili nimaligi hammaga ma'lum; temir, tosh ham uning nafasidan mumdek eriydi. Tong o'zini maqtab qancha gapirmasin, baribir, u quyoshning oltin nurlaridan ko'zini yoritadi.

Ey hushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko'tarib, ahvoli yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham birovdan molu amal tama' qilmasa. Bunday odam Xudo nima bersa qanoat etadi, nimani buyursa, bo'ysunadi. U qanday mulohaza yuritmasin, qo'lida bor narsa bilan qo'li qisqa odamni xursand qiladi. Dengizning oldida tursa ham, undan bir tomchi suv so'ramaydi; birovning yarasini ko'rsa, malhamni ayamaydi. Muhtoj odam bir narsa so'rasa, qo'lidan kelganicha unga xayr beradi. U so'ramasa ham, uning ahvolini tushunib, ehtiyojini va kambag'alligini e'tiborga oladi. Hojatmandlar uning boshiga tig'urgan bo'lsalar ham, u qo'lida bor narsasini ulardan ayamaydi. Chunki u o'z tig'ini konga urgan, kon unga o'z gavharini bag'ishlagan metinga o'xshaydi. Bosh yalang bo'ladimi, boshida toj bo'ladimi, baribir, ehtiyoji bor odamga xayr qilaveradi. Karam ahllari yuz mingni ham, bir so'mni ham xayr-ehson yo'lida o'z joyiga sarflangan bo'lsa, bir xil baholaydilar. Xudo yo'lida qo'lida qancha mol to'plangan bo'lsa, birovning yomon ahvolga tushganini bilsa, unga hamma foyda va sarmoyasini sarf qiladi, shunday qilib, uning murodini hosil etadi. U o'zining xayr-ehsonigagina emas, yaxshiligi yuzidan bildirilgan minnatdorchilikka ham jonini beradi. Xayr-ehson el-xalqqa avvalo bosh sababchi — Xudodan kelishidek bir nozik hikmatni u xatosiz tushunadi. Bu karam, xayr-ehson unga odat emas ekan, o'sha oraliq yerda sababdan o'zga emas.

Ey saxovat ko'chasida tentirayotgan odam, sen oltinni telba va mast odamdek sochmoqdasan. Oltin-kumushni endi guldek sovurma, g'unchadek uni o'rab, tugib ham qo'yma. Bu sahifalarda qanday odatlar haqida gapirilgan bo'lsa, barchasi saxovat ahllariga tushunarlidir. Pul solingan xaltachani g'uncha kabi tugib qo'yma; nimani bugun tukkan bo'lsang, ertaga ertalab haribir sochasan-ku! Baxillik qilib sadaf durni yutgan bo'lgani uchun, durni olishda uning ko'ksini teshishadi. Quyosh oltinini berkitgani uchun jahon osmonning yuzini kechasi qora qildi. Quyosh go'zali yulduz kumushlarini yashirgani uchun qara, osmon uni, boshi bilan yerga ko'mdi. Kuz kelib, qo'li bilan oltin varaqlarini sochgani uchun, qara, har bir yaprog' quyosh rangida.

¹ A x i y — saxiy, yaxshi odam, birodar. Matndan anglashilishicha, o'rta asrlarda axiy jamiyatlari ham bo'lgan.

Ey yashirin xazina ustida ajdaho bo'lib yotgan odam, tushunginki, bu boyliging qoning bahosidir. Seni o'ldirish uchun falak Bahromi nogahon tig' tortib, bu maxfiy boylikni oladi. U seni qiynab, zulm bilan qoningni oqizib, u boylikning ichiga harakat qiluvchi la'l – qoningni quyadi. Sening qonli dushmaning qotil falakning o'zi bo'ladi; shu boylik ustida vayron bo'lasan.

Demak, o'z qoning bilan qo'lingni yuvmoqchimisiz? Nima, o'z joningga o'zing qasd qilmoqchimisiz? Boshqa konlardagi boyliklarni orzu qilib, naqd joning gavharidan ajramoqchisiz. Shu joning yo'lida xazina eshigini och, bor boylikni olib, joy-joyiga soch. Anbarga to'kilgan har bir don chirib ketishdan yuz xavfda. Ehsan ekinzoriga sochishni odat qil; shunda hittasining o'rniga Tangri yetti yuztasini beradi. Bu odamlarga ulashib berayotganing ekin bo'lmasa ham, arpa, bug'doy sochdingmi, albatta, hosil o'rasan. Bugun nima eksang ham yaxshi, ma'qul. Ertaga u, albatta, hosil beradi. Bu yerda ekilgan ekinlar o'rtasida farq bor. Ularning ichida eng yaxshisi xayru saxovatdur. Tama'ni tark qilsang – saxiylik shudir. Xayru ehsan yo'lida sarf-xarajat qilki, haqiqiy hadya shudir. Berish uchun olish ishidan yiroq bo'l, beraman deb olmay qo'ya qolganing yaxshiroqdir.

XXXI

Hotami Toyi hikoyasikim, u himmat va saxovat kishilariga peshvo edi; uning mehmondorchiligiga ta'zim bilan bosh urmagan bir gadoning himmatini ko'rib, Hotami Toyining u gadoga tan bergani

Hotami Toyiga bir ko'ngli ochiq odam dedi:

– Ey, himmatda erkin tabiat kishi, saxiylik kaftingga odat bo'lganidan buyon o'zingga o'xshagan kishini hech ko'rdingmi?

U dedi:

– Bir kun men hamma uchun yig'in qildim. Unga o'sha cho'ldagi odamlarning hammasini chaqirdim. Pishirish uchun yuzta tuya qurbon qilindi; so'yilgan qo'y-qo'zilarning ham son-sanog'i yo'q edi. Bazm bo'lib turgan vaqtda birpas havo olgim kelib, dasht tomonga chiqdim. Aylanib yurib, mehnatda ezilgan bir qari cholni ko'rdim. U orqasiga bir quchoq tikon-o'tin ortgan edi. Gavdasini u yuk egib, vujud uyiga hassadan ustun tirkagan edi. Har qadam tashlaganda, birpas to'xtab, har dam olganda ma'lum bir fursat o'tardi. U chekayotgan azob o'ti ko'nglimni yondirib, rahm-shafqat bilan unga shunday xitob qildim:

– Ey qaddini mashaqqat yuki bukkani, tanasida g'am tikanlari o'rnashgan odam! Dashtda yurib xabaring bo'lmadimi? Nega Hotamning uyiga bormading. U hammani o'zining uyiga chaqirib, yaxshi-yu yomonni bugun mehmon qilmoqda-ku. O'tinni tashla, izzat gulshaniga bor, mashaqqat chekib o'ltirmay, tur, chaqiriqqa bor!

U mening uning ahvolidan iztirob chekkanimni tushunib, hosh ko'tarib kuldi-yu, shunday javob berdi:

– Ey, oyog‘ini ochko‘zlik band etgan, bo‘yniga g‘araz va qizg‘onchilik sirtmoq boylagan, ey g‘ayrat vodusida qadam bosmagan, himmat qal‘asiga bayroq tikmagan odam, sen ham bu tikan tashish azobini tortib ko‘r. Hotami Toyi minnatini esa torta berma. Qiynalib, mashaqqat bilan bir tanga topish birov bergan xazinadan yaxshiroqdir.

Uning so‘zlari shunday o‘rinli ediki, shuning uchun ham uning himmati menikidan ortiq edi.

Ey Navoiy, agar senda himmat bo‘lsa, Hotami Toyi ham senga quldir.

Ey soqiy, karam izhor qilib, bir qadah tut, xayru ehson nimaligini Hotamga ko‘rsatib qo‘y. Bizda may sotib olish uchun pul kam; bizda yetishmovchilik ekan, sendan karam bo‘lsin.

XXXII

OLTINCHI MAQOLAT

*Adablilik odati to‘g‘risidakim, kichiklarga baxtiyorlik sababi,
ulug‘larga esa yuksak martabalilik boisidir; tavozu’ vasfidakim,
«dob»dek qaddini xam qilgan qadamini baxtning boshiga qo‘yadi va
hayo nuri haqidakim, biron kishi buning ichiga kirsam rahmat
yomg‘irlari bilan serob bo‘ladi*

Ey talab uyidan joy olgan, qaddini xizmat yuki past qilgan odam! El yo‘lida dard chekib, gardga aylanding, o‘sha gard bilan kibr ko‘zini ko‘r qilding. Sen qiyinchilik tortib, ko‘z yoshlaringni har tomonga sochib, u bilan nafsu havo o‘tlarini o‘chirding. Sadoqat yo‘lida ohu nadomat chekib, yolg‘on yuzini ohing o‘tidan chiqqan tutunlar bilan qora qilding. Sadoqatda har issiq nafas olishing bilan ayyorlik va riyokorlik xirmonini kuydirding. Sen o‘zing uchun biron foydani ko‘zlamaysan; doim safar kamarini bog‘lab, xizmatdasan. O‘zingda kuchli g‘ayrat shamolini bunyod etib, hirsu tama’ asbob-anjomlarini barbod qilganing qilgan. Sen shunday yo‘lni tanlab, eng asosiy tilaging ko‘chasiga kirding.

Lekin bu yo‘lni bosib o‘tishning talab etadigan bir sharti, bilki, tavozu’ bilan adabga ega bo‘lishdir. Qachonki yangi chiqqan oy tavozu’ saqlab, qaddini xam qildi, u kun sayin kamol topa boshladi. Yoy tavozu’ sifatiga ega bo‘lgani uchun qadri oshib, «Qur‘on» ustidan joy oldi. Osmon ham tavozu‘ga rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga bo‘ysunadi. Yoyga o‘xshash qoshlarga ham sharaflar bo‘lsinki, odamlar uning uchun jonlarini qurbon qildilar. Amaldan, o‘z nasabidan kishilar sharaf topmagan. Lekin haqiqiy sharaf hayo va adabdan keldi. Yomg‘irning ham manbai hayodir; uning bir qatrasini tuprog‘ni kimiyo qiladi. Adabsiz kishilar hech qachon e‘tibor qozonmaydilar. Doim baland osmon (taqdir) bunday odamlarni pastlatib yuradi.

Adabsizlikning biri kulgidir. Kulgi adabsizlikning belgisidir. Kaklik qahqaha solib kulgani uchun bu kulgi tufayli uning boshiga balo keladi (ya'ni ovchilar ovozidan bilib, ovlab oladi). G'uncha kulib, ochilib ketgandan keyin o'z-o'zidan sochilib ham ketadi. Chaqmoqni o'z kulgisi tog'ning ichiga qulatadi, hatto yerga pastlatib, tuproqqa kiritib yuboradi. Tong ham shunaqa odatni yaxshi ko'radi. Shuning uchun quyosh o'ti uning durlarini isiriqqa aylantiradi.

Kulgi o'z me'yoridan oshib ketdimi, bundan yig'lagan ancha yaxshiroqdir. Sham har kecha yig'lagani uchun tobora ravshan yonadi; g'unchani esa kulgani uchun shamol uchirib ketadi. Bulut yig'lab, ko'z yoshi to'kishi bilan dur sochuvchi bo'ldi; chaqmoq esa kula-kula pastlashdi, yerga kirdi. Mast ham yig'lab-yig'lab, o'zini bilmay qoldi, lekin kechirim so'rab yig'lagani gunohdan pok etdi. Adabli odam kulish uchun og'iz ochmaydi, lekin hayo buluti tomchisiz emas. Qahqaha bilan hazil bir-biriga do'st; ikkisi ham qurbaqaning tovushi va yurishiga o'xshash kulgili narsalardir. Kimki hindu (masxarabozi) bo'lib, kuldirish uchun hazil qilsa, avvalo o'shaning yuziga qora surtish kerak. Ko'zbo'yamachining so'zlagan so'zlari yolg'on bo'lgani uchun, qara, o'z tilini o'zi kesmoqda¹. Engagiga yolg'ondakam soqol bog'lab, birov odamlarni kuldirar ekan, bunda soqol tufayli odamlar uning o'zining ustidan kuladi. O'zining ko'rkini orttirib ko'rsatish uchun maymun boshiga bo'rk qo'yib olar ekan, odamlar uning tepasiga kulish uchun kelarkan, ular faqat uning boshigagina kulmaydilar, uning o'zidan ham kuladilar. Odamlarni kuldirib tirikchilik o'tkazishga o'rgangan masxaraboz ulardan bir pul olguncha ikki shapaloq yeydi. Boyqushning qiyofasi masxaraboznikiga o'xshaydi, shuning uchun barcha qushlar uni talagani talagan. Lo'li hazil qilib qo'lini yerga tirab, oyog'ini osmonga qilib turganda, u boshini yerga qilib, o'zini o'zi sharmanda qilgan bo'ladi.

Bu xil pastliklar biri biridan qiziq bo'lib, hayo va adab yo'li bilan daf bo'ladi. Quyosh hayrog'i jilva sochib, kecha qorong'iligi yer ostiga kirgach, masxaraboz mast holda baqirgan, chaqirgan; aqlli odamlar esa gapni shoshmasdan gapiradi. Tulki va it (har xil qiliqlari bilan odamlarga) kulgi eshigini ochadi; u odamlar sherni ko'rsa, uyidan qochadi.

Bu aytganlarimizning oti tavozu'dir, tavozu'ning sifati esa adabdir. Aql uning haqida maqtovdan boshqa so'z aytmaydi, lekin u hammada bir xil mavjud emas. Tavozu'ni har kishining ahvoliga loyiq ko'rsatish kerak; ko'rsatgan tavozu'ning uning ahvolining ko'rinishiga muvofiq bo'lsin. Qulga bek ortiqcha tavozu' ko'rsatsa, o'ziga azob-uqubat iplarini orttirgan bo'ladi. Gadoning oldida sajda qilish marhamat emas, unga bir tanga bersang, bu unga nisbatan marhamat ko'rsatishdir. O'rindan turib, bolaga joy berish ham adabdan emas; keksalar bu ishni adab hisoblashmaydi. Bunday ahvolda u mutakabbir hisoblanib, sen yengiltaklik qilgan bo'lasan. Ayt, bu ikki ishni odamlar nega qilishi kerak?

¹ Bunda xalq qiziqchilarining ko'zbo'yamachilik tomoshalaridan biriga ishora.

Garchi adablilik shartlarini saqlash juda zarur bo'lsa ham, ammo buni har bir odamning darajasiga qarab bajarish kerak. Bir kishi sendan martabada past bo'lsa, uni sen o'zingga tobe' holda ko'rsang, garchi u o'zi senga tobe', bog'liq bo'lsa ham, ko'nglung uning qayg'ulariga sherik bo'lsin. Farz va sunnat qoidalari shunday ma'qulki, ularni hammaga o'rgatish majburiydir. Senga tobe' kishilardan biri bunga xilof ish qilsa, ularni tekshirib turish sen uchun farzdir. Qiyomat kuni seni chaqirganlarida, nima savol bo'lsa, sen javob berasan. Ularga g'amxo'rlik qilish sening bo'yningdadir; tirikchilik yozuqlari ham sening qo'yingda. Barchasiga do'stlik qilish senga vojibdir. Yaxshi-yomon ishidan xabardor bo'lib turish ham.

Tavozu' sifatiga ega bo'lish umidi bilan u dunyo xavfidan qo'rqib, shul qo'l ostingdagi jamoatga shuncha ta'zim qilding. Agar bolalaring va xotining bo'lsa, ularga ham shu ishni qilishing kerak. Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish, bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi.

Tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo'yish bo'lib, uni oti bilan chaqirganlarida u uyaladigan bo'lmasligi kerak. Ismda tafovutlar ko'p paydo bo'ladi; birining ismi Husayn bo'lsa, boshqa biriniki Yazid¹.

Tarbiyaning yana biri unga ilmu adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. It yetuk ta'lim olgani sababli u tishlab kelgan ov halol hisoblanadi. Yuvgan bilan toza bo'lmaydigan it olim bo'lgan ekan, o'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarar. Voqe' bo'ladigan balolardan uni o'z mehri bilan asrashing bolang oldida sendagi tavozu'ni bildiradi.

Xotining uyda o'ltiradigan bo'lgach, shariat yo'li bilan uni hurmat qil. Nafaqa bilan o'zingni undan ayama; joningni ham ortiq darajada qiynab yuborma. Kiyadigan kiyimini ham ortiq darajada rang-barang qilib yuborma. Kiysa ham hujrada, vaqti bilan kiysun. O'z holicha bir yoqqa otlanganini bilsang – sen haqiqiy er bo'lsang – uning otini atama! Do'stlar oldiga ham yuborma, dushmanlar oldiga ham. Yasantirib ko'chaga ham chiqarma, bozorga ham. U uydan chiqib ketib, yana qo'yingga kiradigan bo'lsa, sen taajjublanadigan bir ishni bo'yningga olgan bo'lasan.

Upa-elik surtib, yuzini qizartirdimi, u, bilsang yuz qarolik fikriga berilgan bo'ladi. U sochbog'ini yeshib, sochini o'ra boshlar ekan, bu – nafs va havoyilik uning bo'yniga o'z tuzog'ini solganidir. U o'sma qo'yishga berildimi, bu uning fitna bilan o'ralishganidir.

Muncha qabohatni ko'rib turib, uning otga minishiga ijozat bersang – g'ayrat va erkaklik, rashk va or-nomus shumi? O'sha kuni u ketsa, uni o'z holiga qo'y, unga zo'rlik qilma – uydan chiqib ketdimi – vatani go'r bo'lmaydimi!

U shariatdan chekinib nima qilmasin, uni (yana) qabul qilishing odobdan emas.

¹ H u s a y n – yaxshi ot timsoli; Ya z i d – yomon ot timsoli. Bunda Alining o'g'li Husayn va shu Husaynni o'ldirgan Yazidga ishora bor.

Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish; buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmatning qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen adab bilan bajar, «adab» so'zidagi «dol» kabi qomatingni xam qil.

Bundan so'ng rahm in'omini o'zingga qarz deb bil; o'sha toifadagi odamlarga rahm qilishni farz hisobla. Yurgan odamlar ichidagi kattadan-kichigigacha, yoki oraliqdagi o'rta martabalikka ham, kimki katta bo'lsa, uning xizmatini qilish kerak, kimki kichik bo'lsa, unga shafqat ko'rsatish kerak.

Kimni o'rta yosh deb xayol qilgan bo'lsang, uning hurmatini ham me'yorida asra. Xizmatini qilib, uni ortiqcha ulug'lab ham yuborma, yomon munosabatda bo'lib, tahqir ham qilma. Uni hurmat qilib, «hamma ishning o'rtachasi yaxshi» degan ma'noli qoidaga amal qilishing zarur. Uning izzati me'yordan kam bo'lsa ham, haddidan ortib ketsa ham yaxshi emas.

Yoki seni baland osmonning aylanishi (taqdir) shoh xizmatini bajarishga loyiq ko'rib qolsa, garchi shoh tomonidan tashkil etilgan bazmlar yoqimli bo'lsa ham, unga borishdan tortinish zarur. Yoqimli bo'lib ko'ringan bu marhamning ichida yuqadigan yaralari bor, boli ichida qadaladigan nayzalari bor. Gul ko'rinsa, yonida yuz tikani bo'ladi, bir maishat bo'lsa, orqasidan ming ozori bo'ladi. Telba odamlar o'tning yonish shaklini ko'rib guliston deb o'ylaydi. Lekin uning ichiga tushib ketsa, qachon qutulish imkoni bor? Bola ilondagi naqshdor chiziqdagi ko'rib, unga mahliyo bo'lib qoladi, lekin uning zahari odamni o'ldirishini bilmaydi. Dengizda quyosh rangida katta dur ko'rinsa, bu nahangning og'zi bo'lib, g'arq bo'lish belgisidir. Shohga xizmat qilishni shu qonunlardan kelib chiqib tushun; buning maishatidan ko'ra g'am va mehnati ortiq. Bu xizmatdan qancha uzoq tursang, shuncha foydalidir; agar bu xizmatga umuman kirmasang, bundan ham ajoyib va yaxshi bo'lardi.

Yo'qlik (fano) xazinasidan kim ogoh bo'lsa, unga qanoat mamlakatining podshohligi nasib bo'ladi. Agar bunday xizmat sening bo'yningga majburiy tushib qolsa, senda uni bajarmaslikka ixtiyor yo'q. Qisqacha qilib aytay, lo'ndasini eshit, buning qanday bo'lishini ochib tushuntiray. Senga shoh xizmatini qilish nasib bo'lsa, to'rtta ishni o'zingga saylab ol: oldindan niyatingni uning niyati bilan rostla, boshqa niyatlarni ko'nglingdan chiqar. Yana biri, xizmat qilishning vaqtini bil, xizmat qil, lekin qilmagandek tur. Yana biri, yaxshi-yomon so'z og'zingdan chiqmasin: odamlarning yaxshi-yomoniga ham qarama (gapini e'tiborga olma). Yana biri, bu xizmatdan qiynalsang ham, azob cheksang ham, adab shartiga ko'ra, hamma yaxshi-yomonga

chida. Bu xizmatdan tashqari tursang, buning ahvoli boshqa; podshoga yaqinlashsang, bu yaqinlikning ham turlari bor. Bu ishlarning hammasi senga muyassar bo'lsa, sening yulduzing baxt bilan yorigan bo'ladi.

Lekin bular hammasi, ey ojiz odam, gapning bir qismidir. To'lasl shuki, agar nogahon sen boylik to'plash odatidan or qilib, faqirlik uyiga yo'l olsang, ayniqsa shunday ahvolga tushganda tavozu' ko'rsatishing shart. Xudoning naq ro'parasida unga umid bog'lab tura bilish kerak. Agar senga osmonning kuch-qudrati nasib bo'lsa ham, yer yuzida sen kamtarlikni tanla. G'am-g'ussa yuki seni tog'dek ezib tursa ham, uning ostida sen tuproqdek tura ber. Boshingga toshlar yomg'irdek yog'lsa ham, binafsha kabi boshingni yuqori tutib tura ber. Tavozu' vaqtida vafu qilish, adab qoidasiga ko'ra hayoli bo'lish kerak. Ana shu vositalar bilan ma'qul bo'lib, asl maqsad tomon yo'lga tushgan bo'lasan.

XXXIII

No'shirvonning hayo bog'ida nargis ko'zidan ko'zining nargisi uyalib, nargis ko'zlik gulrux yorini quchoqlashni istamay, o'zini chetga olishni istagani

No'shirvon valiahdligi chog'ida bir qizning ishq bilan notavon ahvolga tushib qoldi. Ko'ngli g'uncha singari to'la qon edi, lekin g'am sirlarini pinhon tutardi. Unga visol muyassar bo'lgunga qadar cheksiz azob-uqubat va tashvishlarni boshidan kechirdi.

Bir kun u chamanzordan xilvat joyni tanlab, gulrux yori bilan suhbat qurdi. Baxtiyor shahzoda yorini quchoqchi bo'lgan edi, gul'uzor ham bunga rozi bo'ldi. Dilbar hamdami tomon u qo'lini uzatganda, bir tup nargisga shahzodaning ko'zi tushib qoldi. Shunda ahvoli o'zgarib, u qo'lini tortib oldi. Sumanbar yori hayron bo'lib, so'radi:

– Qo'lingizni uzatganingiz nimasi-yu, yana tortib olganingiz nimasi?

Adabli shoh bunga shunday javob berdi:

– Shunday bir visol damida menga mone'lik qilgan narsa nargisning shahlo ko'zi bo'ldi.

Hayo ko'zi bilan olijanoblik bu ishda unga kuch bermadi. Uning nargisdek ko'zlari yoshga to'lib, o'rnidan turdi-da, bu ishdan voz kechdi. Oxirida uning bu sof niyatligi, shunday hayochanligining xosiyati uni butun olamga shoh qildi, adolati esa olamni panohiga oldi.

Aysh, ey Navoiy, qancha dilkash bo'lsa ham, lekin adab bilan hayo undan yaxshiroqdir.

Ey soqiy, adab shartlariga hozir bo'l, oldimda to'qqiz bor ta'zim bilan boda tut, toki men uni «o'zing ich!» deb, senga qaray, bir tomchi tomdirsang to'qqiz marta, to'ksang o'ttiz marta qo'shimcha ichkazay.

YETTINCHI MAQOLAT

Qanoat haqidakim, «jo» (ochlik) soʻzidan soʻnggi harf «ayn»¹ ajratilsa, «jo» (ariq) qolib, najot bulogʻi, hatto hayot chashmasi sari uchish qanoti boʻlib xizmat qiladi, «tama» soʻzi har qanday shaklda yozilganda ham undagi xorlik zahrining taʼmini totishga olib boradi; qanoatli odamning ochlikdan koʻzida qon mavj ursa ham, izzati bor; tamagir odam oltin taxtdan joy olgan boʻlsa-da, xorlikka uchraydi

Kimki qanoatni oʻziga kasb qilgan boʻlsa, bilki, qanoat uni boy qiladi. Oltin, kumush bilan zebu ziynatlarni boylik deb bilma, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir. Qanoat oltini hech qachon yoʻqolmaydi. Ana shu oltinni qoʻlga kiritib, shu orqali boyishga harakat qil. Kulbada qanoat qilib oʻltirgan darvesh tamagir podshohdan afzaldir. Chunki tama qilish gadoylarning ishidur. Bilki, tama etgan kishi gadodir.

Shoh tamagirlik qilsa, u luqmaxoʻr boʻladi; qanoat qilgan darvesh esa podshohdir. Boshiga toj kiygan odam shoh boʻla bermaydi. Hech narsaga ehtiyoj bildirmagan odamni shoh deb bil. Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda maʼlum bir maʼno bor. Agar fikr bilan voqif boʻlishni istasang, «qoneʻ» va «anqo» soʻzlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqdir². Hudhud³ ovqatga oʻch boʻlgani uchun garchi boshida toji boʻlsa ham elchi boʻlib qoldi. Boshiga toj kiygan hind oʻyinchisining holiga boq, tama uni chaqa pulga zor qilib qoʻygan. Arzimagan bir odamning qoʻlidan ozgina pul chiqadigan boʻlsa, toj deb atagan narsasini osmonga otadi. Shoh boshining sharofati tojdan emas; kimki muhtoj boʻlmasa, oʻshani shoh deb tushun. Muhtojni ham shoh deb atash mumkin boʻlsa, harf nuqtai nazaridan «muhtoj» soʻzida ham «toj» bor-ku! Kimning toj kiyganini koʻrib, shoh deydigan boʻlsak, u vaqtda, shu sababga koʻra, muhtojni ham shoh deyishga toʻgʻri keladi.

Boshiga oddiy qalpoq kiygan odamni shoh deb bilki, u xayr-ehson vaqtida butun jahonni berishga tayyor. Bir narsasi boʻlmasa ham u shukr deb, qanoat qiladi; xayr-ehson qilish bilan oʻz nafsini tiyadi. Kimning qanoatdan hujjati boʻlsa, uni yaxshi-yomon deb oʻltirishning hojati yoʻq, u bunga muhtoj emas. Kimki qanoat sari yoʻl topgan boʻlsa, xuddi shu taqdir bilan oʻsha shoh boʻladi.

Boylik bilan oʻzingni katta deb bilma; qanoat boyligi bilan boshingni koʻtarib yur. Butun bir osmon bitta non⁴ bilan kun kechiradi; oyni gardishini esa koʻksiga tosh qilib boylab olgan. Shuning uchun

¹ «Ayn» — bu oʻrinda «oltin» maʼnosida.

² «Qoneʻ» va «anqo» soʻzlarining arab harflari bilan yozilishi koʻzda tutiladi. «Qof», «alif», «nun» va «ayn» harflari har ikki soʻzda ham bor.

³ Hudhud — sassiqpopishak.

⁴ Quyosh koʻzda tutiladi.

Xudo uning tuzilishini nodir qilib yaratdi, nima qilay desa, shunga qodir qildi. O'z yog'i bilan qovurilgan sham atrofida osmon ham fonusdek aylanadi. Ko'z doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan¹ oziqlanadi. Og'izning ishi ovqat yeyish bo'lgani sababli chaynash uchun Xudo ikki qator tish ham yaratdi. Zebu ziynat va tama'dan yiroq turgan kishining tinchligi yaxshiroq bo'ladi.

Bilki, durru gavhar quloqqa ozor beradi; quloq uchun eng yaxshi dur deb so'zni bil. Isirg'a oltindan bo'lsa, quloqni og'ritadi; zarhal etik esa oyoqni og'ritadi. Yaxshi gapni quloqning bezagi bil; etik keng bo'lsa, oyoq osoyish topadi. Kishi cho'lda tiniq buloqni topib olsa, oltin qadah qidirib o'ltirmasdan, sopol idishda ham suv icha beradi. Suv sopol idishda yaxshi turadi; oina kul bilan toza bo'ladi. Ko'zguning dastasi oltindan bo'lmasa ham, uning yuziga nafas tegmasa bo'ldi. Tashna odam suv bilangina xursand bo'ladi; bunday vaqtda u oltin qadahni xayoliga ham keltirmaydi. Qotgan nonni suvga to'g'rab, ivitib yeyayotgan odamga quyoshning gardishi, hayot suvi haqida o'ylashning nima keragi bor?

Chiroyli bo'lsin, deb kim oshiga sabzi va sholg'om o'rniga oltin, kumush, no'xat o'rniga qimmatbaho dur, mayda lavlagi o'rniga toza la'l solgan?! Ovqatning yuzida zarrin nur sochuvchi quyosh, tovoq ustida esa non o'rniga oy kulchasi, non ustidagi ko'k o'rniga zumurrad, dasturxon ustida bodring o'rniga ko'k tosh bo'lsa, Xudo haqi, kel, o'zing insof bilan ayt, och odam bu narsalarni qanday qilib yeydi?!

Bular orasida ajoyib narsalar bo'lsa ham, lekin durlari tishlarni sindiradigan ofat; chaynaganda tishga ozor yetib, yutaman desang, bo'g'uz jarohatlanadi. Hashamat uchun qilingan bu osh yeyiladigan bo'lsa, u osh emas balki bir necha bo'lak toshdir. Bu osh oshqozonga yuborilar ekan, ayt-chi, uni oshqozon qanday hazm qiladi? Oshqozon mayda toshlarni emas, o'ziga muvofiq oshni hazm qiladi. Ularni sen yeyish mumkin bo'lgan ovqat deb hisoblama; ular boshdan-oyoq odamni o'ldiradigan zahardir. Kimki bu narsalarning bahosini sanaydigan bo'lsa, o'zini o'ldirib, xunining bahosini berishi kerak. Ular hazm bo'lgan taqdirda ham, insofing bo'lsa, boq, bu qanday haddan oshish va isrofdir.

Kimki Qorun xazinasiga ega bo'lib, Jamshid mamlakati, Faridun² toji uniki bo'lib, xayr uchun butun bir xazinasining eshigini ochmasa, foydasiz durru gavhar sochmasa, o'rinsiz karam ko'rsatmasa, bitta xayrga yuz minglab diram bermasa, ochga ovqat bersa, yalang'ochga to'n, yuz so'm so'raganga ming so'm, bir so'm so'raganga o'n so'm bersa, qancha boyligi bo'lsa shunga qanoat qilsa, Tangri oldida ham, xalq oldida ham uning ayblari doim kechiriladi.

¹ M e h r o b – qosh ko'zda tutiladi; i k k i b o d o m – bodomga o'xshagan ko'z nazarda tutiladi.

² J a m s h i d, F a r i d u n – qadim Eron mifik podshohlarining nomlari.

Shunday odam ham borki, o'zining hech boyligi yo'q bo'la turib, qilayotgan sarfi bilan qanoatlanmaydi. Bunday odam o'rinsiz sarf-xarajat qilishga o'rgangan kishini ko'rib, o'shaning qilganini qilishni orzu etadi. Uning xazinasiga qo'li yetmay turib, o'shaning ehson va isrofgarchiliklarini havas qiladi. O'zining oddiy xashagini sarf bilan yonma-yon qo'yadi. Xarob otini Raxsh¹ orqasidan choptirmoqchi bo'ladi. O'zi kiyish uchun ustiga palos topa olmaydi, lekin birovlariga naqshli liboslar bergisi keladi. Kimning o'y-fikri shunday bo'ladigan bo'lsa, oldinlari uning birovdan qarz ko'tarishga zarurati tug'iladi. Qarz ko'tarishdan boshqa hunar topa olmagach, oladi-yu, lekin qaytarib bergani tanini topa olmay qoladi. Olingan mablag'ni u qora yer bilan barobar qilib sarflaydi; va'dasining vaqti yetib, qarz bergan odam qarzini qistay boshlaydi. Qarz ko'tarib, sarf qilib sovurib, isrof tufayli hamma narsasidan ajraladi.

Shundan keyin u odamlar orasida sharmanda bo'lib, terga botadi yoki boshini olib, bir yoqqa qochib ketadi. U shuncha, yana yuz shuncha alamlar tortadi, lekin bular hammasi unga yana yuz hissa kam. Qanoatni tark etish uni vatanni tark etishga olib keldi; boshiga esa yuz ming balolarni keltiradi.

Kimki qanoatni mahkam ushlagan bo'lsa, uning ahvolidagi bu xil qiyinchiliklar yuz bermaydi. Mehnat qilib, ikki chaqa pul topish shoh in'om qilgan xazinadan yaxshiroqdir. Xotirjamlik bilan ichilgan qatiqsiz ugra osh birovning minnat bilan bergan shirin kulchasidan afzalroqdir. Kuni bilan qiynalib mardikorlik qilib, kechasi o'z uyini ma'mur qilish tama' toqini balandga ko'tarib, mardikorlikni yuz bor pastga urishdan yaxshidir. Yo'qchilikni bo'yniga olib, unga ko'nikkan odam eng yaxshi odamdir. Qanoat mulkidagi saroydan joy olishni mo'ljallagan odam yaxshilarning yaxshisidir.

Bunday odamning ko'ngliga bog'ni sayr qilish fikri kelsa, osmon gulshanini tomosha qilish bilan kifoyalanadi. Go'yo osmon gumbazi uning uyining nilufar rang gumbazidir. Bog'ining sahni esa ko'k rangdagi osmonning o'zidir. Osmon aylanasi go'yo uning uyining toqidir; nur sochayotgan quyosh esa uyining toqidagi to'garak shaklli naqshdir. Kun uning gulistonidagi gul, oy uning xonasidagi shamdir. Kechani qo'riqlayotgan yulduzlarning sabru qarori qolmay, shu shamning atrofida parvonaga o'xshab aylanishadi. Osmon va shafaq uning bazmini qizil fonusdek yoritib turadi; yangi chiqqan oying o'rog'i esa uning naqsh soladigan asbobiga o'xshaydi.

Ha, shunday xayollar bilan u qanoat qiladi; nafs istaklarini man' etadi. Bunday odam o'z tasavvurlariga berilib xursand, yaxshi narsalarni eslab, shundan bahramand bo'ladi.

Agar bunday kishining himmat oti tezlik qilib, hayotda bundan ham kattaroq qadam tashlashni orzu qilib qolsa, kul ichidagi bir qancha cho'g'ni buyuk osmon va uning yulduzlari deb hisob qilsin! Butun jahonni bir hovuch tuprog'cha, jannat daraxtlari va mevalarini

¹ R a x sh — afsonaviy qahramon Rustamning chopqir oti nomi.

bir tutam xashakcha ko'rsin! Osmon qasriga u o'z vayrona uyini alishmasin, falakning toqiga esa qiyshaygan ayvonini bermasin! Uning bir parcha yuragi unga ovqat, hatto xursandchilik qilishi uchun yoqut bo'lsin! O'zi xor, qamishning ildizi bilan kun ko'rsa ham, lekin bu ildiz unga guldan olingan shakarining ta'mini bersin! Tovonlarining hamma tomoni yorilib ketsa ham, u yoriqlar yer yuziga ibratomuz kulayotgan bo'lib ko'rinsin! Chakmonining yirtiq chokklarini madad gulshanidan esgan shabadaga yo'l deb bilsin! Pastni yuqori bilan aralash tirib, teng qilmasin; oddiy sholni ipak mato bilan barobar ko'rmasin! Uning kulbasi oy shamidan yorisin; yelning qo'li eshigini doim ochiq tutsin! Egnidagi ko'k chakmoni, uning oq yamoqlari ko'k osmon va oq tongday yoqimli bo'lsin! Vayrona uyining har tomonida teshiklar bo'lsa, ularni o'rgimchaklar o'z pardasi bilan berkitsin! Dam olish uchun boshini toshga qo'ygan ekan, bu boshiga boshqa hech narsani, hatto humo patini ham istamasin! Qish kuni unga sovuq ta'sir qiladigan bo'lsa, gulxanning kuli po'stin bo'lib, sovuqni daf' etsin! Yoz kuni issiqdan panoj izlaydigan bo'lsa, ko'prik soya berib, unga yotoq bo'lsin! Faqirlikdan u o'ziga Qorun xazinasi, ochlikni Faridun mulki hisoblasin! Qanoat qilish odati uni dunyoda odamlar orasida boylarning boyiga aylantirsin!

Shunday qilganda bu dunyoda tamagirlik el ko'zi oldida uni hech xor qilmaydi. Qiyomat kuni ham azob undan ketib, ko'nglida «hisob kuni»ning dahshati bo'lmaydi. Faqirlik uning asosiy sarmoyasi bo'lib, quyosh tik kelganda, uning soyasi quyoshga tushadi.

Kimki Xudoning bergan ehsonidan xursand bo'lsa, bu dunyoda ham, u dunyoda ham baxtli bo'ladi. Kimki qanoatni tark etishni shior qilgan bo'lsa, bu tama' uni el ichida xor qiladi. Izzat tilar ekansan, qanoatni tama' qil. «Qanoat qilgan»ning joyi izzat taxtidadir.

XXXV

Qanoatli juvonmard bilan tamagir jahongashtaning hamroh bo'lgani, birining qanoat azobini chekish tufayli farog'at boyligiga erishgani, ikkinchisining farog'at boyligiga berilganidan xorlik azobiga qolgani

Fors o'lkasidan ikki o'rtoq Chin mamlakati tomon yo'l oldilar. Biri azaldan berilganiga qanoat qilardi; ikkinchisi esa undan ortiqni tama' etardi. Ular qanchadan-qancha yo'llarni bosib borarkanlar, yo'l bo'yida bir oddiy tosh uchrab qoldi. Uning yarmi yerga kirgan, yarmi tashqarida bo'lib, tashqaridagi qismiga ajoyib bir gap o'yib yozilgan edi. Yozilgan xatni ular o'qishdi:

— Kimki qiyinchilikka bardosh berib, toshning orqa tomonini ag'darsa, unda bir afsona yozilgan. O'sha afsonaga ko'ra, shu atrofda bir vayrona bor. Vayronaning tagida esa ajoyib bir xazina bor. Mashaqqatiga chidagan o'sha xazinaga ega bo'ladi. Kimki bu mashaqqatdan yiroqlik istasa, sabru qanoat hammadan yaxshiroqdir.

Tamagir buni o'qigach, besaranjom bo'lib, tamagirlik tomirlari qattiq ura boshladi. Xazina havasida tishlari g'ijirlab, toshning tagini qazishga tushib ketdi. Qanoat qiluvchi uning bu ishini ko'rib, parvo qilmasdan o'tib ketdi. U dedi:

– Bu naqadar mashaqqatli mehnat! Qanoat xazinasi mening hamrohimdir. Kimga Tangri ehson bermog'chi bo'lsa, tosh o'z-o'zidan yorilib, uning ostidagi ehson o'z egasini topishi mumkin.

U yo'lga tushib, tong otguncha yurdi, ertalab qarasa, bir shaharning chetiga kelib qolibdi. Shaharga kiradigan yo'l ko'p ekan. Lekin u shu shaharga birinchi bo'lib kirdi. U darvozaga yaqinlashib borganida, har tomondan odamlar chopib kela boshladi. Bu yer aholisining rasmi bo'yicha, podshoh mangulik yurtiga safar qilgan bo'lsa (o'lsa), shahar xalqidan buni sir tutishar ekan. Sahar vaqtida kim shaharga oldin kirsar, uni taxtga o'tqazib, boshiga toj kiydirib, qo'lga uzuk taqishar ekan. O'sha rasm bo'yicha, uni ham davlat kishilari va askarlari mamlakat va sipoh ustidan podshoh qilib ko'tardilar.

Boshiga mashaqqatni ortib olgan do'sti bo'lsa, boylik havasiga berilib, mehnat bilan o'z jonini rosa qiynadi, toshni boshqa tomoniga aylantirdi. U yerda yozilgan xatga qarab, uni o'qidi:

«Kim xomtama bo'lsa, u dunyoda doim azobda», deb yozilgan ekan.

Uni qanoat mamlakatga podshoh qildi; buni tamagirlik azobi xor-zor etdi.

Ey Navoiy, birovdan uch pul tama' qilma: o'zingda bor bo'lsa, uni boshqaga bersang, shu —karamdir.

Ey soqiy, men sening bodangdan tama' qilaman, xolos. Bu ozod odamdagi ochko'zlik va tama'ni yo'qotadi. Uning bir qultumi bilan meni yo'lga boshla; qanoat mulkiga shoh qil!

XXXVI

SAKKIZINCHI MAQOLAT

Vafo haqidakim, «vafo» so'zining «vov» harfi¹ «semurg'» so'zidagi «sin» harfining o'ndan biri son e'tihori bilan «vov» — 6 ga teng bo'lgani kabi yashirindir, «fo»si Qof tog'i ostidagi «fo»dek ayon va «alif»i «kimiyo» so'zining oxiridagi «alif»ning o'zidir; nuqta esa dunyodagi eng aziz (nomi boru o'zi yo'q) o'simlik (mehrighiyo) chanog'idagi (kamyob) urug'dir; ushbu vafoga yetishishni istagan kishining ishi suv ustida yugurishdek va tuprog' ustida kema haydashdek bo'lmagan ishdir

Osmonning to'qqiz qutisi bo'lib, hammasi zar bilan ishlangan; ularning ichida yuz minglab qimmatbaho durlar bor. Undagi har bir

¹ Bunda «vafo» so'zining arabcha harfi yozilishi ko'zda tutiladi hamda abjad hisobi bo'yicha harflarining sonini bildirishiga ishora qilinadi.

durning yorug'ligi farog'at sham'idir, oddiy dur ham emas, sham ham emas, kechani yorituvchi durdir. Uning har bittasining qiymati butun bir konning bahosidan, konningina emas, butun borliq va makonning bahosidan ham ortiq. «Osmonlar» deb nom qo'yilgan bu narsa pok gavhardek yuz minglab yulduzlarga ega. Ularning birontasi boshqasidan pastroq deb fikrlashga aql oqizlik qiladi.

Bunda xayol qilish mumkin bo'lgan javharlarning hammasi bor bo'lib, aql javhari shunday savol beradi:

– Ha, bu konda bitta dur desang yuztasi topiladi; bu ummondan yuzta desang mingtasi topiladi. Lekin bularning orasida shundayi horki, u butun jahonni yoritib turadi. Bu dengiz ostidagi eng noyob dur o'shanisidir. O'sha dur agar o'z jamolini ko'rsatadigan bo'lsa, unga yana bir shunaqasini qo'shish imkoniyati yo'q. Sofdil odamlar u javharning otini so'rasalar, oh chekib, «Vafo gavhari!» deb javob ber.

Ha, bu noyob dur vafomikan? Vafo bo'lmasa, mehriyomikan? Yo'q, uni mehriyoyo ham dema, anqo deb ata, javharning yolg'iziyu durri yagona deb ata. U quyosh yuzidagi chiroyli xatga, tun sochini o'rimidagi mushki totorga ham o'xshab ketadi. Birovning qo'lga durning kattasi tushib qolsa, bu uning joni javhariga xavf bo'lgani kabi, kimda vafo gavhari bor ekan, doim azob-uqubat unga yordir.

Bunday odam kimni ko'rsa o'zini unga do'st deb biladi; unga o'zining mehrini, gavhardan qimmat vafodorligini izhor etadi. U kishi yaxshi odammi, yomon odammi, baxti kulganmi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, unga beixtiyor shafqat ko'rsatadi. Bunday odam bamisoli ko'zlarga nur bergan quyoshga o'xshaydi. U ko'zlarni yoritadiyu, lekin buni u o'zi anglamaydi. Bunday odam go'yo o'z dur qatralarini yo'l-yo'lakay sohib ketayotgan bulutga o'xshaydi. Lekin u bu qilmishi tufayli gul ochilishidan bexabardir.

Gul o'zining bog'ni bezab turganini, isi dimog'ni muattar etishini qayoqdan bilsin. O't ham o'zining hamma narsani yondirishidan bexabar. Ichkilikning ham odamni mast qilgani bilan nima ishi bor? Kimda-kim shu gavhardan boshqa gavharga ega bo'lmasa, shunday ishlarni qila beradiyu, lekin o'zining xabari bo'lmaydi.

Bu vafo gavhari qancha sharofatli bo'lmasin, unga bir qancha g'aliz sifatlar ham xos. Qaysi bir kishida bu gavharning borligi ma'lum bo'lsa, uning boshiga gavhar o'rniga toshlar yog'iladi. Kishi birovga birorta yaxshilik qilgan bo'lsa, evaziga ming jafoda ko'rsa ham, jafodan qutula olmaydi. Mevali daraxtning shoxi qancha meva bermasin, tergan kishi unga shuncha ko'p tosh otadi. Kon qancha ko'p pok gavhar bersa, konchi uning ko'ksini shuncha ko'p chok qiladi. Sham uyning ichu tashini qancha yaxshi yoritisa, uy egasi uning boshini shuncha ko'p uzadi.

Bu davr shunday o'ziga xos bir davrki, muhabbatning qo'li bilan panjalari orasida butunlay majaqlandi. Quyosh ham boshdan-oyoq mehrdan iborat bo'lgani uchun har kecha osmon uni yerga kirgizib yuboradi. Qalam vafodan bahs olib borgani uchun falak muftisi

uning yuzini qora qildi. Tezkor osmon choh boshida aylanadi; quduq esa unga tomog'idan bo'g'ib, dushmanlik qiladi.

Evoiki, osmon yengiltaklik bilan aylanishni odat qilgandan buyon bu dunyo uning oldida cho'loq bir cholday turadi. Mehr ahliga javr qilish odatmi? Qoida o'zi shunaqami? Lutfu vafo yo'lida kim o'zini gardga aylantirsa, buning evaziga unga darddan boshqa narsa yo'qmi? Kimki vafo yo'lida boshini bersa, nahot unga to'lov dakki bo'lsa! Yoki bu zamon odamlariga birovning asalini olib, uning og'ziga zahar quyish asosiy o'lchov bo'ldimi? Birovga birov butun bir jannat gulshanining rang va bo'yiga ega bo'lgan hamda yangi ochilgan gul sovg'a qilsa, buning evaziga u tikandan boshqa narsa bermayotir. Berganda ham bir emas, yuzta tikan bermoqda.

Xalq shu taqlidda ish tutar ekan, bir odamni topish ishi juda qiyinlashadi. U odam qanday odam desangiz, u odam shunday odam bo'lsaki, u bilan do'stlik ishini tuzish mumkin bo'lsa, taqdirdan bir kishiga sitam yetib, dard tikanlari qadalsa, haligi odamga bu bir nafas o'z dardlarini izhor qila olsa, bir odam zamon xanjaridan yarador bo'lsa, hasratlashib, haligi odamdan bir chora tilay olsa; hayotdan bir kishi biron malollik ko'rsa, haligi odam bilan gaplashib, ko'nglini bo'shata olsa!

Har qanday odamning boshiga taqdir bir g'am solsa-yu, lekin uning bir hamdard do'sti bo'lmasa, sirini saqlash uchun tikib qo'ygan lablarining ipini so'ka olmasa, ko'nglida bor gaplarini birovga to'ka olmasa, dard uning tanasidan chiqqan shu'lani alangalatib, tutunini osmonning naryog'iga o'tkazib yuboradi. Balo tig'i ko'ksini yorib, dard uni bir nafasda halok qiladi. Osmon g'am shamoli bilan joniga urib, umrining xirmonini ko'kka sovradi.

Bas, shunday ekan, insonga yaxshi umr yor bilan; umr degani yori vafodor deganidir. Vafo rasmini qilmagan yor ziyosi yo'q shamga o'xshab ketadi. Shamda yonish o'zig'i bo'lmasa, muz sumalagi kabi yonmasdan tura beradi. Haqiqiy yor bo'lsa, unga vafo ham yor deb bil; umrni ham yori vafodor deb bil. Kimki olamda yorsiz bo'lsa, u shunday bir sadafki, yaxshi duri yo'q. Kishi yolg'iz o'zi bo'lsa uning hunari ham yo'q; yolg'iz odam – odam qatorida sanalmaydi ham. So'qqabosh odam orzusiga yetolmaydi; axir, bir qo'ldan ovoz chiqqanini kim eshitgan?!

Yorsiz kishilarning ohlari g'am bilan qoplangan. O'tun ham bir dona bo'lsa, yonmay tutagani tutagan. Toq odamning maishat uyi ham, bilki, doim qiyshaygan; axir, bitta ustun butun uyni qachon ko'tarib tura olgan? Burgutning egnidagi bir qanoti sinsa, qancha tez uchsa ham, bir dam ucha oladi, xolos. Nard taxtasining to'sida to'piq-suyak bitta bo'lsa, o'yinchi o'yin boshlay olmaydi. Tosh bilan chaqmoqtosh bir-biriga urilmasa, bir-biridan uzoq tutilsa, ularning orasidagi masofa – firoq ularning ikkalasini ham qorong'ida tutadi. Ular bir-biri bilan bir lahza ko'rishsa ham, ulardan chiqqan o'tdan butun olam ravshan bo'ladi. Qalamning ikkiga bo'lingan uchidan bir

tomoni sinsa ham, kotib xat yoza olmay qoladi. Yo bo'lmasa, jayron bir o'zi tinch bir joyni ko'zlab ketayotgan bo'lsa, kamonkash ovchi, bilki, uning payiga tushadi. Dur aybdan qancha uzoq (yagona) bo'lsa ham, lekin yonida la'l ham bo'lsa yomon bo'lmaydi. Kimki gadoy bo'lsa, yonida bitta yori bo'lsa, u dunyoga shoh bo'lishdan or qiladi. Lekin shoh bo'lsayu, yonida yoru hamdami bo'lmasa, uning ichidagi dard yuki og'ir bo'ladi. Birov birovga hamnafas bo'lib, do'stlik qilsa, kishi har qancha g'amni ham yengil o'tkazadi. Yor shunday bebaho bir gavharki, unga shoh ham muhtoj, gado ham.

Lekin bu sifatleri yozib o'tilgan yor, afsuski, bu davrda yo'q. Bo'lsa ham, uni topish oson emas; xususan, odamzod orasidan topish imkoni yo'q. Malaklar to'dasida bo'lishi mumkin. Lekin ularni qo'lga kiritish uchun osmonga ko'tarilish ham qiyin-da. Parilar ham bu sifatdan xalosdirlar; chin inson bo'lishni parilar qayoqdan bilsin! Agar senga bu so'z qorong'i bo'lsa, ayt-chi, qaysi bir pari chehrada vafo ko'rding? Uni topish garchi qiyin bo'lsa ham, odamlar orasida bor bo'lishi mumkinmi? U yorning vasli kimgaki nasib bo'lsa, uning sha'niga «Qur'on»da «g'alaba yaqindir» oyati yozilgan.

Kimki o'zining bir yori bilan ko'ngli shod ekan, malaklar to'dasi unga: «Ko'z tegmasin!» — deydi. O'z yorining vaslidan kimki bahramand ekan, kuygan jonim uning boshiga isiriq bo'lsin!

Kimki vafo ko'rib, bunga javoban jafo qilmagan bo'lsa, uning oldida vafodan boshqa ish qilmagan bo'lsa, ey sabo, jonimni men senga topshirayin: sen ibo qilmay, uning oldiga olib bor. Quyun bo'l, boshidan aylanib-o'rgil, mening jonim esa qo'yningda xasday bo'lib, mendan unga arzi duo yetkazgach, jonimni uning yo'lida fido qil! Uning chamanidan bir dona barg olib kel, demayman. Uning yo'lining changidan ko'zimga olib kelib surt. Agar senda uning xizmatida qolishga kuch topilsa, mening ahvolim haqida arz qilib bo'lganingdan so'ng, avval oyog'iga yiqilib, past bo'l, yo'lida tuprog' bilan barobar bo'l. Tong nasimi kabi xomush bo'lma; kechki shamol kabi qichqiriq solib, aytkim:

«Ey boshdan-oyoq pok ruh odam, butun sening jisming o'zi ruhki, «ruhim senga fido bo'lsin!» Sening visolingni qancha orzu qilib, intizor bo'lay? Firoqingga yana qancha giriftor bo'lishim kerak? Bag'rim balo tog'ining lolasi bo'lib, ko'zimdan har tomonga laxta-laxta qon oqmoqda. Hajring tufayli jonim dardmand bo'lib qoldi; ajal tomirlari unga qayishdek chirmashgan. Seni istab shuncha ko'p qadamlar bosdimki, izlay-izlay oyog'imdan ajraldim. Seni tilab, har qancha azob bo'lsa tortdim; visoling ganjini tilab, dardu ranjdan boshqa narsaga ega bo'lmadim. Maysani qidirdim, lekin menga tikonlar sanchildi; la'l dedim, lekin cho'g'larda kuyib o'rtandim. Lola istab, ko'ksimda dog'lar ko'rdim; gul qidirib, ko'nglumdan tikonlar topdim. Kimdan men jonimni ayamagan bo'lsam, u menga imkoni boricha javrini ayamadi. Kimning oyog'iga bosh qo'ygan bo'lsam, boshimga toshni do'ldik yog'dirdi. Ey voh, yuzta toshning orasida qolgan yolg'iz boshim! Charx

mening boshimni yuzta deb o'ylabdi. Xuddi shu nafasda rahm etib, boshimga yetib kelsang-chi. Men o'lib ketgandan so'ng kelishingdan nima foyda?!»

Mening bu istagimni qabul qilib, u quyosh mendek xarob bir odam tomon yura boshlasa, joyingda turib qolmasdan darhol oldimga kel, men uchun bu xabarni Xizr hayoti haqidagi xabar bilan teng deb bil. Uni kutib olishga chiqib, yuz bor afg'on qilay, fig'on emas, balki jonimni unga fido etay! U jononaga ko'zim tushar ekan, yig'lay-siqtay; shukronasi uchun uning oldida jonimni beray! Shunday darmon bilan jonimdan dardni olsin. Oxirgi vaqtda men armon bilan (hayotdan) ketmay.

Agar menga bu maqsad nasib bo'lmasa, uning diydorini ko'rish baxti muyassar bo'lmasa, u vaqtda fano dashti tomon yo'l olganim yaxshi! Yo'qlik mamlakatidan joy egallaganim durust! Har kim ham vafo jomidan ichar ekan, muhabbat mayidan ko'ngli jo'sh urarkan, bu ishda menga taqlid qilsin!

Bundan kelib chiqib men shunday umid qilamanki, u yorga kim butun dunyosini fido qilsa, uning muhabbatida hatto jonini ham ayamasa, uning to'qqiz osmon og'irligidagi yuklarini ko'tarib tursa, bunday vaqtda yor ham loaqal bir zarra mehr bilan javob berishi kerak! Uni vafo konining gavhari desin; vafo konigina emas, vafo jahoni desin. Unga minnatdorchiligini tilida takror-takror aytsin; ko'nglini uning muhabbatiga makon etsin. Bunday baxtli vaqtda umid qilamanki, unday odamga mendan ham sadaqalar bo'lsin! Bunday jononaga u jonini fido qilsin, minnatlarini jon deb qabul qilsin. Vafo agar ikki tomondan bo'ladigan bo'lsa, ularning hayoti shuncha shodlik topadiki, buning ta'rifi varaqlarga, varaqlarga emas, ufqlarga ham sig'maydi.

XXXVII

*Ikki vafodor yor bir-biriga vafo qilib, boshlaridan kechgani,
ularning sharofati bilan yuz ming bosh qilichdan va qilich qindan
qutulgani, hatto qayta qinga kirgani*

Eshittimkim, baxtli podshoh, to'rt ulusning xoni Temur Ko'ragon iqlimlarni fath etishga kirishganda, Hindistonda qattiq jang bo'ldi. Unga g'alaba yuz ko'rsatib, taqdir dushman lashkariga shikast soldi. Dushmanlarning hammasi dinsiz bo'lgani uchun (Temur) bek: «Hammasini qilichdan o'tkazinglar!» – dedi. O'liklarning ko'pligidan dashtlar to'lib ketdi. Qizil qon Nil bo'lib oqdi. O'sha soy toshicha kallalar uchdi; har kishi o'zboshimchalik bilan bosh oldi. O'tkir tig'lar har tomonda qon to'kib, butun olamga g'avg'o soldi. Shu payt ikkita bechora sevishgan nogoh ushbu qotillarga duch keldi. Shohning jazosidan omon qolish uchun askarlardan biri ularning birini chopmoqchi bo'lib otidan tushdi. Uni o'ldirish uchun askar yonidan tig'ini chiqargan edi, unisi o'z sherigini tig' ostida ko'rib, uni himoya qilish uchun qotilga o'z boshini tutdi.

– Agar sening maqsading bosh olish bo'lsa, uni qo'y, uning o'rniga bu boshni ola qol! – dedi u.

Askar uning boshini olmoqchi bo'lgan edi, unisi ham xuddi shu so'zni aytdi. U qaysiga o'z zulmini ko'rsatmoqchi bo'lsa, boshqa biri o'sha gap bilan oyog'iga yiqilar edi. Burgut panjali qotilning jahli chiqib:

– Paysalga solmay ikkalangizni ham chopaman! – dedi.

U qaysi birini o'ldirishga oshiqsa, ikkinchisi toqatsizlik bilan der edi:

– Tez bo'l, oldin meni o'ldira qol, to men o'lguncha loaqal u tirik tursin!

Ular bir-birlariga o'z boshlarini in'om qilardilar. Boshlarini kesdirish uchun tig'ni talashar edilar. Shu munosabat bilan orada birpas hayallash yuz bergan edi, birdan xalq orasida omon-omon bo'lgani haqida nido ko'tarildi. Chunki bu ikki yor bir-biri uchun jonidan kechgan edi, shoh ham xalqning gunohidan o'tdi. Bu ikki yor do'stlik, sadoqat tuyg'ularini namoyish qilib, elni ham, o'zlarini ham xalos qildilar. Ey Navoiy, Xudo senga ham yor bersa, sen ham unga boshingni va joningni fido et. Ey soqiy, mehru vafo shartlariga sodiq bo'lsang, chin do'st bo'lsang, bir qadah keltir. Jonim halqumimga keldi, menga davo qil, qachongacha va'da berasan, endi va'dangga vafo qil!

XXXVIII

TO'QQIZINCHI MAQOLAT

*Ishq o'ti ta'rifidakim, uning shu'lasi halo sahrosining lolalaridir,
cho'g'i baloga duchor bo'lgan ko'ngulning qon bo'laklaridir;
mehnat-mashaqqatning qaro shomi uning tutuni, bu shomning kuyik
yulduzlari uning uchqunlaridir; yor husnining nurlari haqidakim,
uning alangasidan ko'tarilgan bir yolqin bunday o'tning chiqishiga
sahabchi, uning quyoshdek yuzidan tarqalgan bitta nur bunday
haroratga asosdir*

Yer yuzida endi hayot boshlanib, inson vujudini ruh mayi bilan mast qilganlarida, uning tuproqdan iborat jismini hikmat qo'li bilan xuddi Eram bog'iga o'xshatib tuzdilar. Yo'q, uni Eram bog'i ham emas, jannat bog'iga, bog' ham emas, hurlar jilva qilgan joyga o'xshatib tuzdilar. Har lahzada qushlari yuz afsona kuylashadi, har kim iltimos qilsa, yana kuylashadi. Uning sahni osmon bog'idek bezatilgan; har bir guli xuddi to'lin oyning o'zi. Uning gulgun yuzi yangi ochilgan gullardir; uning upasi gulga gulgunlik bag'ishlaydi. Tik savsan, balki to'g'ri sarv va shamshod unga qomat bo'lgan. Mushk hidli sunbul unga zulf; lola va oq gul unga yuz va yonoqdir. Yuzidagi terlari quyosh chashmasiga o'xshaydi; bag'baqasi o'sha suvning ustidagi

ko'pikdir. Ko'zidan fitnagar nargislar paydo bo'lgan; labi xuddi kulib turgan g'unchaning o'zi. Labidagi tuklar xurram sabzazoru, sabzadagi shabnam uning terlaridir. Husnu jamol unda o'ylaganingdan ham ko'p, qancha ko'p o'ylasang, o'sha o'ylaganingdan ham ortiq.

Lekin dilni tortadigan narsa uning husni emas, elning sabr-toqatini olgan ham bu jamol emas. Ishq bulbuli o'z dostonini kuylay boshlaganda tomosha qilish uchun bu boqqa kirdi. Uning nazari gulga tushishi bilan zor bo'lib, shavq o'tidan joniga xabar yetdi. Gul shoxiga o'ltirib, joy tanladi; undagi otashin (qizil) gullar uning joniga o't yoqa boshlashdi. Jonining ichi ishq o'tidan o'rtanib, g'am shu'lasidan ko'ngliga iztirob tushdi. Ishq uning sabru qarorini talon-toroj etdi, gul esa unga firib bera boshladi. Gul unga jilva qila boshlagach, endi unda sabr qilish imkoni qolmadi. Kuyib-yonib, u shunday qichqiriq soldiki, buning o'tidan chamanning ichi qizib ketdi.

Shunday kuyish va kuydirish yuz bergach, shunda oshiqlik va ma'shuqlik namoyon bo'ldi. Ishq tug'yon solib, rivojlanishi bilan oshiq parishon ahvolga tushib qoldi. Husn yana yoqimli jilvalar qilib, zulfning qo'lga balodan tuzoq topshirdi. Jahon mamlakatining boshiga ishq g'avg'osi tushib, zamon ahli ishqning taloniga uchradi.

Ishq degani bu qanday o'tki, u hujum qilganda uning tutuni va uchqunlaridan osmon va yulduzlar yaraldi. U tutundan malaklar pashshadek qochdilar. Falak osmonda oddiy bir fonusdek bo'lib qoldi. U tufayli aql peshonasi qoraydi. Ruh ko'zidan ham u yoshlar oqizdi.

Ishq shunday narsaki, mayxonada ham uning haqida bahs to'xtamaydi: Ka'baning libosi ham shu tufayli qoraygan. May o'ti butning¹ yuzini qizartirib, hayroqqa aylantirgach, shu'lasini «Qur'on»ni ham kuydirdi. «Qur'on»ning varaqlarini kuydirayotgan chog'da o't yoqaman deb rahlni² ham sindirdi. Butxona deb masjidni haqorat qildi; imonni kufrga almashtirdi. Taqvo libosini itning ustiga yopqich qildi; yopqichning har yerdagi yamoqlarini bezak uchun solingan gul deb hisobladi. Dinsizlikni o'rganish uchun kitob ochib, har qanday xudoga ham sanam deb xitob qildi. Masjidning ichida isyon bodasini sotib, mehrob burchagiga may xumini o'rnatdi. Gulshanning ichida guldan o't yoqdi, mayxona burchagini sharob bilan yoritdi. Bu gulning qanday gul ekanidan bog'ning nima xabari bor? Ichidagi mayning qanaqa may ekani bilan xumning qanchalik ishi bor?

Ruh bu gulning tikaniga oyog'idan ilingan, jon ham shu may isidan mastdir. Uning tufayli sarosima aql ishi turli ixtiloflar bilan to'la: ixtilofgina emas, poyma-poy. Poyma-poygina emas, uni ablahu nodon, deb ayt, nodon ham emas, biyobondagi telba deb hisobla.

Qaydagi ishq o'ti shu'la sochib turgan bo'lsa, u o't ustida aql misoli bir xashakdir. Kuyib, bu o'tga ko'ra bo'lgan ko'ngulning obod o'lkasi bunga kirmaydi. Chunki qaysi ko'ngulni ishq makon qilgan

¹ B u t — Buddaning haykali ko'zda tutiladi.

² R a h l — kursicha. Kitob unga qo'yib o'qiladi.

bo'lsa, uni ishq o'z o'ti bilan la'l koniga aylantirdi. Ishq bo'lmasa, ikki jahon ham bo'lmasin; ikki jahongina emas, jon ham bo'lmasin!

Tan ishqsiz bo'lsa, uning joni ham bo'lmaydi; kishi husnni nima qiladi — u oniy bir narsadir. Ishq o'ti mamlakat podshohiga uncha nazarga ilinmas oshiqni boridan orttirib, shirin qilib ko'rsatadi. Ishq dur bo'lib, ko'ngul unga qutichadir; hatto ishq quyosh bo'lib, ko'ngul unga burjdir. Quyosh ham emas, u bazmdagi yonayotgan o'tdir; shunchaki yonayotgan o't emas, kuydirayotgan o't. Inson tanasi suyaklarning tuzilishidan tashkil topgan uy bo'lib, ishq agar o't bo'lmasa, uni kuydirmas edi. Yor husnining ishi oshiqdagi ishqni yuzaga chiqarish bo'lib, bu hol odamning sham' bilan o'tinni o't oldirganiga o'xshaydi. Husn qancha dilni o'ziga qattiq bog'lasa, ishq o'ti ham odamlarning ko'nglida shuncha tez yonadi. Gulda lutfu tarovat qancha ko'p bo'lsa, bulbulning hasratida ham g'ulg'ula shuncha ko'p bo'ladi. Ko'ngul yarador bo'lsa, u oh chekadi; o'tni kovlasang, alanga ham shuncha balandga uradi. Ishq uchun jonni o'rtash mushkul emas; o'tga ham butun jahonni yondirish qiyin emas. Alanga har qanday toshni suv qilib yuborganday, ishq ham zolim aqlni eritib yubora oladi. Zohidlik dunyosini yondirib yuborish uchun bitta uchqun yetarlidir! Tikon va xashak qancha ko'p bo'lmasin, yashinga bas kela olmaydi-ku! Ishq agar filga o'z kuchini ko'rsatadigan bo'lsa, fil filning oyog'i ostida qolgan chumolidek bo'lib qoladi.

Lekin oshiq o'zini oshiq deb atasa, u oshiq emas; har kim ham ishqda sodiq bo'la bermaydi. Kimki kezib yurib husn tanlasa, so'ng ko'nglini bu husn egasiga bog'lasa, unday ko'ngulni ko'ngul dema, u bir parcha toshdir. Sham ham o'z o'ti bilan xarsang toshni qizdira olmaydi-ku! O'zini kishi ko'ziga g'amgin ko'rsatib, motami bo'lmasa ham yoqasini yirtar ekan, bunday odamning tashi hiylakorligi orqasida malakka o'xshaydi; ichi esa iblis bilan birlashgan, zohiri sadoqat bilan bezangan, ichi esa fisq-fasod bilan bulg'angan!

Unday odam yoridan o'z xohishining ushalishini talab qiladi: gap-so'zidan esa adabsizligi bilinib turadi. Goh yorining la'l labidan jon tama' etadi, bitta jon emas, imkoni bor hamma narsani so'raydi. Goh u yorning gul hidli badanini, taninigina emas, tanasining har bir a'zosini vasf qiladi. Jimjimador xatlari hazil kitobiga o'xshaydi: uning mazmuni fahsh, yolg'on va firibdan iborat. Ko'zbo'yamachining shishasidek usti sofu lekin zimniga yuz xil makru hiyla, yolg'on joylashgan. Shu ham oshiq hisoblanadigan bo'lsa, uni o'ldirish, boshdan-oyoq vujudini kuydirish kerak.

Haqiqiy oshiq deb sen shuni bilki, u dard bilan yashaydi; uning tili ham, dili ham, ko'zi ham pok bo'ladi. Ishq uni o'z «men»idan pok qilib, hatto fano o'tiga xashak qilgan bo'ladi. Yuzini sariq qilib, dardini yashiradi; ko'zini ariq qilib yosh oqizadi.

Uning kasalmand, ozg'in tani qilga o'xshaydi; bu qildagi har tuguni uning bo'g'inlaridir. U orqasida ishqning yuz g'amdan to'plangan yukini orqalagan; har bir tugunda bitta g'amning oyog'i

boylangan. Dard yukidan uning qaddi xam bo'lgan, «dard» so'zidagi «dol» harfi qaddining xuddi o'zi. Badani osmonning badaniga o'xshash butun dog'; har dog' uning qora tundagi azobidan nishonadir. Ko'ksining yorig'idan chiqib turgan o't shom balosiga sahar bo'lishidan nishon beradi. Ko'ylagida parcha-parcha dog'larning o'rni; bebaxt chakmonining tevarak-atrofi yamoq. Ko'nglidan boshqa odamning xayolini butunlay chiqarib yuborgan; ko'nglini sevgilisining xayollari bilangina to'ldirgan. Ma'noli gaplarga o'rgangan tili har qanday so'zni ayta bermaydi; uning ko'nglida jononining g'amidan boshqa g'am yo'q. Yor yuzini ko'rib, ko'zida hayrat; yor qarashi uning ko'nglini o'rtagan. Ko'nglida yor g'amini chekib, uning rashki tufayli har tomonga ko'z yoshlari qon bo'lib sochiladi. U qaysi tomonga nazar solmasin, unga yorining go'zal jamoli jilva qiladi. Hatto o'zini ham butunlay unutadi; qayoqqa ko'z tashlamasin, ko'ziga faqat yori ko'rinadi.

Kimki shunday ishqning qo'lida mag'lub bo'lsa, bundan boshiga nima tushsa ham uni yaxshi deydi. Ishq kimning ko'nglidan shunday o'rin olgan bo'lsa, uni o'zligidan ham forig' etib, mast qiladi. Bunday kishiga xos yer zohidlar uyi emas; uning ko'ngli ishq o'tidan xalos bo'lmagani ma'qul. Sog'lom fikrli kishilar unikiga yig'ilib, uni qiynab, malomat qilishsa, jannatni va'da qilib ovutishsa, ko'nglini esa ishq o'tidan sovutishsa, (ishq yo'lidan) aynib, yana u toat-ibodatga berilsa, shu toat bilan qanoat qilsa; ishq balosidan orttirgan yaralarini tuzatsa, mashaqqat o'qlaridan paydo bo'lgan yaralarni bitirsa; tanasining qushiga so'fiylik xirqasini tuzoq qilib, tasbehining donalari bilan u qushni o'ziga rom etsa! Xilvatda o'tirib-o'tirib, tomog'i qurib, biroz havo olish uchun u dam olgani chiqsa. Ko'chalar, xiyobonlar tomon borib, u Musallo bilan Maydon tomonga ham o'tsa. Dasht tomonidan to'p-to'p otlig'lar ko'rinib, ular hammasi maydonda javlon qilishga otlangan bo'ladi. O'shalarining orasida nogoh husnu malohat mayidan kayf qilgan bir go'zal ko'rinib qoladi. May o'tidan yuzida yuz gul ochilgan, bu gullarning bittasi dastoriga qistirib qo'yilgan. Husni o'tining alangasi gulzor bo'lib, bu gulzorning har tomonida gulnor ochilib yotibdi. Xoli har qanday baloni daf' etuvchi; uning o'tida ko'z qorachug'i yonib, hammayoqqa isiriq bo'yini tarqatadi. Qoshlari oy yuzining ustidagi xushbo'y yangi oy; uning ikkalasi ham aqlni devona qiladigan darajada chiroyli!

Yanada to'g'rirog'i, bu qoshlar oshiq'larni o'ldirish uchun o'zaro maslahatga o'ltirib, boshini boshiga qo'shgan. Husnini namoyish qilish uchun u qoshida (jingalak) tugunlar yasagan. O'ziga zeb berish uchun «nun» harfiga o'xshatib yasalgan bir tugunning ustidagi nuqta shamraning¹ urug'iga o'xshaydi. Sunbul sochlarida tugun ustiga tugun, bu tugunlar tugun emas, halqa ustiga halqalardir. Uning zirak taqqan quloqlari safni

¹ Sh a m r a — ukrop, ukrop urug'i.

yorib o'tuvchi turk askarlariga o'xshaydi; go'yo u o'limni o'ylab, ustidan temir sovut kiyib olgan. Chaqnagan ko'zi noz bilan har tomonga boqadi; bu bilan zohidlar va taqvodorlar xirmoniga o't yoqadi.

Bu o'tning tutuni kipriklar safining orasidan o'tganda, ularning hammasini qoraytirib qo'yadi. Uning ko'zlari surma qo'ymasa ham qop-qora, fusunkor; jahon bu ko'zlar tufayli surma rangiga kirgan. La'li labida bir qatra ter dumaloq bo'lib turibdi; u mangulik chashmasidan tomgan bitta jonga o'xshaydi. Lab tuklarining har bittasini hayot maysasi deyish mumkin: ular Xizr turgan qorong'i zulmatdan o'sib chiqqan. Kishilarga orzu bo'lgan baqbaqasida qatra-qatra suvlar ko'rinadi; bu baqbaqa chuqurchasiga suv o'sha chashmadan sizib tushgan. Har mo'yi jon tomiridan tortib, kofir zulfi esa imon tomirlarini ham yulib oladigan. Uning gulrang ipak libosdagi qomati guldor kiyimga o'ralgan sarvga o'xshaydi. Uning chopqir oti yashinday tez qadam bosadi; sayr qilib yurib, yashinday chaqnaydi. Uning oti yashin bo'lib, ustiga mingan o'zi quyosh bo'lgandan keyin uni ko'rib el-xalq kuysa, yig'lasa, ajablanmasa ham bo'ladi. Gul singari etagini beliga qayirgandan keyin, to'nining etagidan uning savsan rangidagi ko'ylagi ko'zga tashlanadi. Ro'molining rasmlari gul ko'rinishida bo'lib, savsan va gullar ustidan gul sochayotganga o'xshaydi. Dastoriga bitta gulni qistirib qo'ygani sarv va terakka gulni payvand qilganlarini eslatadi. Bu qanday go'zal manzara, o'zi, ey ko'ngul! Bu Xalil o'zini urgan gulistonmikan¹, ey ko'ngul?!

Chaqqonligi aqlni kuydiradi; nozikligi ruhni titratadi. Maydonda turgan kishining boshiga u to'polonda shuncha halolar yetsa, tuproq bo'lib ketishdan o'zini saqlay olmaydi. Axir, butun zaminu zamon ham u go'zalning oti oyog'i ostida-ku!

Uning devsfat oti qayoqqa qadam qo'ymasin, odamlargina emas, malaklar ham bezovta. Uning ustidagi chavandoz qotil mahbubi esa odamlarni devonavor o'ldirishdan tinmaydi. Bu yerda agar Shibliy bo'lsa ham, Zunnun bo'lsa ham², ular ham parishonhol bir telbaga o'xshab qolardilar. Din ularning motamida oh-voh chekkan bo'lardi; aql piri yosh boladek og'zini ochib qolardi. Har qanday irodali ruh unga boqqanda, og'zidan so'lakayi oqib turib qolardi.

Bu vaqtda aql ketib, xalq ham ibodatni unutadi. «Taqvo va aql degani o'zi nima?» – deydi hamma. U go'zalni ko'rmagan odamlargina bu o'tdan omon qoladi, lekin uni ko'rib, kul bo'lish ham yomon emas. Nimaiki iflos bo'lsa, o'tga tushib toza bo'ladi, poklar esa bu o'tda yana ham pokroq bo'ladilar. Bunday kuyishni kim odat qilgan bo'lsa, u dunyo, bu dunyo saodat unga yordir.

¹ Xalil gulistonini – bunda payg'ambar Ibrohim Xalilullo to'g'risidagi afsona ko'zda tutiladi.

² Shibliy, Zunnun – mashhur tasavvuf shayxlari va olimlarining nomlari. Shibliyning to'la nomi – Abubakr Ja'far binni Yunusdir (862–947).

*Shayxi Iroqiy Shomda husn gulining sham'ini ko'rgach,
parvonadek tutagani va (bu ishq) shu'lasi inkor tikanlarini
kuydirib, inkor etuvchilar boshidan oshib ketgani*

Fano ko'yi boqiy turgan odam zamon faxri — Shayxi Iroqiy edi. Uning ko'ngli ishq sirlarining xazinasini bo'lib, uning gaplari ishqning (yomg'ir o'rniga) gavhar yog'diradigan bulutlarini eslatardi. Uning (insonning) tabiati ishq o'ti bilan yo'g'rilgan, «ishq» so'zining harflari esa uning peshonasiga yozib qo'yilgandek edi. Lekin bu ishq o'tining davosi unda bo'lsa ham (kishilar ko'ziga) taqvo pardasi bilan yopib yurardi.

Bir necha vaqt u Misrni o'ziga makon qildi. (Kunlarning birida esa) ertalab o'rnidan turib, Shomga yo'l oldi. Bu vaqtda Shomda bir odam taxtni egallab, hokim bo'lib turar ekan, u tun mamlakatida to'lin oydek edi.

Hokim Shayxning bu tomonga kelayotganining (ma'nosini) tushundi va buni o'z ahvoli, mavqei uchun sharaf deb bildi. U mamlakatdagi yaxshiyu yomon — hamma kelayotganini eshitgan zamon uni qarshilash uchun chiqsin! — deb buyruq berdi. O'zi ham mamlakat hokimi soyaboni sifatida chiqar ekan, qo'shinining oyog'idan ko'tarilgan chang osmonni to'sib qo'ygandek bo'ldi.

U to'lda Shayxga yaqinlasha boshlar ekan, barchalari otlaridan tushishdi. Ular u kelayotgan yo'lga boshlarini qo'yar ekanlar, ko'z yoshlari bilan esa ko'tarilgan changni yopmoqchi bo'lgan edilar.

Hokimning bir o'g'li ham bo'lib, u shunday chiroyli ediki, unga yuzta Misr shohlari qul bo'lib xizmat qilishga tayyor edi. U lutfu malohatda jahon ofati, jahon ofati ham emas — jon ofati edi.

U Shom mamlakati qorong'ilikda qolganda uni yoritib turuvchi nurlu Oy bo'lib, Misr xalqi (Yoqub) payg'ambarning (o'g'li) — Yusufdek edi. Arab mamlakatlari ichida ajoyibning ajoyibi bo'lib, unga ajam ham, arab ham shaydo edi. Misr diyori uchun misli qo'g'irchoq bo'lsa, Shomda qorong'ilikda qolganlarga obi hayotdek edi.

U go'zal Shayx ko'ziga ko'rinishi bilan yuzini uning oyog'iga qo'yib, oh cheka boshladi. Irshodlik xirqasini chok-chok etib duo tasbehini uzib tashladi.

Shoh va uning qo'shinlari Shayxga tuproqdek bo'lib, u esa shoh o'g'li yo'lidagi tuproqdek edi.

Ishqda Shayx shunday bir holga tushgan ediki, hayratdan kelgan odamlarning hammasi lol edi. Ammo bu ishq har qanday nuqson-dan pok bo'lib, u nima qilsa, ajablanadigan yeri yo'q edi. Shayxni ishq o'ti halok qilar ekan, uning shu'lasi o'sha to'dani o'rtantirib yubordi. O'ti boshqa ko'ngullarga xabar bergan bo'lsa, ohi bag'irlarga ta'sir ko'rsatdi. Titrashidan, o'rtanishidan uning pokligi Quyosh singari fosh bo'ldi. Hokimning ichidan o't alanga ko'rsatib, o'zi va uning o'g'li Shayxga murid bo'ldilar.

Kim ishqda bu xilda pok bo'lsa, bu sifat oqibatda xosiyatli bo'ladi. Haqiqiy husnni agar ro'parangda ko'rsang, xoh uni ko'zguda ko'r, xoh suvda — maqsad uni ko'rish bo'lganidan keyin ko'zgu va suvda vujud yo'q-ku! Bunda odam qayerdayu hayosizlik qayerda? Ishqda poklikdan boshqasi mumkin emas.

Ey Navoiy, agar ishq seni halok etsa, agar bu ishq pok bo'lsa, o'limdan nega qo'rqish kerak?

Soqiy, men o'libmen, sen menga jon suvini tut. U shunday sof va pok, xuddi tiriklik suvidek bo'lsin, toki men uni yoqam va ko'ksimni chok qilib, qancha bo'lsa, pokligicha to'latib ichay!

XL

O'NINCHI MAQOLAT

*Rostlik ta'rifidakim, borliq uyi shu to'g'ri ustun hilan tik, ul
uyning yotoq xonasi burchagida hu nur (rostlik) sham'i majlisni
bezatadi; egrilikni esa rad etish haqidakim, agar egri odam kumush
badan go'zallar yuzidan zulfdek joy olsa ham (baribir oxirida) boshi
kesiladi; egri odam agar xazina ustida ajdahodek halqa bo'lib
yotgan bo'lsa ham uni o'ldirish zarur*

Har kim o'ziga to'g'rilikni odat qilgandan keyin charxning teskari aylangani bilan uning nima ishi bor?! O'qning¹ uchishi to'g'ri bo'lgandan so'ng, yerning egriligining unga nima ziyoni bor?!

Yo'l qancha to'g'ri bo'lsa, maqsad shuncha yaqin, yo'l egri bo'lsa, maqsad uzoqlashganiga ajablanish o'rinsiz. Nay to'g'ri bo'lgani uchun so'fiylar uni yaxshi ko'rishadi; chang to'g'ri bo'lmagani uchun qulog'i buraladi. Nayza to'g'ri bo'lganidan doim boshi yuqori; arqon esa chirmashligi tufayli bog'lash uchun ishlatiladi.

Ayvonda yonayotgan sham'ning bo'yi to'g'ri bo'lgani sababli u kechasi qorong'ida bazmning mahubasiga aylandi. Egri uchish qilib parvona ko'p aylangani uchun oxiri sham' o'tiga urilib yonib ketdi. Sarvning qomati to'g'ri bo'lgani uchun xazon kulfatidan ofat ko'rmay, doim ko'm-ko'k. Bog'dagi toza sunbul har narsaga chirmashib o'sgani uchun egrilik uning yuzini qora qildi. Changning qili to'g'ri bo'ladi; egri bo'ldimi, sozlanmagani.

Mistarning² chizig'iga yozuv to'g'ri kela bergach, qalam boshini ko'tarmasdan yozgani yozgan. Unda bitta chizig' egri bo'lsa, xatga bitta dog' tushadi; ko'chirilayotgan nusxada esa har sahifada qiyshiq xat bo'ladi. Huru parilar xizmatida bo'lgan biron hur naslli pari paykarning gulrang yuzi o't bo'lib, bu bilan dunyoga o't qo'yishni o'ziga maqsad qilib, gul yuzidagi har bir ter toza gavhar bo'lib, bu terdan ko'p-ko'p gullar ochilib, sochlarining har tomonidan mushk

¹ Yoyning o'qi ko'zda tutiladi.

² M i s t a r — chizg'ich, lineyka.

isini beruvchi chiziqlar bo'lib, ter namidan o'tdan tutun ko'tarilib tursa, uning mijozining latifligi el ko'nglini olish uchun (bir-biriga zid bo'lgan) o't bilan suvni parvarish qilsa, uning latofati qancha desa shuncha bo'lsa, husnu jamol ham imkoni boricha mavjud bo'lsayu, lekin uning qaddi-qomati sarfarozi bo'lmasa, gulzorida u sarv kabi noz qilib yurmasa, sarvi xiromon bo'lib, to'g'ri qadam bosa olmasa, mijgon o'qlarini ham to'g'ri mo'ljallab ota olmasa, zor oshiqlar unga jonini bermaydi; odamlarning birontasining ko'ngli ham unga giriftor bo'lmaydi. Namozxonlar mehrobni to'g'ri qurmasa, ko'z qiyshiq boqib, namoz ham to'g'ri o'qilmaydi.

Xatni to'g'ri yozadigan kishilar haqiqiy sog'lom kishilardir; xat agar egri yozilgan bo'lsa, demak, yozgan odam ham to'g'ri emas. Kimning qarashi to'g'ri bo'lsa, o'sha haq. Kimning qo'li egri bo'lsa, o'g'ri bo'ladi. Kimki qo'li egrilik bilan shuhrat topgan bo'lsa, xalq uning qo'lini kesib to'g'ri qiladi.

Ko'z tug'ilishdan egri bo'lsa, uning odati bittani ikkita qilib ko'rsatishdir. O'zi bitta bo'lsa-yu, boshqasi tagida bo'lmasa, bittani ikkita qilib ko'rish — ko'p xudolikni tan olish bilan barobardir.

Sulaymon deb nom chiqargan odamning durri zoti aslida payg'ambarlik dengizidan edi. U jahon podshohligi taxtini egallagan, ham podshoh edi, ham payg'ambar. Butun dunyo mamlakatlari uning qo'l ostida edi; odamlar kabi devu parilar ham uning buyrug'iga bo'ysunardi. Agar u podshohlik chodirini cho'lga tiksa, qushlar uchib kelib, pati bilan darhol soyabon bo'lardilar. U ochiq, havoli yerlarga gilam to'shab o'ltirardi; safarga chiqsa, yellar unga qo'shimcha ot vazifasini bajarardi. Devu parilar ham odamlar to'dasi bilan birga uning sirli uzugi tufayli¹ buyruqlariga tobe'lik ko'rsatardi.

Ushbu zamon xoqoni va podshosi² oddiy podsho va xoqon emas, zamon Sulaymonidir³. Uning taxtining poyasi osmon avjigacha ko'tarilgan; toji esa eng tik turgan quyoshga o'z soyasini solgan. Saroyining gumbazi osmon gumbaziga o'xshash bo'lib, bu saroydagi unga qarashli odamlar yulduzlardir. Martabasining yuksakligi Jamshid va Zahhoknikicha bor; sipohi ham ikki Iskandarnikicha. Xalqi va unga bo'ysunganlar Hurmuzu Xusravgacha⁴ yoyilgan; mamlakatining kengligi Sulaymonnikicha bor.

Lekin o'z zamoni Sulaymonga hukmdorligini yurgizish uchun sehrli uzuk bergani kabi, bunga ham, hukmdorlik qilib turarkan, aylanib turuvchi charx bir uzuk nasib etgan edi. Kingaki xonlik qilish muyassar bo'lgan ekan, bu uzuk bilan hukmronligini yurgizishi

¹ Diniy afsonalarga ko'ra, bu uzuk «Sulaymon uzugi» nomi bilan mashhur bo'lgan; unga yozilganiga ko'ra, uzuk yordami bilan Sulaymon payg'ambar dunyodagi hamma odamlarni, hayvonot olamini, sirli mavjudotlarni boshqargan emish.

² Matnda «qaysar», «Qaysar» — Sezar so'zidan olingan bo'lib, turdosh ot sifatida «podshoh» demakdir.

³ Z a m o n S u l a y m o n i — matnda «Sulaymoni ahd»; bunda Sulton Husayn Boyqaro ko'zda tutiladi.

⁴ H u r m u z, X u s r a v — bu o'rinda joy nomlari bo'lib kelayotgan bo'lsa ham, aslida majoziy «kun chiqishdan kun botishgacha» degan ma'noni bildiradi.

mumkin edi. Uzuk o'zi sadafdan, lekin xati gavhardan edi. Qanday ajoyibki, davr, zamon uning xatini «Rostlikdan xaloslik»¹ deb bitgan edi. Shohga agar shu muhrning xati yordam bermasa, u har narsaga giriftor bo'lishi mumkin edi. Oxirigacha to'g'rilik uning qo'lidan tutgani uchun, to'g'rilik bilan xalq ham uning farmoniga bo'ysuna boshladi.

Kimki to'g'rilik yo'lini bilmoqchi bo'lsa, bilsinki, bu ikki xil bo'ladi. Biri shuki, kishining so'zi to'g'ri bo'lsa, uning so'zi bilan birga o'zi ham to'g'ri bo'lishi kerak. Yana biri shuki, yolg'on gapni ba'zilar taassuf bilan, uyalganidan «to'g'ri!» deydi. Oldingisi, hech shubhasiz, yaxshi, lekin ikkinchisi ham yomon emas. Kishi yolg'onni gapirsa ham kam gapirsa! Qani endi shunday odam bizning zamonda ham topilsa.

Biz shunday qiziq zamon odamlariga muhtalo bo'lganmizki, ularning oldida rostgo'ylikdan yomon narsa yo'q. Ulardan to'g'rilikni qidirgan kishi qoshlaridagi nomi «Chin», o'zi nochin jingalak mo'yni topadi, xolos. «Chin» kofirlar mamlakati bo'lsa ham, nomi «Chin», ya'ni «to'g'ri» bo'lgani uchun, qara, hatto jannatning o'zi ham unga rashk qiladi.

Lekin odamlarga Xudoning o'zi ato qilgan bu to'g'rilik, qara, ularning oldida xato bo'lib ko'rinadi. So'zlashda xato gapirishga o'rgangan odam noto'g'ri fikrni to'g'ri deb gumon qiladi. Kimki bu davrda to'g'ri gapirishga odatlangan bo'lsa, u kambag'allik, yetishmovchilikdan boshqa narsani bilmaydi. Bu davr istagi egrilik bo'lgani uchun, sen haqiqatni talab qilsang, unga yoqmaysan.

Bu aylanuvchi osmonning hech to'g'ri ishi yo'q; uning pargori chizgan chiziqning ham bironta to'g'risi yo'q. Kimki to'g'rilikni o'ziga kash qilib olgan bo'lsa, davrning aylanishi unga doim dushmanlik qiladi. Qalam to'g'rilikka yo'l ko'rsatgani uchun doim uning boshi kesilib, pastga bo'lib turadi. «Alif» ham to'g'rilik alomati bo'lgani uchun, «balo» (so'zi) uni, qara, o'zining orqasiga olibdi². Shoh chaylasining arqoni ham to'g'ri tortilgani uchun, qara, boshdan-oyog'igacha eshilgan: chirmash.

Uchar yulduz to'g'ri uchgani uchun boshdan-oyog'i tamom o't bo'lib yondi. Ilonning tana tuzilishi egri-bugri bo'lgani sababli xazina ustida yotsa ham og'zida zahar. Yangi oy egriligidan charx qadami turgan joydan ko'rinadi. Salla ham chirmash o'ralgani uchun boshning ustiga chiqishi loyiq topildi.

Yo'q-yo'q, bu yozganlarimcha emas, balki bu gaplarimning hammasi qalamning xatosi. Egrilikning ham, to'g'rilikning ham o'z haqiqiy ta'rifi bor: yolg'on egrilikdan, to'g'rilik haqiqatdan iboratdir. Sham o'z to'g'riligi bilan xursand; boshdan-oyoq kuysa ham, u nurga aylanadi. Yashin egrilikni odat qilgan bo'lib, hammayoqni yoritsa-da, yerning ostiga kiradi. Bog'bon o'z yeriga reja tortmas ekan,

¹ Asl matnda forscha: «Rostiyu rasti».

² «Balo» so'zining arabcha yozilishi ko'zda tutiladi. Unda alif so'z oxirida keladi. Alif esa o'z shakliga ko'ra, o'tmish adabiyotda doim to'g'rilik ramzi bo'lib kelgan.

bog'ning ko'rinishi changalzorga o'xshab qoladi. Dehqon agar mola bosmasdan urug' sochsa, qancha bir xil sochmasin, ekini, baribir, suvni tekis ichmaydi. Oynaning yuzi qancha tekis bo'lsa, oy yuzlining yuzi ham shuncha to'g'ri ko'rinadi. Temir qalpoqning yuzi qancha sayqallangan bo'lmasin, yuzning aylanasi unda cho'zilgan holda aks etadi. Jim turgan suvda quyosh aks etadi: chayqalgan suvda esa egri ko'rinadi. Xato bilan yolg'on gapirish hisobga kirmaydi; chunki uning yolg'onligi bilingach, undan qochiladi.

Bir kishining so'zlari boshidan-oxirigacha to'g'ri bo'lishi mumkin. Aksincha, bo'yalgan, yovuz bo'lishi ham. Ularning birinchisi ham, keyingi bo'yab gapiradigani, yovuz ham o'z ixtiyoridan tashqari holda shundaydirlar. Ularning peshonalariga shunday yozilgan bo'lsa, ular nima ham qila oladi?! Alloh bir kishini habibim¹ desa, xalq ham uni «sodiq xabarchi» deb atay boshlaydi. Chunki uning barcha so'zlari to'g'ri bo'lib, ro'para kelgan borki uni «saddaq»² deydi. U: «Qaysi habib?» desang, osmon oyog'i ostida xok bo'lib, jannatdagi sidra va to'bi daraxtlari oldida xas-xashak bo'lgan kishidir. Uning dinini ishonchli din ekanligini bilgach, barcha payg'ambarlar unga ummat bo'lish istagini bildirganlar. Ummatlari to'g'rilik, halollik bilan nido qilishar ekan, «Yolg'onchilar mening ummatim emas», degani esga keladi.

Butun koinot azob ichra qolgan chog'da uning ummatlari najot ahli bo'lgusidirlar. Shunda barcha payg'ambarlar to'g'rilik hayrog'ini ko'tarib, o'zlarining bu masalada unga ummat bo'lish istagini bildirar ekanlar, yolg'onni gapirgan tili va yozgan qalami tufayli payg'ambarlik safidan chetlatiladi. Xato va yolg'onni so'zlash hisobga o'tmaydi. Bu bilingach, bundaylar uzoqlashtiriladi.

Kimki yolg'on gapirishni odat qilgan bo'lsa, uni eru musulmon deb bo'lmaydi. Yolg'onchi o'z gapini o'tkazish uchun qancha urinmasin, u o'z gapini bir-ikki marta o'tkaza oladi, xolos. Uning bu ishidan xalq g'ofil bo'lsa ham, lekin Tangri o'zi bu holdan voqif. Bu xususiyat elga qancha maxfiy bo'lmasin, yolg'on baribir o'zini oxirida ma'lum qiladi. Yolg'on tong o'zini qancha oshkor qilsa ham, uning nurlari, kuzat, baribir uzoq turmaydi.

Har sohada kimgadir firibgarlik qilinar ekan, u yolg'onchilik oldida bir navdir.

Kimki, qizishib turib ont ichgan bo'lsa, onti yolg'on bo'lsa, aybi yuvilib ketadi. Kimki o'zini yolg'onchi sifatida tanitgan bo'lsa, rost gapirsa ham, xalq uning hamma gapini yolg'on hisoblaydi. Bu xususiyat uni doim qiynoqda saqlaydi. Hech narsa bilan u bu qiynoqdan qutula olmaydi. Kimki yolg'onchi deb nom chiqargan bo'lsa, o'zinikilar ham, begonalar ham uni shu ot bilan chaqirar ekanlar, to'g'rilik nomi unga hech qaytib kelmaydi. Rost gapirsa ham, xalq unga inonmaydi. Kimning chin gapi el orasida yolg'on deb topilar ekan, yolg'onni chinga aylantirish imkoni bormi?!

¹ Bu o'rinda Alloh payg'ambarimiz – Muhammad s.a.v. ni «habibim» («do'stim») deganiga ishora qilinmoqda.

² «S a d d a q» – «rostgo'y», to'g'ri so'zlovchi.

Qanday bir og'ir vaziyatda qolganingda ham, chin gapirishning iloji bo'lmasa, yolg'onni ham gapirma.

XLI

Qirg'ovulning chin gapirish o'rniga yolg'on gapirib, bir falokat tuzog'iga ilingani, chin so'zni sher yolg'on deb o'ylab, ovozini eshitib, yetib kelmagani va uni balo tuzog'idan xalos etmagani

To'qayda bir yirtqich sher bor edi. Vahshatda osmon sheridek qo'rqmas edi. U bolalari bilan o'ynab, zavqqa to'lganda, chumolilar uning bolasini talab qiynardi. U o'zining ajralmas bu boyligi – farzandini og'ziga tishlab asrar edi.

O'sha to'qayda bir qirg'ovul ham bo'lib, bu yirtqich sherning vahmidan doim qo'rquvda edi. Sher bo'lsa bolasini og'zida tishlab, dam-badam to'qayning goh u yog'iga borardi, goh bu yog'iga. Sho'rlik qush uning tepasida nogahon parr etib uchsa, sher qo'rqqanidan seskanib ketar, bolasiga ham tishi botib ketardi. Tishi bilan o'z bolasini, o'z jigarporasini yarador qilardi.

Doim unga shu g'am ichida g'am, g'am ham emas, motam ustiga motam edi. Bu tashvishdan ko'ngli ozor topib, u qirg'ovul bilan o'rtoq bo'la boshladi. U dedi:

– Mening senga hech qasdim, dushmanligim yo'q. Xotirjam bo'lib, meni o'zingga ishonchli do'st deb bil. Qo'rqishni yig'ishtir, hamdamim, sirdoshim bo'l; aysh va xursandlik vaqtida birga kuylashadiganim bo'l. Men ham sening kuylaringni eshitib, shod bo'lay; nag'malaring bilan qayg'udan ozod bo'lay. Shart shuki, senga bir ziyon yetsa, falak seni hiyla bilan bandga solsa, marhamat qo'lini senga yordam uchun cho'zay, bosh panjam bilan dushmanni yerga barobar qilay. Sadoqat masalasida o'zimni ko'rsatib, seni dushman tuzog'idan xalos aylay.

Sher ko'p sehr bilan o'z fikrini tushuntirishga tirishdi, ham sadoqatli bo'lishga ahd qildi. Oralarida bir-birlariga shunday muhabbat paydo bo'ldiki, bunga osmonning o'zi ham hasad qilardi. Qayerda yirtqich sher dam olib yotsa, atrofida qirg'ovul bemalol uchib yurardi. Sultonning tepasida humo qushi aylanganday, sher boshida qirg'ovul aylanib parvoz qilardi. Sher uning sayrashini eshitib, kuyida yolg'on borligini fahm qilib, der edi:

– Yolg'on gapirma, yomon bo'ladi. To'g'ri odamlar oldida yolg'on qoralanadi.

Qirg'ovul pandni eshitmas, o'zi bilan o'zi mast, ataylab fig'onini hech pasaytirmas edi.

Bir kun bir ovchi uni tutish uchun o'z tuzog'ini yoygan edi, u don bilan suvni ko'rib, uning oldiga borgach, ovchi uning ustiga tuzoqni tortdi. Tuzoqda u baxtsiz qichqirib, bir necha bor: «Dod, meni tutdilar!» – dedi.

Bu so'z sher qulog'iga eshitildi, lekin uning bu ashulasini har galgidek yolg'on deb o'yladi. Bunaqa yolg'onlarni ko'p eshitgani uchun

chin qichqirig'ini ham yolg'on deb gumon qildi. U qancha rostakamiga qichqirmasin, rostini ham yolg'on deb hisobladi. Uni qutqarish uchun iltifot ko'rsatmadi; natijada uning hayoti qirqildi. Kimki beixtiyor rost gapirsa, yolg'on gapirsa ham xalq uni rost deydi.

So'zda, Navoiy, nima desang ham rostini gapir; rostni kuylagan ohanglarga tahsin ayt.

Ey soqiy, yoqimli qadahni olib kel, uning bir qultumi bilan sherni oladigan qil. Bazmning asboblariga tartib ber, six, kabob, tovoqlarni ham hozir et.

XLII

O'N BIRINCHI MAQOLAT

*Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim,
bilimsizlik tunini yoritish uchun «ayn»i quyosh, «lom»i oy, «mim»i
kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'i
ko'rinishi haqidakim, g'afolat chohini pastlik kechasida zohir qilib,
bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz
vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borlig'i boylik,
mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi*

Dunyoning ishi yaratilgandan buyon dushmanlikdan iborat bo'lib, olimlar xor, johillar aziz. Toki jahon zulmni yoqlar ekan, meva yerga tushib, yog'och balandda turadi. Razolat rivojda, bilim ahllari ranj-uqubatda, tosh tog'ning ustidayu boylik yerning tagida bo'ladi, falak fe'li yomon odamni topsa, uni ko'taradi, butun olamni uning hukmiga mute' qilib qo'yadi.

Yomonliqni o'ziga shior qilgan Zuhul sayyorasi moviy rang qo'rg'on gumbazidan joy olgan; yaxshilikni qo'llovchi Mushtariy esa undan quyida. Bu, dunyoning yaxshini yomondan past ko'rishidan. Bu ahvoldan yaxshilarga doim g'amu ozor; bog'da esa gullarga tikanlar hamnafas, o'rtoq. Kimki sadafdek peshonalari tirishgan bo'lsa, u qo'ynini qimmatbaho durlar bilan to'ldiradi. Kimki durdek sof va pok bo'lsa, olmos bilan uning bag'ri chok etiladi. Tog' cho'qqisi qattiq bo'lishga bel bog'lagan sababli uning tig'i oyning yuzini timdalagan. Kimki la'idek gavhari pok bo'lsa, balo tog'lari ostida g'amgin bo'lib yotadi. Otashparast hindu ko'mirdek qorayib ketgan esa-da, u yoqut taxt ustidan joy olgan. Gul bo'lib yongan o't esa eng past yer — kulning ustida.

Kimning asli ham yomon, oyog'i ham xunuk bo'lsa, toj va tovus kabi hurmatda. Kimki o'z chiroyli so'zlari bilan ozod odamlarni ham o'ziga qul qilgan bo'lsa, sayroqi to'tidek bo'ynida zanjir. Boshqalarning bag'rini yorishni maqsad qilib olgan qushlar podshohlarning qo'lida orom olmoqda. Minglab dilkash kuylar kuylagan bulbul kul ichida kuyib xoru zor.

Odamlar Zamzam suvini qancha qiynalib keltirishadi; u esa shisha idishda turgan holda sasib qolgan bo'ladi. Qadahga to'latilgan may

odamni buzuvchi narsadir, lekin ne-ne qizil lablardan u bo'sa oladi. Osmonda quyosh ko'zgudek yarqirab, porlab turadi, bulut esa ko'zguga puflangan hovurdek uni to'sadi. Tun o'z kuli bilan oinaning rangini ochadi, oy yuzi esa shabnam tushishi bilan zanglaydi. Kapalak yengil tabiat xotindek ma'nosiz aylanib-o'rgiladi; tanasidagi rang-barang naqshlar uning ipak kiyimidir. Parvona esa dard bilan tunni qo'riqlaydi; qalbida o't, ustida eski palos.

Bir kambag'al odam ilm istab, o'z shahridan chiqib ketsa, bu qanday og'ir gap. Ahvolining baxtsizligidan oyoq yalang, to'ni yo'g'idan tanasi ham yalang'och. Oyog'ini tikanlar tirnagan, hatto tikan ustiga yana tikan kirgan. Bu hol o'qning uchida temiri bo'lganiga, «xor» so'zining¹ ichida esa alif turganga o'xshaydi. Boshidagi eski sallasi ham kulgulik, tuzoqqa o'xshab boshdan-oyog'i tilingan, yirtiq. U maqsadining qushini shu tuzoqqa ilintirmoqchi, ko'zidan tomgan yosh donalarini don qilmoqchi bo'ladi. Qo'ltig'ida varaq-vara qog'oz va kitobi, tahsil olish uchun u shoshib boradi.

U qushdek, go'yo uchib ketmoqda; qo'ltig'idagi qog'ozlar go'yo uning qanot pati. Muhtojlikdan uning qorni och, ochlik uni ovqatga zor qilib qo'ygan. Kuchsizlikdan gavdasi qamishday bo'lib qolgan; qamish qalamdek tilini chiqarib, tilanchilik qiladi. To o'zining maqsadiga erishgunga qadar yo'l yurib, nima uchrasa yeb, qanoat qiladi. Maqsadi o'zi ko'rmagan bir mamlakatga yetish; u mamlakat uning hatto tushiga ham kirmagan.

U mamlakatda odamlar ko'p, lekin unga hiron do'st yo'q. Ko'z oldidan o'zining shahru diyori o'ta boshlaydi. Ko'cha ham ko'p, uy ham, bozor ham. Lekin u qayoqqa borishini bilmaydi. Musofirlik yuragiga ta'sir qiladi; ko'nglini yolg'izlik ezadi. Ovqatsiz, kechqurungacha aylanib yuradi, oqshom kirgach, bulbul kabi bir burchakka joylashadi. Zaiflikdan hushi o'ziga kelmay, tonggacha ko'ziga uyqu ham kelmaydi.

Tong otgach, madrasa tomon boradi; madrasaning ichidagi yig'inlarga kiradi. Kimga u o'z holini bayon qilsa, u eshitib, hazilga olib, o'zini bilmaganga soladi. Til qoidasidan bir dars saboq olish uchun umr varag'ini havoga uchirganday sarf qiladi. Kunduzi unga na bir maskan topiladi, na kechasiga bir oromgoh tayin. Musofirlikda uning ahvoli yomondan ham yomon; bundan ortiq yomon narsani topishning o'zi qiyin. Uning ahvolini gapirishga til ojiz, uni yozishga qalam tili ham lol.

Shunday g'am va zamon uqubatlarini chekib, o'n-o'n besh yil yelib-yugurib, jonini qiynab, madrasa burchagini g'am bilan obod qilib, tongdan oqshomgacha faryod etib, shu xilda ming mashaqqat chekkan bechoralardan, o'z vatanu mulkidan ovoralardan ba'zisi o'lib, ba'zisi har tomonga ketib, ba'zisi o'z orzusidan voz kechadi. Ba'zilari ozgina narsaga erishish bilan kifoyalanadi; ba'zisi esa o'z ustiga ko'p jafolarni oladi. Oyu yil doirasi aylanib-aylanib, natijada bitta-ikkitagina kamolot egasi yetishadi.

¹ «Xor» so'zining arab yozuvida yozilishi ko'zda tutiladi.

Ilmda bir odam sohibqiron bo'lguncha o'ttiz yilda bir davr kelishi kerak. Uning ko'ngli ilm maskani, ilm dargohi, uning bir qatra vujudi ilm daryosiga aylanadi. Yahudiycha desang yahudiychani biladi, yunoniy desang yunoniyni, suriya tilini desang suriya tilini; hindcha savol bersang, hindcha javob beradi. Ilm uning ko'nglini bir dunyoga aylantirib, bir qatraga butun bir daryoni yashiradi. So'zlarida to'la ma'no; gapni sirli bezaklarga o'rab gapiradi. U qalamining uchidan bir gapni qog'ozga to'kkach, qora siyoh bilan bitilgan u xatda obi hayot ko'rinadi. Yozuvining qoraligi obi hayot suvi bo'ladigan zulmat bo'lsa, uning ma'nosi bu zulmatdagi obi hayotdir. Osmon bilan bog'liq eng qiyin masalalarni ham osonlik bilan yechadi. Abu Ali ibn Sinoning hamma fikrlari unga tushunarli. Qalami xatning barcha xillarini yozishga qodir; ilmlarning hammasi unga ma'lum... Qalami har qanday yozuvni ko'chira olar, ilmlarning barchasidan xabardordir: Din masalalarida jaholat va maqtanchoqlikning dushmani bo'lib, kimsan G'azzoliy bilan Shofiiyga o'xshaydi.

Garchi u falakdan shunday kamolot topgan esa-da, lekin uning boshidagi falokatlari ham bekamu ko'st. Shomdan ertasi tushgacha ovqatlanmaydi, tushlik qilsa, kechqurunga hech narsa yo'q. Qizig'i shuki, uning johil xo'jayini u bilan yomon ko'rishadi, gapi ham yoqimsiz. Uning dinu diyonatida hech bir qoida yo'q, balki unda dinning, diyonatning o'zi yo'q. G'azablanib, ishi hamma narsani yeldek sovurish; o'jarlik qilib, hamma narsani o't kabi kuydirish. U ko'rish sham'ini o'chirish kerak bo'lgan darajada xunuk, aqldan hayoni ketkazadigan darajada tentak. U dunyoda Xudoning yaratgan balosi bo'lib, xulqi va ko'rinishining o'zi buning ikki guvohidir. Uning odati, fe'li, odam o'ldirish, badanidagi har bir tuk o'lim temiridir. Ichida tutunday qorong'ilik, tashida alangaday surbetlik. Pastkashlikda it bilan barobar, balki it uning oldida odam.

Bundan ham ajabrog'i shundaki, shuncha jaholati bilan, jaholatgina emas, razolati bilan charx uni eng yuksak mansab egasi qilib qo'ygan; hamma odamlar va sipohlar unga tobe'. O't kabi hadeb o'jarlik qiladi; to'ni esa zarrin matolardan. U garchi ilondek hammaga zarar yetkazsa ham, o'zi Faridun xazinasidek xazina ustida orom oladi. U o'zi tikonday qancha o'tkir bo'lsa ham, tong yellari uning boshidan gul sochishadi. Odam o'ldirish ishida qilichdek taniqli bo'lsa ham, shoh uning beliga qimmatbaho kamar boylab qo'ygan. Uning dili go'zallarning xolidek qancha qora bo'lsa ham, lekin doim gul yuzida jilva qiladi. Uning yaramasliklari gapirgan bilan ado bo'lmaydi, lekin uning dabdabasi undan ham ortiq.

U odam o'zining fazilati va fasohati bilan mashhur, bunisi esa fe'li va qabohati bilan. Qizig'i shuki, bunisi qancha yuz odamni xor-zor qilib, qanchadan-qancha obro'ga ega bo'lgan. Xalq uni «amir» deb ataydi. U shu nom bilan odamlarni o'z qo'l ostida tutadi. Bunga uning buyurganini qilishi lozim. Olim ham uning eshigida xizmatda. Qara, pastkash nafs shunday farishtasifat odamni la'nati dev oldida xor va zabun etgan.

Bu o'n marta uning oldiga kirishga taraddud qilsa, darvozabon va qorovul uni qo'ymaydi. Biror marta agar uning oldiga kirib qolsa, uning diydorini ko'rish bunga baxt nasib etganday. Bek agar uning hol-ahvolini so'rab, iltifot ko'rsatsa, bu uni ketma-ket duo qilgani qilgan. Duosini tugatib, o'rnidan turib, uyiga jo'nar ekan, uning yerini ham o'padi.

Amir shunday bexud holda o'zinikilar va begonalar bilan munosabatda bo'ladi, odamlarni yig'ib, ularga maqtanchoqlik bilan gap tushuntiradi. Xudo haqi, qara, bu qanday ahvol? Buni ozgina ta'riflash uchun ham til lol. Uning kibru havosini ko'ru buning qashshoqligiga qara!

Ularning o'rtalarida nima gap bo'lishi mumkin? Unisi johil bo'lib, bunisi olim bo'lsa ham, bu olim emas, o'ziga zolimdir. Ilmni kim amalga erishish uchun vosita qilsa, o'zini ham, xalqini ham yo'ldan adashtiradi. Olim agar amal uchun pastkashlik qilsa, ilmi uning bilimsizligiga dalildir. Ilmi bo'lib turib, kim mansabga uchsa, toza terni dengiz suvi bilan teng ko'rgan bo'ladi. Itning maqsadi o'limtik bo'lgandan keyin unga bezakdor yopqichning nima keragi bor? Boshliq bo'lish uchun ilm qozongan pastkash odam najosatni ipak libos bilan yopgan bo'ladi.

Olim agar o'z yo'liga qat'iy amal qilsa, ilmiga qarab ish tutsa, dunyoning harom mollariga ko'z olaytirmasa, o'tkinchi dunyoga tikilib qaramasa, bunday odamni sharaf gavharining koni deb bil, gavhar desang ham, kon desang ham — nima, desang, o'shanga tegishlidir.

Haqiqiy olim o'zi konu, yuz tomoni yana gavhar, o'zi osmonu, har tarafi yulduzlar! Konidagi gavharlarning ham barchasi pok, osmonidagi yulduzlari ham porloq. Kimga shunday baxt nasib bo'lsa, u dunyoga ko'z olaytirmasa, ajablanadigan joyi yo'q.

Egnidagi to'nida yuzta yirtiq bo'lsa ham, gulning to'ni yirtiq-yirtiq ekani ayb emas-ku! Quyoshning yalang'ochligi uning ziynati-ku; bulutdan libos kiyganda esa, hammayoqni qorong'ilik bosadi. Asal qovoqdan nari tursa shirinroq bo'ladi. Mushk ham kiyikning kindigidan ajratilsa, hid beradi. Er kishining sharafi kiyimda emas; dur sadafdan uzoq bo'lsa, bahosi kamaymaydi. Pashshaning ham ust libosi zarrin, ammo uning qo'nadigan joyi o'limtiklarning ustidir.

XLIII

Imom Faxr Roziy bilan sulton Muhammad Xorazmshohning hammomda do'stlik sham'ini yoqqanlari va imomning so'zi bilan sultonning takabburlikdan voz kechgani

Sirdonlar davrasining podshosi, dunyodagi barcha dindorlarning imomi Faxriddin Xorazmni o'ziga oromgoh qilganda, uni ko'rishga Xorazmshoh kelmadi. U so'rab, buning oldiga kelmagandan keyin, ilmning qadr-qimmatini saqlab, bu ham bormadi. Shoh o'z qilmishidan uyalib, pushaymon bo'ldi. Lekin imom bunga parvo qilmadi. Orada ko'p pardali gap-so'zlar o'tdi. O'rtadagi parda esa ko'tarilmagandan so'ng bu gap-so'zdan ne foyda.

Bir kuni imom hammomga tushgan edi. Shoh ham hammomga yo'l oldi. Ular bir-birlari bilan ko'rishib, shoh unga ochilib shunday savol berdi:

– Ey, o'z ilmi bilan elni bahramand etgan, qiyomat ishlaridan bir xabar ber-chi. U kun qanday mashaqqatlar yuz beradi? Har bir kishining ahvoli nima bo'ladi?

Shoh shunday ma'noli savolni bergan edi, kamolot egasi bunga shunday javob berdi:

– Ey qiyomat kunini bilishni orzu qilgan odam, qiyomat haqidagi savolga eng monand joy shu hammomdir. U yerda ham shoh bilan gado bir xil ahvolga tushib, shohu gado barchasi yalang'och yuradi. Amaldorlar, kattalar hammasi senga o'xshab, ichkariga kirgach, boru yo'g'i tashqarida qoladi. Ilmu hunar egalari esa menga o'xshab, nima yiqqan bo'lsa, o'zi bilan olib kiradi, vassalom. Sultonlikdan senga u kuni ko'p foyda yo'q, lekin menga ilmim tufayli yaxshilik ko'p bo'ladi.

Ey Navoiy, ilm, bilki, sening maqsadingdir. Endi ilmni yiqqan ekansan, unga amal qil.

Ey soqiy, doim menga shunday bodadan tutki, imom uni ko'rib, darhol sajdaga bosh qo'ysin. Undan kimki ichsa, Xorazmgina emas, Xorazmshoh ham uning oyog'i ostidagi tuprog' bo'ladi.

XLIV

O'N IKKINCHI MAQOLAT

Qalam uchidagi tilikning rang-barang harakatlari¹ va qalam ahllaridan iborat to'daning turlanuvchanligi haqida; u (qalam) qaysi bir xatni ko'chirishga boshlasa, bu uning nomai a'molining qora bo'lishiga sahabdir, kotibga esa baxtsizlik belgisidir; u qaysi bir harfni tuzatib, qayta yozmoqchi bo'lsa, bu uning yuz sahifasining ham, roqim qog'ozlarining ham oq bo'lishiga sahabdir

Bu qanday bichimi kelishgan, yoqimli narsaki, ovozi ham yaxshi, diqqat bilan quloq solsang arziydi. Uchi ma'noli gaplarga naqshu nigor beradi, mistarining qashlog'ich iplari uning tirnoqlaridir. Uning tuzilishi qushga o'xshab ko'rinadi; tumshug'idan har tomonga ma'noli so'zlarni sochadi. U o'zi nur ustidan vatan qilgan bo'lsa-da, yemishi – qorong'ilik²; oq qog'ozning ustiga mushk sochadi. Uning harakatlari tez va bir me'yorda, lekin uchish uchun unga qanot yetishmaydi, xolos.

Yo'q, uni qush dema, u xushbo'y bir ilon, xushbo'y dema, fusungar ilon. Uning (sahifadan sahifaga) go'zal uchib o'tishlari, qo'l-oyog'ining yashirirligi bunga dalildir. U har tilini chiqarganda, bitta sehr ko'rsatadi. Bunaqa sehrni qaysi bir ilon ko'rsatgan?!

¹ Navoiy «qalam» deganda qamish qalamni ko'zda tutadiki, uning uchi hozirgi ruchkalarniki singari ikkiga tilingan bo'ladi.

² Qorong'ilik – muallif matnida «zulmat». Bunda qora siyoh, tush ko'zda tutiladi.

U ilon ham emas, tilla xazina ustidagi ajdardir. Uning qornida yuz xil ajoyib boylik yashiringan. Og'zidan tutun chiqaradi. Tutuni orasidan chiqqan har bir munchoq bir gavharga o'xshaydi.

U ajdar ham emas, chunki u egri; uni yaxshisi Muso (payg'ambar)ning (sehrli) hassasi deb atay qol. Bo'lmasa, qanday qilib u butun jahon sehrini, hatto uning ma'nosini va ifodalash sehrini ichiga yuta oldi? Tanasining og'irligi ham yo'q darajada; u bu zahmatlarni chekkanda qiynalmaydi! Uni hassa ham dema, balki qalam deb atay qol; uning uchini xatga naqsh bituvchi de.

U dunyoda hamma narsadan oldin yaratilgan. Uning maqtovi – «Qur'on»da ham ketma-ket uchraydi. U Arshning ustidagi Kursidan joy olgan. Kursining ustiga xat yozish uchun taxtacham ham qo'yilgan edi. Taxtachada qanday naqshlar bo'lsa, uni qalam chizgan edi. Uni qalamdan boshqa narsa yozmagan-chizmagan.

Qalam (o'z ishi bilan) shuncha sharafga sazovor bo'lgan ekan, (bu bilan ish qiluvchi) kotiblar ikki xil bo'ladi: maqbul kotiblar va nomaqbul kotiblar. Maqbul va nomaqbulining o'zi ham bir necha xil bo'lib, hammasi xat ko'chirishga istak bildiradi. Ularning biri qozixona kotibidir. Uning ishi g'ayriqonuniy bo'lgan narsalarni qo'llab-quvvatlashdir. Odil guvohni yolg'onchi guvoh deb hisoblab, unga pora olgan deb tuhmat qiladi. Uning mutlaq xoinligi ko'rinib turadi; uning barcha nohaqligi haqiqat kabi ravshan. U qalamning uchini o'tkir qilib chiqaradi; to'g'rilik va insof yuzini yumdalaydi. Yolg'onni isbotlash uchun uzundan-uzoq aybnomalar yozadi; sahifani o'z yuzidek qora qiladi. Barcha xiyonatni diyonat deb biladi, har qanday diyonatga xiyonat etadi. Fisq-fasod, ig'vo qilib, sarvday to'g'ri, savsunday ozod odamlarni ham o'z yo'lga yurgizadi. Pul bermasa, bo'ydoq o'tgan Iso (payg'ambar) ustidan ham nikohida to'qqizta xotini bor, deb yozishdan toymaydi. Pora uchun biron bir bosh uzum beraman desa, jannatga o'xshagan butun bir bog'ni kuydirishi mumkin. Xalifaning qizini hindu bilan nikohlaydi, buning uchun unga ichgani bir kosa suv bo'lsa bo'ldi. Nikoh hujjatini yozish uchun pul talab qiladi: tahsin olish umidida bu hujjat sahifasini bir qancha qaydlar bilan to'ldiradi. Kimki o'z qalamini shu xilda ishlatsa, hilingki, u xatini ham o'z yuzidek qoraytirgan bo'ladi.

Keyingisi hiylagarlikni o'ziga kasb qilib olgan muftidir; uning o'y-fikri hiyla va makrdir. Ko'nglida u qanday egri niyatlarni o'ylagan bo'lsa, bu uning yozgan fatvolarida ham to'g'ri ko'rinib turadi. Jannat hurlariga u ochko'zlik kiyimini kiydiradi; nimaiki «xashan» («xunuk») bo'lsa: uni «hasan» («chiroyli») deb yozib, go'zallashtiradi. Bema'ni ashula aytgan bo'lib, zahar sochadi. Quyoshni sham'ning tubiga yashirishga qodir. Nayrang iplari uning o'ziga zanjir bo'lishi kerak, lekin o'rtada aybdor yo Amr, yo Zayd bo'lib chiqadi¹. «Ha»ning o'rniga «yo'q», xatoning o'rniga savobni yozadi va orqasiga «bu yog'ini Xudo biladi», deb qo'shib qo'yadi. O'zining qilgan ikki gunohi ko'ziga ko'rinmay, o'z gunohiga Xudoni ham sherik qiladi.

¹ Am r va Z a y d — o'zbekcha «Eshmat, Toshmat» degan iboraga to'g'ri keladi.

Bitilgan sahifa bejalgan, muhrlar ham to'lin oyday bekamu ko'st. Lekin unga e'tibor berib chuqurroq qaralsa, asli ma'nosi haqida o'ylab ko'rsang, har bir chiroyli so'zi yuz mashaqqatni bildiradi; har bir gulining ichidan yuzta tikon chiqadi. Undagi har bir sarv va ko'kat o'q va nishtar, sunbul bilan gul tutun va cho'g' bo'lib chiqadi. «Shariat»dagi «ayn» baloning «g'abn»i bo'lib, to'g'ri yozilishiga kelganda, undagi har so'z xato. Kimki sahifani shu xilda bezasa, uning bo'ynini qalamning bo'ynidek uzish kerak!

Yana biri devonxona kotibi bo'lib, dev ham uning ishlariga hayron qoladi. Taqdir unga «amaldor» deb ism qo'ygan. Ushbu amal unga dorni nasib ettirgan. Shu amali tufayli u qadah-qadah may ichadi. Qalamning tovushi unga nayning kuylashiga o'xshab tuyuladi. O'z amaliga mag'rur bo'lib, qalamini kuylatar ekan, nayining ovozi uyni ko'tarib yuborayotganday bo'ladi.

U o'z qalamining uchini siyohga botiradi; siyohi esa tutunga o'xshab butun olamni qoraytiradi. Uning qalami odamlarni kuydirish uchun o'tin. Bu o'tning tutuni esa falakdan ham o'tib ketadi.

Bu ishdan davlatning qo'riqchisi — shoh hexabar: davlatining ustunlari esa poraxo'r bo'lib ketgan. Talonchilarni mamlakatga hokim qilib qo'ygan. Ularning har biri islom uyini buzuvchi dinsizdir. Ular kosibga ham, dehqonga ham barobar zulm qiladilar; kosib, dehqon u yoqda tursin, sultonning o'ziga ham.

Ulardan birontasi qaysi bir viloyatga bormasin, odamlarning uyida, bog'ida hazm quradi. U uyning egasi ichmaydigan mazhabdan bo'lsa ham, uning birinchi talab qiladigan narsasi yaxshi maydir. U uyning qari egasini ichirib mast qilib, uning xotinini xotin topib kelishga yuboradi. O'radagi urug'lik arpasini otiga yegizadi. Uydagi tovuqlarini odamlari tutib eydi. Xullas, o'sha uyga balo keladi, balo emas, balki vabo yog'iladi. Hamma yoqda yig'i, oh, afg'on. Bu bir o'tu, uni yel bilan to'fon olib kelganday.

Kentning arbobi bilan bu bir-ikki zolim birlashadi. Zulmda u xoja bo'lsa, bu ikkisi go'yo uning pahlavonlari. Bir-biri bilan ular shunday do'stki, ko'rgan kishi ularni go'yo mag'iz bilan po'st deyishadi. Davlat molini do'stlariga yashirincha sotishadi. O'n oltinlik narsani bir oltinga o'tkazishadi. Bu haqda tezda hujjat ham tuzishadi. Xalqqa o'zlaricha mayda soliq ham solishadi. Birni besh-o'n deb yozib, hujjat xati tuzishadi. Buning uchun Xudo ularning qo'lini qalamday kessa arziydi.

Natijada bu zulm qiluvchilar boyib, bir qancha zulm chekkanlar barbod bo'ladi. Uning boshi uning qalamining uchidek ikkiga bo'linsin! Gavdasi esa qog'oz osilgandek osilsin! Bu «yaxshilar» sartlar bilan qancha til topsa, ularning yordamchilari turklar bilan ham moslashib keta beradilar.

Bu noma'qbul(kotib)lar bir necha sanoq bo'lgani kabi, ularning maqbullari ham bir necha sanoqdan iborat? Ularning birinchisi gayhar sochuvchi munshidir. U goh maktub yozadi, goh farmon. Maktubidan hijronga asir bo'lganlar shod, nomasi esa maktubidan ham yaxshiroq. Nomasidan kishi o'ziga kerakli so'zlarni topadi, go'yo bunday so'zlarni

gul sahfasiidan bulbul topib o'qiganday. U bitgan sahfani o'qib, so'zga chechan ma'shuqa ham kulib, xursand, xuddi to'ti o'z aksini ko'zguda ko'rganday, (chunki uning yozgan so'zlari) hijronning qora shomida najot tongiday, furqat qorong'iligida esa obi hayotdaydir; u yo'llagan maktub eng yoqimli xushxabardan iborat bo'ladi; farog'atli hayot haqida yozgani zavq-shavq belgisidir. Uning xati zulm vaqtida mazlumlardan uchun bu zulmdan qutulish vositasidir. Bu xatni ko'rganda zolimlar vahimaga tushadi. Bu xat odamlarga nurli quyoshdek foydali, yuksak osmondagi qudratlidir. Yangi oy shaklidagi sarlavha ustiga bosilgan muhr tongning shafaq rangi ustidagi quyoshga o'xshaydi. Shu xildagi uning qanday maktublari bo'lmasin, hammasi, o'ylab qarasang, biri biridan yaxshi.

Kim kitob tuzish yo'lini tanlagan bo'lsa, unga toza durday qimmatbaho narsalar nazm va nasrdir. Bular – hikmatli so'zlar, tarixiy voqealar, hikoyalar, she'r bilan bitilgan turli-tuman maqolatlardan iboratdir. Bunday ajoyib g'azallar jannatning bog'iga o'xshaydi. Uni ajoyib g'azal dema, xushbo'y ohuning bolasi deb ata. Bunda uning qalami gavharlarni qora ipga, xuddi tun ipiga yulduzlarni tizganday tizadi. Unda qog'ozlarning yuzi mahbubaning yuziga, chiziqlar mo'ylabiga, har tomonda sochilib yotgan nuqtalar esa xoliga o'xshab ketadi. Sahifalarning har biri bir gulzordek; atrofidagi chiziqdagi bog'ning devorlariga o'xshaydi. Bu chamandagi atirgullarni tomosha qil. Chamanning paxsa devori oltindan va lojuvarddan. Har qator xat saf-saf gul, sarv va sumanga o'xshash; har ikki misraning orasi go'yo bir dilkash chaman. Bunday so'zlarning har biri bir tup atirgul; ma'nosi esa uning shirin mevasidir. Baytlari xuddi Ka'ba uyining o'zi. Chiroyli ko'rinishi mazmunan Eram bog'iga monand. Agar unda shunday chuqur mazmun bo'lmasa, uni odamlar nima qiladi? Bunday nazmni ko'tarib, qayoqqa ham olib borardi? Kimki bunday varaq va uning tahririga ehtiyot bilan qarar ekan, Xudo uni har qanday yanglish va xatolardan saqlasin!

Bular hammasi (kotiblarning) shoxchalari edi. Asosiy shox deb shundaylarini bilki, qalamining uchi tilini uzun chiqarib, ular «Qur'on» oyatlarini yozishga kirishadi: «Hadisi Sahih» kabi asarlarni tahrir qiladi. Bu o'rinda ular tafsirlarni ham ko'chirishadi. Ularning tahriri bilan birga sharhini ham beradi. «Tazkirat ul-avliyo»ni bitib, «Qissas ul-anbiyo»ni ham ko'chirib, «Ihyo» bilan bir nafas farog'at topadi, bilimsizlik tufayli o'lgan taniga ruh beradi. Goho «Futuhot» ni ko'chirib yozar ekan, uning kushoyishidan yuzlab odamlar o'z murodini topadi. Ko'chirish uchun u go'zal «Kimiyo»ni olar ekan, odamlarning mis qalbi oltinga aylanadi. Yozishga u «Nafahot»ni qabul qilar ekan, do'stlik shabadasi ko'ngullarni shabadalatadi. Qalami «Shavohid»ni ko'chirishga kafil bo'larkan, bu maqsadining amalga oshishiga dalil. Qalam chiqarib, yana bir yozgani «Haqoyiq»; nimaiki ko'chirsa, uning bittasi «Maorif»dir! Bu asarlarga ko'z tashlaganlar ko'ngliga fayz nur sochsin! Ularni ko'chirganlar ruhiga ham fayz yetsin!

¹ Bu o'rinda tilga olingan asarlar hammasi islom dini va tasavvufga doir.

Kimki shu xilda xat ko'chirish bilan mashg'ul bo'lib, sog'liq va husnixat unga yor ekan, Tangri unga shodlik nasib etib, unga xalq xursandchilik xatlarinigina yozdirdin. Qalami doim uning sahifalariga bezak bo'lsin, sahifalaridan xatoni ozaytirsin. U xat yozib, qanday chiziq tortmasin, bundan uning maqsad manziliga yo'l ochilsin.

XLV

Yoqutning¹ husnixat tufayli podshohlar oldida ham, darveshlar oldida ham hurmati ortgani va mamlakat yozuviga hurmat ahlilari o'z belgisini uning bitgan sahifasi bo'yicha tortgani

Fano bog'ining gul tupida o'ltirib shuhrat qozongan kishining gulshani Suhravard edi². U nafsu havo deviga yo'l bermaslik uchun osmonning haqiqat avjidadagi uchar yulduzi bo'lgan edi. Bir kuni u xalifaning saroyi tomon bordi. Bu Haq rahmatining ofatga qarshi borganiga o'xshardi. Hijoz aholisi Ka'baga e'tiqod qilgani singari xalifa Musta'sim ham unga nisbatan ko'p hurmat bildirdi. Uni taxtga chiqarib o'ltirg'izib, so'ng o'zi o'ltirdi. Go'yo quti bittayu gavhar esa ikkita edi, yoki burj³ bittayu ustida ikkita yulduz turganday. Shayx adab bilan so'zlamogda edi, xalifa esa yerga ko'z tikib, jim turardi. Atrofdan ne-ne odamlar oyoq ustida xizmatda, ne-ne odamlargina emas, hatto shahzodalar ham.

Shu payt Shayx odamlarga qaragan edi, ko'ziga Yoqut ko'rinib qoldi. U birdan hayajonlanib, o'rnidan turib ketdi; xalifa hayratlanib, unga shunday xitob qildi:

— Ey, ne-ne tushungan odamlar oyog'ining changi bo'lgan odam, shohlar ham senga qullik qilib, bu bilan faxrlanadilar. Bunday oliy martaba unga qayerdan kelganki, sen unga bu xilda ehtirom ko'rsatmoqdasan?

Shayx dedi:

— Qaysi bir hurmat va martaba Xudo unga bergan hurmat va martabadan yuksak bo'lishi mumkin? Uning ishi doim «Qur'on» ko'chirish bo'lib, hech kim u singari ko'chira olmaydi. U Xudoning so'zlariga ziynat bergani uchun uni hurmat qilish bizga vojibdir.

Tushungan odamlarning boshlig'idan Yoqutni bilgach, shoh unga o'z majlisiga kelib o'ltirishni buyurdi. U qo'li pok odam xatining yaxshiligi sharofatidan mamlakat podshohi bilan hamsuhbatlikka muyassar bo'ldi.

Bilki, Navoiy, nima so'z yozsang ham, Haq so'zidan boshqa so'zga qalam urma.

Ey soqiy, yoqutrang maydan olib kel, limmo-lim qilib quy. U bodani menga tutki, bir totib, kahrabo rangini yoqut rangiga aylantiray.

¹ Yo q u t — arablar orasida shuhrat topgan kotib (1268- y. da vafot etgan). U Bag'dodda abbosiy xalifa Musta'sim davrida yashagan. «Qur'on»ni ko'chirishda yagona hisoblangan.

² Mashhur mutasavvif Shayx Suhravardiy ko'zda tutiladi.

³ B u r j — qadimgi astronomiyada quyoshning yillik harakat doirasidagi o'n ikki nuqta; quyosh har oyda shu nuqtalarning biri atrofida harakat qiladi.

O'N UCHINCHI MAQOLAT

Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqidakim, peshona teri bilan zebo rayhonlarning boshiga gavharlar sohadilar; yuzlarida bulut orasidagi chaqmoqdek kulgi ko'rinib turadi; shahnam to'kilgan chinordek, qo'llari kaftining teri bilan yerga yonboshlagan xas-xashaklarni sug'oradilar; dilining kuyishi chinornikidek rangu ro'yida oshkor

Ey insonlar orasida tong kabi kumush sochishga o'rgangan odam, sening mehri qiyos mehriday umumiydir. Xalq yuziga tong kabi kulib boqasan; elning boshida charx kabi aylanasan. Agar yomg'ir o'rniga tosh yog'sa ham, tog'dek boshingni yashirmay turasan. Yig'inda o'ltirganlar hammasi boshingga tig' ursa ham, sham' kabi hammaning ko'zini yorita berasan. Tig' ko'ksingni qancha chuqur yorib kirsan, sen sadaf singari shuncha ko'p sof dur berasan. Zamondan iching qancha qon yutsan ham mushk kabi muattar bo'y taratib tura berasan. Sendan naf' ko'rganlar duoyi joningni qilib, sha'ningga qarata: «Yer yuzida yashab yursin!» – deydilar¹. Kim bo'lmasin seni «Odamlarning eng yaxshisi» deyishadi². Bu maqtovlarni sen qanday oqlaysan?!

Sen insonlarga foyda yetkazishni o'zingga shior etding; shundan keladigan naf'ni o'zingga yor aylading. Sening xalqqa ko'rsatgan foydang shak-shubhasizdir; lekin bilib qo'yki, bundan o'zingga tegadigan naf' ko'proqdir. Bulut agar dengizga bir tomchi tashlagan bo'lsa, dengiz bu bir qatrani asl durga aylantiradi. Dehqon ko'chatlarni parvarish qilgani uchun ularning ishi unga gul va meva berishdir. Uyning shiftini ustun ko'tarib turadi, lekin shift bo'lmasa, ustunning o'zi ham qulab tushadi. Mahbuba qoshini o'sma qo'yib bezar ekan, bunda o'smaning ko'ngilni olishi qoshga ham bog'liq. Jononning yuzidagi xol qancha yaxshi bo'lmasin, uning asosiy go'zalligi yuzida.

Kimki boshqalarga zarar yetkazishni odat qilsa, bundan elga emas, avvalo o'ziga jabr etgan bo'ladi. Kimki shishani bosib sindirsa, bundan o'zining oyog'i yara bo'lishini o'ylamaydi. O't xashakka tushib, alanga ko'taradi; uni kuydirib bo'lib, o'zi ham o'chadi. Pashsha odamning bo'yniga qo'nib olib, chaqadi, lekin bir shapaloq bilan mahv bo'ladi. Kapalakni tutaman, deb orqasidan chopgan bola bo'rkini yerga urib, bosh yalang qoladi. Boyqushni tepaman deb qaysi qush qasd qilsa ham, tepgan oyog'i to'ppa-to'g'ri tuzoqqa ilinadi. Boy xalqqa zulm qilib, yerga urug' eksa, urug'ni chumoli to'dalari talab ketadi. Kimki osmonga tosh otsa, u tosh bilan o'z boshini yoradi.

¹ Asl nusxada bu ibora arabcha: «Yamqusu fil-arzi».

² Bu ibora ham asl nusxada arabcha: «Xayri nos».

Zararkunandalik yomonlikning belgisidir; harorat olovning tabiatidandir. Kishi baxtsiz bo'lsa ham, baxtli bo'lsa ham bu uning ixtiyorisiz yuz bergan holdir. Mushkni nafa qancha yashirib turmasin, hidi, baribir, uni xalqqa ma'lum qiladi. Kimning tabiatida saxiylik bo'lsa, boyluk va faqirlikning unga farqi yo'q. Xudo bir odamni yaratilishdan pok qilib yaratgan bo'lsa-yu, lekin nopok odamlar uni sevmasa, unga buning ziyoni yo'q. Mevaning mag'zi bo'lgandan keyin uning po'sti ham bo'ladi; odamning dushmani ham bo'ladi, do'sti ham. Jahon yaxshi va yomondan xoli emas, lekin yomon yuzada bo'ladi, yaxshi – yashirin. Chunki yomon ko'p, yaxshi oz deydilar. Muqarrarki, mishmishning yaxshisi ham kam bo'ladi.

Pastkash odamlardan haq so'zni eshitib bo'lmaydi: «Qur'on»ni ham dev tilida o'qib bo'lmaydi. Tagi yomon odam e'tiborga noloyiqdir. U hech qachon yaxshini e'tiborga olmaydi. O'zining yomon fe'lini yaxshi ko'rgan pastkash, muqarrarki, xalq orasidagi yaxshilarni yoqtirmaydi. Odamlarning qilmishlaridan ayb axtargan odamning o'zining aybsiz bo'lishi mumkin emas. Hamma narsaga yomon ko'z yugurtirgan odam asal o'rnida ham zahar ko'radi. Kimning barcha xayollari buzuq bo'lsa, to'g'ri fikrdagi odamlarning hammasiga hasadchi bo'ladi. Unday odam oddiy toshni la'l deb biladi; sadafning har qanday siniqlarini inju hisoblaydi. Oddiy nina unga nayzaning uchi, oddiy arqon esa ilon bo'lib ko'rinadi.

Bunday odam birovning dasturxonida bitta yumaloq patir ko'rsa, uni osmon sahnasida to'lin oy deydi. Odamlarning kaftida paydo bo'lgan qadoqni ko'rsa, hasad qilib, uni qo'lida to'la dur ushlab turibdi deydi. Tun qorong'iligini tong safosi deb, boyqush patini humoning pati deb hisoblaydi. Odamlarning (xursandchilikdan) ichgan mayini qon deb biladi; taajjubki, o'zi ham ichkisi kelib hasrat bilan qon yutadi. Birov yig'lab, ko'zidan dur kabi yosh to'kayotganini ko'rsa, qayg'urib, qildek buralib, kuyib yonadi. Birovning zarhal ayvonini ko'rganda esa o'sha o't bilan o'z kulbasini¹ kuydiradi. Bir odam gul hidlansa, unga tikan sanchilgandek bo'ladi; birov boda ichsa, uning boshi og'riydi. Elga shodlik bo'lsa, uning dardi kuchayadi. Uning joniga mos narsaning o'zi ham daraddir.

Naqd boylukning ofati o'g'ri bo'lganidek, yaxshilar hasadgo'y odamlardan doim ozor topishadi. Gul yuzta husnu latofatga ega, lekin uning muattar hidi qo'ng'izning joniga ofatdir. Iblis tug'ma ko'r kabi Xizrni ko'rmay o'tib ketadi. Kiyimining zumrad rangi unga zaharli ilon bo'lib tuyuladi. Quyosh yorug'lik berib, nur sochib turadi. Ko'rshapalak buni ko'rmasa, kim aybdor?! Tashna elni suv o'limdan saqlab qoladi; o'tga tekkan zamon esa uni o'chiradi.

Jinning joyi biyobondir. Gulshan esa uning ko'ziga zindon bo'lib ko'rinadi. Quyoshning javhari pok yaratilgani uchun bulut uning nurini to'sishga intilsa nima deysan. Porlab turgan gavhar sopol idishning

¹ «K u l b a» – shoir matnida «vayrona» bo'lib, vayrona ikki ma'noga ega: a) vayrona uy, kulha; b) inson vujudi, tanasi.

ostiga tushsa, bundan uning qimmatiga putur yetarmidi. Arabdan chiqqan payg'ambar butun borliqni yoritti. Abu Lahab yuzini qora qilib nima qilardi¹.

Ey payg'ambar so'zi bilangina shod inson, elga zarar yetkazish xavfidan sen doim ozodsen. Xudo osmon toqini yaratganida uning ichida bu o'tkinchi dunyoni ham yaratdi. Davr gulshaniga zebu savlat berib, uning har bir gulini quyosh yorita boshladi. Bu chamanni Xudo yaratayotgan chog'da uning asosiy maqsadi inson gulini yaratish edi. Inson jamoasidagi eng komil odam mashaqqat yukini eng ko'p ko'targan odamdir. Kamolot qozongan odamlarning ham eng komili elchilar podshosi Muhammad payg'ambar edi. Payg'ambarlik quyoshi bilan bu kamolotini, kamolot avjidadagi bu ulug'vorligini sening kechangni yoritish uchun chiroq qildi, sening shon-sharafingga esa maddohlik etdi. Naf' yetkazishni u o'ziga asosiy o'lchov qildi. Ko'rki, bu o'lchov seni odamlarning eng yaxshisiga aylantirdi. Har tasbeh o'girilganda, unga sanoxonlik qilardi; u endi senga maddoh va sanoxon bo'ldi.

Sen shunday buyuk martabaning qadrini bil, shunday ulug' darajaning shukrini qil. Shukr nimasi? Naf' yetkazishni orttir, xayru saxovat kamarini uzun qil. O'zingda ko'p bo'lsa, in'om ber: ko'p bo'lmasa, oz berishdan or qilma. Agar qo'l bilan berib xayr qilish iloji bo'lmasa, til bilan ham naf' yetkazish mumkin. Odamni bir og'iz yaxshi so'z bilan xursand qilish kerak bo'lgan vaqtda unga xazina bersang ham u qaramaydi. So'z bilan el o'limdan najot topadi; so'z bilan o'lik tan qayta tiriladi. So'z bilan dinsizlar musulmon bo'ladi; so'z bilan hayvon deganing insonga aylanishi mumkin. Bir so'z bilan qancha balolar daf' bo'ladi; qancha boylik sochsang ham bunday naf'ga yetishmaydi. Insonga xos konning gavhari, bu – so'zdir; odamzod gulshanining mevasi ham shu so'zdir.

Kishilarning so'z bilan naf' yetkazish qo'lidan kelmasa, loaqal ko'nglidagi andeshasi yaxshi bo'lishi kerak. Ko'ngli odamlarning xursandligidan xursand bo'lishi lozim; ularning ko'ngli noxush bo'lsa, tashvishiga sherik bo'lish kerak. Kimning xalq g'amidan g'ami bo'lmasa, haqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema. Birovning o'limidan sevingan odam yo go'rkov, yo yuvg'uvchi, yoki jallod bo'ladi. Ularning qaysi birini tasavvur etsang ham, tabiatning nafrat bilan to'ladi. Lekin hirov senga yaxshilik qilmoqchi bo'lsa, so'z bilan senga jon bag'ishlamoqchi bo'lsa-yu, lekin gap bilan buni ifodalay olmasa, yaxshilikni tilga olganining o'zi kishi tab'iga osoyish bag'ishlaydi.

Xudo seni shunday nodir qilib, dunyodagi odamlarga naf' keltiruvchi qilib yaratdi. Kimki uning shu amriga mansub bo'lsa, barcha kishilar ko'ngliga ham yoqqan bo'ladi. Ikki dunyoning taxti bilan toji bir tomonu bu bir tomon, bilib qo'y!

¹ «Arabdan chiqqan payg'ambar» – Muhammad ko'zda tutiladi; Abu Lahab esa uning diniga kirmagan, unga qarshilik ko'rsatgan kishidir.

Bu sifatdan yaxshi sifatni topish qiyin. Lekin bundan ham yaxshi bir ish bor. Bu — birovga bir narsa berib, undan olishni odat qilmaslik; naf keltirishu, lekin birovdan naf qidirmaslik; berish ishini doim xotirda saqlab, berib, bir narsa olishni o'ylamaslik. Bulut topganini xalqning ustidan sochdi. Shuning uchun Xudo uni osmonga xo'jayin qilib qo'ydi. Chumoli odamlar sochgan narsani terishga odatlangani uchun uning ishi tiriklay go'rga kirish bo'ldi. Gul o'zining kumush gulbarglarini odamlar ustidan sochgani uchun Xudo unga yangidan-yangi barg, g'uncha ato qiladi. U sochgan narsani shamol olib yiqqani uchun doim darbadar bo'lib, xoru zor. Shisha ham o'zidagi gulobni odamlar yuziga sepgani uchun uni avaylab tokchanning ustida saqlashadi. Supurgining odati ham yig'ish, to'plash bo'lib, uning eshik orqasida xor-zor bo'lib yotishi bunga bir dalildir. Sanamlarning zullari doim mushk tarqatib turgani sababli ular quyoshdek yuzning tepasidan o'rin olganlar. Chin diyorining mushki o'zi qora tuprog'day bir narsa. Sunbul uning isidan is olgani uchun boshog'chiday boshi quyi.

Bundan ham baland yana bir martaba bor. Unga yo'l topish yuksaklik belgisidir. Qanday in'om bo'lmasin uni ochiq yuz bilan berish, achchiq bodani shirin so'z bilan tutish kerak. Saxovat ko'rsatgan kishi muomalada ham xato qilmasa, u bir yo'la ikkita in'om bergan bo'ladi. Tovoqda turgan mevalar dilga yoqsa ham, ammo ustidagi gullar unga qo'shimcha bezakdir. Mahbubaning husni qancha go'zal bo'lmasin, lekin odamlarning ko'nglini u yoqimli muomala bilan oladi. Oltin tojning ziynati bo'lsa ham, ammo uning ustidagi durni hech narsaga taqqoslab bo'lmaydi. Dasturxonidagi xushbo'y taom qancha yaxshi bo'lmasin, ustiga qand sepilsa, yana ham xushroq bo'ladi.

Kimki bunday axloq bilan ish tutar ekan, unga birov jafu qilsa, buning uchun u intiqom olmaydi. Har qanday dilg'ashlikni xursandlikka qabul qiladi, birov qancha jafu qilsa, vafo bilan javob beradi. Bunday odamni insonlarning insoni deb, haqiqiy odamlarning eng yaxshisi deb bil. Uni odamgarchilikni to'la egallagan, yuz kishining odamgarchiligi qo'lidan keladigan deb tushun!

XLVII

Marhamatli Ayyubning bezori o'g'ri egriligini tuzatgani...

Bir kecha hurmatli Ayyub ilohiy sirlar kayfidan mast bo'lib, toat-ibodat qilib, sham'dek ko'zidan yoshlar to'kib o'ltirar edi. U durdek ko'z yoshi dengiziga g'arq bo'lib, kuyib-yonishda sham'ga qo'ldosh edi. Xilvatda bir burchakni o'ziga maskan qilgan, go'yo bir qutichaning ichidan eng toza dur o'rin olgandek edi.

Shu kecha bir kisavur uning uyiga lahm kovlay boshladi. Kechasi bilan u yer ostini o'yib, yo'l qilib chiqqanda, uyda bir odamning boshini ko'rdi. Ayyub ham buni tushunib, indamadi; ibodatda davom etib, buni o'ziga olmadi. O'g'ri esa o'sha teshikning ichidan chiqib,

uydan nima topsa, hammasini to'plab, qanchasini ko'tara oladigan bo'lsa, mo'ljallab, orqasiga mahkam tang'ib bog'ladi. Lahmga kirmoqchi bo'lgan edi, teshik kichkina, yuk esa juda ham katta bo'lganidan unga sig'madi. «Inining torligidan xafa sichqon dumiga g'alvini ham boylab olibdi» (degan gap bor). Uning qiynalib qolganini ko'rib, Ayyub o'rnidan turdi-da, eshikni ochib, unga yo'lni ko'rsatdi.

– Yuking katta bo'lib ketibdi, teshiging esa kichik. Yo'ldan chiqa qol, mana, eshik ochiq.

U qancha gumrohlik ko'rsatgan bo'lsa, shayx unga shu xilda yo'l ko'rsatdi. Kishi birovga shu xilda yo'l ko'rsatgandan keyin, u bunday yo'ldan chetga chiqishi mumkinmi?!

Bu ahvol o'g'rini ojiz qilib qo'ydi, og'ir yuk esa qaddini bukdi. Vujudini bir o't yondirib dard berib, bundan lojuvard osmonning ham isitmasi chiqib ketdi. Yelkasidagi yukni shu o'tga tashlab, o'z vujudining yukini ham kuydirishga tayyor edi. Bu ranju malolatdan muztar bo'ldi, xijolat uni xasdek o'rtantirdi. Na'ra tortib, seldek ko'z yoshi to'kdi; shayxning oyog'iga boshini fido qildi. Shayxning yaxshiligi, gunohini afv etgani tilini lol etdi, marhamatining yuki esa jismini behol qildi.

Shayx marhamat qilib, uning ko'zidagi yoshini artdi, lutf ko'rsatib, boshini yerdan ko'tardi. Uning dardu ahvolini tushunib, faqirlik xirqasini kiyishni tavsiya etdi. Tasavvuf yo'li o'z o'ti bilan uning jonini kuydirib, undan biron nishon ham qo'ymagandek edi. Uning butun borlig'i xasdek shu o'tda kuydi. U shu o'tdan ko'p yorug'lik topdi. Kamolot egasi uni shunday parvarish qilib, bir afv bilan shuncha narsaga ega bo'la oldi.

Navoiy, telbalikni qo'yib, sen ham bir odamning etagini ushlang nima qilardi.

Soqiy, gunohimdan o'tib, qo'limdan tutki, jonim og'zimga kelib, chiqay deb turibdi. Tez bo'l, bir qadah bilan menga kushoyish ber. Umrim Nuh umricha bo'lmasa ham, sabrda Ayyubcha borman.

XLVIII

O'N TO'RTINCHI MAQOLAT

Osmon tuzilishidan shikoyat; uning har biri bir quti bo'lib, har yulduzi pok bir gavhar bo'lib ko'rinadi, ammo u shunday bir quticha hamki, unga zahar, zahar bo'lganda ham o'ldiradigan zahar solingan; jahon qo'g'irchog'i haqida kinoyaki, u chiroyli va kelishgan sho'x bir jononga o'xshah ko'rinadi, ammo o'zi shunday qariyaki, ishi makr va ko'zbo'yamachilik, ko'zbo'yamachiligi esa haddan ortiqdir; u marvarid qutisining zararini yozish uchun qalamning tili lol: bu qariyaning turgan-bitgani zavoldir

Ey ko'ngul, bu charx qo'g'irchoqboz chiqdi-ku! Ey ko'ngul, uning nayrangbozligidan ranjima. Uning nayranglari har qanday taxmin va gumondan ortiq. Nayrangidan ham afsunlari ko'p.

Charx shunday hiyla va nayranglar ko'rsatadiki, go'yo u ko'k xirqa kiyib, tos o'ynayotganday. Yulduzlar uning kiyimidagi jiyaklardan nishon; Somon yo'li esa ustidagi parcha-parcha yamoq.

U quyoshni mash'al qilib, aylangani aylangan; tosidagi o'tni xirqasi bilan yashirib olgan. U o'tni o'z kiyimi orasidan o'tkazadi; tong yoqasidan o't chiqarib ko'rsatadi. To'g'rirog'i, tong kulish uchun og'zini ochib, hiyla bilan og'zidan o'tlar sochadi. Shunday bo'ladiki, u o'tning uchqunlari osmon xirqasi bo'ylab hammayoqqa sochiladi.

Qo'g'irchoqboz kabi bu hiylagar osmon o'z nayrangbozlik chodiridan ming xil suratlari ko'rsatadi. U mixsiz, ustunsiz chodir tikadi; chodirning ko'rinishini doira shaklida qiladi. Unda yulduzlar jilvagar bo'lib, kumush badani bilan yuz xil o'yinlar namoyish etadi. U buncha kumushrang o'yinchoqlar yasab chiqararkan, maqsadi xalqqa hiyla-nayrang yedirishdir. Yo'q, u parixondek tanani ikkiga bo'lib qo'ya qolmadi; tig'i yangi oyga, qoni esa uning atrofidagi shafaqqa o'xshaydi. Uning yulduzlari bunday parixonlik qilish bilan atrofiga yuz ming parini yig'ib olgan.

Yo'q, uni parixon dema, u bir qarigan shum kampirdir. Qaddi ham ayyorlik sifatini ko'rsatish uchun bukilgan. Uning ko'z yoshlari hiyla yulduzlaridir. Yolg'ondakam tongning oqargani — uning boshidir. Nayrang bilan u el qonini to'kadi; aldov bilan jonini oladi. Podshohlarni o'ldirishga, Xusravnigina emas, Farhodni o'ldirishga ham aqli tez ishlaydi.

Masalan, yer yuzidagi bir kelinni u tomosha qilib, makr bilan unga pardozechiligini izhor etadi. Qo'ynida pardozechiligining belgisi oq tong upasiyu quyosh oinasidir. Tong nafasi yangi ochilgan gulni yasatganday, u sho'x go'zalni yasatadi. Yuziga gul bilan elik tortib, egniga sunbul kokillarini taraydi. Lola bilan chehrasini qizil qiladi; lola dog'ini esa chehrasiga xol qilib qo'yadi. Yashil rang bilan qoshiga o'sma tortadi; shabnamni hoshiga ro'mol qilib yopadi. Sarvdan qo'lga surat tutqizadi; suvdan esa unga oina yasaydi. Og'zini g'unchaning orasiga pinhon etib, so'zlaganda shu g'unchani kuldiradi. Chiroyli nargisdan unga ko'z qilib, safsar ra'no tilidan so'zlatadi. Uning nargis ko'zlariga noz va karashmani o'rgatadi; g'amza o'miga o'ynoqilikdan ta'lim beradi. Uni jannatning bog'idek bezatadi; jannatning bog'i emas, Chin qo'g'irchog'idek yasatadi. Xalq orasida uning zeboligini jilva qildirib, hamma tomonga ra'noligini namoyon qiladi. Buncha afsunni unda aks ettirar ekan, buni xalq unga giriftor bo'lishi uchun qiladi. Toki, uni har kim ko'rganda zor bo'lib, ishqining sirtmog'iga muhtalo bo'lsin.

Rustamdek bir azamat u makkor qariyani uchratib, o'sha go'zalga yetishish orzusida g'amga asir bo'lganini izhor etdi, deylik. Qariya o'rtada qo'shmachilik qilib, qo'shmachilik dema, makr-hiyla ko'rsatib, shunday yashirin sehrgarliklarni namoyish qiladiki, natijada ikki toqni juftlashtiradi. Ularning nikohini mahkamlash vaqti kelganda, to'y oldi qaliniga jonining javharini so'rattiradi. Hozir to'y oldi qalini uchun jonini so'ratgan bo'lsa, ertasiga to'ydan keyingi qalin uchun imonini talab qiladi. Ra'nodedek go'zal mahbuba uning yordami bilan

oshig'ini o'ziga ibodat qilishgacha olib keladi. Uning shunday o'zini past tutishini, kamtarligini ko'rib, endi unga pul ham da'vo qila boshlaydi. To'y oldi qaliniga jonini so'rab, keyingi mahrga imonini talab qilib, jonini, imonini olgandan keyin esa, bu dunyo uyidan uni surgun qiladi. Uni bu uydan chiqarib, boshqani kiritadi, yana boshqa bir begona odamni o'ziniki qiladi. Unisiga vafoni tark etgan edi. Bunisiga ham o'sha jafolarni ko'rsata boshlaydi.

Qizig'i shuki, bundaylarning yuzi kelib mingi ketadi; mingtasi ketgandan keyin yuz mingtasi keladi. Kelish-ketish ishlari shu xilda tuzilgan bo'lib, hayot — bazmga kelib-ketishday bir gap. Zamonning ishi shu xilda qurilgan bo'lib, evoh, u doim aylanib turadi. Azaldan oxirigacha shu hol bo'lib, keluvchilarning ham, ketuvchilarning ham son-sanog'i yo'q. Ularning yuzi bo'lsa ham, mingi bo'lsa ham, falak ularni yo'q qiladi. Uning jafolaridan oh, yuz ming oh!

Falak aylanganda ikki chiziq hosil qilib, bu mintaqa va muaddil chiziq-lari ikki belbog'day uning beliga boylangan. Shuni ko'riboq odamlar uning nima maqsadda belining ikki yeridan boylanganini tushunadi. Uning aylanishidan hosil bo'lgan kunduz ham, kechasi ham tunu kun goh pastga tushadi, goh tepaga chiqadi.

Bu mashaqqatdan quyoshning yuzi sarg'aygan; hatto yangi oy ham o'zidan ketib, bexud. Uning yetkazgan g'amidan tong to'nini yirtgan, shom ham motam libosida. Issig'ini ko'targani uchun o't oromsiz, yelni yugurtirgani sababli xor-zor. Suv ham uning dag'dag'asidan jahongashta; qattiq shamoli tuprog'ni changga aylantirgan. Uning qasd qilishi natijasida dengiz zahar rangida, zahar ta'siri uni qayg'uga solgan.

Uning zulmi bilan konning baxti qora; go'yoki ichi laxta-laxta qon bog'laganday. Durga u shuncha ko'p zulmlar qildiki, o'z ahvoliga to'kilgan bir qatra yoshday bo'lib qoldi. Uning nayzasi la'lga shunday ochiq urildiki, natijada yarasidan bir qatra qon chiqardi. Uning g'amidan bulut ahvoli ham chatoq; go'yo o'z dardiga bir qora oh chiqarganday. Undan chashma ham dushmanlik ko'rib, bir ko'z bo'lib qolgan, o'z ahvoliga qayg'urib ko'z yoshi to'kadi.

Bulbul uning hasratidan fig'onda, gul to'ni shu tufayli yuz yeridan chok. Lolada ham yangi dog'lar paydo bo'lgan; ko'z yoshlari esa u dog'larni qonga bo'yagan. Shishaning ko'zidan qonini oqizib, mayining o'tidan odamlarning jonini kuydiradi. Garechi u kishilarning joniga o't solsa ham, shu o'tini ham hammadan baribir qaytib oladi.

Shunga qaramay falak hammaga o'zini do'st tutib, o'zini odamlarning ahvoliga g'amxo'r qilib ko'rsatadi. Bir necha kun odamlarga xursandchilik bag'ishlab, bir necha kun ularning hojatini ravo qiladi. Birovni mansabda Qorun darajasiga, birovni martabada Faridun darajasiga ko'taradi. Uning bu ishlarida ham bir-biriga muvofiqlik yo'q; mingdan bir ishi tahsinga loyiq emas.

Shunday fikr qilginki, bu pastkash charxning aylanishi xuddi g'alvirning aylanishiga o'xshaydi. Olamdagi odamlar, xoh yaxshi bo'lsin,

xoh yomon, hammasiga shu chanbar orasidan joy beradi. Odamlarni u shu ahvolga solib, o'z g'alvirini elagani elagan. Yaxshini yomondan, pokni nopokdan ajratadi. Yaxshisini pastidan ayirgandan keyin ikkovini bir martabada qoldirmaydi. Qaysi biri ko'proq pastkash bo'lsa, o'shani o'z marhamatiga olib, ko'proq boy qildi. Durni oddiy kahrabodan farq etmasdan, durga aloqasi yo'q narsalar bilan durlarni ko'mib yubordi. Jahon gulshanida nargis kabi kaltabin, nodonlar bor edi, ularning bazmlariga xursandchilik hag'ishlab, kumush tabaqlarda oltin qadahlar uzatdi. Tabiati pokiza, behisht gulzorining bezagi deb tushunilgan gulni esa, balo tikanlariga muhtalo qilib, uzdi, sovurdi, yo'qotdi. Rindlar may idishiga g'ilof qiladigan terini xo'tan mushkini saqlaydigan idishga aylantirdi. Qayerda rangdor yaman terisini ko'rsa, yuz joyidan qirqib, undan o'qqa xalta yasadi. Tig'dek odamlarning qonini to'kkanlarning martabasini ko'tarib, shoh yoniga o'tqazdi. O'q kabi to'g'rilar esa undan quyida, o'q o'qdondan bir necha tosh uzoqqa ketgani kabi.

Qizig'i shuki, uni yaxshi desang ham, yomon desang ham, agar birpas vaqtini topsa, ayovsiz xanjarini ishga solib, yaxshiyu yomon bilan barobar jang qiladi. Kimni loyiq ko'rib taxtga o'tqazgan bo'lsa, oxirida baribir taxtaga yotqizib, xafa qiladi. Kimga bir taxta kigizni soyabon qilgan bo'lsa, uni ham o'sha quruq taxtaning ustida uxlatadi. Kimgaki ichib bahra olsin, deb bir jom may tutmasin, oqibatda o'sha mayga zahar ezib qo'shadi. O'sha jomdan may ichmagan, oxirida zaharidan xurush qilmagan kishi dunyoda yo'q. Kimning obro'-e'tiborini ko'tarmasin, uning buyrug'iga butun olamni mute' qilmasin, unga jabr qilib, uni pastlatadi ham, sekin-asta tuproq bilan barobar qiladi ham.

Dunyoda shunday odamlar bor ediki, ular shohlar edilar; mamlakatda adolatning posbonlari edilar. Bu falak ularning birontasini o'ldirmasdan, xoru q qilmasdan qo'ydimi? Boq, Faridun bilan Jamshid qayoqqa ketdi? Eraj, Hushang va Zahhok-chi? Salm, Manuchehr va Navzar qani? Bahmanu Doroyu Iskandar qani? Qani dunyoning hokimi Chingizxon? Qani jahon xoni Temur Ko'ragon? Bu pastkash charx ularning bittasiga ham vafo qilmay, kimni ko'targan bo'lsa, uni yana yerga urdi.

Shuning uchun u bergan davlat va iqbolga shod bo'lma; uning muhabbatiga ham ishonma. Uning hech bir hosili ham yo'q, doimiyligi ham. Ularning hammasidan kech, lekin kechikma. U seni mag'lub etguncha, sen uni oldinroq o'z faqirliging bilan xor qil, mag'lub qil. Qo'lingda bor narsani u olib qo'ymasdan, hammasidan voz kech, qo'lingni tort. Qo'lingda nimang bo'lsa, parokanda qil, o'z qo'ling bilan uni sharmanda et. Quyosh panjasidek qo'lingni och, unda qancha kumush bo'lsa, olamga soch. U sening qo'lingni quritishini bilib, bilganingdan keyin, o'z qo'lingni o'zing qurit.

XLIX

Iskandarning yetti iqlim mamlakatlarini o'z qo'lga kiritgani va bo'sh qo'l bilan bu dunyodan ketish otini ilgari surgani

Hamma iqlimlarni qo'lga kiritgan shoh Iskandar jahon mamlakatining taxtiga ega bo'ldi. U borib olmagan biron yer qolmadi. Biron yer qolmadiki, u bormagan bo'lsin. Dunyodagi hamma yer va suv uning hukmiga o'tib, ho'lu quruq buyrug'ining qavzasiga tushdi. Osmonning ko'k gumbazi ustida xutba o'qib, adolat tamg'alarini (oltin, kumushga emas), yulduzlarga urdi.

Shohlar o'z ixtiyorlari bilan unga qul bo'lishdi; unga qul bo'lish bilan ular faxrlandilar.

U ham shoh edi, ham valiy, ham payg'ambar. Uning tabiati esa donishmandlik bilan rostlangan edi. Uning asl zotida Jamshidlik odatlari bor edi. Oddiy ko'zgu unga jahonni ko'rsatadigan jom bo'lib xizmat qilardi. Yetti qavat osmon hukmronligi unga muyassar, yetti iqlim unga bo'ysungan edi.

Shunday yuksak martabali baxtiyor podshoh bu o'tkinchi dunyodan ko'chini ko'tarmoqchi bo'lib qolganda qiziq bir oqizlik va bechoralik holatini boshidan kechirdi. Oldida qiziq bir ovoralik yuz berdi. Unga na hakimlari yordam qila oldi; na xizmatkorlari, na qullari uning farmonini bajara oldi. Ular barchasi bu yashil bog'da qolib, u bir o'zi qora tuprog'ning ichiga yo'l oldi. Bunday halokat uning ichini o'rtagach, shunday so'zlar bilan u ichini bo'shatdi;

— Shu nafasda men pastga qarab borayapman; shohlik nog'orasi safarga chorlamoqda. Kim o'z or-nomus shartini saqlamoqchi bo'lsa, mening unga shunday vasiyatim bor: vaqtiki pok bo'ston qushi men tomon uchib kelib, poklik ayvoniga borishimni eslatgan chog'da, oh tortib, olamni qorong'i qilib, tobutdan menga uxlash uchun joy hozirlab, yo'limni qabr tomon boshlar ekansizlar, bir qo'limni tobutning yonidan chiqarib qo'yinglar. Kishilar tobutga nazar solar ekanlar, ibrat yuzasidan shu qo'lga qarasinlar. Bilsinlarkim, yetti o'lka podshosi, yetti osmon mushkullaridan xabardor odam, endi jismida jon yo'q, bu makondan, bu jahondan bo'sh qo'l bilan ketmoqda. Kimki jahon mamlakatini havas qilsa, ushbu qo'l unga yetarli tajribadir.

Ey Navoiy, bu jahondan, jahondangina emas, jonning javharidan ham qo'lingni tort.

Ey soqiy, dilim orzusi — mastlikdir. Lekin qo'limning quruqligi bunga mone'lik qilmoqda. Marhamat qilib, qo'limga may javharidan ber! May nimasi? Iskandar oinasini ber!

O'N BESHINCHI MAQOLAT

Jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqidakim, yaxshilik xirqalari gunohkorlik qo'ldan yirtiq; may jaholatining bosh og'riq odamlari to'g'risidakim, ularning har biri mayxona eshigida mastlik va heboshlik bilan yuradi va qiyshaygan mayxona ularning nazarida Jamshidning taxtiga o'xshaydi, siniq piyola esa o'zida jahonni ko'rsatadigan jomga va pushaymonlik ko'zyoshlari yomg'iri gunoh shu'lasini o'chiradi va tavbaning chaqmog'idan chiqqan o'tlar osiylik xirmonini kuydirgusidir

Ey, jomga hamdam bo'lib quvongan odam, ishing jaholat xumoridan mastlik. Bunday aysh senga doimiy bo'ldi, hech kamaymadi. Dardu fikring jaholat jomi. Boda ichingda xumda qaynaganday jo'sh uradi. Bu qaynashdan har doim ko'nglingda ham xuruj. May vujudingdagi mag'rurlikni kuchaytiradi. Lekin sen ko'p singari o'zingdan o'tgan sirni, o'z ahvolingni tushunmaysan. Og'zingni fisqu fujurning qo'li ochadi. G'afolat mayini ichib olib, og'zingdan xum kabi ko'piklar sochasan. Na senga o'lish g'amidan motam, na rizqu nasibang tugashidan tashvish! Ajalning muhtasibi kelib qolsa nima qilasan? Uni daf' etish uchun qanday tadbir qo'llaysan? Jafo toshi bilan qani endi u bu xumga qarab bir ursa, uni bo'lak-bo'lak qilib, sindirib tashlasa! Jismingga dog'lar qo'yib kuydirib, ichayotgan mayingni qora tuproqqa to'kib tashlasa! Sopol idishingni chil-chil qilganidek, la'lga o'xshagan mayingni yer qoniga aylantirsa!

Bu behisob ichayotgan jaholat maylaring uchun bir kun kelib, albatta, hisob berasan. Sening bu mastliging necha yil, necha oy davom etishi mumkin? Oyda, yilda bir marta mast bo'lmasdan hushyor ham yur!

Mast odamning hamma harakatlari bema'ni bo'lib, ko'chadagi bolalarga masxaradir. Ko'chaning boshida u jinni ko'rinishi bilan bolalar unga tosh yog'dira boshlaydilar. U piyoladagi mayni oxirigacha ichib, mast bo'lib, ko'chaga mayxonadan chiqib keladi. Peshonasi tomlarga urilib, qonagan, boshidagi sallasi yoyilgan, chuvalgan. Yomon itdek odamlarga o'z-o'zidan hamla qiladi. Uni shunchaki yomon it emas, qopadigan it desa ham bo'ladi.

Badanida mastlik dam-badam g'olib kelib, o'zini boshqara olmay, boshi og'gan tomonga ketib qoladi. Yo'lda uchragan yomg'ir suvini ko'rsa, may deb ichadi; soy toshi uchrasa uni gulday otib yuboradi. Otgan toshidan bolalar goh atrofga tirqirab qochadi, goh yana bu mast-alastning boshiga to'planib o'ynashadi. U bo'lsa goh yiqilib, goh har zamonda turib, mastlik bilan qo'lini har narsaga uradi. Shunday qilib, u ketma-ket yiqilib, turib, yiqilib turib, oxirida shunday yiqiladiki, may ustidan bosib tushadi. May uning ahvolini chatog qilgan bo'lsa, qusuq uning soqollarini bulg'aydi. Bo'zchining

tarog'idagi ohordek, halki qarg'a patidagi iflosdek, qusuq uning soqolini obdan harom qiladi. It esa yalab, uni yana tozalab qo'yadi.

Mastlik uyqusi tarqagandan keyin, ko'zini ochib, yana ichishga beriladi. Boshidagi sallasini ham topa olmay qoladi. Belidagi pulini ham yo'qotadi. O'likdan kafanini shilib olganday, to'nini ham yo'lto'sarlar yechib olishgan. Yo'lda pichog'ini ham olishib, qinining o'zini qoldirishgan; kavushining ham bittasi bor, ikkinchisi tushib qolgan. To'nining¹ etagi balchiq, oldi ho'l, oldi ho'lu, ammo oldida ko'l ham paydo bo'lgan.

U o'z uyini qancha qidirmasin, shu uzun ko'chadan boshqa uyni topa olmaydi. Vujudiga titroq kelib, qaltiratadi; og'zida hech ta'm yo'q, bemaza. Qo'lini mahkam qo'ltig'iga tiqib, qancha qidirsam ham uyining yo'lini topa olmaydi. To'nini o'g'ri yechib olgani yetmaganday, qolgan hamma narsalarini ko'cha qorovuli tortib oladi. Tushsang, bu o'q tekkan odamni tuzatish uchun uning yarasini kesib, ichidan o'qni sug'urib olganga o'xshaydi. Boshi aylanib, ko'ngli ham ozib, qulog'ini yelkasiga qo'yib berkitishga harakat qiladi.

Shu xilda u har tomonga borib-kelib, qara, ne shakl, ne qiyofaga kirdi! Unga ichish ham bir bo'ldi, shuncha azob-uqubat tortish ham. Buni xumor dema, yuz balo degin: ular hammasi bir bo'lib, uni o'ziga muhtalo qilgan. Uning o'ziga o'zi qasd qilishini tomosha qil; o'z joniga o'zi zulm qilishiga bir qara.

Bular o'zi hammasi hiri biridan qiziq ishlar... Bundan ham qizig'i yana shuki, u o'zining bu ishlarini oddiy mastlik, shunchaki bir rindlik, qalandarlik, beboshlik deb xayol qiladi. Bu ishlarning hech biri ko'ngliga og'ir botmaydi; xijolat tortib, o'lmaydi ham. Shuncha qabohat unga ta'sir etmaydi; bu qabohatlarning hammasini joyiz deb biladi.

Ha, shum kampirning qizi qancha xunuk bo'lsa ham, uning ko'ziga behishtdagi hur bo'lib ko'rinadi. Qobiliyatsiz shoirga: «Nima deyapti?» deb yurma deyman. Nima be'mani gap gapirsa, uning o'ziga sehr bo'lib tuyuladi. It qozondagi oshga tilini tekkizgani uchun yuz qoralik belgisi sifatida yuzi qizil bo'ldi. Kimki odam o'ldirib, jallod nomini olgan bo'lsa, u o'z o'g'lini o'ldirsa ham xursand bo'la beradi. Go'ngning isidan ko'ngli ochilmasa, qora qo'ng'iz uni yumalatib yurmas edi. Kimki ko'mir sotishni bo'yniga olgan bo'lsa, yuzi qora bo'lganidan or qilmaydi. Boyqush obod yerlarda xafa bo'lib o'ltiradi; vayrona burchaklarda esa tovusdek tovlanadi. May inson tanasini xarob qilsa, ajablanish kerakmi? Sel uylarni buzib olib ketsa, hayron bo'lishga o'rin yo'q!

Sel uylarni yiqitib, odamlarni bewatan qiladi; sel halo seli bo'lib, uylar vayrona bo'lsa, odamni mast qilib yiqitish ichkilikning xususiyatidir. Uning jism uyiga u, bilki, halo selidir. Uni jism uyi

¹ Bundan bir hayt oldinda shoir mastning to'nini yo'lto'sarlar yechib olganini aytgan edi. Aftidan, shoir uning ikki qabat to'n kiyganini ko'zda tutayotgan bo'lsa kerak.

dema, jon uyi de, jon uyi ham dema, imon uyi de. Har tomondan tug'yon qilib kelgan selga shoh uyi ham bir, darvesh uyi ham.

Kim bemazalik qilib bodani icha bersa, uning aql chirog'i xiralashadi. Agar chiroqning alangasiga bir qatra suv tomsa, uyda yorug'lik bo'lishidan qo'lingni yuvasan. Aql chirog'i qanday chiroqki, kishi kechasiyu kunduzi uning ustidan may suvini jom-jom quyadi. Mash'alning aylanasi ustiga ham bir kosa suv quysang, u o'chadi. Mana, chiroqning ahvoli. Suv bilan mash'alning o'ti ham xiralashadi; mash'alning o'ti u yoqda tursin, manqalning o'ti ham. Manqalni qo'y, ko'ra bo'ladimi, tandir bo'ladimi, baribir, unga suv tekkandan keyin, unda na issiq qoladi, na nur. Majusiy o'txonaga suv quysa bir nafasda sandal daraxtining o'tini obnusga aylanadi.

Kimki shu suvdan o'ziga xursandchilik hosil qilmoqchi bo'lsa, uning uyini qorong'ilik bossa ajab emas. Demak, uni suv dema, u shunaqangi bir o'tki, yetti osmon xirmonini kuydiradi. Osmonni kuydirishga qodir bo'lgan bu shu'la xas-xashakka tushsa, undan nima qoladi?

Ey inson, vujuding uyi xuddi shu xashakning o'zidir; zaif taning bir hovuch tuproq. Bu xashakka qachongacha o't qo'lasan? Bu tuproqni qachongacha sovurasan? Ichkilik ham dard o'ti, ham afsus suvidir; yo'q, u do'zax o'ti, ham to'fon suvidir. Bu o'tni o'z vujudingning xas-xashagiga urma; bu suvni bir hovuch tuprog'ingga quyma. U garchi suvdek tiniq, yaxshisi bo'lsa ham, lekin uning suvligidan o'tligi ortiqdir. Har qanday suv qaynab turganda, ko'rinishi suvdir, lekin uning kuydirishini o'tnikiga solishtirib bo'lmaydi. O'tga kishi qancha qo'l ursa ham, unga qo'l tekkan bilan, qo'l kuymaydi. Kimki qo'lini qaynagan suvga tiqsa, qo'li unga tegishi bilan o'ldiradi.

Xullas, uning o'ti o'tu suvi ham o't, rangi o'tu jozibali yolqini ham o't. Kimki bu to'rt o't ichiga tushib asir bo'lsa, chaqmoq chaqqan joyda ipak to'qimaday yonadi. Qaysi hadanda bu to'rt o't yonsa, uning issig'idan badanidagi to'rt unsur ham o'rtanadi. Bu o'tda to'rt unsurgina yonib, yo'q bo'lib ketmaydi, aqlu his, dinu islom ham yo'qoladi.

O'tga shunday issiq berish xususiyati xos ekan, uning yomonligini qaysi suv daf' eta oladi? Yashinni to'fon suvi ham pasaytira olmaydi; gulning o'tini bahor suvi o'chira olmaydi. Bu o'tning joniga ofat bo'ladigan suv tavba vaqtida afsus-nadomat ko'z yoshlarini to'kishdir. Shunday ko'z yoshi oqib turgan vaqtdagina bu o't daf' bo'ladi, bu o'tgina emas, yo'q, hatto do'zax o'ti ham. Kishi bunday qatrani qayerdan topadi? O'zi bir qatra bo'lsa ham, naf'i daryocha-ku! Kimki o'z gunohlariga pushaymon bo'lib, ko'z yoshi to'ksa; uning har qatra ko'z yoshi maqsadiga yetishi uchun gavhardir. Bulutdek hayo bilan ko'z yosh to'kar ekan, uning har bir qatrası durning aslidir. Birovni maqlab, majburan tavba qildirilsa, buni tavba deb tushunma: birovning tavba qilishga aqli yetmasa, «Qur'on»ni o'rtaga qo'yib, shartlashishni ham; yoki birov mast bo'lib to'polon ko'targanda,

qasam ichtirib, uni bu ishdan qaytarishni ham. Bular hammasi taqdir o'ti oldida bir xasdir. Bular tavba hisobida ham emas. Kimki taqdirning qo'lida beixtiyor tavba qilar ekan, unda ixtiyor bormi!

Tavba, bu – o'z aybidan xabardor bo'lishdir, oldida turgan yo'lning xavfliligini tushunishdir; yoki yo'ldan adashib qolgan vaqtda, bu ahvolga o'zining aybdorligidan ogoh bo'lishdir. U, bilsaki, Xudo hamma vaqt hozir, nima qilsang, hammasiga nozir, uning ko'nglini pushaymonlik o'ti yondirsa, jonini xijolat o'ti kuydirsa, shu holatda u tafakkur qilib, o'z qilmishlariga nafrat bildirsa, shunda unga yana Ilohiy lutf etib, bitmas-tuganmas jozibaga erishib, Xudo uni o'zligidan judo qiladi, o'z holiga mutlaq qo'yib qo'ymaydi. Shunda u «Ilohiy tavba» bilan zafar topsa, bunday tavba haqiqiy tavba hisoblanadi.

Xudoning o'zi shunday karam qilmasa, odam nima qila oladi? O'zligi bilan uning qo'lidan nima keladi? G'oyibdan ilhom kelmasa, tavba tavba emas. Kishi o'z aybidan o'zi qutula olmaydi. Odam o'z ixtiyori bilan gunoh qilmaydi. Bu gunohning tavbasi ham unga ma'lum emas. Xudodan amr bo'lib, u tavba qilsa, bu – chindir. Bu tavbani Xudoning o'zi saqlamasa, bandasi sindirishi ham mumkin. Tavba qilish uchun Xudo kimga tavfiq bergan bo'lsa, uning tavbasi sinmaydigan, haqiqiy tavbadir. O'zlik bilan qilingan tavba buzilishi mumkin bo'lgan tavbadir. Ilohiy tavba qilishdan kel, shundan gapir.

LI

*Bani Isroiliyi Rindning manmanlikdan tavbasi tufayli
xonadonning yuksalishi, qasamning qof toshlaridan falakka
chiqqani va may seli u binoni yiqitgani*

Rindi Bani Isroili degan bo'lib, may deb mayxonalarda tilanchilik qilardi. May uning hayotining ozig'i bo'lib, xalq orasida Maymana ismi bilan tanilgan edi. Gavidasi ko'zacha yashashga nuqsonsiz bo'lganidek, o'zining Rind degan ismi mayga berilganligini bildirardi. Mayxonadagi odamlarning ichayotgan idishini tortib olib, tagida qolgan bir qultumini ichib yuborardi. Tagida qolgan may quyqasidan bir yutum tegmay qolsa, o'sha zahoti musibat yuz berardi.

U ko'p tavba qilar, lekin tavbasini sindirar, ko'nglini tavba qilishdan tindirgan ham bo'lardi.

Tavba qilishda bunday nuqsонlarga yo'l qo'yishi oshkor bo'lgach esa, endi tavba qilganidan pushaymon bo'lardi.

Bir kuni ertalab (kecha) ichganidan beqaror bo'lib turgan edi, mehribonlik eshigidan kushoyish yuz berdi. Hotif (g'oyibdan) ovoz qilib: «Ey mahmadona, endi tavba qil, buning vaqti keldi! Sen so'raganingda bizga (yuqoridan) rizolik bo'lmagan edi. Rozilik bo'lmaganidan so'ng qazo hukmi ham bo'lmaydi. Biz tomonimizdan (yana) talab qo'yilgan edi. Endi yaqinroq kelki, xursandchilik pallasi yuz berdi».

Rind ichiga shavq nuri tushib, tanasiga ko'zyoshlari shavq girdobidek ta'sir ko'rsatdi. Shundan keyin uning ulushi huzur va safo bo'lib, tavba esa uning ko'ngliga nur hamda xursandchilik sola boshladi.

Yillar davomida nimalarni tilab, yolborgan bo'lsa, bir damda barchasiga musharraf bo'ldi. Tavbaga qarab o'zi yuz o'girgan edi, tavbasi shisha kabi shikast topdi.

Shu ravishda Haq uni tavbaga mahram etib, Iskandar devoridek mahkam ham qildi.

Tavba o'zingdan yuzaga kelgan bo'lsa, ancha sust bo'lib, Allohdan kelgan tavba esa shunday mustahkam bo'lgusidir.

Gunohlar Navoiyni ham ko'p qayg'uga solib, tashvishlantirdi. Ey Xudo, o'zing tavba qildirib, qabulini ham o'zing amalga oshirgaysen!

Ey soqiy, qadahni keltir-da, tez bizga tut! Ahdning boshini va tavbaning oyog'ini sindir! Uzr aysam, yiqitib, tomog'imga quy, lekin quyganda ham ko'kragimning ustiga chiqib turib quy!

LII

O'N OLTINCHI MAQOLAT

Xunasasifat oliftalarning dunyo zeh-ziyinati, deb hiylakorlik ko'rsatishlari va jonfido muhabbat egalarining dindan quvvat olib, boshni tik tutib yurishlari; g'azavot maydonining kengligi vasfidakim, mard bilan nomardning shu yerda bir-biridan farqi ko'rinadi; shahidlik qoni ta'rifidakim, bu gunoh tutunidan yuzi qora bo'lganlarning yuzini qizil qiladi

U shundayki, o'zini juda botir ko'rsatib, otini shijoat maydonida ilgari suradi, hatto Rustamni ham nazariga ilmaydi.

U o'zini shunday katta tutadiki, go'yo uning boshidan osmongacha bo'lgan masofa to'rt enlikday. Oti yo'rg'alab borarkan, uning gavdasi tog'day bo'lib ko'rinadi; uni minib yo'l bosayotgan egasi qoplonga o'xshaydi. Kibr uning xalq bilan muomalasini yuzaki qilib qo'ygan; u zulm cho'qqisida xuddi qoplondak o'ltiradi. Qoplon singari it go'shti bilan ovqatlanadi; uning takabburligidan kibr shamoli esadi.

U achchig'i chiqib, qoshini chimirganidan pastkash osmon toqini sindirguday bo'ladi. Kibrdan qoshining hamma tomonidan chimirilgan, kallasidan esa boshqacha bir shaytonlik joy olgan. Uning ikki qulog'ida zirak osilib turganday, har bir qoshining uchidagi chimirilishdan uning manmanligi ko'rinib turadi.

Bular hammasi uni hurmat qilishga majbur etadi, lekin — bu hurmat emas, bid'at va haromdir. Halqasi ko'cha iti bo'ynidagi tasmani qochiradi; uni halqa dema, la'nat tavqi de. Zulmda uning Zahhokka o'xshashligi bilinib turadi; yelkasida esa ikki ilon halqa bo'lib yotibdi. U o'zining shariatga xilofligini ko'rsatib, doim yuzidagi soqolini tarashlab yuradi. U doim bid'at bilan shug'ullangani uchun soqoli ham tagidan qirqib tashlashga loyiq.

U zulm o'qini uchirganda, o'qning uchini o'z yuzi bilan egovlaydi. Ikki mo'ylabining qillari har tomonga g'ulu soladi; undan orzu-havas qushlariga tuzoq yasash mumkin. Og'zi teskari so'zdan boshqani demaydi; turgan-bitgani odamlarga ta'na va lofdan iborat. Uning yuzini to'sib turgan soqoli olingach, basharasi nuqul bujurdan iborat ekani ko'rinib qoladi.

Uning boshidagi jig'asi jilva qilib turarkan, pati uning kallasidan dini uchirishga xizmat etadi. Bu jig'a unga la'nati iblisdan qolgan bo'lsa ham uni Jabrail qanoti deb ataydi. Undagi patlar boyqushning boshidan sug'urib olinganu, nomini «tovusning toji», deb atashadi. Sallasining uchi bo'yniga tegib turibdi; yo'q, tegib turgani yo'q, yurgan sari gardaniga urilib turibdi. Bo'rkining uchini ichkarisiga bukib qo'ygan; u hirsu havo qushlariga uyadir.

To'ni ipakdan bo'lmasa, ko'ngli g'amgin; xitoy matoidan bo'lmasa, qoshi chimirilgan. Yuz dastro'molchasining ham zarbofdan bo'lishini istaydi; uning chetlariga tilla suvi bilan hajv bitish kerak. Oddiy ipakdan hatto libos tiktirmaydi; bunday matodan to'n emas, ko'rpa qildiradi. Orzu-havas deb yupqa bo'zdan ko'ylak tiktiradi; yupqaligi pashshaning qanotiga o'xshaydi. Pashshaning qanoti ham emas, xuddi shabnamday; ich ko'ylagi ham yupqa ipdan. Beliga boylangan belbog'ining iplari ham zardan. Chiroyli bo'lsin deb ichidan ham shunaqa belbog' boylab olgan.

Ro'moli ham zar tikilgan ipakdan; tikuvchi unga o'z jonini qo'shib tikkan. To'ning ustidan oltin chiziqlar tortilgan; hatto etigining na'li ham zarhallangan. Otining ustiga urgan egari zarlangan; hatto uning yuganiga ham gavharlar qadalgan. Ko'ngli yengsiz ajoyib-g'aroyib chakmon kiyishni istab, rangini qizil qilib, dolu guliga qo'yib tiktirgan.

Shunchadan-shuncha oliftagarchiliklar bilan, oliftagarchilik emas, qabohatlar bilan dev jamolini paridek yasatadi; tikanni yangi ochilgan gulbarglar bilan bezaydi. Go'zal ra'no kabi jilva qilib, qizil yuzli mahjubadek boda ichadi. Boda miyasiga ta'sir etgandan keyin tinimsiz bema'ni gaplarni gapira boshlaydi.

Uning oldida bir qancha iflos va buzuqlar yuradi. Ularning birontasida na aql bor, na idrok, na his. Ular gulxan atrofidagi yuzlarcha haromxo'r zog'larga yoki zog' atrofidagi o'limtikxo'rlarga o'xshaydilar. U gapga tushunadigandek, hadeb unga gap uqtirishadi; hisobsiz, o'Ichovsiz xushomadlar qilishadi. U g'avg'o qiladi, atrofidagilar baqirib-chaqirishadi, go'yo o'zi o'rtada devu atrofida shayton to'dasi. Biri uni «Begim!» degan, boshqasi «Mirzo!» degan; xulqini yaxshi deb, hasnini chiroyli deb maqtagan.

Ularga barcha masvolik yetmaganday, ichkiliksiz bir nafas ham tura olmaydilar. Ichkilik unga ilonning zahariday zarur; ovqat o'rniga ilonning go'shtini ham yeyaberadi. Yeyish-ichishi hammasi harom-harish; shu xil yeyish-ichish bilan o'zini parvarish qiladi.

Ikki piyola mayni to'latib ichib olgandan keyin, lof urib, har damda bir dushman safini parchalayotgan bo'ladi. U go'yo tog'u,

ayovsiz qilich chopmoqda; qilichi oyning temir qalpog'iga ham borib tegmoqda; gurzisi Bahromning boshini yanchmoqda; nayzasi uning gavdasiga sanchilmoqda; uning oldida filning pashshacha kuch-qudrati yo'q. Ajdaho esa uning ko'ziga bir ola-bula chilvir.

Uning folbinlik kitobi oldida yo'lbars oddiy bir suv qurti-yu, nahang oddiy bir ilon; momaqaldiraq uning o'z bazmida chalinayotgan nog'ora ovozi-yu, chaqmoq kabobining o'tidan sachragan uchqun.

Bu zolimning zulm va shafqatsizligi shunchaki, buncha zulm va shafqatsizlikni kishi kofirlarda ham ko'rmagan. U shundog'ki, namozga bosh egmaydi; Xudoga yolborish xayolida ham yo'q. Unga butun mamlakat, sipoh, hatto podshoh minnatdorchilik bildirishini xohlaydi. U yolg'iz shohga deb o'ylama, butun borliqqa minnat qiladi. U bechora shohga qancha yolg'onlarni gapirib, go'yo unga toju taxtni men olib berganman, demoqchi bo'ladi.

Menga yuz ming beribdi. Yuz, ikki yuz ming menga loyiqmi? Yuz kishining rashki keladigan askarim, ming yigitim o'tlanadigan o'lkalirim bo'lishi kerakmasmi? Agar mening ahvolim shunaqa yomon bo'laveradigan bo'lsa, bu shoh bo'lmasa, boshqa mamlakat, boshqa shoh topganim bo'lsin! — deb u ta'na ham qiladi. U qancha qichqirib, behuda gaplarni gapiradi. Odamlari ham har tomonda uni quvvatlab turishadi.

Buncha manmanlik, kibr-havo unda sitamgar nafsi tufayli yuz bergan. Uning uchun urush bo'lsa, osmon yuzi qora chang bilan qoplansa, ikki taraf bir-biriga qarshi o'tkir qilichlarini yalang'ochlasa, jahon xalqi orasida g'avg'o ko'tarilsa, uning tig'i odamlarning yuragini yorsa, dushmanning boshini gurzisiga g'ilof qilsa, yigitlarning ishi o'z hunarini namoyish qilsa.

U ham bu ishlarga qo'l urgan bo'ladi. Lekin undagi necha ming odamlar ham bir bo'lsa-yu, bu ham bir bo'lsa. Ozu ko'pni beradigan Tangri bo'lgandan keyin, zafarni kimga bersa ham Xudo beradi. Shohning Xudoga niyati to'g'ri ekan, nega endi u odamlarning va sipohning minnatini ko'tarishi kerak?

Xullaski, bir johil, pastkash, yaramas, o'ziga yuqori amal istab, shuncha tirishqoqlik ko'rsatadi. Agar shoh uning minnatiga iltifot ko'rsatsa, Xudoning marhamati haqi, unga yuz ming uyatdir. Bir kishi yuz ming kishilik safda turgan bo'lsa, Rustami Doston bo'lsa ham, u hamma bilan tengdir. Bir odam ikkita Rustamning ishini qilganda ham bir kishi oxir-oqibat bir kishidir.

Ey takabburlik natijasida xarob bo'lgan odam, yolg'on tasavvurlar seni kibr yo'lga soldi. Gev bilan Rustamni¹ yengsang ham, haqiqiy mardlikni egallagan bo'lsang ham, bunday tasavvur va o'ylarni, nafsu havoga oid nima bo'lsa, hammasini ko'nglung uyidan chiqarib tashla, hatto fano o'tida kuydirib tashla!..

¹ G e v, R u s t a m — qadim Eron qahramonlik dostoni qahramonlari nomi. Ular Firdavsiy «Shohnoma»sida ham tasvirlangan.

Shariatga xilof nimaiki bo'lsa, u eng toza sharbat bo'lgan taqdirda ham, uni sen to'kib tashlamog'ing zarur.

Hirs va havas to'nini yirtib tashlab, tanni Allohga rozilik chashmasida pok etib, egningga dinimiz yo'lidagi kiyimni tashlab, ustingga esa jangchilik libosini kiygaysen.

O'zingni g'azavot urushiga shay qilib, belingni jangga mustahkam tutmog'ing kerak.

Agar sening ko'nglingda himmating bo'lsa, asl zotingda jur'at bilan do'st bo'lsang, Haq yo'lga boshingni tikib, jon cheksang, imkonning boricha qiyinchilikni torta bilsang, Tangri uchun qoningni to'ka olsang, o'z joning ustiga Uning minnatini, yaxshiligini qo'ygan bo'lasan.

Ey, bu saodatga yetishgan kimsa, bu hol sendagi shahodatga erishish imkoni demakdir.

Tur-da, bu yo'lni hosib o'tishda mardonalik ko'rsat! Joning yuzta bo'lganda ham shukronalik qil! Jisming to'shi shu yo'rtishda marraga yetishar ekan, buni sen baxt gulshanining qushi, deb, joningga ajal paykonlarining yog'ilishini esa rahmat bulutidan yog'gan yog'in deb bil.

U agar seni o'ldirish uchun tig' tortsa, buning mohiyatini karam dengizining mavji deb bil. Agar ko'zingga g'ubor kirsang, unga kechirimlikning surmasi sifatida qara. O'lim shamolidan senda qo'rqinch paydo bo'lsa, uni Iso nafasidan esgan bir shabada deb hisobla.

Tanangga tig' o'lim eshigini ochsa, buni ruhing uchun jannat yo'li deb bil. Alloh yo'lida to'kilgan qonning bir qatrasini jannat gulidan dalildir.

Din yo'lida badan qonga bo'yalgan ekan, bu unga bezakdor gulgun kafan o'rnidadir. Kimki din yo'lida jang qilar ekan, bu yo'lda yuziga to'kilgan qizil qoni bunga guvohdir. U qilgan gunohning tutunlari qancha qora bo'lmasin, shahid urgan ohlar, bil, uni qora bulutni bog'dagi shamol, bulutni to'fon yeli olib kelgani kabi surib ketadi. — Gunoh kechasi garchi doimiy bo'lsa-da, shahidlik tig'i uni yoritish uchun Quyosh kabidir.

Lekin mujohidga maqsad bo'lishi kerak — urushishdan maqsad boylikka ega bo'lish bo'lmasligi kerak. Kimki boylik uchun jang qilar ekan, uni jangdan mahrum etish unga yetarli jazodir.

Kimki talon qilish uchun jang qilar ekan, kechqurun og'iz ocharda turli ne'matlar yeyish uchun ro'za tutadigan odamga o'xshab qoladi.

Kimki g'azavot jangi maydonida tirik qolar ekan, bu — hayot chashmasida o'lish degan gapdir.

Kimki din uchun jangda qiynalib-qiynalib o'lmasa, bu obi hayot ichida tashnalikda o'lgan kabidir. Kim safda turib, oyog'ini nomiga deysa, uni masjididagi imomning riyokorligi deb bil. Safdan orqada qolib ketgan haqida nima deyishim mumkin? Odatda ayollar qibla safidan orqada turishadi.

Ulardan kimki o'lja uchun jasorat ko'rsatar ekan, u pul uchun Qur'on tilovat etgandek bir gapdir. O'limni bo'yniga olmagan g'arazsiz «g'olib» haqida u bilan birga o'ltirish hayf! — degan gap to'g'ri!

Kimki jonini jonondan aziz ko'rar ekan, jonon bunday odamni aziz tutsa – hayf! Kimki g'azavot ishini o'ziga odat qilgan ekan, shahid baxtiga esa erisha olmasa, shu bilan birga shahid bo'lishdan umidini uzmasa, unga shunday jang ma'rakasining shahidi deb qarash kerak.

Kimki nom chiqarish uchun maydon qidirib, ma'rakadan chiqqandan keyin esa lof ura boshlasa, uni mardlikdan nasibasi uzilgan deb, nomard nima desa buning qizig'i yo'q! deb qarash lozim.

Axir, lochin har kuni turnani ovlar ekan, uning yuztasini ovlaydi, ammo maqtanib biron marta ovozi chiqarmaydi.

Erkak quzg'un modasi bilan yemak qidirar ekan, bitta o'limtikni topguncha necha marotaba bir-biri bilan chug'ullashadi.

Bir ishni qilib, qilgan ishini gapirish yaxshi emas. Bir ish qilmasdan turib, gap sotadiganlarga ham qara.

Kimgaki chin erkaklik belgilari xos bo'lsa, qilgan ishi mingta bo'lsa, bittasini ham aytmaydi.

Erkaklik nimaligidan bahramand bo'lib ko'rmagan odam bir ishni ham qilmay turib, yuz hissa baland keladi.

Xo'roz o'z vaqtida qichqirib, ovoz chiqaradi. Kurk makiyon esa bir lahza ham tinmaydi.

Kimning ko'ngli g'azavotdan boshqa narsani istamas ekan, o'zini kishilar o'rtasida ko'rganda Alloh bilan ko'rmaydi.

O'z ishlarining ta'rifida kuy kuylar ekan, buni mag'rurlik va manmanlik deb bilish kerak.

«Lilloh»¹ esa yaxshi odamlardan chetda bo'lib, Haq o'zi biladi, xalqning bilmagani yaxshiroq ham.

LIII

*Abdulloh Muhorakning niqob kiyib, jang maydoniga kirib,
zafar jamolidan pardani olgani va Hasan Rabe' ul husnni
ko'rib hayron qolgani*

Hasan ibni Rabe' g'azavot jangidan ushbi ajoyib rivoyatni qilgan:

Urush maydonida katta jang borar ekan, islomiy guruh kofirlar bilan olishayotgan paytda kofirlar qo'shini safidan bir yuraklisi deyish mumkinki, ajal xanjaridek qotili adovat bilan maydonga otida javlon urib kirib keldi. (Islom) dinining askarlarini o'ldirish bilan tig'ini charxlar, o'tkirlashtirib, na'ra solardi – dushmanning yangi askarlarini maydonga chiqishga talab qilib. Bu g'ayridin qotil g'oyatda kuchli bo'lib, har qanday odam uning bir zarbasidan yiqilar edi.

Kimki bu maydonga kirib kelar ekan, o'zidan o'zi o'z qoniga belanishga majbur edi. Shu ravishda u bir qancha musulmonlarni shahid qildi. (Islomiy) din qo'shini umidsizlikka tusha boshladi.

Shu damda safning bir uchini surib tashlab, bir dovyurak pahlavon kiyikning payiga tushgan sherdek maydonga kirib keldi. Quyosh ko'kning temir qalqoniga g'arq bo'lgani kabi u ham tig'idan chaqmoq

¹ «Lilloh» – Xudo uchun, Xudo bilan.

chaqqandek nur sochib, yuzini niqob bilan berkitib ishq o'ti oshiqni yashirincha kuydirgandek bo'ldi. U qahr bilan kofirga yetishgan zomoniyoq darhol hamla qilib, shu ondayoq ularni yiqita boshladi. Shu yo'sinda ularni do'zaxga jo'natar ekan, bu qo'yni so'yib, oshxonaga yuborayotgandek edi.

U kelgan yo'li bilan qaytib kelar ekan, u xuddi kaklik yurishidek qilib qadam bosib kelardi. Din qo'shinlari saflarida jonlanish, qaynash boshlanib, har tomondan takbir aytayotganlarning qichqiriqlari eshitila boshlandi. Dushmanning hurmati xorlikka uchrab, kofirlar bayrog'i quyiga egildi.

G'olib esa o'zini ma'lum qilmadi. Shunday bo'lgach, uning kimligini ham hech kim bilolmay qoldi.

Meni uni bilishga bo'lgan ishtiyoq qiynab, hamma yoqni aylandim va topdim. Tig'i ham uning yelkasida osig'liq, yuzidagi niqobi ham joyida edi. Men unga dedim: «Ey g'alaba yo'ldoshi bo'lgan g'oziy! Tig'ingga ham, zarbingga ham ming ofarin! Yuzingni ko'rish orzusida o'lishga tayyorman. Tangrining rizoligi haqi, niqobingni och!»

Tangrining otini eshitganidan keyin yuzidan pardani olib tashladi. Izzatu sharaf tojiga munosib uning boshi namoyon bo'ldi, bu butun dunyoning xalqining oldi — Ibn Muborak edi.

Otining oyog'iga peshonamni qo'yib dedim: «Ey nurli shariatning g'olibi! Jahon ahli seni ko'rish uchun jonlarini fido qilmoqda. Nima uchun yuzingni berkitmoqdasan? Yopinchiq pardani yuzingdan yo'qot! Safga suril, o'zingni elga tanit!» Hasan dedi:

— Ortiqcha jiddi jahd qilma! Men Uning ishqida jihad qildim. U barcha ahvolimdan ogoh bo'lib, qanday qadam bossam, U menga hamrohdir. (Siz emas), agar U meni tanisa, mening maqsadim ham shudir. Tanimasa, nima qilgan bo'lsam, olam eli foydasigadir! Har bir odam tilagini yordan tilar ekan, yor raqiblardan maxfiy ravishda ish ko'rish kerak. Lekin (din uchun) jang vaqtida bu kichik masala bo'lib, nafs bilan jang qilgan ulug'roqdir.

Navoiy nafsining kofiri bilan (din yo'lida) g'azavot qilar ekan, Tangri uni mukofotlayajak.

Soqiy, menga el jonidek qadahni olib kel, toki men uni dinimiz dushmanining qonidek simiray!

(Din yo'lida) g'oziy bo'lgan podsho kafidan (xurmodan tayyorlangan) sharobdan ber, uni ichish bilan o'zimni shahid qilay!

LIV

O'N YETTINCHI MAQOLAT

Bahor yigitligining sofligi haqidakim, nozli rayhonlarini rang-barang ipaklar bilan orasta qiladi; yigitlik bahorining latofati xususidakim, yuzining gulini rayhoni xatlar bilan gulu rayhonni yondiradigan darajada bezatadi; kuz qariligining sovuqligi

*to'g'risidakim, gulistondagi daraxtlar bilan qushlar u tufayli
ziynatsiz, kuysiz bo'lib qoladi; qarilik xazonining shiddati
to'g'risidakim, hadan gulistonining toza gullari u tufayli havoga
sovuriladi*

Hamal ayvonini quyosh yorita boshlagach, osmon yer yuziga ham mehr izhor qildi. Mushksepar sahar shabadalari esib, bog'da o'z farroshligini ko'rsata boshladi. Yer yuziga shoxlarni kokil qilib osiltirib, hatto bu kokillardan supurgilar yasadi. Shamol shabadalari farroshlik qilgach, bulut suv tashuvchi bo'lib suv sepa boshladi. Suvning og'irligidan uning beli pastga bukilgach, mis rang chaqmoq unga kamar bo'ldi. Bog' supurilib, suvlar sepilgach, rayhonlarning rivojlanish vaqti boshlandi. Ular bog'dan sekin-asta bosh chiqarib, bog'dan emas, qora tuprog'dan bosh ko'tarib, yulduzlar osmon gulshaniga hujum qilgani singari yer yuziga hujum boshladilar. Ularning har biri sumanbo'ylik bir boladay, bola emas, gul yuzli mahbubadek. Husnlari ishvai noz bilan to'la. Muattar hidlari mushk va anbarning hididay yoqimli.

Ko'kimtir maysalar to'shak bo'lib, undagi rayhonlar go'yo behisht hurlaridir. Gul mahbubasining chiroyida yuz go'zallik, betiga esa gulob bilan shabnam urilgan. Bolalik g'unchasining ishi o'zini ovutish, yaxshi ko'rgan o'yini nuqul bekinmachoq o'ynashdir. Lola o'ynab turib juda qaynab ketdi, yel esa boshidan do'ppisini uchirib yubordi. Bog'ning har tomonida gul bolalari; ular ikki chamanda ikki saf bo'lib turishibdi. Bolalarning hammasining ko'ngli o'yinda, lekin hammayoqda «gulhocha gul» o'yini. Yangi o'sgan o'tlar bolalarga, belidagi bo'g'inlari esa ularning kamariga o'xshaydi. Daraxtlarning hoshidagi gullarni oq gullar tutami dema; ular aylanuvchi osmon bo'ylab yoyilgan yulduzlarga o'xshaydi.

Bahor bolasi hamma tomonni tomosha qilish uchun daraxtlarning panjarasidan qaradi. Yo'q, bunday ham emas, bu daraxtlar bamisoli bir to'da yetilgan qizlardir; boshlarida esa pokiza pardalar. Ularda o'z husnini ko'rsatish mayli bor; butun baland joydan Yer yuziga tomosha bo'lishni istaydilar. Daraxtlarning, rayhonlarning, gulzorning ilk jilvasi shunaqa.

Kecha va kunduz bir necha kun aylanib bahor husnining navbati ham o'tadi. Lola va gullar tuproqqa yotib, shoxlarda gul o'rniga yaproqlarning o'zi qoladi. Bayroq uchidagi qizil mato pastga tushib, shoxlar hammasi zangor rang bayroqni ko'taradilar. Oq va qizil to'n kiygan bog' qizil va oq to'nini yashilga almashtiradi. To'nining dur qadaladigan joylariga zumurrad, la'l o'rniga zabarjad qadaydi. Oq gullardan oina rangini kasb etgan gulshan nam ta'sirida zang bilan qoplana boshlaydi. Daraxt shoxlarining kiyimi ko'm-ko'k. Shu rangdagi kiyim bilan Xizr payg'ambar bo'lgan. Soya qorong'ilig'i uning zulmati, shabnam esa go'yo obi hayotidir. Bog' shuncha husnu latofat bilan, go'zal ra'noga xos ofat bilan yashil ipak kiyish odatiga amal qildi.

Mevalar esa uning tugmalari bo'ldi. Unda zarrin tugmalar bilan bir qatorda durru gavharlar ham namoyon. Zarrin ko'rinisdagi tugma — behisi. Durru gavharlari — oq va qizil olmalardir. O'rigining shirasi qandnikidan o'tkir, qovoq nashvatilari nashvati emas, asal qovog'i. Uzumzor tomondagi har burchakda uzum boshlari la'l va durdek osilib yotibdi. Bog' — daraxtlar va mevalar bilan to'la, yetishgan olimdek fazlu hunari bisyor. Uni hatto jannat gulistoniga, yanada to'g'rirog'i, donishmand odamning joniga taqqoslash mumkin.

Bog'bon uning mevalarini uzgach, bog' yulduzsiz osmonga o'xshab qoladi. Mevasi yo'q gulistonning sahni gavhari yo'q sadafning xuddi o'zidir. Daraxtlar boshidagi tojga dur topa olmaydi, chunki ularning hammasi vaqt taloniga uchragan. Gulshan endi naqd boylikdan, boylik ham emas, jon mevasidan umidini uzadi. Mevadan ajragan shox bo'shshib, ko'ngilsiz kishidek juda susayib qoladi. Bunday ko'ngilsizlik va zorliklar daraxtlarni bemor holga keltiradi. Barglarining yuzi sariq kasaliga uchrab, jon tomirlari bilan ularga suv tashiy boshlaydi. Shox g'amgin oshiqqa o'xshab, yuzining sarig'i va dardi bilan jinnini eslatadi. Bunday deyishga asos uning parishonligi, sevgi tufayli oshufta va hayronligidir.

Tolga xazon o'qi uchib kelib, tanasidagi har bir yaproq bir o'qning uchiga aylanadi. Yaproqlarining rangini sarig' deb qarama; to'g'risi, butun bog' g'am o'tida kuymoqda. Bu boqqa o'sha yaproqlardan o't tushgan; bo'lmasa, shoxlar nega o'tindek qorayib ketgan?

Bog'dagi bu g'avg'olar yetmaganday, endi ayoz barglarni uchira boshladi. Shoxlarni bargsiz qilib, barglarni har tomonga otdi. Yaproqlarda rang va safo qolmadi; ular o'luklar kabi yerga yotishdi. Yel askarlari bog'ni talon-toroj etib, uni bargga zor qildi. Har tomonda qator-qator mevali daraxtlar; ularning saf-saf bo'lib turib jela tortayotgani hind baliqchilarining saflarini eslatadi. Ularning hammasi yalang'och va bir tekisda qora. soy suvidan ularning hammasiga zanjir bog'langan. Shamolning qattiqligidan ular yalang'och asirlar to'dasi kabi ingraydilar. Barglar barg emas, yoqish uchun bir to'plam o'tin; shoxlarini esa do'zaxning kundasi desa bo'ladi. Jannat gulshaniday bir joy do'zaxga aylanib, do'zax uning oldida behishtning bog'iga o'xshab qoldi.

Umr gulshanida yuz bergan kuz va bahorning ham ana shu gulistondagi ahvol bilan o'xshashligi bor. Umr quyoshi chiqadigan vaqt bo'lib, inson tanasi hamalga kirib, amal ola boshlagach, g'uncha o'zida yo'q darajada kula boshlaydi; haddan ortiq ko'p gullar ochiladi. Yetilib ochilgan har gul jilva qilib, g'unchaning beg'amligi ham dilkash ko'rinadi. Bu vaqtda insonning maqsadi o'ynash, yeb-ichishdir. U shu ikki ish bilan shug'ullangani shug'ullangan. Aql sham'i uning miyasini yoritgunga qadar, ko'ngliga aqliy sezgi tushgunga qadar, uning yangi niholday qomati cho'zilib, sodda miyasi aql bilan to'la boradi. Bora-bora go'zallarning yuzi gul rangiga o'xshashini, g'amzalari

qon to'kishini, ko'zlari naqadar o'ynoqiligini, uning o'z ko'zlariga noz qiliqlarini o'rgatganini, qiliqlarni esa unga afsungar o'rgatganini tushuna boshlaydi. U jaf o'qilib, odamlarning jonini, qoshini yoy, kiprigini o'q qilib ovlaydi. Oshiqning ko'zini uyquga rom etgan bo'lib, uning ko'zlariga uyquni harom qiladi. Qadah ko'tarib, yuzini o'tdek qizartiradi; dini islomdan esa tutun chiqaradi. Bazmda u labini mayga tekkizish bilan jonini, aql-hushini nobud qiladi. May labida yongan o'tni tezlashtirib, terlab, yuzi qizargandek bo'ladi. Bu may o'tidan ham yonuvchi o't bormi? Ularga suv tegishi bilan battar yonadi-ya! Mayin tuklar orasidagi la'li lablari kulib, o'zining obi hayoti bilan oshiqnlarni halok qiladi.

Uning yuzida mayin tuklar safga tizilishi bilan rangidan sabzalik va gullik bartaraf bo'la boshlaydi. Bog' endi chechak va gullarni tark etib, navbat barg bilan mevaga keladi. Bu holatda inson tab'i yengiltaklikdan nafratlanib, odamda vazminlik va idrok paydo bo'la boshlaydi. Jahl va xato xirmoni mingta bo'lsa ham, ilm mash'ali ularni kul qiladi. Inson kabi daraxt ham hashamatli kiyim kiyib, ilmu adab mevasini beradi. Inson ishi doim jununni daf' etish, odati barcha fanlarni egallash bo'ladi. Birov tafsirlarni¹ o'qib bahramand bo'lsa, birov hadislarni² o'rganib e'tibor topadi. Birov madrasani o'ziga oromgoh qiladi, birov xonaqohda xilvatga chekinadi.

Yoshlik mahalining mevalari to'kilib bo'lgach, baqo gulshanining obi-tobi keta boshlaydi. Qomat daraxti g'am yelidan bukilib, chehra guli xazon bargiga aylanadi. Tan ko'chatida ham barg yozish havasi yo'qolib, bunday havasni sovuq havo uchirib olib ketadi. Yuz ham xazon bargining rangiga kirib, uning sarig'ligi bolalarga kulgi. Ko'zlar uyning burchagini talashib qisiladi; qoshlar esa bu uyning eshigiga parda osa boshlaydi. Ko'z bu uyning burchagiga kasal bo'lganidan kiradi, qoshlar esa quyosh nurini to'sish uchun parda tutadi. Tuprog'da, to'tiyoda ko'rish qobiliyati qancha bo'lsa tug'ma ko'rd shuncha. Ko'zning ko'rish chirog'i o'chgandan keyin, har qanday shisha oynak unga eski dog'day bir gap. Ikki bukilgan qad bilan uzun hasa nima-yu, bukilgan osmon bilan tik tush chizig'i nima!

Og'iz burchaklarida qimmatbaho durlardan qolmay, tishlari, «singa» o'xshasa ham, tishsiz «sin»ga o'xshab qoladi³. Og'iz qutiga o'xshaydi-yu, lekin ichida bir dona ham dur yo'q, tishlar «sin»ga o'xshasa ham dandanasi yo'q. Yoki tishining tasbehida toshi yo'q, og'zining eshigida ushlagichi yo'q. Orqa bo'ynida tirishlar paydo bo'lib, haqbaqasidagi yunglarda tugunlar yuzaga keladi. Yuz a'zosidan oq tuklar o'sib chiqib, ular hammasi oq kafan iplarini eslatadi. Boshini quyi solib, o'limni o'ylab, xayrlashish uchun qaddi egila boshlaydi. Bir necha kun u shu xilda qiynalib, qon yutib, mahrumlik nolasini chekib, Xudoning buyrug'i bilan ajal xabarchisi bundan ham ko'nglini tinchitmagunga qadar ahvol shu.

¹ T a f s i r — «Qur'on»ga yozilgan sharhlar ko'zda tutiladi.

² H a d i s — Muhammad payg'ambarimizning so'zlari, hikmatlari.

³ Bu o'rinda «s» harfining arabcha shakllarda tishli va tishsiz yozilishiga imo qilinmoqda.

Ey voh, kimki bu bazmga kelgan bo'lsa, navbat bilan bu qadahni ichmay iloji yo'q. Bu mazasi achchiq qadahdan kim ichgan bo'lsa, mast holda yo'qlik ko'chasiga yo'l oladi. Mast bo'lib, o'zini bilmay yo'l yuradi; ketganidan keyin undan hech qanday xabar kelmaydi. Bu maydan odamlar birin-birin yo'q bo'lishadi. Vaqt o'tishi bilan bizga ham navbat kelib qoladi.

Ey vohki, umr jaholat bilan o'tti. O'lim vaqti yetganda xijolat bo'lib qoldim. Yashab, umrimni nuqul uyquda o'tkazdim. Endi uyg'onib qaragam, shom bo'lib qolibdi. Ish qilish kerak bo'lgan vaqtda qilmadim, ish qilib bo'lmaydigan kunlar kelishini tushunmadim. Tiriklikda yiqqan-terganim ketdi. Endi o'zimni o'ldirsam ham foydasi yo'q. Ish qilish kunlarida yo'ldan adashib, ish qo'limdan ketgach, ogoh bo'ldim. Vaqt kam qoldi, yo'l uzun, may esa achchiq, juda ham, juda ham qattiq ahvolda qoldim. Agar menga Xudo o'zi rahm qilmasa, mening ahvolimga voy, yuz marta voy!

Xudo o'zi umrning kunlarini bo'lib qo'ygan; uning har bir fursati bir ishga mo'ljallangan. O'n yoshgacha odam oyog'i boyloq, g'afolatda bo'ladi; yigirmagacha umr bilimsizlik, mastlik bilan o'tadi. O'ttiz bilan qirqning orasi xursandchilik davridir. Afsuski, menga bu ham harom bo'ldi. Ellikka kirganda kishi taraqqiy topmasa, oltmishga yetganda uning ishi tanazzuldan iborat. Yetmishgacha kishi oyoq ustida tura bilishi kerak; saksonda esa uning o'ltirishi farzdir. To'qsonga kirgandan keyin yiqilishi, yuzga to'lgandan so'ng jonni tark etishi kerak. Kishining maqsadi tabiiy yashash bo'lsa, istak bildirib, hamma-yoqqa borishi, ko'rish lozim.

Xudo o'z rahmatiga olib, o'lmasingdan kushoyish bersa, Navoiy, sen Nuh umricha bo'lsa ham tabiiy umrni ko'zlama. Bunday umrdan yiroq bo'lish yaxshi. Bu – umrmi? Undan o'lim yaxshiroqdir...

Umr degani toat-ibodat, Tangri nimani buyurgan bo'lsa, unga bo'ysunishi uchun beriladi.

Toat va taqvo qancha yaxshi bo'lsa, yigitlik damlari ham shunchalik dilkashdir.

Yigit kishi qancha aysh va erkalik qilsa yaxshi ko'rinadi. Boq – u namoz o'qiyotganda qanday (chiroyli) ko'rinadi!

Agar yer yuzi unga qaddini xam qilib, unga bosh egsa, unga tan bersa, kimning yigitlikda boshi tik ekan, buni ko'rib, unga qancha hosh egsa ozdir.

Qari odam-chi, bo'shashib, boshini quyi solar ekan, uni qo'l bilan tik qilish qiyin.

Boshni o'zi beixtiyor yerga tushar ekan, sajda qilish uning ixtiyoridami?

Qarining qaddida bukilish yuz berar ekan, u ruku'ga ketishdan boshqa nima qila olishi mumkin?!

Bilki, toat uni yashartirishi mumkin. Notavon qari buni qilolmasa, nima qilsin?! Lekin bu muvaffaqiyatga bog'liq bo'lib, kimgadir haqiqatni aniqlash uchun bir bahonadir.

Pok imon Zaynul-Obidinning kichik qizining ulug'lariga xos so'zlari— garchi u kichikligi tufayli begunoh edi

Osmon-falakka ot surgan ulug' zot xonadon ahli anjumanining mash'alasi bo'lib, u payg'ambarlik muhrining ko'zidagi nur — valiylik sham'i Ali binni Husayn edi. Ibadatni ko'p qilganidan din arboblari uning otini Zaynul-Obidin der edilar.

Kunlarning birida u o'g'lini oldiga chaqirib, mehribon qo'li bilan uning boshini silay boshladi. Odatda otalikning qonun-qoidasi bo'lganidek, bu odamlarni bolaga nisbatan muhabbatli bo'lishga olib keladi.

Uning fe'l-atvorida ham mehr belgilari zohir bo'lib, har nafasda o'z mehr-muhabbatini izhor etishga urinardi.

Uning yagona bir qiz farzandi ham bo'lib, jon va ko'ngul iplari unga bog'langan edi. U misoli poklik pardasi ichidagi porloq Quyosh bo'lib, umri vaqtidan endi olti yosh o'tgan edi.

(Kunlarning birida) u otasi bu kichkinani sevib erkalashlarini ko'rib, ko'z yoshlarini to'kib, qoshini uchirib ham qo'ydi.

Uning yuzlaridagi ko'z yoshlarini ko'rgan imom qoshiga qarab ehtirom ko'rsatishni istadi. Yuzidagi ko'z yoshlarini ko'rib, ichida uni kimgadir rashk qilib yig'lamayotibdimi? deb o'yladi. Rahmi kelib, ochiq mehr-muhabbat izhor qilib:

— U hali onasining suti og'zidan ketmagan bola-ku! — dedi. — Beshikdagi kiyimda turgandek uning tani ham zaifona. Men unga rahm qilganimdan mehr ko'rsattim. Uning menga bo'lgan mehri garchi bu darajada oshkora bo'lsa ham, bu shuning uchunki, u hali yosh! Mehringning tafti ichimni o'rtagan bo'lsa-da, menga ko'ra sen ko'proq maxfiysen. Sen bilan nima yuz bergan bo'lsa, men uzrlimen. Rashk qilish odatini unutishga harakat qil! — dedim.

Bu so'zlarni aytar ekan, uning o'zi ham xafa bo'lib, pok dur daryo oldida shunday dedi.

— Mening tashvishim bu jihatdangina emas edi. Boshqa bir g'am tufayli ham motamda edim.

So'z orasida bir kuni eshittimki, o'z og'zing bilan sen bu mojaro haqida:

— «Menga Haq (Alloh) bo'lgani yetarlidir, boshqa hech kimga mayl bildirib, uni havas qilmasmen!» — debsen. Bu damda boshqani sevganingni ko'rib qoldim. Bu g'am mening ruhimni o'zgartirib yubordi. U begona bilan sheriklik qilganidan so'ng uning rashki jonimga o't soldi. Unga sajda qilishning nima keragi bor, qachonki u Haq va butning qoshiga topinsa. Agar sanam (but) qat'iyat bilan jilva qilgan taqdirda ham qibla tomonga qarab namoz o'qish ravo bo'la oladimi?

Bu so'zlarning hammasini eshitar ekan, imom ko'z yoshlarini to'xtatolmay qoldi. Allohga shukr qilishni vojib deb bilib, boshini

o'pib, yaxshi niyatlar bildirdi. Bolaga Alloh o'zi to'g'ri yo'lni ko'rsatar ekan, u nima qilsa taqvo va toatga o'tgusidir.

Yigitlikda Navoiy sajdalarni o'tkazib yubordi. Qariganda endi pushaymon bo'lishdan foyda yo'q.

Soqiy, odamni xarob qiladigan o'sha may shayxga yigitlik kayfiyatini bag'ishlaydi.

Sopol bo'lib, kuchsizlanib qolganmen. Qadah tutib, meni toat-ibodat uchun yigit holiga keltir!

LVI

O'N SAKKIZINCHI MAQOLAT

Falak g'amxonasi haqidakim, oqibat mazmuni parokandalik belgisidan iborat bo'lib, unda kishi qiynalsa ham o'zini xursandlikka olib yurishi kerak; jahon vayronasi haqidakim, unda yozig'lik tilak ham ko'ngul uyini obod tutishdir; hayot gulshanidan esgan har nafasning qadrini bilish, umr gulidan chiqqan har bir xush isning shukrini qilish, badanda Xudoning buyrug'ini bajarishga quvvat bor ekan, toat-ibodatni g'animat bilish, do'stlar bilan ko'rishish imkoniyati bor ekan, huni qo'ldan chiqarmay, kishi o'zini xurram tutishi kerakligi to'g'risida

Aqlli odamlarga dunyo zindondir. Unga kim ko'ngul qo'ygan bo'lsa nodondir. O'z ta'bingni uning zanjiriga bog'lab qo'yma; aqlni uning chohida xafa qilib qo'yma. Bu olamning aylanma zanjiri har qanday kimsani oxiri yer osti shahriga band etadi.

Shunday ekan, nega endi buning tashvishini qilib, inson o'zini o'lmasdan burun halok etishi kerak?! O'lish uchun nega muncha motam tutasan? Amma-xolalaring senga motam tutishga ulgurishadi. Boshingga bir g'am tushsa, joningni ortiqcha qiynama. Bir g'am yetarli, uni ikkita qilma. Xafa bo'lib, jismingni qiynoqqa solma; shunday qilib bir ranjingni ikkita qilma. Ko'ksingda dog' bo'lsa ham farog'at ista; siqilish bilan dog' ustiga dog' ortirma.

Taqdirdan qancha jaf o'yetsa ham unut. Bu jafolar qancha ko'p bo'lsa ham o'zingga og'ir olma. Ishda qancha qiyinchilik yuz bersa ham o'zingga oson olsang, bajarishing ham oson bo'ladi. Agar vatanning Shom bo'lsa ham, Hirot bo'lsa ham o'ylashga arzimaydi. Dunyoda kim tashvish chekmasa, o'shani shod deb bil. Dunyoning ishlari tashvishlanishga arzimaydi. Chunki jahon bog'i vafosizdir. Unda umr guliga ham baqo yo'q. Bu bog' shunday bog'ki, uning guliga baqo yo'q, gullari ham shunday gullarki, bog'iga vafo qilmaydi. Bu bog' turib, orom olishga noloyiqdir; u gullardan ham dimog' muattar bo'lmaydi.

Umrda o'tgan ishlar o'tib ketdi. Nimaiki o'tib ketgan bo'lsa, uni quvib yeta olmaysan. Aqlli odam kelmagan ishlardan so'zlamaydi.

Ma'lum bo'lmagan ishga nima deb baho berish mumkin? O'tgan kun o'tib ketdi, ertagi kun hali kelgani yo'q. Sening ixtiyoringda shu bugun, balki shu bir dam bor, xolos.

O'tmishning ham, kelajakning ham ahvoli shu; hoziringning o'zini ham aniq xayol qilish qiyin. Hoziring bir ondan iborat, vassalom. Shunday bo'lgandan keyin nega xafa bo'laverasan? Kelmishing ham hisobga kirmaydi, o'tmishing ham. Hozirgi ahvolingga rahm qil, azob tortaverma. Aysh uchun bir nafas vaqt topsang ham uni g'animat bil, boshqa narsaga alishtirma.

Har bir nafas vaqtning shunday nafis bir javharki, uni sen o'zingga bir nafaslik do'st deb hisobla. Shu javharni boshqalari orasida eng qimmatlisi deb bil; quyosh la'lini esa unga qo'shni deb bil. Lekin quyosh javharidan bu (vaqt) javhari azizroqdir; latiflikda ham u bunga to'g'ri kelolmaydi. Uning borligini dunyodagi hamma odamlar ko'rib turadi; bu esa latofati tufayli ko'zdan nihon. Uning ishi doim kelish-ketish; bu o'tib ketgandan keyin esa kishi uning gardiga ham yeta olmaydi. U odamlarni xashakdek kuydiradi. Bu bo'lmasa, inson bir nafas ham yashay olmaydi.

Bu nafas emas, (hayot) mohiyatining javhari; javhar ham emas, obi hayotdir. Hamma narsalar shu bilan tirikdir. Shuning uchun buni obi hayot desam, ajablanma.

Agar odamlar buni yana ham yaxshiroq tushunsalar, bu nafas ilohiy nafasdir. Shunday nafas tufayli tanga ruh kirsa ham, lekin inson badani shu nafas bilan tirikdir. Buni Iso nafasi deb atasalar ham, aslida buning qiymati Iso nafasinikidan ortiqdir. Ruh bilan borliq usiz ham bor, lekin busiz hech kim yashay olmaydi. Shuning uchun buni muqaddas nafaslar deb ata; muqaddas ham emas, eng pok nafas deb ata.

Shunday boylik senga hamnafasdir; usiz sen bir nafas ham yashay olmaysan. Sening hamma yurishing, turishing o'shandan; yurishing, turishinggina emas, butun hayoting o'shandan. Sen esa uni g'amu ranj bilan, yuz alamu motam bilan o'tkazasan; g'aflatda uni xor qilib, ortiqcha so'zlar bilan haromga chiqarasan; behuda gaplar bilan buzuqqa chiqarib, bo'lmagan fikrlar bilan nobud etasan. Unga endi bu qadar dushman bo'lma, u qadar zulm va qattqlik ham qilma. Tangri senga shunday ajoyib marhamatlar ko'rsatdi. Uning yuziga boq, bo'lmasam, uning o'zidan uyal.

Kel, jahlni qo'y, aqlli bo'l, bir nafas bo'lsa ham nasihatga quloq os. Boq, senga Xudo qanday yaxshiliklar ko'rsatyapti; qanchadan-qancha ehsonlar, ne'matlar beryapti. Butun borliqni, pastu balandni yaratgan Tangri seni hayvon yo o'simlik, yoki jonsiz bir narsa qilib emas, u lutf ko'rsatib, seni inson qilib yaratdi; din yo'lida musulmon qilib yaratdi. Senga u ko'rish uchun ko'z, eshitish uchun quloq, gapirish uchun til, hidlash uchun dimog' berdi. Ovqatni ushlashing uchun qo'l, yurishing uchun oyoq ham berdi. Yuz xil ne'matlarni yeb-ichishing uchun ularning har biriga o'ziga xos ta'm va shakl ato

qildi. Bularning hammasini sharhlash, sanashga o'zlik qilib, qalam ularni qisqachagina eslab o'tmoqda. Senga qanchadan-qancha rang-barang kiyimlar in'om etilgan. Bularning sanog'ini aql sanab biron narsaga taqqoslay olmaydi. Otlar berilganki, tog'u dalalardan oshib ketadi; xayoliy otdek osmondan o'tib ketishga qodir. Bog'lar xuddi a'lo jannatdek, suvlari esa xuddi sof oqar suvdek. Undagi kumushtan go'zallar jilva qilib, jannatdagi huru parilarni eslatadi. Osmondan ham baland qasrlari bor; suv va daraxtlari jannatdagi kavsar hovuzi va to'bo daraxtlariga o'xshaydi. Oltinu kumush pullarning hisobi yo'q, dur va gavharlar ham haddan ortiq ko'p.

Bu in'om va hadyalar hammasi ham bir tomonu, u bergan aql javharlarining o'zi ham bir tomon. Bu xilda yaltillab turgan gavharni, gavhar emas, porlab turgan durni u vujuding qutisiga nihon qildi. Bu qutini shunday boyliklarning koniga aylantirdi. Mavjud jahonlar ichida seni eng aziz qilib, o'z sirlarini bilishga seni musharraf etdi. U — Xudo senga yana bir amonat dur¹ topshirib, saxovat tojini ham senga sovg'a qildi. Senga shuncha ne'matlarni berib, u: «Shukr qilish bilan ne'matlar orta boradi», deb yozib qo'ydi. U qanchaki ne'matlar dasturxonini ochib qo'ygan bo'lsa, bularning hammasi uchun shukr qilish senga shartdir. Unga shukr aytishning chek-chegarasi yo'q, shukr aytib tamomlashning imkoni ham yo'q.

Hammasini ham qo'yu mana bunisini ayt: sen nafas olib turgan ushbu nafasning o'zining ichingga kirishi g'animat bir ne'mat bo'lsa, chiqishi ham xuddi shunday bir ne'matdir. Biri sening hayotingga oziq bo'lsa, ikkinchisi sening borlig'ingga quvvatdir. Senga ko'rsatilgan bu ikki ne'mat uchun har biriga alohida shukr qilish o'rinlidir. Joningni fido qilib yuborgan taqdiringda ham bu ikki nafasning shukrini ado qilishing mumkin emas. Aqlingni ajrim qilsang, Xudo sening nafasingni qanday aziz qilganini tushunib olasan. Xudo uni shunday aziz qilgan ekan, sen uni xor etma; uning faqat shukrini qil. Joning tirik bo'lib, nafas olish imkonining bor ekan, nafasning qadrini bilki, unga teng keladigan narsa yo'q. Har bir nafasing ahvolidan xabardor bo'l, balki unga aql-hush bilan hamroh bo'l. Boshidan-oxirigacha uni Haq yo'lida sarf qil; Tangri senga yor, o'qisang, bu senga saboq. Bu ishdan agar bir dam g'aflatda qolsang, kishiga bu katta motamdir.

O'zingni g'ofil va parishonhol tutib, har xil ishlar bilan shug'ullanar ekansan, bundan Xudoga hech qanday manfaat bo'lmasa ham, harakat qilki, gunoh ham sodir bo'lmasin. O'z faoliyatingda birovga yaxshilik qilmasang, hech bir yomonlik ham qilma. Agar doridan joning bahra topmasa, jahl qilib, piyolangga zahar solma. Hamma ishlarning ichida eng yoqimlisi hamda yaxshisi do'stlarning diydoridir. Birovga ozor berishdan o'zingni saqla; biron kimsani ranjitishdan ham. Sen tomoningdan odamlar bexavotir bo'lsinlar; o'zingni xursandchilik bor yerga ol. Kishilarning yeriga, oilasiga

¹ A m o n a t d u r — kishining hayoti ko'zda tutiladi.

tajovuz etma; odamlarning joniga, moliga ham qasd qilma. Bir nafas bo'lsa ham qayg'usiz bo'lishga harakat qil; yoru do'stlar bilan xursand bo'l.

Bog'da bir yangi ochilgan gulni ko'rsang, uning atrofida barcha uchun suhbat joyini orasta qil. Suhbatdoshlaringning ko'nglini olib, u yerga chorla, o'rniga qo'yib do'stlaringni chaqir. Ularning qadami bilan joningni gulshanga aylantir; ko'zingni ularning chehrasi bilan ravshan qil. Ehsan yo'lini o'zingga shior et, nimang bo'lsa barini ularga hadya qil. Birodaringning maqsadi agar sening joning bo'lsa, joningni sarf etib, unga minnatdorchilik ham bildir.

Hayotingni shunday odamlarning jamiyati bilan shod qil; keyin keladigan parishonliklarni esda tut. Bu ishlar uchun yuksak osmon¹ har yangi oydan o'ch olish uchun tig' yasab, ikki o'rtoqning o'zaro yaqin bo'lganini, ularning visol uyida aysh qilganini bilsa, o'sha tig' bilan ularning baxt ko'chatini qirqib, ularni bir-biriga bog'lagan ipni kesib tashlaydi. Ularning birini hijron tomon boshlaydi, ikkinchisini furqat tomon tashlaydi. Charxning ishi oqibatda doim shu bo'lgani uchun hammaga ham oxirida shu ishni qilar ekan.

Shunday ekan, gul bilan tik savsan ham, norvanu² sarvu shamshod ham, bu chamanda nimaiki bo'lsa – hammasi bir-biriga mehmondirlar. Kimniki bir do'sti bo'lsa, kimgaki hamma do'st bo'lsa, do'stning visolini orzu qilib, qidirsin, bir nafas o'z orzusiga erishsa ham, meni yod etsin! Shu eslash bilan ruhimni shod etmasa – mening gunohim uning bo'yniga!

Kishi visolga erishib, orzusiga yetsa va buning davom etishini xohlasa, tili bilan Xudoga shukr izhor qilsin, shukr yo'lini o'ziga shior etsin. Shoyadki, o'sha shukr bilan loaqal bir necha dam o'sha visol ichida nafas olib, Xudo uning baxtini davomli qilsa, buning ichida hayotdagi orzulariga ham erishtirsa!

LVII

*Chin o'tlog'idagi bir mushkin ohuning sherlarni ovlagani,
majruh ovlarning uning tuzog'iga ilinib, sher panjasidan ajal
tuproq'i bilan harohar bo'lgani*

Chin mamlakatida bir nozanin bor edi. Uning suratini chizishga Chin rassomi ham ojiz edi. Yuzining gulzori Xo'tan diyorini eslatardi; ko'zi shu gulzorda yurgan mushkin ohuga o'xshardi. Nurli yuzi Chinda chizilgan suratdek bo'lib, gajagi Xo'tan mushkidek xushbo'y edi. Shafqatsiz g'amzalari jonlarni asir qilar, hatto unga Xitoy mamlakatining xonlari ham asir edi. G'amzasining o'g'rincha harakatlaridan Chin xatarda; sochi zunnoridan din ziyon topardi. Dunyodagi odamlar uning husniga oshiqu hayron; zamon shohi

¹ Yuksak osmon – bu o'rinda taqdir ma'nosida.

² Norvan – qayrag'ochga o'xshash xushqomat, serbarg daraxt.

ham uning zulfiga giriftor edi. Bir nafas usiz nafas olmas edilar; u bo'lmasa jonsiz bo'lib qolib, nafas olish mumkin bo'lmay qolardi.

U gul yuz maydonga chiqqanda go'y va chavgon o'ynashga berilar edi. Xon o'zi unga hamroh bo'la olmagani uchun bir necha soqchilarni unga qo'shib yuborar edi. Biron kishi unga ko'z olaytirsam yoki uning haqida bir narsa desam, maxsus noyiblar uning aybini xonga aytar edilar; xon hukmi bilan undan qasos olinar edi. Biron kun yo'q ediki, qanchadan-qancha oshiqlar shu xildagi halodan halokat topmagan bo'lsin.

Kunlarning birida uning qiliqlarini sevib qolgan bir oshiq ishq-muhabbat yo'lida sodiqlik ko'rsatib, uning dardu hasratidan yillar davomida qon yutib, qon ham emas, hijron mayini ichib, oshiq xasday bir go'shada yotganida, yonidan sevgilisi ot o'ynatib o'tib qoldi. Visol kayfi – kuchli, oshiq – zaif edi. Chidayolmay hushidan ketib yiqildi. Tayinlangan odamlar birinchi bo'lib oshiqni, qolabersa boshqalarni xonning oldiga olib kelishdi. Xon bu bechora mazlum asirlarni ko'rib o'ldirish haqidagi hukm bilan ularga g'azab qildi:

– Bularning hammasini yer bilan teng eting, paxsaning orasiga olib, ulardan devor qiling, yuzlari devordan tashqariga chiqib tursin; hamma tomondan xalq ularni ko'rib, ibrat olsin. Bu qahrdan odamlar hisob olib, ular ko'p azob chekib o'lsin.

Jazolovchilar bu buyruqni bilib, hukm qanaqa bo'lsa, o'shanday bajardilar. Zarrin ohu¹ tog' orasiga yashiringach, yengil shabada xo'tan mushki² ni socha boshladi. Dasht yerda bazm qurgan xon o'tlanib shahar tomon yo'l oldi. May boshini, ishq o'ti badanini qizdirar edi. Shaharning nozanini ham yonida edi. Ularning yo'li haligi paxsaning oldidan o'tdi. Har tomondan yuz xil nola va faryod eshitilar edi. Xusumatkor shoh odamlarini qoldirib, o'sha tomonga bordi. U jazoga buyurilganlarning ishq yo'lida qanchalik mustahkam tura olishlarini bilmoqchi bo'ldi. Paxsaning orasida bir to'da tutqunlar ko'rindi. Ularning har biri o'z ahvoliga yig'lar edi. Ularning hammalari pushaymon bo'lib turgan edilar. Faqat bir o'sha sof ko'ngil oshiq ishqning bu balolariga yaxshi qarab, yuzi kasalmand, sarg'aygan, yomon bir ahvolda, devor orasida bir somon kabi turar edi. Har lahza Tangriga sano aytib, shukr qilishni joyiga qo'yardi.

– Shu fursatda mening jonim chiqayapti. Yorning g'ami esa buni osonlashtiradi, – derdi u.

Umridan ikki-uch nafas qolganda ham u yor so'zini so'zlardi, xolos. Tilida ham yor edi, so'zida ham, og'zida ham yor edi, ko'zida ham. Zolim hukmdor uni ko'rib, ko'ngliga ishq o'ti ta'sir qildi; uni o'limdan xalos etib, yorning haramiga xos mahram qildi. Ishq balolariga shukr qilgani uchun, boq, u qanday ulug', yuksak martabaga erishdi.

Bu nafasni, Navoiy, g'animat bilib saqla, lekin har nafasda shukr ham qil.

¹ Z a r r i n o h u – quyosh deyilmoqchi.

² X o ' t a n m u s h k i – qora tun ko'zda tutiladi.

Soqiy, alvon may yo'lida o'ldim; may demagin, chinlik bir sanam uchun o'ldim. Chiniy qadahlar tutib, meni mast et; Chin odamlari kabi bodaparast qil.

LVIII

O'N TO'QQIZINCHI MAQOLAT

Xurosonning misli yo'q viloyati bayonida... xususan saltanat uyi bo'lmish osoyish joyi – Hirot tavsifida; garchi (o'tmishda) bog' bo'lsa ham, ammo qurib qolgan edi, lekin shoh¹ oqizgan soyning adolati uni oliy jannatning rashki keladigan yerga aylantirdi, agarchi (bir vaqtlar) obod bo'lgan bo'lsa ham, biroq buzilib ketgan edi; shahanshohning quruvchilik ehsonidan Chin rasmxonasining ham rashki keladigan joyga aylandi

Hamma narsalarni yaratuvchi Xudo jahonni bino qilganda, osmonning bir qismini ko'zga ko'rinadigan, ikkinchi bir qismini ko'zga ko'rinmaydigan qilib yaratdi. Yetti osmonni doira shaklida qurib, ularning har bittasini bitta sham' bilan yoriydigan qildi. Bu sham'larning oltitasi tovlanib tursa, bittasi mash'al bo'lib porlab turadi. Ularning uchtasi quyiga, uchtasi yuqoriga intilsa, mash'al kabi porlab turgani osmonning to'rtinchi uyiga nur sochadi. U sham'lar sham' emas, tafakkur kechasi o'sha mash'alda sachragan uchqunlardir. U mash'alni esa mash'al emas, o'zidan nur sochuvchi dur desa bo'ladi; dur ham emas, porlagan quyosh deyish kerak. Ko'kning yetti iqlimida u sulton, qolgan hammasi tan bo'lsa, bu hatto ularga jondir. U o'rtadagi osmonda har tomonga nur sochib, «Hamma ishning o'rtachasi yaxshi» degan hikmatni isbotlab turadi.

Yulduzlar yetti qismga taqsimlangani singari, bilki, jahon ham yetti iqlimga bo'lingan. Ularning hammasi bir-biridan quvvat oladi; har biri ikkinchisidan tarbiya topadi. Quyosh qolgan oltitasidan ustun bo'lgani uchun u joylashgan iqlim ham unga loyiqdir. Qayerda quyosh nur sochib turgan bo'lsa, yulduzlar ko'zga ko'rina olmaydi-ku! Uning o'rnashgan joyi to'rtinchi osmondur. Ham o'zi shu iqlimning tarbiyachisidir.

Yer yuzida ham shu iqlim eng yaxshisi bo'lib, ko'kdagi quyosh uyi kabi benazirdir. Yerni o'lchash fani yo'lga qo'yilgandan keyin bu joyni to'rtinchi iqlim deb atay boshlashdi. Go'zallikda u jannat bog'lariga o'xshaydi; bu bog' emas, Xuroson mamlakatidir. Sathi to'rtinchi osmondan ham keng, martabasi yettinchi osmondan ham baland. Uning ichidagi shaharlarning soni nihoyatda ko'p. Ularning har birining go'zalligi haddan ortiqdir. Shaharlari latofatda oliy bir jannatning o'zi. Yaxshi odamlari o'sha jannatning oq yuzli qizlariga monand. Tog'larining oldida falak oddiy bir dasht. Uning cho'qqilarida

¹ Shoh – bunda Husayn Boyqaro nazarda tutiladi.

har kim aylanib, tomosha qilishi mumkin. Bu tog'larning har birining bag'rida yuz xil konlar bor. Bu konlarni ajoyib javharlar o'ziga makon etgan. Oqib kelayotgan suvlar oddiy chashmalardan emas; ular konlardan oqib kelayotgan javhar suvlaridir. Dashtlarining sathi oinaning sathiga o'xshaydi. O'sib yotgan o'tlar bu oinaning yashil rang zangini tashkil etadi. Uning sabzazorlari osmon gulshanida rashk uyg'otadi. Tuprog'iga esa har qanday toza anbar havas qiladi. U yetti osmon boyliklarini o'ziga sig'dira olishi mumkin. Yetti iqlim tan bo'lsa, bu — siynadir.

Uni jahonning ko'ksi deb ta'riflash kerak. Undagi yurak esa go'zal Hirot o'lkasidir. Kimki ko'ngulni maqtab, asoslay olgan bo'lsa, uni badan mamlakatining sultoni degan. O'zini bilgan odam buni ham ta'riflab, butun jahon mamlakatlarining podshosi deydi. Uni «ko'ngul» emas, «shoh» desa ham ajablanish kerak emas, chunki shohning joyi ham o'rtada bo'ladi-ku!

U ko'nguldan joy olgani uchun odam ham undan ko'ngul uza olmaydi. U ko'ngullarga yoqib qolgan ekan, bu — ayb emas. Ko'ngullardan ham bir-biriga yo'l ochildi. Ziynati xuddi inson badanining shaklidek, kengligi ko'ngul kishvarining kengligidek. Uni kishvar dema, bog'i Eram deb ata; Eram ham emas, Baytulharam deb ata.

Uning tevarak-atrofi shu qadar kengki, xayol elchisi uning hammasini yuz yilda ham aylanib chiqa olmaydi. Uning sathiga egilgan osmon o'zi tartib bergan; quyosh soqqasi bilan tekislangan; uning tuprog'ini mushkka aylantirgan; ko'rinishini behishtning rashki keladigan qilgan. Qo'rg'onning devorlari ham shu qadar mustahkamki, baland osmon qal'asi undan uyaladi. Uning atrofidagi burjlari shunday ko'tarilganki, osmon uning ostida qolganday. Arki ham to'qqiz osmondan buyuk, yer yuzidan osmon ko'tarilib turganday, devorlarning kunguralari quyosh kabi tovlanib turadi. Ular malaklar to'dasiga mehrob bo'lib xizmat qiladilar. Ulardagi lavhalar koshin bilan ziynatlangan; koshinlari uni yuzta lojuvard osmonday bezatgan. Darvozasiga osmonning fili ham sig'ib ketadi; toqi osmon toqidan andoza olgan. Xandaqi yerning tagiga kirib ketgan, chuqur; qal'ani yer soqqasidan alohida ayirib turadi. Qal'a ichidagi qo'rg'on osmondek yuksak.

Shaharda yulduzlarcha askarlarning g'avg'osi. To'rt tomon ketgan yo'l uning bozorlari; u yerda kim bo'lsa, hamma biron narsaga xaridor. Xaridor qanday narsani olishni o'ylamasin, sotuvchilar undan yuz hissa ortig'ini muhayyo qiladilar. Turlicha mollarining qiymati bilan har bir do'kon har qanday dengiz va kon qiymatiga tenglasha oladi. Bazzozlar rang-barang kiyim-kechaklarni taxlab qo'yishgan; ular osmon atlaslari kabi qatma-qat turibdi. Qutichalardagi gavharlar va javharlar osmon va undagi yulduzlarni eslatadi. Bu bozorga kirib qolgan kishi chiqishga yo'l topa olmay qoladi; aylana berib, kishi butunlay aqlidan adashadi.

Uning Masjidi Jomei yana bir olam; uning toqi alohida bir katta osmon. Shahar o'zi bir jahon bo'lsa, unda bu ham bir jahon: ikki jahon biri birining ichida nihon. Uning minbari osmonga zina bo'la oladi; bu zinaning poyalari Mushtariy sayyorasigacha yetadi. Oy unga jahonni yorituvchi qandilday; osmon kamalagining ko'rinishi unga mehrobday.

Shaharda bu xil binolar behisob; shahar devoridan chetdagilar bu hisobga kirmaydi. Qayoqqa ko'z tushmasin, devor bilan to'silgan. Hammayoqda obodonlik, odamlar o'ttirishi mumkin bo'lgan joy bor. Mahallalar tayinli bo'lishi uchun mahalla ahllari shahar-shaharga bo'lingan. Bu mahallalarga shaharlarning oti berilgan; shuning uchun Hirotida yuzta shaharning nomi bor.

Hay, hay! Bu Hirot qanaqa shahar bo'ldi?! Uning bir qismi ikkinchi qismidan ajoyib! Ikki turg'un osmondan belgi bo'lgan uning ikki xiyoboni Somonchining yo'lga o'xshaydi. Unda mavjud xonaqohlarning hammasi obod; kishi uning yoniga borishga hayiqadi. Unda ushalgan nonning har biri quyoshning gardishi, qaddi xam, osmon esa unga tilanchidir. Bunday zikr ovozalari falakdan, falak emas, malaklar to'dasidan ham oshib ketadi. Madrasalarning har bittasi alohida o'z qadriga ega; ulug'vorlikda ko'k madrasasidan ham baland. Ularning nusxasini binokor quruvchilarning yaratuvchi qo'llari chizgan. U yerdagi mudarrislarining dili ravshan, ruhi pok. Shogirdlari har varaqni ochganda foyda oladilar; ular Atorudga ham saboq bera oladilar.

Madrasa toqlarining kengligiga chegara yo'q. Ularning gumbazi osmon gumbazini eslatadi. Gumbazining har koshinida quyosh aksi tovlanib; ko'k gumbazi ichida quyosh yurgandek bo'ladi. Har tomondagi minoralari shunday balandki, ularni tutam-tutam guldasta deb o'ylash mumkin. Ularning qubbalariga o'xshaydilar. Bu qubbalar ularga muqaddas taxt bo'lib, egilgan osmon ularning qafasidir. Qubbalarining cho'ziq va yassi ko'rinishi ularning ilohiy taxtga ham ustun bo'la olishiga dalildir. Qubbaning uchi va undagi yarim oy o'z bayrog'ini ko'tarib, ilohiy taxta va qalamning ma'nosini zohir etib turadi. Har kecha muazzin pastni sham' bilan yoritadi; yulduzlar sham'ini esa falak yoritadi. Osmonning aylanishi va sustlashishidan qubba etagida kesishuv chizig'i paydo bo'lgan.

Har tomoniga oliy darajada masjid qurilgan; uning ziynatini aql hech narsaga taqqoslay olmaydi. Uning buyukligi baland osmonnikicha, osmon emas, Masjidi Aqsonikicha¹. Uning shamdonlari kaptarlarga xilvat uya; kaptarlar unda Jabraildek o'tiradilar. Bu masjidlarga toat-ibodat qiluvchilar to'planishgan; bu jamoat malaklar to'dasini eslatadi. Bunda har kun besh marta cheksiz g'ulg'ula yuz beradi. Bu – g'ulg'ula emas, Muhammad payg'ambarning dabdabasidir.

Bog'larining har biri jannatmisol, har burchagi jannat bog'iga tanbeh beradi. Uning biron manzili boshqasiga o'xshamaydi; har manzili ayshu tarab manzilidir. Hamma chamanlar gulu gulzorlik; har

¹ M a s j i d i A q s o – Suriyadagi mashhur qadimiy masjid.

chamanning yo'li bo'g'in-bo'g'in. Har bo'g'inida yana gulu gulshanlar bor, ular olti burchakligina emas, sakkiz burchakli ham.

Gullarning navlarini nima dey? Shuncha gulki, shuncha gul bo'lganda ham sanaganingcha bor. Dehqon ko'chatlarni parvarish qilar ekan, shoxiga yuz xil mevani payvand etadi. Har daraxtning yuz xil guli va xususiyati bor: qizig'i shundaki, mevasi ham yuz xil. Sahnidagi bir daraxt yuz xil gul chiqarish bilan birga uning gulining hidi o'n ikki chaqirimga boradi. Qushlari ham yuz xil, kuylashi yoqimli; sabza va gullar ustida yurgani yurgan. Oqar suvlari kuylagandek ovoz beradi, go'yo may idishidan qult-qult may quyilayotganday. U ovoz odamlarni xuddi xursandlikka targ'ib qilayotganday. Bu sadodan bog'ning dimog'i ho'llangan bo'ladi.

Qasrlarining barchasi keng va mustahkam. Ularga naqsh berishda Chin naqqoshlari qalamlarini sindirgan. Ziynati Chin shoyisining ziynatidek. Naqshini taqdir naqqoshi naqshlagan. Toqiga osmon zinasi narvon. Aylanma kungurasida Zuhul sayyorasi posbonlik qiladi.

Janubiy chegarasida ajoyib bir daryo bor, uni daryo emas, ko'k osmon dengizi desa bo'ladi. U osmon emas, uning har bir ko'prigi ham firuza gumbazlardan boshqacha ko'rinishga ega. Shimoliy chegarasiga qarab ikki soy oqadi. U ikkisidan shahar xurram va serob. Ikkisi ham hayot suvining ta'mini beradi. Jannatdagi to'rt ariq uning oldida uyatda. Bu suvlarning tiniqligi Xizr suvidek. Yengil shamoli lsoning (hayotbaxsh) nutqiga o'xshaydi.

Unga tutash katta yerlar bo'lib, undagi har burchak o'zi bir viloyatga teng. Misr va Samarqand unga monand kelolmaydi; har viloyatining o'zi ichiga yuzta Misr va Samarqandni sig'dira oladi. Uni Xudo o'zi ofatlardan asrasin; barcha balolardan omon saqlasin!

U shubhasiz bunday emas edi. Oldin hozir bor narsalarning o'ndan biri ham yo'q edi. Buncha sharafni u shoh insofidan topdi; uning vasfiga aql loldir. Bu g'olib podshoh aqli tiniq, tinib-tinchimas podshohdir. Adolatni o'rganishda Anushirvon unga shogirdidir. Anushirvon unga shogird bo'lishni havas qilib, uning yuz ishidan bittasini o'rgandi, xolos. Adolat yo'liga qadam qo'ygan holda u adolat bilan islomni o'rganmagan edi¹. Mamlakatni boshqarishda u yuzta yaxshi qoidaga amal qilgan. Bu qoidalarning hammasi podshohlik ishida kerakdir. Lekin hammasi qolib, u bitta adolati bilan mangulik topdi va qiyomatga qadar yaxshi ot qoldirdi.

Adolat hamma narsadan yuqori bo'lib, dindagi yuz qoidadan ham yuksakdir. Butun odamzod orasida dunyoda buning oti ham unikidan yuz hissa ortiq qolsa ajab emas. Odamzod bor ekan, olam bor ekan, olam ichida odamzod yashar ekan, adolat bilan olam yuzini obod qil, yaxshi xulq bilan dunyodagi odamlarni shod qil. Butun odam va odamzod, yo'q, bu ikki olamgina emas, yana bir olam ham sening hukmingda-ku!

¹ Anushirvon islom dinini qabul qilish haqidagi Muhammad payg'ambarning maktubini yirtib tashlab, islomni rad etgan edi. Bunda shunga ishora bor.

LIX

*Bahromning may ta'siridan baxtining ko'zi uyquga ketib,
mamlakatining binosi bu seldan yiqilgani va mazlumlar faryodidan
uyg'onib, buning chorasini ko'rgani*

Yazdijird jahon mulkini tark etgach, Bahrom maishatga berilib ketdi. G'aflat hodasi uni mast qilib, mastgina emas, bodaparast qilib qo'ydi. Shoh mayni ichib, mastlik uyqusiga ketishi bilan boshqa mastlar uning mamlakatini xarob etishga boshladi. Ko'ngli xastalarning ko'nglini ovlashni o'ylamay, ishlari faqat dashtda ov qilish edi. Ichkilik ichib, yomonlik qiluvchilar uning mamlakatini yer bilan yakson qilishdi.

Bahrom ov qilib yurib, bir kun adashib qoldi. Shunda u birovning chaylasiga kirib, mehmon bo'ldi. U chayla emas, hijronning qora kechasidek qorong'i, zulm-sitam qushlarining tuzog'iga o'xshagan, oshiqslarning ko'ngul uyidek buzuq, yog'ochlari o'qqa o'xshab har tomondan chiqib turgan joy edi. Bu chaylani zulm o'qlari teshgani ko'rinib turar; bir necha mazlumlar u yerdan boshpana topgan edi. Zamona zulmidan ularning hammasi yalang'och, zulm qo'lining shapalog'idan hammasining qaddi bukilgan edi. Bitta qotgan non bilan suv olib kelib, uy egasi ularga xizmat qila boshladi. Shoh ahvolni ko'rib, nima gapligini so'radi.

U:

– Ahvol mana shu ko'rib turganingday, – deb javob berdi.

Shoh dedi:

– Bu faqirlik, ojizlik, muhtojlik nimadan? Buning hamma sirlarini ro'yi rost ayt?

U dedi:

– *Burun ahvolimiz yaxshi edi. Bizning ahvolimizni zulm xarob qildi. Shoh xalqning ahvolidan xabardor emas. Unga may va kuydan boshqa narsa kerak emas. Uning odamlari tama' og'zini keng ochib, mamlakatni yer bilan teng qilishdi.*

Shohning ko'ziga ro'para bir koshona ko'rindi, lekin uning har xonasi vayrona edi.

Shoh so'radi:

– Bu vayrona ilgari nima edi?

U javob berdi:

– Saroy edi. Atrofi esa bog' edi. Unda eskidan-eski daraxtlar, yangi chiqqan gullar o'sar edi. Ikki tegirmon koriz suvi ham bor edi. Bu ajoyib suv dehqonchilik daromadlari bilan shu joyni kent, hatto shahar qilib yuborgan edi. Endi korizga qarashga kuch qolmadi. Taqdirning unga ko'zi tegib, ko'r bo'lib qoldi. Suv qurigandan keyin bog' ham quridi; gul ham qolmadi: gul u yoqda tursin, uning yafrog'i ham. Binoni suvash, tuzatishga ham kuch yo'q; bu ishlarni bajaradigan odamlarning o'zi ham qolmadi. Bog' va saroy – hammasi yer bilan yakson bo'ldi, zulm, tama' esa birga yuz bo'ldi. Zamona zulmi mollarni olgandan keyin, shu yomon ojizlik, shunday bir ahvolga tushib qoldik.

Shoh shu pardaning o'zidagi o'rish-arqoqdan ahvolni tushunib, joni o'rtandi, boshidan tutun ko'tarildi. G'am qilichi bag'rini chok-chok qilib, g'ussadan o'lishiga sal qoldi. Mastlik g'aflatidan uyg'onib, joni xumor o'ti bilan yona boshladi. Ayshu ishratdan, xursandchilikdan ko'ngli sovib, hamma qilayotganlari xato ekanini tushundi. Zolimlarni yo'qotishni fikr qilib, adolat qilishni ko'nglidan o'tkaza boshladi. Xudoning nomi bilan shu niyatni qilgan edi, shu paytda bir odam xushxabar keltirdi. U dedi:

– Korizni teshib, obi hayotdek pok va sof suv chiqib ketdi.

Uy egasi Tangriga shukr qilib, dedi:

– Ayshga berilgan shoh zulmni qo'yib, adolatni niyat qilgan edi, bundan darhol yaxshi xosiyatlar ko'rina boshladi.

Shohga bu so'z ham tanbeh bo'ldi; uzr aytish bilan uni boy qildi-da, u bilan xayrlashdi. Mamlakatga qaytib, adolat ko'rsatdi; g'am bilan ezilgan xalqni shod qildi; g'am bilan ezilgan xalq shod, bu hol mamlakatiga ham tez ta'sir etdi.

G'oziy podshohimiz¹, bir nafas yo'qki, mamlakat va xalq g'amini yemasin. Shunday ekan, uning mamlakati obod bo'lsa, ne ajab! Xalqi ham shod ekan, bunga hayron bo'lmaslik kerak. To abad uning orzulari ushala borsin! Shu hol xasta Navoiyda ham yuz bersin.

Soqiy, yoqimli qadahni olib kel, shohni baland ovoz bilan duo qilib, uni menga tut. Jonim qiynalyapti, birpas uni shod etay, tan uyini shu suv bilan obod etay!

LX

YIGIRMANCHI MAQOLAT

Maqsadning o'talgani haqida; agarchi bu latif so'zlar majmuasi shunday bir to'plamki, nozik ma'noli so'zlardan iborat tuhfalar bilan to'la va nozik ma'noli so'zlar to'plami shunday kemaki, foydali injular unda xilma-xildir; lekin tab' daryosidan sohilga eng oldin kelgani narsalarning eng qimmatlilari bo'ladi va zehn shabistonidan ham eng oldin jilva zuhur etgan kelinchaklar bo'ladi, shunga ko'ra bu to'plamni saltanat bog'chasining oldingi guli va xalifalik chamanining qad ko'targan nozli sarvi bo'lmish sulton Badiuzzamon bahodir, hayoti davomli bo'lsin, oyog'iga nisor qilindi hamda unga nikohlab berildi, toki bu nasihatlar uning dilida o'rnashib qolsin va bu javharlarni qulog'iga ossin

Olamda nimaiki mavjud bo'lsa, hammasining siri ichida, o'rtasidadir. Qayerda ularning har birining mohiyati zohir bo'lsa, uning aslida unga xos xususiyatlar ham yashiringan bo'ladi. Quyoshning xosiyati nur berish, qizdirishdir; durning yaxshilari bulutning

¹ Sulton Husayn Boyqaro deyilmoqchi.

urug'laridir. Yagona gavhar ham konning farzandidir; anbarning eng sofi esa dengizning farzandidir. Inson o'rnini bosadigan insondir; shohniki shoh, xonniki xondir.

Sof ko'ngul shohni kondek ko'rgan odam shahzodani bu konning gavhari deb bilsin. Garchi bu konning ichida shohona durlar ko'p bo'lsa ham, hammasini parvardigor o'zi martabada toj egasi qilsin: ularning har biri misoli bir quyosh bo'lib, osmonni to'n o'rnida kiyib yursin.

Lekin ularning ichida yagona bir gavhar bor. U martabada hammasidan yuqoridir. Balki, u xavf-xatarsizlikning sababchisi Jamshiddek qadrli hukmdor Badiuzzamondir. Tabiatining pokizaligi bilan u farishtaning o'zi. Bu qadar pok sifatlarga ega bo'lgan odam boshqa yo'q. Uning asli inson bo'lsa ham sifatlari farishtaniki; hatto aslini ham, sifatini ham farishta deyish mumkin. U sof latofatning o'zidan yaratilgan bo'lib, turish-turmushi jahon xalqiga Xudoning rahmini namoyish qilishdir.

Sening to'g'ringda so'zlash, maqtash qiyin. Har qanday notiq ham *vasfingda gung va lol*. Senda shuncha yumshoqlik va ulug'vorlik borki, menday odamning madhidan or qilishing mumkin. Quyosh odamlarning har qanday vasfidan yuqoridir. Uning nurini inson nima deb maqtashi mumkin?! «Obi hayot odamlarga jon beradi»— deyish obi hayot uchun yetarli ta'rif emas. Oyni yorug', osmonni baland deyish tab'i baland odamlarga yoqadigan gap emas. Madh bilan seni maqtash mumkin bo'lmagandan keyin, men boshqa tomondan xizmatini qilayin.

Xabaring borki, hukmdor shohga ko'p maxfiy narsalar yaxshi ma'lumdir. Dunyoda ertaga nima ishlar bo'lsa, u o'z fikr qudrati bilan bugun bilib turadi. Ertaga emas, indinga bo'ladigan ishlar daftarini ham bir-bir o'qib, u uzoqni, hamma kunlarni biladi. Uning sirlil xayolotidagi yuz ming suratlar xotira ko'zgisida jilva ko'rsatadi. Shuncha yetukligi bilan u:

— Ko'nglingga qanday yaxshi ish kelsa, oldimga kelib, birma-bir ayt, yaxshi eshitmagan bo'lsam, boshqatdan ayt! — degan menga.

Shohgaki so'zimning e'tibori bor ekan, senga ham nasihat qilsam o'rinlidir.

Shuni bilginki, umr vafosizdir, davlat va martaba ham baqosiz. Dunyoda baxt va baxtsizlik tushday bir narsadir. Ko'zni yumib ochguncha hammasi o'tib ketadi. Bu dunyoning binosini xarob deb tushun; unda nima ko'rinsa, sarob bil. Jumla jahon mutlaq foniydur; mutlaq doimiysini istasang, u Xudoning o'zidir.

Inson jismi uyining birinchi nusxasini chizgan o'sha; unga ruh berib, oluvchi ham o'sha. Olamda inson tirik ekan, unga munosib ish — Xudo bilan bo'lishdir. Kimki Xudoni eslashdan ogoh emas ekan, bilki, u shoh bo'lsa ham gadodan pasdir. Birov gado bo'lsa ham, lekin Tangrini unutmagan bo'lsa, ikki janon podshohlighi unikidir.

Bu sahifada nimaiki yozilayotgan bo'lsa, hammasini taqdirning qalami yozmoqda. Oldingda ko'ngilsiz ko'p ishlar yuz bersa, nolish qilma, bu Xudodandir. G'alaba qozonsang, buni bilaging kuchidan

deb bilma; bu g'alabani g'alaba beruvchidan deb bil. Shohligingga e'tibor qilma; Xudoning g'azabiga, lutfiga e'tibor qil. Ko'rgin, fil mingan qo'shin bir lahzada qaldirg'ochlar hujumi bilan qirilib ketgan¹. Koshona manzillar yo'q bo'ldi, ularning har birini bitta qush buzdi. Yoki, esla, Zahhok qanday azoblarni tortdi! Boylikni esa xudo Faridunga nasib etdi. Zahhokning qahridan yirtqich sher ham qo'rqardi. Lekin uning boshini sigir sutini ichgan bola oldi².

Xalqingga jism va ruhni sen bermagansan. Ularga zafar aql va imon eshigidan keladi. Ularga ajoyib bu ne'matlar Xudodan bo'ladi. Ularning rizqlariga u seni sababchi qilgan. U seni sababchi qilish bilan baxtiyor etti. Aks holda odamlarga ulush berishga senga qayerdan ixtiyor bo'lardi.

Shunday ekan – ba'zi nodonlar sening farmoningga bo'ysunmas ekanlar, bunga boshliq bo'lishning qonuni bo'lib, hammasiga (o'sha bo'yincha) jazo xavfi bor.

Senga Xudo toju taxtni marhamat qildi, ko'p baxt va iqbol baxsh etdi. Olamni hukmingga bo'ysundirib, xalq qaddini amringga egdi. Sen agar uning shuncha yaxshiligiga shukr qilmasang, Xudo nima amr etgan bo'lsa, uni bajarmasang, g'aflat va mag'rurlik ko'rsatib, buyrug'iga dastyorlik etmasang, uning qahri kelishi mumkinmi yo yo'qmi? – Ayt! Men bunga javob berguncha, o'zing javob berib qo'ya qol. Uning g'azabining qattiq shamoli kelsa, nima qilasan? Mamlakat uning mamlakatidir. Sen qayoqqa ketasan?

Unga qarshi buzg'unchilik qilib, isyon ko'tarmoqchi bo'lsang ko'tar, agar buni undan yashira olsang. U holda xalq oldida xijolatlik yuz beradi. Yaratuvchi buni ko'rsa, qanday bo'larkan? O'z ishlaringdagi xalqdan uyalar ekansan, bu Xudoga ma'lum bo'lsa, u vaqtda nima bo'ladi?

Asl maqsadni ko'zlamog'chi bo'lsang, Muhammadning shariati yo'lini tut. Shoh najot uyidan panoh istar ekan, ushbu yo'l u uyga olib boruvchi asosiy yo'ldir. Agar qalamning qadami satr yo'lidan chetga chiqib ketsa, xat ham egri yoziladi. Shariat yo'lini o'zingga shior qil, adolat bilan mamlakatingga quvvat ber. Shoh ishini adolat bilan yurgizsa, adolat uning vayrona mamlakatini ham obod qilib yuboradi. Ba'zan dinsiz odil podshohlar uni obod qiladi–yu, zolim musulmon uni barbod etadi. Shoh adolat bilan davron sursa, uning (u dunyoda) sirot ko'prigidan o'tishi oson bo'ladi. Kim ipning ustida yurishni orzu qilsa, adolati to'g'ri bo'lsa, yuradi. Maqsadga yetish uchun to'g'ri bo'l, adolat bilan ish tut. O'qda ham to'g'rilik bo'lmasa, ucha olmaydi.

«Adl» so'zi uch harf bilan yoziladi. Lekin uning har bittasi o'zgacha mazmunga ega. Uning «ayn»i yondiruvchi quyosh bo'lib, zulmning qora shomini pok qiladi. «Dol»i esa davlat va dinning toji bo'lib, din va davlat ahllari doim unga muhtojdirlar. Oxiridagi

¹ «Qur'on»dagi hir voqeaga ishora qilinmoqda.

² Bunda zolim Zahhok boshini, Firdavsiy «Shohnoma»sida hikoya qilinishicha, undan yashirin holda sigir sutini ichib katta bo'lgan Faridun olgani eslatilmoqda.

«lom»ini hurlarning sochi deb bil; izzat va sharaf qushlariga esa uni tuzoq deb bil. Tojni kiy, quyosh bilan ko'zingni yorit, oxiridagi mahkam ipni qo'lingga tut. Mazlumning shikoyat so'zlari har qancha cho'zilsa ham uzoq umr ko'rishni istasang, malol kelmasdan eshit. Adolat istovchi zulm o'tidan fig'on qilsa, adolating soyasidan unga panoh ber. U soyada uni qayg'uda qo'yma; sham'ning tagini unga qorong'i qilma. Mazlumning so'zi to'g'ri bo'lib chiqdimi, endi zolim o'zingga tegishli odam bo'lsa ham, yuziga borma. Uning nafsi davomli ayshni istadimi, demak, u senga gunoh orttirib, o'z maqsadini hosil etmoqchi bo'lgan. U xazina ustida yotib, ilonning bahralanishini istaydi. Vaholanki undan zahardan boshqa «bahralanish»ni kutish mumkin emas. Uning orzusini o'ylab, o'zing azob chekma. Tavba qildirib, uni tekshirib tur.

Gunohning xirmoni qancha katta bo'lmasin, ohu pushaymon uni shamolga uchirib yuboradi. Gunoh o'ti qancha qattiq yonmasin, uzr ko'z yoshlarining suvi uni o'chirmay qo'ymaydi. Lutfu karam qancha yoqimli bo'lmasin, qahru siyosatning ham o'z o'rni bor. Olamdagi hamma odam birday yaxshi emas; har kimning hamma ishi ma'qul bo'la bermaydi. Yaxshi bilan yomonga barobar yaxshilik qilish yomonga ko'p, yaxshiga kam yaxshilik qilish demakdir. Lutfing shabadasi bilan odamni xursand et. Shu bilan birga jazo tig'ini ham o'tkir tut. Qanchadan-qancha kasallar qand bilan tuzaladi, lekin bir qanchalariga zahargina foyda qiladi. Malham bilan madda ochilmasa, nishtar bilan undagi yiring olib tashlanadi. Zirapcha barmoqning uchi bilan chiqmasa, badan igna vositasida undan qutuladi. Shuning uchun zamon shohi fikr qilib, yaxshiga yaxshi, yomonga yomon bo'lishi kerak. Bu ikkalasini u bir xilda baholasa, mamlakatining ichida qo'zg'olon ko'tariladi.

Birovni tezda ko'tarib yuborma hamda ozgina aybi uchun pastlatib ham qo'yma. Kim gumbazning uchiga chiqmoqchi bo'lsa, chiqish va tushish uchun maxsus zina bor. Kimki zinadan tashqariga qadam qo'ysa, unga yiqilish, ranj, alam xavfi bor. Bola savod chiqarishda hijoga qaramay o'qiydi. Sen uning zeru zabarga e'tibor berishini kuzat. Har kimni odam desang, odam bo'lib chiqa bermaydi; ko'rinishda bir xil bo'lsa ham, fe'lda bir xil emas. Sham' bilan muz sumalagi xuddi ko'chatga o'xshaydi; aslida buning boshog'i o't, uniki suvdir. Kimni o'zingga mahram qilmoqchi bo'lsang, yaxshi sinamasdan uni o'zingga hamdam qilma. Bilmasdan uni yaxshi ko'rib, yaxshi gapirma; bilganingdan keyin esa pushaymon yeb qolma. Tushingda senga pariga o'xshab, hurlardan ortiq bo'lib ko'ringan odam o'ngingda, fahm etsang, shayton bo'lib chiqishi mumkin. Ozgina ayb uchun qattiq azob berma; o'ldirish va jazolashda tezlik qilma. Qatl etish bir oz kechikib bo'lsa, hechqisi yo'q, o'lgandan keyin esa uni so'z bilan tiriltira olmaysan. Suv yuzidagi pufak puflasang yoriladi; shunday ekan, pufak yasash bilan shug'ullanish kerakmi?

Jazolash vaqtida afv etish yaxshi bo'lsa ham, lekin bu ishda farosat ham kerak. Guvohlar bir odamning gunohini isbotlagan esa-da, shariatda yolg'on guvohlik berganlar oz bo'lganmi? Yolg'on gapirishga o'rgangan odam rost gapirsa ham, unga ishonma. Rostgo'y odam hech qachon yolg'on gapirishga intilmaydi; yolg'onga odatlangan qancha urinmasin, rost gapira olmaydi. Tun bilan tong o'zaro mutanosibdir. Tongning boshlanishi yolg'on bo'lsa ham, oxiri to'g'ridir.

Kin va adovat yo'lini tutib, birovning aybi uchun boshqani gunohkor etma. Qo'ychibon bo'lsang, bu nafasda e'tiborli bo'l; har qo'yni o'z oyog'idan os. Xayolingga yaxshi bir buyruq kelsa, uni maslahatsiz amalga oshirishga oshiqma. Ta'bingdagi zavqing sog'lom ekan, odamlarning gapining tagidagi fasodini bilishga harakat qil. O'z fikringga ko'p ishona berma. Ishonchli kishilar fikridan foydalan. Shoh o'z aytganini qila bersa, fikrli kishilarning og'ziga qulf solgan bo'ladi.

Tavakkal qilmasa yurish sust bo'lsa ham, maslahatsiz, dabdurustdan tavakkal qilma. Kengash vaqtida bahs yuz bersa, xafa bo'lma. Shu bilan birga juda uzun kengashning ham keragi yo'q.

Mo'ljallangan ishingga kuching yetsa, uni bir nafas ham vaqtidan o'tkazma. Bog'dagi gulning jilvasi sahar vaqtidadir; kech qolsang, uni bolalar terib olgan bo'ladi.

O'z ishingga qancha berilmagin, uni Tangri ishi bilan qo'shib olib bor. Odil nasihatchi beg'araz bo'ladi; bilib qo'y, bunday odamning bahosi yo'q. U xato qilsa, uni do'stlik bilan tuzat. Xato qilmaslik Tangrigagina xos.

Urush kuni dushmanga yuzlanganda qoida bilan oldin saflarni tuz. Jangda xatosiz, aniq hujum qil; bilki, kishining o'limi taqdiriga bog'liq. Ajal shomida kishi uyida yotmaydi; umri bo'lsa go'rga tushib o'ltirmaydi. Alam qilib turganda ikki qadam orqaga yurguncha, harakat qil, olg'a qarab bir qadam bos. Garchi zafar Xudoning marhamatidan bo'lsa ham, harakatni buning mo'tabar sabablaridan deb bil.

Sen sipoh tortib, shunday harakat qilki, xalqning duosi seni o'z panohiga olsin. Shunga intilki, jang yuz berganda xalqning oh shabadasi ko'zingga changni urmasin. O'chli dushmanning mingta o'qi xalqning bir oh o'qichalik yarador qilolmaydi. Jangda begona odamlarni yengsang, buning shukronasiga ularni o'ldirishga harakat qilma.

Bu nomada men nimalarni yozgan bo'lsam, hammasiga shoh¹ ning ishlari men uchun qo'llanma bo'ldi. Agar ishda shohga o'xshash bo'lsang, «Bola otaning ko'rinishidir»,— degani bo'ladi. Uning qadami bo'yicha qadam bossang, yo'lda ko'p ranju pushaymonlik ko'rmaysan. Bolani murid, otani esa pir deb bil; har ishida uning buyrug'ining ta'siri bo'ladi. Baxt va qarib yurishni istasang, bu pir oldida hech ayb ish qilma.

¹ Sh o h — Sulton Husayn Beyqaro.

Xoja Muhammad Porsodan haj ahli duo qilishni so'ragani va o'g'li Xoja Abu Nasr (otasi) Xoja Muhammad Porsoning iltimosi bilan duo qilgani

Pok Xoja janoblari Alloh yo'lida «Qudsiya» va «Fasl ul-xitob» degan asarlarini yozganlar. Osmon monand gumbazda u kishining kavushlarining izlari qolgan bo'lib u kishining laqabi «Porso»¹ ekanligi bejiz emas.

Garchi o'zlari asr yagonasi bo'lsalar u kishining o'g'li kimsan — Xoja Abu Nasr edi. Tasavvuf yo'li — faqrda otasi poklarning podshosi — pokiza tabiati bo'lsa, bu pokiza tabiat podshoning o'g'li edi.

Kunlarning birida Muhammad Porso Makkaga boradigan bo'lib qoldi. Xoja Abu Nasr ham shu ishga jazm qildi. Otasi yo'lbohschilik taraddudida bo'lsa o'g'li unga eng yaqin sirdosh mahram bo'ldi. U cho'lda ketayotib, bir qadam bossa, bu ham unga ergashib, izma-iz, qadam-baqadam borardi. Bir necha kun davomida ular cho'lni bosib o'tib, (nihoyat) maqsad manziliga ham yetib bordilar.

Kelgan xalq haj qilishning asosiy qoidalarini to'la hajarib, tavof qilish orqali yaxshi-yomon murshid soliklar, hatto kelolmaganlar o'rnida farishtalar ham oliy maqomlarga erishdilar. (Tasavvuf yo'lini tutgan) foniylar ham, qolgan amaldorlar ham o'z tilaklarini bildirishib, Alloh qoshida ularning barcha tilaklari mustajob bo'ldi.

Xalqning (ko'nglidagi) iltijolarini ado etish va barcha kelganlarni duo qilishlik uchun shuncha odamlarning ichidan munosib bir kishini izlashar ekan. Xoja Porsoga yozma ishora bo'ldi. Bu vazifani bajarish Xoja Porso ustida to'xtar ekan, u esa Xoja Abu Nasrga murojaat qildi va dedi:

— U mendan ustun! Bu yuqori vazifaga menga qaraganda u loyiqroqdir! (Haj) yo'lida kimning biron rahbari bo'lmas ekan, har (xil) qo'lga qarab adashishi mumkin. Bu safarda menga biron rahnamo yo'q edi. Tangri uni menga rahnamo qildi. Oldin mening ishim uni parvarish qilish bo'lgan edi. Mening tarbiyamga qarab ish tutadigan bo'ldi. Yo'l mashaqqatlari meni vahimaga solgan edi. Yo'l qiyinchiligini (Alloh) unga oson qildi. Yo'ldagi notinchliklar menga zarar keltirsa, unga bu tariqat yo'lida rohat va huzur bag'ishladi. Men (yo'l-yo'lakay) o'zim uchun, uning uchun tashvish chekkan bo'lsam, u o'zini ham, meni ham Allohga topshirib, barcha tashvishlardan xoli bo'ldi.

U shunday deb, o'g'lini ko'rsatar ekan, unga qarshi uzr aytishga imkoniyat qolmagan edi. Otasi sham' singari ko'zidan yoshlar to'kib, ichidan yonayotgan (qari) chinordek duoga qo'lini ochdi, rahmat aytib, odatga ko'ra kechirishlariga istak bildirdi. Xoja esa ko'zida yosh bilan omin qildi. Uning so'nggi duosi shunday bo'ldi:

¹ Porso — xudojo'y.

— Ey Xudo, seni panoh qilib, uyatga qolgan holda deyman: «Men qanday tilak bildirish rasmini o'rniga qo'ya olmagan bo'lsam, uning qilgan ominini zoye' etmasang bo'lgani!»

Ota deyishga loyiq kishining sa'y-harakati bilan o'g'lining ishi shu darajaga yetdi.

Ey Xudo, o'sha qilgan omin va duolaring hurmati hamda ota va o'g'ilning hurmati! Sen bu ota bilan o'g'ilni doim davlat va din taxtida uzoq tutgaysen! Uning boshqa o'g'illarini, uning o'g'illari buning inilarini ham hurmatga sazovor etgaysen! Butun olam ularning ixtiyorida bo'lib, olam xalqi ichida shayxu shahriyor ham shulardir.

Shohni duo qilish bilan so'z ham tugadi. Endi Navoiyning tilagi sharobdir.

Soqiy, qadahda hodani olib kel, uni menga xoh shoh tutsin, xoh shahzoda, farqi yo'q. Ertayu kech mast bo'lay. Qachongacha riyo bilan porso bo'laman!

LXII

Ojizlik va siniqlik tuprog'larining sariq rang somoniga peshona terini to'kib, somonli loy tayyorlab, bu faqirlik kulhasini yuz oh va o'rtanish bilan suvah tamomlamoq; kiprikning siniq ignasiga ko'z yoshining uzun ipini o'tkazib, yuz teshik va tikik bilan yamashni tugallamoq; bunday tuzatuvchilikdan xijolat bo'lib, uzr hujrasiga kirmoq, bu tikuvchilik uchun uzr so'rab, xijolat yoqasiga yashirinmoq, Tangrining obodontlik ehsonidan afv maskanini tilamoq va marhamati xazinasidan muruvvat sarposini istamoq

Mendek oshuftahol, shaydoyi odam bu orzuni¹ xayolimga keltirganimda, bir necha kun yashirin ranj chekdim; obi hayot istab, jonimni qiynadim. Kitob yozish uchun qalam yo'nib, qalam uchun qog'ozlarni tayyorladim. Sahifa bo'ylab qalamim naqshlar chizib, ovozi nay ovozidek baland etdi. Nay kuylab qanday avjga chiqsa, mening qalamim o'z kuyini undan ham oshirib yubordi. Nay ovozi eshitib, so'fiylar to'dasi zikrga tushib ketganlari singari, bu qamish qalamim ovozi kesak uylarga, hatto to'qqiz osmon gumbaziga ham yetib bordi, odamzod orasiga g'avg'olar soldi. Malaklar orasida ham shovqinlar ko'tarildi. Odamzod eshitib, dardi oshib, dard bilan yoqasini chok-chok qildi. Malaklar eshitgach, jonsiz bo'lib, yarador bo'lgan qush kabi qanotlari osilib qoldi. Uning kuyidan xush bo'lsa ham, noxush bo'lsa ham, baribir, mamlakat ham, malaklar ham hayajondadir.

Endi zebo yuzli bir gulrux² xat va xol bilan naqshlangan va suratlangan ekan, osmon pardozchisi o'z ishini tamomlagach, u o'n to'rt kunlik oydek to'laligi ila namoyon bo'ldi. Shu'lasidan sharqu

¹ Bu orzu — «Hayrat ul-abror» dostonini yozish.

² Zebo yuzli gulrux — «Hayrat ul-abror» deyilmoqchi.

g'arb yorishib, yeru ko'kka yana to'polon tushdi. Charx kotibining qalami sinib, uni siyohdonning ostiga tashlab qo'ydi. Osmon xazinachisi oldimga kelib, quyosh bilan birga boshimdan aylana boshladi. Boshimdan sochish uchun joni bilan birga to'qqiz dasturxon yulduzni naqd keltirdi. Malaklar ustidan pullar, naqd durru gavharlarni sochdi. Mening hurmatimni qilib u gard singari yerdan ko'tarildi, boshimdan aylanib, oyog'imni o'pdi. Oldimga yuzlab boylikni qator qilib, hammasini oyog'im ostiga sochqi etdi. Boshim ustidan konidan keltirgan la'llarni sochdi; oldimga Ummonidan durlarni to'kdi.

Bu hayratda men fikrlab qoldim; hatto bu fikrlashda hayron bo'lib qoldim. Ushbu varaqlarni mening qalamim (peshonamdagi) yozig'lar kabi qoraytirgan ekan, ular bu qadar izzatga arzimaydilar, balki bu izzatning mingdan biriga loyiq emas. Ular, u aytganday, yomon ham emas. Yaxshidirlar, lekin maqtagunday emas. Ma'nosi yaxshi bo'lsa, tarkibi yo'q; ko'rinishi yoqimli bo'lsa, tartibi yo'q.

Ularni yozishga ko'ngul ketgandan keyin o'n bayt ham yozmay, ko'ngul qorong'ilashdi. Chunki boshimda qiladigan ishim ko'p edi. Bosh qashishga ham vaqtim yo'q edi. Osmon varag'i tun qorasini zirnix¹ bilan yuvgan vaqtdan boshlab, har tomonga tong nur sochib, toza supurgi bilan kecha qorong'iligini supura boshladi. Tun o'zining anbar sepilgan lattasini yashirarkan, tong o'zining zarli bayrog'ini tikdi. Bu bayroq endi o'zini yo'qlik mamlakatining bayrog'i deb e'lon qilgunga qadar, shom qoraga qizil rangni qo'shib, nur harflarini qoraytirgunga qadar, osmon yulduzlarini zohir etib, qora choyshabini durlar bilan bezagunga qadar men shu orada ezilib, xalqning jabru jafosiga giriftor bo'laman. Xalqning yetkazgan azobidan bir dam menga tinchlik yo'q; odamlarning jabridan bir nafas oromim yo'q. Bu xastaning g'amli uyiga (arz bilan) kelgan odamning ketish yodidan butunlay ko'tarilib qoladi. Bir guruhi ketib ulgurmasdan, albatta boshqa ikki guruhi kirib keladi. Ular buzilgan ko'nglimga o't yoqib, ertalabdan-kechgacha jonimni oladilar.

Menga ular shunday ishlarni buyurishadiki, bajarish oson emas; uni bajarishning sira imkoni yo'q. UZR aytsam, hammalariga qattiq botadi; yaxshi gapirsam, achchiqlari keladi. Ularga osmonlarcha xayru ehson ko'rsatsang ham, har osmonni ular bir xashakcha ko'rishadi. Kimning ko'zini tamagirlik katta qilib ochgan bo'lsa, bir qatra ham, butun bir daryo ham unga bari birdir. Berganingni olib, yana norozilik ham izhor qiladi. Ko'p bergan bo'lsang ham oz deydi. Har biri o'zicha so'z so'zlash ishtiyoqida; o'zicha so'z so'zlash bilan birga yuzta niyati bor. Birovning Rustamcha kuchi, Hotami Toyicha himmati, qo'lida Qorunning boyligicha boyligi bo'lsa ham ularni rozi qilish qiyin.

Menda bu narsalarning birontasi yo'q. Zaiflik uyida dard bilan hamnafasman. Shuncha g'amu mehnatim bo'la turib, men ularga ehtiyot

¹ Z i r n i x — olingugurt bilan margimush aralashmasi.

bilan savol-javob qilaman. Tabiiy kasalligimning o'zi ham bir sari, ular bilan muomala qilish ham bir sari bo'lib, kuni bilan tomog'im qurigan qurigan. Kechasi esa uyqum qochib, farog'atsizman. Kunduzi bo'lsa yana ahvol shu; kech kirdi deguncha, yana o'sha hol.

Kimningki vaqti shu xilda tang bo'lgach, yaxshi she'r yozishga uning qachon imkoni bo'ladi? Bu yaratgan nazmim eng sof dur darajasida bo'lmasa, men bu yozganim uchun kechirim so'rashga haqliman. Vaqtimning iplari qisqa bo'lib, men uni ko'nglim xohlagandek uza olmadim. U shu xilda yaratilgandan keyin unga ortiqcha martaba qayerdan bo'ladi. U qanday qilib el orasiga hoy-huy soladi-yu, qanday qilib hamma tomonga uzundan-uzoq dovrug'i ketadi!

Menga yetarli imkon bo'lganda, bir kecha-kunduz davomida bir-ikki nafas mehnatdan qutulib, dam olib, ko'nglimdagidek osoyish topganimda, xilvat bir go'shada o'ltirib, ta'bim faqat fikrlash bilan band bo'lganda, durdona nazm yaratish bilangina shug'ullanib, xayol dengizida g'avvoslik qilganimda, unda yurganimcha yurib, u dengizdan xohlaganimcha olganimda edi, bu sohani tushungan odamlar undan nazm degani qanday bo'lishi kerakligini bilib olgan bo'lishardi. Hayotda eng muhim bir narsadan-ku, cho'ntak quruq qolgan edi; ijod sohasidagi orzu amalga oshmasa, aybi yo'q.

Shu xilda men bu navoni¹ kuylab turarkanman, bir pok fikrli oqil nogah menga dedi:

— Ey qalami o'zlik siyohiga botirilib, insof xatiga boshini qo'ygan odam! Sening zaifligingga Xudoning o'zi quvvat beradi. Insofing ko'rinishlariga yuz ofarinlar bo'lsin. Sen bayon qilib bitgan narsa shuni ko'rsatadiki, sen bundan ham yaxshi yoza olasan. O'zing aytgandek yuqori qilib, istaganingdek yoqimli etib yozganingda, unga bozor bundan ham katta, butun olam unga xaridor bo'lgan bo'lur edi! Shunday bo'lsa ham, u jahon bo'ylab savdoda; ovozasini butun borliqni to'ldirgan. Bu jahonning bezagi undan, dengiz va kondagi gavharlar ziynati ham undan. Shohning otidan u sharofat topdi; chunki saxovat quyoshi ham Xudoning soyasi bo'lmish podshoh oti tufayli yuz beradi. Uning asl zoti sharofat dengizini tashkil etgan bo'lib, bu dengizdagi gavhar esa uning nomidir.

— Ey nomiga adolat tangasi zarb qilingan, zotiga hukmdorlik xutbasi o'qilgan shoh!² Sendan uyalib, osmon halqa shakliga kirdi; sening noming quyoshning uzugiga bitilgan. Sening madhingni yozish uchun men kimman?! Bu — bir zarra osmondan joy olgani bilan tengdir. Qatra o'zining qatralik darajasini bilishi kerak. U o'z borligini dengiz bilan teng tutmasligi lozim. Biror ishni bajarish kimningdir taqdirida bor ekan, unga kirishmasdan boshqa iloji yo'q. O'tga parvona o'zini devonavor urmasdan tura olmaydi-ku! Telbaning ham bolalar otgan toshdan yarador bo'lmasligining chorasi yo'q-ku.

¹ B u n a v o — «Hayrat ul-abror» dostoni ko'zda tutiladi.

² Bunda Husayn Boyqaro nazarda tutilgan.

Mening hissamga she'r yozish tushgandan buyon jonim o'sha o't, o'sha toshdan qiynalganday qiynaladi. Men u bilan shug'ullanib, na foyda ko'raman, na uni tark eta olaman. Goho xayolimga shunday fikr keladi: umrni qiynovchi bu bir qancha dag'dag'a she'r deb atalib, uni yozishdan foyda yo'qdir: uni ko'p yozish — ziyondan boshqa narsa emas. Kimki bir g'azalni chiroyli qilib yozsa, uni yor tushunadi, ta'b egasi tushunadi, xolos. She'rdagi chin boshdan-oyoq bema'nilik bo'lib, qizig'i shuki, uning yaxshisi yolg'on hisoblanadi. Kimga umrida u bilan shug'ullanish yuz bergan bo'lsa, u ming yil yashagan esada, umri zoye ketgan bo'ladi.

Juda soz bo'lardiki, faqirlik qadamini bosib, fano ko'chasida faqirlik jomini ko'tarib ichib, bu dunyo ishlariga oz mayl qilsam, u dunyoning uzun yo'lini yaxshi tutsam. U yo'lda sharbat ichishni istarkanman, yuragimning qoni menga sharbat bo'lsa, farog'at topishim uchun pul kerak ekan, tanimdagi yara-chaqalar tanga bo'lsa; ustimdagi changlar baxtiyorlik kiyimi, ikki oyog'im sayr etishim uchun yo'lovchi bo'lsa; soya uchun chodir qidirib o'ltirmasam, otimni hech qayerga bog'lamay yo'rg'alatib ketaversam; bu sayrda har bir qadamim yuz yog'ochga¹ teng bo'lsa, boshimdagi to'zg'igan sochlarim menga sharaf toji bo'lsa; yalang oyog'im ostidagi tikonlar faqirlik zanjirimga mix bo'lib xizmat qilsa; boshimga tekkan har toshdan yoriqlar paydo bo'lib, xursandchiligim boshimning o'sha joyidan chiqib tursa; qonli ko'z yoshlarimning shohona durlari barcha fano qushlariga don bo'lsa; u qushlar shu don bilan aylanishib, jismidagi ipdan unga ilinsa; g'am xanjari ko'ksimni yorib, jismim uyidan dard ahliga muqaddas joy tayyorlasa; yurgan sari oyoqlarim qabarib, qadamimga bu qabariqlardan yuzlab tiniq gavharlar sochilsa; yoki yo'l bo'ylab to'kilgan ko'z yoshlarim qonli oyog'imning tagiga dur bo'lib yopishsa; yaralarimdan oqqan qonlar qatra-qatra bo'lib, dard va halo dashtlarini lolazor qilsa; ohim o'tining uchqunlari charx urib, yaprog'ini yel sovurgan lolalarning yaprog'i o'rniga har uchquni yaprog', o'chgan qurumlari esa unga dog' bo'lsa; azob-uqubatdan jismim charchab, yo'lda bir nafas dam olishni istab qolsam, yo'l ustidagi biron tog' etagini topib, ustimga osmon etagini yopsam—da, uyquga bosh qo'ymoqchi bo'lganimda biron qoya tosh menga qattiq bolish bo'lsa—da, yer yuzidagi tuprog' to'shagim bo'lib, gavdam unga soyadek cho'zilsa; yurishdan tolgan ikkita oyog'imni Farhod bilan Majnun qo'yniga olsa, chunki qalbimda ularning ishqining yuztasi; buzilgan ko'nglumda ularnikidan ming hissa ortiq dard bo'lsa ham, men birovga buni fosh etmadim, nola chekib, visol talashmadim; ikkalasi ham bu holimni ko'rib hayron qolishsa: o'zlarining ishqidan esa xijolat bo'lishsa; ishqda ustun ekanimni tushunib, unisi ham, bunisi ham menga tan berishsa; ishq mening martabamni shunday yuksak, ishqning dardi ko'nglumni shu qadar keng qilib, yer bilan osmon menga barobar bo'lib, osmonning ochiq gulshani esa zindon bo'lib qolsa;

¹ Y o g' o c h — masofa o'lchovi --7-8 km.

himmatim shunday avjga chiqqanda, etagimni qoqsam: uning changlarini malaklar ko'zlariga surtishsa; (orzu qilganimni) ko'z bilan ko'ra olish kechasi kelganda, malaklar qushlarga aylanib qolsa; qushlar ham emas, har tomonda uchgan ko'rshapalaklarga aylansa; yulduzlar va osmon esa (oddiy) ko'knori va uning urug'lariga o'xshab qolsa, dedim-da, ibrat ko'zini keng ochdim: bor ham bir, yo'q ham; boru yo'qni teng ko'rdim. Borlik va yo'qlikdan men xuddi Sayyid Hasan Ardasherdek o'tishni istadim. Ko'nglim shunday yuksak maqomni orzu qildi. Lekin nafsga esa (bu dunyo) lazzatlari orzu bo'ldi. Himmat shodlik yeri – jannatga qarab uchib ketdi; nafs esa meni jahannam chohiga sudradi. Nafsning yuzi malaknikiga o'xshasa ham, o'zi yashirin; unda dev bilan shayton ikkalasi birlashib, juft bo'lgan. Ikkalasi juft bo'lib qo'ya qolmasdan, har nafasda o'zlaridaqalarning yuztasini tug'dirib turadi. Kimki ichdan pishgan bo'lsa, dev bilan shayton jahon ichida jahon turgandek bo'ladi. Ichida yuz makr va hiyla boshlansa, shuncha shayton va devi fitna ko'taradi. Ular menga qancha istaklarni ravo ko'rishmasin, qizig'i shuki, hammasi o'zimda bor.

Xudo haqi, ey ko'ngul, insof qil; dindan faqat nafsgina chiqarishi mumkin. Bu nafsning qo'lida men afgorman, shuncha balolarga giriftorman. Zohiran vaqtimning o'tishi yomondan-yomon; ichki ahvolim esa undan ham battar. Qayg'uli dilimni eslab yig'lar ekanman, ko'nglumning o'zi ham faryodimdan xabar olmaydi. Faraz qilaylik, ko'z yoshimdan sof dengiz yasab, ko'ksimni teshib undan kema qilsam ham, gavdam kemadek suza olmaydi. Chunki mening langarim gunoh tog'idandir. Tashqi ko'rinishimdan odamga o'xshayman; jismimning surati ham inson sifatida. Mazmunga kelganda odamgarchilikdan yiroqman. Odamgarchilik bilan mening o'rtamda ming yillik hijron bor.

Lekin sofdil odamlar bir yerga yig'ilganda esa o'zimni sham'dek ravshan va to'g'ri ko'rsataman. Ko'nglumda yuzta ilon bir-biriga chirmashib yotibdi; notinchlik shamolidan qo'zg'olon ko'tarishyapti. Men shundaymanki, «Men!» demaganim yaxshiroq; yaxshilar men – yomondan uzoq bo'lgani durust. Ichim-u tashim zulmatda; qiziqki, ko'nglum ham shuni tilaydi.

Shunday ekan, odamlardan kim meni avliyo deb, toat va ibodatga berilgan deb tushunardi? Hammalari meni g'amgin oshiq deb, ko'ngli, ko'zi esa pok deb ataydilar. Qattiq harakat qilib, yig'idan ko'zimni tiya olaman. Ammo ish ko'ngulni qo'lga olishga kelganda nima qilishim mumkin? Xudo o'zi karam qilib, bu ishlarda qo'limdan ushlamasa, oh, mening holimga yuz marta oh!

Hayotim davrini eslar ekanman, uyatga qolmaydigan bir ish qilganimni eslolmayman. Barcha ishim qalamni qora qilish, uchi bilan xat yozish bo'ldi. Qalam tilimdan ham xiraroq bo'lib, yozgan xatlarim yuzimdan ham qoraroq bo'ldi. Ikkisi ham Xudoning rahmat dengiziga tushmasa, boshqa qayerda ularning qorasi ketishi mumkin?

Ey Tangri, agar so'zim cho'zilgan bo'lsa, qilgan gunohim bundan ham ko'pdir. Bu yozganim yaxshi bo'lsa, so'roq vaqtida rahm et; yomon

bo'lsa, demak, o'zimning ham boshdan-oyog'im yomon. Yomon narsamni, rahm etib, yaxshi qil, yaxshi bo'lsa uni qabul ayla. Unga boqqan el ko'ziga ham jilva berib, uni yaxshi ko'rsat; xalqning ko'ngliga uni yoqimli et. Gunohim har qancha qavatma-qavat bo'lsa ham, sening rahmating oldida ular yo'qdaydir. Yaxshiligim kamligidan men qancha qo'rqsam, sen karam qilgin, chunki sen saxiysan.

LXIII

Oyog'i toyib ketib kosadagi oshni shohning kosadek boshiga to'kib yuborgan va olijanob shoh oldida o'z oshini pishirgan bir qul hikoyasi

Saxiy bir podshoh bor edi. Saxiyligidan xalqi uni hurmat qilar edi. Uning bir quli bor edi, xizmat darajasi bakovullik edi.

Kunlardan bir kuni uning bazmida ovqat vaqtida, podshohning ham ishtahasi yaxshi bo'lib turganda, falokat bosib, falokat uning oyog'iga tosh urdi: issiq oshni podshohning boshiga to'kib yubordi. Odamlar:

— Podshoh endi uni o'ldiradi. Gunohiga loyiq jazo shudir! — deyishdi.

Shoh esa qulning xafaligini ko'rib, kechirdi ham ozod qilib yubordi. Vazir dedi:

— Ey saxiylikda beg'araz shoh, unga tig'dan boshqa narsa loyiq emas edi-ku?

Shoh esa zavq qilib, lutf bilan dedi:

— Xijolat o'zi uni o'ldirib bo'ldi. Hech kim o'lgan o'likni boshqatdan o'ldirmagan; boshiga esa jazo tig'in tortmagan. Xalq ichida kim eng gunohkor bo'lsa, o'sha afv va inoyatga eng ko'p sazovordir.

Ey Xudo, shunday saxiy shohlarning yuz mingi eshiging yo'lagining tuprog'idirlar. Mening gunohim har qancha ko'p bo'lganda ham, shukrki, sendek mening Xudoyim bor. Xijolat torta berib, jonim qolmadi. Menga ehson qilsang o'rirlidir. Men garchi lutfu karamingga loyiq bo'lmasam ham, lekin ulardan butunlay noumid ham emasman. Menga sendan ehson so'rashni kim qo'yibdi? Ehsoning bir dengiz bo'lsa, uning bir qatrasini menga yetarli.

Shukrki, ehsoning madadkor bo'lib, daftarim o'zining oxirgi varaqlarini ham topdi. Aslida yaxshilarning hayratlanganini ko'rib, nomini «Hayrat ul-abror» deb qo'ydim. Yozilish tarixining ma'nosi chiroyli bo'lib, u sakkiz yuz sakkizinchi yil edi¹.

Kim o'qisa yoki ko'chirib yozsa, duo bilan ruhimni shod qilsa, Tangri ishini murod-maqсадiga olib borib, ruhini jannatda shod etsin!

Endi, Navoiy, shukrona mayini ich; qancha to'la bo'lsa, hammasini ich!

Ey soqiy, qadahni olib kel! Yo'q, xato qildim, to'la xumi bilan keltir! Uni men ko'p-ko'p olib, shimiray, ko'p-ko'p ichib, bir dam o'zimni unutay.

¹ Milodiy 1483-yilga to'g'ri keladi.

MUNDARIJA

Ezgulik va kamolot saboqlari. A. Qayumov	5
Hayrat ul-abror	12

BOQIY SATRLAR

Adabiy-badiiy nashr

Alisher Navoiy

HAYRAT UL-ABROR

Nasriy bayoni bilan

Nashr uchun mas'ullar:

Mizrob Bo'ronov, Nazira Jo'rayeva

Mas'ul muharrir *Vahob Rahmonov*

Muharrirlar: *Jonibek Subhon, Hikoyat Mahmudova, Komiljon Rahimov*

Musavvirlar: *Anatoliy Bobrov, Bahodir Jalolov*

Badiiy muharrir *Anatoliy Bobrov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Musahhihlar: *Fotima Ortiqova, Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda teruvchi *Zarifa Mannopova*

Kompyuterda sahifalovchi *Galina Otaskevich*

IB № 4364

Bosishga 3.01.06-y. da ruxsat etildi. Bichimi 60 × 100^{1/16}. Tayms garniturası.
Ofset bosma. 25,5 shartli bosma toboq. 26,0 nashr toboq'i. Jami 3000 nusxa.
103—2005 raqamli shartnoma. 20 raqamli buyurtma. Bahosi shartnoma
asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30. //700128.
Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.